


YOSHLAR VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
ISLOHOTLARNING MUHIM OMILI
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYASI

**MAQOLALAR
TO‘PLAMI**





**YOSHLAR VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH
– MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
ISLOHOTLARNING MUHIM OMILI**

**SUPPORTING YOUTH AND ENTREPRENEURSHIP – IS AN
IMPORTANT FACTOR IN THE REFORMS IMPLEMENTED
IN OUR COUNTRY**

**ПОДДЕРЖКА МОЛОДЕЖИ И
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА – ВАЖНЫЙ ФАКТОР
РЕАЛИЗУЕМЫХ В НАШЕЙ СТРАНЕ РЕФОРМ**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami 1-jildi



Qo‘qon – 2024

"O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya‘ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e‘tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo‘qon universiteti "Ilmiy tadqiqotlar" departamenti "Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusidagi xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plamini e‘lon qiladi.

**MAS‘UL MUHARRIR**

Zahidov G‘ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY‘ATI

Tuychiyev G‘olibjon – Qo‘qon universiteti Andijon filiali rektori;

G‘ulomov Saidahrur – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Mahmudov Nosir – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohruxbek - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

Qambarov Jamoliddin - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Najmiddinov Muhammadjon – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori;

G‘aniyeva Muborak - Qo‘qon universiteti, Ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i;

Mulaydinov Farxod – Qo‘qon universiteti, Akademik ishlar departamenti boshlig‘i;

Xursanaliyev Boburmirzo - Qo‘qon universiteti, Ilmiy tadqiqotlar departamenti boshlig‘i;

Aliev Lazizbek – Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tibbiyot fakulteti dekani

Texnik muharrirlar – Umarov Tohirjon, Solidjonov Dilyorjon – Ilmiy tadqiqotlar departamenti



"Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. Qo‘qon universiteti, 2024 yil 18 aprel, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2024.

© Matn. Mualliflar, 2024.

© Qo‘qon universiteti, 2024.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2024.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda ta‘lim sifatini tubdan yaxshilash, yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlash, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish va ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishda bugungidek xalqaro ilmiy konferensiyalarning o‘tkazilishi muhim hisoblanadi.

“Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili” mavzusidagi ushbu ilmiy-amaliy konferensiya professor-o‘qituvchilarning jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, bilim almashish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Konferensiyada ko‘tarilgan dolzarb mavzular, ilmiy, tahliliy va tugallangan fikrlar, tegishli taklif va tavsiyalar ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada salmoqli bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida tashkil etilgan 5 ta sho‘ba bugungi kunda ilmiy yo‘nalishda mavjud ilmiy-nazariy muammolarni amaliy ko‘rsatib beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, professor-o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, ma‘naviy immunitetini kuchaytirishda mana shunday xalqaro ilmiy amaliy konferensiyalarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘qon universiteti direktori

G‘afurjon Zaxidov



I SHO'BA

**BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA
IQTISODIYOT, MENEJMENT VA MOLIYAVIY
SOHALARNING O'RNI**



DARS - TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY KATALIZATORI SIFATIDA**Ganiyeva Muborak Adilovna,**

Qo‘qon universiteti

Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada dars ta'limni tashkil etishning asosiy elementi ekanligi, uni tashkil qilish haqidagi qarashlari tahlil qilingan, sinf-dars tizimi yoritib berilgan, ta'limning asosiy katalizatori ekanligi asoslangan. Dars ta'limini tashkil qilishning shakli ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Kalit so'zlar: Maktab ta'limi, dars, sinf-dars tizimi, ta'limni tashkil qilish shakllari, turkiston maktablari, dars mashg'ulotlari, yangilanayotgan pedagogik tafakkur.

Kirish:

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida katta yutuqlarga erishdi. O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muayassar bo'ldi, milliy g'ururi qayta tiklandi. Respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotiga tadbiiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Ya.A.Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi.

Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tadbiiq bo'lmadi. Ularda oktyabr to'ntarishiga qadar o'rta asr maktablariga xos talim tizimi davom etib keldi.

Bir o'qish xonasida 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashg'ulot olib borilardi. Shuningdek, bir o'qish xonasidagi (20-30) o'quvchining bilim darajasi ham turlicha bo'lar edi.

O'zbek maktabi oktyabr to'ntarishidan keyin sinf - dars tizimiga o'tdi.

VKP (b) Markaziy Komiteti 1932 yil 25 avgustda «Boshlang'ich va o'rta maktabning o'quv dasturlari va rejimi to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu qarorda «Boshlang'ich, o'rta maktabda o'quv ishini uyushtirishning asosiy shakli-ma'lum guruh o'quvchilari bilan, qat'iy mashg'ulot jadvaliga muvofiq dars olib borish lozim; bunda bir guruh o'quvchilar tarkibi sira o'zgarmasligi kerak; o'quv ishining bu shakli o'qituvchining rahbarligi ostida, butun guruhni birlashtirib ishlashi, brigadalarga bo'linib ishlash va har bir o'quvchining individual ishlashini o'z ichiga olishi; o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llanishi kerak», deb ko'rsatib qo'yildi.

Endilikda mustaqil respublikamiz ta'lim oldiga qo'ygan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil qilishning yangi shakllari yaratilmoqda.

Sinf - yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo‘lgan ma‘lum miqdordagi o‘quvchilar guruhidir.

Dars deb bevosita o‘qituvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta‘lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars - o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Dars - o‘quv ishlarining markaziy qismidir.

O‘quv yurtlarimiz bosib o‘tgan tarixiy davr ichida ta‘limni tashkil qilish shakllari o‘zgardi, rivojlandi. Hozir o‘quv yurtlarimizda qo‘llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi[1]:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo‘ladi.

2. Dars mashg‘uloti asosan 45 minutga mo‘ljallangan bo‘lib, qat‘iy jadval orqali olib boriladi.

3. Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o‘tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta‘lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Ayni paytda, o‘quv yurtlarimizda ta‘limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1. Sinf - dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulot o‘qituvchining kundalik o‘quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishini, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Dars ta‘lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta‘limning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi[1]. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta‘minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta‘lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Dars maktab ta‘limining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Dars muayyan miqdordagi doimiy o‘quvchilar tarkibi bilan qat‘iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbirdir. Dars – insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o‘quvchilarga juda qisqa vaqtda o‘rgatishning eng samarali usuli[2]. Ta‘limning dars shakli Turkistonda uzoq zamonlardan buyon qo‘llanilib kelgan. Darsni tashkil etish va uning samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining o‘rni beqiyos katta bo‘lgan.

Turkiston maktablarida ta‘limning tashqi shakliy jihatlariga emas, balki mohiyatiga ham e‘tibor berilgan. Chunonchi, o‘quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlarga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o‘qiganligiga emas, balki o‘tilgan mashg‘ulotlarni nechog‘li o‘zlashtirganliklariga tayanilgan. Turkiston maktablarida ta‘limning dars shakli bo‘lganligi bilan mashg‘ulotlarni sinfdars tizimi tarzida uyushtirish tajribasi bo‘lmagan. Shuningdek, darsning davomiyligi, predmetlarning o‘rinlashuvi, kundalik mashg‘ulotlarning

miqdori singari ta’limiy chegaralar har bir o’qituvchining uzi tomonidan belgilangan. qadimgi turkiy maorif tizimida oliy va o’rta ta’lim bo’g’inlarini ifoda etgan Madrasa ta’limida ham asosiy ish shakli hisoblangan. Madrasalarda dars belgilangan muayyan tartib asosida yushtirilgan.

Ayni vaqtda, madrasa darslarida talabalarning mustaqil o’zlash-tirishlariga katta e’tibor qaratilgan. Qadimgi ta’lim muassasalari uchun darsning jamoa va individual shakllari mavjud bo’lgan.

Dars ta’limning jamoa bo’lib amalga oshirish tarzi sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dars maktab yoshidagi bolalarni yalpi o’qitishni osonlashtiradi, ularni jamoa sifatida tarbiyalashga hissa qo’shadi, bolalarda ijtimoiy faollik va muomala madaniyatining shakllanishiga ko’maklashadi. Darsda o’quv mashg’ulotlarining individual, guruhiiy va umumsinf shakllari uyg’unlashadi[4].

Har qanday jamiyatda dars jamiyat tomonidan ta’lim oldiga qo’yilgan vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Darsning vazifalari ta’lim jarayonining qonuniyatlari va muayyan jamiyatning komil shaxs borasidagi tushunchalari bilan qat’iylashadi.

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko’ra zamonaviy Dars o’quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat’i nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishi lozim: ta’limning tarbiyaviy maqsadlarga bo’ysundirilganligi, o’quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo’naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo’nalishiga egaligi, tizimliliigi, bilimlarni ongli ravishda o’zlashtirishga qaratilganligi, amaliy axa-miyatga egaligi va h.k.

Dars bevosita o’qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o’quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o’quvchilarning mashg’ulot jarayonida o’rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Евдокимова Е.Н. (2017). УРОК И ТИПЫ УРОКОВ ВО ВСПОМОГАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ. Мировая наука, (6 (6)), 14-16.
2. Elmiraхon Mamatisoq Qizi Abdullayeva (2021). DARS, UNING TURLARI VA TUZILISHI. Scientific progress, 2 (3), 843-852.
3. Gaynazarova, G. A., & Bahronovna, I. Z. (2023). MEDIASAVODXONLIKNING YOSH AVLOD MA’NAVIYATIGA TA’SIRI. WORLD OF SCIENCE, 6(11), 123-128.
4. Olimovich, P. O. (2022). BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARIGA SIFATLI TA’LIM BERISHDA INTERFAOL METODLAR HAMDA DIDAKTIK O’YINLARNING AHAMIYATI. IJODKOR O’QITUVCHI, 2(22), 1-28.
5. Pozilov, H. I., & Maxkamov, A. Y. (2023). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILAR UCHUN JISMONIY TARBIYA MASHG ‘ULOTLARIDA SOG ‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY-METODIK IMKONIYATLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 412-416.

6. Bohodirovna, Sanginova Gulnoza, and H. Usmanova. "MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION." *Conference Zone*. 2022.
7. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.
8. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.
9. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
17. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
- 18.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SALOMATLIGINI SAQLASHDA GIMNASTIKA
MASHG‘ULOTLARI VA GIMNASTIKA ATAMALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR****Maxkamov Akmaljon Yuldashevich**

Q`oqon universiteti Ta`lim kafedrasi dosenti.(PhD)

Yuldashev Samandarbek Akmaljon o`g`li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Davolash fakulteti 3- kurs talabasi

Yuldashev Saidbek Akmaljon o`g`li

ALFRAGANUS Universiteti Stomatologiya fakulteti 1- kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada gimnastika mashg`ulotlarida va darslar jarayonida gimnastika atamalarini axamiyati va qo`yiladigan talablar atamalarini yasalishi o`z o`rnda ishlatilishi xususidagi ma`lumotlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Mashqlar spetsifikasi, harakat ko`lami (ikki qo`l bir tomonga) simmetrik va nosimmetrik bo`lishi mumkin, pirovard holat, kurbet, to`lqinsimon harakat, balandlab uzoqqa.

Kirish:

Hozirda yurtimizda olib borilayotgan islohatlarni amalda joriy qilish va aholini salomatligini saqlashga ustivor vazifa sifatada ahamiyat berilmoqda. Turli javha vakillarining faoliyati davrida jismoniy faollikni muhim hisoblanib, ko`p bilim sohalarida turli ishlab chiqarish harakat faoliyatlarida buyum-hodisa tushuncha jarayonlarini qisqacha ifodalash maqsadida maxsus atamalardan foydalaniladi. Jismoniy tarbiyada, jumladan, behad ko`p mashqlar qo`llaniladigan gimnastikada atamalar juda muhim rol o`ynaydi.

Atamalar mashg`ulotlar vaqtida o`qituvchilar bilan o`quvchilarning o`zaro munosabatlarini yengillashtiradi. Gimnastika atamaları gimnastikadan boshqa mashg`ulotlarda ham qo`llaniladi.

Gimnastika mashqlarining aniq nomini bilmasdan turib, uni o`rganish qiyin.

Gimnastika atamasi—bu gimnastika mashqlari umumiy tushunchalari, jihozlar, inventarlarning nomlarini qisqacha ifoda etish uchun qo`llaniladigan maxsus nomlar (atamalar) sistemasi, shuningdek, atamalar shartli qoidalaridir.¹

Gimnastikadan atama deganda, biron harakatlanuvchi faoliyat yoki tushunchaning qisqacha shartli nomi tushuniladi.

Boshqa sohalaridagi kabi, gimnastika atamasi ham jismoniy tarbiya taraqqiyoti bilan, jumladan gimnastika taraqqiyoti bilan bir qatorda takomillashib bordi.

Gimnastika atamasi 1938 yilda joriy etilgan. Olib borilgan ko`p izlanishlar va muhokamalar natijasi o`laroq, 1965 yilda gimnastika federatsiyasi amalga atamalarga so`nggi o`zgartirish va qo`shimchalarni kiritdi.

Atamalarga qo`yiladigan talablar

Atamalar o`z ma`nosini aniqligi va ixtisosligi bilan odatdagi leksik so`zlardan farq qiladi. So`zlar atamalarga aylangach, zarur bo`lgan bir ma`noligini anglatadi.

Atamalarga ma`lum talablar qo`yiladi:

1. Tushunarlilik, atamalar ona tili tillaridan olingan so`zlar, shuningdek, internatsional

atama-so‘zlar asosida qurilgan bo‘lib, mazkur xalq tilidagi so‘z yasash va grammatika qoidalariga to‘la mos bo‘ladi. Shundagina atamalar tushunarli, hayotiy va qoidalarga to‘la mos bo‘ladi. Shundagina atamalar tushunarli, hayotiy va barqaror bo‘ladi.

2. Aniqlilik. Atama ta‘riflanayotgan harakat (mashq) yoki tushunchaning mohiyati haqida ochiq tasavvur beradigan bo‘lishi kerak.

3. Qisqalik. Atamalar qisqa talaffuz etishga qulay bo‘lgani ma‘qul. Mashqlarga nom berish va ularni yozishni yengillashtiradigan qisqartiruv qoidalari ham shunga xizmat qilishi darkor.

Gimnastika atamalarini yasash usullari.

Atamalar yasashning eng ko‘p tarqalgan usuli – mavjud so‘zlarga yangi ma‘no berish. Masalan, ko‘prik, kirish, o‘tish, chiqish kabi so‘zlar gimnastikada ana shunday atamalardan hisoblanadi.

Ko‘pincha atamalar so‘zlarning, masalan, past-baland (bruslar), balanddan uzoqqa (sakrash) singari o‘zaro birikishidan ham yasaladi.

Osilish, tayanish, tebranish, o‘tirish va shu kabi ayrim so‘zlar atama sifatida qo‘llaniladi.

Statik holatlarni bildiradigan atamalar, masalan tayanish, bilaklarga tayanish, qo‘ltiqlarga tayanish, kurakda turish, boshda turish, qo‘llarda turish kabilar.

Tebranish mashqlarining atamaları muayyan harakatlantiruvchi faoliyat xususiyatlarini hisobga olib yasaladi.

Masalan: bilaklarga tayanib turib oldinga siltanib ko‘tarish, sakrash va sakrab tushish atamaları sport gimnastikasida gavdaning havodagi holatiga qarab belgilanadi. Masalan, oyoqlarni yig‘ib sakrash, oyoqlarni kerib sakrash. To‘ntarilish, badiiy gimnastikada gavda bilan oyoqlar holatiga qarab belgilanadi: yopiq sakrash, ochiq sakrash va hokazolar.

Gimnastika atamalarini qo‘llanish qoidalari.

Gimnastikaning sport turlari bilan shug‘ullana boshlaganlar mashqlarni o‘rganish bilan bir vaqtda atamalarni ham bilib borishlari zarur. Yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan gimnastikachilar va akrobatlar, o‘qituvchilar, trenerlar uchun atamalar alohida maxsus til bo‘lib qoladi.

Hamma atamalarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib chiqqan ma‘qul:

1. **Umumiy atamalar** – bular mashqlarning alohida guruhlarni umumiy tushunchalarini ta‘riflash uchun qo‘llaniladi.

2. **Asosiy (konkret) atamalar** – bular mashqlarni mazmun belgilarini aniq ta‘riflash imkonini beradi. Masalan, ko‘tarilish, pastga tashlanish, aylanish, burilish, osilish, sakrab tushish va boshqalar.

3. **Qo‘shimcha atamalar** – bular asosiy atamalarga aniqlik kiritadi, harakat yo‘nalishini ijro etish usulini ko‘rsatib beradi. Mashqning nomi odatda uning mohiyati ifoda etadigan asosiy atamalarni va harakatni, uning izchilligini aniqlab beradigan qo‘shimcha atamalardan iborat bo‘ladi. Zaruriyat tug‘ilganda ijro xarakterini ta‘kidlaydigan o‘qitish so‘zlari ishlatiladi (qo‘lni keskin bo‘shashtirib, mayin harakatlantiradi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish davrida gimnastika atamaları muhimligi bilan farqlanadi.

Xulosa:

Gimnastika mashg‘ulotlari jarayonida atamalarga qo‘yiladigan talablar, gimnastika atamalarini yasash usullari, gimnastika atamalarini qo‘llanish qoidalari, umumiy atamalar, asosiy (konkret) atamalar, qo‘shimcha atamalardan foydalanish samarali natija berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasuljonovna, E. Z. . (2023). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konseptining Ifodalanishi. *Miasto Przyszłości*, 40, 329–334. Retrieved from
2. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O‘RGATISH. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(18). извлечено от
3. Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziyyayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA‘LIMGA YANGICHA YONDASHUV. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (Special Issue 3), 121-125.
4. Махкамов, А. Ю. (2022). Гимнастика ва уни укутиш методикаси. *Дарслик. 2022й*, 106-161.
5. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.
6. Махкамов, А. (2023). Аралаш таълим технологиялари асосида булажак укутувчиларда соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш технологиялари. *Общество и инновации*, 4(6/S), 45-49.
7. Махкамов, А. Ю. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ БИТИРУВЧИЛАРИ УЧУН ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЙ-МЕТОДИК ИМКОНИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(9), 844-851.
8. Махкамов, А. Ю. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
9. Махкамов, А. Ю. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
10. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHY LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS”. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.
11. Махкамов, А. Ю. (2022). Соғлом Турмуш Тарзи Жамият Тараққиётининг Асосий Омили. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 249-252
12. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

13. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
14. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
15. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
16. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
17. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
18. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
19. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI XUSUSIYLASHTIRISH VA PISA TESTIGA TAYYORLASH
MASALALARI****Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**

Qo‘qon universiteti dotsenti (PhD)

Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi

Qo‘qon universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

odilovamaxliyo04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistondagi ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi, maktab ta‘limini xususiylashtirish va PISA testiga bir vaqtda tayyorgarlik ko‘rish natijasida yuzaga kelgan muammolar va imkoniyatlarga e‘tibor qaratadi. Innovatsiyalar va adolat o‘rtasidagi nozik muvozanatni o‘rganar ekan, muhokama ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, sifatni ta‘minlash va mustahkam me‘yoriy-huquqiy bazaga bo‘lgan ehtiyoj haqidagi xavotirlarni qamrab oladi. O‘zbekiston ushbu ta‘lim odisseyini kezar ekan, maqola global miqyosda raqobatbardosh ta‘lim tizimi uchun xususiy va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan nuansli yondashuv muhimligini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Xususiylashtirish, maktab ta‘limi, O‘zbekiston, PISA testi, OECD, ta‘limni o‘zgartirish, muammolar, imkoniyatlar, innovatsiyalar, tenglik, global raqobatbardoshlik, ta‘lim manzarasi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta‘lim sohasida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu maktab sektorida xususiylashtirishga e‘tibor kuchayishi bilan ajralib turdi. Mamlakat o‘z ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishga intilayotgan bir paytda, xususiy tuzilmalar integratsiyasi asosiy markazga aylandi. Ushbu maqola O‘zbekistonda maktab ta‘limini xususiylashtirish bilan bog‘liq ko‘p qirrali masalalarni o‘rganib chiqadi va o‘quvchilarni Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA) imtihoniga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarga alohida e‘tibor qaratadi.

Ta‘lim tizimini xususiylashtirish to‘g‘risidagi qaror faqat O‘zbekistonga xos emas; Dunyo mamlakatlari ta‘limni isloh qilish yo‘lida shunga o‘xshash tanlovlar bilan kurashmoqda. O‘zbekiston sharoitida esa bu siljish markazlashgan va davlat nazoratidagi ta‘lim tizimiga tarixiy tayanganligi bilan alohida e‘tiborga loyiqdir. Xususiylashtirishga o‘tish innovatsiyalardan foyda olish va foydalanish imkoniyati, tenglik va sifat bilan bog‘liq muammolarni hal qilish o‘rtasidagi nozik muvozanat bilan ajralib turadi.

Shu fonda yana bir muhim jihat paydo bo‘ladi: PISA testiga tayyorgarlik. O‘zbekiston jahon ta‘lim bosqichida o‘z o‘rnini egallashga harakat qilgan ekan, PISA baholashda ishtirok etish strategik zaruratga aylandi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan PISA testi 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiatshunoslik va o‘qish bo‘yicha malakasini baholaydi va bu ta‘lim samaradorligining qiyosiy o‘lchovini ta‘minlaydi.

Ushbu maqola O‘zbekistonda maktab ta‘limini xususiylashtirish bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni o‘rganib, ta‘lim olish imkoniyati, sifati va tenglikka ta‘sirini ko‘rib chiqadi. Bundan tashqari, u o‘z talabalarini PISA imtihoniga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishda mamlakat tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalarni o‘rganadi, xususiylashtirish harakatlari va global ta‘lim

mezonlariga erishish zarurati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritadi. Keng qamrovli tahlil orqali ushbu maqola O‘zbekistonda ta‘lim islohoti bo‘yicha olib borilayotgan muhokamaga hissa qo‘shish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta‘minlash bilan birga xususiylashtirishni boshqarishning murakkab dinamikasi haqida tushuncha berishni maqsad qilgan.

O‘zbekiston ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish yo‘lini belgilar ekan, maktablarni xususiylashtirish asosiy strategiya sifatida namoyon bo‘ladi. Maqsad aniq: tarixan markazlashtirish bilan ajralib turadigan tizimga yangilik, samaradorlik va turli pedagogik yondashuvlarni kiritish. Biroq, bu shuhratparast transformatsiya o‘zining qiyinchiliklaridan holi emas, eng avvalo, foydalanish imkoniyati va tenglikka potentsial ta‘sir.

O‘zbekistonda ta‘limni xususiylashtirish bilan bog‘liq asosiy tashvishlardan biri mavjud ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning kuchayishi xavfi hisoblanadi. Tanqidchilarning ta‘kidlashicha, xususiylashtirishga o‘tish beixtiyor ikki bosqichli tizimni yaratishi mumkin, bunda sifatli ta‘lim olish moliyaviy imkoniyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa, iqtisodiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, ta‘lim olish imkoniyatlari hamma uchun teng bo‘lishini ta‘minlash uchun hukumat mas‘uliyati haqida savollar tug‘diradi.

Bundan tashqari, xususiylashtirish korxonalarining kirib kelishi ta‘lim sifatiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan raqobat elementini keltirib chiqaradi. Raqobat innovatsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin bo‘lsa-da, u talabalarning har tomonlama rivojlanishidan ko‘ra, ro‘yxatga olish soni va moliyaviy yutuqlarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan daromadga asoslangan fikrlashni rivojlantirish xavfini tug‘diradi. Xususiylashtirishga berilgan avtonomiya va standartlashtirilgan, yuqori sifatli ta‘limga bo‘lgan ehtiyoj o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatni ta‘minlash nozik muammo bo‘lib qolmoqda.

PISA imtihoniga tayyorgarlik ko‘rish kontekstida bu muammolar qo‘shimcha ahamiyatga ega bo‘ladi. PISA imtihoni nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimlarini baholaydi, balki milliy ta‘lim tizimlarining samaradorligini baholash mezonini ham beradi. O‘zbekiston uchun PISA da ishtirok etish uning jahon miqyosidagi o‘rnini oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Biroq, xususiylashtirish natijasida yuzaga keladigan potentsial nomutanosibliklar PISA ning tengsiz ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘lishi mumkin, iqtisodiy jihatdan imtiyozli bo‘lgan talabalar o‘z tengdoshlarini ortda qoldirishi mumkin.

Boshqa tomondan, xususiylashtirish tarafdorlari bu O‘zbekiston ta‘lim tizimiga yangicha qarashlar olib kelishini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, xususiylashtirish maktablar o‘qitishning innovatsion uslublarini, zamonaviy infratuzilmani va o‘quvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga yanada sezgir yondashuvni joriy qilishi mumkin. Raqobatning kuchayishi, shuningdek, davlat maktablari uchun o‘z takliflarini oshirish uchun katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkin, natijada butun ta‘lim landshaftiga foyda keltiradi.

Eng muhimi, O‘zbekistonda xususiylashtirish bo‘yicha urinishlarning muvaffaqiyati samarali tartibga solish va nazoratga bog‘liq. Xususiylashtirish muassasalar uchun avtonomiya va milliy ta‘lim standartlariga rioya qilishni ta‘minlash o‘rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir. Hukumat ta‘limdagi nomutanosiblik xavfini kamaytiradigan, sog‘lom raqobatni rag‘batlantiradigan va barcha O‘zbekiston yoshlariga sifatli ta‘lim berish kabi asosiy maqsadni birinchi o‘ringa qo‘yadigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol rol o‘ynashi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston ta‘lim islohoti chorrahasida turgan bir paytda maktab ta‘limini xususiylashtirish ham muammolarni, ham imkoniyatlarni tug‘dirmoqda. Innovatsiyalarga intilish va ta‘lim tengligini saqlash murakkab vazifadir, ayniqsa PISA testi kabi xalqaro baholashlarga tayyorgarlik ko‘rish sharoitida. Ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish O‘zbekistonning kelajak avlodlar uchun dinamik, inklyuziv va global miqyosda raqobatbardosh ta‘lim tizimini yaratish qobiliyatini belgilaydi.

O‘zbekiston ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlarning rivojlanayotgan manzarasida maktab ta‘limini xususiylashtirish va PISA imtihoniga tayyorgarlik mamlakat ta‘lim taqdirini belgilovchi egizak ustun sifatida namoyon bo‘ldi. Mamlakat innovatsiyalar va inklyuzivlik o‘rtasida nozik muvozanatni o‘rnatishga harakat qilar ekan, bu sa‘y-harakatlarga kiritilgan qiyinchiliklar va imkoniyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda maktablarni xususiylashtirish keng ko‘lamli oqibatlarga olib keladigan paradigma o‘zgarishidir. Tarafdorlar innovatsiyalar potentsialini va takomillashtirilgan infratuzilmani qo‘llab-quvvatlasa-da, tanqidchilar ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar va ta‘lim sifatidagi potentsial murosa haqida asosli xavotirlarni bildiradilar. Mamlakat hal qiluvchi pallada turibdi, bunda u xususiylashtirishning afzalliklaridan foydalanishi, teng huquqli foydalanishni ta‘minlash va ta‘lim standartlarini saqlab qolish uchun mustahkam tartibga solish mexanizmlarini qo‘llashi kerak.

Shu bilan birga, PISA imtihoniga tayyorgarlik O‘zbekistonning ta‘lim rivoyatiga murakkablik kiritadi. PISA tomonidan taqdim etilgan xalqaro taqqoslash ta‘lim sohasidagi islohotlar samaradorligini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Biroq, xususiylashtirish sa‘y-harakatlari, ta‘lim sharoitidan qat‘i nazar, barcha talabalar uchun ta‘lim natijalarini yaxshilashga qaratilgan kengroq maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston o‘z yo‘nalishini belgilab berayotgan bir paytda, nuansli yondashuv zarur. Hukumat xususiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan tuzoqlardan himoya qiluvchi faol siyosatni qabul qilishi, xususiylashtirish va davlat institutlarining mustahkam ta‘lim tizimiga sinergik hissa qo‘shadigan muhitni yaratishi kerak. Ushbu nozik muvozanatni saqlash talabalarni nafaqat standartlashtirilgan testga, balki global raqobatbardosh dunyoning dinamik muammolariga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning maktab ta‘limini xususiylashtirish va PISA imtihoniga tayyorgarlik ko‘rish borasidagi odyssey qiyinchiliklar va imkoniyatlarga to‘la sayohatdir. Mamlakat yaxlit va global miqyosda raqobatbardosh tizim yaratish uchun ham xususiylashtirish, ham davlat ta‘limining kuchli tomonlaridan foydalangan holda o‘ziga xos yo‘lni bosib o‘tish imkoniyatiga ega. Ta‘lim landshafti rivojlanishda davom etar ekan, O‘zbekistonning sa‘y-harakatlari muvaffaqiyati uning murakkabliklarni engib o‘tish qobiliyatiga, inklyuzivlikni rivojlantirishga va har bir o‘quvchining doimiy o‘zgarib turadigan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun tayyorlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
2. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
4. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMLARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
5. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 188–193. Retrieved from
6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from
7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SAVODXONLIGINI TA‘MINLASHDA DARS MATERIALLARINI TANLASH

Z.K.Kalendarova

Qo‘qon Universiteti “Ta‘lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, malaka va ko‘nikmalari kommunikativ faoliyati namoyon bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘qitish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda IQ testlari asosida o‘quvchilarning bilimni aniqlash va ularni guruhlarga ajratish, o‘zbek va chet el olimlarining tadqiqotlaridan foydalanish haqidagi fikrlarini o‘rganib tahlil qilish, dars jarayonida yangi innovatsion metodlardan foydalanishi kerakligi va kreativlik asosida har bir fan o‘qituvchilari darsni to‘g‘ri tashkil qilinishi tahlil va natijalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Dars jarayoni, kompyuter, proektor, electron doska, internet tarmogi, o‘qituvchi, o‘quvchi, differensial yondashuv, zamonaviy-motivatsion metodlar, IQ testlari, kreativlik, darsliklar, integratsiya.



O‘quvchining kommunikativ savodxonlikka oid ko‘nikma va malakalari barcha fanlardan beriladigan ta‘lim natijasining maxsulidir. Chunki, ona tili, o‘qish, matematika, odobnoma, badiiy mehnat, musika, tabiatshunoslik darslarida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar kommunikativ faoliyat orkali namoyon buladi. Ularning fiziologik mexanizmi ikkinchi signal sistemasining reflektor tizimidir. Bu esa, inson asab tizimidagi reflektor aloqalarni tashkil qiladi. Kommunikativ ko‘nikma va malakalarning psixologik asosini tafakkur va tushuncha, mustaqil fikr bayoni - axborotlarni qabul qilish, uni ongda qayta ishlash va fikr shaklida ifodalash jarayoni, ya‘ni, jamiyatdagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo muloqot jarayoni tashkil qiladi. Bu jarayon davlat va jamiyat tomonidan shaxsning kommunikativ savodxonlik darajasiga qo‘ygan talablarini o‘zida ifodalaydi.

Kommunikativ savodxonlik tushunchasi pedagogik nuqtai nazardan shaxsni shakllantirish, uni o‘zi mavjud bo‘lgan jamiyat talab va mezonlari asosida ijtimoiylashtirish tushunchasi bilan bog‘liq. Ta‘limning mohiyati shundaki, bu jarayonda kommunikativ ko‘nikma va malakalar alohida didaktik substantsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘z tarkibida ta‘limiy va ijtimoiy axborotlarni saqlaydi. Bu axborotlar o‘quvchi tomonidan egallangan bilim asoslarini, shakllangan ko‘nikma va malakalarni, o‘quvchi axloqida rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. O‘quvchi tomonidan egallangan ko‘nikma va malakalar ular taraqqiyotining asosini belgilaydi. Pedagogik hamda psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda, kommunikativ ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi jamiyat a‘zolarining bir-birini tushunish hamda shaxslararo munosabatlarning yuqori darajalarini ta‘minlaydi.

Kommunikativ faoliyatining fiziologik asosini dinamik stereotiplar tashkil etadi. Shuning uchun xam, kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishda til ta’limining ahamiyati katta. Boshlangich sinf o‘quvchilarining kommunikativ savodxonligini ta’minlashga xizmat qiladigan dars materiallarini tanlashda kommunikativ ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga alohida didaktik substansiya sifatida qaragan holda, uning psixologik hamda fiziologik asoslariga tayanish maqsadga muvofiq.

Boshlangich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishda dars materiallari alohida o‘rin egallaydi. Hozirgi zamon darsligi o‘zida fanlarning asosiy mazmunini, o‘quvchilar bilish faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini ifodalashi lozim. Darsliklarda o‘quvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘p tarmoqli gipermatnlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Berilgan barcha didaktik materiallar o‘zining axborot berish quvvati, til xususiyatlari bilan yaxlit tarzda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ savodxonligini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Hozirgi zamon darsliklarida beriladigan didaktik materiallarni tanlashda mul’timediya yo‘nalishdagi o‘quv materiallaridan foydalanish muxim ahamiyatga ega.

Xususan, boshlang‘ich ta’limda dars materiallarini tanlashda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- dars materiallarining mazmuni tushunarli, ilmiy g‘oya va tushunchalar mohiyati aniq va ravshan bayon etilishi;
- dars materiallarini xotirada saqlashni osonlashtirish, ular ixcham chizmalar, turli tasviriy ifodalar, jadval hamda rasmlar bilan ta’minlanishi;
- dars materiallari bo‘yicha ilmiy tushunchalar, qonunlar, tarixiy hodisa va ijtimoiy jarayonlarning hayotiyliigi;
- tahliliy munosabatning yetarli darajada bo‘lishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida fikrlarning mantiqiy bayoni jarayonida o‘zaro bog‘liqlik ta’minlanishi;
- dars materiallarining bir-biriga mantiqan bog‘liqligi va ketma-ketligining saqlanishi;
- dars materiallarida mashqlarni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar berilishi, matn, illyustratsiya va grafiklar yordamida bilim olish orqali kengaytirilgan ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati bo‘lishi lozim;
- dars maqsadlari va vazifalarining aniq belgilanishi;
- nazariy va amaliy mazmunning o‘zaro maqbul va bog‘liq holda taqsimlanishi;
- mazmun juda ishonchli va salohiyat bilan yoritilishi kerakki, unda fan, texnika va texnologiyalar so‘nggi yutuqlaridan foydalanganligi ko‘rinib turishi;
- mazmun dalillardan namunalariga, namunadan-farazga, farazdan-izlanishga, izlanishdan-amaliy qo‘llashga, ilmiy bilimdan kasbiy bilimga, bilimdan - amaliy ko‘nikmaga o‘tishni ta’minlanishi;
- dars materiallarining o‘qitish texnologiyasi yoki metodikasiga mos kelishi;
- dars materiallarida atrof-muhit, ifloslanish va uni tozalashning hal qilish yo‘llari aks ettirilishi;
- topshiriqlar va loyihalar o‘quvchilarni individual yoki kichik guruhlarda ishlash imkoniyatini berish;

- tasviriy materiallardan maksimal foydalanish, dinamik jarayonlarni o‘rganishni osonlashtirish maqsadida elektron ta‘lim vositalarini qo‘shimcha material sifatida ilova qilish;
- dars materiallarida o‘quvchilarni faol bo‘lish va fikrlashga undash hamda ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiruvchi jihatlarining mavjud bo‘lishi;
- o‘quvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini tekshirishlari uchun nazorat savollari bilan ta‘minlanishi;
- kasbiy xarakterga ega bo‘lgan va o‘quvchilar mustaqil ishlashlari uchun mo‘ljallangan muammoli savollar, topshiriqlar, mashqlar bilan ta‘minlanishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining yaratilishi.

Shu bilan birga, dars materiallari alohida-alohida olinganda differentsial-informatsion hamda ta‘limiy-tarbiyaviy xarakter kasb etishi lozim. Taqdim etiladigan dars materiallari didaktik talablarga tayangan holda tanlanishi lozim. Ushbu materiallar amalda mavjud bo‘lgan boshlang‘ich sinf darsliklarining tahlili natijalariga tayangan holda tanlanadi. Bu o‘rinda taqdim etiladigan turli mavzudagi materiallar ijtimoiy-informatsion ta‘lim-tarbiyaviy qiymati nuqtai-nazaridan tasnif qilingan holda bayon etiladi. Darsliklarda didaktik qiymatga ega bo‘lgan ta‘limiy-informatsion, ijtimoiy-informatsion xarakterdagi matnlar hamda badiiy matnlar kiritilishi lozim. Dars materiallari ona-tili, o‘qish, tabiatshunoslik, odobnoma kabi fanlar bo‘yicha beriladigan dars materiallarini o‘rganish natijasida shakllanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaxkamlashga xizmat qiladi. Yangi tipdagi darsliklar birinchi navbatda katta imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim. Xuddi shunday pedagogik-psixologik imkoniyatlardan biri o‘quvchi tomonidan ta‘lim jarayonida egallangan kommunikativ ko‘nikma va malakalarni dars jarayonida tekshirish, diagnostika qilish imkoniyatidir.

Yangi tipdagi darsliklar o‘quvchilardagi o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish sari keng yo‘l ochishi lozim. Bunday darsliklar:

- birinchidan, tashkiliy-texnologik xarakterga ega bo‘lishi;
- ikkinchidan, darslikda berilgan o‘quv materiallarining o‘zaro aloqadorligi ta‘minlangan bo‘lishi;
- uchinchidan, dars materiallari, ta‘limiy topshiriqlar tarkibi jihatidan to‘la shakllangan bo‘lishi;
- to‘rtinchidan, dars materiallari o‘quvchining dinamikasi bilan bog‘liq holda berilishi;
- beshinchidan, darsliklarning tili, me‘yoriy grammatikaga o‘tkazilishi;
- oltinchidan, ta‘lim jarayonini standartlashtirish talablari bilan bog‘lik tarzda pedagogik hamda informatsion texnologiyalarni joriy etish va qo‘llash uchun qulay bo‘lishi;
- yettinchidan, ta‘lim natijalarini, ya‘ni o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini rivojlantirishni kafolatlashi, shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar berilgan ta‘limiy materiallarda anik ifodalab berilishi lozim.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini rivojlantirishda quyidagi omillarga aloxida e‘tibor berish maqsadga muvofik: o‘quvchi tomonidan egallangan kommunikativ ko‘nikma va malakalarni didaktik materiallar vositasida faollashtirish; yangi kommunikativ ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirib borish.

Bu jixatdan taqdim etiladigan dars materiallari alohida ahamiyatga ega. Ta’limiy vosita sifatida ajratilgan o‘quv materiallari moddiy borlikdagi narsa, predmet, voqea-xodisalar, tushunchalar hamda odamlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarning jamiyat va tabiat orasidagi aloqadorlikni o‘quvchilarga anglatishga, tilimizdagi qiyin so‘z va iboralarni mazmun va ifoda birligida ko‘rgazmali tarzda izohlashga asoslanadi.



Boshlang‘ich sinf darsliklariga o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini, mantiqiy tafakkurini, dunyokarashini ta’minlashga xizmat qiladigan ta’limiy materiallar tizimi taqdim qilinadi. Bu materiallarda o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlarini xisobga olgan holda ular oldiga qo‘yiladigan savollarning ko‘lami belgilanadi. Bunda o‘quvchining yoshi qanchalik kichik bo‘lsa, shuncha ko‘p savol va topshiriqlar qo‘yiladi. Bu o‘z navbatida pedagogik ahamiyatga ega, Chunki, berilayotgan dars materiali boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan kichik-kichik kislarga bo‘lib so‘ralganda, o‘quvchining o‘z fikrini aniq bayon qilish uchun qulaylik tug‘iladi.

Berilgan matndan savolga javob bo‘la oladigan kichik fragmentlarni tezkorlik bilan eslaydi. Lekin, o‘quvchilar oldiga ma’lum mavzudagi voqea-hodisalar hamda kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq savol va muammolar qo‘yishda me‘yor bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga umumlashtirish, tahlil qilishga oid malakalarni shakllantirish, ularning induktiv-deduktiv tafakkurini rivojlantirish maqsadida ularning oldiga analitik-sintetik xarakterdagi savol xamda topshiriqlar qo‘yish lozim. Ular oldiga qo‘yiladigan savol va topshiriqlar, darsliklarda beriladigan mashqlar, o‘quvchilarni fikrlashga majbur qilish lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonini sifati va samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq. Bu o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir. Ba’zi hollarda o‘quvchi uchun mo‘ljallangan ta’lim vositasi o‘qituvchi uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi lozim.

Ta’lim vositalari xususiyatlariga ko‘ra bosma, texnik va real turlariga ajratiladi. bular o‘z navbatida olti turga bo‘linadi. Ma’lumot olish va ularni qayta ishlash uchun - matnli (o‘quv dastur, maxsus darslik, ma’ruza matn, tarqatma material hamda nazorat varaqalari); umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun - tasvirli (fotosurat, chizma sxema, jadval, plakat hamda tasvirlar); jarayonlar to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun - audiovizual (videofil’m, kompakt-disk, audio kasseta, Power Point materiallari, elektron darsliklar); tasvir va matnni yozish, saqlash uchun - yordamchi (doska, pinbord doskasi, videoproektor ekrani bilan, komp’yuter, flipchat, videomagnitofon, televizorlar); o‘rganilayotgan ob’ektning modeli orqali u haqida tasavvur hosil qilish uchun - modeli (model’, maket, trenajer, mulyajlar); o‘rganilayotgan ob’ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun asbob uskuna, stanok, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar hamda xom ashyolardan foydalanish mumkin.

Nazariy darslarda o‘qituvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, amaliy mashg‘ulotlarda esa ko‘proq tasvirli va real vositalardan foydalaniladi. Quyidagi chizmalarda ta’lim vositalari berilgan:



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvarъ.104 bet.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”2017 486 bet.
3. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
4. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
5. G.Eshchanova SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION: DISTINCTIVE CHARACTERISTICS. Science and innovation, 2 (B3), 2023. 333-337. doi: 10.5281/zenodo.7764475. (2023).
6. Ikromjonovna, J. S. BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583. (2023).
7. Erاليyeva, Z. MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQUIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>. (2023).
8. Komiljonova, G. N. qizi. FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>. (2023).
9. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
10. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
11. Ganiyeva, Muborak. "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола." *Архив научных исследований* (2019).
12. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." *Архив научных исследований* (2020).
13. Ganiyeva, Muborak. "«Шахс ва жамият» фани–тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони." *Архив научных исследований* (2020).

14. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHY LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS”. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(10), 368-374.

15. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8.

16. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

17. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

18. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>

ONA TILI DARSLARIDA FIKRNI YOZMA IFODALASHGA O‘RGATISH USULLARI**Parpiyev Odil Olimovich,**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Adhamjonova Muniraxon Akmaljon qizi,

Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim 3- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun foydalaniladigan didaktik vositalar bayon qilingan. Orfografik va morfologik o‘yinlarning mohiyati yoritilib, amaliyotga tatbiq etilishi haqida misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, metodlar, og‘zaki nutq, yozma nutq, metodlar, o‘yinlar, fikrlash, nutq, boshlang‘ich sinf, fikrni yozma ifodalash.

Hozirga qadar yoshlarga ta‘lim-tarbiya berishda amaliy yordam beruvchi, bilim berish jarayonini soddalashtiruvchi bir qancha ilmiy ishlar, nomzodlik dissertatsiyalari, qo‘llanma va maqolalar yaratilganligi ma‘lum. Biroq o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berishda ularni mustaqil ravishda bilim olishga, mustaqil ishlashga qaratilgan ilmiy ishlar, ularning yozma nutqi kamchiliklari xususida olib borilgan ilmiy ishlar hozirgi vaqtda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘quvchilarni yozma nutqini rivojlantirish orqali ularni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrlashga, mustaqil tajriba o‘tkazishga, mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi hamda o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, tafakkurini kengaytiradi, lingvistik kompetensiyalarini oshiradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil ishlashga, savodli yozishga o‘rgatishning ahamiyati juda ham kattadir.

Nutq — fikr bayon qilish vositasi bo‘lib, og‘zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Tafakkur nutq yordamida ro‘y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog‘laydilar. Og‘zaki nutq pauza, urg‘u, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib yetsa, yozma nutq harf va so‘zlarning ma‘lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, gaplarni grammatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali yetib boradi.

Og‘zaki nutqning yozma nutqdan yana bir farqi shuki, og‘zaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni ko‘ramiz va o‘qiyamiz. Yozma nutq murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘p vaqt mehnat talab qiladi. Sintaktik jihatdan qaraganda yozma nutq eng to‘liq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutq og‘zaki nutq asosida rivojlanadi.

Og‘zaki nutq hayotda kishilar bilan munosabatda bo‘lish, ularga taqlid qilish yo‘li bilan rivojlanib, boladan maxsus o‘qish va o‘rganishni talab etmaydi. Yozma nutq esa harflar va belgilar yordami bilan tovushlar, so‘zlar, gaplarni ko‘z bilan idrok qilishga, qo‘l bilan yozishga mo‘ljallangan nutqdir.

DTS talabiga ko‘ra ona tili ta‘limining mazmuni:

- o‘quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirish;
- moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr-o‘ylari va his-tuyg‘ularini ona tili imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta‘limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O‘quvchining ona tili ta‘limi jarayonida egallagan

ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta‘lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi;
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mazmuniy qiymati;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik sifati.

Ko‘rinadiki, DTS talablariga ko‘ra o‘quvchilarda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini hosil qilish ona tili ta‘limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Yozma nutq og‘zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so‘zlarning o‘ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ohang, mimika va qo‘l harakatlarining bevosita qo‘llana olmasligi bilan farqlanadi.

Darslar davomida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun bir qancha o‘yin va metodlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan:

1. Orfografik o‘yinlar : “To‘g‘ri yozdim, yulduz oldim” o‘yini, “Kim ko‘p baliq tutadi?” o‘yini, “Qatorlashgan tovushlarni top” o‘yini, “Qaysi tovush yetishmaydi?” o‘yini....

2. Morfologik o‘yinlar : “Begona so‘zni top” o‘yini , “So‘zning o‘rnini top” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin.

“To‘g‘ri yozdim, yulduz oldim” o‘yini. Bu o‘yindan 1-sinf ona tili darsligining 1-qismida berilgan 14- mavzuning 4-mashqini bajarishda foydalanish mumkin. Bu mashqda ismlarda tushirib qoldirilgan X va H harflarini to‘g‘ri qo‘yib yozishlari kerak bo‘ladi.

Masalan Mu...ayyo - Muhayyo. Shu tartibda yozishadi va to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar yulduzchalar bilan rag‘batlantirib boriladi.

“Qaysi tovush yetishmayapti” o‘yini. Bu o‘yinni ham 1-sinf ona tili darsligining 1-qismida berilgan 17-mavzuning 1-mashqida qo‘llashimiz mumkin. Bu mashqda o‘quvchilarga so‘zlar beriladi va so‘zlarda 1 tadan harf tushirib qoldirilgan boladi. O‘quvchilar esa ana shu yetishmayotgan harfni topib yozishlari kerak bo‘ladi.

Masalan: 1. to... - tong

2. ...amol - shamol

3. si...qon - sichqon

Shu tartibda bu o‘yinni o‘tkazish mumkin.

“Begona so‘zni top” o‘yini. Bu o‘yinni 2-sinf ona tili darsligining 1-qismida berilgan 2-mavzuning 10-mashqida qo‘llashimiz mumkin. Bu mashqda o‘quvchilarga aralash so‘zlar beriladi, ular bir unli tovush bo‘g‘in hosil qilgan so‘zlarni topadi va ichidan bunday so‘zlarga begona bo‘lgan ikki va undan ortiq unli tovush bo‘g‘in hosil qilgan so‘zlarni ajratishadi.

Masalan, ota, anjir, igna, ona, ilik, o‘rmon, uzum, uzuk.

Shu so‘zlarning ichidan igna va o‘rmon so‘zlarini ajratishadi. Chunki ig-na va o‘r-mon so‘zlarini bo‘g‘inga ajratganimizda bo‘g‘inda 2 ta tovush boladi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma fikrni ifodalashda qulay usullarni topish va ularni amaliyotga joriy qilish samarali ekanligini o‘tkazilgan tajribalar yaqqol isbotlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.E.Toirova. Ona tili .Umumiy o‘rtata‘lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.I-qism.–Toshkent “NovdaEdutainment”, 2023-81 b.
2. U.B. Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. Ona tili. .Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. I-qism.–Toshkent “NovdaEdutainment”, 2023-80b.
3. Mirzakarimova Nurhayo Erkinboy qizi, Odil Parpiyev. (2024). Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi. *SAMARALI TA‘LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 153–159. Retrieved from <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/436>
4. Parpiyev Odil Olimovich, & Raupova Laylo Rakhimovna. (2024). Stages and Peculiarities of Increasing Written Literacy in Primary Education. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 62–64. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2061>
5. Парпиев , О. . (2024). Повышение грамотности письменной речи учащихся на уроках родного языка на основе передовых педагогических технологий. *Общество и инновации*, 5(2/S), 146–152. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp146-152>
6. Parpiyev Odil Olimovich, & Abdushuxratova Durдона Anvarovna. (2024). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yin usullari. *Yangi O‘zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 2(1), 158–161.
7. O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LIRIK SHE‘RLARNI O‘TISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH. (2024). *Ustozlar Uchun*, 53(3), 130- <http://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/294>
8. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
9. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>.
10. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
11. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. *Экономика и социум*, (2-1 (93)), 24–26.
12. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA MULTIMEDIALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 519-521.

13. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
14. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
15. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
17. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**YOSHLARNI KICHIK BIZNESGA YO‘NALTIRISHNING
PSIXOLOGIK ASOSLARI****Salaxidinova Xolida Xaliljonovna**

“Kokand University” Andijon filiali. “Ijtimoiy gumanitar va pedagogika fanlari” kafedrası
katta o‘qituvchisi. P.f.f.d. (PhD)

Quvvatova Oygul

“Kokand University” Andijon filiali “Psixologiya” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. ushbu maqolada kichik biznes, yoshlarni kichik biznesga yo‘naltirishda motiv va motivatsiya muammolari, yoshlarni kichik biznesga yo‘naltirishning psixologik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, kichik biznes, motiv, motivatsiya, psixologik asoslari, pul ishlash, farovonlik.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlarimizning samaradorligi avvalo, xalq ma‘naviyatini tiklanishi, boy tarixiy me‘rosimizni chuqur o‘rganilishi, madaniyat, san‘at, fan va ta‘lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma‘naviy jihatdan barkamol ruhiy sog‘lom insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma‘naviy fazilatlar egasi bo‘lib yetishishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘li faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishga bog‘liq ekanini hamisha yodda tutishimiz. Va farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan va ruhan sog‘lom bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur” – deb ta‘kidlagan edilar.[1.17 b]

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyodida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur” – deydi prezidentimiz Sh. Mirziyoyev. [2. 137 b]

O‘zbekiston sharoitida yoshlarni kichik biznesga yo‘naltirish ishsizlik muammosini kamaytirishning eng maqbul yechimi sifatida siyosiy ahamiyat kasb etmoqda.

Aslini olganda ham kichik biznes har qanday iqtisodiyotning, jumladan bozor iqtisodiyotining asosi hisoblanadi. Kichik biznes deganda jahon amaliyotida ishlovchilarning o‘rtacha yillik soni, mahsulot hajmi, sarmoya hajmi va shu kabi ko‘rsatkichlari ma‘lum chegaradan oshmasligi hisobga olinadi. Turli mamlakatlarda ishlovchilar soni qonunchilikda turlicha belgilangan, shunga ko‘ra korxonalar kichik, o‘rta va yirik turlarga ajratilgan. Iqtisodiy rivojlanishning sur‘atlari, iste‘mol bozoridagi muvozanat, xalq faravonligi va jamiyat a‘zolarining iqtisodiy ahvoli ko‘p jihatdan tadbirkorlikning mazkur shakllari rivojiga bog‘liq. O‘zbekistonda biznesni fan tariqasida o‘rganish faqatgina 90-yillarning boshlarida bozor munosabatlariga asta-sekin o‘tish bilan boshlandi. [3.4-b] Chunki biznesni asosini xususiy mulkchilik tashkil etar edi. «Biznes» so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so‘z bilan aytganda

kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Xorijiy adabiyotlarda biznes ta’rifini ko’p turlari mavjuddir. Insoniyat jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog’liq bo’lgan. Biznesmen (Tadbirkor) so’zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo’lib, u «Mulk egasi» degan ma’noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta’riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g’oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, - deb ta’kidlaydi. Tadbirkorni o’zi, o’z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi hamda olgan daromadiga o’zi xo’jayinlik qiladi. Xorijiy mamlakat olimlari darsliklarda biznesga sistemali ta’rif beradilar. AQShning professorlari S. Rozenblat, R. Bonnington va B.Nidlslar tomonidan tayyorlangan «Biznes konsepsiyasi» darsligida: «Biznes nima?» degan savolga ular: Biznes - bu ish yuritish sistemasidir, bu insonlarga kerak bo’lgan mahsulotlarni yaratishdir. bu ishdir. bu bizni qanday yashashimizdir kabi javoblarni bergan. Biznes - bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, hayotni o’zi, so’ngra esa pul ishlash demakdir. [3.5-b]

Yoshlarni kichik biznesni boshlashga yo’naltirish ularning psixologik ehtiyojlari va motivlarini tushunishni o’z ichiga oladi. Bu yerda e’tiborga olish kerak bo’lgan asosiy psixologik omillar:

1. **Avtonomiya va Mustaqillik:** Ko’pgina yoshlar qaror qabul qilish va o’z ishlarini nazorat qilish qobiliyatini qadrlashadi. Ularni kichik biznesni boshlashga undash ularning mustaqillik va avtonomiyaga bo’lgan xohish-istaklariga ta’sir qilishi mumkin.

2. **Tavakkalchilik:** Yoshlar tavakkal qilishga ko’proq ochiq bo’ladilar va shuning uchun tadbirkorlik safarini boshlashga ko’proq tayyor bo’lishlari mumkin. Ularga xavflarni tushunish va boshqarishga yordam berish ularning muvaffaqiyati uchun muhim bo’lishi mumkin.

3. **Maqsad:** Yoshlarni o’z ishtiyoqlari bilan bog’lash va ularga biznes g’oyasida maqsad topishga yordam berish ularning motivatsiyasi va harakatini sezilarli darajada oshiradi. Bu ularga tadbirkorlikdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

4. **Chidamlilik va matonat:** Biznesni boshlash juda qiyin bo’lishi mumkin va bu yoshlarga chidamlilik va matonatni singdirish muhim. Ularning aqliy kuchini shakllantirish va ularga qarshi kurashish strategiyasi tadbirkorlikning ko’tarilish va pasayishlarini yengishga yordam beradi.

5. **Ko’nikmalarni rivojlantirish:** Yoshlarga biznesni yuritish uchun zarur ko’nikma va bilimlarni berish orqali ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning o’ziga bo’lgan ishonchini va o’z-o’zini samaradorligini oshirishi mumkin. Bunga murabbiylik, trening va ta’lim resurslaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Ushbu psixologik omillarni tushunish va hal qilish orqali biz yoshlarni kichik biznesni boshlash yo’lida samarali yo’naltirishimiz va muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo’lgan yordamni ko’rsatishimiz muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Ma’naviyat 2008 yil.
2. Sh.Mirziyoyev. Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent 2021 yil.
3. Q.J.Mirzayev.B.SH.Musayev. Kichik biznesni boshqarish. Samarqand 2008 y.

ОЛИЙ ТАЪЛИМЛАРДА МУТОЛААНИНГ ЎРНИ

Убайдуллаева Мухайё Мирзажоновна

Kokand university Андижон филиали ахборот-кутубхона маркази бошлиғи

Аннотация: Жамиятда мутолаа маданиятининг таркиб топиши, шаклланиши ва ривожланишида ҳам умумий маданият, яъни талаба ёшларнинг ялпи ижтимоий, иктисодий, маънавий тайёргарлик даражасининг ўрни ва роли бекиёсдир.

Таянч сўзлар: китоб, мутолаа маданияти, ифодали ўқиш, мустакил мутолаа

Жамият ҳаётида эзгу кадрият ва анъаналарни чуқур қарор топтириш, хусусан, халқимиз, айниқса, ёш авлоднинг маънавий-интеллектуал салоҳияти, онг-тафаккури ва дунёқарабини юксалтириш, она Ватани ва халқига муҳаббат ва садокат туйғуси билан яшайдиган баркамол шахсни тарбиялашда бекиёс аҳамиятга эга бўлган китобхонлик маданиятини ривожлантиришда янгича бир замонавий ёндашув асосида алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Баркамол авлодни вояга етказишда китобнинг тарбиявий аҳамияти бекиёс. Бинобарин, айнан мутолаа инсонга билим ва ахборот беради, унинг маънавий оламини бойитади. Яхши китоб энг мураккаб саволларга жавоб топишда беминнат дастёрдир.

Китобхонликни оммалаштириш мақсадида кенг аҳоли ва таълим муассасаларида китоб мутолаасига жалб қилиш ва уларни китоб билан таъминлаш бўйича оммавий тадбирлар, хайрия акцияларини ташкил этиш, ижтимоий рекламалардан унумли фойдаланиш, ўзбек ҳамда жаҳон адабиётининг, таниқли муаллифларнинг мумтоз ва замонавий бадий асарларини тарғиб қилиш, ушбу соҳада жамоатчилик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш мақсадга мувофиқ.

Олий таълимларда кутубхона хизматини ривожлантириш, кутубхоналараро абиномент ва ҳужжатларни электрон етказиб беришни, кутубхона ресурсларидан масофавий фойдаланишни йўлга қўйиш, ушбу зиё масканларида индивидуал, гуруҳ ҳамда оммавий китобхонликни тизимли равишда ташкил қилишни ривожлантириш, мутолаа маданиятини тарбиялаш, юксак бадий асарларга ошно тутинтириш, мамлакатимиздаги кутубхоналар имиджини яхшилаш бўйича аниқ механизмлар тарқатиш этилапти [1].

Бу чора-тадбирлар, аввало, талабаларнинг китобхонлик маданиятини оширишга, кутубхоналарни янада бойитишга, ижтимоий аҳамиятга эга бўлган адабий асарлар сонини кўпайтириш ва сифатини яхшилаш, китоб маҳсулотлари тарқалиши ҳамда етказиб берилиши тизимини ривожлантиришга қаратилгандир.

Жамиятда китобхонликнинг ўсиши, аввало, шахснинг маънавий ва ахлоқий юксалиши омилидир. Бу эса халқимизнинг интеллектуал салоҳияти ўсишига, инсон ресурслари сифати ошишига, республикамизнинг ижтимоий-иқтисодий ҳамда инновацион тарраққиётига хизмат қилади [2,5].

Мутолаа маданияти ўз навбатида, китобга кизиқиш, ўқувчиларнинг адабиётлар билан кенгрок таништириш рағбати, китоб ва у билан ишлаш ҳақидаги махсус билимларга эга бўлиш, шунингдек, ахборот манбаларидан тўлиқ фойдаланишда кўникма ва малакага

эга бўлишни тақозо этади. Мутолаа маданияти кишининг манбани тўлақонли тушуниши, ундан эстетик завқ олиши, муаллиф фикри ва ғоясини англаши ҳамда уни баҳолай олиши каби хусусиятларга эга бўлишини таъминлайди. Китобни танлаш, уни тез ўқиш, авайлаб сақлаш, шахсий кутубхона ташкил этиш, ўқилган китобларни бошқаларга тавсия эта олиш ҳам мутолаа маданиятига киради. Демак, мутолаа маданияти инсонни бевосита амалиётга киришиш, ҳаёт билан уйғунлашиш, маънавий фойда олишга йўналтиради [3,4].

Бу борада "KOKAND UNIVERSITETI" Андижон филиали хусусий олий таълим даргоҳида фаолият олиб бораётган ахборот-кутубхона маркази ҳам талабаларнинг билим олишига кўмаклашиш мақсадида турли адабиётлар билан мунтазам таништириб бормоқдалар. Уларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш мақсадида адабий кечалар, шоир ва ёзувчилар билан учрашувлар, китоб тақдимотлари каби тадбирларнинг турли шаклларида фойдаланган ҳолда адабиётларни тарғиб қилмоқдалар. Ҳозирда жамғармамизда 3000 ортиқ турли соҳалар бўйича дарсликлар, бадиий адабиётлар мавжуд. Талабаларни мутолаага чорлаш ва бўш вақтларини мазмунли ўтказиш мақсадида китобларнинг электрон шаклининг яратилиши уларнинг сифатли билим олишини таъминлашга кўмак беради. Бобур номидаги вилоят ахборот-кутубхона маркази билан ҳамкорлик орқали талабаларни кутубхонага аъзо қилиш, кўчма кутубхоналар орқали сўралган адабиётларни талабаларга етказиш ҳам йўлга қўйилган.

Бадиий асарларнинг ўқилиши ўқувчиларни ҳеч қачон лоқайд қолдирмаслиги, уларнинг руҳиятига кириб бориб, ижобий таассурот ҳосил қилиши, бу эса асарга кизиқишни кучайтириши кўплаб тажрибалар билан далилланган.

Таълим жараёнида талаба - ёшларнинг мутолаа маданиятини шакллантириш бўйича қуйидаги тавсияларни беришимиз мумкин:

- масъул ижтимоий институтлар - оила, таълим муассасаси ва бошқалар уларнинг китобхонлик маданиятини мақсадли ва режали равишда шакллантириб, боришлари лозим;
- таълим жараёнини дарсликлар, ўқув қўлланмалари, шунингдек, талаба-ёшларнинг дунёқарабини кенгайтиришга хизмат қиладиган анъанавий ва замонавий манбалар билан таъминлашни йўлга қўйиш даркор;
- мутолаа маданиятининг негизида ахборот манбалари, яъни китоблар ва электрон маълумот базалари туришини назарда тутиб, таълим муассасасидаги кутубхоналар учун республикадаги етакчи кутубхоналарнинг фондларидан ҳамда электрон ресурсларидан фойдаланиш имкониятларини яратиш лозим [6].

Доно халқимиз таъкидлаганидек, китоб-ҳазина ва ундан олинган билим эса бойлик кабилар. Китоб мутолааси натижасида ҳар бир инсоннинг дунёқараши ривожланади, моддий борлиқни англаш имкониятлари кенгайди. Энг буюк мўъжизалардан бири инсоният ақл-заковати билан яратган китобдир. Буюк шоир ва мутафаккир Ҳазрати Алишер Навоий: "Китоб – беминнат устоз. У ҳар дақиқа бизни донишмандларнинг билим ҳазинаси билан ошно эта олади", – дея таъкидлаган.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулазизов А. Академик лицей ва касб-хунар кол-лежларида мутолаа маданиятини шакллантириш жараёнининг социологик тахлили. / Соц. фан. номзоди дисс. - Т., 2010 -25-бет.
2. 2.Фаниева Д. Ўқув жараёнида кутубхоначи ва ўқув фанлари ўқитувчиларининг Хамкорлиги. II Педагогика фан. номзоди дисс. - Т., 2008. -90-108-бетлар.
3. Ёулдошев К. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. I Педагогика фан. доктори дисс. - Т., 1997. - 256-бет.
4. Миркосимова М. Ўқувчиларда адабий тахлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. - Т. 2006. -18-б.
5. Нарзуллаев О. Китоб - миллатнинг маданий ва маънавий мероси. II muslim. uzl...I2328-kitob-millatning-madaniy-va-ma-naviy-m
6. Умаров А. Мутолаа маданияти (Китоб инсон учунми ё инсон китоб учун). II «Хаёт ва қонун» газетаси, 2004 йил, 6-сон.
7. Умаров А.А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. I Соц. фан. доктори . - Т., 2005. -240-241-бет.

**MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHDA BOLALAR NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI****Valijon Qodirov**

Kokand University Andijon filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Hozirgi zamonda globallashuv yangi pallaga kirib, uning ijobiy va salbiy tomonlari keskin namoyon bo‘lib borayotgan bir sharoitda bir tomondan dunyo miqyosida ro‘y berayotgan siyosiy ahvol, boshqa tomondan ilm, fan-texnikaning mo‘jizakor natijalarga erishayotgani dunyo har jihatdan yangi davrga qadam qo‘yayotganidan darak bermoqda. Bu o‘z navbatida har bir millat oldida zamon bilan hamqadam, davr bilan hamnafas yashash shartini ko‘ndalang qilmoqda. Aks holda intellektual raqobat ustuvor bo‘lgan davrda rivojlangan, yetakchi davlatlar soyasida qolib, ikkalamchi mamlakat maqomida qilib ketish hech gap emas. Bu esa ertangi kun istiqbolini o‘ylagan har qanday jamiyat uchun kelishib bo‘lmas bir holatdir. Ta‘lim-tarbiya mazkur muammo yechimining bosh omili sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan qabul qilingan [“2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”](#) [1] to‘rtinchi yo‘nalishida ta‘limga alohida urg‘u berilgani bejiz emas. Mamlakatimizda Maktabgacha ta‘lim vazirligining tashkil etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shu qarorga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi ham ustuvorlik maqomi berilgan ta‘limga hukumat miqyosida ayricha e‘tiborning bir ifodasidir. 2018-2019- o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta‘lim tashkilotlari yangi – “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida faoliyatlarini olib bormoqdalar. Unda maktabgacha ta‘lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta‘limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan. Bolaning har tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishida har bir kompetensiyaning o‘rni bor. Lekin nutqiy kompetensiyaning o‘rni va mavqeyi alohida ahamiyat kasb etadi desak, xato bo‘lmaydi. Chunki nutq lisoniy (til) tafakkur bilan bevosita bog‘liq, u (til tafakkuri) esa borliqni idrok etish, qabul qilish asosi sanaladi.

Til orqali rivojlangan tafakkur vositasida bolaning atrof-muhit bilan tanishish, matematik tasavvur, bilim olish, ijodiy rivojlanish va boshqa kompetensiyalari shakllanadi, tadrijiy o‘sib boradi. Lisoniy tafakkur va nutq o‘zaro ta‘sir ko‘rsatib, bir-birini sayqallab boradi. K.D. Ushinskiyning yozishicha, “Bola ona tilini o‘rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o‘rganmaydi. Balki ona tilining ona ko‘kragidan ma‘naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hech qanday tarixchi bunga qodir emas. U bolani xalq udumlari, xalq she‘riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hech bir estetika bunga qodir emas, u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, albatta, boshqa bironbir faylasuf bunga qodir emas” [2,89]. Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg‘ularni o‘stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘rinadiki, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir. Asosiysi, tarbiyalanuvchi maktab ta‘limiga tayyor bo‘la boshlaydi.

Bolani maktab hayotiga tayyorlash uning hayotida yangi bosqichga: o‘quvchi bo‘lish, maktabda o‘qish hissini shakllantirish, axloqiy sifatlarning ortishi, borliqni anglashga qiziqishining kengayishidir. Buning uchun esa uni bu yangi hayot va jarayonga moslashtirib borish talab etiladi.

Bunda, ayniqsa, o‘zaro bir-birini taqozo qiluvchi aqliy va nutqiy rivojlanishi jihatdan bolalarni maktabga tayyorlash g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqotda muhim bo‘lgan jihatlar: a) bolalarning o‘zaro aloqa nutqini o‘stirish, a) kim bilan (tengdoshi yoki kattalar bilan) gaplashayotganiga qarab muomala qilishi, d) so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi, e) so‘zlashganda fikrini aniq ifodalay olishi, f) so‘zlash tempiga rioya qilishi, g) mazmunga muvofiq ohangni yarata olishi, h) savollarga to‘g‘ri javob berishi tarbiyachi va ota-onalar e‘tibor markazida bo‘lishi kerak.

Nutq sifatini shakllantiradigan talay omillar mavjud. Biz quyida tajribalarda kuzatilgan, amaliyotda samarasi yuqori bo‘lgan uch omilga to‘xtalamiz.

1. Oila muhitida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish. Tarbiya tizimida oila beqiyos ahamiyatga va imkoniyatga ega maskan sanaladi. “Oiladagi tarbiya o‘zining chuqur emotsionalligi, intim xarakterdaligi, doimiyliigi va davomiyliigi bilan ajralib turadi” [3,64]. Bolalar dastlabki nutq malakasi va muomala madaniyatini oilada o‘rganadilar. Oila a‘zolari bolani o‘z tilini hurmat qilishga, chiroyli, ma’noli so‘zlashga o‘rgatishlari ta‘lim va tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a‘zolarining so‘zlash tarzi, malakasi va madaniyati bolaga ta‘sir etmay qolmaydi. Bolaning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamda oila hamkorligi zarur. Tarbiyachi zimmasiga bu borada katta mas‘uliyat tushadi. Chunki u tarbiya bo‘yicha mutaxassis, hayoti va faoliyatini shu ishga bag‘ishlagan pedagog va psixologdir. Ota-onalar bilan suhbatda ularning kasb-koriga, o‘zini tutishi, bola tarbiyasiga munosabatiga, nutq malakasi hamda muomala madaniyatiga e‘tibor qaratadi va shu orqali oiladagi nutqiy muhitni o‘rganadi, shunga qarab bolaga, uning ota-onasiga qanday yondashishni, ular bilan ishlash shakli va mazmunini belgilab oladi. Tarbiyachining oilalar bilan ishlash shakllari quyidagicha bo‘lishi mumkin: 1) bolalarning xulqi, ta‘lim-tarbiya olishi, nutqini rivojlantirish yuzasidan umumiy suhbatlar o‘tkazish (ota-onalar yig‘ilishi, “Onalar maktabi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish...); 2) zaruratga qarab bolalarning ota-onasi bilan alohida suhbat tashkil etish, ta‘lim-tarbiyasi, jumladan, nutq malakasi yuzasidan maslahatlar, tavsiyalar berib borish, ayrim masalalar bo‘yicha kelishib olish; 3) “Ota-onalar sizlar uchun” burchagini tashkil qilib, uni kerakli adabiyotlar, metodik jurnallar bilan ta‘minlash, ularni o‘qishga tavsiya qilib borish.

Nutq tarbiyasida ota-ona va oiladagi boshqa kattalar quyidagilarga rioya qilishlari shart: 1) bolani erkalatib sun‘iy chuchuk tilda so‘zlamalik (masalan, nonni nanna, suvni chu-chu kabi), balki har bir so‘zni aniq, tushunarli talaffuz etishlari; 2) bolaning o‘ziga bo‘lgan murojaatini diqqat bilan tinglash, savollariga jiddiyat bilan javob berish, vaqt yoki kayfiyat yo‘qligini bahona qilib, muloqotdan qochish katta xato; 3) bolaning nutqidagi kamchiliklar, so‘z qo‘llashdagi xatolarga befarq bo‘lmaslik, xatolarni tuzatishda ham jiddiyat, ham g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, bunda hech qachon jerkib, kamsitib, jazolab to‘g‘rilash yo‘lidan bormaslik; 4) bolaning oldida nutq madaniyatiga rioya qilgan holda o‘zaro muloqotda bo‘lish, muomala madaniyatiga zid holatlarga yo‘l qo‘ymaslik; 5) nutqiy muvaffaqiyatlarni rag‘batlantirib borish (*ajoyib tushuntirding, shu so‘zni joyida ishlatding, barakalla, yaxshi gapirding* kabi); 6) badiiy adabiyot, multfilm, kinofilmlarni birga o‘qib, ko‘rib, birgalikda tahlil qilish, qahramonlar nutqidagi salbiy yoki ijobiy jihatlarga ularning e‘tiborini tortish; 7) pedagog olimlar ko‘rsatmalarida aytilganidek, 4-6 yoshli bolalar so‘z zahirasi kattalar bilan muloqot jarayonida kuniga 5-10 ta yangi so‘zga ko‘payib borishi kerak.

2. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning fikrlash malakalarini rivojlantirish. Bunda bolalarning o‘zlashtirgan so‘z boyligidan to‘g‘ri foydalanish, eshitgani va ko‘rganlarini so‘zlab berish, rasmlar mazmuni bo‘yicha hikoya tuzish, nutqni aniq, to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatiladi [4,51]. Buning uchun tarbiyachi nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida quyidagilarga ahamiyat berishi lozim: 1)

bolalarning turli faoliyatlarida haqida mazmunli, ijodiy hikoya tuzish, ertak to‘qish, uni obrazli hikoya qilishga o‘rgatish; 2) bolalarga 3-4 so‘zdan iborat gap tuzish, gapni so‘zlarga ajratish, so‘zni bo‘g‘inga ajratish va so‘zdagi tovushlarni aniq talaffuz qilish, tovushdan so‘z tuzishga doir mashqlarni bajarishga o‘rgatish; 3) badiiy asarlarni ifodali, obrazli hikoya qilishga o‘rgatish, asar qahramonlarining faoliyatini baholay olish, ularning ijobiy xususiyatlarini tavsiflash va nutqni ajrata olishga o‘rgatib borish.

3. Bolalar lug‘at boyligi oshirish ustida ishlash. So‘z boyligi ko‘p bolada so‘zlash ishtiyoqi kuchli, ayni paytda nutqi ravon va sifatli bo‘ladi. Joriy dastur va davlat talablariga ko‘ra maktabga chiqayotgan bola 3 – 5 ming atrofida so‘z bilishi kerak. Ammo bu so‘zlar tarkibi o‘rganilmagan: ularning qanchasi ot, qanchasi sifat, fe‘l yoki ravish va son bo‘lishi ko‘rsatilmagan. Chunonchi, gap maktabgacha ta‘lim talablari haqida borar ekan, bugungi kunda bu masalaga jiddiy qarash vaqti keldi deb hisoblaymiz. Muammoning ayni shu tomonlariga e‘tibor qaratib tajribalar olib borgan metodist S.Abdullayevaning kuzatishlari diqqatga sazovor [5, 34-37]. U amaliyotchilar bilan birga ona tili namunaviy lug‘ati ustida ish olib borgan. Bolalarning suhbatlar, mustaqil hikoyalari, turli predmet va o‘yinchoqlarni ta‘riflashlari jarayonidagi nutqlarida ishlatgan so‘zlarini qayd etilib, alifbo harflari sirasida hisobga olib borilgan. Alifbodagi har bir harf guruhiga 40-50 tadan so‘z jamlanganda bolalar jamlagan so‘z zahirasi tahlil qilingan. Aniqlanishicha, ularning aksariyati ot va fe‘l turkumiga kiruvchi so‘zlar bo‘lgan. Metodist S.Abdullayeva tajribalarini yaxlit umumlashtirib, ilmiy-amaliy xulosalamagam bo‘lsa-da, biz undan o‘zimizga shunday xulosalarni chiqarib olishimiz mumkin: ot va fe‘l turkumidagi so‘zlar bola (umuman inson)lar uchun ehtiyoj sababli tug‘ilgan fikrni uzatish uchun zarur kommunikatsiya asosi bo‘lsa, qolgan turkumdagi (sifat, son, ravish va boshqalar) so‘zlar fikrni to‘liqroq ifodalash, uni “bezash”, o‘zi his qilib turgan modal munosabatlarni bildirish vositasi bo‘ladi. Demak, bog‘chada ham, oilada ham bolaning leksik zahirasida ot va fe‘ldan boshqa so‘zlarning miqdoriga ham jiddiy e‘tibor qaratilishi kerak.

Ayni paytda o‘zlashtirilgan leksik birliklarning faol yoki nafaol qo‘llanayotganiga ham diqqat qilinadi. So‘zlarga vaqti-vaqti bilan murojaat qilinib faollashtirilib borilmas ekan, bola ularni unutadi yoki ma‘nosini chalkashtiradi. Tarbiyachilar mashg‘ulot, o‘yin va sayr davomida bolalar nutqini diqqat bilan tinglab, ular tomonidan o‘zlashtirilgan so‘zlarni faollashtirishiga erishishi lozim. Ayniqsa, badiiy adabiyot namunalarini o‘qish, yodlatish, qayta so‘zlatish bilan bog‘liq mashg‘ulotlarga tarbiyachi jiddiy yondashishi lozim, negaki ular vositasida bolalarga yangi so‘zlar tanishtiriladi, ma‘nosi tushuntiriladi, takrorlatish orqali nutqda faollashtiriladi. Shu tariqa lug‘at hajmi tobora kengayib, belgilangan me‘yorlarga yaqinlashtiriladi. Lug‘atni shakillantirishda bolaning hayotiy tajribasidan kelib chiqib, tevarak-atrof muhiti, tabiat va uy-ro‘zgor buyumlarining nomlarini bildiruvchi ismlar, keyin ularning harakat yoki holati, so‘ngra belgi, miqdor, hajm kabi ma‘nolarni anglatuvchi so‘zlar qo‘shib boriladi. Albatta, multfilm, kino, televidiniya ta‘sirida bolalar nutqi va lug‘atga kirib kelayotgan zamonaviy so‘zlarni ham unutmaslik lozim. Lug‘at ustida olib borilayotgan ishlar jarayonida bolalar nutqining sof adabiy til shakliga muvofiqligi, nutqqa begona so‘zlar aralashmaganligi ham nazorat ostida bo‘lishi darkor.

Bolalarning nutqini shakillantirishda lug‘at ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etib, 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligi me‘yorlarining ishlab chiqilishi va unga erishish maktabdagi ta‘limga tayorgarlik sifatini ta‘minlashi, boshlang‘ich sinflardagi “Nutq o‘stirish va savodga o‘rgatish” dasturini puxta o‘zlashtirishlariga mustahkam zamin yaratishi muqarrardir. Bu qayd qilinganlarning barchasi bolani o‘qish va yozishga ham tayyorlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolani o‘qish va yozishga tayyorlash maktabgacha ta’lim bosqichining muhim vazifalaridan sanaladi. Umumta’lim maktabining birinchi sinf dasturi maktabga birorta harfni ham bilmadan kelgan bolalarga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, ota-onalar farzandlarining maktab ostonasiga o‘qishni va yaxshi yozishni o‘rganib qadam qo‘yishlarini xohlashadi. Ular buni qo‘llab quvvatlashadi, chunki bolaning o‘qishi ravon bo‘lmaguncha, unga boshqa darsliklardagi, ya’ni matematikada, atrof-dagi olam bilan tanishtirish va boshqa shu kabi fanlardagi vazifalarni o‘qish va tushunish qiyinchilik qiladi.

Afsuski, 6-7 yoshdagi bolalarning imkoniyatlari haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmaganlar maktabgacha ta’limda bolalarni savodga o‘rgatishni qanday amalga oshirayotganligini kuzatish mumkin. Bunday "bo‘ljak pedagoglar" yordamida bola so‘zlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan holda, so‘zning qanday tovushlardan tashkil topganini ham bilmadan, o‘qishni o‘zlashtira boshlaydi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning qobiliyatlari hisobga olinmagan holda berilgan "uy vazifasi" bolalarni bo‘ljak mashg‘ulotda aql bovar qilmaydigan qiyinchiliklarga olib keladi. Bunday mashg‘ulotlardan so‘ng ular maktabdagi o‘quv jarayoniga salbiy munosabat bilan kelishadi. Aslida, maktab ular uchun quvonch va yangi his-tuyg‘ular manbai bo‘lishi kerak. Demak, nutq o‘stirish jarayoni bola uchun o‘zligini anglash, atrof-muhitni o‘zlashtirish, jamiyatga kirib borish va unga to‘laqonli a‘zo bo‘lish, maktab ta’limiga tayyor bo‘lishda o‘qish va yozishni egallashda dastlabki ko‘nikmalarini egallash omili bo‘lib xizmat qiladi. Zero, "Bola tafakkuriga kuchli ta'sir etadigan kuch – bu nutq omili. Fikrini ravon ifodalash ko‘nikmasi ortgan sari bolaning mustaqil fikrlash qobiliyati ham o‘sib boradi" [6,177].

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan qabul qilingan "[2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi](https://lex.uz/uz/docs/-5841063) to‘g‘risida"di Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
2. Ushinskiy K.D. Tanlangan asarlar. T.: O‘quv peddavnashr.1959. 89-6.
3. Карелина И.О. **Дошкольная педагогика: курс лекций:** учебно-методическое пособие. - Рыбинск: филиал ЯГПУ, 2012.
4. Набиева С., Абдурахмонова М. Болаларни мактабга тайёрлашнинг таълимий асослари.//Таълим самарадорлигини оширишнинг назарий-амалий асослари. Илмий-услубий тўплам. Т.: "ФАН", 2007.
5. Abdullayeva S. 6-7 yoshli bolalarning so‘z boyligini aniqlash meyorlari. //“Til ta’limi bosqichlarida uzviylikni ta’minlashning ilmiy-amaliy muammolari” mavzusidagi O‘zbek tili doimiy X anjumanining materiallari, Andijon, 2009-yil 16-17-aprel. Toshkent: 2009.
6. Қодиров В. А. Мактабгача ёшда бўлган болаларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг педагогик ва психологик омиллари. Innovative developments and research in education: a collection scientific works of the International scientific online conference (23th September , 2022) – Canada, Ottawa : "CESS", 2022. Part 9. P.175-180.

**MADANIYATLARARO NOVERBAL MULOQOTDA TEXNOLOGIYALARNING ROLI: ONLAYN
PLATFORMALAR VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI****Abdukaxxorova Nargiza Rustamovna**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada texnologiya va madaniyatlararo noverbal muloqot o‘rtasidagi murakkab kesishuvni o‘rganilib, raqamli asrda odamlarning o‘zaro ta‘sirining rivojlanayotgan manzarasi tahlil etildi. Turli madaniy matnlarda noverbal jihatlarni ifodalash va talqin qilishda onlayn platformalar va kommunikatsiya texnologiyalarining ta‘siri o‘rganildi. Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishda texnologiya taqdim etayotgan imkoniyatlar haqida tushunchalar berib o‘tiladi. Bundan tashqari, ma‘lum onlayn platformalar va aloqa vositalarining madaniy anglashni qanday osonlashtirishi, foydalanuvchilarga og‘zaki bo‘lmagan muloqot uslublarni turli madaniy me‘yorlarga moslashtirish vositalarini taqdim etishi haqidagi fikrlar misollar orqali yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo aloqa, og‘zaki bo‘lmagan muloqot, aloqa sohasida texnologiya, onlayn platformalar, aloqa texnologiyalari, madaniyatlararo muloqot, globallashtirish, virtual aloqa, raqamli aloqa, ijtimoiy tarmoqlar, multikulturalizm, shaxslararo muloqot, madaniy moslashuv, onlayn hamkorlik

Zamonaviy globallashtirish dunyoda aloqalar turli madaniy kelib chiqishiga ega bo‘lgan shaxslarni bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatlarning o‘zaro bog‘lanishi kuchayib borar ekan, samarali madaniyatlararo muloqotga bo‘lgan ehtiyoj yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Og‘zaki muloqot muhim tarkibiy qism bo‘lsa-da, og‘zaki bo‘lmagan muloqot ham turli madaniyatlarga mansub odamlar o‘rtasida xabarlar va tushunishni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya turli onlayn platformalar va kommunikatsiya texnologiyalari orqali madaniyatlararo noverbal muloqot jarayonini qayta shakllantirgan kuchli yordamchi sifatida paydo bo‘ldi.

Globallashtirish va madaniyatlararo muloqot:

Globallashtirish hodisasi misli ko‘rilmagan g‘oyalar, ma‘lumotlar va odamlarning chegaralar o‘rtasida munosabatlar almashinuviga olib keladi. Jismoniy shaxslar va korxonalar global miqyosda o‘zaro aloqada bo‘lganligi sababli, turli xil madaniy me‘yorlar va belgilarni boshqarish qobiliyati muhim bo‘lib qolmoqda. Madaniyatlararo muloqot faqat til bilimi bilan bog‘liq emas; u ko‘pincha madaniyatlar orasida turlicha bo‘lgan og‘zaki bo‘lmagan belgilarning nozik tushunchalarini o‘z ichiga oladi.

Og‘zaki bo‘lmagan muloqotning ahamiyati:

Og‘zaki bo‘lmagan muloqotga imo-ishoralar, yuz ifodalari, jism tili va og‘zaki xabarlarini to‘ldiradigan boshqa vizual va eshitish belgilari kiradi. Ko‘pgina madaniyatlarda bu og‘zaki bo‘lmagan elementlar og‘zaki so‘zlarga qaraganda ko‘proq ahamiyatga ega. Texnologiya bu og‘zaki bo‘lmagan signallarni qo‘lga kiritish va yetkazishda, jismoniy masofalar va madaniy tafovutlardan kelib chiqadigan muammolarni yumshatishda yordam beradi.

Madaniyatlararo bog‘liqlikda onlayn platformalar:

Ijtimoiy tarmoqlardan tortib videokonferensiya aloqa vositalarigacha bo‘lgan onlayn platformalar madaniyatlararo muloqotni osonlashtirishi keng tarqalgan. Ushbu platformalar hududiy chegaralardan oshib, odamlarga dunyoning turli burchaklaridan kelgan hamkasblari bilan real vaqt rejimida suhbatlashish imkonini beradi. Video qo‘ng‘iroqlar va virtual uchrashuvlar orqali foydalanuvchilar og‘zaki bo‘lmagan signallarni kuzatishi va izohlashi mumkin, bu esa madaniy holatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Aloqa texnologiyalari va madaniyatlararo hamkorlik:

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) kabi aloqa texnologiyalaridagi yutuqlar madaniyatlararo o‘zaro aloqalarni yanada boyitadi. Ushbu texnologiyalar odamlarga real dunyo holatlariga taqlid qiladigan simulyatsiya qilingan muhitda qatnashish imkonini beruvchi immersiv tajribalarni taqdim etadi. Bu nafaqat madaniyatlararo tushunishni kuchaytiradi, balki foydalanuvchilarga boshqariladigan va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda notanish og‘zaki bo‘lmagan signallarga moslashishga imkon beradi.

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar:

Ko‘pgina qiyinchiliklarga qaramay, madaniyatlararo og‘zaki bo‘lmagan muloqotda texnologiyaning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalarga kirish, raqamli savodxonlik va virtual muhitda signallarni noto‘g‘ri talqin qilish potentsialiga oid masalalarni hal qilish kerak. Biroq, oqilona foydalanilganda, texnologiya madaniyatlararo hamkorlik uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, bu esa yanada o‘zaro bog‘langan va inklyuziv global hamjamiyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Madaniyatlararo noverbal muloqotda texnologiyaning roli doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, erishib kelinayotgan yutuqlar madaniy bo‘shliqlarni bartaraf etishning yanada murakkab vositalarini taqdim etishi mumkin. Global o‘zaro ta’sirlarning murakkab tarmog‘ida harakatlanar ekanmiz, texnologiya imkoniyatlarini tushunish va undan foydalanish madaniyatlar o‘rtasida mazmunli aloqalarni o‘rnatish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Maqolada texnologiyaning madaniyatlararo noverbal muloqotdagi rolining hozirgi manzarasini o‘rganib, uning muammolari, imkoniyatlari va madaniy jihatdan xabardor va o‘zaro bog‘langan dunyoni shakllantirish potentsialiga oydinlik kiritishga harakat qildik.

Madaniyatlararo noverbal muloqot sohasida onlayn platformalar va kommunikatsiya texnologiyalariga tobora ortib borayotgan bog‘liqlik jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. An’anaviy yuzma-yuz muloqotlar yuz ifodalari, imo-ishoralar va tana tili kabi noverbal belgilarga boy bo‘lib, ular madaniy nuanslarni tushunish va yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, raqamli aloqa platformalariga o‘tish ushbu muhim og‘zaki bo‘lmagan signallarni to‘g‘ri talqin qilish va uzatish qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Natijada, noto‘g‘ri muloqot va madaniy tushunmovchiliklar ko‘proq tarqalib, virtual makonda samarali madaniyatlararo o‘zaro ta’sirlarga to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu muammoni hal qilish uchun texnologiya va madaniy sezgirlikni birlashtiradigan kompleks yondashuv zarur. Birinchi navbatda, noverbal signallarni yanada samaraliroq ushlay oladigan va yetkaza oladigan ilg‘or kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu virtual haqiqat (VR) yoki kengaytirilgan haqiqat (AR) xususiyatlarini mavjud aloqa

platformalariga kiritishni o‘z ichiga olishi mumkin, bu foydalanuvchilarga yanada chuqurroq va hayotiy shovqinni boshdan kechirish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli sohada foydalanuvchilarning madaniy xabardorligi va malakasini oshirish uchun ta‘lim tashabbuslarini yo‘lga qo‘yish kerak. O‘quv dasturlari odamlarni turli madaniyatlar bo‘ylab og‘zaki bo‘lmagan muloqot normalari va amaliyotlari bo‘yicha o‘rgatish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin, bu ularga onlayn o‘zaro ta‘sirlarda bu farqlarni osonroq boshqarish imkonini beradi.

Texnologiya ishlab chiquvchilari va madaniy ekspertlar o‘rtasidagi hamkorlik juda muhimdir. Ko‘p tarmoqli jamoalar kommunikatsiya texnologiyalarining dizayni va funktsionalligi madaniy talablarga mos kelishini ta‘minlash uchun birgalikda ishlashi mumkin, bu esa yanada inklyuziv va samarali madaniyatlararo muloqot tajribasini qo‘llab-quvvatlaydi. Madaniyatlararo og‘zaki bo‘lmagan muloqotda texnologiyaning rolini texnologik yutuqlar, ta‘lim harakatlari va fanlararo hamkorlik kombinatsiyasi orqali optimallashtirish mumkin. Mavjud cheklovlarni bartaraf etish va raqamli makonda madaniy kompetentsiyani rag‘batlantirish orqali biz onlayn madaniyatlararo yanada muvaffaqiyatli va mazmunli o‘zaro munosabatlarga yo‘l ochishimiz mumkin.

Demak, madaniyatlararo noverbal muloqotning dinamik landshaftiga texnologiyaning paydo bo‘lishi va tarqalishi, xususan, onlayn platformalar va aloqa texnologiyalari orqali sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Biz o‘zaro bog‘langan dunyoda harakatlanar ekanmiz, bu vositalar nafaqat madaniyatlararo ta‘sirlarni osonlashtirdi, balki bizning e‘tiborimizni va moslashishimizni talab qiladigan noyob muammolarni ham keltirib chiqardi.

Madaniyatlararo noverbal muloqotda texnologiyaning ijobiy tomonlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Onlayn platformalar geografik bo‘shliqlarni bartaraf etadi, bu esa turli xil odamlarga real vaqt rejimida o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini beradi. Video qo‘ng‘iroqlar, lahzali xabar almashish va hamkorlik vositalari an‘anaviy to‘siqlarni yengib o‘tish va turli madaniyatlarga mansub odamlar o‘rtasida tushunishni rivojlantirishga boy muloqot tajribasiga imkon berdi.

11. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>
12. [Sanginova Gulnoza Bohodirovna, & H. Usmanova. \(2022\). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. Conference Zone, 197–199. Retrieved from https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/181](https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/181)
13. Nigoraxon A., Mohlaroy A. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – С. 83-87.
14. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.
15. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 37-42.
16. Ganiyeva, Muborak. "Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари." *Архив научных исследований* (2020).
17. Ganiyeva, M. (2020). Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари. *Архив научных исследований*.

18. Ganiyeva, Muborak. "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола." *Архив научных исследований* (2019).
19. Ganiyeva, M. (2019). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола. *Архив научных исследований*.
20. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." *Архив научных исследований* (2020).
21. Ganiyeva, M. (2020). Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение». *Архив научных исследований*.
22. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHY LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS". *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.
23. Махкамов, А. (2023). Аралаш таълим технологиялари асосида булажак уқитувчиларда соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш технологиялари. *Общество и инновации*, 4(6/S), 45-49.
24. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
25. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
26. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
27. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
28. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
29. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL VA KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH**Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi,

Fayzullaxo‘jaeva Mubinaxon Xamidjon qizi

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 8-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlash va idrok etishi orqali ularning tafakkur jarayonini shakllantirish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish haqida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kreativ, boshlang‘ich sinf, qobiliyat, bolalarning fikrlashi, faoliyat, suhbat, ta‘lim, pedagog, falsafa, formal, kibernetik, psixologiya, fiziologiya,

Mustaqillikka qadar bo‘lgan pedagogikada ta‘lim-tarbiya jarayonini osonlashtirish, o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini imkon qadar engillatishga harakat qilindi. Bu bolaning zimmasiga tushadigan mehnatning kamroq bo‘lishiga qaratilgan usul edi. Lekin davrlar o‘tishi bilan engillashtirilgan ta‘limning asosiy usuli bo‘lmish ko‘rgazmalilikda ham salbiy tomonlar ko‘rina boshladi. Ko‘rgazmalilik tamoyilida ta‘limdan, birinchi navbatda, o‘quvchining mustaqil fikrlashiga bog‘liq qiyinchiliklar quvib chiqarildi. Bu ta‘limda bolaga taqdim etiladigan hamma bilimlar oldin tajribadan o‘tgan, o‘zlashtirilishi oson, o‘quvchiga ko‘rsatish va tayyor holda etkazish qulay bo‘lishi kerak edi. Bunday talab, eng avvalo, yaxshigina jihozlangan va katta tashqi imkoniyatlarga ega bo‘lgan maktablarda ta‘lim-tarbiyaning ijrochilari bo‘lmish shaxs o‘rtasidagi bevosita munosabatni to‘siq qo‘ydi. Bugungi o‘qituvchilarga ta‘lim-tarbiya jarayonining har bosqichida hikoya, suhbat, ma‘ruzalar qildirish, muammoli mashqlar bajartirish, mehnat topshiriqlari, ta‘lim beruvchi o‘yinlar, o‘quv-munozaralari, ta‘lim jarayonidagi rag‘batlantirish va tanbeh berish, o‘quv materialini muammoli tarzda o‘rgatish, muammoli suhbat, tadqiqotlar, induktiv va deduktiv muhokamalar, kitob bilan mustaqil ishlash, ta‘limda zamonaviy mashinalardan foydalanish, og‘zaki so‘rov, yozma ishlar, ijod, dasturlashtirilgan ta‘lim, mustaqil nazorat ishlari singari usullar u yoki bu darajada tushunarli. Lekin bugungi pedagogika nafaqat etuk, bilimli mutaxassis, balki sog‘lom ma‘naviyatli shaxs, barkamol inson shakllantirishni talab qilmoqda. Buning uchun o‘qituvchilarga komil insonni tarbiyalash yo‘llarini o‘rgatish, ularni shunday maqsad uchun zarur bo‘lgan metodik qo‘llanmalar, pedagogik ashyolar bilan ta‘minlash zarur. Sog‘lom ma‘naviyatli shaxsni shakllantirishning asosi bo‘lgan mustaqil fikrni rivojlantirish haqida gapirilganda, bevosita adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchining fikrlarini uyg‘otish, o‘quv ishlariga faol qatnashishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o‘quvchining faolligini butun dars davomida ushlab turish, axloqiy-ma‘naviy masalalarni hal etishda o‘quvchi tafakkurini ma‘lum maqsad sari yo‘naltirish, uning aqliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, bolani mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga rag‘batlantirish nazarda tutiladi.¹

Mustaqil fikrning mavjudligi va rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning erkinlik darajasiga bog‘liq. Mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quvchilarning

¹ ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA TA‘LIM METODLARINING O‘RNI Bozorova Dilnur Ravub qizi. Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 8) Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

individual va jomoaviy darajada erkinligiga erishish zarur. Chunki mustaqil fikrlash shaxsning hislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori kursatkichni ta‘minlaydigan muhim omillardan biri bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va inikosidir. Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan xolda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Falsafa materiya bilan bog‘liqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yo‘llari va imkoniyatlarini o‘rganadi. Formal mantik fikrlashning asosiy shakllari (tushuncha, xukm, xulosa)ga etibor qaratadi. Fikrlashga oid tadqiqotlarning sotsiologik jihati turli jamiyatlarning ijtimony tuzilishi bilan bog‘liqlikda fikrlashning tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish bilan tavsiflanadi. Fiziologiya esa, fikrlash xodisasini aniqlashtiruvchi aqliy mexanizmlarni o‘rganadi. Kibernetika esa, insonning fikrlashiga faoliyatda muhrlanadigan axborot jarayoni sifatida qaraydi. Psixologiya fikrlashni bilish faoliyati sifati o‘rganadi hamda foydalanilayotgan vositalarnang xarakteri va umumlashgan darajasiga, sub‘ekt uchun yangiligiga bog‘liqlikda fikrlashning turlarini differensiyalaydi.²

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi maktabga kelganda, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob‘ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so‘z boyligi va tilining umumiy o‘shida katta ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog‘lab olib boriladi. Masalan: 1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko‘ylak, kostyum) va oyoq kiyimlar (botinka, tuflar); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «Bu nima?» so‘rog‘iga javob berishga o‘rgatiladi: Bu nima? - Avtobus. Avtobus nima? Mashina. 2. Bir turdagi narsalarni sanab ko‘rsatish va umumlashtiruvchi bir so‘z bilan nomlash. Masalan, stol, stul, shkaf larni bir so‘z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebel) 3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, qalam, pero, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, stul ko‘rsatiladi, o‘quvchilar o‘quv qurollarini ajratadilar, stul o‘quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar. Bunday mashq o‘yin tariqasida o‘tkazilishi ham mumkin: ma‘lum so‘zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldirg‘och, chumchuq, mushuk, musicha. 4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so‘zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so‘zlar choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi. O‘quvchilar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ... kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so‘zlar ham aralash beriladi, bolalar to‘rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar. 5. Qarama-qarshi qo‘yish bilan umumlashtirish: qaldirg‘och, chumchuq, bulbul – qushlar, tovuq, xo‘roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.) Mazkur mashqlar sarmazmun bo‘lishi, o‘quvchilarning tajribasi bilan bog‘lanishi, ularni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishiga xizmat qilishi

² MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH METODLARI. 1Gaffarov Yarash Xollievich, 2Alisher Nigmatov Xayrulla o‘g‘li 1Chirchiq davlat pedagogika universiteti t.f.n. professor, 2Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.10159351>

lozim. Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi: 1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o‘quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: «Quyoshli kunda», «Bizning uy» yoki «Quyvon va tipratikan» kabi. 2. Narsa rasmi yoki syujetli rasm beriladi, o‘quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar. 3. Ikki-uchta «tayanch» so‘z beriladi, o‘quvchilar shu so‘zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so‘z sifatida bolalarning faol lug‘atiga aylantirish zarur bo‘lgan so‘zlar olinadi.³

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq. Kreativlik (lot, ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- bolalarning qiziqishlariga e‘tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta‘sir qiluvchi muhim omillardan biri o‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e‘tibor qaratildi. Ma‘lumki, ta‘lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchi ta‘lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi, ta‘lim maqsadlarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va ta‘lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta‘lim jarayoni o‘qituvchining to‘liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto‘g‘ri fikrning tug‘ilishiga asos bo‘la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo‘ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o‘zlashtirishga oid mexanizmga bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o‘quv

³ BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSALARIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI MASHQLAR Ahmedova Dilrabo Rahmatovna Farg‘ona shahar 7-o‘rta talim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

vaziyati ta’lim jarayonini tashkil qiluvchi o’zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat: - o’qituvchi bilan o’quvchilar hamkorligi; - o’quvchilarning o’zaro bir-birlari bilan hamkorligi.⁴

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, zamonaviy metodlar , o’qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o’quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, mustaqil va kreativ fikrlashni shakllantirishga yordam beradi ..Boshlang’ich sinflarda kreativ fikrlashga o’rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to’g’ri fikrlash usullarini o’rgatadi. Mustaqil fikrlashga o’rgatuvchi mashqlar bolalarning so’z boyligi va tilining umumiy o’sishida katta ahamiyatga ega bo’lib, lug’at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog’lab olib borilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
2. Abduraxmonova, N. A. qizi. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA". *Educational Research in Universal Sciences*, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
3. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.
4. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.
5. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
6. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
7. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.

⁴ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 1506 www.ares.uz BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING ROLI Gulnora Abduraxmonovna Yusufaliyeva Guliston davlat universiteti o‘‘qituvchisi Noila Nasim qizi Abduraxmonova Guliston davlat universiteti o‘‘qituvchisi noilaabduraxmonova920@gmail.com Aziza Mirzabek qizi To‘rabekova Guliston davlat universiteti o‘‘qituvchisi

8. Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). IS‘HOQXON TO‘RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOIIY-FALSAFIY NAZAR. Interpretation and researches.
9. Исақова, З., & Абдуллахўжаев, А. (2023). ИСҲОҚХОН ТўРА ИБРАТ-МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. IQRO INDEXING, 1(1), 41-71.
10. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
11. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199). Bohodirovna, Sanginova Gulnoza, and H. Usmanova. "MODEL OF INNOVATIVE
12. Rahmatovna, J. R. A., & Athambojevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652. STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION." *Conference Zone*. 2022.
13. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." *Т.: ТДИУ* 95 (2013).
14. Ганиева, М. А., & Файзуллаева, Д. М. (2013). Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан. *Т.: ТДИУ*, 95.
15. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 245–248. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5514>
16. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 37-42.
17. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. *Экономика и социум*, (2-1 (93)), 24-26.
18. Davlatova , S. T., & Abdullayeva, F. S. qizi. (2023). BOLALARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 819–823. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5105>
19. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
20. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

**TA'LIMNING KREDIT-MODUL TIZIMIDA BAKALAVIRLARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI****Abduraxmonova Nigoraxon Akramovna**

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi,

Alijonova Mohlaroy To'lqinjon qizi

Qo'qon Universiteti, |Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit-modul tizimida bakalavirlarning mustaqil faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish yo'llari asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim-muvaffaqiyatli bajarilganda talabalarning mustaqilliklarini tarbiyalab borishi haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, kredit- modul, mustaqil ta'lim, bakalavir, guruh.

Ta'limning kredit-modul tizimida bakalvirning mustaqil faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish yo'llari asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim-muvaffaqiyatli bajarilganda talabalarning mustaqilliklarini tarbiyalab boriladi. Talabalarga mustaqil ta'limni masala ko'rinishida taklif etish, aniq muammoli vaziyatlarda shartlarni izlash yoki ifoda etish jarayonida sub'ektlar tomonidan tashkil etuvchi faoliyatini go'yoki talabalar o'rniga o'qituvchi bajargandek bo'ladi. Agarda o'qituvchi tomonidan beriladigan ta'limiy mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talaba yechim yo'lini topa olmasa, u holda aniq vaziyatga duch kelib ushbu mustaqil ishni yechimini izlashga imkon beruvchi holga aylantira olmaydi.

Mustaqil bilim olishda ko'proq shartlari ifoda etilmagan topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladi. Mustaqil ta'lim asosida sub'ekt shartlarni o'zgartirishi qonunlari bilan tanishadi, aniq bir muammoni tahlil qilish va mustaqil ishini bajarishda mavjud ko'nikma va malakalardan foydalanadi. Mustaqil ishlashni ta'minlashga imkon beradigan mustaqil ta'lim- tushuncha, sabab va qadriyatli yo'nalishlarni o'zlashtirishi past darajali va qoniqarsiz bo'lgan talabalar uchun qulay sharoitni yaratishni ko'zda tutadi. Mustaqil ta'lim omilining birinchi tamoyillaridan biri – ilmiy yo'llarni va ilg'or pedagogik tajribalarni aqliy ravishda o'zlashtirishdir. Ilmiy bilimlar – voqelikning haqqoniy in'ikosidir.

Mustaqil ta'limning ilmiyligi qoidasi o'qituvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarning aks ettirish, tushunishi, o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Ilmiy izoh mustaqil ta'limning hamma bosqichlariga har bir guruhda ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri – nazariy ma'lumotlar tuzulishi, shu ma'lumotlarda tevarak – atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtai nazardan bilib olishidir. Shunday ekan, ta'lim tizimida talabalarni ta'lim jarayonlarida va mustaqil ishlar faoliyatida erkin, ijodiy, mustaqil fikr yurutishlarida pedagogning o'rne kattadir. Ijtimoiy taraqqiyotning har bir davridagi institutning tarixiy tajribasi ta'lim vazifasini ma'lum bir tizimsiz bajarib bo'lmasligini ko'rsatadi. Mustaqil ish – uning tizimli, izchil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillikning xarakteri belgisi shundaki, u talabalarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma, malakalarni yana ham chuqurlashtirishi, kengaytirishi va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgandir.

Talabalarining mustaqil, ijodiy faoliyatini shu faoliyatga xizmat qilinganligi va hayot bilan bog‘langanligi sababli bu bilimlarini egallash uchun ularning mazmunini o‘zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarini amalda qo‘llay bilishga yordam beradi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda guruh a‘zolari orasida vazifalar aniq tasdiqlansa, o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilsa, samarali natijalar beradi. Talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi elementlar hisobga olinmog‘i zarur:

1. Talabalarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o‘quv topshiriqlarini aniq qo‘shish, guruhda ishlash bo‘yicha tushuncha berish, reglament o‘rgatish.

2. O‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha reja tuzish, uni muhokama etish. Uni hal etish yo‘llarini aniqlash va ishni olib borish bo‘yicha o‘zaro vazifalarni taqsimlash.

3. O‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ishni tashkil eta olish.

4. Guruhdagi ishni tashkil etishda ish jarayoni va a‘zolar ish joylarini kuzatish va zarur hollarda yordamga kelish.

5. Guruhlarda topshiriqlarni bajarish natijalari bo‘yicha axborot berish, guruhda munozaralar o‘tkazish, ish jarayonini borishiga qo‘shimcha va tuzatishlar kiritib borish. O‘qituvchi tomonidan ishning natijalari bo‘yicha xulosalar chiqarish va yakun yasash.

6. Guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘zaro tekshiruv va nazorat olib borishni yo‘lga qo‘yish.

7. Har bir guruhning ish natijalariga, guruh ishiga tahliliy baholar berish.

Umuman, o‘quv predmetlari bo‘yicha beriladigan topshiriqlarning qiyyinchilik darajasiga qarab guruhda ijodiy muhit yaratiladi. Ta‘lim – tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog dastlab ta‘lim – tarbiya mazmuniga, ilmiy, zamonaviyligiga, DTSga mosligiga e‘tiborni qaratishi lozim. Treninglar – qo‘shimcha ta‘lim olishning asosiy formalaridan bo‘lib, unung o‘zaro xosligi shundaki, talabalar vaqtdan unumli foydalanishni, mustaqil ishlash, qarorlar qabul qilishni o‘rganadi. Masalan, guruhiy munozaralar, o‘yin asosidagi metodlar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalar. Trening samarali kechishi yangi ko‘nikmalarni egallash, ijodiy, mustaqil faoliyatning rivojlanishiga olib keladi.

- Bu shaklda talabalar guruhlariga bo‘linib, har bir guruhga aniq, alohida vazifalar beriladi.

- Har bir guruh alohida (ya‘ni bir xil yoki tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi.

- Topshiriq o‘zaro muloqotga asoslanadi yoki biror yetakchi rahbarligida tashkil etiladi.

- Guruglarda topshiriq shunday amalga oshiriladiki, mashg‘ulot yakunida har bir ishtirokchi yoki guruh a‘zosining qanchalik hissa qo‘shganini hisobga olinadi.

Guruhlar turli kattalikda shakllantirilishi mumkin. Odatda guruhlarda 4-6 nafar a‘zo ishtirok etadi. Guruhni shunday shakllantirish kerakki, har bir guruh tarkibida mustaqil ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalarining bo‘lishi kutilgan natijalar beradi. Guruhli o‘quv – biluv faoliyati laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar, tabiiy fanlardan tashkil etilgan amaliyot, nutq tabiiy fanlardan tashkil etilgan amaliyot, nutq o‘stirish mashg‘ulotlari (dialog) matnlarni o‘zlashtirish, tarixiy materiallarni o‘rganishi va pedagogika darslarida juda qo‘l keladi. O‘qituvchi talabalar bilan mavzu yuzasidan fikr almashinadi. Ijodiy ishlar berish orqali amalga oshiradi. Yangi texnologiyalar asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish talabalarni dars jarayonini o‘zlashtirishga qulay muhit yaratiladi, o‘zaro fikr almashishlariga imkon beradi. Har bir ishtirokchi

ta'lim mazmunini mualliflardek his etadilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar. Barchani qiziqtirish, qobiliyatlaridan qat'iy nazar bir xilda, bir maqsad yo'lida izlanish, fikrlash, ishlashga undaydi.

Shuning uchun amaliy mashg'ulotlardan savol-javoblar, laboratoriya ishlari, mashqlar yechish iloji boricha talaba shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, amaliy mashg'ulotlar boror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotga, o'zaro muomalada, o'zaro bahs – munozara, debat usulida, fikrlash asosida hamjihatlik bilan hal qilish asosida tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Abduraxmonova, N. A. qizi. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA". Educational Research in Universal Sciences, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
2. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.
3. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.
7. Abdullaxo'jayev, A. J. (2024). IS'HOQXON TO'RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOY-FALSAFIY NAZAR. *Interpretation and researches*.
8. Исақова, З., & Абдуллахўжаев, А. (2023). ИСҲОҚХОН ТЎРА ИБРАТ-МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. *IQRO INDEXING*, 1(1), 41-71.
9. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O'RNI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 806-808.
10. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).

11. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyeovna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652. STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION." Conference Zone. 2022.
12. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." Т.: ТДИУ 95 (2013).
13. Ганиева, М. А., & Файзуллаева, Д. М. (2013). Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан. Т.: ТДИУ, 95.
14. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 245–248. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5514>
15. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. International Journal of Formal Education, 2(10), 37-42.
16. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
17. Davlatova , S. T., & Abdullayeva, F. S. qizi. (2023). BOLALARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 819–823. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5105>
18. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING ONA TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN
SAMARALI METODLAR****Abduraxmonova Nigoraxon Akramjon qizi**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi,

Otajonova Zahroxon Baxtiyorjon qizi

Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ona tili darsida dam olish daqiqasini o‘tqizishdagi ijodkorligi, o‘quvchilar faoliyati, dars samaradorligini oshirish usullari va yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, didaktika, interfaol, interaktiv, ta‘lim, bilim, rag‘batlantirish metodlari, enerjazerlar, grafik tashkil etuvchi metodlar, didaktik o‘yinlar, tezkor fikrlash, so‘z boyligini oshiruvchi metodlar.

Hozirgi davrda ta‘lim jarayonida o‘qitishning yangi, zamonaviy metodlari barcha maktablarda keng qo‘llanilmoqda. Ta‘limda bu kabi metodlarni qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keldi. Ta‘lim jarayonida har bir darsning didaktik vazifasiga mos ravishda metodlardan foydalanish maqsad muvofiq sanaladi.

An‘anaviy dars shaklini o‘zgartirmagan holda, uni barcha o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Ta‘limning samaradorligini oshirishda o‘qituvchidan dars jarayonini oqilona tashkil qilinish, ta‘lim oluvchilarning ya‘ni o‘quvchilarning qiziqishini orttirish, ularning dars davomidagi faolligini muttasil rag‘batlantirib turish, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarning amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu kabi metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. Bundan tashqari dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o‘qituvchini izlanishga va o‘quvchini o‘z ustida ishlashga, erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o‘quvchi o‘zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o‘zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan.

Keng qo‘llaniladigan usullar – «Klaster», «Aqliy hujum», «Davom ettir», «Taqdimot», «Muammoli vaziyat» kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida «Sinkveyn», «Teskari test», «Aql charxi» metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida «Insert», «Pinbord», «Zinama-zina», «Bumerang» texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida «Venn diagrammasi», «Baliq skeleti», «Nima uchun?», «Qanday?», «Konseptual jadval», «Nilufar guli» kabi grafik tashkil etuvchilar hamda «Tushunchalar tahlili», «T-jadval», «Rezyume», «Kungaboqar», «Charxpalak» metodlarini, uyga vazifa berishda «FSMU», «Klaster», «Bo‘g‘inlar zanjiri», «BBB» kabi metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta‘minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida

ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari «Ha... yo‘q», «Ta‘rif egasini top», «Men kimman?», «Domino», «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha», «Sirli sandiqcha metodi», «Harfni his qilish» metodlari kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi.

Natijada o‘quvchida ishonch, qat‘iyat, qiziqish paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni, fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi karur. O‘quvchilarga har darsda bir xil dars o‘tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e‘tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg‘ulotlari jarayonida dam olish daqiqalarini o‘tkazishda turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiradi.

Masalan o‘quvchilarga «Bo‘g‘in» mavzusini o‘tayotgan o‘qituvchi «Bo‘g‘inlar zanjiri» metodidan foydalanishi mumkin. Bunda birinchi aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘ini keying so‘zning birinchi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelishi kerak bo‘ladi. Namuna: maktab – tabrik; rassom – somsa va shunday davom etadi. Bu metoddan o‘quvchilarda o‘tilayotgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga ularning tezkor fikrlashlari va so‘z boyligini aniqlash maqsadida ham foydalansa bo‘ladi.

«Sirli sandiqcha» metodi. Sirli sandiqcha metodi ham o‘quvchining mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu metoddan foydalanish uchun o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini yozib, ular haqida hech qanday ma‘lumot yozmaydi. Masalan, So‘z turkumlari mavzusi o‘tilganda Ot, Sifat, Son, Fe‘l kabi. Sirli sandiqchada esa so‘z turkumlariga oid ma‘lumotlar, misollar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar bu ma‘lumotlar qaysi so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa qog‘ozni shu so‘z turkumi tagiga qo‘yib boradi. O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgandan so‘ng o‘qituvchi bajarilgan ishni tahlil qiladi va rag‘bat kartochkalarini beradi. Eng ko‘p rag‘bat kartochkasi to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi.

«Harfni his qilish» metodi. «Harfni yoki so‘zni his qilish» metodida o‘quvchilar tik turgan holatda bo‘ladi. Eng oxirida turgan o‘quvchi orqasiga o‘qituvchi tomonidan ruchkaning orqa tomoni bilan harf yoki so‘z yozadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi orqasiga yozadi va shu tariqa davom etadi. Birinchi partadagi o‘quvchi o‘zining orqasiga yozilgan harfni his qilib sinf yozuv taxtasiga kelib yozadi. Bu metodni ko‘pincha harf shaklida 4-5 sinf o‘quvchilarida qo‘llash mumkin, balki 5-6 sinf o‘quvchilariga ikki uch harfli so‘z shaklida ham qo‘llash mumkin. Bu metodni kichik yoshdagi o‘quvchilarga darslarda dam olish daqiqasi sifatida qo‘llash mumkin. Darslarda bu kabi enerjyazer metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o‘quvchilarning savodxon bo‘lishiga, o‘qituvchining o‘zi ustida ishlashiga, dars samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning yangi qobiliyatlarini namoyon qilishga yordam beradi. Dars va dam olish daqiqasi davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda shubhasiz o‘zining samarasini ko‘rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va boshqa darslarda ham qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
1. Abduraxmonova, N. A. qizi. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA". *Educational Research in Universal Sciences*, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
2. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.
3. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
7. Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). IS‘HOQXON TO‘RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOIIY-FALSAFIY NAZAR. Interpretation and researches.
8. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
9. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199). Bohodirovna, Sanginova Gulnoza, and H. Usmanova. "MODEL OF INNOVATIVE
10. Raxmatovna, J. R. A., & Athambojevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652. STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION." *Conference Zone*. 2022.
11. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." *Т.: ТДИУ 95* (2013).

12. Ганиева, М. А., & Файзуллаева, Д. М. (2013). Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл.“Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар” сериясидан. Т.: ТДИУ, 95.
13. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. International Journal of Formal Education, 2(10), 37-42.
14. Davlatova, S. T., & Abdullayeva, F. S. qizi. (2023). BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 819–823. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5105>
15. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN TARIXIY MATERIALLARDAN
FOYDALANISH****Abdurahmonova Nigoraxon Akramjon qizi**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Usmonova Bibirobiya Burxonjon qizi

Qo‘qon universiteti talabasi

“Matematika fanining tamal toshini Al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug‘ bobolarimiz qo‘ygan. Bu bizning qonimizda bor. Bugun bu fanni rivojlantirishdan madsadimiz-matematika bo‘yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash kerar.

SH.Mirziyoyev.

Anotatsiya: Maqolada metematik allomalar yaratgan kashfiyotlari ilmiy-g‘oyaviy ma‘lumotlar va fikrlari, umumta‘lim maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlab o‘quv jarayonida tarixiy allomalar va tarixiy materiallardan samarali foydalanish haqida ilmiy qarashlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: Matematika, allomalar, Xorazmiy, Beruniy o‘qituvchi, o‘quvchi, tarix fikr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15.03.2017 yildagi 2834-sonli qarorida shunday deyilgan: “VIII-IX asrlarda Sharqda yashab ijod etgan ulug‘ alloma Muhammad al-Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir ko‘plab risolalar yozgan. U “nol” raqamini va o‘nlik sanoq tizimini hamda qutblar koordinatlarini birinchilardan bo‘lib asoslab bergan va amaliyotga tatbiq etgan. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga va algoritmlashtirish nazariyasiga asos solgan, ilmiy ma‘lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqqan”.

O‘nlik sanoq tizimi, algebra va algoritmlashtirish yo‘nalishlarida dunyo ilm-fani rivojida xizmatlari umume‘tirof etilgan Sharq olimlari orasida faqat Muhammad al-Xorazmiyning asarlari va nomi ilmiy davralarda faol qo‘llanib kelinayotgan “algoritm” va “algebra” kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi. Bugungi kunda yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bajarilayotgan barcha hisoblash amallariga buyuk olim Muhammad al-Xorazmiyning ilmiy kashfiyotlari asos bo‘lib hizmat qilmoqda.

O‘quvchilarimiz komil inson bo‘lib yetishida matematika fanining ham o‘rni beqiyos. Matematika darsida tarixiy materiallardan foydalanilsa o‘quvchilarni yoshligidanoq tarixiy ongini shakllantirishda va ularda tarixiy allomalarimizga bo‘lgan mexr-muhabbatni uyg‘ota olishimiz mumkin. Matematika sohasidagi ishlar haqida, matematika tarixiga oid manbalar juda ko‘p ma‘lumotlar keltirib o‘tgan. G.N.Qori-Niyoziy, A.Ahmedov, A.P.Yushkevich, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy kabi olimlarimiz ishlari va buyuk allomalarimiz, matematika fanining rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelishmoqda. Al- Xozamiy butun dunyoga raqamlardan qanday foydalanish kerakligini o‘rgatgan olimdir. Xorazmiy 1,2,3,4,5,6,7,8,9 va 0 kabi raqamlardan

hisob-kitob uchun juda ham qulay ekanligini ko‘rsatib bergan. Xorazmiy algebra faniga asos solgan. Algebra fani atamasi “Kitob muxtasar min hisob aliyjabr valmuaqabbala” asari nomidan kelib chiqqanini yaxshi bilamiz.

Abu Rayhon Beruniy o‘tmish ilimlarida shuxrat qozongan. U kishi matematika ilmlarini mutaxasisi bo‘lib, bu soha bo‘yicha bir qator muhim kitoblar yozgan. Beruniyning “Qonuni Mas’udiy” asarida asosan astranomiya o‘id bo‘lsa ham, Beruniyning matematikaga o‘id ya’ni trigonometriya va sferik trigonometriyada qilgan anchagina kashfiyotlarida shu asarda ko‘rsatib o‘tgan. Pifagor falsafada son barcha narsaning mohiyati ekanligini aytib o‘tgan. Pifagor matematika tarixida Geometriya sistematik isbot tushunchasini kiritib, uni abstrakt fan darajasiga kiritgan. O‘zbek xalqimiz buyuk mutafakkirlari ham uzoq o‘tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan kashfiyotlarida insonlarni odobi, ma’naviyati yuksak, komil inson, mehnatsevar, vatanparvar bo‘lib tarbiyalanishiga yangi g‘oya va ta’limotlar yaratishgan.

Matematika darsida turli tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O‘quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas’uliyatni va sof vijdonlilikni, to‘g‘ri va aniq sozlashni, hisoblash, o‘lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi. O‘quvchilarga qo‘shish va ayirishni o‘rgatishda tarixiy materiallardan foydalanish usullari: O‘rta osiyolik bir guruh matematiklar qo‘shishni birinchi amal hisoblaydilar. Uning mohiyati va bajarilish usulini tushuntiradilar. Ayirish amalini esa qo‘shishning teskarisi deb hisoblaydilar. Nasriddin Tusiy qo‘shish va ayirish amallariga quyidagicha ta’rif beradi: «Qo‘shish biror sonning birliklari ustiga ikkinchi sonning birliklarini orttirishdir. Qo‘shish amali qo‘shiluvchilarning yig‘indisini topish demakdir. Ayirish katta sonni kichik son qadar kamaytirishdir. Berilgan ikki sonning farqini topish ayirish amali deyiladi.» Ko‘paytirish va bo‘lishni o‘rganishda tarixiy materiallardan foydalanish usullari. O‘rta Osiyo matematiklari, masalan Xorazmiy, Tusiy, Nishopuriy, Koshiy, Ali Kuvosiy va boshqalar ko‘paytirish amaliga tashqi ko‘rinishdan qisman farq qiluvchi mazmun jihatidan esa bir xil bo‘lgan ikki xil ta’rif beradilar. Nasriddin Tusiy ko‘paytirish hamma vaqt ikki son orqali bajarilishini uqtirib va bulardan birini ko‘payuvchi «mazrub», ikkinchisini ko‘paytiruvchi «magzub fixi» nomi bilan atab, shunday ta’rif beradi: ko‘paytirish butun sonlarni qo‘shish amalidir, ya’ni ko‘payuvchini ko‘paytuvchining birligi qadar takrorlab qo‘shishdir.

Tusiy o‘z ta’rifining mazmunini tushuntirish uchun bir xonali sonlarni ko‘paytirishga misollar keltiradi. Masalan: 3 ni 4 ga ko‘paytirish-bu 3 ni 4 marta yoki 4 ni 3 marta takrorlab qo‘shish. $3 \times 4 = 3 + 3 + 3 + 3 = 12$ yoki $3 \times 4 = 4 + 4 + 4 = 12$ ekanligini so‘z bilan tushuntiradi.

Ikkinchi va uchinchi sinfda qo‘shish va ayirish algoritmi o‘rgatilgan so‘ng bu algoritmi mohiyatida Xorazmiy merosidan foydalanish mumkin. Quyidagi keltirilgan Xorazmiy masalalaridan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Algebraik risolaning keyingi boblari Xorazmiy yashagan davrning talabi va islom huquq normalariga kora merosxo‘rlar ortasida mulk taqsimlashga doir turli xil murakkab masalalarga bag‘ishlangan. Quyida shu masalalardan ayrimlari keltirilgan:

1-masala. Bir kishi vafot etadi va undan tort o‘g‘il qoladi. Otadan qolgan mulkdan har bir o‘g‘il baravar hissa olishi kerak. U o‘limidan oldin bir odamga o‘g‘illarining har biriga tegadigan

hissani, ikkinchi bir odamga mulkning uchdan bir bo'ladigan bir o'g'il hissasini ayirib, ayirmaning to'rtidan bir bo'lagini olishlarini vasiyat qilgan.

2-masala. Bir xotin vafot etgan, undan ikki qiz, onasi va eri qolgan. U bir odamga onasiga tegadigan hissani, boshqa bir odamga hamma mulkning to'qqizdan bir qismini vasiyat qilgan. Masalaning mazmunidan qizlariga, onasiga va eriga mulkning qanday qismi tekkanini topish lozimligi ko'riladi.

Xorazmiy tavsiya etgan yechish usuli: «Zarur mulkning bo'laklari (soni)ni top, u o'n uch bo'lak, bundan ikki bo'lagi onasiga. Endi sen vasiyat qilingan ikki bo'lak va butun mulkning to'qqizdan bir bo'lagi ekanini bilasan. Undan merosxo'rlarga ikki bo'laksiz 25 to'qqizdan sakkiz mulk qoladi. Ikki bo'laksiz to'qqizdan sakkizni o'n uch bolak deb hisoblab, o'z mulkningni to'ldir, ya'ni unga ikki bo'lakni qo'sh, undan o'n besh teng to'qqizdan sakkiz mulk hosil bo'ladi.

So'ngra unga sakkizdan birni, o'n beshga esa uning sakkizdan biri, yani bir va sakkizga yettini qo'sh. Kimga to'qqizdan bir vasiyat qilingan bo'lsa, unga bir va sakkizdan etti bo'lak (tegadi). Boshqasiga, (yani) kimga onasining bo'lagi vasiyat qilingan bo'lsa, unga ikki qism (tegadi). O'n uch bo'lak qoladi, u esa merosxo'rlar orasida ularning qismlari boyicha (bo'linadi). Agar bir yuz-u o'ttiz besh bo'lak bo'lsa, u butun bo'ladi». Onasi butun mulkning $\frac{6}{1}$ qismini, eri esa $\frac{4}{1}$ qismini olishi kerak bo'lgani uchun butun mulkni 12 qismga bo'lish lozim. Undan 2 qismini onasi, 3qismini eri oladi, u holda har bir qiziga $\frac{2}{13}$ qismdan tegadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joiz, mana shunday tarixiy ma'lumotlardan o'qituvchi dars jarayonida mavzu bilan bog'liq hikoyalarni so'zlab berish orqali o'quvchida matematika faniga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi. Otabobolarimizdan qolgan ilmiy merosni chuqur o'rganib, uni ta'lim va tarbiyajarayoniga tatbiq etish har bir ma'naviyatli va ijod- kor mutaxassisning muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abduraxmonova, N. A. qizi. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA". *Educational Research in Universal Sciences*, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
2. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.
3. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788-789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in*

Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>

6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.

7. Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). IS‘HOQXON TO‘RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOIIY-FALSAFIY NAZAR. Interpretation and researches.

8. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.

9. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).

Bohodirovna, Sanginova Gulnoza, and H. Usmanova. "MODEL OF INNOVATIVE

10. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652. STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION." *Conference Zone*. 2022.

11. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." *Т.: ТДИУ* 95 (2013).

12. Ганиева, М. А., & Файзуллаева, Д. М. (2013). Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан. *Т.: ТДИУ*, 95.

13. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 37-42.

14. Davlatova, S. T., & Abdullayeva, F. S. qizi. (2023). BOLALARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 819–823. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5105>

15. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

O‘QUVCHILARDA FAN TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH**Abduvahobova Dildora Erkinovna**

dotsent v.b., Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o’quvchilarda fan tushunchalarini shakllantirish, o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini o’stirish, tushunchalarnig manbalari xususida, shuningdek, ilmiy bilishning paydo bo’lishi haqidagi fikrlar bayon qilingan. Maqolada oquvchilarfa fan asoslarini oqitishdagi vazifalar, uning ahamiyati va o’quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirishning yo’llari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: tushunchalar, nazariya va amaliyot, fan asoslari, aqliy qobiliyat, fiziologik sifatlar.

O’qitish –pedagogik jarayon bo’lib, o’quvchilar o’qituvchi rahbarligida fan asoslaridan sistemalashtirilgan bilimlarni amalda qo’llanishi bo’yicha mahorat va malakalarni oladilar. O’qitish – ikki tomonlama jarayon bo’lib, u o’zida o’qituvchining faoliyatini (o’qitishni) va o’quvchilar faoliyatlarini (o’rganishni) mujassamlashtiradi [7].O’qitishnin natijasi bo’lib, umumiy ta’lim olish, o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash hisoblanadi.

O’qituvchiga o’quv jarayonini to’g’ri, ilmiy tashkil etish uchun chuqur bilimlar zarur bo’lib qolmay, balki o’qitish jarayoni va bilimlarni o’zlashtiishning umumiy psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko’nikmalarini shakllantirishni, fikrlashni o’stirishni ham bilishi zarur. O’qitishda tarbiyaviy masalalarni muvaffaqiyatli hal etish shaxs shakllanish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishi individual, iroda va his-tuyg’u sifatlarini , bilim faoliyati va aqliy rivojlanish xususiyatlarini bilishni talab etadi.

O’qish jarayonini tashkil etuvchi o’qituvchi shaxs psixik rivojlanishining zamonaviy konsepsiyasini bilishi muhim ahamiyatga ega.Psixologiya shaxsning psixologik xususiyati muhit, o’qitish va tarbiya ta’sirining mahsulotidan iborat, deb hisoblaydi.

O’quv tarbiyaviy ishda yosh xususiyatga xos bo’lgan ruhiy xususiyatlarni hisobga olish o’qituvchiga o’qitishning har bir bosqichida o’quvchilarga ta’sir etadigan shunday pedagogik metod hamda vositadan foydalanishga imkon beradiki, bular shu yoshdagi o’quvchilarning imkoniyatlari va talablariga mos kelishi kerak [2]. Bunda, albatta, bolalarning individual farqlarini, aqliy rivojlanish darajasini, psixologik faoliyatlarining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Aqliy rivojlanish bola ongida nima aks etishi va aks etish qanday sodir bo’lishi bilan harakterlanadi.

Aqliy rivojlanishning mezoni sifatida psixologlar uning harakteristikasini ilgari surdilar:

- 1) Materialni o’zlashtirish tezligi yoki qabul etish tempi;
- 2) Mulohazalar soni bilan aniqlanadigan fikrlashning siqiqligi, bular asosida o’quvchilar o’zlariga yangi qonuniyatlarni ajratib oladilar;
- 3) Analitik-sintetik faoliyatning darajasi;

4) bir ob’yektni o’rganish asosida boshqa ob’yektda shakllantirilgan aqliy faoliyatni ko’chirish usullari (masalan, mashtabli chizg’ich va menzurkaning shkala bo’lim qiymatlarini dinamometr, ampermetr va voltmetr shkala bo’lim qiymatlari asosida aniqlash usuli);

5) Olingan bilimlarni mustaqil sistemalashtirish va umumlashtirishni bilish.

Har qanday predmetni o’qitishni shunday olib borish kerakki, bunda u o’quvchilarning aqliy rivojlanishiga maksimal yordam bersin.

Aqliy rivojlanishning belgilarini bilish o’qituvchiga, bir tomondan, o’qitishning bunday metod va usullarni tanlab amalga oshirishga imkon beradi, ular ko’rsatilgan usullarga mos keluvchi fikrlash sifatlarini o’quvchilarda hosil qilishga maksimal ta’sir etadi [4]. Ikkinchi tomondan o’quvchilar aqliy qobiliyatlarining rivojlanishi bo’yicha o’z faoliyatlarining natijalarini tekshirish va baholashga imkon beradi.

O’zlashtirilgan ma’lumotlar asosida o’quvchining ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini maqsadli yo’naltirish har bir pedagogdan katta tajribani, ilmiy salohiyatni qolaversa ijodkorlikni talab qiladi. Demak, biz talabaning ilmiy-ijodiy fikrlash faoliyatini o’stirish yo’lida har bir darsni shuncaki dars o’tayapman deb emas, balki bizning kelajagimiz, millatimiz ravnaqi, jamiyatimizning davomchisi bo’lgan yosh avlodni yuksak salohiyatli yetuk mutaxassis tayyorlaymiz deb, samarali dars bermog’imiz lozim.

Ma’lumki, ta’lim metodlarining muayyan pedagogik sharoitga mos uyg’unligini ta’minlash ta’lim sifatini ko’tarish omillaridan biri hisoblanadi. U talaba egallashi zarur bo’lgan bilimlarning puxta o’zlashtirilishi, dars jarayonida o’qituvch-o’quvchi hamkorligi hamda maqsadning yagonaligi o’quvchilarda bilim darajasining yetarli bo’lishiga olib keladi [3]. Shunday ekan, o’qituvchi o’quvchilarga berayotgan bilim darajasini yetarli ekanligi, o’quvchining o’qituvchi o’tayotgan mavzularni puxta egallashi va boshqa shart-sharoitlar dars samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Dars jarayonlarini tashkil etish va yo’naltirishda o’qituvchi o’quvchining mustaqil fikrlash salohiyatini darajalay olishi lozim bo’ladi. Bunda o’qituvchi uchun zarur bo’lgan o’quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyati dars jarayonida ko’zga tashlanib boradi.

O’qituvchining vazifasi o’z o’quvchilarida oliy motivlarni – sosial va ma’naviy shakllantirish ya’ni “jamiyatga foydali bo’lish” uchun bilimlarni olish zarurligi ishonchini tarbiyalash, predmetni o’rganishda bilishga qiziqish hissini ularda tarbiyalashda iborat bo’ladi. O’qiyotgan ko’pchilik o’quvchilarda bilishga qiziqishlar uyg’otila olingan va rivojlantirilgan bo’lsagina, o’qitish jarayoni muvaffaqiyatliroq o’tadi. Bu holda bilishga qiziqish – ko’p bilishga intilish – o’quvchining yetaklovchi motivlaridan biriga aylanadi. Bilishga qiziqish muammosi pedagoglar diqqatini anchadan beri o’ziga tortgani tasodifiy ravishda bo’lgan emas [5]. Unga pedagogikaning asoschilaridan Ya.A.Kamenskiy, K.D.Ushinskiy, B.Disterveg o’z ishida katta e’tibor bergan.

U yoki bu fan asoslarini o’qitish shu fan asosiy tushunchalar sistemasini o’quvchilarda shakllantirishni, uning asosiy qonun va nazariyalari, shuningdek, ilmiy tekshirish metodlari haqidagi bilimlar bilan ularni qurollantirishni o’z ichiga oladi.

O’quv jarayonida tushunchalarni shakllantirish o’quvchilar fikrlashini o’stirishda, ilmiy dunyoqarashini hosil etishda muhim rol o’ynaydi. Olimlar tushunchaning fikrlash mahsuloti sifatidagi ahamiyatni ta’kidlab, “tushunchalar materiyaning oliy mahsulati bo’lmish miyaning oliy mahsulidir”, [4] deb ta’kidlashadi.

Bilimlar aks etishning mahsuloti bo‘lib hisoblangani uchun ham, tushuncha butun borliqdagi predmet va hodisalar sinfining muhim xossalarini (tomonlarini), muhim bog‘lanishlarni hamda ular orasidagi munosabatlarni ifodalaydigan umumiy bilim sifatida aniqlanishi mumkin.

Fanda tushunchalarning hosil bo‘lishi bilish jarayonining tarixiy natijasidir. Fan rivojlanishining qandaydir bosqichida paydo bo‘lgan tushuncha o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi. Hodisalar va haqiqiy borliqdagi predmetlar haqidagi bilimlar chuqurlashgan va kengaygan sari tushunchalarining rivojlanishi sodir bo‘ladi.

Ayrim tushunchaning paydo bo‘lishi fan rivojlanishining ma‘lum bosqichida hal etuvchi rol ni o‘ynaydi. Ular orasida yangi ilmiy nazariyalar va sistemalar vujudga keladi.

Tushunchalarning rivojlanishida tabiat va jamiyat hodisalarini har tomonlama tekshirishning umumiy masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan turli fanlar tushunchalarining o‘zaro murakkab bog‘liqligi katta ahamiyatga ega.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Kruteskiy V. A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkolnika.- M., Prosveshcheniye, 1976,36-bet.
2. Abdurahobova D.E. Vzaimootnosheniya podrostka so sverstnikami: umeet li on drujit? Innovations in technology and Science Education. 70-79, 2022.
3. Кадырова М.К. Poznavatelnye motivy podrostka v protsesse obucheniya. Molodoy uchuonyy. 2015-7.-614
4. Ergashev U.E. Formirovanie umeniy i navykov v uchebnoy rabote. Molodoy uchuonyy.762-769.2014.
5. Кадырова М.К. Povedenie cheloveka v trudnykh situatsiyax. aktualnye voprosy Sovremennoy psixologii. 17-20. 2017.
6. Кадырова М.К. Oosobennosti perioda vzrosleniya podrostka. Molodoy uchenyy 2016 - 999-1002
7. Кадырова М.К. Psixologicheskie osobennosti obucheniya v protsesse obrazovaniya. Molodoy uchuonyy. 2014. 912-914.
8. Кадырова М.К. Osnovnyye prinsipy mediatsii po razresheniyu konflikta. Uchenyy 21 veka.
9. Abdurahobova D.E. Ispolzovanie ikt v obrazovanii – vajnyy faktor razvitiya informatsionnogo obshchestva. Ekonomika i sotsium. 386-388. 2023
10. Abdurahobova D.E. Vajnost innovatsionnykh texnologicheskix faktorov v povыshenii znaniy studentov. BVK 81.2-5 t-307,212
11. Ziyaeva M.F. Ta‘lim jarayonida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni samarali tashkil etish yo‘llari, shakl, metod va vositalari. Obrazovanie i innovatsionnyye issledovaniya. Mejd. nauch. jurnal
12. Kim N.V. Psixologicheskie zakonomernosti protsessa obucheniya. Ekonomika i sotsium,879-882,2023.

13. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
14. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
15. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
16. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
17. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
18. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
- Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
19. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIK BILIMLAR BERISH VA O‘QUVCHILAR TARBIYASINI
UZVIY RAVISHDA TASHKIL ETISH****Alixodjaev Raxmonali Mexmonovich**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu makolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik bilim berish bilan birga dars jarayonida o‘quvchilar muayyan dasturiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilan birga raqamlarda ifoda etilgan milliy ma‘naviyatimiz bilan ham tanishib boradi shuningdek yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetgan, chuqur bilimli, ahloq-odob me‘yorlarini puxta o‘zlashtirgan, pok vijdonli, otalar ishining munosib davomchilari qilib tarbiyalashga alohida e‘tibor berilib, bugungi yoshlarning mantiqan to‘g‘ri fikr yuritib, aniq, qisqa va sodda tilda so‘zlashni o‘rganishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Matematik bilim, o‘quvchi, dastur, dars jarayoni, ta‘lim-tarbiya, tafakkur, tasavvur, bilim, malaka, ko‘nikma.

Kirish.

Boshlang‘ich sinflarning matematika darslarida o‘quvchilar muayyan dasturiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilan birga raqamlarda ifoda etilgan milliy ma‘naviyatimiz bilan ham tanishib boradilar. Matematika fani son-sanoqsiz sirlari bilan ulkan bir joziba kashf etuvchi fandır. Chunonchi, turkiy xalqlar uchun ikki, yetti, o‘n ikki, yigirma, qirq va boshqa sonlar alohida ma‘no-mazmunga ega. Quyida bolalarni milliy ma‘naviyat ruhida tarbiyalash borasida son (raqam)lar sir-asrorlaridan voqif etish, masalalar yechish xususida so‘z yuritiladi.

Xalq ta‘limi xodimlari yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetgan, chuqur bilimli, ahloq-odob me‘yorlarini puxta o‘zlashtirgan, pok vijdonli, otalar ishining munosib davomchilari qilib tarbiyalashga alohida e‘tibor bermoqdalar. Bugungi yoshlarning mantiqan to‘g‘ri fikr yuritib, aniq, qisqa va sodda tilda so‘zlashni o‘rganishlariga harakat qilmoqdalar. Xalqimizda: **“Donolar so‘zi - ma‘nolar xazinasi”**, - degan naql bor.

Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviyatini oshirish borasida o‘qituvchi sonlar ishtirok etgan quyidagi kabi maqollardan foydalanib, o‘tmish davrlardagi donishmandlarning chuqur, mazmunli fikrlari bilan tanish bo‘lishlari, ularni imkoni boricha o‘zlashtirishga ahamiyat berishlari kerak: “Sanamay sakkiz dema”, “Etti o‘lchab bir kes”. Shu singari maqollar orqali o‘quvchilarda sharqona bosiqlik, shoshmasdan xulosa chiqarish kabi ko‘nikma va malakalar shakllantirilib boriladi. “Bir yigit kishiga qirq hunar ham oz”. Bunday maqollar orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, mehnatni sevishga undash mumkin.

O‘quvchi-yoshlarda o‘z vataniga, xalqiga bo‘lgan muhabbat, sadoqat tuyg‘usini shakllantirish borasida foydalanish maqbul bo‘lgan maqollar bor: “Eridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar”. O‘quvchilarda bilim olishga intilishni tarbiyalash borasida quyidagi maqollar qo‘l keladi. “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni”. Atrof-muhitni asrab avaylash, e‘tiborli bo‘lishni tarbiyalash maqsadida quyidagi maqollardan foydalanish mumkin. “Birni kessang, o‘nni ek”, “Bir yil tut ekkan kishi, yuz yil gavhar teradi”.

Buyuk donishmand T.N.Qori Niyoziy matematika fani haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: **“Matematika fanlar ichra shoh, uning sirlaridan bo‘lingiz ogoh”**. “Matematika - ma‘naviy ulug‘vorlikning keng dunyosidir (S.I.Afonina). Demak, matematika darslarida o‘quvchilarning ma‘naviyatini shakllantirib borish ham o‘z navbatida tarbiyaning muhim o‘rnini egallaydi.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a‘zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o‘zida mujassam etadigan milliy g‘oya va mafkurani yaratish ijtimoiy siyosiy va ma‘naviy taraqqiyotimizning muhim sharti bo‘lib qoldi.

Mamlakatimizda sadoqat hissini barchada barobar shakllantirish, fuqarolik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni e‘zozlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang‘ich sinflarda olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarining asosiy maqsadi o‘quvchilarda ma‘naviy bilim, ma‘naviy ehtiyoj, ma‘naviy ko‘nikma va ma‘naviy e‘tiqodni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Ma‘naviy bilimdan olingan ma‘naviy tushunchalarni o‘quvchi yaxshi puxta biladi, aytib bera oladi. Bunga misol qilib, matematika darslarida kuniga yechib boriladigan masalalardan namuna keltirish mumkin.

1-sinf matematika darsligida quyidagi masala berilgan: jismoniy tarbiya zalida ikki guruhda o‘quvchilar jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanmoqda. Birinchi guruhda 15 ta o‘quvchi, ikkinchi guruhda esa 14 ta o‘quvchi mashq qilyapti. Ikkala guruhda jami o‘quvchilar soni nechta? O‘quvchilarning jismoniy va ruhiy tomondan kamol topishi, jismoniy kamolot sog‘lomlikka olib borishi, ruhiy vazminlik, bosiqlik ham insoniy fazilatlarining biri sanalib, kishilar o‘rtasidagi sharqona muomalada muhim o‘rin tutadi. Bu masala orqali o‘quvchilar bilan jismoniy mashqlarning zarur tomonlari, sihat-salomat bo‘lish uchun kerakligiga bog‘langan suhbat uyushtirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni ma‘naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda raqamlar ham o‘z o‘rniga ega. O‘quvchilarga 1 sonini ko‘rsatib, tanishtirib bo‘lgandan so‘ng, yer yuzida nima bitta, degan savol berilib o‘quvchilardan javoblar olinadi. Ularning diqqatlari Vatanning bitta bo‘lishi, onaning yagonaligi, bolalik bir bora berilishi, charaqlab turgan quyosh ham tanholigi, inson ko‘ksidagi yurak ham bitta ekanligi, ularni saqlab ardoqlash kabi ko‘nikmalar tarbiyalanadi.

2 soni bilan tanishtirish vaqtida, ko‘paytirish jadvallarini yod olishda, turkiy xalqlarning bu sondan ko‘p foydalanishlari haqida so‘zlab o‘tiladi. 2 soni juft sonligi, ota-ona, yer-u osmon juftliklari, ularga bo‘lgan e‘tibor haqida to‘xtalib o‘tiladi. O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi juda ko‘p millatlarga ma‘lum, ular bir piyola choydan so‘ng, yana bir piyola choy iching, juft bo‘lsin, deb taklif qiladilar. To‘ylarimizda dasturxonga doimo juft qilib non qo‘yiladi.

Matematik bilimlar bilan bir qatorda o‘quvchilarning ma‘naviy tarbiyasi ham izchil, ketma-ketlikda uzviy ravishda tashkil etilishi lozimdir. Ta‘limda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi ko‘prik, bu ko‘rgazmali-lik metodidir. Bu metod yordamida dars jarayonini tashkil etish o‘quvchida teran taassurotlar qoldirishi bilan birgalikda ma‘lumotlar bazasini yaratishga, ob‘ektlar o‘rtasidagi muhim bog‘lanishlarni anglashga va ularni xotirada saqlashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari qabul qilingan sanalarni yoddan bilish, ularni o‘rganish, hurmat hissini shakllantirishni matematika darslari bilan bog‘lash mumkin.

Gerbimizning yuqori qismida Respublika jipsligi ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Bu 8 qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir. Davlat bayrog‘imizda 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadorligi, o‘zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozimligi aytib o‘tiladi.

Xulosa qilib aytganda xalqimizning milliy, ma‘naviy boyliklariga, tarixiy merosiga, mustaqillik g‘oyalariga va milliy urf-odatlariga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish borasida mustaqillik sharofati bilan Asakadagi avtomobil ishlab chiqaradigan O‘zbekiston va Janubiy Koreya qo‘shma korxonasi haqida to‘xtalib, endilikda o‘zbek xalqi o‘z mashinasiga ega ekanligi alohida xushnudlik bilan ma‘lum qilinadi, shu orqali o‘quvchilarda g‘ururlanish hissi shakllantiriladi. Matematika darslarida bu mavzuga bog‘langan juda ko‘p masalalar berilgan, ko‘rgazmalar ham yaratilgan, raqamlardan tuzilgan mashinadan foydalanishda shu mavzuga bog‘lash mumkin.

Boshlang‘ich sinflarning har bir o‘quv fanida, xususan, matematika darslarida ko‘pincha maktab va jamoa mulkini, tabiatni asrashga qaratilgan mavzularga to‘xtalinadi. Xuddi shu o‘rinda ibratli gaplar, hadislardan namunalar va sonlardan hosil qilingan ko‘rgazmalardan foydalanib o‘quvchilarda hayvonot dunyosini, tabiatni asrab-avaylashi, uni ko‘paytirish uchun qilish zarur bo‘lgan say-harakatlar haqida suhbatlar olib boriladi.

Milliy istiqlol g‘oyasi o‘zining eng oliy maqsadi, vazifalari va xususiyatlariga ega. Uning oliy maqsadi yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqimizni jipslashtirish, kishilar qalbida mustahkam e‘tiqod, ongida esa mustaqil dunyoqarash asoslarini shakllantirish, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashdan iborat bo‘lib qolaveradi. o‘

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston” 7 dekabr 2016 yil. O‘zRes. konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
4. Mavlyanov A. va b.q.lar. “Ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha o‘quv darsini loyihalash”. Zamonaviy ta‘lim. 2016. №2. B.25-29.
5. M.E.Jumaev, M.Yu.Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G.A.Mamatova “Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” metodik uslubiy qo‘llanma – T.: 2017 y.
6. Kalendarova Z.K. Organization work on developping matematikal presentations of childrens with help didactic games. Eastern European Ssientific Journal. – Germany: Ausgabe, 2018.

7. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дошкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковью» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.

8. Kalendarova Z.K.O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini muammoli vaziyatlarni yaratish metodi asosida shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish nuqtai-nazaridan tahlil qilish. “Uzluksiz ta’lim tizimida “boshlang‘ich ta’lim”mazmunini sifat jihatidan yangilash :muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Guliston davlat universiteti. 2022 yil 5-noyabr. 92-96 bet UDK: 37.013 KBK: 74.0 U – 11 DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7307482>

9. G. Eshchanova (2023). SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION: DISTINCTIVE CHARACTERISTICS. Science and innovation, 2 (B3), 2023. 333-337. doi: 10.5281/zenodo.7764475.

10. Raximjonovna, U.N. O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237. (2023).

11. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.

12. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQUIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>

13. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." *Архив научных исследований* (2020).

14. Ganiyeva, M. (2020). Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение». *Архив научных исследований*.

15. Ganiyeva, Muborak. "«Шахс ва жамият» фани-тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони." *Архив научных исследований* (2020).

16. Ganiyeva, M. (2020). «Шахс ва жамият» фани-тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони. *Архив научных исследований*.

17. Ganiyeva, Muborak. "Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш-мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами." *Архив научных исследований* (2020).

18. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.

19. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

20. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
21. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
22. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
23. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
24. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
25. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.
26. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.

**ALOHIDA EHTIYOJGA MUHTOJ VA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA TA‘LIM
TARBIYA BERISH HAMDA ULARNING RUHIY VA JISMONIY RIVOJLANISHI****Asilova Sanobar Xatambojevna**

Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Rasulova Madinabonu

psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: rasulovam000@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni umumta‘lim tizimida o‘qitish masalalariga e‘tibor berish, inklyuziv ta‘limning maqsad va vazifalari tamoyillarini tasniflash hamda inklyuziv ta‘lim asoslari haqida fikrlar bayon etilgan. Inklyuziv ta‘lim va uning mohiyati haqida fikr va mulohazalar bildirilib xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv, ta‘lim-tarbiya, nogironligi bor bolalar, nuqsonli bolalar, imkoniyati cheklanganlar, ijtimoiylashuvga ko‘mak.

Kirish: Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bolalarning ta‘lim va tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarning o‘zgarishi, mamlakatimiz ta‘lim tizimida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta‘limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo‘lib, buning natijasida nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash muammosi vujudga keladi. Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga erta tashxis qo‘yish va ularga yordam ko‘rsatish davlat tizimi ilmiy o‘rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb mavzudir. Shunga ko‘ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zarur. Ma‘lumki "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41- moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb belgilab qo‘yilganligi ham ta‘lim sohasiga bo‘lgan ulkan e‘tibordir. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuniga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta‘limga bag‘ishlanganligi diqqatga sazovordir" 20-modda. Inklyuziv ta‘lim alohida ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta‘lim oluvchilar uchun ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘lim tashkil etiladi". Inklyuziv ta‘lim-hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada, bir xil sharoitda ta‘lim olishini anglatadi. Ya‘ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e‘tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat‘i nazar, barcha bolalar davlat umumta‘lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta‘limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta‘limning barcha subyektlari uchun psixologik, pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta‘lim

oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan. Inklyuziv ta‘lim subyektlarini psixologik, pedagogik qo‘llab-quvvatlash-alohida ta‘limga ehtiyojli o‘quvchilarni kamsitilmasdan, sifatli ta‘lim olishi, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta‘lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalarga quyidagilar kiradi:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida(tizimida) nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi (pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot va ma‘lum darajadagi va ma‘lum bir yo‘nalishdagi ta‘lim olish, shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shu jumladan alohida ta‘limga ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish orqali eng qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratish lozimdir.

O‘tgan vaqtlar mobaynida alohida ta‘limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta‘lim oladigan ta‘lim muassasalari zarur maxsus o‘quv adabiyotlari va metodik-qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta‘minlanmaganligi shu vaqtgacha inklyuziv ta‘limni rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelayotganligi hech kimga sir emasdi. Lekin hozirgi kunga kelib ularga ham alohida e‘tibor qaratilayotganligi quvonarli holat. Inklyuziv ta‘limning asosiy maqsadi ham shu edi aslida. Ta‘lim olish uchun teng imkoniyatni ta‘minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta‘lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat‘iy nazar ta‘limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish inklyuziv ta‘limning

asosiy maqsadidir. O‘quvchining sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, sog‘lom va sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolari bo‘lgan o‘quvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi imkoniyatlarini oshirish e‘tibordan chetda qolmasligi kerakligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur. Hozirgi vaqtda inklyuziv ta‘lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo‘llabquvvatlash mazmuni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta‘lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta‘minlashga, uning o‘zini o‘zi belgilashiga, o‘zini o‘zi anglashiga, o‘zini o‘zi tasdiqlashiga hissa qo‘shishga qaratilgan barcha ta‘lim subyektlarining faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqdir. Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli hamda ijtimoiy moslashishi va har qanday ta‘lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va o‘zini o‘zi belgilashi bilan bog‘liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlanishi maqsadga muvofiqdir.

Nogironligi bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta‘limini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy va umumiy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;
- individual ta‘lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- ta‘lim dasturlarini psixologik qo‘llab-quvvatlash;
- adekvat o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;
- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish.

Ba‘zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko‘rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo‘yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto‘g‘ri, aslida ular bilan do‘st bo‘lib, bir jamoa bo‘lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Axir jamiyatda har bir bola baxtli bo‘lishga haqli shunday emasmi?!

“Ta‘lim tizimi shunday bo‘lishi kerakki deb yozadi L.S.Vigotskiy fikricha “Nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta‘minlash, buning uchun shunday ta‘lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o‘qish jarayonida har tomonlama rivojlansin”. Ya‘ni L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta‘limni uyg‘unlashtiradigan ta‘lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta‘lim tizimida o‘qitishni e‘tirof etgan. Shunday ekan nuqson ustidan kulish o‘rniga unga yordam qo‘lini cho‘zish maqsadga muvofiqdir...

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniy tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta‘limning ta‘siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv ta‘lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgani birinchi qadamdir.

Imkoniyati cheklangan bola inklyuziv ta'limga erta jalb etilsa, mahallada, ko'chada bolalikdan qo'shni bolalar bilan o'ynaydi, ular bilan tanishadi, milliy qadriyatlarini anglay boshlaydi. Maktabgacha ta'lim davrida atrofdagi sog'lom insonlar va tengdoshlari bilan muloqotga erta o'rganadi, maktab ta'limiga tayyor bo'ladi. U OTM da to'siqlar, muvaffaqiyatlar va kelajakka ishonch, toblanish davrida sog'lom odamlar bilan muloqotda davom etadi, atrofdagilarning salbiy va ijobiy qarashlarida duch kelayotganini anglaydi va ularga nisbatan o'zining mustaqil pozitsiyasini (yo'lini) topib oladi. Endi u mustaqil hayotga qadam qo'ygan mustaqil fuqaro sifatida o'qishi, ishlashi, turli munosabatlarda ishtirok etishga tayyor. Ota-ona va yaqinlari uning tashqariga chiqishidan xavotirga tushmaydi. Jamiyatda uning kimligi, nimalarga qodirligini bilgan, taniganlar unga ishonadi. Natijada u oila qurish, oilasini boqish imkoniga ham ega bo'ladi. Sizningcha inklyuziv ta'lim o'zbekistonga qanday kirib kelgan? 1996-yilda xorijiy delegatsiya mamlakatimizga kelib, ilk muzokaralarni o'tkazgan. Ushbu muzokaralar A. Avloniy nomidagi XTTXQTMOI Maxsus ta'lim kafedrasini va RTM maxsus ta'lim bo'limi va Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakulteti professor o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan. O'zbekistonlik olim R. Sh. Shomahmudova mamlakatimizga boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ilk bor Angliya tajribasini olib kirishga muvaffaq bo'lgan. Olima rahbarligida RTM da "Inklyuziv ta'lim"ga bag'ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etilgan. YUNICEF xalqaro tashkiloti va XTB hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarning koordinatorlari sifatida O'zbekistonlik olimlar professor L. Mo'minova dotsent U. Fayziyevlar ish olib borganlar. Shunday qilib inklyuziv ta'lim dasturi asta-sekin rivojlana boshlagan. Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim amaliyoti respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi tomonidan olib borilayotgan loyihalar asosida takomillashib bormoqda. Muammolar aniqlanib, o'rganilib tegishli yechimlar topish borasida tajriba va sinov ishlari olib borilmoqda. Inklyuziv ta'lim g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot axborot vositalari orqali targ'ibot- tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

Psixolog olim L. M. Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo'llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Menimcha inklyuziv ta'lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud. Ularga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Salbiy munosabat; jamiyatda ko'rinmaslik; moddiy mablag' muammolari; jismoniy moslashtirish; sinfdagi o'quvchilar soni; qaramlik; jinsiy belgilarga qarab kamsitish; favqulodda vaziyatlar, mo'joralar va qochoqlar v.h.k.z (vahokazolar). Misol uchun salbiy munosabat bu maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muassasalari tizimida ta'lim tarbiya olishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron

bolalarning chegaralangan muhitda o‘sganligi va shunga o‘xshash sabablardir. Hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosining mazmuni esa, ko‘pincha ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bektiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko‘rsatmaydilar, ro‘yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to‘g‘risida hech bir ma‘lumot berilmaydi. Natijada ko‘plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo‘ladilar. Ular to‘g‘risida hech bir ma‘lumotni bo‘lmasligi ta‘lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi. Bu esa ularning butun umr savodsiz, umrining oxiriga qadar kimgadir muhtoj bo‘lib yashashlariga zamin yaratadi. Iklyuziv ta‘limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o‘z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o‘z vaqtida olib borilsa abatta ko‘zlangan maqsadga erishish, ularni hayotidan mamnun holatga olib kelishga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki har bir imkoniyati cheklangan inson ham ta‘lim olishga haqli. Ba‘zida ko‘chada jamoa joylarida qalbi nuqsonli insonlarga ko‘zimiz tushadi. “Ular jismonan sog‘lom lekin qalblarida nuqson bor”. Inklyuziv ta‘lim nega zarur? Ba‘zan tengdoshlar, maktabdoshlar orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko‘rib qolsak, ularni ajratishga harakat qilayotganlarga guvoh bo‘lamiz. Bu aslida noto‘g‘ri, imkoniyati cheklanganlar hilan do‘stlashib, bir jamoa bo‘lib faoliyat olib borishga harakat qilish lozim. Ilkluyiv ta‘limni tashkil etishdan maqsad jismonan nogironligi bor bolalarni ta‘lim jarayonlarida tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat olib borishga va ijtimoiylashuviga ko‘mak berish. Maktab ta‘lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlardananoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shilib sifatli ta‘lim olishiga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. JS Ikromjonovna. (2023). [MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH](#). QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 586-588
2. .Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). IS‘HOQXON TO‘RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOYIY-FALSAFIY NAZAR. *Interpretation and researches*
3. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
4. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
5. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences* 2.2 (2024): 51-57.
6. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>

7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
8. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дошкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковью» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.
9. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
10. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEKANIZIMLARI.
11. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/>
12. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
13. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
14. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
15. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
16. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
17. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
18. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
19. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

YOSHLAR O‘RTASIDA DOLZARB BO‘LGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**Asilova Sanobar Xatambojevna**

Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Shamsutdinova Ismigul

Qo'qon Universiteti talabasi

E-mail: gulishamsutdinova3@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada asosan 19-20 yoshdagi yoshlar o'rtasidagi psixologik muammolar, ularning vujudga keladigan sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek maqolada yoshlar o'rtasidagi dolzarb bo'lgan muammolarning sabablariga yechimlar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar ma'naviyati, jinoyatchilik, teroristlik, globalashuv, manfur, mafkura, yoshlar masalasi, ishsizlik, yoshlarga e'tibor, muammolar, muammo yechimlari.

Kirish: Yosh avlodni jismonan baquvvat, ma'naviy ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiyalash, hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir. Farzandlarimizni jismonan baquvvat, ma'naviy, ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiya

lash, hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir. XXI-asr axborot texnologiyalari asri bo'lganligi bois, shaxslararo munosabatlar keskin jadallashib bormoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan informatsiyalar insoniyatning psixologiyasiga juda kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida ma'naviy bo'shlig'i mavjud insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa – yoshlar masalasi bo'lib kelgan. Mutafakkir va allomalar, ziyolilar jamiyatning rivoji, tinchligi va xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog'lagani bejiz emas. Tarbiya masalasi qadriyat, an'ana bilan bog'liqlikda hal etishga harakat qilingan bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish bo'lgan. Yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik bo'lgan joyda inqiroz va o'pirilishlar sodir bo'lgan. Yer yuzidagi aholining 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. Afsuski, millionlab yoshlar maktab nima ekanini umuman bilmaydi. Ya'ni, ular, mutlaqo savodsiz. Yana shuni ham aytish kerakki, kichik muammolar o'z-o'zidan yiriklarini keltirib chiqaradi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida yoshlar orasida erta turmush qurish oddiy holga aylandi. Erta qurilgan yosh oilalarda arziyas, kichik muammolar paydo bo'ladi. Bu muammolar asta-sekin kattalashib boraveradi. O'zingiz o'ylab ko'ring, hali oila atalmish muqaddas dargohning nima ekanligini to'liq anglab yetmagan, ro'zg'or qurishga mutlaqo tayyor bo'lmagan bu yoshlarning turmush qurishiga nima sabab bo'lgan?! Bunga ota-onalarining xohishi sababmi yoki allaqanday o'tkinchi bir havasmi?! Masalan, ayrim Sharq mamlakatlarini olaylik, yoshlar ota-onalarining xohishi va qandaydir o'ylab topilgan udumlarga ko'ra, erta turmush quradi. G'arbda aytib o'tganimdek, o'tkinchi bir havas orqali oilalar bunyod bo'lyapti. Xo'sh, keyin nima bo'ladi?! Bunday oilalarda aksariyat hollarda nosog'lom farzandlar dunyoga kelishi, ro'zg'orda uchraydigan turli xil noo'rin gap-so'zlar, xatti-harakatlar oilalarning barham topishiga, ya'ni oilaviy ajrim holati bilan nihoyasiga yetadi. E'tibor bergan bo'lsangiz, jahon yoshlari orasida ishsizlik muammosi ham bugunga kelib eng dolzarb mavzuga aylandi. Hozir, hatto,

eng rivojlangan mamlakatlarda yoshlar bandligini ta'minlash katta muammoga aylangan. Ularning ko'pchiligi xorijda ish topaman deb odam savdosi atalmish jirkanch jinoyatning qurboniga ham aylanmoqda. Esingizdami, bundan 4-5 yil oldin Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida ommaviy tartibsizliklar, "rangli inqiloblar" yuz bergan edi. Aynan shu to'polonlarning boshida kim turgandi deb o'ylaysiz?! Albatta, o'zining fikriga ega bo'lmagan, kim nima desa shunga ergashib ketadigan, boshqacha qilib aytganda, mafkuraviy immuniteti sust bo'lgan yoshlar turgandi. Umuman keyingi yillarda, dunyoda bu kabi tartibsizliklarni amalga oshirishda vayronkor kuchlar, mafkuraviy kurashlarda, ommaviy tadbirlardan texnologik asosga o'tdi. Ya'ni ular professionallashdi. Hozir axborotni qabul qiluvchidan ko'ra, uni boshqalarga yetkazadigan "fikir liderlari"ning sonini ko'paytirish yo'lga qo'yilgan. Buzg'unchi g'oyalarni targ'ib etuvchilar odamlarda shakllangan mafkuraviy e'tiqodni o'zgartirishga intilmoqda. Bu yo'lda, ular asosan yoshlardan foydalanmoqda. Ayanchlisi, bu manfur kimsalar, o'smirlar bilan turli ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa o'rnatib, ularning qalbi va ongiga kirishga harakat qilmoqda va buning uddasidan chiqmoqda ham desam mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongini yot g'oyalardan asrash, internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash dolzarbligicha qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Ostona shahrida "Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari" bo'yicha kengashning oltinchi sammitida nutq so'zlab, mamlakatlar radikal g'oyalarning keng xurujiga yanada ko'proq to'qnash kelayotganiga e'tibor qaratdi. Bugungi kunda buzg'unchi kuchlar targ'ibot va mafkuraviy ta'sirning yangi uslublaridan foydalangan holda ekstremistik tashkilotlarga yoshlarni faol jalb etayotganligini alohida ta'kidladi. O'z navbatida bu kabi muammolarni oldini olish va yosh avlodni radikalizmdan asrash, ularning kuch-g'ayrat va shijoatini bunyodkorlik sari yo'naltirish uchun tizimli hamkorlik zarurligi, o'g'il-qizlarimiz o'z kuchiga ishonishi, adolatli kelajakni qaror toptirishda o'z ishtirokini his etishi, o'z salohiyat va umidlarini amalda ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lishi uchun barcha choralari ko'rilishi kerakligini qayd etdi. Hech kimga sir emaski yoshlar muammosi alohida e'tibor talab mavzu. BMT ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 15 dan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar hamon ishsizlik va qashshoqlik qarshisida sarsondirlar. Ayni damda yoshlar yer yuzi aholisining taxminan 20 foizini tashkil qiladi. Bu 1 milliard 200 million kishi, yoki mehnatga yaroqli aholining 24 foizi demakdir. Zamonaviy yoshlar bilimi va salohiyati jihatidan milliy taraqqiyotning muhim resursi ekani tan olingani holda, ayrim mamlakatlarda yoshlar orasida ishsizlik yuqori darajada. Ularda, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularni ish bilan band qilish, sog'lom turmush tarziga o'rgatish o'z holiga tashlab qo'yilgani achinarli. Ko'pgina muammolar zamirida aniq bir kasb-hunarga ega bo'lmaslik va natijada, ishsizlik, bekorchilik yotibdi, bo'sh vaqtlari, asosan, kuno'tar maishiy mashg'ulotlar girdobida qolmoqda. Dunyo miqyosida keng tarqalgan internet va kompyuter o'yinlariga muhtalo bo'lganlarining esa dunyo bilan ishi ham yo'q. Ayrim mamlakatlarda "kompyuter giyohvandligi"dan davolash maqsadida maxsus shifoxonalar ham ochilmoqda. Jonli muloqotdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotga o'rganib borayotgan yoshlarni bu illatdan xalos qilish ancha mushkul ish menimcha. Bir qator mamlakatlarda esa yoshlar o'rtasidagi ichkilikbozlik katta muammoga aylanib boryapti. Bugun alkogolizm jinsdan qat'iy nazar, yoshlarning dolzarb ijtimoiy muammosi sanaladi. Ichkilikbozlikni erta boshlagan o'smirning hayotga qiziqishi erta so'nadi deyish mumkin. O'smirlar tomonidan

sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi mastlikda yuz bergani isbotlangan. Alkogolizm va giyohvand moddalar iste‘moli yoshlarning umriga zavol bo‘layotgan asosiy vositalardir. Shunisi taassufliki, ular iste‘mol qilayotgan giyohvand moddalar kattalar tomonidan sotilmoqda. Kimlardir o‘zgaralar fojiasidan boylik orttirmoqda. Surishtirib kelinsa, giyohvandlarning hammasi ham kambag‘allarning farzandlari emas, taqiqlangan bu kabi moddalarni tatib ko‘rganlarning katta qismi boy-badavlat xonadon farzandlaridir. Ho‘sh buni nima deb atash mumkin, “to‘qlikka sho‘xlikmi” yoki boshqa narsami? Xalqimizda “Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil” degan maqol bor. Hozirgi tahlikali dunyoning bir qator mamlakatlarida kuzatilayotgan turli to‘sto‘polonlar, tartibsizliklar negiziga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularda davlatning o‘sib-unib kelayotgan yoshlarga, ularning hayotdagi qiziqishlari, huquq va manfaatlariga e‘tiborsizligi, ulardagi yoshlarga oid siyosat hozirgi zamonning yangi tahdidlariga javob bermasligi oqibatini ko‘rish mumkin. Olimlarning fikricha, bugungi g‘arblik yoshlarning oyoqqa turib olishlari, hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari qiyin kechadi. Bunga birinchi o‘rinda axborot vasvasasi aybdor ekani aytiladi. Shubxasiz axborot shu qadar tezlikda harakatlanmoqdaki, uning oqimini to‘xtatib qolishning imkoni bo‘lmayapti. Bu oqim yo‘lida uchragan hamma narsani, hatto axloq, odob, ma‘naviyat, ezgulik kabi qadriyatlarni, yoshu qarini “oqizib ketmoqda”. Axborot yangi avlod uchun ommaviy qirg‘in quroliday gap ekani tan olinsa-da, ammo unga qarshi kurashishga hech kim jazm qila olmayapti. Xorij telekanallarining deyarli har bir ko‘rsatuvida ur-yiqitlar namoyish etiladi. Dunyo ommasiga zo‘ravonlik, otishma, qotillik kabi illatlar aks etgan ko‘rsatuv, film va tok-shoularni kun bo‘yi tomosha qilgan bolalar ertaga qanday inson bo‘lib voyaga yetadi, degan savolni kim beradi. Bir o‘ylab ko‘ring! Hayot so‘qmoqlarida qiynalgan yosh yigit-qizlarning yashab qolish maqsadida jinoyat olamiga kirib qolayotgani, ishsizlar armiyasida ularning safi kengayib borayotgani, ma‘naviyatsizlik, tubanlik ustuvorlik qilayotgani, bu esa o‘sha mamlakatlarda jamiyatning inqirozi kuchayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Oilalarda bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro tushunmovchilik oqibatida o‘smirlarning uydan bosh olib ketishi, ayrim hollarda esa bolalar o‘zining joniga qasd qilishi odatiy holga aylanib bormoqda. Arzimagan kelishmovchilik tufayli bir inson suitsid holatini sodir qilishi va bu holatlar kamayish o‘rniga kundan-kun ortib borayotgani achinarli holat emasmi?!

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarini tashvishga solayotgan asosiy muammolar: ta‘lim (respondentlarning 77%i) va bandlikdir (respondentlarning 61,8%i). Milliy tadqiqotdagi yangi ma‘lumotlar O‘zbekistonda yoshlar farovonligini ta‘minlash uchun yoshlar siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Aksariyat ruhshunoslarning aytishlaricha, hayotimiz, turmush tarzimiz, ishimizdagi aksariyat muammolarning sababi bolalik vaqtlariga borib taqaladi. Bolalikda qalbingizga yetkazilgan jarohat, ruhiy o‘zgarishlar, komplekslar, havotir, o‘ziga ishonmaslik kabi tushunchalar butun umringiz davomida sizni ta‘qib qilishi mumkin. Yoshlarni tolerantlik(bag‘rikenglik) ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyo yoshlari orasida o‘qishni, ishlashni xohlamaydiganlar soni ham ko‘payishda davom etmoqda. Buning sababi nimada?! Misr ehromlaridan birining devoriga juda qadim zamonlardayoq bugungi yoshlar o‘zgarib ketgan mazmunidagi gap yozib qoldirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki har bir davr yoshlarining ta‘lim-tarbiyasi o‘sha davrning muhim

muammosi sifatida qaralgan. Menimcha asosiy sabab sifatida, ularning ota-onalari o‘z farzandiga umuman vaqt ajratmasligida deb bilish mumkin. So‘nggi yillarda, xonadonlarimizda shaxsiy kompyuterlar ham ko‘payib bormoqda. Bu juda yaxshi, chunki ish yuzasidan bajarishga ulgurmagan yumushingizni uyda tugallab qo‘yasiz. Lekin, kompyuter oldida farzandlarimizning soatlab o‘tirishi, kompyuterdagi zo‘ravonlik sahnalari aks etgan o‘yinlarga berilib ketishi bolalarda shafqatsizlik hissining tomir otishiga zamin yaratmayaptimikin!? Ularning ruhiyatida jiddiy buzilish yuzaga kelayotgani hech kimga sir emas. Natijada, bolalar kundan-kunga virtual o‘yinlarga berilib, kundalik hayotdan chetga chiqib qoladi. Bu ularning o‘qishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ayrim o‘smir yoshdagilar maktabni bitirishi bilan, go‘yo, katta hayot shu ekan deb, turli pana-pastqam joylarda tamaki chekish va spirtli ichimliklar iste’mol qilishga ruju qo‘yadi. Bilishimiz kerakki, har bir bola, har bir yoshning o‘zi bir dunyo. Shunday, ekan ular bilan munosabatda bo‘lishda, suhbatdoshingizning fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda gaplashish muhim. O‘smirlarga biror-bir maslahat berayotganingizda ham, albatta, yoshini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Jahon hamjamiyatining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgan O‘zbekistonda bu kabi muammolar o‘z vaqtida e‘tiborga olingani quvonarlidir. Mamlakatimizda yoshlarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilayotgani, samarasida yoshlarimiz barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Navqiron avlodning dunyo standartlari darajasida ta’lim-tarbiya olishiga, o‘z iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Konstitutsiyamizda va qator qonunlarimizda yoshlarimizning huquqlari va manfaatlari himoyalangan. Bular esa yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi eng muhim va dolzarb yo‘nalishlarda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kishilik jamiyati taraqqiyoti shunday bosqichga kelganki, hozirgi kunda harbiy kuch emas, intellektual salohiyat, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlar — ertangi kun davomchilaridir. Yoshlar bilan bog‘liq muammolar mavjud har qanday millat yoki davlatning kelajagi yo‘q deb aytish o‘rinlidir. Ularga yetarli sharoitlarni yaratib berish, eng asosiysi, e‘tibor qaratish lozim. Nima bo‘lganda ham, yoshlar ta’lim tarbiyasiga kerak bo‘lsa har qadamiga e‘tiborli bo‘lishni ota-onalarimiz, o‘qituvchi- murabbiylarimiz oldida turgan ulkan vazaifalardan biri hisoblanadi. Zero yoshlar kelajagimiz poydevori. Yoshlarimizni psixologik jihatdan sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetishishlari uchun bu juda muhimdir. Bir narsani faxr bilan aytishimiz mumkiniki mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga, sog‘lom va barkamol voyaga yetishishiga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Quvonarlisi jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat davlat, balki jamiyat manfaatdorligini ko‘rsatadi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga

oshirilgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi. Bu albatta yurtimizda kelajakda jismoniy va psixologik sog‘lom avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarning natijasi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. JS Ikromjonovna. (2023). [MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O'YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH](#). QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 586-588
2. .Abdullaxo'jayev, A. J. (2024). IS'HOQXON TO'RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOIIY-FALSAFIY NAZAR. *Interpretation and researches*
3. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
4. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
5. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences* 2.2 (2024): 51-57.
6. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>
7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
8. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дошкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковью» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.
9. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
10. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
11. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/>
12. <https://review.uz/uz/post/yoshlar-ortasida-otkazilgan-sorov-talim-va-bandlik-yoshlarni-tashvishlantirayotgan-asosiy-muammolardan-biri>
13. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/08/150806_latin_uzbek_youth

14. Madaliyeva Xurshida Ulug‘bek qizi, & Muborakxon Ganiyeva. (2023). МАКТАВГАЧА ТА‘ЛИМ TASHKILOTLARIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 350–352. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.445>
15. Ганиева, М. А. "САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ." *Экономика и социум* 3-2 (106) (2023): 468-474.
16. Ганиева, М. А. (2023). САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ. *Экономика и социум*, (3-2 (106)), 468-474.
17. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.
18. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
19. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHE LIFESTYLES FOR PROSPECTUVE TEACHERS". *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.
20. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
21. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
22. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
23. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
24. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). *YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
25. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
26. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
27. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

TALABALARDA O‘QUV MOTIVINI RIVOJLANTIRISHGA PSIXOLOGIK YORDAM**Asilova Sanobar Xatambojevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ismoiljonova Shahrizoda

Qo‘qon universiteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada o‘quv motivatsiyasi va o‘quv motivlari nazariyasining asosiy masalalari muhokama qilinadi. Talabalarning o‘quv motivini rivojlantirishda jaxon psixologiyasida yaratilgan metodlar, metodikalar, testlar, anketalarning foydali tomonlari yoritilgan. Shuningdek talabalarda o‘quv motivini rivojlantirishda ko‘mak beradigan fikr mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Talaba, o‘quv motivatsiya, ko‘nikma, ta‘lim yutuqlari, psixologik yordam, ta‘lim motivatsiyasi, metodikalar, innovatsion metodlar.

Kirish:

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimining yuqori bosqichi bo‘lmish, oliy ta‘lim tizimida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrga ega va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Sh.M.Mirziyoevning “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir. Talabalarning o‘quv motivini rivojlantirishda jaxon psixologiyasida yaratilgan metodlar, metodikalar, testlar, anketalar, zamonaviy apparatlar, laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazish instruktsiyasi, trening, kompyuter dasturlari, praktikum, psixologik kabinetlardan foydalanish uslubi va qo‘llanmalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va uni sinab ko‘rishni keng yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Ta‘lim motivatsiyasi muammosini hal qilishning ahamiyati uning ta‘lim jarayonini samarali amalga oshirish uchun muhim ekanligi bilan belgilanadi. Ma‘lumki, aynan o‘qishga nisbatan salbiy yoki befarq munosabat talabaning past yoki yomon o‘quv faoliyatiga sabab bo‘lishi mumkin. Katta rol o‘quvga qiziqishni shakllantirishda, muammoli vaziyat o‘yinlari yaratishda, o‘quvchilarning bilim zahiralari yordamida yecha olmaydigan qiyinchilik bilan to‘qnashishi; qiyinchilikka duch kelganda, ular yangi bilimlarni olish yoki yangi vaziyatda eskisini qo‘llash zarurligiga ishonch hosil qiladi. Faqat doimiy keskinlikni talab qiladigan ish qiziqarli. Aqliy kuch talab qilmaydigan yengil material qiziqish uyg‘otmaydi. O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish unga qiziqish paydo bo‘lishining eng muhim shartidir. O‘quv materialining va o‘quv topshirig‘ining murakkabligi qiziqishning ortishiga faqat bu qiyinchilikni amalga oshirish mumkin, yengib o‘tish mumkin bo‘lganda olib keladi, aks holda qiziqish tezda pasayadi. Ta‘lim olish har qanday inson uchun ajralmas talabdir, shuning uchun ta‘lim motivatsiyasi muammosi pedagogika va ta‘lim psixologiyasining markaziy muammolaridan biridir. O‘quv faoliyati ko‘p motivli bo‘ladi, chunki talaba faoliyati turli manbalarga ega. M.V.Matyuxina ta‘lim motivatsiyasining manbalariga ko‘ra motivlarning uch turini ajratadi:

1. Ichki - kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlar(ijtimoiy tomonidan tasdiqlangan harakatlar va yutuqlarga intilish);

2. Tashqi - talablar, kutish va imkoniyatlarni o'z ichiga olgan talaba hayotining shartlari bilan belgilanadi (talablar ijtimoiy xatti-harakatlar, muloqot va faoliyat normalariga rioya qilish zarurati bilan bog'liq)

3. Shaxsiy - qiziqishlar, ehtiyojlar, munosabatlar, standartlar va stereotiplar, shuningdek, ta'lim va boshqa faoliyat turlarida o'z-o'zini takomillashtirish, o'zini o'zi tasdiqlash va o'zini o'zi amalga oshirish istagini belgilaydigan boshqa manbalar.

Zamonaviy ta'lim jarayonida birinchi o'rinda talabaga faqat ma'lum ko'nikma, bilim va malakalarni o'rgatish emas, balki ta'lim jarayonining natijasini aks ettiruvchi shaxsning xususiyatini va individualligini shakllantirish, shaxsning ehtiyojlari va motivlari tizimini ishlab chiqish zarur bo'lib, bu o'z navbatida ta'lim sifatining ko'rsatkichidir. Talabalarning rivojlanishida ta'lim motivatsiyasi katta ahamiyatga ega. Uning rivojlanishida asosiy rolni professor-o'qituvchi bajaradi. Talabaning o'quv motivini shakllantirishning eng muhim sharti uning o'quv faoliyatining ma'nosini tushunishi, uning shaxsan o'zi uchun ahamiyatini anglab yetishidir. O'quv materialining mazmuniga va o'quv faoliyatining o'ziga qiziqish faqat talabaning talabalar jamoasida aqliy mustaqillik va tashabbuskorlik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi sharti bilan shakllanishi mumkin, bu juda muhim hisoblanadi. Talabaning ijodiy o'qitish usullari va o'rganilayotgan fanni tushunishi qanchalik faol bo'lsa, o'quvchini qiziqtirish shunchalik oson bo'ladi, shu bilan birga, tayyor materialni shubhasiz taqdim etish esa ularda qiziqish uyg'otmaydi, garchi bu mavzuga xalaqit bermasa ham. Bundan kelib chiqadiki, o'rganishga barqaror qiziqishni shakllantirishning asosiy vositasi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning faol izlanishlarini yoki boshqacha aytganda, mustaqil bo'lishni talab qiladigan savol va topshiriqlardan foydalanishdir. Talabalik yoshidagi o'quvchilarning psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda motivatsion yo'nalishlar va o'rganish muvaffaqiyati o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan. Ta'limdagi eng katta muvaffaqiyat jarayonga va natijaga yo'naltirilganligi bilan ta'minlanadi. Talaba sifatida psixolog N.S. Leitesning fikriga ko'ra, umuman faoliyat asosan tanlab olinadi va qobiliyatlarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim motivini ro'yobga chiqarish, o'z-o'zini tarbiyalash usullarini o'zlashtirish uchun ta'lim tizimida ko'plab oraliq maqsadlarni qo'yish va amalga oshirish kerak: o'z ta'lim faoliyatining uzoq muddatli natijalarini ko'rishni o'rganish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun maqsadlar qo'yish, tarbiyaviy harakatlarni amalga oshirish, ularni o'z-o'zini tekshirish maqsadlari. Bu haqida A.N. Leontev shunday deb yozgan edi: "Hayotga kirishni o'rgatish talaba uchun hayotiy ma'noga ega bo'lishi uchun zarurdir. A.I.Gebos o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ijobiy motivini shakllantirishga yordam beruvchi omillarni (shartlarni) ajratib ko'rsatdi:

- ta'limning bevosita va yakuniy maqsadlaridan xabardorlik;
- olingan bilimlarning nazariy va amaliy ahamiyatini anglash;
- o'quv materialini taqdim etishning hissiy shakli;
- rivojlanishda "istiqbolli yo'nalishlarni" ko'rsatish ilmiy tushunchalar;
- ta'lim faoliyatining kasbiy yo'nalishi;
- o'quv faoliyati tarkibida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradigan vazifalarni tanlash;
- o'quv guruhida qiziquvchanlik va "kognitiv psixologik iqlim" mavjudligi.

Talabalarda o'quv jarayonlarini o'zlashtirishi bo'yicha har doim qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam zarurati sezilga. So'nggi 20 yil mobaynida hayotga, shuningdek, ta'limga shiddat

bilan yangi metodlar, qog‘ozsiz axborot manbai: videokompyuter tizimi kirib keldi. Talabalarda o‘quv motivini rivojlantirishga turli xil metodlar, psixologik tadqiqotlar, motivatsiyalar orqali yordam berishimiz mumkin. Bu borada metodlarning o‘rni beqiyos. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Hozirgi paytda o‘rganiladigan bilim manbalariga ko‘ra, metodlar 5 guruhga bo‘linadi hamda qator usullarni o‘z ichiga oladi:

1. Amalda sinash, tajriba metodi:

- tajriba o‘tkazish, amaliyot o‘tkazish;
- mashq qilish jarayonida qatnashish, mehnat, ishlab chiqarish.

2. Ko‘rgazmali namoyish qilish metodi:

- o‘quvchi, talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o‘tkazish.

3. Og‘zaki so‘z orqali ifodalanadigan metod:

- tushuntirish, ongiga etkazish;
- hikoya qilish;
- o‘zaro fikr almashuv;
- suhbat o‘tkazish;
- yo‘l – yo‘riq, ko‘rsatma berish;
- ma‘ruza;
- munozara, bahs

4. Kitob bilan ishlash:

- o‘qish, o‘rganish, tezda ko‘rib chiqish;
- sitata keltirish va uning ustida ishlash, bayon yozish;
- referat yozish, konspekt tuzish.

5. Video metod:

- kompyuterda mashq, test yechish;
- nazorat o‘tkazish;
- internetda ishlash;
- o‘quv filmlarini tayyorlash va namoyish etish;
- axborot texnologiyalariga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturlar asosida

kompyuterda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularga omillar ta‘sirini o‘rganish;

■ multimedia asosida taqdimot tayyorlash, namoyish etish va boshqa shu kabilarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim motivini ro‘yobga chiqarish, o‘z-o‘zini tarbiyalash usullarini o‘zlashtirish uchun ta‘lim tizimida ko‘plab oraliq maqsadlarni qo‘yish va amalga oshirish kerak. Talabalar metodlar orqali aniq, ma‘lum tushunchalarga, ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi, vaqtdan unumli foydalanishga, aniq ilmiy bilimlarga tayanib ish ko‘rishga harakat qilishadi. O‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Talabalarga o‘zlashtirish va rivojlanishlari uchun har doim psixologik qo‘llab-quvvatlash va ko‘mak zarur hisoblanadi. Bunday psixologik yordamlar orqali talabalarda oldindan belgilangan maqsadga erishish uchun harakat va faoliyatni ijobi tarafga o‘zgarishini va sifat darajasini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o'quv-metodik qo'llanma). TDPU, - T.: - 2004.
2. E. G'oziyev. Psixologiya. Darslik. «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. - 2008.
3. <https://apriori-nauka.ru/uz/simulacra/osobennosti-formirovaniya-vnutrennei-uchebnoi-motivacii-studentov.html>
4. Epifanova, S. Ta'lim motivatsiyasini shakllantirish / S. Epifanova // Rossiyada oliy ta'lim. - 2000. - 3-son. - 106-107 b. 2. Juravlev, D. O'rganishdagi motivatsiya va muammolar / D. Zhuravlev // Xalq ta'limi. - 2002. - No 9. - 123-130 b.
5. При копировании материала, ссылка на источник обязательна: <https://apriori-nauka.ru/uz/simulacra/osobennosti-formirovaniya-vnutrennei-uchebnoi-motivacii-studentov.html>
6. Asilova Sanobar Xatamboyeovna. (2023). O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10429442>
7. Aminjonova, C. A. (2021). Methodology and problems of teaching the subject "Biology" in medical universities. Смоленский медицинский альманах, (1), 15-18.
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
12. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
13. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
14. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA O‘QUV MOTIVINI SHAKILANTIRISHDA PSIXOLOGIK YORDAM**Asilova Sanobar Xatambojevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Farxodova Xusnigul

Qo‘qon universiteti amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida o‘quv motivlarining shakllanishda psixologik yordam muammosi yoritilgan. Shuningdek, maktab sinf o‘quvchilarining boshqa psixologik xususiyatlari va irodaviy sifatlarining tarkib topish muammolari va ularning motivatsiya shakllanishiga ko‘rsatuvchi ta‘sirlari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, maktab, motiv, o‘quv motivlari, tafakkur, xotira, intellect.

Kirish:

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta‘lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta‘lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo‘lmagan, umumiy tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini anglashda, “o‘zi uchun” o‘qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi.

Asosiy qism:

Maktab o‘quvchilari motivlari sohasini o‘rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining korelyatsiyasi muammolari hali ham yetarli darajada o‘rganilmaganligi sezilmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek pedagog olimlari tomonidan ham o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o‘quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo‘lsada, ularda o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Chunonchi, R.Safarova o‘quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o‘zlashtirish ehtiyojiga ko‘ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o‘quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta‘kidlagan. K. Zaripov esa o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida maktab o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko‘rsatadi. N.Ortiqov maktab o‘quvchilarining faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo‘nalishini belgilaydi. O.Roziqov o‘quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan. U o‘quv topshiriqlari invariantlarini maktab o‘quvchilarida o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi sifatida asoslagan edi

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o‘qitish omillari ichida o‘quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish

omili birinchi o‘rinda turar ekan, ya‘ni ta‘lim samaradorligi 92% o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog‘liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo‘lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e‘tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o‘rganish, to‘g‘ri qo‘llash va uni to‘g‘ri yo‘naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Motivlashtirish – (lotincha moveo – harakatlantiraman, siljitaman degan ma‘nolarni anglatadi) bu o‘quvchilarni samarali o‘quv-biluv faoliyatiga, o‘quv material mazmunini faol o‘zlashtirishga yo‘naltiradigan jarayonlar, metodlar, vositalarning umumiy nomidir. Obrazli qilib aytganda, motivlashtirish tizginlarini o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham o‘z qo‘llarida tutib turadilar. O‘qitish faoliyati nuqtai nazaridan qarasa, ta‘limni motivlashtirish, o‘qish faoliyati nuqtai nazaridan qarasa, o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirish haqida gapirish mumkin. Motivlashtirish shaxsning ruhiy holati va munosabatlarining o‘zgarish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi. Motiv deganda shaxsni u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga majbur qiladigan muayyan sabab, turtki tushuniladi.

O‘smirlik davrlarida ijtimoiy motivlar anglashinilgan ahamiyat kasb etuvchi bosqichga o‘tib o‘tadi. Bunday motivatsiyani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish bilan birga va bir davrning o‘zida bilishga qiziqishga aloqador boshqa o‘quv faoliyati motivlarini shakllantirish lozim. O‘qituvchi mashg‘ulotlarda o‘quv faoliyatining zarur motivatsiyasini shakllantirsa, ularning mavjud ehtiyojlariga tayanib ish tutsa, o‘quvchida bilishga qiziqish barqarorlashadi. Majbur qilish yo‘li bilan o‘qishga ijobiy munosabatni vujudga keltirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularning oldiga o‘ta ahamiyatli, keng 83 ko‘lamli maqsad qo‘yish, unga erishish yo‘llarini bosqichma-bosqich tushuntirish orqali intilishga turtkini yuzaga keltirsa bo‘ladi.

Insonning harakatlari ma‘lum motivlardan kelib chiqadi va ma‘lum maqsadlarga qaratilgan. Motivatsiya insonni harakatga undaydi. Motivlarni bilmasdan turib, inson nima uchun boshqa maqsadga emas, balki bir maqsadga intilishini tushunish mumkin emas. O‘quv motivatsiyasini o‘rganishda oila ham muhim ro‘l o‘ynashini ko‘rishimiz mumkin. Ota-onalar farzandi uchun qulay muhit yaratish kerak. Farzand bilan uning o‘rganishga munosabati haqida gapirish: u nima uchun o‘qiydi; maktabda u uchun eng muhim narsa nima; uni ko‘proq nima qiziqtiradi; u eng ko‘p qo‘rqadigan narsalarni e‘tiborga olish kerak. Shakllanish jarayonida bolaning motivatsion sohasiga doimo yaqin atrof-muhit ham ta‘sir qiladi. Shuning uchun biz tarbiyaviy ta‘sirni shunday tashkil etishimiz kerakki, bolaga eng yaxshi motivatsion ko‘rsatmalarni singdirish, shu bilan birga hozirgi paytda shakllangan motivatsiya elementlarini hisobga olgan holda va ulardan uning keyingi rivojlanishi uchun foydalanish kerak. Ota-onalarning asosiy vazifasi bolada ichki motivlarni rivojlantirishdir. Agar faoliyat bilimga qiziqish kabi motivlar bilan rag‘batlantirilsa, bolaning o‘rganishi ancha oson va qiziqarli bo‘ladi.

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtayi nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o‘ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularning nazarida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashgan.

Ijobiy motivlar o‘qish bilan bog‘liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o‘zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishda o‘z aksini topadi. Bu xususiyat o‘quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv

tomonidan undalgan o‘quv faoliyati bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining diqqat markazida o‘quv motivlarining namoyon bo‘lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modallikka ega bo‘lgan ko‘ngilsizlikdan qochish kabi barqaror motivlarga e‘tibor berishimiz lozim.

Xulosa:

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o‘qituvchi juda muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek bu motivlarni shakllantirish uchun psixolog ko‘magi ham zarur hisoblanadi. Chunki u ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt o‘qituvchi bo‘lsa, psixolog oquvchilarda motivni qaror topishi va qo‘llab-quvvatlash shuningdek rivojlantirishda ko‘makchi hisoblanadi. Ta‘lim muassasalari psixologlari har bir sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayonlarida buni to‘liq anglab ish olib borsa, albatta o‘quvchilardagi fanlarni o‘zlashtirish va kasb tanlashga bo‘lgan motivlari barqaror rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tizimiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish kontseptsiyasi, Toshkent, 2013
2. Asilova, S. X. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 2(8), 12-16.
3. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
4. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 861-864.
5. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
6. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
7. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
8. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

9. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
10. Тохирjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
11. Махмудова Зилола. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
12. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI****Asilova Sanobar Xatambojevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ismoiljonova Shahrizoda

Qo‘qon universiteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davriga xos bo‘lgan salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari, ularning kelib chiqishi sabablari, rivojlanish shart-sharoitlari, namoyon bo‘lishinig psixologik xususiyatlari keltirilgan. O‘smir, uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, o‘smirlardagi inqirozlar, ularning atrofga nisbatan munosabatlari, pedagogik muloqot va undagi to‘siqlar, ichki nizolar va ichki nizoning sodir bo‘lishiga, kechishiga, zo‘rayishida o‘smirning xarakter xususiyatlarida bo‘ladigan o‘zgarishlar yuzasidan tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik , ontogeniz , deviant , xulq-atvor , xarakter , bolalar va o‘smirlar suitsidi , o‘z-o‘ziga baho berish , mardlik , jasurlik .

Kirish:

O‘smirlarda salbiy xulq-atvorning paydo bo‘lishi murakkab jarayon bo‘lib, u o‘smirlarning ehtiyojlari, qadriyatlarini, hissiyotlarini va shakllanayotgan ijtimoiy muhitida shakllanib boradi. Yoshlar tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi- tarbiyachilar va jamoatchilik oldida barkamol yoshlarni tarbiyalashdek ustuvor vazifalar turgan bir paytda ba‘zi yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar, xususan xulq-atvorida namoyon bo‘layotgan jinoyat motivlari va unga mos xatti-harakatlarning uchrab qolayotganligi tarbiya uchun mas‘ullarni tashvishga solmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan choralar tarkibida, xususan o‘smirlarning ta‘lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissinini rivojlantirish, shaxs sifatida o‘zini to‘g‘ri baholash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida yordam berish hamda axloqiy ko‘nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi. O‘zbekistonlik psixologlardan E.G‘. G‘oziyev, N.G‘. Kamilova, G.Q. To‘laganova, B.M. Umarov kabi olimlarning izlanishlarida bolalik va o‘smirlik davridagi psixik xususiyatlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularda asosiy e‘tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, bolalar va o‘smirlar suitsidi, o‘z-o‘ziga baho berish va nazorat qilish muammolariga qaratiladi.

Insonlar ontogenizida o‘smirlik balog atga yetish davri bo‘lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta‘sir ko‘rsatib, bu ta‘sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik, yig‘loqilik, kabi xususiyatlar xos. O‘smirlar va bolalar psixikasining yosh davrlarida o‘ziga xos xususiyati mavjud bo‘lib adabiyotlarda emotsional yetuk emaslik, kattalar avtoritetiga bo‘ysunish, ishonuvchanlik, jinsga

oid munosabatlar haqida xabardorligi va hayotiy tajribasining yetarli darajada emasligi, boshqa insonlarni mavjud harakatlarini oldindan ayta olish va murakkab vaziyatlarda tanqidiy hamda to‘liq baholay olmaslik kabi sifatlar namoyon bom‘ladi. Bolalar kattalar singari bir maromda rivojlanmaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy psixologik xususiyalar, nisbatan barqaror va tinch osoyishta kechadigan davrlar mavjud. Kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo‘lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlari o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli poydo bo‘ladigan belgilar bo‘lmay, balki ular bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan o‘smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o‘rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘smirlarning xulq-atvoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish mumkin. Ular tashqi ta’sirlarga va xissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik kabi psixologik sifatlar ham xosdir. Tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlariga qaramay o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qiladilar. Juda ko‘p o‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. O‘smirlik yoshida ko‘zga tashlanadigan eng muhim xususiyatlardan biri, bu ularning o‘zini-o‘zi anglashga bo‘lgan e’tiborlarining kuchayishidir. Bu o‘rinda o‘smir o‘zida mavjud bo‘lgan, endi yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi kutilayotgan (orzu qilgan) xususiyatlar, sifat va fazilatlariga o‘rganadi, aynanlashtiradi, nazorat qiladi, baholaydi va ulardan amaliy turmushida va faoliyatida foydalanib ko‘radi. O‘zidagi mavjud imkoniyat va imkoniyatsizliklarni yaqinlari, tengdoshlari va boshqa yoshlarniki bilan taqqoslaydi farqlar va imkoniyatlarni baholaydi. O‘smirlardagi bu xususiyat tengdoshlari va jamoa orasida o‘z mavqeyini saqlash va barqarorlashtirish choralarini ko‘rishni taqozo etadi.

O‘smirlarning deviant axloqi mahalliy va tibbiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. U, qoidagidek, delikvent xulq, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni barvaqt iste’mol qilish, jinsiy axloq deviatsiyasi, suitsidal axloq, uydan qochib ketish va daydilik kabi shakllarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, balog‘at yoshi hisoblangan (12-14 yosh davrida) o‘smirlik davrida keskin psixofiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar ko‘pincha o‘smir ruhiyatiga ham ta’sir o‘tkazadi. Bu o‘smirda tajanglik, serzardalik, injiqlik, ta’sirlanuvchanlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. O‘smir ruhiy dunyosida paydo bo‘lgan bunday o‘zgarishlar balog‘at davri o‘tishi bilan bir me’yorga kelib qoladi. Shuning uchun balog‘at yoshi davrida ota-onalar o‘smirlar tarbiyasiga alohida e’tibor berishlari, ularda kechayotgan psixofiziologik o‘zgarishlarni hisobga olishlari maqsadga muvofiqdir. Ko‘pincha oilaviy tarbiyada bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarining inobatga olinmasligi ularning noto‘g‘ri, yomon yo‘llarga kirib ketishlariga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ota-onalar oilaviy tarbiyada, farzandlari bilan bo‘ladigan shaxslarlaro munosabatlarda, ular bilan muomala qilishda shaxs va yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutsalar oilaviy tarbiyaning samarasi yuqori bo‘lishligini ta’minlagan bo‘lar edi.

O‘smirlardagi salbiy xulq-atvorni korreksiya qilish maqsadida umumta’lim maktablarida turli ijtimoiy, motivatsion psixologik trening mashg‘ulotlar va olib borilsa amaliy-psixologik maslaxatlar korreksion texnikalar va salbiy hulq-atvorni bosqichma-bosqich o‘zgartirish mumkin ya’ni, shaxsning o‘zini-o‘zi va o‘z his-tuyg‘ularini anglash, o‘z shaxsini qayta baholash, hissiyotlar ustida ishlash, salbiy xulq-atvorni anglash, shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklar, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barkamollikka intilish, ota-ona va pedagoglar bilan ishlash kabi mashg‘ulotlar majmui qo‘llanildi. Ijtimoiy, motivatsion psixologik treninglar majmuini xalq ta’lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi orqali bola shaxsining pedagogik va psixologik jihatdan mukammal rivojlanishiga yordam beradi. Jumladan, maktab amaliyotchi psixologining ish rejasiga kiritilgan "Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo‘lgan o‘quvchilarning salbiy burilish va og‘ishlarining oldini olishga qaratilgan psixologik profilaktika, "Xulqida og‘uvchanligi mavjud va moyilligi aniqlangan o‘quvchilari bilan korreksiyalash ishlarini tashkil qilish hamda bolalar va o‘smirlarning salbiy burilishi va og‘ishlarining oldini olishda maktab pedagogik jamoasi va ota-onalarning hamkorligini takomillashtirish, kabi vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smirning aqliy faoliyatiga tevarak atrofga munosabatining shakllanishiga ta’sir qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, intellektual asr talabiga javob beradigan har tomonlama taraqqiy qilgan dunyoqarashi keng o‘smir o‘quvchi shaxsini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar to‘plami:

1. Goziyev E. Psixologiya. Toshkent. 2008 yil.
2. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011 y. 142 b.
3. Komilova N.G'. Xulqi og‘ishgan yoshlar psixologiyasi // O‘quv qo‘llanma. - Tashkent, 2017.-176 s.
4. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007.
5. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
6. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
7. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from
8. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
9. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.

10. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
11. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
12. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
13. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
14. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
15. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR PSIXIKASI**Asilova Sanobarxon Xatambojevna**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Ismoiljonova Shahrizoda Boburjon qizi

Qoqon universiteti psixologiya yo‘nalishi ikkinchi kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari, aqliy qobiliyatlari, xulq-atvor normalari, psixologik rivojlanishi yoritib berilgan. Bu yoshdagi bolalarning umumiy intellekt darajalarini aniqlash metodika yordamida ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: Xulq-atvor, ta‘lim, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, xayol, nutq, intellektual tayyorgarlik.

Kirish:

Kichik maktab yoshida bolada ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘quv faoliyati ko‘nikmalarining shakllanishi, o‘z-o‘zini boshqarish, dunyoni bilish munosabati shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola o‘z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o‘zini qanday tutish kerakligi haqida xulq-atvor normalarini aniq tushunadi, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatda o‘z emotsiyalarini boshqara oladi. Xulq-atvor normalari o‘zining ichki talabiga aylanadi, unda uyatchanlik hislari paydo bo‘ladi. Psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bola maktab ta‘limiga bog‘chada tayyorlanadi. Bunda u maktabda o‘quvchilarga qo‘yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Ta‘limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta‘limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi, binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi, shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirliги, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta‘limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastilindan o‘yinchoqlar tayyorlashda, o‘zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi. Bola o‘z diqqatini muayyan obyektga yo‘naltirish, to‘plash, taqsimlash bo‘yicha ma‘lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib g‘aroyib, kishini taajubga soladigan ma‘lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kichik maktab yoshi bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bularga quidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Maktab ta‘limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari,
- Maktabga moslashish,
- Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat,

- Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangiliklar.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

I-Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish ya'ni o'quvchi bo'lish.

II-Intellectual tayyorgarlik. Tevarak-atrofdan ma'lum o'rganish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi.

III-Harakat tayyorgarligi;

- mayda motorika;
- katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana).

IV-O'quv faoliyatiga tayyorgarlik;

- kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish;
- topshiriqni mustaqil bajarish;
- chalgituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy hatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Ushbu sifatlarning shakllanishi bolada bilish jarayonlarining faolligi bilan bog'liqdir. Masalan, kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi, sofligi bilan farq qiladilar. Shu yoshdagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Bu yoshda diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda birinchi signal sistemasini faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda, ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda bevosita ta'surotlar (muzey, vistavkalarining borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borish, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

«J. Ravenning "Rangli progressiv matritsalar" metodikasi 4,5 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalarning umumiy intellekt darajasini aniqlashga yo'naltirilgandir. Tadqiqotimizda olingan natijalarning ko'rsatishicha, o'rtacha aql (AB) eng yuqori darajani ya'ni, o'g'il bolalarda 29,7%ni, qizlarda esa 31,4%ni tashkil qildi. O'ziga xos aql o'g'il bolalarda 11,6 %ga, qizlarda 13,5%ga, o'rtachadan past aql esa o'g'il bolalarda 7,7 %ni, qizlarda 5,9%ni ko'rsatdi. Bu o'rganilgan o'quvchilarda bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, aqliy rivojlanish darajasi bir muncha past ekanligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi. Buning asosiy sabalari sifatida yosh davriga ko'ra

shaxs sifatida rivojlanish jarayoni kechayotganligi, maktabda o‘qiyotganliklariga hali ko‘p vaqt bo‘lmaganligi va ular tarbiyalanayotgan oilalarda bolalarni aqliy rivojlanishi uchun muhit hamda zaruriy chora-tadbirlarning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi kabilarni qayd etib o‘tish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilalarda tarbiyalanayotgan yosh o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi borasida ota-onalar, maktab o‘qituvchilari zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini qayd etib o‘tmoqchimiz.

Sinaluvchilar aqliy rivojlanish darajalarining gender xususiyatlari bo‘yicha ko‘rsatgichlari:

Hududlar	(A) O‘ziga xos aql		(AB) O‘rtacha aql		(B) O‘rtachadan past aql	
	O‘g‘il bolalar	Qizlar	O‘g‘il bolalar	Qizlar	O‘g‘il bolalar	Qizlar
Namangan viloyati	11.8	13.2	29.4	31,3	8,2	6.0
Andijon viloyati	12.3	14.6	31,2	32.0	5.7	4.2
Farg'ona viloyati	10,9	12,8	28.6	30.8	9,3	7,6
Umumiy ko‘rsatgich	11,6	13,5	29,7	31,4	7,7	5,9

Tadqiqotda o‘quvchilarning ijodiy salohiyati rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi ijodkorlik imkoniyatlari komponentlarining integral xususiyatlarini o‘rganishga harakat qildik. Bunda biz ijodiy o‘quv faoliyati jarayonida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning individual psixologik (masalan, divergent fikrlash yoki aql), motivatsion, kognitiv faoliyat, kreativlik, va aqliy komponentlarining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy salohiyatning rivojlanishiga ta‘sirini tahlil qildik. Chunki aynan kichik maktab yoshi davri bolaning kelajakda har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktab o‘quvchilarining muvaffaqiyatli ta‘lim olishlari uchun o‘quvchilarni majburlash kerak emas balki, ularning yosh davri xususiyatlariga ko‘ra, o‘yin, drammatik darslar, ko‘rgazmali darslarni tashkil etish orqali ularda motivatsiyani shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijobiy ta‘lim motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u har bir bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga oid o‘qituvchining vazifalaridan biri sifatida – kichik yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini boshqarish maktab o‘quvchilari, ya‘ni ularning maqsadli o‘rganishga nisbatan doimiy motivatsiyasini shakllantirish orqali ularning o‘qishga, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini, o‘ziga ishonchini kuchaytirish va ichki tabiiy kuchlari hamda qobiliyatlarini rivojlantirish. Shu bilan birga, og‘zaki-kommunikativ, vosita-manipulyativ va grafik vositalar asosida o‘quvchilar birgalikda ishlashi muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov B.R. Boshlangich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Toshkent: Fan, 1997.-182-b.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.-T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. -167 b.
3. Karimova V. Psixologiya. -T.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 2002. - 206 b.
4. Qarshiboeva G.A. O'smirlarning hulq-atvoridagi o'zgarishning ijtimoiy psixologik jixatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. 2022. T. 2. №.
5. .Qarshiboeva G.A. O'quvchilarda kasbiy ustanovkalarning shakllanishining psixologik jixatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. 2022.T. 2. №. 4.
6. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.NISHANOVA, N.G.KAJVQLOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT - 2018
7. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
8. Ontogenez psixologiyasi E,G'oziyev, Toshkent"NIF MSH"2020
9. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.«Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya).- T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY QIZIQISHLARNI ANIQLASHDA PSIXOLOG ROLI**Asilova Sanobarxon Xatambojevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Ibrohimova Muslimaxon

Qo‘qon universiteti amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

ibrohimovam05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘spirinlik davridagi bolalarning eng dolzarb muammolaridan biri sanaladigan kasb tanlash, ma‘lum kasbga ega bo‘lish va shu orqali hayotda o‘z o‘rinlarini topishga doir ma‘lumotlar keltirilgan. Ya‘ni maqolamning mazmuni shundan iboratki, maktab o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarni aniqlash va rivojlantirishga doir ma‘lumotlar va bu borada psixologlarning roli va ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashga oid metodikalar va ulardan to‘g‘ri foydalanish borasida fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy qiziqish, o‘quvchi qiziqishlari, kasbni to‘g‘i tanlash, kasga yo‘naltirish, kasb tanlashda psixolog roli, “DDS” metodi, metodlardan foydalanish.

Kirish. Inson hayotida eng muhim qadryatlar sirasiga kiritish mumkin bo‘lgan jarayonlaridan biri bu insonning hayotda o‘z o‘rnini topa olishi munosib kasb-korga ega bo‘lishi desak, adashmagan bo‘lamiz. Negaki har bir ota-ona o‘z farzandini kelajagini o‘ylagan holda munosib hayot o‘rnini egallashi, yurt uchun xalq uchun foydasi tegadigan yetuk mutaxassis bo‘lishini istaydilar. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-hunarni egallashi, davlatimiz rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon qilishi, ya‘ni shaxs sifatida kamol topishi, komillika intilishi hisobga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma‘noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron-bir kasb sohasida ta‘lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib etishishi tushiniladi. Darhaqiqat bu naqadar murakkab, orqaga qaytarib bo‘lmaydigan, muhim jarayon bo‘lib, undan xalq manfaatlari, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, kasb -hunar va uni egalari azaldan xalqimiz tomonidan e‘zozlanib kelingan. O‘zbekistonda hozirda bilimdon, o‘z kasbini yaxshi egallagan, mustaqil fikrlovchi, o‘z kasbiga ijodiy yondoshuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, izlanuvchan, intiluvchan mohir ustalar, kasb egalari ko‘proq talab qilinmoqda. Kasbni to‘g‘ri tanlash – har bir shaxs uchun muhim qadam hisoblanadi. Yoshlarning butun hayotidagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘lig‘ini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim.

Kasb-hunarni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Har bir inson bajarayotgan ishini yoqtirsa, bundan u xursand bo‘ladi, qoniqish hosil qiladi va yuqori tashabbus ko‘rsata oladi. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning o‘z hayot yo‘llarida shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Ushbu dolzarb muammoni anglagan holda har bir psixolog va pedagoglar o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltira olishlari kerak. Kasbga yo‘naltirish – bu har bir shaxsnin o‘ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘z kasbiy va hayotdagi o‘rnini topishi uchun shaxsga ta’sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo‘naltirilgandir. Kasbga yo‘naltirish hal etish vazifalari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo‘naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Kasblarni har xil yo‘sinda guruhlariga ajratilgan ekan, E.A. Klimov bo‘yicha beshta guruhni ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Bular: 1) Inson - texnika; 2) Inson - inson; 3) Inson - tabiat; 4) Inson – belgili tizim; 5) Inson - badiiy obraz. Bu esa insonning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasblarni shu beshta yo‘nalishga ajratishga olib keladi. Kasb tanlayotgan insonlar tanlov aynan shu beshta yo‘nalish bo‘yicha sodir bo‘ladi. O‘z kelayotgan yosh avlod o‘zining qiziqishlari bilan bir - birlaridan ajralib turadi. Ba’zi bir yoshlar texnikaga, ayrimlar insonni o‘ziga va yana boshqalar tabiatga qiziqadilar. Ularning qiziqishlari shu sohalarga tegishli bo‘lgan kasblarni tanlashiga olib keladi. Bu esa ularning qiziqishlari xilma - xilligini ko‘rsatadi. Kasb tanlashning psixologik tomonlari D.E. Syuper izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. U kasbiy yo‘nalishning yangi o‘ziga xos nazariyasini va tomonlarini ishlab chiqdi. U kasb tanlashni kasbiy yo‘nalishning bir ko‘rinishi deb tushunadi. Kerakli barcha sharoitlarga ega zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning fanlarga, o‘z tanlagan kasbiy yo‘nalishlariga har tomonlama qiziqishini oshirishda mashg‘ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa maktab psixologlari o‘z kasbining ustasi hamda ta’lim-tarbiyada yoshlarga o‘rnak bo‘la olishi, kasbning nazariy va amaliy jihatlarini bilishi zarur. Qolaversa, yoshlarning biror kasbni o‘rganish jarayonida kreativ fikrlay oladigan, yangiliklar yarata oladigan, dunyoqarashi keng bo‘lib etishishlari davr talabiga aylandi. Umumta’lim maktablarida mashg‘ulot olib boruvchi psixologlar hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, avvalo, kasbning ahamiyati, maqsad vazifalarini aniq bilgan holda mashg‘ulotlar tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yangi pedagogik metod va metodikalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan “Aqliy xujum”, “Bumerang”, “Tarozi”, “Yelpig‘ich”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Venn diagrammasi” “Sinkven” kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kasbga yo‘naltirish quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi: Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish. Kasbiy axborot – ma’lum bir kasbni egallash hohishi bo‘lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o‘z imkoniyatlariga mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va

mazmuni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, targ‘ibot qilish chora-tadbirlaridir. Kasbiy maslahat – kasb tanlash yoki faoliyat turini o‘zgartirishda yordamga muhtoj bo‘lgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlarini, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog‘ligi va psixologik-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o‘zaro muloqot tizimidan iborat. Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo‘lgan psixofiziologik me‘yoriy talablar (sarialash) asosida shaxsni har tomonlama o‘rganish tizimidir. Professiografiya (axborot, tashxis, korreksiyalovchi, shakllantiruvchi) va kasbiy tashxis (shaxsni o‘rganishning psixologik, psixofiziologik, tibbiy va boshqa usullarining majmui) kasbga yo‘naltirishning axborot uslubiy ketma-ketligining asosi hisoblanadi. O‘quvchilar kasblarni tahlil qila olishi; o‘zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to‘g‘ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo‘yadigan talablari bilan o‘zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

Xulosa:

Yuqori sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlarini maktab pedagoglari, psixologning bilishi, hamda yo‘llanma berishi, har bir o‘quvchiga o‘ziga xos tarzda individual tarzda yondashish lozim. Kasbiy qiziqishlarni to‘g‘ri va aniq o‘rganish uchun maxsus mo‘ljallangan so‘rovnomalar va test uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun “Kasbni top”, “DDS- defferensial diagnostik so‘rovnoma”, “Breynstorming” va yana kasbga yo‘naltiruvchi bir qancha metod va metodikalardan foydalanish mumkin. Har bir maktab o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlari aniqlangandan so‘ng qiziqishlar asosida o‘quvchilarda ma‘lum kasbga nisbatan qobiliyat va iqtidorini o‘stirishga doir chora tadbirlarini ishlab chiqish, hamda amaliy yordam berish lozim. Bunda albatta har bir maktab psixologidan katta mahorat va o‘z ishiga bo‘lgan ma‘suliyat katta ahamiyat kasb etadi. Negaki, ularning amalga oshiradigan harakatlari natijasida o‘quvchilar o‘zlarining hayotdagi o‘rnini va bir umr mashg‘ul bo‘ladigan faoliyatlari belgilanadi. Psixolog ko‘magi yordamida o‘quvchilar o‘zlariga munosib kasb tanlashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim burilish yasaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
2. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
3. Asilova, S. X. (2023). МАКТАБ БИТИРУВЧИЛАРИНИ КАСБ ТАНЛАШ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЕТИШ УСУЛЛАРИ. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 2(8), 12-16.

4. Muslimaxon Ibrohimova, & Nargizaxon Usmonova. (2023). PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR MISOLIDA. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 578–580.
5. V. Karimova “Psixologiya” Toshkent. 2002 yil
6. M.Abdullajonova, M.Isoqova, M.Zokirova, S.Isroiljonova Ijtimoiy psixoloik trening prktikum. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2003 yil
7. Y.Asadov. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”. Toshkent. 2010 yil
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
12. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
13. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
14. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

SHAXS OG'ISHGAN XULQINING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI**Asilova Sanobar Xatamboevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Abdullayeva Ma‘suma Anvarjon qizi

Qo‘qon Universiteti 3 kurs Amaliy psixologiya yo‘nalishi

Annotatsiya. Deviant xulq-atvor - jamiyatning huquqiy va ma‘naviy me‘yorlaridan og‘ishgan harakatlar tizimi. Deviant xulq-atvorga alkogolizm, narkomaniya, shaxvoniy buzuqlik, suitsidal harakatlar va hokazolar kiradi. Jamiyat normalariga buysunmaydigan, huquq-targ‘ibot organlari tomonidan jazolanadigan, jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakatlar majmui – delikvent xulq hisoblanadi. Maqolada ushbu masalalarning psixologik korreksion jihatlarini keltiriladi.

Kalit so‘zlar: deviant xulq, shaxs, og‘ishish, o‘smirlik davri, suitsid, buzilish, metod,

Kirish:

Xulqning og‘ishishi asosan o‘smirlik davriga xos jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar orasida turli xil huquqbuzarlik, o‘z-joniga qasd qilish, narkotik moddalarni iste‘mol qilish kabisalbiy illatlarning paydo bo‘lishi va kuchayishi dolzarb muammoga aylanmoqda. E.Dyurkgeymning ta‘kidlashicha deviant xulq jamiyatda me‘yoriy nazorat susayganda yuzaga kelar ekan. R.Mertonning nazariyasida esa, jamiyatda ma‘naviy qadriyatlar inson tomonidan obyektiv ravishda qabul qilinmay, qadriyatlar tizimi yemirilishni boshlaganda vujudga kelar ekan. Ijtimoiylashuv jarayonida deviant xulq atvorga oilada va o‘smirning atrof-muhitida yetakchi bo‘lgan tarbiyaviy holat asos solar ekan. O‘smirlarda uchraydigan salbiy xulq-atvor ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi: Xulq-atvor motivlarining noto‘g‘ri rivojlanishi yoki kuchli effektli his-tuyg‘ular ya‘ni turli tartib intizomsizliklar, atrofdagi insonlar bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish natijasida turli konfliktlarning vujudga kelishi, turli tasodifiy guruhlarga kirish, jamoada o‘zini ko‘rsatishga intilish.

Sangvinik temperamentdagi o‘smirlarda his-tuyg‘ular tashqi ko‘rinishda yorqin ifodalangan bo‘ladi. Ularni boshqa ishlarga berilibketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band qilish kerak. Flegmatik temperamentdagi o‘smir og‘ir, vazmin, xarakatlari salmoqli bo‘ladi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, bo‘shanglik, faoliyatsizlikning namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Xolerik temperamentdagi o‘smirlar chaqqon, xarakatchan, qo‘zg‘aluvchan bo‘ladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir bo‘ladi. Bu tipdagi o‘smirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanib tez paydobo‘ladi, ba‘zan kayfiyati keskin o‘zgaradi. Xolerik tipdagi o‘smirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat‘iyatli, shoshilmay, o‘ylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-xarakatlarida o‘rtoqlari va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida o‘zini tutishlikni tarbiyalab borish lozim. Bunday o‘smirlardan mehnat faoliyatida izchillikni va ishda tartibli bo‘lishni tarbiyalash xamma topshiriqlarni ish mobaynida yaxshi bajarishlarini talab qilish lozim. Melanxolik temperamentdagi o‘smirlarda psixik jarayonlarning sust o‘tishi qayd qilinadi. Ular kuchli qo‘zg‘ovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar.

Shuning uchun bunday o‘smirlarda odamga el bo‘lishlikni o‘stirish, jamoada do‘stlik va o‘rtoqlik hislarini tarbiyalash zarur, chunki ular osonlikcha yakkalanib, o‘z kechinmalariga berilib ketishi yoki jamoadanchetga chiqib, salbiy ta’sirlarga tushib qolishi mumkin.

1. **Emansipatsiya reaksiyasi.** Bu kattalarning qaramog‘idan, nazoratidan va xomiyligidan ozod bo‘lishga intilishda ko‘rinadi. Reaksiya kattalar tomonidan belgilangan tartib, qoidaga qarshi yo‘naltirilgan. «Ozod bo‘lish» ehtiyoji mustaqil xayotga intilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu reaksiya o‘g‘il bolalarda ko‘proq bo‘ladi.

2. **Tengqurlari bilan guruhlashgan reaksiya.** Buning ikki turi mavjud.

Birinchisi, bir jinsga asoslanib, unda doimiy lider va guruh a‘zolarining vazifalari, ularning guruhdagi o‘rni belgilangan. Bu guruhda “liderning adyutanti” unda intellektual qobiliyat yo‘q bo‘lsada, lekin jismoniy kuchli bo‘ladi, «antlider»-liderning o‘rnini egallashga xarakat qiladigan, «ikkiyuzlamachi»-u tomonga xam, bu tomonga xam o‘tib yuradigan o‘smirlar bo‘ladi. Bunday guruhning o‘z xududi bo‘lib, unga begonalar yaqinlashtirilmaydi. Guruhning tarkibi barqaror bo‘ladi va yangi a‘zolari faqat sinovlar asosida qabul qilishadi.

Ikkinchi turdagi guruhda rollar qat’iy taqsimlanmagan va doimiy lider yo‘q. Liderning vazifalarini guruhning turli a‘zolari bajaradi. Guruh a‘zolari ikki jins vakillaridan tashkil topadi va uning tarkibi barqaror emas.

Qiziqish - xobbi reaksiyasi. Intellektual-estetik qiziqishlar predmetga, musiqaga, radiotexnika, tasviriy san‘at, adabiyotga nisbatan. Jismoniy qiziqishlarga kuchi, chidamliligi, chaqqonligini oshirishga bo‘lgan xatti-xarakatlar kiradi.

So‘nggi 15-20 yil davomida o‘z joniga qasd qilish holatlari o‘smirlar orasida keskin ortishi bu muammo «yosharib» borishidan dalolat bermoqda. Butun Jahon Sog‘liqni Saqlash hududiy boshqarmalarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 15-24 yosh o‘rtasidagi o‘smirlarning suiqaqd holatlari 15 yilda 2 barobarga ko‘paygan. Fransiyada so‘nggi 10 yil mobaynida o‘smirlarning o‘z joniga qasd qilish holatlari 3 barobarga ortgan. So‘nggi 30 yil mobaynida AQShda 15-19 yoshli o‘smir yigitlar o‘rtasidagi o‘z joniga qasd qilish holatlari 300%, qizlar orasida esa 200% ga oshgan. Polshada 12-20 yoshli o‘smirlar o‘rtasidagi suitsid so‘nggi 10 yil davomida 4 barobar ko‘payib, bunda o‘g‘il bolalar 21%ni, qizlar esa 79%ni tashkil etmoqda.

Xo‘sh, o‘z joniga suiqaqd qilish (ilmiy ibora bilan aytganda «suitsid») holatiga nimalar sabab bo‘ladi? Suitsid o‘zi nima? Suitsid (lot. “Suisaedere”, bunda “sui”- men; “caedere”-o‘zimni o‘ldiraman) – ongliravishda o‘z joniga qasd qilish, degan ma‘noni anglatadi. O‘smirlarda asosiy hayotiy pozitsiya susayishi;

Xalq ta‘limi pedagog xodimlari va rahbariyatida o‘smirlar o‘rtasidagi suitsid to‘g‘risidagi bilimlar tanqisligining mavjudligi.

Maktab psixologlarining kasbiy jihatdan yetuk emasligi hamda og‘ir psixologik vaziyatga tushib qolgan o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmasi mavjud emasligi.

Xulosa:

Shaxs og‘ishgan hulqining psixologik korreksiyalash kechiktirib bo‘lmas vazifa hisoblanadi. Sababi og‘ishgan xulqning psixologik muammolarini amaliy yordam berish orqali hal qilish muhim hisoblanadi. Bunda barcha aloqador shaxslar, pedagog-psixolog hamda subyektning yaqin insonlari birgalikda ish olib borib, maqsadga erishishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ivy A., Ivy M. Psixologik maslahat va psixoterapiya M.: Ilmiy-ishlab chiqarish nashriyoti, Lyubertsy, 2019. - 487 p.
2. Aleksandrovskaya E.M. Kichik maktab o'quvchilarining shaxsini shakllantirishning tipologik variantlari. - M.: Folium, 2013. - 32 b.
3. Aleksandrovskiy Yu. A. Chegaradagi ruhiy kasalliklar. M.: "Tibbiyot", 2013. - 262 b.
4. Aleshina Yu.A. Shaxsiy va oilaviy psixologik maslahat. ^ Ed. 2. - M.: "Klass" mustaqil kompaniyasi, 2020. - 208 b.
5. Ananyev B.G. Inson bilim ob'ekti sifatida. - Sankt-Peterburg: Peter, 2020: -288 p.
6. Muslimaxon Ibrohimova, & Nargizaxon Usmonova. (2023). PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR MISOLIDA. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 578-580
7. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78-83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
12. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
13. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
14. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
15. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KASBIY QIZIQISH MOTIVLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI****Yo‘ldasheva Fayzixon Arapovna**

“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”

Norin tumani 20-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Asilova Sanobar Xatamboyevna

Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqish motivlarining shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining boshqa psixologik xususiyatlari va irodaviy sifatlarining tarkib toptirish muammolari va ularning motivatsiya shakllanishiga ko‘rsatuvchi ta’sirlari muhokama etilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqish motivlarini rivojlantirishning afzalliklari o‘rganilib, taklif va xulosalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: motiv, kasbiy qiziqish, boshlang‘ich ta‘lim, o‘quvchi, psixologik omillar, iqtidor, ijodkorlik, yo‘naltirish, rivojlantirish.

Azal-azaldan har bir o‘zbek oilasida farzand tarbiyasiga jiddiy yondashilib kelingan. Ayniqsa farzandlarni kasb-hunarga yo‘lantishida jiddiy e‘tibor berilib, bolalarni yoshlikdan kasb-hunarga yo‘naltirilib kelingan. Farzandlarni bolalalikdan kasb-hunar egallashi va shu orqali hayotda o‘z o‘qinlarini topishi uchun tarbiyada turli usullardan foydalanilgan. Bugungi kunda ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohatlar ta‘lim-tarbiya olayotgan yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetishiga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarni erta aniqlash va ularni rivojlantirishga ko‘maklashish bu boshlang‘ich sinflarda faoliyat olib borayotgan kasb egalarining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzar ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”.¹ – degan fikrlarida ham ulkan ma‘no bor. O‘quvchilarda kasb tanlash motivlarini shakllantirish va to‘g‘ri kasb tanlashlarida qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Ayniqsa ta‘lim muassasalarida, o‘quvchida kasbiy qiziqish va moyilliklarni shakllantirish bu peadgogdan birmuncha diqqat, e‘tibor va kuzatuvni talab qiladi. Shunday o‘quvchilarni dars jarayonlarida va kuzatuvlarimiz natijasida aniqlab olib ularni iqtidori va qobiliyatini rivojlantirib borish muhim hisoblanadi. Dars jarayonlarida pedagog tomonidan olib borilayotgan har bir dars jarayoni, tadbirlar, mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonlari o‘quvchining kasbiy qobiliyatini ochib berishga hizmat qildi.

Maktabda olib boriladigan faol o‘quv faoliyati o‘quvchi har biriga o‘z aqliy qobiliyatini va eng avvalo mantiqan to‘g‘ri fikrlashni, tafakkurning mustaqil bo‘lishini, topqirlikni, mulohaza qilishni, aqliy teranlik va o‘ziga ishonchni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek irodaviy sifatlarni, ya‘niy dadillik, qat‘iyat, intizomlilik, o‘ziga va o‘z kuchiga ishonish, o‘zini idora qila bilish, kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirishga ham ko‘maklashadi. Mana shu sifatlarning hammasi birga

¹ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.

- O‘zbekiston 2017 yil -136 bet

qo‘shilib, o‘quvchilarda kasbga bo‘lgan qobiliyatni namoyon etishini ta‘minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda faoliyat olib borayotgan pedagoglar o‘quvchilarga ta‘lim berish bilan bir qatorda ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchilar bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yib ulg‘ayadi. O‘zi ni aynan shu kasbda tasavvur qilib, orzular bilan yashaydi. Shu tasavvur va orzuning hayotga ko‘chirishni ta‘minlashda o‘qituvchining o‘rni katta. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish ishlarining barchasi o‘quvchilarda to‘g‘ri kasb tanlashlariga xizmat qilishi kerak. O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorgarligi ko‘rgatuvchi mezonlar mavjud bo‘lib ular; kognitiv ya‘niy axborotga ega ekanligi, kasbga qiziqish, amaliy mezonlardir. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqish motivlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni beramiz:

1. Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchidagi individual xususiyatlarini hisobga olish.
2. O‘quvchida tanlagan kasbi boyicha to‘liq tushuncha hosil qilishga erishish.
3. O‘quvchilarni dars jarayonlarida turli kasblarga oid audio va video materiallar bilan tanishtirish
4. Ta‘lim muassasasida kasb burchagini tashkil etish.
5. Kasbi orqali el-yurtga munosib xizmat ko‘rsatib kelayotgan insonlar bilan uchrashuvlar tashkillash.

Bu orqali o‘quvchidagi kasbiy qarorlarini yana bir bor isloh qilib, o‘zlari uchun motivatsiya olishga ko‘maklashishga erishilgan bo‘ladi. O‘quvchidagi kasbga bo‘lgan qiziqishning motivlari ota-onadan, atrofidagi o‘zi yoqtirgan insonlarga bo‘lgan qiziqish yoki taqlididan, ko‘ragan filimlari yoki eshitgan voqealari orqali bo‘lishi mumkin. Shu psixologik omillar o‘quvchilardagi kasbiy qiziqishning shakllanishida ilk turtkini keltirib chiqaradi. Bu qiziqishning kelajakda boal uchun to‘g‘ri tanlov ekanligini aniqlashtirishda pedagog va psixologlarning yordami zarurdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ta‘lim muassasalari dars jarayonlarida o‘quvchilarning ta‘lim olishga qiziqishi kasbga bo‘lgan qiziqishi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. O‘quvchilarni o‘z vaqtida kasbiy qiziqish motivlarini aniqlay olish, ularni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish mamlakatimiz kelajagining yanada rivojlanishiga zamin hozirlash hisoblanadi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbiy-qiziqish motivlarini rivojlantirish ahamiyatlidir. Pedagoglar o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida albatta psixolog ko‘magiga ehtiyoj sezadi. O‘quvchidagi ba‘zi bir holatlar borki iqtidorni yuzaga chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Shunday holatlarda hamkorlikda olib borilgan ta‘lim jarayonlari o‘z samarasini beradi. Kasb - inson ish faoliyatining ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma‘lumot hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishiladi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishni rivojlantirish jarayonlarida anashu faoliyat turlarini o‘quvchilarda to‘g‘ri rivojlantirishga erisha olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlarL:

1. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
2. Alijon, M., Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). TA'LIM JARAYONIDA ISH STRESSI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARGA PSIXOLOGIK YECHIM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 854-860.
3. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. *Interpretation and researches*.
4. Xatambojevna, A. S. (2024). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 7(1), 16-20.
5. Asilova, S. X. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 2(8), 12-16.
6. Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 770-772.
7. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 861-864.
8. Xatambojevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA 'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 344-350.
9. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
10. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
11. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
12. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
14. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

DELIKVENT HULQ-ATVOR KELIB CHIQISH SABABLARI**Asilova Sanobar Xatambojevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ibragimov Asadbek

Qo‘qon universiteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Voyaga yetmaganlarni orasida noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etilishi bu juda achinarli holatlardan hisoblanadi. Delikvent ahloqni yuzaga kelishi sabablari va unga ta‘sir etuvchi omillar turlicha bo‘lishi mumkin. Maqolada delikvent ahloqni kelib chiqish sabablari, uni bartaraf etish usullari o‘rganib chiqilgan. Shuningdek mavzu yuzasidan fikrlar bildirilib, taklif va xulosalar berib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: delikvent, stereotiplar, huquqbuzarlik, shaxsiy omillar, depressiya, oila ta‘siri, oiladagi nizolar, ta‘limning kamchiligi, ommaviy axborot vositalari.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va rivoji uning o‘sib kelayotgan yosh avlodiga bog‘liqdir. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda o‘smirlarning har tomonlama sog‘lom voyaga yetishi har bir katta avlodning vazifasidir. O‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni kelib chiqishi sabab va omillari dolzardir. Avvalo delikvent xatti-harakatlari nima? – degan savolga javob bersak. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat harakatlari yoki ijtimoiy normalarni buzuvchi harakatlar-delikvent axloq sifatida tasniflanadi. Masalan, o‘g‘irlik, vandalizm, hujum, giyohvand moddalarni iste‘mol qilish, uydan qochish, maktabdan qochish. Og‘irligi, kichik jinoyatlardan tortib og‘ir jinoyatchiliklar bo‘lishi mumkin. Noqonuniy xatti-harakatlar ko‘pincha ommaviy axborot vositalarida buzg‘unchilik yoki mayda o‘g‘irlik sifatida tasniflangan bo‘lib, huquqbuzarlik huquqiy va ijtimoiy me‘yorlarni buzuvchi xatti-harakatlarning keng doirasini o‘z ichiga oladi. Bu, birinchi navbatda, yoshlar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p qirrali sabablar va jiddiy oqibatlarga olib keladigan murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Shuni yodda tutish kerakki, huquqbuzarlik faqat ma‘lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kelib chiqishi yoki etnik kelib chiqishi bilan bog‘liq emas. Uning sabablarini tushunish va har tomonlama bartaraf etish huquqbuzarliklarning oldini olish va yoshlarni ijobiy qarorlar qabul qilishiga ko‘maklashish ota-onalar va pedagoglar hamda mas‘ul vazifani bajaruvchi shaxslarning oldilarida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Inson dunoyga kelganida jinoyatchi yoki huquqbuzar bo‘ib kelmaydi. Huquqbuzarlikni sabablarini o‘rganish jarayonida ijtimoiy me‘yorlar va qonunlarni buzuvchi harakatlarni o‘z ichiga olgan jarayonlar nazarda tutiladi. O‘smir nega jinoyat sodir etadi yoki huquqbuzarlikka moyil bo‘ladi?- buning sabablari turlicha. Eng birinchi biz oila muhiti ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari shaxsiy omillar, depressiya, tashvish, ijtimoiy-iqtisodiy, do‘stlar ta‘siri, shuningdek internet olamidagi turli yot g‘oyalarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Shaxsiy omillar: bunda shaxsning psixologik xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi Agressiya va qoidalarni buzish bilan tavsiflangan xulq-atvori buzilgan bolalarda huquqbuzarlik xavfi yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari shaxsiy omillar kognitiv nuqsonlar qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga to‘sqinlik qilishi mumkin, bu esa yoshlarni tengdoshlarining bosimiga va xavfli tanlovlarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Depressiya, tashvish va hissiy beqarorlik kabi ruhiy

salomatlik muammolari ham huquqbuzarlikka hissa qo‘shishi mumkin. Bu sharoitlar yolg‘izlik, g‘azab va umidsizlikni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa huquqbuzarlik bilan kurashish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, giyohvand moddalarni suiiste‘mol qilish ko‘pincha delikvent bilan birga sodir bo‘ladi. Giyohvandlik va alkogol o‘smirlarda nafaqar o‘smirlarda balki hammada fikrlashni buzishi, tajovuzkorlikni kuchaytirishi va bu odatni qondirish uchun pulga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida o‘g‘irlik yoki boshqa jinoiy faoliyatga olib kelishi mumkin.

Oila ta‘siri: Huquqbuzarlik ko‘pincha oiladagi disfunktsiya bilan bog‘liq. Nazorat, hissiy qo‘llab-quvvatlash va aniq chegaralar yo‘qligi bilan ajralib turadigan beparvo ota-onalar yoshlarni o‘zlarini ishonchsiz his qilishlari va uydan tashqarida, deviant tengdoshlar guruhlari orasida bo‘lishiga sababchi bo‘lib qoladilar. Qattiq va jazolovchi ota-onalar ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Doimiy tanqid va jismoniy jazo norozilik va isyonni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa yoshlarni huquqbuzarliklarga olib keladi.

Oiladagi nizolar: bola shaxsida stressli muhitni yaratadi, bu esa yoshlarda sog‘lom kurashish mexanizmlarini rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Oiladagi zo‘ravonlikka guvoh bo‘lish bu masalani yanada murakkablashtiradi, chunki zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarning o‘zlari zo‘ravonlik qurboni yoki jinoyatchiga aylanish ehtimoli ko‘proq. Bundan tashqari, ajralish yoki ajralish natijasida buzilgan uylar beqarorlik, hissiy iztirob va ijobiy rol modellarining etishmasligiga olib kelishi mumkin, bu esa delikvetlikga hissa qo‘shishi mumkin.

7. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
8. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
9. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
10. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

BADIIY ASARLARNING TA‘LIMIY AXAMIYATI**Boyalievva Muattar**

Qo‘qon Universiteti talabasi

E-mail: muattarboyalievva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari haqida ma‘lumotlar, o‘zbek mumtoz pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanishi, asarning ta‘limiy ahamiyati haqida ma‘lumotlar berilgan. Badiiy asarda kelajak avlod tarbiyasi uchun eng kerakli, o‘g‘itlar hamda zarur bo‘lgan ma‘lumotlar jamlangan. Undagi hikmatli so‘zlar sharhi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, xulq, mumtoz, ta‘limiy, axloqiy, tarbiyaviy, estetik jihati, metodlar.

Kirish.

Adabiyot — ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi — meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi. Quyosh, havo, yer, suv barcha jonvor va ko‘katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste‘dodli, uning qalam tutgan qo‘li qanchalik tajribali bolsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo‘ladi, uning ijodini, umuman, Adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi.

Abdulla Qahhor

Barchamizga ma‘lumki, har bir davlatning boyligi uning dur-u javohirlariga emas, balki ma‘naviy to‘kisligiga qarab baholanadi. Ertangi kun egalari bo‘lgan yosh avlodni munosib darajada ta‘lim-tarbiya etmoqlik ham moddiy boyliklar evaziga emas, ma‘naviy-ma‘rifiy xazinalarga bog‘liq boladi. Shunday ekan, xalqni ma‘nan boy bolishini istab, jon dili bilan harakat qiladigan, xalq dardida yo‘nadigan fidokor insonlar ham kamdan-kam topiladi. Ma‘rifatparvar bobomiz, pedagog Abdulla Avloniy o‘sha noyob insonlar qatorida eng oliy o‘rinlarni egallab turgan shaxs sanaladi. Xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni ozining birdan-bir burchi deb biladi va bu yolda ham moddiy ham ma‘naviy tomondan xalq uchun fidokor xizmatlar olib boradi. U bolalar uchun yangi maktab ochib, bu maktabda bolalarni o‘zi o‘qitadi. Tez savod chiqarishga yordam beruvchi va ilm-ma‘rifatning ahamiyatini o‘zgacha talqin etuvchi darsliklar yozadi. “Birinci muallim” - hozirgi alifbe, “Ikkinchi muallim” esa o‘qish darsligi o‘rnida katta rol o‘ynaydi. Adib qalamiga mansub 4 kitobdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” deb nomlangan asari ham borki, unda xalqni ma‘rifatga, ziyoga intilgandek ilmga intilmoqqa va yaxshi xulq-odatlarining egasi bo‘lishlikka chorlovchi da‘vatlarni ko‘rishimiz mumkin.¹

Asarning estetik qiymati Asarda yozuvchi quruq bayonchilik, roviylik yo‘lidan bormaydi, fikrning emotsional ta‘sirchanligi, estetik zavq ruhini oshirish maqsadida Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan afsona, rivoyat, hikoyat va hikmatli so‘zlardan iqtiboslar keltirib, o‘z qarashlarini dalillaydi. Jumladan, asar muallifi ko‘pincha payg‘ambarimiz (s.a.v) tomonidan aytilgan hadislarni

¹ S.Z.Norbekova. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi naqlarning bolalar ma‘naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 6-jild 6-SON 13.06.2023.

misol keltiradi. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: “Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurg‘an kishilar”. – demishlar². Ushbu hikmatli so‘zni Avloniy shunday izohlaydi: “Agar tarbiya qiluvchi muallim o‘zi olim bo‘lub, amalsiz bo‘lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo‘r ta‘siri bo‘ladur”. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining mazkur o‘rinlarida asar badiiyatiga xos alohida belgilar bilan birga yozuvchi uslubining muhim qirralari ham ko‘zga yaqqol tashlandi³


Badiiy asarning tarixiy va madaniy ahamiyati

Asarda farzand tarbiyasi, ta‘limning tarbiya bilan bevosita bog‘liqligi, ilm-fan insoni jaholat botqog‘idan qutqaruvchi qudratli kuch ekani juda ishonchli yoritilgan. Asar muallifi hech bir masalada biryoqlamalikka berilmaydi, gap kelajak avlodning tarbiyasi xususida ketar ekan, yozuvchining gumanist – insonparvar qiyofasi kitobda bo‘y ko‘rsatib turaveradi. Jumladan, yetuk pedagogning yozishicha, kishining tarbiyasida noqisliklar, kemtikliklar kuzatilsa, hatto axloqi buzuq bo‘lsa ham, u o‘z xatolarini tuzatishga intilsa yoki kamchiliklarini tushunib yetsa, bunday odamni tarbiyalash mumkin. Har qanday komil axloq egalari, qalbi, ruhi va fikri sog‘lom bo‘lgan jamiyatning ilg‘or kishilari yon atrofidagilariga o‘z fazilatlarini bilan o‘rnak bo‘lishlari lozim va ularning go‘zal odobi boshqalarga ham namunadir. Masalan, bir daraxt mevasi yomon bo‘lsa, ul daraxtga mehr berib, payvandlab, parvarish qilinsa, albatta, mevasi shirin bo‘ladi. Xulq ham xuddi shunday: unga qancha amal qilsak, shuncha mukammallashib, nafosatli bo‘lib boraveradi⁴. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining tarbiyaviy ahamiyati necha asrlardan buyon yuqori bo‘lib, yoshlarning yuksak ma‘naviyatli, ma‘nan barkamol shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarning ilmiy – metodik ahamiyati. Turkiy Guliston yoxud Axloq asarlari, insonlarning yashash va o‘zlashtirish qulay va so‘ngi tahlil bo‘lgan amaliyotning natural jihatlarini o‘rgatish imkonini beradi. Bu asarlar insoniy mazmuni, mo‘ljalarining texnik-tariqiy va insonlar munosabatlari bunday ovqatlar sifatidan maqsad ko‘rsatmaydi.

Badiiy asarlar, odamiylikning hissiy, intellektual va madaniy rivojlanishiga qo‘shimcha qiymat qo‘shadigan muhim bir jihatidir.

1-rasm. Asarning SWOT taxlil grafifi.



² Hadislar va hikmatlar kitobidan

³ I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., «O‘zbekiston», 1996, 39-b

⁴ Turkiy guliston yoxud axloq asaridan

Afzaliklari: Abdulla Avloniy xalq mahoratiga oid bo‘lgan turli asarlarni yozgan buyuk yozuvchilardandir. Abdulla Avloniyning bu asari o‘zbek adabiyoti tarixida ozining aniqliklari va e‘tibor qozonuvchanliklari bilan alohida oringa egadir. Bu asar yosh kitobxonlarning ham yuragidan katta joy egallagan. Asarda yuritilgan **tarbiya** haqidagi pirma‘no so‘zlar hali ham o‘z o‘rnini yo‘qotmay kelmoqda. Bu asar o‘zbek adabiyotida juda muhim ahamiyatga ega. O‘zining axloqiy, ma‘naviy, ilmiy maqsadlari mavjud. Asarning bir qismi adolat, insof, hurmat, taraqqiyot, do‘stlik kabi axloqiy qadriyatlarni ko‘rsatib beradi.

Imkoniyatlari: Nafaqat oqituvchi pedagoglar balki farzand tarbiyalayotgan barcha ota – onalar uchun ham dasturi amal desak hato bo‘lmaydi. Chunki undagi tarbiya haqidagi so‘zlar mana necha zamonlarki, o‘z ahamiyatiga egadir. Tarbiya hamma zamonda ham baribir tarbiyadir. Pedagoglar bu asarni bolalarni o‘qitishda ularga go‘zal xulq – atvor bilan tushuntirib borishsa, albatta bu yaxshi natijalarini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ma‘rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta‘lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Uning bu boradagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bolib xizmat qiladi.

Kamchiliklari: Badiiy asrni o‘qimaslik eng katta kamchilikdir. Turkiy Guliston yoxud axloq asari, insonning manaviy, fikriy va jismoniy rivojlanishiga ko‘p qiyin ta‘sir qiladigan ahamiyatli asarlar hisoblanadi. Bu asarlarni o‘qimaslik bir nechta oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, Turkiy Guliston yoki axloq asarlarni o‘qimagan holda, odam madaniyat va tarixi haqida muhim ma‘lumotlardan mahrum qolish mumkin. Bu esa, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga tog‘ri ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Tahdidlari:

1. **Ma‘lumot yoki nazariya qilmaydi:** Badiiy asarlarni o‘qimagan kishi ular haqida ma‘lumotga ega bo‘lmaydi va ularning muhim fikr-mulohazalaridan mahrum qoladi.
2. **Tarixiy-falsafa asoslardan mahrum qolish:** Bu tur asarlar tarixiy, falsafa yoki axloqiy muammolar bo‘yicha ko‘rib chiqishga yordam beradi. Ularni o‘qimagan odam, tarixiy muhitda yoki falsafa sohasida nazarlarini rivojlantirishda qisqa kelishishga yo‘l qo‘ymaydi.
3. **O‘zbek adabiyoti va fikriyatidagi chog‘larini tushunmaslik:** Turkiy Guliston yoxud Axloq asarlari o‘zbek adabiyoti va fikriyatidagi muhim chog‘lar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ularni o‘qimagan odam, shu muhim muhitdan mahrum qoladi va o‘zbek adabiyoti tarixi yoki jamiyatining taraqqiyotida tushunarli rol o‘ynashini tushunmaydi.

Xulosa.

Bu asar muallifi o‘z zamonasining namoyandalardan IQ sini yuqorilab ketganiga shak shubxasiz amin bo‘linadi. Asar yozilganiga necha yillar bo‘lsa ham bu asar o‘z mohiyatini yo‘qotmagan balki, bu asarni yana xam tub mohiyati izchil ochilib bormoqda. Bu asarni o‘qib chiqib shuni anglash mumkinki, asarda nafaqat yoshlarni hayotga tayorlashda balki butun insonyatni har sohada yetuk inson bo‘lishligi ham aqlan va jismonan, manan yetuk bo‘lishi haqida bayon qilingan. Bolani yoshlikdan tarbiya qilishga qaratilgan yani tarbiyani qancha erta boshlansa bola uchun shuncha muhimligi o‘z isbot dalilini topgan. Alisher Navoiy bobomiz aytganidek tarbiyani dastlab onani qornidaligidan boshlash kerak. Hozirgi zamonda atrofimizda tashqi ko‘rinishi jihatidan

o‘zini aqilli ko‘rsatadigan, lekin aslini olganda ichki dunyosi qashshoq bo‘lgan, manqurt insonlar jamiyatimizni bosib ketgan. Ayni shu pallada yosh avlodni, tarbiyali yetuk inson qilib tarbiyalashda dast avval oilada, so‘ngra bog‘cha, maktab, universitet ham o‘z o‘rniga ega, bog‘cha va maktablarda birinchi o‘rinda ta‘lim tizmini takomillashtirish va o‘qituvchi va murabbiylarni, pedagoglarni saviyasini oshirish ustida ishlash kerak va bu borada asarga tayanib ish yurtish kerak. Bu asarni o‘qishni hammaga tavsiya qilinadi, eng oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, asarni bir uyda o‘tirib bolalarining tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘ladigan ona uchun eng maqbul tanlov deb qo‘rqmay ayta olamiz, chunki bu asarni o‘qib onaning dunyo qarashi tubdan o‘zgaradi va farzandlariga to‘g‘ri tarbiya berishni yo‘llarini va usullarini qisman bo‘lsa ham tushunib oladi, hattoki asosiy yordamchi bo‘lsa ham ajab emas. Tarbiya hamma davrlarda ham baribir tarbiyadir. Bolalarni shu asarga mehr qo‘yishi uchun quyidagi usullardan foydalansa bo‘ladi:

Takliflar

1. **Tarixiy maqolalar va hikoyalar ustida davra suxbatlari:** Asarning asosiy mavzulari, tarixiy qadriyatlar, xalqning madaniy merosi haqida muloqotlar o‘tkazib, bolalarning fikrini o‘rganish va o‘zlarining tushunchalarini baholashga yordam berishi mumkin.
2. **Qahramonlar va xarakterlar haqida gaplashish:** Asarning bosh qahramonlari, ularning xususiyatlari, qobiliyatlari va xatti-harakatlariga oid muloqotlar o‘tkazib, ularning hayotiy darslarini va qadriyatlarini tushuntirish mumkin. **O‘qish va qo‘shiq eshitish:** Asarning qismlari to‘g‘risida o‘qish va o‘qishdan keyin bu qismlardan misollar anglatish. Qo‘shiqlarni eshitish orqali esa asarning atmosferasini o‘rganish, muharrirning hissiyatlarini o‘rgangan holda asar haqida muloqotlar o‘tkazish mumkin.
3. **Asarni bolalarga yoshligidan o‘rgatish:** “Ona tili va o‘qish savodxonligi” kitoblariga asarning kichik parchalaridan iqtiboslar keltirish, ijtimoiy tarmoqlarda kerak bo‘lsa, asar haqida kichik monologlar keltirish, yoki ular uchun multfilmlar yaratish.
4. **Asar haqida butun boshli kinofilmlar yaratsa bo‘ladi:** Bu filmlarda iloji boricha rollarni bolalarning o‘zi ijro etsa yanayam ishonchli chiqadi. Ular nima haqida rool ijro etishini xis etib, unga hayoti mobaynida amal qilishga harakat qilsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev “Xalq so‘zi” gazetasi 2020-yil 30-sentabrdagi nutqi.” 19 - soni
2. Sh. Mirziyoyev. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so‘zi", 2017-yil 4-avgust.
3. [A. Avloniy. Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom & Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-2 jild](#) 31 - iyul, 2020
4. [A. Avloniy. She‘rlar & Tanlangan asarlar.”Oqituvchi” nashriyoti](#) 12- iyul, 2014
5. A. Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. Fan va texnologiya nashriyoti. 2016. 67-bet
6. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.
7. D. Xojayeva Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta‘limi, 2003, 3-son.71-bet.
8. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432 bet.

**MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIYASOSLARI
VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI****Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi**

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisining innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ommalashtirish usullari, maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyachilarning inovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishni rivojlantirish usullarni aniqlash, tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishni ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, novatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik texnologiya

Kirish: Bugungi kunda taraqqiyotimizning talablari asosida ta‘lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta‘lim muassasalariga yetkazilib berilmoqda. Ta‘lim muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda.

Har bir sohaga kirib kelgani kabi ta‘lim sohasiga ham innovatsiya so‘zi kirib keldi. Yangilik: g‘oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod).

Innovatsiya: 1) yangilanish, o‘zgarish; 2) biror-bir yangilikni kiritish; 3) yangilikni o‘zlashtirish jarayoni. Innovatsiya (inglizcha Innovation - yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“*innovation*”) “yangilik kiritish” degan ma‘noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

“Innovatsiya (ingl. “*innovations*” – kiritilgan yangilik, ixtiro)

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar;

ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an‘anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Mazmunan innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba- sinovishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat hisoblanadi. Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g‘oyasi paydo bo‘ladi. U sotsial holatga undan ta‘limdagi yangilikni tug‘ilishi, paydo bo‘lishiga olib keladi.

M.Jumaniyozovanning fikricha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo‘ladi:

- **ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;**
- **pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;**
- **mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;**
- **tajriba-sinovishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;**
- **o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;**
- **hamkasblar bilan hamkorlik;**
- **fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;**
- **ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;**

Yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borishni innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoadagi psixologik muhit, jamoa a‘zolarining qay darajada dunyo ta‘limi bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligi asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoada ijodiy muhitning alohida o‘rni borligini ko‘pchilik olimlar ta‘kidlab o‘tadilar. Ta‘lim oluvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta‘lim jarayonidagi yangiliklarga bo‘lgan ijobiy munosabatlariga qarab, K.Rodgers va K.Angelovskiy pedagogik jamoa a‘zolarinibeshta guruhga ajratishni taklif etadilar.

1.Novatorlar.

2.Eski g‘oyalarni amalga oshiruvchilar.

3.Eski g‘oyalarni amalga oshirishni ma‘qul ko‘ruvchilar (aksariyat holatlarda ular ko‘pchilikni tashkil etadilar).

4.Yangi g‘oyalarni amalga oshirishni ma‘qul ko‘ruvchilar (hozirda ularning soni ham ortib bormoqda).

5.Ikkilanuvchilar: Ta‘lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Ta‘lim sifatini oshirishning samarali vositasi yangilik kiritish bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta‘lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta‘lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlarning faol ishtirok etishlari ko‘zga tashlanadi. Yurtimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Quyidagi pedagog olimlardan N.Azizxo‘jayeva, N.Sayidiahmedov, K.Zaripov, M.Ochilov, O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva, M.Jumaniyozova va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Lekin, ko‘pgina mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda bo‘ysunuvchi ijrochisi, ya‘ni yangilikning faqat iste‘molchisi bo‘lib qolsa, u holda bu jarayon ma‘muriy xarakterga ega bo‘ladi.

Darsga eng so‘nggi yangiliklarni olib kirib, innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lib, ta‘lim oluvchiga qiziqarli va uning ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlash mumkin.

Ta‘limning o‘zgaruvchanligi zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa ta‘lim jarayoninig sifatini ta‘minlaydi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishi uchun aqliy va jismoniy salomatligini, individual

ijodiy rivojlanish troyektoriyasini, maktabda o‘qitishga pedagogik va psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish va atrof muhitga moslashishini hisobga olgan holda optimal sharoitlarni yaratadigan dasturning o‘zgaruvchan qismidir.

Shuningdek, dinamik o‘zgaruvchan dunyo sharoitida inson hayotining barcha sohalariga yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65% kelajakda mavjud kasblarga ega bo‘lishga ishonishadi. Kelajakda yosh mutahassislar tabiiy fanlar va muhandislik kabi turli texnologik sohalardan malaka va ko‘nikmalarga muhtoj bo‘ladi.

Xulosa:

Bugungi kunda tarbiyachi innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishi uchun yangilik yaratishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, yangilikni o‘z faoliyatida qo‘llashdan cho‘chimasligi dardkor. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachining innovatorligini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish lozim. Qachonki qulay sharoitda tarbiyachida yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan‘anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublari namoyon bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.Nasaf,2000
2. SayidahmedovN.Pedagogikmahoratvapedagogiktexnologiya.–T.:OPI,2003.
3. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev Innovatsion ta‘lim texnologiyalari. Toshkent-2015
4. Мухина С.А. Соловьева А.А. Современные инновационные технологии обучения. –М. : “ГЭОТАР-Медия” 2008-43 с
5. Pedagogikafanidanizohlilug‘at/TuzuvchilarJ.Yu.Hasanboevvaboshq. –Toshkent:“Fanvatehnologiya”nashriyoti,2009.
6. Махкамов, А. Ю. (2022). Гимнастика ва уни укитиш методикаси. Дарслик. 2022й, 106-161.
7. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8.
8. Махкамов, А. (2023). Аралаш таълим технологиялари асосида булажак укитувчиларда соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш технологиялари. Общество и инновации, 4(6/S), 45-49.
9. Махкамов, А. Ю. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ БИТИРУВЧИЛАРИ УЧУН ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЙ-МЕТОДИК ИМКОНИЯТЛАРИ. Scientific Impulse, 1(9), 844-851

10. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
11. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
12. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
13. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
14. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
15. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
17. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
- 18.
19. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
20. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
21. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTH LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS". *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.
22. Махкамов, А. Ю. (2022). Соғлом Турмуш Тарзи Жамият Тараққиётининг Асосий Омили. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 249-252.

TASHQI VA ICHKI MOTIVATSIYALARNING YOSHGA BOG‘LIQLIGI**Davlatova Saida Tojimuxammadovna**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Mahmudov Muhammadali Qaxramonovich

Qo‘qon universiteti psixologiya 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda motivatsiya so‘ziga tarif va uning kelib chiqishi, qo‘llash usullari, turlari keng yoritib berilgan hamda bu ma‘lumot asnosida umumiy xulosalar berib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: Motivatsiya haqida tushuncha, uning kelib chiqishi, turlari, motivatsiya qo‘llash usullari.

Kirish:

Motivatsiya-bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma‘lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi va to‘xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda inson ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko‘pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta‘minlovchi paradigmatic ruhiy holat, istak deyiladi. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e‘tiqodlar ham motivatsiyani ta‘minlashi mumkin. Motivatsiya „motiv“ so‘zidan olingan bo‘lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari, yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayoni. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo‘lgan xohishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Asrimizning boshlarida turli mamlakatlarda motivatsiyani o‘rganish bo‘yicha samarali ishlar deyarli bir vaqitning o‘zida boshlangan edi. Motivlar muommosi rivojlanishda uzoq va qiyin yo‘llarni bosib o‘tdi. Tadqiqotlar tarixini hisobga olgan holda, motivatsiya assotsiatsiyachilarning “atomizm” tushunchalarini yengish bilan bog‘liq holda rivojlana boshlagan. Bu davrga kelib (XIX asr oxiri-XX asir boshi) che telshunoslikda motivlarni o‘rganishga katta e‘tibor berilgan. Motivatsiya masalalarini ishlab chiqish psixologiya fanining turli sohalarida turli usullardan foydalangan holda intensiv ravishda amalga oshiriladi. Angliyada Uilyam Makdugal instinktlarni asosiy tushuntirish tushunchasi deb hisobladi va shu bilan motivatsiyani instinktlar nazariyasi ruhida o‘rganishga asos soldi. Keyinchalik bu yo‘nalish zamonaviy etologlar -Konrad Lorenz va Nikols Tinbengenning asarlarida taqdim etiladi. Avstriyadagi Zigmund Freyd Makdugal bilan deyarli bir vaqtda tushlar mazmuni va nevrotiklarning xulq-atvori kabi mantiqsiz ko‘rinadigan hodisalarni yashirin ehtiyojlar dinamikasi bilan tushuntirishga harakat qildi. Motivlar haqidagi dastlabki tadqiqotni A. A. Uxtomskiy (1875-1945), yaxlit xulq-atvorni hisobga olgan. Uning ilmiy qiziqishlari markazida bo‘lgan motivlar muammosini u turli fiziologik, psixologik va turli jihatlarida o‘rganilgan.

Inson motivlarining asosiy turlari oltita komponentni o‘z ichiga oladi:

Tashqi motivlar. Ular tashqi komponentlardan kelib chiqadi. Misol uchun, agar do‘stingiz yangi narsa sotib olgan, va siz buni ko‘rgan bo‘lsangiz, pul ishlashga va shunga o‘xshash narsani sotib olishga undaysiz.

Ichki motivlar. Insonning o‘zida paydo bo‘ladi. Masalan, biror joyga borish va vaziyatni o‘zgartirish istagida ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, agar siz bu fikrni boshqalar bilan baham ko‘rsangiz, kimdir uchun bu tashqi sababga aylanishi ham mumkin.

Ijoiy motivlar. Ijoiy mustahkamlashga asoslangan bo‘ladi. Misol uchun, bunday motiv o‘rnatishda mavjud - men ko‘p ishlayman, men ko‘proq pul topaman. **Salbiy motivlar.** Ular insonni xato qilishdan qaytaradigan motivlar. Misol uchun - men o‘z vaqtida turmayman, muhim uchrashuvga kechikib boraman.

Barqaror motivlar. Inson ehtiyojlariga asoslangan va tashqaridan qo‘shimcha mustahkamlashni talab qilmaydi.

Beqaror motivlar. Ular tashqaridan doimiy mustahkamlashga muhtoj.

Tashqi motivatsiya tashqaridan kuchlar orqali insonni ishlashga undovchi kuch. Ya‘ni, odamlar xatti-harakatlarining sabablarini o‘zlari qabul qiladilar va o‘zlarini piyon deb hisoblaydilar. Bunday motivatsiyalar tashqi moddiy va psixolog shart-sharoitlar bilan tartibga solinadi: pul, mukofat va hatto jazo. Ichki turtki insonga “Men” ga yetaklaydigan malakaga hamda shaxsiy tanlovga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Bunday turtki bilan, odamlar nima qilishayotganining haqiqiy sababi nima ekanini tushunadilar va atrof-muhit bilan samarali ta‘sir o‘tkazadigan vosita sifatida o‘zaro munosabatlarda o‘zlarini his qilishadi. Ya‘ni ichki motivatsiya, ehtiyojlar, manfaatlar, niyatlar, maqsadlar, istaklar, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini anglash imkoniyati, ishdan qoniqish hislarida ishlatiladi. Salbiy motivatsiya shaxsning psixologik holatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan salbiy his tuyg‘ular va hissiyot bilan bog‘liq. Shuning uchun ularni ishlatishda bir nechta omillarni hisobga olish kerak.

- Intelektual rivojlanish darajasi. Inson aqilli va bilimli bo‘lsa salbiy motivatsiya usullari unchalik ta‘sir qilmaydi.
- Yoshi bilan odam salbiy motivatsiyaga moyilligi ko‘proq bo‘ladi. Yillar o‘tishi bilan uning hayotida norozilik va salbiy his-tuyg‘ular ta‘siri darajasi kuchayib boradi.
- Oilaviy ahvol. Motivatsion ta‘sir biz sevadigan va qiyinchilikdan himoya qilishga harakat qiladigan oila, yaqinlar haqida ko‘proq v sezgirroq qabul qilinadi.

Dunyo bo‘ylab eng zo‘r aql egalari motivatsiyani batafsil o‘rganishgan. Bunga jaxon adabiyotidagi asarlarini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Podmarkova, I.F. Belyaeva, D.S. McClelland, J. Atkinson. Aksariyat psixologlar hamda faylasuflar to‘plangan ma‘lumotlarni nazariya va g‘oyalarda aks ettirdilar. Bu esa hozir ham insonga hayotni qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi. Motivatsiya funktsiyalari, qoida tariqasida, belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Ular butun tizimga yaxlitlik va barqarorlik beradi.

Motivatsiya bu insonni biron ishga undash, uni harakatga keltirish. Motiv bo‘lmasa motivatsiya bo‘lmaydi. Motivatsiya asosan ikki turlik bo‘ladi. Ichki va tashqi. Ichki motivatsiyada insonni o‘zi tomonidan paydo bo‘lishiga aytiladi. Tashqi motivatsiyada esa insonga tashqi tomondan keladigan kuchlar. Motivatsiya hayotimizning istalgan bosqichida muvaffoqiyat qozonishning

muhim omillaridan biri. Shaxsiy yoki professional voqealar bo‘ladimi, ikkalasi ham maqsadga erishish uchun odamga kuchlik motivatsiya kerak bo‘ladi .

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkini motivatsiyani yoshga bog‘liqligini yosh davrlari bo‘yicha kuzatishlarga asoslanib, inson ehtiyojlaridan kelib chiqib motivatsiya rivojlanib boradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hayotiy tajriba ortib borgan sari erishilgan natijalar ahamiyati katta. Agar muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi tajribada mavjud bo‘lsa shaxsni intilishlariga ijobiy ta‘sir etadi. Agar muvaffaqiyatsizliklar tajribada kuzatilgan bo‘lsa ehtiyotkorlik kuchayib ketadi. Istiqbolni ijobiy tasavvur etish pozitiv natijalarga erishishning daslabki qadamidir. Har bir insonda ichki va tashqi motivatsiyalar mavjud. Anashu motivatsi sabab insonlar doimo izlanish va intilishda harakatda bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл."Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." Т.: ТДИУ 95 (2013).
2. Ганиева, М. А., & Файзуллаева, Д. М. (2013). Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл."Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан. Т.: ТДИУ, 95.
3. Файзуллаева, Д. М., М. А. Ганиева, and И. Неъматов. "Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами/Мет. қўлл." Ўрта махсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан–Т.: ТДИУ 137 (2013).
4. Файзуллаева, Д. М., Ганиева, М. А., & Неъматов, И. (2013). Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами/Мет. қўлл. Ўрта махсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан–Т.: ТДИУ, 137.
5. Ganiyeva, Muborak. ""Шахс ва жамият" ўқув фанида таълим сифатини оширишнинг муҳим масалалари (Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари мисолида)." Архив научных исследований (2020).
6. Ganiyeva, M. (2020). "Шахс ва жамият" ўқув фанида таълим сифатини оширишнинг муҳим масалалари (Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари мисолида). Архив научных исследований.
7. Ganiyeva, Muborak. "Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари." Архив научных исследований (2020).
8. Ganiyeva, M. (2020). Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари. Архив научных исследований.
9. Madaliyeva Xurshida Ulug‘bek qizi, & Muborakxon Ganiyeva. (2023). МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ TASHKILOTLARIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 350–352. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.445>
10. Ганиева, М. А. "САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ." Экономика и социум 3-2 (106) (2023): 468-474.

11. Ганиева, М. А. (2023). САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ. Экономика и социум, (3-2 (106)), 468-474.
12. Ганиева, Муборак Адиловна. "Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение»." Вестник Университета Российской академии образования 3 (2010): 135-137.
13. Ганиева, М. А. (2010). Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение». Вестник Университета Российской академии образования, (3), 135-137.
14. 8. Raximjonovna, U. N. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
15. 9. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEKANIZIMLARI.
16. 10. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from
17. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
18. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
19. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
20. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
21. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
22. Umarov Toxirjon. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
23. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
24. Umarov, T. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH JARAYONIDA RAHBARNING KASBIY
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)****Djalilova Madina Botirovna**Qo'qon universiteti Ta'lim Muassasalarining
boshqaruvi yo'nalishi 1-bosqich maigstranti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlar uyg'unligini talab qiladi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish, murabbiylik va tajriba asosida o'rganish imkoniyatlari orqali yetakchilar o'z imkoniyatlarini oshirishlari va erta bolalik ta'limini rivojlantirishga mazmunli hissa qo'shishlari mumkin. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimidagi yetakchilikning murakkab va nozik tomonlarini yoritish, ta'lim yetakchilarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning nozik jihatlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, yetakchi, boshqaruv, ta'lim muassasasi, maktabgacha ta'lim tizimi, munosabat, trening, murabbiylik, tajribaviy o'rganish.

Kirish. Ta'lim jamiyat kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muhitida samarali yetakchilik ta'lim muassasalarining muvaffaqiyati va rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sharoitida yosh bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda ta'lim beruvchilarning o'rni katta. Ushbu ilmiy maqola maktabgacha ta'lim tizimiga misol tariqasida e'tibor qaratgan holda ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni o'rganishga qaratilgan. Ta'lim muassasasini, ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida boshqarish jarayoni uning rahbarlaridan o'ziga xos mahorat va kasbiy tajribalarni talab qiladi. Boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq, ta'lim muassasalari nafaqat ma'muriy qobiliyatga ega, balki pedagogika, bolalar rivojlanishi va o'quv muhitidagi ijtimoiy dinamikani chuqur tushunadigan rahbarlarni talab qiladi. Shu sababli, ta'lim rahbarlarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimlarining muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Kasbiy kompetensiya haqida gapirganda, biz rahbarlarga o'z rollarida mavjud qiyinchiliklar va imkoniyatlarni samarali boshqarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va munosabatlar kombinatsiyasini nazarda tutamiz. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida yetakchilar erta bolalik rivojlanish nazariyalari, o'quv dasturlarini loyihalash, o'tonalarni jalb qilish strategiyalari va ta'lim amaliyotini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yaxshi bilishlari kerak. Bundan tashqari, ular kuchli muloqot qobiliyatiga, hissiy intellektga va yosh bolalar uchun ijobiy ta'lim tajribasini rivojlantirishga chinakam ishtiyogga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy omillaridan biri bu uzluksiz malaka oshirishdir. Tez rivojlanayotgan ta'lim sohasida rahbarlar joriy tendentsiyalar, tadqiqot natijalari va ilg'or tajribalardan xabardor bo'lish uchun umrbod ta'lim bilan shug'ullanishlari kerak. Seminarlar, seminarlar, konferentsiyalar va yuqori darajalar kabi professional rivojlanish imkoniyatlari rahbarlarga o'z rollarida ustunlik qilish uchun zarur vositalar va bilimlarni taqdim etishi mumkin.

Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan yana bir muhim jihat - bu mentorlik va murabbiylikdir. Tajribali ta'lim rahbarlari o'zlarining kasbiy o'sishida intiluvchan rahbarlarga rahbarlik qilish va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Mentorlik dasturlari orqali rivojlanayotgan rahbarlar tajribali mutaxassislarning donoligi va tushunchalaridan foydalanishlari, etakchilik strategiyalari, muammolarni hal qilish usullari va qaror qabul qilish jarayonlari bo'yicha qimmatli istiqbollarga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, ta'lim rahbarlarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish jarayoni tajribaviy o'rganishni ham ta'kidlashi kerak. Amaliy tajribalar, masalan, stajirovkalar, ish o'rinlarini belgilash va etakchilik loyihalari rahbarlarga o'z bilim va ko'nikmalarini turli sharoitlarda qo'llash uchun real imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Tajribali ta'lim bilan shug'ullanib, etakchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, chidamlilik va moslashuvchanlikni rivojlantirishlari mumkin - maktabgacha ta'limning dinamik sohasida samarali etakchilik uchun muhim fazilatlar.

Asosiy qism. Ta'lim yetakchiligining dinamik manzarasida ta'lim muassasasini boshqarishda yetakchining roli ko'p qirrali va talabchan. Bu, ayniqsa, maktabgacha ta'lim kontekstida to'g'ri keladi, bu erda rahbarlarga nafaqat ma'muriy funktsiyalarni nazorat qilish, balki yosh bolalarning o'rganish tajribasini boshqarish va shakllantirish vazifasi ham yuklangan. Ushbu rahbarlarda kasbiy kompetentsiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimini samarali boshqarish va erta yoshdagi bolalarga yuqori sifatli ta'limni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim etakchiligidagi professional kompetentsiya ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli etakchilik uchun muhim bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'limda rahbarlar bola rivojlanishi, erta bolalik ta'limi nazariyalari, o'quv dasturlarini loyihalash, pedagogik yondashuvlar va tartibga soluvchi talablar haqida chuqur tushunchaga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, ular kuchli muloqot qobiliyatlari, hissiy aql, madaniy kompetentsiya va bolalar, oilalar va xodimlar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'lim rahbarlarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirishning asosiy elementlaridan biri bu mustahkam ta'lim va tayyorgarlikdir. Maktabgacha ta'lim tizimidagi rahbarlar ideal tarzda ta'lim yetakchiligi, erta bolalik ta'limi yoki tegishli sohada yuqori darajaga ega bo'lishi kerak. Ushbu akademik malakalar yetakchilarni kuchli nazariy asos bilan ta'minlaydi va ularni ongli qarorlar qabul qilish, samarali siyosatni ishlab chiqish va erta bolalik ta'limida ilg'or tajribalarni ilgari surish uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan jihozlaydi. Qolaversa, doimiy kasbiy o'sish ta'lim rahbarlarining doimiy o'sishi va takomillashishi uchun juda muhimdir. Seminarlar, seminarlar, konferentsiyalar va malaka oshirish dasturlari kabi kasbiy rivojlanish imkoniyatlari rahbarlarga o'z malakalarini oshirish, bilim bazasini kengaytirish va erta bolalik ta'limi sohasidagi yangi tendentsiyalar va tadqiqot natijalaridan xabardor bo'lish imkoniyatini beradi. Liderlar umrbod ta'lim bilan shug'ullanish orqali o'zgaruvchan ta'lim landshaftlariga moslashishlari, innovatsion amaliyotlarni joriy etishlari va o'z muassasalarini mukammallikka olib borishlari mumkin.

Ta'lim yetakchilarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda murabbiylik va murabbiylik ham muhim o'rin tutadi. Tajribali ustozlar yetishib chiqayotgan yetakchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, qo'llab-quvvatlashi va fikr-mulohazalarini berib, ularga murakkab muammolarni hal qilishda, yetakchilik uslubini takomillashtirishda va ta'lim muassasalarini boshqarishning

samarali strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Mentorlik dasturlari orqali rahbarlar tajribali mutaxassislarining donoligi va tajribasidan foydalanishlari, etakchilik amaliyoti va maktabgacha ta'limga innovatsion yondashuvlar haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin. Rasmiy ta'lim va murabbiylikdan tashqari, ta'lim rahbarlarida professional kompetentsiyani rivojlantirish uchun tajribaviy o'rganish imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Amaliy tajribalar, masalan, stajirovkalar, ish o'rinlari almashinuvi va yetakchilik loyihalari rahbarlarga o'z bilim va ko'nikmalarini real sharoitlarda qo'llash, amaliy tajriba orttirish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Tajribali ta'lim bilan shug'ullanib, etakchilar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va qiyin ta'lim muhitida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan chidamlilikni rivojlantirishi mumkin. Maktabgacha ta'limda samarali etakchilik, shuningdek, ijobiy va inklyuziv maktab madaniyatini rivojlantirishga chuqur intilishni talab qiladi. Rahbarlar bolalar, oilalar va xodimlar uchun mehmondo'st, xavfsiz va qo'llab-quvvatlanadigan muhitni yaratishi kerak. Bu xilma-xillik, tenglik va inklyuzivlikni rag'batlantirish, barcha manfaatdor tomonlarning o'ziga xos kelib chiqishi va istiqbollarini qadrlash va ta'lim muassasasida hamkorlik va o'zaro hurmat madaniyatini yaratish uchun faol ishlashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, axloqiy etakchilik ta'lim rahbarlarida professional kompetentsiyani shakllantirishning asosiy jihati hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi rahbarlari yuqori axloqiy me'yorlarga amal qilishlari, o'z harakatlarida halollik, shaffoflik va mas'uliyatni namoyon etishlari, bolalar va oilalarning farovonligi hamda manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishlari kerak. Axloqiy etakchilik ma'naviy jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilish, kasbiy qadriyatlar va tamoyillarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasasida ishonch madaniyati va axloqiy xulq-atvorni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Hamkorlik va jamoaviy ish ham maktabgacha ta'limda samarali etakchilikning muhim tarkibiy qismidir. Rahbarlar o'qituvchilar, xodimlar, ota-onalar va jamoat hamkorlari bilan birgalikda mukammallikka erishish va yosh bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun hamkorlik qilishlari kerak. Hamkorlik va jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirish orqali rahbarlar o'z jamoa a'zolarining turli tajribalari va istiqbollaridan foydalanishlari mumkin, mustahkam aloqalarni o'rnatish va barcha manfaatdor tomonlar uchun qo'llab-quvvatlovchi va kuch beruvchi ish muhitini yaratish.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlik qilayotgan rahbarlarda kasbiy kompetentsiyani shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bilim, ko'nikma, munosabat va tajriba uyg'unligini talab qiladi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish, murabbiylik, tajribali o'rganish, axloqiy yetakchilik, hamkorlikdagi amaliyotlar hamda xilma-xillik va inklyuzivlikka sodiqlikka sarmoya kiritib, yetakchilar o'z imkoniyatlarini oshirishi va erta bolalik ta'limi sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim kelajagini shakllantirish va yosh bolalar va ularning oilalari uchun ijobiy natijalarni ta'minlashda samarali etakchilikning muhimligini ta'kidlab, ta'lim rahbarlarida professional kompetentsiyani shakllantirishning asosiy jihatlarini o'rganib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afforov, F. H. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHQARISH SAMARADORLIGI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(21), 195-197.
2. Кежабоев, А. (2023). PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/5).
3. Nabiev, E. E. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHGA YO 'NALTIRILGAN JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 2), 120-126.
4. Bahodirovna, A. L. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARISHNING ZAMONAVIY SHARTLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 34-36.
5. Olloshukurovna, Y. L. N. (2023, June). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION YONDASHUV. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).
6. Kamola, D., & Zilola, A. (2023). NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL ETISH. *Ustozlar uchun*, 24(2), 39-44.
7. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78-83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
12. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
13. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
14. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
15. Yaratov, J. V. (2023). MAKTAB DIREKTORLARINING PEDAGOG XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISHDAGI ROLI. *GOLDEN BRAIN*, 1(27), 78-85.

**MILLIY ANANALARIMIZ VA URF ODATLARIMIZ RUHIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONLARINI
TASHKIL QILISH****Djo'rayeva Dildorahon Rahmonaliyevna**

Qo'qon universiteti talabasi

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada urf odat va ananalarimizni maktabgacha yoshdagi o'rni haqida so'z boradi. Bugungi kundagi kelajak avlodlarimiz o'z hayoti va taqdirining egalari o'z tarix zarvarolarining ijodkori, yaratuvchisi urf odat va ananamizning kelajak avlodlarga oqilona etkazuvchi ishtirokchilaridir. Maqolada Turli metodlardan ko'rsatib o'tilgan. Adabiyotlar tahlili va guruhlarda o'tkazilgan metodlar natijalari, ven diyagramasi asosida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Milliy ruh, qadriyatlar, metodlar, kreativ, an'analar, qo'llay olish.

Kirish:

Jadallik bilan rivojlanib kelayotgan hozirgi zamonaviy texnika asrida aqlan soglom manan yetuk barkamol farzandlarni tarbiya qilish va ta'lim berish ularni o'z mintalitetimiz va o'zbekona shuning bilan zamon bilan hamnafas, kuchli rivojlangan davlatlar va ular bilan tenglasha oladigan komil inson qilib talim tarbiya berish zamon talabidir. Uning uchun faqat maktab, oliy talim tizimi emas eng avvalo kelajak poydevori bo'lmish maktabgacha talim tizimi asosiy bo'gin hisoblanadi. Chunki istiqbolli kelajak asosi yanii poydevor mustahkamligidan marralarga zafarlarga olib kelishi darkor. Yosh avlod ongi, tasavvuri va tafakkuriga singdirib borilayotgan milliy g'oya har qanday yod g'oyalar tasiriga tushib qolishni oldini olish bilan bir qatorda ularga munosib javob qaytara olish, milliy urf odat va an'analarimizni asrab avaylash bilan hurmat qilish ko'nikmasi shakllanadi. Qadriyatlar millatlar rivojining magizidir. Millatlarning tarihiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini kelajak avlodlarga etkizuvchi qudratli omildir. Tarihiy erishilgan yutuq va kamchiliklarni bilish undan ibrat olish, kelajakdagi katta katta qadam va maqsadlar tuzishga undovchi faktlardir. Milliy urf odatlarimiz, an'analarimiz, qadryarlarimiz bu millatning tarihidir. Shunday ekan kelajakda o'z tarihi buyuk va doimiy tillarda bo'lishi uchun har bir shaxs o'z tarihini bilishi o'z fikriga va maqsadiga ega bo'lishi lozim. Qanday kasbda bo'lishdan qat'iy nazar har bir inson o'z tarihini chuqur bilgan holda o'z faolyatini olib borilsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Bu nafaqat o'zi uchun balki kelajak zamon uchun ham o'z tasirini o'tkazadi. Bugungi kunda har bir javhada ko'rishimiz mumkin. Eng avval talim tizimida bu natijalar ko'rinadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyat va an'alarimiz, urf odatlarimizga sadoqat, muhabbat ruhida kamol toptirish uchun hozirgi kun tarbiyachisi o'z ustida ishlashi kreativ har qanday holatdan chiqa biladigan, uddaburon kuchli psixolog bolishi kerak. Chunki talim tarbiya jarayonini tashkillash vaqtida muhit, holat, hududdan kelib chiqib o'zi faoliyat mazmunini o'zgartirish, mavzudan chiqib ketmagan holda davom etkizdira olishi lozim. Bu turli hil markazlarda yoki hududlarda bo'lsa ham masuliyatni o'z bo'yniga olib, bola bilan birga tashkillab, birga birinchi bo'lib mavzu va faoliyat yoki tadbir, davra suhbatlari yoki bayramlarda ham o'zi qatnashsa, bolaga bayramga moslab tayyorlangan libosni taklif qilishdan oldin, o'zi birinchi bo'lib kiya olsa, o'z ko'zlagan maqsadlariga erisha oladi.

Adabiyotlar tahlili.

Xulosa shuki milliy- ozodlik harakati fidoiyatlari safida harakat qilgan Abdulla Avloniy bobomizning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamaot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalalaridir” [2, 39], -degan jumllarini eslatib o‘tishni joiz topdim, chunki tarbiyaga etiborsizlik, o‘z tarhini bilmaslik va qadriyatlarni qadrlamagan joyda natija va o‘shish, yuksalish bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19-yanvar kuni manaviy -ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarini hamkorligini kuchaytirish vazifalari bo‘yicha o‘tkazilgan video selektir yig‘ilishida. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat, - deb etirof etdilar. Shunday ekan qadriyat o‘zi nima? Qadriyatlar deganda insoniyat uchun daxldor jamiki narsa va hodisalar tushuniladi. Insoniyat tarhini kelajak avlodlarga to‘la to‘kis yetkazish, maktabgacha t‘alim tarbiyachisining burchi bo‘lishi o‘rinlidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bola sensor ta‘lim tarbiyani tez o‘zlashtiradi va yodida olib qoladi. Ota -onadan ko‘ra tarbiyachini bolalar ideal deb biladi. Kichkintoylar eng ko‘p vaqtini MTTda o‘tkazadi ertalabki qabuldan boshlab ertalabki davra suhbat, ertalabki nonushtada turli faoliyatlar vaqtida, o‘yin vaqtida, tushlikda, tushlikdan so‘ng, uyqu vaqtida, tarbiyachining allasi-yu yoqimli ertaklarini tinglab uhlaydi va kechki choyu sayrlarda doim birga bo‘lib, ular o‘rtasida ipsiz bog‘lanish mehr muhabbat tuygulari shakllanib ishonchi ortadi va aytganlarini haq deb biladi. Tarbiyachi kiyinish madaniyatiga gapiryotgan nutqiga ham alohida etibor berishi kerak. Milliy bayramlarimizda milliy libosni birinchi bo‘lib tarbiyachi o‘zi kiyishi muhim. Bolajonlarga bu qiziqarli va yoqimli bo‘ladi. Tarbiyachi bolalar ko‘z o‘ngida sensor ko‘zguday shakllanib ko‘zgudagi aksini ko‘rsatishga intiladi. Bu esa bolaning hotirasiga muhirlanib qoladi. Tarbiyachining nutqi uning ravonligi va ona tilimizga hos bo‘lmagan so‘zlarni qo‘shmasligi, tarbiyalanuvchilar bilan muloqot chog‘ida, past ohangda so‘zlashi, faoliyatlarda ham past muloyim ohangda so‘zlasa, tarbiyalanuvchilar ma‘naviy tarbiya berib boriladi. Bolalar muloqotda ham hushmomala to‘g‘ri so‘z bo‘lib ularga o‘rnak bo‘lsa o‘ziga bo‘lgan ishonch va hurmatga ega bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilarni doim ko‘z o‘ngida bo‘lar ekan ular oldida doimo har qanday holatda ham ideal namunali bo‘lsa tarbiyalanuvchilar so‘siz komillikka erisha oladi. Hayotda uchraydigan har hil vaziyatlarda o‘zini tuta bilishi, jahli chiqqanda o‘zini jilovlay olishi juda muhim hissoblanadi. Tarbiyalanuvchini kuzatish jarayonida unda uchraydigan kamchiliklar, nuqsonlarga beparvo bolmasligi u bilan yakka tartibda faoliyat olib borishi, qaysi rivojlanish sohasida bo‘lsa mutahasislarga bildirib hamkorlikda faoliyat olib borishi kerak. Agar hamkorlikda faoliyat olib borib ham natijaga chiqara olmasa tarbiyalanuvchining ota-onasi bilan tushintirish ishlarini olib borib bu kamchilik yoki nuqsonni karreksiya qilish kerak. Chunki bolajonlarning dastlabki suyagi qotmagan davri maktabgacha davri bo‘ladi. Vaqtida tarbiyachining hushyorligi bilan bolajonlarni nuqson va kamchiliklari bartaraf etilib kelajakda uchraydigan yomon holatlarni oldini olgan bo‘ladi. Bu esa o‘shib borayotgan barkamol avlodning yutug‘i farzandlarimiz hech kimdan kam bo‘lmay yuksak yuksak marralarni quchib jonajon

o‘zbekistonimizga o‘z hissasini qo‘sha oladi. Bolaga topshiriq berishdan oldin uni tarbiyachining o‘zi bola tilida birinchi bo‘lib bajarsa bola bundan sensor tarbiya oladi o‘zlashtirishi yuqori bo‘ladi. Tarbiyachi nutqi, xulqi, uddabironligi va holatdan chiqa olishi bilan hammadan ajrab tura olishi, har qanday harakterli tarbiyalanuvchilar, ota -onalar yoki MTT ga tashrif buyurgan har qanday inson bilan to‘g‘ri muloqotga kirisha olishi lozim. Tarbiyachi kitob mutoala qilib turishi yangi chiqqan qaror va qoidalardan doim habardor bo‘lishi kerak. Chunki mustaqil yurtimizda halqimizni manfaati uchun prizdidentimiz Shavkat Mirziyoyiv Miromonovich tomonidan juda ko‘p qonun va qarorlar amalga oshirilmoqda. MMT vazirligi ham talim tizmiga juda katta e‘tibor va moddiy manaviy yangiliklar kiritmoqda, bu esa tarbiyachilarni ildam qadamlar bilan zamon talabiga labbay deb javob bera olishi lozim. Tatbiyalanuvchilar erta yoshdayoq MTT hovlisida, bayramlarda, sayrlarda bo‘lgan vaqtida ularga odob ahloq qoidalarini singdirib borish kerak. Salomlashish odobi kattalarga hurmat kichiklarga izzatda bo‘lish kerak ekanligini o‘rgatish mobaynida bu bizning o‘zbekona odatlarimiz va qadryatlarimiz ekanligini doim yodda tutishlari va vatanni qadrlab, o‘z millatidan fahrlanib hurmat qilishlarini ongiga singdirib borishi lozim.

Ertalabki doira suhbatlari:

Ertalabki doira suhbatida oy mavzu, hafta mavzusidan kelib chiqqan holda tarbiyachining o‘zi mavzu tanlaydi. Tarbiyachi kunda bo‘layotgan ertalabki doira suhbatida mavzuni milliy qadriyatlarimiz va urf odatlarimiz bilan uyg‘un holda tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan sentabr oyining mavzusi “Mening jonajon O‘zbekistonim” bo‘lsa, ertalabki doira suhbatini mavzusini “o‘zbek millati” deb tanlasa, bolajonlar bilan O‘zbekiston haqida o‘rganishdan oldin o‘zbek degan so‘zning manosi va nima ekanligini tushunib oladi va oy mavzusini tushinishda oson bo‘ladi. Hafta mavzularini boshlashda ham mana shunday doira suhbatlari tashkillansa, faoliyatga qo‘yilgan maqsadiga to‘liq erishiladi.

Masalan: **Matematika** faoliyatida predmetlar bilan shaklni bog‘lang o‘yinini o‘ynatishdan oldin tarbiyachi o‘zi amalda qo‘lab ko‘rsatib berilsa, bola davom etkizib bog‘lab ketadi. Pul birliklari, vaqt yil fasllar haqidagi tushunchalarini shakllantirishda ham biz muomala qiladigan pul birliklarimiz, o‘z milliy boyligimiz ekanligini, vaqt haqidagi tushunchani shakllantirayotganimizda bugungi kun bir kun tarixga aylanishini, yil fasillari haqida tushincha berilayotganda bizning o‘zbekistonda to‘rt fasil o‘z o‘rnida kelishi haqida to‘liq tushinchalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qo‘llash uchun metod. Pullarni bankga topshir metodi. Bolajonlarni birini bank ishchisi qilib tayinlanadi. Qolgan bolalarga turli davlatlarning pullarini maketi va o‘z pullarimizdan beriladi va bu pullarni bankga topshirishi kerak ekanligi aytilad, Bolalar pullarni olib , bank hodimiga olib boradi. Bu o‘yinda bank hodimi tarbiyachining o‘zi bo‘lsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalar pulni plib kelganda uni tekshirib o‘z pulimiz bo‘lsa uni qabul qilib, agar boshqa davlatning puli bo‘lsa uni qabul qilmasligini va nima uchun qabul qilmasligi haqida tushincha berishi lozim.

Sanat markazida milliy naqishlar mavzusi bo‘lsa oddiy misol do‘ppini naqshida nimalar aks ettirilgani undagi belgilar ortida milliy qadryatlarimizga bog‘liq bolgan ma‘nolari borligi har bir naqsh tarixiy voqealarni sharqlay olishini tushintirib borilsa, bolalar ongida qadriyatlarga bo‘lgan mehr tuyg‘usi rivojlanadi. Milliy bayramlarimizda milliy liboslarni tarbiyachi o‘zi ham kiyib

ko‘rsatib, bu liboslarni faqat o‘zbek ayollari kiyishi, har qanday davlat kiyimlaridan ham betakror go‘zal ekanligini ham takidlab borilsa, bolajonlar har hil bachkanalikka emas o‘z milliy liboslariga intiladi.

2. Qo‘llash uchun metod;Naqishlarni o‘rniga qo‘y.

Bu metodda bolalarga turli viloyat do‘ppilari maketlarini do‘ppilarga to‘g‘ri joylashi kerak, bunda bolalarga turli millatlar yoki viloyatlar do‘ppilari ko‘rsatilgan suratlar beriladi. Bolalar suratlardagi istalgan do‘ppilardan tanlab mahsus tayyorlangan do‘ppining maketiga naqishlarini yopishtirishi kerak bo‘ladi.

Sujetli ro‘lli markazda. Bu markaz bizning o‘zbekligimizni milliy urf odatlarimizni o‘zida mujassam etgan boy markazdir. Faoliyatlarda bolalarga milliy adraslarimiz, so‘zanalarimiz, milliy idish buyimlarimiz haqida ma‘lumot berib, milliy qahramonlarimiz talqinida chiqishlar qilib ko‘rsatishimiz lozim bo‘ladi. Bola ongida o‘z tarixini hurmat qilishi va o‘z urf odatlari-yu an‘analariga sodiq bo‘lib kelajak avlodlarga ham yetkazilishi taminlanadi. Jaloliddin Manguberdi, To‘maris, Alpomish kabi buyuk bobokolonlarimizni ko‘z o‘ngida gavdalantirib berilsa, ularni ro‘llariga kirib tarbiyalanuvchilar bilan suhbatlar tarbiyaviy o‘gitlar berishsa bolalarni hotirasiga o‘chmas bo‘lib muhrlanadi. Bolajonlar bohcha yoshida qalbi beg‘ubir ko‘rgan narsasiga ishonuvchan zehinli bo‘ladi. Tarbiyachi bu sahna ko‘rinishlarni tayyorlashda tashkilotdagi boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda ishlab, tayyorlov guruhining tarbiyachisi, katta guruhga Alpomish bo‘lib taklif etilishi va bolalarga o‘zini tanitmasligi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun pedagogdan kuchli mahorat, iqdidor, ijodkorlik, aktyorlik qobiliyati bo‘lishi kerak. Bunday uchrashuv suhbatlari uchun tabiiy kiyim, liboslar, dekaratsiyalar kerak bo‘ladi. Libos va dekaratsiyalarni tashkilot uchun hamma o‘rtada bittadan tayyorlab qo‘yilsa u ehtiyot qilinib, tashkilot liboslar honasi tayyorlanib saqlab boriladi. Bunday uchrashuvlarni oylarga bo‘lib olinsa ham bo‘ladi. Sentabr oyida Jaloliddin Manguberdi bilan uchrashuv suhbatlari tayyorlansa oy mavzuga hamohang bo‘ladi. Mart oyida Alpomish bilan uchrashuv suhbatlari kechaligi ham oy mavzusiga keladi. Shu kabi shunday jonli uchrashuvlarni tashkillab turilsa o‘z kelayotgan jaxji kelajagimiz poydevor vorislari milliyligimiz ruhida kamol topib boradi.

3.Qo‘llash uchun metod. Buyuk bobokolonlar metodi.

Bunda bolajonlarga oy va hafta mavzularimizdan kelib chiqqan holda tarihdagi bobokolonlarimiz haqida video yoki slaydlarni qo‘yib berib ularning ro‘liga kirira olishi kerakligi haqida tushuncha berish lozim. Masalan;Alisher navoiy ro‘li berilgan bolaga Navoiyning kiyimlari uning sherlari, asarlarini nimaga bitganligi va uni yozishda nimalardan foydalangan bo‘lsa shundan foydalanib, berilgan rolini bajarishi kerak ekanligi tushintirish kerak.

Fan va tabiiyat markazida. Bolalarga tabiiy boyliklarimiz ularning yaralishini ertak yoki hikoya tarzida ifodali qilib aytish orqali ongiga singdirish, masalan sumalakning paydo bo‘lishi va tarixini aytib bola nutqini so‘z boyligini ham rivojlantirib boramiz. Pilla qurtining tarixi uni yetishtirishdagi mehnat va mehnatning natijasida nimalar olinsa bo‘lishi haqida ham tushunchalar berib boriladi. Tarbiyalanuvchilar bilan amaliy tajribalar tashkillab ko‘z o‘ngida birgalikda bajarish ular uchun juda ham maroqli ham yodda qolarli bo‘ladi. Tuvaklarga uruq qadab uni kunda suv quyib parvarish qilib unishini kuzarish, piyoz, sarimsoqni mahsus idishchalarga qadab qo‘yib uni parvarish qilib unib chiqishini ko‘rish, suv bilan amaliy tajribalar o‘tkazilayotganda tuproqning, suvning, quyosh nurining qudrati va bular ham boyliklarimiz ekanligi, bularga ham oqilona va muhabbatli munosabatda bo‘lishlari kerak ekanligini ham ongiga singdirish kerak.

4. Qo‘llash uchun metod. Bizning oshhona.

Bunda bolajonlar mahsus tayyorlangan milliy oshhona idishlarini farqlashni va qay maqsadda ishlatilishini topa olishi lozim. Masalan tarbiyachi milliy idishlarning maketini yasab, stol ustiga terib qo‘yadi va har bir bolaga bittadan oldirib, qanday idish ekanligi, nimaga ishlatilishi va nimadan tayyorlanganligini so‘raydi.

Til va nutq markazi; Bu markazda bolalarga she‘rni ifodali o‘qish, ertaklarni intanatsiya bilan aytib berish orqali bola nutqini ochishga va so‘z boyligini oshirib, diqqatini yig‘ishga, ulug‘ allomayu shoirlarimizni gazal va ruboiylarini yod oldirib bola hotirasini mustahkamlanadi. Do‘st, yaqinlari va insonlar bilan munosabatga kirishish jarayonlarini rivojlantirib boriladi. Muloqot jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri aytishi va yod so‘zlarni qo‘shmaslikga o‘rgatish kerak. Tarbiyalanuvchilar ertak aytishni juda yahshi ko‘radi lekin hozirgi zamonamiz kichkintoylari oddiy kitobdan o‘qib berganingizni eshtishni hohlashmaydilar. Bolajonlar ertaklarni turli ohangda, qahramonlar ro‘liga kirib, ovoz tomlarini o‘zgartirib, aytilgan ertaklarni maroq bilan tinglaydi. Ertaklarni integratsion tuzgan holda turli mazmunlarini o‘zgartirib, ohirida nima bo‘lar ekan deb qiziqib ham tinglaydi va o‘zi bilmagan holda jon quloq bo‘lib sizni eshitadi. Natijada buni boshqalarga huddi shunday aytib berishni ham o‘rganib boradi. Turli hil ro‘lli o‘yinlarni tashkillash orqali ham milliy tarbiyani singdirib borish mumkin. Masalan, “hola hola” o‘yinini o‘ynatishda bolajonlarga o‘zbekona mehmon kutishni, mehmonga alohida etibor bilan mehr ko‘rsatishni, qanday idishlar va buyumlardan foydalanishni va mehmonga borganda ham o‘zini qanday tutishni, mezbongi hurmatiga loyiq javob qaytara olishni o‘rgatish mumkin. Tikuvchi, chevar o‘ynini o‘ynatishda ham milliy matolarimizni turlarini, uni betakrorligini, o‘zbekano dizayinda qanday chiroyli ko‘rinishini va o‘z milliyiligimizga hos dizaynlar haqida ta‘lim berib borilishi lozim. “Askar askar” o‘yinlarini o‘ynatish orqali bolajonlar qalbida o‘z vataniga, millatiga mehr muhabbat tuyg‘ularini shakllantiribgina qolmay, o‘z milliy armiyamiz o‘z sarhadlarimiz va o‘z qo‘mondonimiz haqida ham bilimlarini shakllantirib boriladi.

5.Qo‘llash uchun metod;Askar – askar.Bunda Bolalar guruhlarga bo‘linib suv va havoda va quruqlikda hizmat qiluvchilarga ajratiladi ularga qaysi qurol aslahalarni foydalanilsa o‘sha aslahalarga ajratishi kerak ekanligi tayinlanadi.

Natija: Yuqoridagi metodlar quydagilar,

1 Qo‘llash uchun metod; Pullarni bankga topshir metodi.


2. Qo‘llash uchun metod; Naqishlarni o‘rniga qo‘y.

3.Qo‘llash uchun metod; Buyuk bobokolonlar metodi


4. Qo‘llash uchun metod ;Bizning oshhona.

5.Qo‘llash uchun metod; Askar – askar

17-DMTT ning tayyorlov va katta guruhida qo‘llanildi. Qo‘llash boshlangandan keyin yahshi natijalarga erishildi.



Metoddan foydalanmasdan oldin, metoddan foydalangandan keyingi natijalar. Metoddan foydalanilgan guruh yahshi natijalarga erishildi.



Bu metodlar 17 DMTT ning tayyorlov va katta guruhida o‘tkarildi bu metod qollanmasidan oldin, oldinga qo‘yilgan maqsadga erishilmas edi. Metod qollanilishni boshlagandan so‘ng guruhlardagi natijalar ko‘tarila boshladi. Doimiy qo‘llanilib kelingandan buyon faoliyatning maqsadiga to‘liq erishilmoqda.

Xulosa

Bu maqolada hulosa shundan iboratki zamonaviy tarbiyachilar nafaqat ijodkor, yaratuvchi, kireativ bo‘libgina qolmay o‘z ustida doimiy izlanishlar olib borishi doimo yangiliklardan bohabar bo‘lishi, kitob va jurnallar mutola qilishi, bolalar bilan ishlash jarayonida ularga ko‘zgu singari sensor bola olishini milliy qadryatlarimiz, milliy urf odatlarimizni o‘zi birinchi namoyon qilishi bilan shakillantira oladi albatta. Texnika va raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan hozirgi kunda akti va kampiyuterlardan keng foydalana olishni ham bilishi va bolajonlarga tehnologiyalardan oqilona foydalanishi kerak ekanligini ham singdirib borilsa bolajonlarimiz kelajak poydevorini mustahkam qilishib buyuk maqsadlarga erisha oladigan hitoy devoridanda mustahkam milliy g‘oyalar yaratib kelajakda o‘z shirindan shakar mevasini bera oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozbekiston respublikasini ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan: "Davlat talablari " 2018 -yil-3 iyul, ro‘yhat raqami 3032 2; ilk qadam davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining 2918-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay‘at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashir etilgan dasturi
2. "Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturi 2022- yil
3. Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova. - Tafakkur 2019.
4. "O‘yin orqali ta‘lim olish" Grosheva I.V. Djanpeisova G.E. Mikailova U.T. Ismailova M.A. Kenjabaeva D.A. Toshkent 2020.
6. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQUIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDADA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>
1. Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziyyayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA‘LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.
2. Children's reading and expression of childhood concept in the media. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna. "MAKTABGACHA TA‘LIM MUTAXASSISLARINING XALQARO FORUMI" "INKLYUZIYA: MAKTABGACHA TA'LIMDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR" ilmiy-amaliy konferensiya 2023 yil 10-11-noyabr. 144-bet.
3. Организация подвижных игр в дошкольных образовательных учреждениях. УДК 796. 29. ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ЗДОРОВЬЕ: МОЛОДЕЖНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИИ Сборник научных трудов участников XI МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ 19 мая 2022 г. УДК 378.17 ББК 75.116.42 Ф50 ISBN 978-5-7679-5060-7.
4. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." *Архив научных исследований* (2020). Ganiyeva, M. (2020). Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение». *Архив научных исследований*.

5. Ganiyeva, Muborak. "«Шахс ва жамият» фани-тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони." *Архив научных исследований* (2020).
6. Ganiyeva, M. (2020). «Шахс ва жамият» фани-тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони. *Архив научных исследований*.
7. Ganiyeva, Muborak. "«Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш-мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами." *Архив научных исследований* (2020).
8. Ganiyeva, M. (2020). "Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш-мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. *Архив научных исследований*.
9. Ganiyeva, M. (2019). —Талаба-ёшлар тарбиясида инновацион ёндашув: тарбиянинг янги методлари ва унда ахборот коммуникацион технологияларнинг ўрни|| мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами. *Архив научных исследований*.
10. Ганиева, М. А. "Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии." *Наука и современность* 22 (2013): 179-181.
11. Ганиева, М. А. (2013). Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии. *Наука и современность*, (22), 179-181.
12. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
13. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
14. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
- Madaliyeva Xurshida Ulug'bek qizi, & Muborakxon Ganiyeva. (2023). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ О'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 350-352. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.445>
15. Ганиева, Муборак Адилловна. "Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение»." *Вестник Университета Российской академии образования* 3 (2010): 135-137.
16. Ганиева, М. А. (2010). Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение». *Вестник Университета Российской академии образования*, (3), 135-137.

**UMUM TA‘LIM MAKTABLARI BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

Erkinjonov Sardorbek Sodirjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi umumta‘lim tizimini boshqarishning zamonaviy tendentsiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar asosida ta‘lim dasturlari va standartlari, ta‘lim tashkilotlari va boshqaruv organlari tarmog‘i, shuningdek tizimning faoliyatini belgilovchi tamoyillar majmui tushuniladigan yangi ta‘lim tizimini shakllantirish va nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan umumta‘lim maktablarini boshqarishni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv tendentsiyalari, ta‘lim samaradorligi, zamonaviy ta‘lim modellari, ta‘lim tamoyillari, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim.

Kirish:

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda yangicha ta‘lim tizimi shakllantirilmog‘da: - ta‘lim dasturlari va standartlari, ta‘lim tashkilotlari va boshqaruv organlari tarmog‘i shuningdek, ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitida ta‘lim tizimini boshqarishning turli tendentsiyalari rivojlanmog‘da. Bu jarayon ta‘lim menejmenti va ta‘lim jarayonining amaliyotida sezilarli o‘zgarishlarni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) oliy ta‘lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.¹

Ushbu konsepsiyaning boshqa bir g‘oyasi o‘quv shakllarini konstruksiyalash bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ta‘lim jarayoni yagona jarayon sifatida qaraladi, (xususiy o‘quv faoliyati) unda materialni anglab yetish va tadqiqot ishi birgalikda bo‘lg‘usi pedagogning shaxsiy pedagogik pozitsiyasi bo‘lib shakllanadi. Mazkur yondashuvda asosiy talablar quyidagi izchillikda: shaxs o‘zi uchun va boshqalar uchun ham asosiy boyluk bo‘lib, bunda ta‘lim tizimdagi yaxlit pedagogik jarayon sifatida yo‘naltirilgan shaxsni o‘zgartirishga qaratilgan jarayondir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

Shu o‘rinda zamonaviy xalq ta‘limida o‘zgaruvchanlik printsipli e‘lon qilingan, bu ta‘lim tashkilotlarining o‘qituvchilariga jarayonni har qanday modelga, shu jumladan mualliflik huquqiga muvofiq tanlash va loyihalash imkonini beradi. Ta‘lim taraqqiyoti ham shu yo‘nalishda ketmoqda: uning mazmuni uchun turli variantlarni ishlab chiqish, ta‘lim tuzilmalari samaradorligini oshirishda zamonaviy didaktika imkoniyatlaridan foydalanish; yangi g‘oyalar va texnologiyalarni ilmiy jihatdan ishlab chiqish va amaliy asoslash, turli xil pedagogik tizimlar va o‘qitish texnologiyalari o‘rtasida o‘ziga xos aloqaga ega bo‘lish, yangi shakllarni amalda sinab ko‘rish - davlat ta‘lim tizimiga qo‘shimcha va muqobil, va zamonaviy o‘zbek tilida o‘tmishning yaxlit pedagogik tizimlaridan foydalanish muhimdir.

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta‘limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonlarning asosi bo‘lib oxirgi uch, o‘n yillikda pedagogik ta‘lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo‘ldi.

Har qanday davlatda ta‘lim tizimining tabiati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimi, madaniy, tarixiy va milliy xususiyatlari bilan belgilanadi. Jamiyatning ta‘limga bo‘lgan talablari davlat ta‘lim siyosati tamoyillari tizimida ifodalangan. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta‘limning insonparvarligi, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi, shaxsning erkin rivojlanish huquqi;
- ta‘limning qulayligi va ta‘lim tizimining o‘quvchilar ehtiyojlariga moslashishi;
- davlat ta‘lim muassasalarida ta‘limning dunyoviyliigi;
- ta‘limda erkinlik va tenglik;
- boshqaruvning demokratik, davlat-jamoat xarakteri, ta‘lim muassasalarining mustaqilligi. [1]

Bu tamoyillar ta‘lim siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ustuvor yo‘nalishlari va ta‘limning mohiyati va mamlakatdagi ta‘lim tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Ta‘lim tizimining davlat xususiyatlari, birinchi navbatda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida mustahkamlangan ta‘lim sohasida yagona davlat siyosati olib borilayotganligini anglatadi. Shu o‘rinda umumta‘lim maktablarini boshqarish tizimini takomillashtirishning zamonaviy tendentsiyalarining bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Raqamli texnologiyalar ta‘limni baholash, o‘quvchilar rivojlanishini kuzatish va umumiy ta‘lim samaradorligini yaxshilash uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli vositalarni joriy etish.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim har bir bolaning individual ehtiyojlari va ta‘lim uslublarini hisobga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlari va yondashuvlarini yaratish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni kuchaytirish.

3. Ota-onalarning faol ishtiroki: Raqamli platformalar orqali ota-onalar va maktab o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasini oshirish, bolalarning o‘qishini yaxshiroq qo‘llab-quvvatlash uchun muntazam maslahatlashuvlar va tadbirlar o‘tkazish.

4. Kelajak kompetensiyalarini rivojlantirish: tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va texnologiya savodxonligi kabi tez o‘zgaruvchan dunyoga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga e‘tibor qarating.

5. Moslashuvchan ta’lim modellari: o’quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun moslashuvchan jadvallar, turli xil o’qitish usullari (jumladan, masofaviy ta’lim) va mustaqil o’qitish imkoniyatlarini joriy qilish.

6. Baholash va fikr-mulohazalar: baholashning an’anaviy usullaridan nafaqat bilim, balki ko’nikma, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishni ham hisobga oladigan muvozanatli tizimlarga o’tish.

7. O’qituvchilar malakasini oshirish: o’qituvchilarning ta’lim muhitidagi o’zgarishlarga samarali munosabatda bo’lishlari va eng so’nggi o’qitish usullaridan foydalanishlari uchun ularning doimiy malakasini oshirish.

8. Inklyuzivlik va xilma-xillik: Inklyuziv muhit yaratish, barcha bolalarning ehtiyojlarini qondirish va teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash bo’yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirish.

Hulosa qilib aytganimizda ushbu tendentsiyalar zamonaviy ta’lim tizimlarining umumta’lim maktablarni boshqarishning yanada moslashuvchan va texnologik jihatdan jihozlangan usullariga intilishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni [1]
3. Shamova T.I., Tret'jakov P.I., Kapustin N.P. Management of educational systems [Upravlenie obrazovatel'nyimi sistemami]/ Textbook for high schools. – M.: Vldos, 2002. – 320 p.
4. Kalendarova Zaravshan Kalbaevna. Kokand University "Education" Senior Lecturer of the Departmen. "PRIMARY EDUCATION - THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION" International Conference on Humanity, Education and Science London U.K December 15th 2021 conferencezone.org. 330-332.
5. Z.K.Kalendarova. "Innovative model of shaping students' creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content." INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022: a collection scientific works of the International scientific conference (27th October, 2022) – Chelyabinsk, Russia : "CESS", 2022. Part 11– 137 p.
6. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
7. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
8. G.Eshchanova SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION: DISTINCTIVE CHARACTERISTICS. Science and innovation, 2 (B3), 2023. 333-337. doi:5281/zenodo.7764475. (2023).
9. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
17. Erkinjonova, G. (2023). ETNIK-MADANIY TARBIY-BOLA SAXSINI KAMOL TOPTIRUVCHI VOSITA. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(24), 383-386.

ETNIK MADANIYAT-ETNIK TARBIYA ASOSI**Erkinjonova Guljaxon Farxodjon qizi**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

ms.guljahon92@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga oilada etnik tarbiya berishda MTT hamkorligi, xususan oiladagi tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Bugungi globallashuv va axborotlar davrida bolalarga etnik ta‘rbiya berishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda xalqning boy madaniy va ma‘rifiy merosidan foydalanish masalari haqida fikr yuritilgan.

Bolalarni malakatimiz tarixi bilan tanishtirish orqali ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik, o‘zlikni anglash tuyg‘ularni kamol toptirishning imkoniyatlari keng muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, xalq og‘aki ijodi, tarix, etnik timsollar, kognitiv, axloqiy, estetik, insonparvarlik, milliylik.

Ko‘p millatli xalqlar birdamlikda yashayotgan O‘zbekistonimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishning muhim shartlaridan biri bu etnik-madaniy ta‘limni to‘g‘ri tashkil etishdir. Tarixga nazar tashlar ekanmiz har bir xalq uzoq davrlardan beri o‘z ona tili, xalq og‘zaki ijodi, etnik timsollari, urf-odatları, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlari eng yaxshi insoniy fazilatlarini avlodlardan-avlodlarga bezavol sayqallangan tarzda ma‘naviy meros sifatida taqdim etib kelmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda etnik-madaniy bilimning dastlabki kurtaklari oila bag‘rida shakllantiriladi. Ota-onalar, bobo-buvilarning ko‘magida bolaga xalqimizning zavol bilmas qadriyatlari o‘rgatiladi. Etnik-madaniy tarbiya bola tug‘ilishi bilan boshlanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, bolaga aytilgan allalarda xalqimizning ezguniyatlari jamlangan. Bundan ko‘rinadiki, oila etnik-madaniy qadriyatlarni, an‘analari va ijtimoiy xususiyatlarining o‘chog‘i bo‘lib, bola shaxsning shakllanish jarayonining muhim qismidir, bularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy tarbiyasini shakllantirish bilan birga ularning ijtimoiy, ma‘naviy, axloqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta‘sir qilishi tayin. Subhasiz, bola bular ta‘srída ijtimoiy xarakterdagi boshlang‘ich g‘oyalarni o‘zlashtiradi: vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, millatparvarlik singari ko‘nikma va malakalarni egallay boshlaydi.

Har bir oilada farzand dunyoga kelar ekan, ota-ona avvalabor uning etnik madaniyatini kamol toptirishni maqsad qilib qo‘yadi va o‘z fikri doirasida bolani o‘zbekona qadriyatlarga tayangan holda tarbilashga intiladi. Bunda bevosita xalqimizning ma‘naviy yodgorgorliklariga, xususan, xalq og‘zak ijodiga murojaat qilib, asar qahramolari timsolida bolalarga tarbiya berishga intiladilar. Oilada bolalarning etnik-madaniy tarbiyasiga e‘tibor berish bir tomondan osondek tuyulsa-da, ikkinchi tomondan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu soha ota-onadan ancha ko‘p mehnat va bilimni talab etadi. Ayniqsa bugungi axborot va texnika asrida bolalarga etnik tarbiya berish, etnopedagogika va islomiy-axloqiy me‘yorlarni to‘g‘ri anglash orqali oila va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga sharqona tushunchalarning mohiyatini to‘g‘ri anglatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan biri oila atalmiz go‘shaga bo‘lgan mehr, yaqinlarning bag‘ida bo‘lishlik, ularning muhabbatini his qilib turishdek muqaddas tushunchalarni

bolalarning beg‘ubor ruhiyatga singdirish orqali, insonning kuch-qudrati va xotirjamligi oilada ekanligini anglatish orqali dastlab oilaga va yaqinlariga mehri bo‘lish tuyg‘ularini singdirilsa, bolada oila a‘zolariga, yaqinlariga suyanib ish ko‘rish ko‘nikmalari yuzaga keladi. Bugun jamiyatimizda etnik tarbiya borasida bir-biriga zid fikrlar ham mavjud bo‘lib, buning sababi ota-onalarning milliy tariximizni chuqur bilmasliklaridir.

To‘g‘ri bolalarni etnik tarbiyasini oilada mukkamal kamol toptirish ancha qiyin ish. Biz har doim ajdodlarimizning jahon taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk ilmiy-madaniy meroslari bilan g‘ururlanib kelamiz, ammo ularni o‘qib-o‘rganmasligimiz oqibatida etnik tarbiya to‘g‘risidagi qarashlarimiz ancha sayozlashib borayotganligini idrok etolmaymiz.

Etnik madaniyatni bolalarimizga o‘rgatish uchun eng avvalo MTTlarda ota-onalar bilan hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz, etnik madaniyatimiz na‘munasi bolgan ilmiy-badiiy asarlarni o‘z bolalariga to‘g‘ri anglatishlariga e‘tibor qaratishimiz zarur. Ota-onalar o‘z farzandlarining etnik-madaniy dunyoqarashini rivojlanib, takomillashib borishiga oilada zamin tayyorlaydilar. Bu soha ota-onadan ancha mehnat talab etadigan insonning ma‘naviy dunyosi, shaxsiy tajribalari bilan bog‘liq. Agar ota-onalar oilada bolalar bilan yaqin munosabatlar o‘rnatmasa, etnik-madaniy tarbiya bo‘rasidagi ishlarning samarasi past bo‘ladi chunki otaona bolaning shaxsini shakllantirishda asosiy namunadir. Bolalarni turli xil xalq sayllariga olib chiqish ham bolada etnik-madaniy tarbiyani kamol toptiruvchi bir vosita hisoblanadi. Bu jarayonda bolalar barcha turdagi qadriyatlarni egallaydilar: kognitiv, axloqiy, estetik va insonparvarlik. Bunday bolalarda bolalarda bag‘rikenlik tuyg‘usini rivojlanadi. Ota merosi qadriyatiga murojaat qilish farzand yashayotgan zaminga hurmat, u bilan faxrlanish tuyg‘ularini tarbiyalaydi. O‘z tarixi va madaniyatidan xabardor bola bilish kelajakda boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga ham e‘tiborli bo‘ladi, oqibqtda bolada boshqa xalqlar madaniyatiga o‘xshash munosabat bilan uyg‘unlashgan holda o‘z xalqining madaniyatini anglash, tushunish, hurmat qilish uchun asos yaratiladi.

Bunday ta‘limni amalga oshirish natijasi yaxlit dunyoqarash va qadriyat yo‘nalishlarining o‘zlashtirilgan tizimidir. Turli xalqlar o‘rtasidagi ta‘lim tizimlari, oilaviy tarbiyaning milliy an‘analari, milliy madaniy an‘analarga asoslangan tarbiya va tarbiyaning zamonaviy shakl va usullari; zamonaviy bolalar va o‘smirlarning yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlari va g‘oyalarini rivojlantirishda, ularni madaniy meros bilan tanishtirishda, o‘z ona yurtiga, tabiatiga, oilasiga, ona va onaga qadriyatli munosabatini shakllantirishda etnik an‘analarning o‘rni, o‘z xalqiga, dunyoning turli xalqlarining milliy-madaniy va madaniy va tarixiy an‘analariga qiziqishni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratadilar.

Sharqona odob-axloq, ilm-u ma‘rifatga chanqoqlik borasida bizning o‘zbek oilalarning o‘ziga xos tarixiy mezonlarini boshqa xalqlarning vakillari bilan taqqoslab bo‘lmaydi. O‘zbek badiiyati va o‘zbek san‘atining nodir asarlari vositasida ham bolalarda etnik madaniyatni kamol toptirish imkoniyati nihoyatda katta. Masalan, “Alpomish”, “Navoiy”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Sen yetim emassan”, “Ilhaq” singari tarixiy filmlari eng yaxshi tarbiya vositasi bo‘lishi mumkin. Xususan. “Navoiy” badiiy filmidagi Alisherning bolaligi, muomalasi, mushohada, yurgizishi, kattalar bilan bo‘lgan muloqotdagi odobi, qobiliyati va ilmga bo‘lgan intilishi va qiziqishlari oiladagi etnik tarbiyaning mahsulidir. Oilada bolalarni bunday ajoyib na‘muna bo‘ladigan obrazlar timsolida bolalarni tarbiyalash davr talabi hisoblanadi. Yuqoridagilar

ko‘rinadiki, tarbiyaning tarixiy asos va milliy targ‘ibotiga tayangan holda olib borishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ota-bobolarimiz qoldirgan buyuk tarbiya vositalariga tayangan holda ish ko‘rish, milliy an‘analarimiz to‘g‘risida so‘zlab berish orqali etnik madaniy merosimizni bolalarga targ‘ib qilish zarur. Toki, bolalarimiz, tilimizni, urf-odat va an‘alarimizni, etnik kelib chiqishimizni bilishsin. Oiladagi milliy muhit bola ongiga u tug‘ilishi bilan singdiriladi. Bunda bolaga “yaxshi”, “barakalla”, “Juda odobli bolasan”, “kechiring”, “salomat bo‘ling”, “rahmat” sinari bolani yaxshilik sari yetaklovchi sehrli so‘zlar bilan birga ayrim ta‘qiqlovchi so‘zlar “yomon”, “yomon bo‘ladi”, “mumkin emas” so‘zlarini ham tushuntirish tufayli ularda atrofdagi voqealar va hodisalarni mantiqiy baholash ko‘nikma va malakalarini shakllantirilsa, bola yaxshiliklarga talpinib katta bo‘ladi. Bolaning tarbiyasida bevosita ertak, matal, latifa, rivoyat va afsonalardan o‘rinli foydaniladi.

Bolalarda o‘likni anglash va tarixiy xotirani takomillashtirishda, etnomadaniyatning, xalq qadriyatlarining o‘rni beqiyos. Bola kichikligidan o‘zligini va o‘zi mansub xalqning tarixini sevishga, ardoqlashga o‘rganadi, bu esa o‘z navbatida xalq madaniyatining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Biz bilamizki, ta‘lim va tarbiya ham xalq ma‘naviyati va madaniyatning bir bo‘lagi hisoblanadi, shuning uchun haqli ravishda ayta olamizki, etnikmadaniyat va ta‘lim-tarbiyani bir-birdan ajratib bolmaydi, ularning har ikkalasi ham bola tarbiyasida birdek ahamiyatga egaligini inobatga olgan holda avloddan-avlodga o‘tishida oilaning, qolaversa ta‘lim tashkilotlarining, pedagog-tarbiyachilarning xizmati katta o‘rnini egallaydi. Jamiyat va davrlar o‘zgarishi tarixiy vaziyatlar ta‘sirida etnomadaniyatning ayrim xususiyatlari o‘zgarib turishi mumkin. Ammo, ijtimoiy hayotimizning asosi sifatida xalq donoligini o‘zida mujassam etgan haqiqiy qadriyatlarni farzandlar ruhiga singdirish orqali eng yaxshilari mutatsiyadan omon chiqadi. Bunda shubhasiz, etnik-madaniy ta‘limning roli kattadir.

Biz ta‘lim jarayonida etnik-madaniyatni bolalar qalbiga singdirishda ikki jihatga alohida e‘tibor berish lozim deb bilamiz. Birinchidan, har bir etnik guruhning o‘z madaniyatini (o‘z bayramlari, urf-odatlarini, marosimlari, o‘ziga xos xalq amaliy san‘ati asarlari) yaratilishi va rivojlanishi uzoq tarixni o‘z ichiga olganligi hamda sinovlardan barqaror o‘tgan holada rivojlanayotganligini va bu qadriyatlar bolalarda o‘z-o‘zini anglash, o‘z “Men”ini, o‘zi mansub bo‘lgan xalqning ruhiyatini o‘zida mujassam etganligi bilan e‘tiborli.

Ikkinchidan, an‘anaviy xalq madaniyatini o‘rganish, asrab-avaylash, rivojlantirish, o‘z xalqining tarixiy asarlari va qadriyatlarini zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonga olib o‘tishga qaratilgan turli ijtimoiy-madaniy tashkilotlar, davlat va nodavlat tuzilmalarning faoliyati sifatida qarash ko‘nikmalarini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida etnik o‘zligini unutayotgan xalqlar soni ortib borayotgani haech kimga sir emas, shunday ekan, o‘zbek xalqining o‘zligini asrab qolish masalasi har bir ota-ona va ta‘lim tashkilotlarining eng mas‘uliyatli vazifasi sifatida qaralishi zarur. Bolalarimizga juda kichikligida o‘z ona tilida chiroyli so‘zlashga va uni qadrlashga, ona madaniyati bilan chuqurroq tanishishga kattalar o‘zida mas‘uliyat his qilishlari talab etiladi. Bola kichikligidan o‘z xalqining milliy madaniyatini tushunib, qabul qilib, katta bo‘lsa, keyinchalik o‘zga xalqlar madaniyatini tushunish ham oson kechadi, bu degani boshqa xalqlarning madaniy an‘analarga nisbatan bag‘rikenglik bilan voyaga yetadi.

Madaniyatimiz tarixga nazar tashlar ekanmiz, uning muhim tarkibiy qismlari asrlar osha zavol bilmasdan, etnik madaniyatimizning o‘q ildizini tashkil etib etib kelayotgalligining guvohi bo‘lamiz. Bu o‘q ildizdan olingan va olinajak ozuqa bolalar uchun eng muhim deb hisoblangan shaxs yoki odamlarning fazilatlarini sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda.

Bolalarga maktabgacha yoshdan boshlab o‘zini o‘zi mansub bo‘lgan xalq madaniyati va tarixning ob‘yekti va sub‘yekti sifatida anglash ijtimoiy-madaniy bag‘rikenglikni kamol toptirishda etnik-madaniy tarbiya mustahkam zamin vazifasini o‘taydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy tarbiyasini rivojlantirish va takomillashtirishda an‘ana va urf-odatlardan foydalanish ularning ijtimoiy, ma‘naviy, axloqiy, aqliy, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ta‘sir qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulnara Narimanovna Eshchanova. PARADIGMS FOR SOLVING PROBLEMS OF PRESCHOOL EDUCATION. Zenodo, октябрь 2023 г., doi:10.5281/zenodo.10058525.
2. 2.G.Eshchanova. SOCIALIZATION OF REFORMS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. Zenodo, ноябрь 2022 г., doi:10.5281/zenodo.7375137.
3. G. Erkinjonova ETHNO-CULTURAL EDUCATION: ITS CONCEPT, HISTORICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS Filoloji Ve Kültür Araştırmaları 2024/1 102-112 betlar
4. Erkinjonova, G. (2023). ETNIK-MADANIY TARBIY-BOLA SAXSINI KAMOL TOPTIRUVCHI VOSITA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(24), 383-386.
5. Guljahon Farhodjon Qizi Erkinjonova (2021). BOLALAR KITOBXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O‘RNI. Scientific progress, 2 (2), 339-343.
6. Kalendarova Z.K. Maktabgacha ta‘lim: kelajak islohoti. Ilim h m j miyet. – Nukus, 2018. - № 1. – B. 65-66.
7. Ganiyeva, Muborak. "“Шахс ва жамият” ўқув фанида таълим сифатини оширишнинг муҳим масалалари (Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари мисолида)." Архив научных исследований (2020).
8. Ganiyeva, M. (2020). “Шахс ва жамият” ўқув фанида таълим сифатини оширишнинг муҳим масалалари (Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари мисолида). Архив научных исследований.
9. Ganiyeva, Muborak. "Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари." Архив научных исследований (2020).
10. Ganiyeva, M. (2020). Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари. Архив научных исследований.
11. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." Архив научных исследований (2020).
12. Ganiyeva, M. (2020). Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение». Архив научных исследований.

13. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
14. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
15. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
16. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
17. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
18. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
19. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
20. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TINISH BELGILARINI ISHLATILISHI**G‘ofurova Maxsudaxon Murodjon qizi**

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich Ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Ertangi kuning bugun nima qilayotganinga bog‘liq (Mahatma Gandi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tinish belgilari o‘quvchilarni yozishida tinish belgilarini to‘g‘ri o‘rgatish. Boshlang‘ich sinflarda tinish belgilarini o‘rgatishning muhim qismi hisoblanadi. Tinish belgilari yordamida so‘zlar va gaplarni qanday to‘g‘ri yozilish kerakligini, yozuvni o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Punktatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, punktatsiya, tinish belgilari, vergul, so‘roq, undov, nuqta, tutuq belgisi, ikki nuqta, metodikalardan foydalanish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga tinish belgilarini ishlatishni o‘rgatish, ularni yozuv va o‘qish jarayonida mustahkam qilishning asosiy qadamlaridan biridir. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fani yetakchi rol o‘ynaydi. Ona tilini o‘rganish orqali o‘quvchilar fan asoslarini ongli o‘zlashtira oladilar. Fikr doiralarini kengaytirib, bilish qobiliyatlarini va mustaqil ishlash malakalarini egallaydilar. Tinish belgilarida ma‘lumotlarni mustahkamlash, o‘z fikrlarni ifodalash, yozuv orqali ifodalashga o‘rgatiladi. Tinish belgilarini qanday qo‘yishni boshlang‘ich sinflarda asosan o‘rgatiladi. Boshlang‘ich ta‘limda bilimlarni puxta egallasa, tinish belgilarini qo‘yishni o‘rgatish bu bõyicha kònikmalarni paydo etish ahamiyatidan biri hisoblanadi. Sababi, tinish belgilarini o‘rgatish orqali ularning intonatsiya jihatidan to‘g‘ri gapirish, to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlanadi. Muayyan milliy til grafikasi (yozuvi) 2 xil vositadan: harflar (alifbo) va tinish belgilari (punktatsiya) tizimidan iborat. Punktatsiya tarixi, punktatsion tizimning paydo bo‘lishi, tinish belgilarining soni turli tillarda turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, punktatsion tizim hozirgi ma‘no va ko‘rinishda G‘arbiy Yevropa tillari yozuvlarida 15—16-asrlarda, rus yozuvida 18-asrda, o‘zbek yozuvida esa 19-asrning 2-yarmida paydo bo‘lgan. Yoki ingliz tili punktatsion tizimida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanib, ularning jami 12 ta bo‘lsa, hozirgi o‘zbek Punktatsiya quyidagi 10 ta tinish belgisidan iborat: vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta, nuqta, nuqtali vergul, so‘roq belgisi, tire, undov belgisi, qavs, qo‘sh tirnoq. Punktatsiyaning qo‘llanishida ham tillararo tafovut bo‘lishi mumkin, Masalan, ispan tilida so‘roq va undov belgilari gapning boshida va oxirida qo‘yiladi.¹

Punktatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta‘minlashda muhim vositadir. O‘z navbatida, muayyan tildagi Punktatsiya an‘analarining mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarning ijodi hamda tinish belgilarining qo‘llanish kridalarini belgilovchi va tartibga soluvchi tilshunoslar faoliyati katta ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Yozma nutq bexato va chiroyli bo‘lishi bilan birga, harf va so‘zlarning ma‘lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvini, tinish belgilari, har xil ajratishlar: xatboshi (abzas), bo‘lim, bob kabilar orqali voqelanadi.

¹ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., Nosir, 2009

Punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisidir. "Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi". Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.²

Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo'yilmagan) yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatish, bu bo'yicha ko'nikmalar paydo etish ahamiyatli ishlardan biri. Sababi, tinish belgilarini o'rgatish orqali ularning intonatsiya jihatdan tog'ri gapirish, tog'ri yozish ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar maktabga kelib gap bilan ishlashadi, har bir gapning oxiriga nuqta qo'yilishi kerakligi eslatib o'tiladi. Shuningdek, yozishda birinchi navbatda nuqta bilan tamomlanadigan so'zlardan boshlab o'rgatiladi. Shuning uchun, eng dastlab bolalar nuqta bilan, undan keyin esa so'roq belgisi bilan tanishadi. Bu faqat amaliy ishning jarayonida ko'rsatilib, gapirganda bir gap ikkinchi gapdan oz pauza bilan bo'linib turadiganligi, tovush ozgina pastroq aytilishini o'qituvchi o'zi ko'rsatadi. Yozishda nuqta belgisi bilan belgilanadi. Bu gapning tamomlanganini ko'rsatadi. Bu tayyorlangan tizim bo'yicha ko'rsatiladi va o'quvchilarning o'zlariga aytirib, o'rgatilib boriladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar nuqta, so'roq belgisi, ko'p nuqta, vergul, undov belgilari bilan tanishadi. Sodda bir necha topshiriqlardan keyin ularda ko'nikma paydo bolib, ularning ayirmasini tushinib boradi. Tinish belgilari gap qismlarining o'zaro logik-gramatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi.³

Ona tili darslarida o'quvchilarni grammatik tushunchalar bilan tanishtirish jarayonida ularda to'g'ri yozuv malakasi ham shakllantiriladi va imlo qoidasini o'zlashtirishga asos solinadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. SHuning uchun har bir darsda imlo ustida ishlash muxim vazifa sanaladi. O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

² "Ona tili darsliklari" 1- 4-sinf. T.: «O'qituvchi» 2018-2020.

³ "O'qish kitobi". 2-sinf T.G'affarova va boshqalar "Sharf" T-2018

Ona tili darslarida so'zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o'qituvchi 1-sinf o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. ⁴O'qituvchi aniq misollar bilan sanab ko'rsatilgan so'zlardan oldin ikki nuqta qo'yilishini, har bir so'zning vergul bilan ajratilishini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o'qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o'stirib boradi. O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktikpunktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatish, o'z fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. SHunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda tinish belgilari mavzusi boshqa mavzular tarkibiga singdirib yuborilgan. Masalan: „Gap“ mavzusida shunday qoida bor: „Xabar mazmunidagi gapning oxiriga nuqta (.) qo'yiladi. So'roq mazmunidagi gapning oxiriga so'roq bel gisi (?) qo'yiladi. His-hayajon mazmunidagi gapning oxiriga undov belgisi (!) qo'yiladi. „Gap va so'z“ mavzusida „gap“ ga berilgan ta'rif bor: „Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi. ⁵Gapning oxiriga nuqta (.), so'roq belgisi (?) yoki undov belgisi (!) qo'yiladi. Ko'rib turganimizdek tinish belgilari „gap“ mavzusi bilan birgalikda tushuntiriladi. Lekin tinish belgilari uchun alohida mavzu bo'lsa, o'quvchilar bu mavzuni tushunishlari osonroq bo'lardi. Tajribadan ma'lumki, nafaqat o'quvchilar balki katta yoshdagi insonlar va hatto ba'zi o'qituvchilar ham diktant yozganlarida ko'p holarda orfografik xato emas, punktuatsion xatolarga yo'l qo'yishadi. Tinish belgilari haqidagi mavzuni 1-sinf ona tili darsliklaridan boshlab berib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda ona tili – nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish va yozish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Shunday ekan o'quvchilarni boshlang'ich sinflardanox xatosiz va to'g'ri yozishlariga alohida e'tibor berish, ularning imloviy savodxonliklarini to'g'ri rivojlantirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. T., Nosir, 2009.
2. „Alifbe“ R.Safarova va boshqalar „O'qituvchi“ T-2020

⁴ „Alifbe“ R.Safarova va boshqalar „O'qituvchi“ T-2020

⁵ O'qish kitobi“. 4-sinf S.Matchonov va boshqalar „Yangiyol poligraf servis“ T-2020

3. “O‘qish kitobi”. 1-sinf T.G‘affarova va boshqalar “Sharf” T-2019
4. “O‘qish kitobi”. 2-sinf T.G‘affarova va boshqalar “Sharf” T-2018
5. “O‘qish kitobi”. 3-sinf M.Umarova va boshqalar “O‘qituvchi” T-2019
6. O‘qish kitobi”. 4-sinf S.Matchonov va boshqalar “Yangiyol poligraf servis” T-2020
7. "Ona tili darsliklari"1- 4-sinf. T.: «O‘qituvchi» 2018-2020.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

TA'LIMDA YANGI TEXNOLOGIYA: 4K MODEL VA UNI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI**Ganiyeva Muborak Adilovna,**

Qo'qon universiteti

Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kundagi ta'lim jarayonini tashkil etishdagi asosiy yondashuvlari tahlil etilgan. 4K modelining o'рни, o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan va uni qo'llash masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: 4K, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, tahlil, baholash, tushuntirish, o'z nuqtai nazarini asoslash, faraz qilish, tartibga solish, muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, fikrlar burchagi, Mix-Freeze-Group, Frayer modeli, Stir-The-Class metodi.

Kirish:

Ta'lim sifatini oshirish bu ko'proq bilim to'plab, axborotga ega bo'lishgina emas, balki tafakkurni rivojlantirish, katta axborot oqimidan zarurlarini tezda tanlab olish, yo'nalishni aniqlash, vaziyatni baholash, nostandart muammolarni yechish ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy mutaxassis bugungi kunda raqobatbardosh ta'lim bozorida o'z o'rnini topishi uchun yangicha yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishi lozim. Ta'lim sifati, eng avvalo, ta'lim jarayonining asosiy bo'g'ini, uning ham ob'yekti, ham sub'yekti sifatida o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir. Aynan, 4K modeli bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda muhim katalizatorlik vazifasini bajaradi.

4K tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalaridagi kompetensiyalarni ifodalashda qo'llaniladi.

4K hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikdir.

K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Bu o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga hamkorlikda ishlash, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi.

O'zaro samarali muloqot qilish va umumiy maqsadga erishish uchun jamoada ishlash qobiliyatini hosil qiladi. Bu sifat bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta qobiliyatlarda namoyon bo'ladi:

umumiy go'yani yagona maqsad sifatida qabul qilish qobiliyati;

ijtimoiy munosabatni shakllantirish, ya'ni ko'pchilik fikrini qo'llab-qavvatlash, muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o'z harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

mustaqillik va tashabbuskorlik.

Kommunikativlik: O'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Ushbu kompetensiya orqali o‘quvchi qo‘rqmay har qanday muloqotga kirisha oladi. Munozaralarni boshlash, muloqotning maqsadi va kontekstiga, savol va javob berishga kirishadi. O‘z nuqtai nazarini himoya qilish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Kreativ fikrlash: O‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni izlab topadi, ijodkorlik orqali muammolarni hal qilishning kutilmagan usullariga ega bo‘ladi va u quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

qiziquvchanlik – atrof-olamga qiziqish, mustaqil ravishda ko‘proq ma‘lumot to‘plash istagi paydo bo‘ladi va savollarga javob topish;

tasavvur – o‘ziga xos ko‘plab yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

g‘oyalarni rivojlantirish – turli pozitsiyalarda g‘oyalarni baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, turli sharoitlarga yangicha yondashuv orqali munosabat bildirish qobiliyati shakllanadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Raqmli ta‘limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati kattadir. Ma‘lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati to‘g‘ri va mantiqiy xulosa chiqarish va oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi.

Jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlaganda tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchilar ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar. U quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

tahlil - muhokama qilinadigan savol va dalillar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnatish;

baholash - dalillarning ishonchligi va aniqligini baholash qobiliyati;

tushuntirish - o‘z nuqtai nazarini asoslash;

faraz qilish - ma‘lumotlarning yetishmasligini aniqlash va shu asosda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati;

tartibga solish - o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni chiqarish va mulohaza yuritish qobiliyati shakllanadi.

4K kompetentsiyalariga ega bo‘lgan o‘quvchi muammolarni hal qilishda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi:

Muloqot: savol beradi va savollarga javob beradi, tushunmagan ma‘lumotlariga izox so‘raydi, o‘z nuqtai nazarini tushuntiradi, ziddiyatli vaziyatlardan qochadi yoki ularga yechim topadi.

Hamkorlik: yordam so‘raydi, boshqa fikr va muloxazalarini tinglaydi va taklif beradi, hamkorlikda ishlaydi, boshqalarga ham fikr bildirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash: axborotni tahlil qiladi, faraz va yechimlarni taklif qiladi, bahslashadi va baholaydi.

Ijodkorlik: g‘oyalarni taklif qiladi, ularni qadrlaydi, g‘ayrioddiy vaziyatda asosiy ko‘nikmalarni qo‘llaydi, original yechimlarni topadi, topshiriqni bajargandan so‘ng ham yangi g‘oya va yechimlarni izlashni davom etadi.

Ushbu kompetensiyalar orqali o‘quvchi topshiriqlarni bajarishda passivlikdan tashabbuskorlik va mustaqillikka o‘tadi, buni xulq-atvor ko‘rsatkichlari bilan ham baholash va kuzatish mumkin.


Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati hamda muloqot ko‘nikmasi savol-topshiriqlar va mashqlar orqali rivojlanadi. Ta‘lim muassalarida ushbu usullar bilan ishlash uchun barcha sharoitlar mavjud.

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda qanday 4K modeli usullaridan foydalanish mumkin?

"Fikrlar burchagi" yoki *Camers* metodining tuzilmasini ko‘rib chiqamiz. To‘rtta burchakda mavzuga oid tushunchalar osib qo‘yiladi. O‘quvchilar mavzuga oid tanlangan tushunchalarning oldiga boradilar. So‘ngra o‘z fikrlarini asoslab beradilar.

Frayer modeli grafik organayzerdir (1-rasm). U 1969-yilda yaratilgan, Ko‘pchilik lug‘at so‘zlarini o‘rganish uchun ushbu turdagi organayzerdan foydalanishadi. Frayer modeli grafik organayzeri ko‘p qirrali bo‘lib, barcha fanlarda qo‘llanilishi mumkin, bu o‘quvchilarga nafaqat so‘z boyligini kengaytirish, balki turli tushunchalar bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qiladi.



1-rasm. Frayer modeli

Mix-Freeze-Group. Ushbu metodda talabalar musiqa sadosi ostida aralashib o‘ynaydilar. Musiqa to‘xtagandan so‘ng hamma o‘z o‘rnida qotib turadi va o‘qituvchi mavzuga oid muhokama savolini beradi. O‘quvchilar savolning javobi orqali kichik guruhlariga birlashadilar, turli harakatlar orqali savolga javob beradilar. Guruhdagi o‘quvchilar soni o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga bog‘liq bo‘ladi.

Stir-The-Class metodi. Talabalarga mavzu bo‘yicha ish daftarlariga mustaqil tushunchalarni yozish so‘raladi. Tushunchalarni yozib bo‘lishgach, auditoriya bo‘ylab guruhdoshlari yozgan tushunchalar bilan tanishib, o‘zlarida bo‘lmagan tushunchalar bilan to‘ldirishadi. Ularga imkon qadar ko‘proq ishtirokchilarning g‘oyalarini o‘z ro‘yxatiga qo‘shish uchun imkon yaratiladi.

Ushbu metodlar nima beradi:

- O‘quvchilar mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi;
- O‘zaro fikrlar bilan bo‘lishadi;
- Jamoada ishlaydi;

- Fikrlarni shakllantirish qobiliyati paydo bo‘ladi;
- Nutqi ravon bo‘ladi;
- Tahlil qila oladi;
- Tanqidiy fikrlaydi;
- O‘zgalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadi;
- Ijodiy fikrlaydi.

Yangi innovatsion yondashuv o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘shida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta‘limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta‘limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тожибоева Дилором (2018). Таълимга ёндашувлар ва модуль асосида ўқитишнинг тутган ўрни. Современное образование (Узбекистан), (3), 36-44.
2. Явкочдиева Дилафруз Эгамкуловна (2021). ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. Современное образование (Узбекистан), (4 (101)), 43-50.zbekistan), (3), 36-44.
3. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
4. Abduraxmonova, N. A. qizi. “BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA”. *Educational Research in Universal Sciences*, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
5. Сангинова Г.Б. (2023). ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (4-1 (107)), 840-846.
6. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.
7. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

**G‘ARB MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA****Gulbahor Xolmirzayeva,**

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada G‘arbning faylasuf olimlari va psixologlari tomonidan tafakkur mohiyati, inson xulq-atvorida tutgan o‘rni qanday talqin etilgani haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Falsafiy va psixologik yondashuvlarning pedagogik dunyoqarash, xususan, bo‘lajak tarbiyachilar pedagogik tafakkurini shakllantirishda metodologik omil, nazariy asos bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: tafakkur kategoriyasi, pedagogik tafakkur, falsafa, psixologiya, xulq-atvor, fikrlash, taqqoslash.

Ta‘limning ustuvor ahamiyati va maqsadli yo‘nalishlarining o‘zgarishiga olib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari oliy pedagogika maktablarini nafaqat amaliy faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yangi avlod o‘qituvchilarini tarbiyalash zarurati bilan duch kelmoqda balki transformatsiya vositalari, shuningdek, har bir bolaning rivojlanish strategiyalarini ko‘rishga imkon beruvchi aqliy faollikni talab etmoqda. Shaxsiy, o‘ziga xos pedagogik vaziyatlarning orqasida umumiy, tabiiy sabab-oqibat munosabatlarini ko‘rishga intiladigan va ko‘ra oladigan o‘qituvchiga bo‘lgan talab, ta‘lim maqsadlariga erishishning u yoki bu usullarining samaradorligini oldindan belgilab beradi, kelajakdagi o‘qituvchini tayyorlash rejasi yo‘nalishini nazarda tutadi. Ushbu jarayonlar o‘qituvchining nazariy va pedagogik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

Tarbiyachilik kasbini tanlagan talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan har qanday ilmiy ishlanmalar uning mohiyati haqidagi ma‘lum umumiy nazariy g‘oyalarga asoslanadi. Ana shunday nazariy asoslardan biri G‘arb faylasuflari va psixologlarining asarlari, ilmiy qarashlaridir.

Bo‘lajak tarbiyachining nazariy pedagogik tafakkuri o‘ziga xos integratsiya xarakteridagi hodisadir. Ushbu hodisaning mohiyatini anglash uchun qator kategoriyalarni chuqur va har tomonlama tadqiq qilish zarur. Ushbu kategoriyalar quyidagilardan iborat: a) tafakkur asosiy kategoriya sifatida o‘rganilayotgan hodisaning asosiy belgilarini ifodalaydi; b) nazariya bilishni tizimlashtirishning alohida shakli; c) pedagogik tafakkur ma‘naviy borliqni o‘zlashtirishning o‘ziga xos ko‘rinishi; d) bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy tafakkur shakllanishi subyekt sifatida.

Antik davr falsafasida shakllangan an‘anaga ko‘ra insonni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan asosiy belgi uning tafakkuri sanaladi (Demokrit, Platon, Aristotel). Inson, eng avvalo, aqldir. Aristotelning ushbu fikridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki tafakkur insonning asosiy belgisidir.

Qadimgi mutafakkirlar tafakkurning inson hayotidagi rolini yuqori baholaganlar. «Odamlarning baxti qullarda yoki pulda emas, balki ehtiyotkorlik va to‘g‘ri fikrlashdadir» [1,14] deb ta‘kidlaydi Demokrit. U yaratgan konsepsiyaga ko‘ra tafakkur inson xohish istaklarini cheklovchi hamda inson xulq-atvorini tartibga soluvchi omil sifatida inson hayoti va faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi.

Falsafa va psixologiyaning keyingi rivojlanishida ushbu g‘oya har tomonlama rivojlanib takomillashib bordi. Xususan, J.Dyui insonning xulq-atvori boshqaruvi mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotida muayyan qarashlarni aytib o‘tgan. Tafakkur vositasida inson o‘z hatti-xarakatlari va ularning oqibatlari o‘rtasidagi konkret bog‘liqlikni, ularning biri ikkinchisini keltirib chiqarishi, tushunib yetishi, o‘z xulq-atvorini nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda tafakkur bir xodisada boshqa hodisaning belgilari mavjudligini anglash va shu orqali ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’kidlashi bashoratchilik funksiyasini bajaradi. Bunda har qanday natija yoki oqibat undan oldingi sodir bo‘lgan voqea va xodisalarga bog‘liqligi aniqlanadi [2,384].

Tafakkurning boshqaruvchilik funksiyasi Z.Freydning shaxs psixodinamik nazariyasida o‘ziga xos tarzda bayon qilingan. Shaxsning topografik modelini yaratish jarayonida muallif mantiqiy tafakkurni Ego xududiga ya’ni ong oldiga joylashtiradi. Aynan shu qism intellektual jarayonlar borishiga mas’ul. Ushbu ikkinchi jarayon ta’sirida xohish istaklar tashqi dunyo tomonidan qo‘yilayotgan cheklovlar bilan kelishiladi hamda xulq-atvor kerakli yo‘nalishga yo‘naltiriladi hamda individning instinktiv ehtiyojlari xavfsiz ravishda qondirilishi ta’minlanadi. O‘z-o‘zidan tafakkur xulq-atvor regulyatori yoki boshqaruvchi sifatida jamiyat bilan birgalikda faoliyat olib borib hayotiy muammolarni o‘zi va atrofdagilar uchun qulay tarzda xal qilish imkonini beradi. O‘z vaqtida J.Piaje nazariyasida tafakkur intellekt tarkibidagi asosiy omil sifatida subyekt va atrofdagi voqelik o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi moslashuvchan mexanizm sifatida talqin qilinadi. Ushbu fikr muallifni tafakkur nafaqat inson ruhiyatida balki uning butun hayotida yetakchi rol o‘ynashi haqidagi ishonchga olib keladi.

S.L.Rubinshteyn xulq-atvorda fikrlashning ahamiyatini ikkinchisining o‘zgaruvchanlik bilan to‘yinganligida ko‘radi, buning natijasida tashqi vaziyatning o‘zgaruvchan tarkibiy qismlariga muvofiq, uning muhim tomonlari, aloqalari va munosabatlarini ajratib ko‘rsatish orqali harakatlarni boshqarish uchun sharoitlar paydo bo‘ladi [3,114]. Inson o‘zining tafakkuri bilan olamdagi barcha mavjudotlardan ajralib turadi, hamda olamning sir-sinoatlariga chuqurroq kirib bordi. Natijada uning tashqi olam bilan munosabatlari shakllanib bordi. O‘z-o‘zidan tafakkur tashqi olam bilan hamjihatlikni, insonning olam bilan muloqotini ta’minlab hayotiy maqsadlarga yetish uchun sharoit yaratadi.

Yuqoridagilarni amalga oshirishi subyektning voqelikni muayyan qismiga qo‘shilishi va muayyan faoliyat doirasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatishini talab qiladi. O‘qituvchi uchun ushbu jihat ta’lim sohasidagi professional pedagogik faoliyat bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari subyektning (o‘qituvchining) atrofdagi voqelikni aks ettirish xususiyatlarini belgilaydi. Shu ma’noda pedagogik tafakkur kasbiy xususiyat bo‘lib, o‘qituvchini “shakllantiradi”, bir tomondan uning kasb egasi bo‘lishiga imkon beradi, ikkinchi tomondan, uni boshqa kasb vakillaridan ajratib turadi.

Bundan tashqari, pedagogik tafakkur ta’sirida vaziyatning xususiyatlariga, individual ong tamoyillari va me’yorlariga muvofiq xatti-harakatlar strategiyasi ishlab chiqiladi, amaliyotning haqiqiy ehtiyojlariga mos keladi, o‘qituvchi faoliyatini tartibga soluvchi rol o‘ynaydi.

Xulq-atvor va tafakkurning aloqadorligi nuqtai nazardan qaraganda A.N.Leontev [4,332] ilgari surgan konsepsiya diqqatga sazovor. Unga ko‘ra tashqi faoliyat strukturasi (xulq-atvorni tashkil etgan) va ichki faoliyat (tafakkurni tashkil etgan) ta’sirida insonning olam bilan aloqadorligi va ichki hayoti o‘rtasida analogiya mavjud. Ichki tafakkur faoliyati nafaqat tashqi

amaliyot vositasida vujudga keladi, balki u bilan bir xil tarkibiy tuzilmaga ega. A.N. Leontiev tomonidan amalga oshirilgan inson faoliyatini tavsiflovchi ichki munosabatlar tahlili uning makrotuzilmasini tashkil etuvchi «birliklarni» aniqlashga imkon berdi:

1. Ularga sabab bo‘lgan motivlar ta’siridagi alohida harakatlar.
2. Muayyan maqsadlarga yo‘naltirilgan xarakterlar.
3. O‘z oldiga qo‘yilgan qat’iy maqsadlarga bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayonlar (maqsadlar).

Fikrlash jarayonidagi asosiy amaliyotlar bilish motivi vositasida bilvosita ya’ni ob’ektiv qonuniyatlar va aloqalarning mohiyatini anglash orqali yuzaga chiqadi. Ular tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Taqqoslash, narsa va xodisalarni bir-biriga solishtirib farq va o‘xshashliklarni aniqlash. Analiz fikrda butunni qismlarga ajratib har birini alohida o‘rganish. Sintez analizda qismlarga ajratilgan qismlarni butunlash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, xususiy, alohida, yakka belgilarni olib tashlash, qator yakka narsa va xodisalaridagi umumiy jihatlarni saqlash kabilardir [3, 324-328].

Ichki va tashqi faoliyatning umumiyliigi bir-biriga o‘tish, bir-birini to‘ldirish kabi xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik V.P.Zinchenko va N.D.Gordoevalarga ko‘ra bunday aloqadorlik har qanday faoliyatning asosiy belgisi bo‘lgan mexanizm ya’ni refleksiya vositasida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiyning holatlar mantig‘ida refleksiya yuqori darajadagi psixik funktsiya sifatida baxolanib, uning yordamida barcha hatti-xarakterlar ular real yoki tafakkurga oid bo‘lishidan qat’iy nazar asoslab beriladi [5,26]. Refleksiyaning falsafiy psixologik jihatdan tahlil qilinishi uning yangi jihatlarni va yangicha yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Olingan ma’lumotlarning yig‘indisi sifatida hozirgi kunda uni tafakkur mexanizmi deb atashga imkon beradi.

L.Feyerbax insonni o‘z-o‘zini anglash g‘oyasini uning fikriy faoliyatini refleksiya akti sifatida namoyon bo‘lishi orqali asoslaydi. “Fikrlovchi mavjudot o‘z-o‘ziga mos u o‘zining shaxsiy ob’ekti, o‘z mohiyatini o‘zida jamlagan va o‘zligini o‘zi orqali ko‘rsatadi” [6,93].

Tafakkur mohiyatini ochib berishda M.K.Mamardashvili e’tiborini refleksiyaga qaratadi. “Tafakkurimiz doimo o‘zimiz va tafakkurimiz tomonidan boshqariladi. Va u har doim prinsipial holda o‘zga, fikrda aks etadi. Shu tafakkurdir” [7,50-53]. Shu bilan bir qatorda muallif o‘zimizda o‘zgalarni tinglash ko‘nikmasini rivojlantirib borishimiz zarurligini ta’kidlab, aynan o‘zaro muloqot ta’sirida xolatlarni anglash yuz beradi. Bu esa o‘z navbatida insondagi ma’naviylikni keltirib chiqaradi.

Psixologiyada ushbu g‘oya I.S.Kon tomonidan rivojlantirildi. Bunda tafakkurimizda tasavvur qilingan xolatlar va kuzatuvchini o‘ziga nisbatan va izlanuvchini o‘zgaga nisbatan genetik bog‘liqlik vujudga keladi. Refleksiya chuqur izchil o‘z-o‘zini aks ettirish sifatida namoyon bo‘lib xamjixatlikda faoliyat olib borayotganlarning ichki olamini anglash hisoblanadi [8,265].

Taqdim qilinayotgan g‘oya va yondashuvlarning bizni qiziqtirayotgan kontekstda ketishi nazariy pedagogik tafakkurning asosiy belgilarini ochib beradi hamda bolaning ichki olamini o‘rganish, bilishga yo‘naltirilganligi, fikrlarining manbaalari va harakatga keltiruvchi mexanizmlari asosida pedagogik kuzatuvni loyihalashtirish va o‘z-o‘zini analiz qilishni rivojlantiradi. Nazariy

pedagogik tafakkur “fikr ustida mulohaza yuritish” ko‘rinishida amalga oshiriladi. Uning natijasi o‘laroq o‘qituvchi ongining ichki tuzilishining qayta tiklanishi vujudga keladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining ichki olamini o‘zgartirishga imkoniyat yaratadi. O‘qituvchi tomonidan amalga oshirilayotgan refleksiya ichki tomonlama jarayon bo‘lib, tomonlar bir-biri bilan bog‘liq xolda bir-birini taqozo qiladi. Mazkur jihati bilan ham tarbiyachi, ham tabiyalanuvchini ham rivojlantirish manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, nazariy va pedagogik tafakkurni egallash natijasida erkin tanlash imkoniyatini dolzarblashtirish zarur ko‘rinadi. Ikkinchidan konseptual va semantik sohalarda erkin yo‘naltirilganlikni, pedagogik voqelikni muammoli ko‘rishni, bilish jarayonida jarayonlar va hodisalarning chuqur mohiyatiga kirib borishni, pedagogik faoliyatning strategik xususiyatini, tarbiyachining kasbiy konsepsiyasining mavjudligini, nostandart, faoliyatning tayyor modellariga bog‘lanmaslik, innovatsion farazlarni ilgari surish, pedagogik shtamplar va stereotiplardan mustaqillik qobiliyatning mavjudligini nazarda tutadi. Bu tarbiyachining tanlov erkinligini ta‘minlaydi, ongli kasbiy tanlov qilishga yordam beradi, «o‘quv materiali» bo‘yicha erkin harakat qiladi va natijada o‘zini barkamol, o‘zini o‘zi rivojlantirish va mukammallashuvga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Андреева Н.Н. Философия и история образования. - Москва, 1999.
2. Дьюи Дж. Демократия и образование: Пер. с англ. - Москва, 2000.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб., 2002.
4. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: В 2-х т. Т.2.- Москва, 1983.
5. Гордеева Н.Д., Зинченко В.П. Роль рефлексии в построении предметного действия// Человек, № 6, 2000.
6. Фейербах Л. Сочинения: В 2 т. Т.1. / Пер. с нем.- Москва, 1995.
7. Мамардашвили М.К. Как я понимаю философию. - Москва, 1990.
8. Кон И.С. В поисках себя: Личность и её самосознание. - Москва, 1984.
9. Tohirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.

**MAKTABGACHA KATTA YOSH DAVRIDA BOLALAR TAFAKKURI VA MULOQOQT
KO‘NIKALARINING UYG‘UNLIGI****Haydarova Gulchiroy**

Andijon davlat universiteti doktoranti

gulchiroyxaydarova00@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada nutqiy muloqot tarbiyasi va bola shaxsini rivojlantirishda uning ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Maktabgacha katta yosh davrida bolalarning nutqni o‘zlashtirish jarayoni tugallanishi, psixik jarayonlarning rivojlanishida nutq va muloqotning bolaga ta’siri masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, tafakkur, muloqot ko‘nikmasi, maktabgacha katta yosh, rivojlanish, nutq.

Ma’lumki, maktabgacha pedagogika va psixologiyada katta maktabgacha yosh davri sifatida 5-6 yosh qabul qilingan. Maktabgacha katta yosh davrida qoidaga muvofiq murakkab va uzoq davom etadigan jarayon sifatida nutqni o‘zlashtirish jarayoni tugaydi. Til fikrlash va muloqot, ongli o‘rganish obyekti vositasiga aylanadi. Chunki bolani maktabga tayyorlash vaqtida o‘qish va yozishga o‘rgatish boshlanadi, fonematik rivojlanish tugallanadi. Mazkur yosh davrida nutqning so‘z boyligi jadal ortadi, uning grammatik qurilishi rivojlanadi. Shuningdek, bolalar sintaktik (gap tuzish) va morfologik (so‘z yasash) qoidalarni egallaydi. M.I.Lesina ta’kidlab o‘tganidek, muloqot vaziyatli tavsifdan bilish jarayoni obyektiga aylanadi. Bolalar shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qarata boshlaydi[1,54].

Maktabgacha yoshda idrok o‘zining daslabki affektiv tavsifini yo‘qotadi: emotsional va pertseptiv jarayonlar farqlanadi, tahlilga, aniq maqsadga yo‘nalgan, ongli idrok etish shakllanadi. Bolada erkin harakatlar – izlash, e’tibor qaratish, kuzatish, nutq yordamida turli narsa-buyumlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning holati, belgilari va sifatlarini nomlashdan faol foydalanish qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Tafakkurning rivojlanishi ko‘rgazmali-harakatlilikdan ko‘rgazmali-obrazlilikka, keyinroq og‘zaki fikrlashga o‘tadi. Shuning uchun ko‘rgazmali-obrazli, V.V.Lavrentyev ta’biri bilan aytganda representativ intellektga muvofiq tasavvurga asoslangan fikrlash asosiy sanaladi[2,84]. Bunda bolalar nutqiy muloqot ko‘nikmalari ham fikrlash darajasiga muvofiq bo‘ladi.

L.Korshunovanning fikricha, maktabgacha yosh davri nihoyasida rivojlanishning uch sohasi rivojlanadi:

- 1) qoidalarga rioya qilishga asoslangan erkin xulq-atvorni shakllantirish;
- 2) bilish faoliyati vositalari va me’yorlarini o‘zlashtirish;
- 3) o‘z-o‘zini o‘ylashdan asosiy markazga yo‘nalganlik[3,278].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash va idrok etish o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq. Bu esa, mazkur yosh davrida ko‘rgazmali-obrazli fikrlash ko‘proq xosligidan guvohlik beradi. Maktabgacha yosh davrida bolalarning fikrlashida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi: ularning dunyoqarashi kengayadi, fikrlash operatsiyalari takomillashadi, yangi bilim va ko‘nikmalar

namoyon bo‘ladi, demak nutq faol rivojlanadi. Faqat fikriy va til ko‘nikmalari atrof-muhit bilan muloqot jarayonida egallanadi. Bola o‘tib-ulg‘aygan sari muloqot tarkibi murakkablashadi, bu esa, o‘z navbatida murakkab nutq shakllarini o‘zlashtirishni talab etadi va oxir-oqibat muloqot qobiliyati ham rivojlanadi.

Maktabgacha katta yoshda bilish jarayonlarida ko‘plab o‘zgarishlar yuzaga keladi. Mutaxassislarning fikricha, 6-7 yoshda idrok etish affektivlikdan emotsionallik va perseptivlikka o‘zgaradi [6,152]. Idrok etish tahliliy, maqsadga yo‘nalganlik va onglilik kasb etadi. Unda erkin harakatlar – izlash, tekshirish, kuzatish namoyon bo‘ladi.

6-7 yoshda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishining o‘zi yuqori ahamiyatga ega. Bu orqali rejalashtirilgan nutqiy funksiyani yaxshilash imkoniyati yuzaga keladi. V.S.Muxinaning fikricha, bu diqqatni jamlashning universal usulini o‘zida aks ettiradi. Nutq tufayli obyektlarning aniq vazifalarini og‘zaki ifoda qilish, shuningdek, navbatdagi faoliyatga diqqatni qaratish imkoniyati yuzaga keladi[4,32].

Maktabgacha ta‘lim tizimi uchun bolalarning bilish faoliyati muammosi mazkur yosh davri uchun juda muhimdir. Doimiy ravishda o‘tib boradigan bilimlar hajmini oqilona hisobga olish o‘tib kelayotgan avlodning ta‘lim-tarbiyasiga yangi talablar qo‘yadi. Eng avvalo, kognitiv, ya‘ni bilish faolligini rivojlantirish vazifasi turadi.

Mazkur yoshdagi bolalarning fikrlashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg‘urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi[5,384]. Shu sababli bolalarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hatti-harakatlariga qiziqishni ilk bolalik davridan uyg‘otish va ularga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jo‘shqin rivojlanish bilan ajralib turadi. Maktabgacha yosh davrida turli yo‘nalishlar bilan bog‘liqlikda kuchli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, faoliyatning asosiy turlari, shuningdek, psixik jarayonlar faol rivojlanadi. Masalan, bolaning xotirasi ham sifat, ham miqdor o‘zgarishlariga uchraydi. Jumladan, maktabgacha katta guruh bolalari qariyb 7-8 ta obyekt, tayyorlov guruhlarda esa 10-12 tagacha obyekt yodda saqlaydi. Sifat o‘zgarishlari shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat uning uchun qiziqarli axborotlarni yodda saqlaydi, shuningdek, yod olish tavsiya etilgan vazifalarni qabul qiladi, zarur ma‘lumotlarni esda saqlashning alohida usullarini qo‘llay oladi[8]. Shunda ular vaziyatga ko‘ra turli gap konstruksiyalarini muloqotda qo‘llay boshlaydilar.

Bola o‘zi uchun qiziqarli, ijobiy tasavvur uyg‘otadiganlarini yaxshi eslab qoladi. Psixologlarning ta‘kidlashicha, bayon etilgan materiallarning hajmi narsa-buyum va hodisalarga emotsional munosabatni aniqlab beradi.

V.S.Muxinaning fikricha, diqqatning yuqori holati atrof-muhitga yo‘nalganlik va unga emotsional munosabatni belgilab beradi. Shuningdek, tashqi tasavvurlarning mazmunan o‘ziga xosligi yosh bilan bog‘liqlikda diqqatni yuqori ekanligini ta‘minlaydi[4,33].

Tasavvur maktabgacha yoshda shakllanadigan muhim o‘zgarishlardan biridir. Mazkur bosqichda originallik va ixtiyoriylik kabi sifatlar shakllanadi. 5-6 yoshda bolalar mustaqil ravishda taklif etilgan mavzularda voqealar rivojining ketma-ketligiga asoslangan kichik ertaklar to‘qiy olishadi. 7 yoshda bolalar aniq bir yo‘nalishdagi tasavvurlarga asoslanish, avvaldan bosqichma-bosqich belgilangan reja bo‘yicha unga qisman o‘zgartirishlar kiritishga qobiliyatli bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xulq va muomalaning ko‘pgina usullarini qisqa muddat ichida o‘zlashtiradilar. Ular yon-atrofidagilarning xatti-harakatlarini sinchkovlik bilan kuzatadilar. Kattalarning yurish-turishi, munosabati, o‘zini tuta bilishi, nutqi va xatti-harakatiga taqlid qiladilar. Natijada o‘z tengqurlari bilan muloqotda bo‘lishga ehtiyoj seza boshlaydilar. Bu jarayonda kattalarning, xususan, ota-onalar va tarbiyachilarning ko‘rsatmalari, ibrat-namunasi muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ongida yuksak axloqiy-estetik sifatlarning shakllanishida oila a‘zolari va tarbiyachilarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Zero, oila a‘zolari, tarbiyachi va bola o‘rtasida sofdillik, xushmuomalalik, kamtarlik, o‘zaro hurmat bir so‘z bilan aytganda samimiy munosabat kabi xislatlar mavjud bo‘lsa, bu ibratli axloqiy-estetik sifatlarga ijobiy ta‘sir etadi. Eng asosiysi, mazkur jihatlar bolalar muhitida bo‘lganlar bilan muloqotda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Азизова З.Ф. Мактабгача катта ёш даврида болалар шахсини ривожлантириш. Andijon universiteti Ilmiy xabarnomasi. Pedagogik tadqiqotlari – Scientific bulletin. Pedagogical research. 2019, №3. 53-58-b.
2. Лаврентьев В. В. Значение игры в работе с детьми // Начальная школа. – 1999. –№ 5. – С. 84.
3. Коршунова, Л. С. Воображение и рациональность [Текст]: опыт методолог. анализа познават. функции воображения / Л. С. Коршунова, Б. И. Пружинин. – М.: Изд-во МГУ, 1999. – С. 278.
4. Мухина В.С. Детская психология: учеб. для студентов пед. ин-тов / В. С. Мухина. – М.: Апрель-Пресс:ЭКСМО-Пресс, 2000. – С. 352.- С. 32.
5. Сатир В. Психотерапия семи. – СПб; Москва; Хорьков; Питер, 2000. – С. 384.
6. Valijon Qodirov. Reflections on the formation of reflexive abilities in preschool education. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 11 november 2023. P.151-154.
7. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
8. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.

AN EXAMINATION OF THE 4C TEACHING METHOD IN ENHANCING 21ST-CENTURY SKILLS

Ilxomov Xojiakbar Iqboljon o‘g‘li

Student, Kokand University

Abstract. This thesis explores the effectiveness and implications of the 4C teaching method in modern education. As the demands of the 21st century continue to evolve, the need for an educational approach that cultivates versatile skills beyond traditional knowledge becomes imperative. The four Cs competencies stimulate students' creativity as part of the application of creative competences based on some study findings. Implementing this particular method of teaching, however, still seems challenging due to some key issues and challenges. This thesis delves into the key issues and challenges of the 4C teaching strategy, investigates its practical implementation and efficiency in diverse educational settings.

Keywords: 4C, teaching strategy, four Cs competencies, educational settings.

Introduction. In the pursuit of educational excellence, educators and policymakers continually seek innovative methodologies that can transcend traditional paradigms and empower students to thrive in the complex, interconnected world of the 21st century. One such paradigm-shifting approach gaining traction is the 4C Teaching Method. Rooted in the principles of critical thinking, collaboration, communication, and creativity, this methodology represents a transformative leap from conventional teaching practices, aiming to equip students with the skills essential for success in an ever-evolving global landscape. It would be more informative and practical to cite each component studiously.

Communication: Effective communication is fundamental in today's interconnected world. The 4C teaching method encourages students to express themselves clearly and concisely, both verbally and in writing. Teachers facilitate activities that promote active listening, public speaking, and constructive feedback, fostering a strong foundation for communication skills.

Collaboration: Collaboration is a vital skill in the professional realm. The four C teaching method encourages teamwork, group projects, and interactive learning experiences. By working collaboratively, students learn to appreciate diverse perspectives, leverage each other's strengths, and solve problems collectively, preparing them for success in collaborative work environments.

Critical Thinking: Critical thinking is the ability to analyze information objectively, make informed decisions, and solve problems effectively. The 4C teaching method integrates activities that challenge students to think critically. Teachers engage them in discussions, problem-solving scenarios, and projects that require analytical reasoning, promoting a mindset of curiosity and independent thought.

Creativity: Creativity is nurtured through the four Cs teaching method by encouraging students to think outside the box and approach challenges with innovative solutions. Teachers incorporate activities that stimulate imagination, such as brainstorming sessions, art projects, and open-ended assignments. Fostering creativity prepares students to adapt to an ever-changing world and contribute fresh ideas to society. As the digital age redefines the nature of work and

society, education must adapt to cultivate skills beyond rote memorization and standardized testing. The four C teaching system emerges as key pillars in preparing students not only for academic success but also for the dynamic challenges and opportunities of the future. The 4C Teaching Method aligns with the contemporary understanding of education as more than the mere transfer of knowledge. It serves as a response to the growing recognition that students need a diverse set of skills to navigate the complexities of the modern world.

Literature Review: Many scholars and professors have mentioned their thoughts on this unique approach to teaching in different journals and articles. The first scholar is Dr. Carol Dweck who is known for her research on mindset and motivation, Dr. Dweck's work aligns closely with the principles of the 4Cs teaching method. She emphasizes the importance of fostering a growth mindset in students, where they see challenges as opportunities for growth and development rather than obstacles to be avoided [1]. The next one is Dr. Ken Robinson who is renowned for his TED Talk on creativity in education, Dr. Robinson has long advocated for a shift towards a more holistic and creative approach to teaching and learning. He believes that the 4Cs are essential for nurturing the talents and potential of every student, regardless of their background or abilities [2]. The third scholar on the list is Dr. Pasi Sahlberg. As a leading authority on education policy and reform, Dr. Sahlberg has spoken about the importance of fostering creativity and critical thinking in schools. He argues that a balanced curriculum that integrates the 4Cs alongside academic subjects can better equip students for the challenges they will face in the future [3]. Dr. Tony Wagner, education expert and author, has extensively advocated for the importance of the 4Cs in education. He argues that these skills are crucial for students to thrive in the modern workforce and society. According to him, traditional education systems often focus too much on rote memorization and standardized testing, neglecting the development of critical skills like creativity and collaboration [4]. Last but not least, Dr. Yong Zhao who is known for his work on education reform and globalization, emphasizes the need for education systems to prioritize the cultivation of creativity and entrepreneurship. He believes that the 4Cs framework provides a holistic approach to education that prepares students for success in a rapidly changing world [5].

Key Issues and Challenges: This section identifies and analyzes key issues and challenges encountered in applying the four C teaching method. Sadly, while this approach can be highly beneficial for students, there are several key issues and challenges in its implementation.

The first challenge is Teacher Training and Professional Development. Many educators may not yet have received training on how to effectively teach and assess the 4Cs. Providing adequate professional development opportunities and resources for teachers is crucial for successful implementation.

Another issue is Resource Constraints. Implementing the 4Cs often requires access to technology, collaborative workspaces, and other resources. It is true, unfortunately, that schools with limited budgets or outdated facilities may struggle to provide the necessary resources for effective implementation.

Moreover, there is an obstacle that many teachers struggle with, it is Student Engagement and Motivation. Engaging students in activities that foster the development of the 4Cs can be

challenging, especially if they are accustomed to more traditional teaching methods. Teachers may need to find ways to make learning experiences relevant, meaningful, and enjoyable for students.

Addressing these challenges requires a concerted effort from educators, administrators, policymakers, and other stakeholders to prioritize the development of 21st-century skills and provide the necessary support and resources for effective implementation.

Successful Implementation of 4C teaching strategy: So, what should educators and professors do in the classroom in order to execute this specific method productively? First of all, they could design group projects, discussions, and problem-solving tasks that require students to work together. This, as a result, boosts students’ collaborative skills. For example, assign a research project that involves students collaborating on gathering information, analyzing data, and presenting their findings as a team. When it comes to encouraging critical thinking competency, teachers can use open-ended questions and real-world scenarios to prompt students to think critically. In addition, discussions can be organized where students evaluate different perspectives, analyze evidence, and develop logical arguments. A perfect illustration of this is having discussion in a history class, ask students to examine primary sources and debate historical events. By providing opportunities for students to express themselves creatively in various formats, such as writing, artwork, presentations, or multimedia projects, educators are able to foster students’ innovative thinking. Just to give one example, in a literature class, ask students to create alternative endings for a novel or write a poem inspired by a particular theme. Incorporate activities that enhance oral and written communication skills. Encourage students to present their ideas clearly, listen actively to others, and provide constructive feedback. For instance, organize debates, presentations, or peer review sessions where students practice communicating effectively. As for communicational skill, incorporating activities that enhance oral and written communication skills is a great idea. Professors and educators should encourage students to present their ideas clearly, listen actively to others, and provide constructive feedback. For instance, organize debates, presentations, or peer review sessions where students practice communicating effectively.

Conclusion. In conclusion, the 4C teaching method stands out as a holistic and forward-thinking approach to education, addressing the multifaceted needs of students in today’s rapidly changing landscape. Beyond nurturing intellectual growth, the framework strategically hones crucial skills—communication, collaboration, critical thinking, and creativity—empowering students to thrive in an increasingly interconnected and dynamic world. As educators implement the 4C method, they not only contribute to the academic advancement of their students but also play a pivotal role in shaping individuals ready to face the challenges of the future. In doing so, they lay the foundation for a generation capable of adapting to new technologies, engaging in effective teamwork, critically evaluating information, and thinking innovatively.

Furthermore, by proactively addressing challenges such as outdated curricula and the digital divide, educators can create an inclusive and dynamic learning environment. This inclusivity ensures that all students, regardless of their backgrounds or circumstances, have equal access to the tools and opportunities needed to develop the 4Cs. In essence, the 4C teaching method not only prepares students academically but also molds them into well-rounded,

adaptable, and socially conscious individuals. As we embrace this holistic educational approach, we contribute to a future where learners are not just equipped to navigate complexity but are also inspired to contribute meaningfully to the betterment of society. Through the 4Cs, education becomes a catalyst for positive change, fostering a generation capable of shaping a more innovative, collaborative, and compassionate world.

References:

1. Dweck, C. S. (2006). *Mindset: The new psychology of success*. New York: Random House.
2. Robinson, K. (2011). Ken Robinson Says Schools Kill Creativity Speech. TED Talks.
3. Sahlberg, P. (2014). *Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland?* Teachers College Press.
4. Sahlberg, P. (2018). *Finnish ED leadership: Four big, inexpensive ideas to transform education* Corwin Press.
5. Wagner, T. (2010). *The global achievement gap: Why even our best schools don't teach the new survival skills our children need-and what we can do about it*.
6. Zhao, Y. (2009). *Catching up or leading the way*. Alexandria, Virginia: Association for Supervision & Curriculum Development (ASCD).
7. Zhao, Y. (2012). *World class learners*. Thousand Oaks, CA: Corwin.

НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА

Иминов Т.Н.

Андижанский филиал Кокандского университета, доцент

Кирийгитов Б.А.

Андижанский филиал Кокандского университета, ассистент

Аннотация: Данная работа освещает проблему изучения дополнительных источников по учебному материалу при изучении физических процессов. Приводится анализ контента по свойствам распространения звука в воздухе. Рассматривается влияние различных подходов при рассмотрении учебного материала.

Ключевые слова: скорость звука, энергия, амплитуда колебания, интенсивность, волна.

Состояние подготовки молодых кадров, уровень знаний по специальности и другим техническим направлениям сегодня определяют общий уровень развития общества. Наличие молодых одаренных специалистов помогает решать различные технические и технологические проблемы развития промышленного сектора, а это в свою очередь влияет на экономическую ситуацию.

Наличие комплексных знаний у молодого поколения становится необходимым условием для осуществления своей деятельности. Для получения молодых кадров такого уровня проводится большая работа. Создаются условия для получения информации по своей специальности, осуществляется обмен специалистами и студентами, налаживается работа в области коммуникационных технологий [1, 2].

В сфере образования, особенно, при подготовке молодых специалистов по физике требуется наличие широкого кругозора по различным предметам. В качестве примера рассмотрим тему «Акустика». Данная тема интересна тем, что для ее полного понимания надо хорошо знать основы математики (площадь, сфера, распределение) и разделы физики (механика, молекулярная физика, физика реальной среды). Дополнительное представление информации поможет лучше понять сущность, изучаемой темы по предмету.

Таблица №1

Комплексное рассмотрение понятий и учебного контента

Понятие	Комментарий по физике	Комментарий по математике
Амплитуда волны	Максимальное изменение величины изменения	Состояние системы величин, меняющихся по заданной траектории движения
Интенсивность	Энергия и величина звуковой волны	Распределение и изменения плотности энергии по площади окружности

Тип колебания	Реальные колебания в среде имеют характер уменьшаться по амплитуде волны	Изменение происходит по закону синуса или косинуса
Температура внешней среды	Напрямую влияет на скорость звуковой волны через изменение состояния энергии молекулы	Имеется возможность анализировать при помощи функции распределения
Состояние среды	Происходит частичное изменение скорости звука при взаимодействии со средой	Меняются описывающие параметры по количеству систем
Представление результатов	Получение результата в виде графической или математической формы	Появляется возможность анализировать параметры среды распространения
Ошибки расчетов	Графическое или расчетное определение потери точности измерения через анализ параметров приборов	Математический анализ факторов, влияющих на искомую величину

Рассмотрим как можно изучить данную тему при помощи новых педагогических технологий.

Использование малых групп. Разделим всех обучающихся на три группы.

1-группа. Рассматривает влияние изменения температуры среды на скорость распространения волн.

2-группа. Изучает состояние амплитуды по фазе распространения волны в среде.

3-группа. Проводит расчеты энергетических параметров волны.

Использование графических кейсов. Весь учебный материал разделяется на графические задания, которые раздаются всем обучающимся. Они должны подготовить свои ответы на следующее занятие.

Использование тестовых кейсов с малым объемом текста.

1. В воздухе распространение звуковых волн происходит подобно волнам на поверхности воды.

2. Среды различаются по плотности, т.е. имеется различия в энергии связи между молекулами,

3. Скорость распространения звуковых волн в воздухе более сильно зависит от внешней среды по сравнению с водной средой,

4. В отношении звуковых волн проще провести эксперимент, чем с водной поверхностью,

5. Лучше использовать источники с малой интенсивностью, так как их влияние биологические объекты не оказывает отрицательного воздействия,

6. Воздух можно рассматривать как изотропную среду в ограниченной области или с помощью ограничений,

7. Для анализа, происходящих процессов можно использовать модельное представление параметров.

Вышеприведенные текстовые кейсовые задания дают возможность расширить ознакомление с теорией процесса и практическое выполнение экспериментов наряду с обсуждением нужно проводить с применением использования комплексного подхода, т.е. анализировать теоретический материал с учетом знаний по математике, химии, физике [3].

Или дать анализ зависимости скорости от условий внешней среды, т.е. температура, агрегатное состояние, состав компонентов.

Комплексность учебного процесса, т.е. использование учебного материала по нескольким учебным предметам для понимания учебного контента дает положительное влияние на усвоение учебного материала. Потому что увеличивается срок и глубина понимания контента.

При помощи информационных технологий можно намного быстрее найти решение физических задач. Так в работе [5] показано представление решения в графическом виде. С другой стороны, появляется возможность постепенно увеличивать кругозор по знаниям в области физики, так решение задач требует постоянного изучения теоретического материала и одновременно подготовки в области программирования.

Учебный процесс рассматривается с точки зрения упрощенной модели и приводятся критерии его оценки [6, 7].

Обратная связи происходит появление новых понятий и информации по данному учебному материалу, дает возможность на более высоком уровне усвоить контента по данному предмету. Можно понять в каком ракурсе понимания трактуется учебный контент по акустике, акустическим явления и используемому оборудованию.

В общем, в процессе образования намного облегчается понимание необходимого объема информации с одновременным усвоением большего объема информации при формировании навыков работы с литературой.

Литература:

1. Кирйигитов Б., Каршибаев А. Аспекты и анализ процесса подготовки специалистов – основа будущего. //Вопросы науки и образования.-2020.-№7.-С.77-80.
2. Кирйигитов Б., Носирова М. Значение межпредметной связи для повышения усвоения учебного материала/“Modern informatics and its teaching methods (MITM2020)” Materials of the International Online distance Conference. Andijan, 2020. 294-296-бетлар.
3. Кирйигитов Б., К.Косимов. Новые возможности использования интерактивных технологий.//Вопросы науки и образования.-2020.-№7.-С.81-85.
4. Кирйигитов Б., Каршибоев А., Носирова М. Значение источников на иностранных языках в процессе обучения/ “Innovative achievements in science 2020” /I International scientific Online conference. 2020. С.76-78.

5. Маматохунов Ё.А., Омонбоева Ф.Л., Носиров М.З., Олимов Л.О. Физик масалаларни ечишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш орқали таълим самарадорлигини ошириш //Илмий хабарнома. АДУ. -2015. №3.-99-103-бетлар.

6. Носирова М., Исаков М., Турсунбоева К. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлаш/«Вопросы инновационного развития науки, образования и техники». Материалы Международной научно-практической онлайн конференции. Андижан, 2022, 1-шўъба. 12 апрел.С.309-311.

7. Каршибоев А., Абдуазимов В. Аниқ фанлари ўқув материални қўшимча манбалар билан ўрганиш аҳамияти//«Вопросы инновационного развития науки, образования и техники». Материалы Международной научно-практической онлайн конференции. Андижан, 2022, 1-шўъба. 12 апрел.С.262-253.

8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI**Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi**

O‘zRFA doktoranti

Matmusayeva Nigora

Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitobxonlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashda oila kitobxonligi, yoshlarning kitobga qiziqishini rivojlantirishga ta‘sir etadigan ko‘plab omillar haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kitob, kitobxonlik, oila kitobxonligi, yoshlar ma‘naviyati, barkamol avlod tarbiyasida kitobning orni, ota-onaning kitob o‘qishi.

Mustaqillik o‘zbek xalqiga o‘z qadr-qimmatini, madaniyatini va an‘analarini, dinu – e‘tiqodini, tili va ma‘naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g‘urur va milliy tafakkur, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirishga zamin yaratgan. Bu vazifani bajarish uchun yosh avlod ma‘naviyatini shakllantirishda ular ongi va qalbiga milliy istiqloq‘oyasini singdirish asosida o‘z Vatanga, xalqiga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini paydo qilish, o‘zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongi, dunyoqarashi, tafakkurini o‘zgartirish, mamlakatimizda sodir bolayotgan islohotlarning mohiyatini anglab olishiga erishish muhimdir. Bularning barchasidan yosh avlodni ba‘zan yot ta‘sirlarga berilib ketishidan saqlash, iymonli, e‘tiqodli, dunyoqarashi keng etib tarbiyalash zaruriyati kelib chiqadi. Bunday avlod, albatta, dastavval oila muhitida tarbiyalanadi.

Bizni yerdan ko‘kka ko‘taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug‘lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir. Kitob insonni ulug‘laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o‘zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo‘lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo‘lib, u inson umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘lguvchi sodiq do‘stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o‘rtasida kitobga bo‘lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarni rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga “Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish”ni yo‘nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo‘ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o‘rni henihoya katta

ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchilik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlan o'tganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini "mo'jizalar davri" deya nomlaganlar. Bu davrda bolalarga kitob o'qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so'zlashishni mukammal o'rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo'lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda o'zlari namuna bo'lishlari va o'zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-ona kitobga mehr qo'ygan bo'lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo'ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo'ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so'zi, qilayotgan ishini o'ylab bajaradigan, bir so'z bilan aytganda, o'zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo'lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o'zbek xalq ertaklaridan so'zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiyluk, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlarini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasida kitobning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, "Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi", aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir.

Yuqoridagi bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin:

- Bolani kitobga qiziqtirish uchun o'zingiz namuna bo'ling;
- O'qigan kitobingizdan namunalar o'qib bering yoki hikoya qilib bering;
- So'zlab berish uchun bolani yoshiga mos fikrlarni tanlab oling;
- Oilaviy kutubxonani shakllantiring, bunda bola uchun alohida bo'lim tashkil eting;
- Bolani yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlang va sotib oling;
- Farzandingizga tovush chiqarib, sanoq she'rlarni, tez-tez takrorlanuvchi satrlardan iborat bolalar she'rlarini, rasmi kitobchalarni, turli hikoya va ertaklarni muntazam o'qib bering;
- Kichkintoylar uchun mo'ljallangan kutubxona va kitob do'koniga vaqti-vaqti bilan olib boring;
- Talagan kitoblaringiz pedagogik-psixologik talablarga javob bersin.

Atoqli bolalar adibi O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to‘xtalib shunday degan edi “Umrim davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichkintoylarning to‘g‘ri yo‘lni topib dunyoqarashini shakllantirish, ahloq-odobini yo‘lga solishda kitobdan-da muhimroq narsa yuq ekan shuning uchun ham ota- onalarning birinchi vazifasi o‘z farzandida kitobga mehr uyg‘otish deb bilaman. Gohida fan-texnika tufayli adabiyotga e‘tibor susayyapti degan gaplarni eshitib qolamiz. Menimcha, go‘zallikka extiyoj tuyg‘usi bor ekan, san‘at asarlari ham o‘zining bahosini xech qachon yuqotmaydi. Shu bois kitobga ixlos bilan qaraydigan, uni shavq bilan o‘qiydiganlar soni ortib borayotganini ko‘rish quvanarlidir”. Bolalar kitobxonligining asosiy maqsadi bolalarning yoshlikdan boshlab odamiylik, halollik, haqiqatgo‘ylik adolatparvarlik, go‘zallik ruhida tarbiyalash chin inson bo‘lib yetishishlariga xizmat qilishdan iboratdir. Shuning uchun ko‘pgina olim, shoir va yozuvchilarimiz kitob va kitobxonlikka katta e‘tibor qaratadilar. Atoqli adibimiz Abdulla Qahhor: “Shavq bilan o‘qiladigan kitob go‘zallikdir. Kitobning o‘qishli bo‘lishi muallifning kitobxonga aytadigan to‘lamag‘izli va juda zarur bo‘lgan fikri bo‘lganini ko‘rsatadi” deb aytganlarida haq edilar. Bolalar yozuvchisi Samuel Marshak shunday degan: “ Bola har bir kitobda butun olamni ko‘rishni istaydi. Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan “Ijod” jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko‘p ming nusxada nashr etish yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog‘liq aholi, xususan, Yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini aniqlandi. Avvalo, badiiy, ma‘rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta‘lim muassasalarini ta‘minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagan. Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga etkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Bugungi kunda ko‘plab darslik va adabiyotlarni elektron shakldagisi mavjud. Biz buni aslo inkor etmoqchi emasmiz. Biroq kitobning asl holicha foydalanish, badiiy zavq olgan holda uning haroratini his qilish, insonga manbada keltirilgan ma‘lumotni teranroq tushunishiga imkon beradi. Tadqiqot ishimizdagi asosiy maqsadimiz o‘quvchilarni adabiyotlardan foydalanishda zamonaviy imkoniyatlar asosida m‘eyor va sog‘lom turmush tarziga rioya qilib foydalanishga o‘rgatish. Yoshlik davrini hisobga olib pedagogik adabiyotlardan unumli foydalanishga da‘vat etish.

Tavsiyalar:

- Avvalom bor pedagoglar va ota-onalar yoshlarga kitob xaqida ma‘lumotni qiziqarli qilib tushuntirishi lozim;

-Bolani yoshiga mos kitobni to‘g‘ri tanlab tavsiya qilmog‘i kerak;

-Axborot vositalaridan to‘g‘ri va me‘yorida foydalanishga o‘rgatishni doimo nazoratga olishi muhim;

- Pedagoglar va ota-onalar yoshlarni o‘qigan kitoblari haqida ma‘lumotlarini eshitib baxsmunazaralar qilib tursalar yosh avlodda yana ham kitobga bo‘lgan qiziqishi ortib boradi;

-Har bir ijobiy yutuqqa erishishda sabr-toqat, izlanish, mehnat qilish muhimligini o‘quvchi bilishi kerak. Buni natijasini, albatta ota-ona, pedagoglar nazorat qilib izohlashi lozim. Shundagina biz kelajak avlodlarimizni intellektual salohiyatlarini to‘laqonli amalga oshirgan bo‘lamiz

Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g‘oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo‘lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Bolada o‘qish malakalarni shakllantirish negizida og‘zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yo‘llarida hamroh va maslahatgo‘y, bir umrlik sodiq do‘st –kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lardik.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborotkutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarori.
2. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus-T.: 2019 yil, 19-mart.
3. G‘aniyeva D.A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma‘rifiy tadbirlarning roli –T.: «Tafakkur» nashriyoti, 2017.
4. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA NUTQIY SIFATLARNI OSHIRISH**Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi**

O‘zRFA doktoranti

Dadaboyeva Sayyora To‘lqin qizi

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4 -kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim maktablarida o‘qituvchilarning turli jargon va chet tilidan kirib kelgan so‘zlardan dars jarayonida va darsdan tashqari holatlarda foydalanishi, natijada o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga qay darajada ijobiy va salbiy ta‘sir qilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Nutq, nutqiy qobiliyat, pegagogik mahorat, jargon, neogolizmlar, o‘qituvchi so‘z boyligi, ta‘sir kuchi, talaffuz, ohang, diktsiya, nutq ifodaviyligi, nutq madaniyati, nutq texnikasi.

O‘qituvchining asosiy quroli bu – nutqdir va shu nutqi orqali o‘quvchilarga bilimni yetkazib beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda bolaning savodi chiqadigan, nutqi shakllanadigan jarayonda o‘qituvchi nutqining to‘g‘ri bo‘lishi, muhim masalalardan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nutqining sofliqi, to‘liqligi, qisqa-lo‘ndaligi, ifodaviyligi va to‘g‘riligi o‘qituvchi nutq madaniyati fazilatlaridan biri bo‘lib, to‘g‘rilik- bu, asosiy, markaziy o‘rinda turadi. Chunki to‘g‘rilik bo‘lmagan joyda nutqning boyligi, ifodaviyligi, aniqligi va mantiqiyliqi to‘g‘risida gapirmasak ham bo‘ladi.

Hech kimga sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo‘lgan kasblar orasida o‘qituvchilik birinchi o‘rinda turadi, buning ustiga, o‘qituvchilar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg‘ul bo‘lganlar sonidan sezilarli darajada ortiqdir.

Bugungi kunda insonlarning imidji (“qiyofasi”) ni yaratishda bir qancha tashqi omillar qatorida ularning ovoz tembri ham muhim ekanligi alohida ta‘kidlanadi. Umuman olganda asosan o‘qituvchining og‘zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlari mavjud bo‘lsa-yu ovozi u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta‘sir kuchini kamida yarmi yo‘qoladi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yuz kishigami, boringki, ming kishigami, buning farqi yo‘q, o‘zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovozning, ovoz sifatining o‘rni favqulodda muhimdir.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘grisida”gi qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘grisida”gi PF-5712-sonli farmonlarida belgilangan qator vazifalar o‘qituvchining lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish borasida aytib o‘tilgan.¹

Hozirgi kunda “O‘qituvchi tilni qancha chuqur bilsa va unda so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo‘ladi”- degan fikr ko‘pchilik izlanuvchilar tomonidan aytib kelinmoqda. So‘z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o‘qituvchi nutqining poydevori hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish lozim. Zero, dunyoda so‘z mulkidan ham ortiq va qimmatli xazina yo‘qligini sharq mutafakkirlari o‘zlarining adabiy meroslarida bayon etganlar:

¹ <https://fayllar.org/boshlangich-sinf-oqituvchilarining-nutq-madaniyati.html>

“So‘z ichra mudom aql yashirindur, So‘z chimildig‘u, aql kelindur.” (Nosir Xisrav)

“So‘zni bilgan zarga bo‘lmaydi muhtoj, Zar qimmatini so‘z bilan topar rivoj.” (Abdurahmon Jomiy)²

Shuningdek, nutqning tozaligi, uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi kerakligi haqida va bunday holat faqat dars jarayonida emas balki darsdan tashqarida ham o‘quvchilar bilan shunday muloqot qilishi lozimligi haqida bir qator olimlar bahs yuritishgan. Bundan tashqari, til vositalaridan to‘g‘ri foydalana olgan o‘qituvchining nutqi tabiiy va samimiy bo‘ladi, tinglovchi va o‘quvchilarning qalbiga tez borib yetadi va mavzuni yaxshi tushunib o‘zlashtiradi.

Ko‘plab tadqiqotchilar boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo‘lmagan so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarning noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, qo‘pollik asosida qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish); parazit (ortiqcha) so‘zlarning ishlatishiga qarshi fikrda va bu o‘qituvchilar nutqning tozaligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatish bilan birga o‘quvchilarga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmasligi aniq. Ushbu hodisalar o‘qituvchi nutqida uchramasligi uchun, o‘qituvchi o‘zini, fikrini boshqara olishi, doimiy ravishda o‘z nutqini boyitib borishi va mashq qilishi kerak.

Maxsus pedagogik mahoratlar orasida muayyan o‘quv yoki tarbiyaviy faoliyatga tegishli ekanligini ajratib bo‘lmaydiganlari mavjud. Chunki ular ikkalasi uchun ham birdek zarur. Bu narsa pedagogik muloqot, davolash. Psixolog V. A. Kan-Kalik bu qobiliyatni tadqiq qilib, shunday yozgan: "Pedagogik ish o‘z tarkibida ikki yuzdan ortiq tuzilmaga ega. Muloqot uning eng murakkab jihatlaridan biridir, chunki u orqali pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi - o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga ta‘siri amalga oshiriladi. Yana bir muhim narsa. o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro ta‘siri uzoq va samarali ta‘sirni tashkil etishdir".

O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatlari - o‘qituvchining pedagogik maqsadga erishish uchun o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini talabalarga to‘g‘ri etkazish qobiliyati, shuningdek, o‘quvchilarning fikrlari, his-tuyg‘ularini tushunish va ularning his-tuyg‘ularini qabul qilish qobiliyatlari. Kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida bo‘ljak o‘qituvchilar quyidagi muloqot qobiliyatlarini namoyish eta olishlari kerak:

1. O‘quvchilarda kerakli taassurotga erishish.
2. Auditoriya bilan ishlash psixotexnikasini o‘zlashtirish.
3. O‘z pozitsiyasini ishonch va qat‘iyat bilan ifodalash.
4. O‘z manfaatlari va qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilish.
5. Salbiy ziddiyatlarni hech qanday qiyinchiliksiz yengish.
6. Shaxsning xatti-harakati va so‘zlari hamda o‘quvchilarning ularga munosabati mohiyatini tushuna olish.
7. O‘quvchilarni samarali tinglash va ularga faollik asosida savollar berish qobiliyati.
8. Noverbal muloqot vositalaridan oqilona foydalanish.
9. O‘quvchilarning psixologik holatini tashxislash va tahlil qila olish.
10. O‘quvchilarning “qaysarligi”ni o‘z vaqtida tushunib, bartaraf eta olish usul.

² <https://fayllar.org/nosirova-xurshidaning-pedagogika-fanidan-tayyorlagan.html>

11. O‘quvchilar, hamkasblar va oila a‘zolari bilan o‘zaro ishonch va hamjihatlikka asoslangan muhitni yaratish.

Maktablarda boshlang‘ich ta‘lim darslarida chet tili va jargon so‘zlarining o‘quvchilarga qay darajada ta‘sir qilayotgani bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, bu o‘quvchilarga ijobiy va salbiy ta‘sir qilishi ham mumkin.

Ahil jamoa metodi — bir nechta o‘qituvchilar birgalikda boshqa bir o‘qituvchining dars o‘tish jarayonini kuzatib tahlil qiladi va biror xato yoki kamchiliklar mavjud bo‘lsa aytiladi va o‘sha zahotiyoq yoki darsdan keyin yechim topiladi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilaridan ahil jamoa metodi orqali dars jarayonini o‘rganib chiqdik va diagramma metodidan foydalanib O‘zbekistonda, taxminan, jargon va chet tili so‘zlaridan foydalanish ko‘rsakichini chiqardik.

Diagramma metodi - ta‘lim tizimlari, pedagogik nazariya va amaliyotdagi umumiy va farqli jihatlarni namoyon bo‘lishini aniqlaydi. Diagramma metodi ta‘lim tizimlaridagi umumiylik va o‘ziga xoslikni, pedagogik nazariya va amaliyotning bog‘liq va bog‘liq bõlmagan jihatlarni ajratish imkonini beradi.

Quticha metodi foydalanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o‘qituvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi. Bunda qutichaga fikr, muohazalar va muammoli vaziyatlar yozilgan qo‘g‘ozchalar konvertlarga solinadi. O‘qituvchilar esa bungao‘z fikrlarini bildiradilar.

Bundan tashqari sinab ko‘r metod orqali amalga oshirmoqchi bo‘lgan tadqiqotimizning kichik qismini maktablarda qo‘llab, turli ijobiy natijalarni qo‘lga kiritdik. Ushbu jarayonda dars davomida yoki darsdan tashqari vaqtlarda boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining turli jargon va chet tili so‘zlarini qo‘llanishiga munosabatlari va o‘quvchilarga uning ta‘sirini ham o‘rgandik.

Sinab ko‘r metodi - 2 yoki undan ortiq sinflarda biror mavjud muammoga ular qanday reaksiya berishi tajriba sifatida ko‘rish va bu muammoga yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy vazifasi - sabab-natija aloqalarini o‘rganish va psixologik jarayonlar va hodisalarni tushuntirishdan iborat.

Demak, pedagogik muloqot jarayoni besh bosqichda amalga oshadi. Bu bosqichlarning mohiyatini har bir o‘qituvchi yaxshi bilishi kerak. Muloqotning bir necha turlari ajratiladi va u ham bir necha shakllarda tashkil etiladi. Bundan tashqari, samarali muloqot qilish uchun bir qator usullar qo‘llaniladi. Pedagogik muloqot pedagogik ta‘sirning eng muhim sifati bo‘lib, uning yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatadi, deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining obro‘si ko‘p jihatdan ularda notiqlik madaniyatining anday shakllanganligiga ham bog‘liqdir. Shuning uchun muloqot va notiqlik madaniyatida amal qiladigan qoidalarimiz quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim deb topdik:

1. Kim erkin so‘zlasa, u nutq oldida hayajonlanmaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, avvalo, jamoa va o‘quvchilar bilan erkin gaplashish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak

2. Yaxshi tayyorgarlik-a‘lo muloqot garovi. Nutq muddati qancha qisqa bo‘lsa, unga ko‘proq tayyorgarlik ko‘rish lozim.

3. Muloqot, notiqlik madaniyatida shunday qoida bor: nima haqida gapirsangiz gapiring, 20 minutdan oshmasin.

4. Gapirib o‘ylamang, balki o‘ylab gapiring.
5. So‘z-kumush, sukut-oltin. Tinglay olish ham mahoratni talab qiladi.
6. Mashq uchun har qanday imkoniyatdan foydalanish kerak. Birinchi navbatda o‘quvchilariga dars o‘tishdan avval ko‘zgu oldida mashq qilishi kerak.
7. Tajribali notiqgina o‘zining ommabop nutqini o‘z tajribasiga tayangan holda ko‘pchilik oldida dadil nomoyon etishi mumkinligi yodingizdan chiqmasin va ommabop nutq oldidan albatta chuqur o‘ylab, anglab, uni tinglaydigan auditoriya va gapiradigan gap o‘zingizga bog‘liq ekanini his etib olmog‘ingiz shart
9. Agar reglament belgilangan bo‘lsa, nutq mazmunini qisqartiring: ko‘p yomon gapirgandan ko‘ra, OZ va SOZ so‘zlang.
10. Har bir nutqning boshlanishi o‘rtasi va oxiri bo‘ladi. Eng muhim muloqotni qanday tugatishni esda saqlang.
11. Ko‘pchilik, jumladan, tajribali notiq ham muloqotga kirishishdan oldin hayajonlanadi. Agar hayajonlanmasa demak, notiq o‘z nutqiga mas‘uliyatsiz, auditoriyaga e‘tiborsiz. Lekin juda qattiq hayajonlanish ham zararli.
12. Ommaviy auditoriyada chiqish qilayotgan notiq o‘ziga ishongan, jismoniy ko‘rinishi dadil, jasur va vazmin hamda tashqi ko‘rinishi bilan ham jozibali bo‘lmog‘i lozim.
13. Nutq-muloqot yumshoq va ishonchli bo‘lishi, lekin juda cho‘zilib ketmasligi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. ""O‘zbekiston", 2017 y.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul - qulub. - T G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1993 yil.
3. Ortiqov A.Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. - T.: 2002 yil
4. Beruniy "Geodeziya" P.G.Bulgakova, Tanlangan asarlar, Tom III. Toshkent: Fan, 1966.
5. Abu Abdulloh al-Xorazmiy "Mafotih ul-ulum"
6. Yusuf Xos Hojib "Qutadg‘u-bilig"
7. A. Yugnakiy, Hibbat ul-haqoyiq.T.: 1971, 78-bet
8. Kaykovus Qobusnoma" yettinchi bobi.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR PSIXIKASI**Ismoiljonova Shahrizoda Boburjon qizi**

Qoqon universiteti psixologiya Yo‘nalishi ikkinchi kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari, aqliy qobiliyatlari, xulq-atvor normalari, psixologik rivojlanishi yoritib berilgan. Bu yoshdagi bolalarning umumiy intellekt darajalarini aniqlash metodika yordamida ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: Xulq-atvor, ta‘lim, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, xayol, nutq, intellektual tayyorgarlik.

Kirish:

Kichik maktab yoshida bolada ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘quv faoliyati ko‘nikmalarining shakllanishi, o‘z-o‘zini boshqarish, dunyoni bilish munosabati shakllanishi uchun sezitiv davr hisoblanadi. Bola o‘z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o‘zini qanday tutish kerakligi haqida xulq-atvor normalarini aniq tushunadi, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatda o‘z emotsiyalarini boshqara oladi. Xulq-atvor normalari o‘zining ichki talabiga aylanadi, unda uyatchanlik hislari paydo bo‘ladi. Psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bola maktab ta‘limiga bog‘chada tayyorlanadi. Bunda u maktabda o‘quvchilarga qo‘yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Ta‘limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta‘limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi, binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi, shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirliги, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta‘limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastilindan o‘yinchoqlar tayyorlashda, o‘zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi. Bola o‘z diqqatini muayyan obyektga yo‘naltirish, to‘plash, taqsimlash bo‘yicha ma‘lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib g‘aroyib, kishini taajubga soladigan ma‘lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kichik maktab yoshi bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bularga quidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Maktab ta‘limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari,
- Maktabga moslashish,
- Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat,
- Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangiliklar.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi ko‘p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog‘liq. Bolaning maktabda o‘qishga tayyorligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

I-Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish ya'ni o'quvchi bo'lish.

II-Intellectual tayyorgarlik. Tevarak-atrofdan mo'ljal olingan bilim, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi.

III-Harakat tayyorgarligi;

— mayda motorika;

— katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana).

IV-O'quv faoliyatiga tayyorgarlik;

— kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish;

—topshiriqni mustaqil bajarish;

— chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy hatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Ushbu sifatlarning shakllanishi bolada bilish jarayonlarining faolligi bilan bog'liqdir. Masalan, kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi, sofligi bilan farq qiladilar. Shu yoshdagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Bu yoshda diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda birinchi signal sistemasi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda, ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda bevosita ta'surotlar (muzey, vistavkalarining borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borish, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

«J. Ravenning "Rangli progressiv matritsalar" metodikasi 4,5 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalarning umumiy intellekt darajasini aniqlashga yo'naltirilgandir. Tadqiqotimizda olingan natijalarning ko'rsatishicha, o'rtacha aql (AB) eng yuqori darajani ya'ni, o'g'il bolalarda 29,7%ni, qizlarda esa 31,4%ni tashkil qildi. O'ziga xos aql o'g'il bolalarda 11,6 %ga, qizlarda 13,5%ga, o'rtachadan past aql esa o'g'il bolalarda 7,7 %ni, qizlarda 5,9%ni ko'rsatdi. Bu o'rganilgan o'quvchilarda bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, aqliy rivojlanish darajasi bir muncha past ekanligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi. Buning asosiy sabalari sifatida yosh davriga ko'ra shaxs sifatida rivojlanish jarayoni kechayotganligi, maktabda o'qiyotganliklariga hali ko'p vaqt bo'lmaganligi va ular tarbiyalanayotgan oilalarda bolalarni aqliy rivojlanishi uchun muhit hamda zaruriy chora-tadbirlarning yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi kabilarni qayd etib o'tish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilalarda tarbiyalanayotgan yosh o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi borasida ota-onalar, maktab o‘qituvchilari zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini qayd etib o‘tmoqchimiz. **Sinaluvchilar aqliy rivojlanish darajalarining gender xususiyatlari bo‘yicha ko‘rsatgichlari:**

Hududlar	(A) O‘ziga xos aql		(AB) O‘rtacha aql		(B) O‘rtachadan past aql	
	O‘g‘il bolalar	Qizlar	O‘g‘il bolalar	Qizlar	O‘g‘il bolalar	Qizlar
Namangan viloyati	11.8	13.2	29.4	31,3	8,2	6.0
Andijon viloyati	12.3	14.6	31,2	32.0	5.7	4.2
Farg‘ona viloyati	10,9	12,8	28.6	30.8	9,3	7,6
Umumiy ko‘rsatgich	11,6	13,5	29,7	31,4	7,7	5,9

Tadqiqotda o‘quvchilarning ijodiy salohiyati rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijodkorlik imkoniyatlari komponentlarining integral xususiyatlarini o‘rganishga harakat qildik. Bunda biz ijodiy o‘quv faoliyati jarayonida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning individual psixologik (masalan, divergent fikrlash yoki aql), motivatsion, kognitiv faoliyat, kreativlik, va aqliy komponentlarining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy salohiyatning rivojlanishiga ta’sirini tahlil qildik. Chunki aynan kichik maktab yoshi davri bolaning kelajakda har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktab o‘quvchilarining muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun o‘quvchilarni majburlash kerak emas balki, ularning yosh davri xususiyatlariga ko‘ra, o‘yin, drammatik darslar, ko‘rgazmali darslarni tashkil etish orqali ularda motivatsiyani shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijobiy ta’lim motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u har bir bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga oid o‘qituvchining vazifalaridan biri sifatida – kichik yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini boshqarish maktab o‘quvchilari, ya’ni ularning maqsadli o‘rganishga nisbatan doimiy motivatsiyasini shakllantirish orqali ularning o‘qishga, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini, o‘ziga ishonchini kuchaytirish va ichki tabiiy kuchlari hamda qobiliyatlarini rivojlantirish. Shu bilan birga, og‘zaki-kommunikativ, vosita-manipulyativ va grafik vositalar asosida o‘quvchilar birgalikda ishlashi muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov B.R. Boshlangich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Toshkent: Fan, 1997.-182-b.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.-T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. -167 b.

3. Karimova V. Psixologiya. -T.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 2002. -206 b.
4. Qarshiboeva G.A. O’smirlarning hulq-atvoridagi o’zgarishning ijtimoiy psixologik jixatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. 2022. T. 2. №.
5. Qarshiboeva G.A. O’quvchilarda kasbiy ustanovkalarning shakllanishining psixologik jixatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. 2022.T. 2. №. 4.
6. Xatamboyevena, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA ‘LIM TASHKIOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOYIY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 344-350.
7. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.NISHANOVA, N.G.KAJVQLOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT - 2018
8. 2-Ontogenez psixologiyasi E,G‘oziyev, Toshkent"NIF MSH"2020
9. 3-Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.«Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya).- T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.

BEHBUDIY- O‘ZBEK ADABIYOTINING BIRINCHI MUALLIMI**Ismoilov Dilyor Shakarbekovich**

26-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi oqituvchisi

Qayumova Muqaddasxon Muxtorjon qizi

Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

*“Bugun islohi maktab madrasa, ya’ni islohi millatga qo‘shish qilinmasa, rub’i asr so‘ngra
diyosat barbod bo‘lur va anino javobi mas’uliyati bugungilarga qolur”*

Mahmudxo‘ja Behbudiy.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston Jadidlarining ilk rahnamosi, mustaqil hurriyat g‘oyasi asoschisi, yangi maktablar targ‘ibotchisi, ma‘rifatparvar olim Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta‘lim olishni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan hayoti va ijodi haqida ma‘lumotlar berilgan. Mavzu yuzasida adabiyotlar taxlili va adabiyotlar sharxi yuzasidan olimlar fikrlari keltirilgan.


Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, yangi jadid maktabi, darslik, matbuot, ma‘rifat tarqatish, ma‘rifatparvar adib.

XX asr boshlarida Turkistonda kechgan jadidchilik harakatini Behbudiyisiz tasavvur qilish qiyin. Adib Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. U jadidcha maktablar ochib, o‘zi darslik yozgan buyuk murabbiy, matbuotimiz va adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan, teatrchi, noshir, jurnalist hamda, o‘zbek dramaturgiyasiga asos solgan birinchi dramaturg, islomiy e‘tiqodli ulamo edi. Xalqning ozodligi va farovon hayotini ta‘minlash yo‘lida fidokorlik ko‘rsatib, milliy ta‘lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shgan, jadidchilik dasturining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy- Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining birinchi muallimi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ertangi kun egalari bo‘lmish yosh avlodni munosib darajada ta‘lim-tarbiya etmoqlik, ularni vatanimizga munosib yetakchi kadrlar etib tarbiyalog‘imiz uchun bizga nafaqat, zamonaviy balki, ajdodlarimizning ma‘naviy-marifiy xazinaga boy ilmiy me‘roslari bugungi kun yoshlarining ta‘lim sohasida, shu bilan bir qatorda hayot yo‘llarida ham, mustahkam poydevor qo‘yishlariga yaqindan yordam beradi desak adashmaymiz. Shuningdek bugungi zamonaviy o‘zbek maorifi, pedagogikasining asoschisi kimligi haqida o‘ylansa, buning javobi Mahmudxo‘ja Behbudiy deyilsa, adolatdan bo‘ladi. Zero muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, *“...Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy me‘rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch- quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak...”*. [1] Xalqni hurriyat va ilm fan nurlaridan bahramand qilishni, ularni ma‘nan boy bo‘lishini o‘zining birdan-bir burchi deb bilgan fidokor adib faoliyati va hayot yo‘li haqida ushbu maqolada yaqindan tanishishingiz mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda (hijriy 1291. 10-zulhijja oyida) Buxoro amirligi Samarqandning Siyob bo‘lisidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida tug‘ilgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li imom, islom dinining yirik mutaxassisi, dinga oid qator maqolalar, ilmiy ishlar muallifi, Turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan. Ona tomonidan bobosi

Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1785-1880) Samarqandga kelib qolgan. Otasining ilmga ixlosmandligi Behbudiyga ta‘sirli bo‘lmagan, u adabiyot tarix fanlari bilan birga siyosatni ham o‘rgangan. Tog‘asi qozi Muhammad Siddiq yordamida xat savod chiqaradi. Kichik tog‘asi unga arab tili va grammatikasini o‘rgatadi va uning yordami bilan A. Jomiyning arab tili qoidalariga bag‘ishlangan “Sharhi mullo”, mantiq ilmiga oid “Muxtasar al-viqoya”, “Xoshiya” asarlarini, hisob ilmini o‘rganadi. Shundan so‘ng Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil oladi. Adib arab, fors, ingliz, nemis, fransuz, rus tillarida mukammal va erkin so‘zlasha olgan. An‘anaviy, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali shariatning yuksak maqomlari- qozi, muftiy darajasigacha ko‘tariladi(24 yoshida). 1894-yilda otasi vafot etgach, tog‘asi Muhammad Siddiq jiyanini yoniga oladi va Chashmaob qishlog‘iga qozilik lavozimiga tayinlaydi(18 yosh). Keyin Kobud bo‘lisining qozisi mulla Zubayr huzurida Mirza bo‘lib ishlaydi. Ko‘p o‘tmay Muftiy lavozimini egallaydi. Shuningdek Behbudiy 1917.XI yili IV qurultoyida Turkiston muxtoriyati rahbariyatiga saylanadi, 1918-yilda esa, “Musulmonlar ishchi va dehqon sho‘rosi” ga maorif xalq komissari etib tayinlandi. Behbudiyning ta‘limga, hurriyat va ma‘rifatga bo‘lgan qarashlari, ilm olishga bo‘lgan qiziqishlari uni gazeta va jurnallar orqali dunyoda bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishishga, g‘arbda amalga oshayotgan sivilizatsiya ishlarini o‘rganishga undagan. Gazeta va jurnallar bilan hamkorlik o‘rnatib, o‘z maqolalarini chop eta boshlagan, ularda asosan maktab va san‘atni yaxshilash masalalarini ko‘tarar edi. Chunonchi o‘sha davrda nafaqat Samarqand balki, butun Turkiston ahli taraqqiyot va turmushda, ilm va ma‘rifatda Ovro‘padan yer va osmon qadar uzilib qolgan, birovg‘a qaram, o‘z dini, tarixini, ta‘limi va ma‘rifatini unutish (go‘yoki manqurt) darajasidagi fojiali ahvolga kelib qolgan edi. Shuning uchun u maqolalarida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, ta‘limning yangicha usulda yoritishga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli ma‘lumotlarni ko‘tarib chiqar edi. *“...Ulug‘ ma‘rifatparvar qo‘ldan berilgan ozodlik oqibatida xalq yuz yillar asirlik domida qolib, o‘z qadr-qimmatini, juda ko‘p moddiy va ma‘naviy zararlar ko‘rib, keyin ketishidan nadomat chekadi: - Aziz hamshaharlarimg‘a, mo‘tabar ahli vatanim, hammangiz bir bo‘lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, Xudoning bergan hurriyat ne‘matidan naflanmoq harakatida bo‘lmoq kerak va a‘lon(hozirgi holatda) bizning bizning harakatsizlig‘imiz hurriyatni ketkurib, yana boshqalarg‘a bizni asirlik darajasig‘a tushurur va yuz yillar ila keyin keturmiz. Bizning avlodimiz hamda halqi olam bizga rahmat o‘rnig‘a la‘nat o‘qurlar”.*[2] Behbudiy *“Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur”*[3] -degan shiorni o‘ziga dastur qilib olgan edi. Markaziy Osiyoda Ismoilbek Gaspirali tashabbusi bilan keng tarqala boshlagan “Jadidchilik” harakatlari Turkistonga aynan Samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa bir qator ziyolilar orqali kirib kelgan. Bu harakatlar xalq orasida ma‘rifiy-ma‘naviy dunyoqarashni rivojlantirish, bolalarni taraqqiy etgan uslublarda o‘qitish, millatga qaramlik holatida ekanini anglatib, ozodlikka intilishga qaratilgan. Bu qisqa vaqt ichida erk uchun tashlangan katta qadam edi. Behbudiyning yangi maktablar ochib ta‘limga, yangicha o‘qitish usullarini olib kirishining asl sababi ham yuqoridagi illatlardan halos bo‘lib xalqini o‘z milliy tarixini saqlab kelajakka jadal qadam tashlash, Ovro‘pa mamlakatlari singari taraqqiy etish edi. Jadid maktablarining mohiyati Behbudiy tononidan qisqa va lo‘nda qilib shunday talqin qilinadi: *“... Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm vayangi fikrlar va fununi zamoniyani darbar(o‘zida saqlagan, tashuvchi) odamlarni talab*

qilur...”. Binobarin ana shunday odamlarni o‘qitib, tarbiyalab yetishtirish jadid maktablarining maqsadi bo‘lgan. Ismoilbek 1892-yil Turkistondaagi maktablarni isloh qilish, “usuli satviya”ni joriy etish taklifi bilan general-gubernator N.O.Rozenbaxga murojaat etadi, javob ololmagach 1893-yilda Toshkentga kelib, Samarqand, Buxoroda bo‘ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, bir qator ulamaolar, xususan Behbudiy bilan maslahatlashgan holda dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo‘ladi. *“Avvaliga musulmonlar bu maktabga uncha ishonqiramay qaradilar,- deb yozadi u bu haqida,- ammo birinchi ommaviy, ochiq imtihondan so‘ng o‘quvchilarning soni ancha ko‘paydi...”* - deydi ma‘rifatparvar adib. Dastlab Behbudiy 1884-yilda Boqchasaroyda bir maktab ochadi va unga “Usuli jadid maktabi” deb nom beradi. O‘qitishda “usuli satviya” (tovush usuli) qo‘llanilishi tufayli, Behbudiy rahbarligida muallim, bolalarga olti oyda turkcha va arabcha o‘qitishni, turkcha yozish va boshlang‘ich diniy qoidarni o‘rgatishga erishadilar va shu zaylda bolalarga ta‘lim berishni davom ettiradilar. 1899-1900 yillarda Behbudiy Buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi, safar chog‘ida yangi maktablar haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi va 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamiy (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil etishga muvaffaq bo‘ladi. 1908-yilda esa Behbudiy Shakuriy maktabini Samarqanddagi o‘z xovlisiga ko‘chirib olib o‘tadi. Adib ushbu maktablar uchun o‘zi darsliklar tuzishga krishadi. U darsliklarni yozishda olgan ko‘nikmalari, o‘rgangan bilimlari va dunyo bo‘ylab sayohatlari chog‘ida orttirgan tajribalarini mohirlik bilan o‘z o‘rnida qo‘llaydi. Darsliklar bilan quyidagi chizmada tanishishingiz mumkin:



1- chizma. Adib darsliklaridan misollar.

Yangi usuldagi jadid maktablar uchun yozilgan kitoblar adibning fikricha, *“...Yangi usuldagi maktablar darsliklari, ta’lim va tarbiyasi tevarakdagi Ovro’pa sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovro’pa sivilizatsiyasini o’rganib, uni milliy madaniyatga moslashtirib xizmat ettirishning bir ifodasi edi”*. Uning darsliklari o’z davri ta’limida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo’lsa, *“Padarkush”*(1911.Samarqand.) dramasi va maqolalari tarbiyaviy xarakteri bilan San’at va Pedagogika sohalarini shakllanishiga undan ham ko’proq xizmat qildi, deya olamiz. Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo’lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o’z qabohatini ham, malohatini ham ko’ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning nashriyot, matbuot sohasiga yetakladi. 1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug’ullanadi. Aprel oyidan *“Samarqand”* gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki so’ng, to’rt sahifada chop etilgan. 45-sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to’xtagan. O’sha yilning 20-avgustidan u *“Oyna”* jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan, o’zbek tilida bo’lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar berib borilardi... Ziyo Saidning ta’kidlashicha, jurnal- *“Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Avg’oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevimli jurnallari edi”*. Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg’in shug’ullandi. *“Nashriyoti Behbudiya”* nomi bilan o’z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning *“Bayonoti sayyohi hindi”* asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Shuningdek *“Behbudiy kutubxonasi”*ni yo’lga qo’ydi. Adibning birgina *“Oyna”* jurnali ma’daniyat vama’rifat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Shuningdek muharrir I.Gaspirinskining *“Tarjumon”* gazetasini doimiy muallifi bo’lgan Behbudiy 200 dan ziyod o’zbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifi. Xususan yozuvchi ushbu jadvalda keltirilgan va yana bir qator gazeta va jurnallarda fidokorona faoliyat yuritgan:

1-jadval. Behbudiy faoliyat yuritgan gazeta va jurnallar.

1	“Xurshid”(1907)	8.	“Shuhrat”
2	“Sadoi Farg’ona”(1914)	9.	“Mehnatkashlar tovushi”(1918-1922)
3	“Ulug’ Turkiston gazetasi”(1917)	1	“Tujjor”(1907)
4	“Birlik suvi”(1917)	1	“Osियो”(1907)
5	“Taraqqiy”(1906)	1	“Hurriyat”(1917)
6	“Turon”(1913)	1	“Buxoro axbori”(1920-1922)
7	“Najot”(1914-1918)	1	“Oyna”(1913-1915)

Yuqorida keltirilgan gazeta va jurnallar o‘z davrida ommalashgan xatto, chet davlatlarda ham o‘z muhlislariga ega zamonasining eng ilg‘or jurnallardan hisoblanar edi. Ularning taraqqiy etishiga bevosita Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni beqiyosdir. Adibning 1-jahon urushi atroflaridagi maqolalari 200ga yaqin bo‘lib, “Turkiston idorasi”, “Turkiston maktab jarida”, “Buxoroda usuli jadid”, “Yoshlarga murojaat”, “Ehtiyoji millat”, “Ikki emas to‘rt til kerak”, “Buxoro xonligig‘a sayohat”, “Felyeton”, “Bayoni haqiqat”, “Xayrul-umuru avsatuho (Ishlarning eng yaxshisi o‘rtachasidir)”-bu maqola Behbudiyi qoralashga nishon bo‘lib keldi, “Duma va Turkiston Musulmonlari”, “Tahsil oyi”, “Samarqand kitobxona va matbaaxona” kabi maqolalar shular jumlasidandir. Shuningdek muallif o‘z davrining yetakchi jumhurriyat g‘oyasi asoschilari, noshir jadidlar, **I. Gaspirali, M. Qori, Fitrat, Hoji Muin (eng iqtidorli shogirtlaridan biri), Shukrullo, Ajziy, Mirzo To‘lagan, S. Ayniy va Akobir Mahdum** kabi bir qator allomalar bilan muntazam aloqada bo‘lib, Jadidlar dasturining asosini tuzdi, matbuotni rivojlantirdi, yangi darsliklar yaratdi, yangi uslubdagi maktab lar ochdi, yangi pedagogika, publitsistika, dramaturgiya, teatr, sahna san‘atiga asos soldi, Ovro‘pacha ta‘lim-tarbiyani Turkiston maktablariga joriy etdi va ilm berishning jahon miqyosidagi tajribalaridan foydalandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy **Turkiya, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Germaniya, Ukraina, Saudiya, Suriya, Odessa** kabi dunyoning 40 dan ortiq shaharlarida bo‘lib u yerdagi ta‘lim usuli va o‘qitish metodikalari, ijtimoiy hayoti, geografik muhiti bilan tanishib chiqadi va ta‘limda ilg‘or mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy sohalarda peshqadamligini butun zamona ahliida shakllantirishga, o‘z diyori bo‘lmish Turkiston ham ana shunday davlatlar qatorida bo‘lishiga butun umri davomida harakat qiladi. Ana shunday ulamoning tabiiyki, sobiq sho‘ro davrida raqiblari ko‘p bo‘lib, ular faqat rus mustamlakachilarigina emas, johil va mutaassib ulamolar ham edi. Mutaassiblar muftiy Mahmudxo‘jani o‘zlariga raqib deb bilar, har qanday yangilikka, millatning uyg‘onishiga qarshi edi. Uning “Xurshid” gazetasining 10.X.1906-yildagi 6-sonida bosib chiqargan “Xayrul umuru avsatuho”(Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir) nomli maqolasi xurofotchilarning inini to‘zitishiga, halovatini yo‘qotishiga sabab bo‘ldi, chunki adib maqolada Rusiyaning bir qator shuningdek, Lenin partiyasini rad qilgan edi. Bu vaqtda Samarqand Turkiston general-gubernatorligiga qarashli viloyat bo‘lib, mustamlaka amirlik hukmdori Sayyid Olimxon, mutassib ruhoniylar, johil balsheviklar chaquvi bilan Mahmudxo‘ja Behbudiyi qatl etishga buyruq beradi. Bu haqida N. Karimov 1950-yil, 66-son, Milliy Turkiston” jurnalida bosilgan bir fakti keltiradi: *“Ul Qarshi shahrinda o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini o‘rinlov harakatida ekan, qizil Rusiyaning Buxoro elchixonasi xizmatchisi Utkin vositasila amir tomonidan tutildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy amirning Qarshi shahrindagi voliysi Nuriddin Og‘aliq tomonidan 25.III.1919-yil 44 yoshida vahshiyona o‘ldirildi, o‘limidan oldin vasiyatnoma yozib, Ahmad ismli kishiga topshiradi”*. Buyuk ma‘rifatparvar adibning vafoti haqidagi xabar roppa-rosa 1 yildan keyin e‘lon qilinadi va 1920-yil aprelida butun Turkiston ahli motam tutadi. Zamondoshlari Fitrat, S. Ayniy tomonidan bir qancha marsiyalar yoziladi, binobarin Cho‘lpon ham quyidagicha marsiya yozadi:

- Qayg‘uringiz, kishanlarni yasovchi ustalar,
- Boshqalarni tubanlar deb atovchi xo‘jalar!
- Sizlar uchun yoz boshining qoridek, erur kunlar keladur!
- Sizlar uchun alvastining zoridek, yig‘lar kunlar keladur!

Ulug' mutaffakirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e'tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan, 2006-yil buyuk ma'rifatparvar sharafiga Samarqand shahrida yodgorlik o'rnatilgan. 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini ko'tarib chiqqan noshir va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi keng nishonlandi. O'zbek milliy adabiyotining asoschisi, dramaturg, jurnalist, publitssist, jadidlar otasi, mohir pedagog, mutafakkir olimning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, millat, ma'rifat ozodligi, hurligi yo'lida amalga oshirgan xizmatlari uchun davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 30-sentabr kuni O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda Mahmudxo'ja Behbudiy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan munosib taqdirlandi. Xozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma'rifiy me'ros o'z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsi, uning xalq va millati uchun qilgan beqiyos xizmati haqida shunchaki gapirib bo'lmaydi. Boisi uning nihoyatda murakkab davrda kechgan mashaqqatli hayot yo'li, siyosiy ilmiy, ijodiy va ta'lim sohasidagi muhim targ'ibot ishlari nihoyatda keng, sermazmun va serqirradir. Ma'rifatparvar adib, o'z publististik asarlarida mamlakatda fuqarolarni bilimlilar qilish, birinchi navbatda yoshlar ta'limi sifatiga e'tibor berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, maktablar ochish, iqtidorli yoshlarni dunyoning nufuzli oliy ta'lim dargohlarida o'qitish masalalariga jiddiy e'tibor berish zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shuning uchun Mahmudxo'ja Behbudiy merosini adabiyot, tilshunoslik, dinshunoslik, siyosat, tarix, falsafa va geografiya kabi qator fanlar doirasida qancha erta o'rganilsa, hozirgi zamonaviy bilimlar bilan chambarchas bog'lanib kelajak avlod yoshlarini, xususan butun millatni jaholatdan qutqarishga, yurtimizni dunyo miqyosida tutgan o'rni yuksalishiga dasturul amal bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoyev, "O'qituvchi va murabbiylar-yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil 30-sentabrdagi nutqi", 19-soni.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?". "Samarqand" gazetasi, 1913-yil 30-iyul. Manba: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti>
3. D. Kamolova. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil 19-yanvar, 12-son.
4. U.Bekmuhammad, "Zarafshon" va "Samarkandiskiy vestnik" gazetalari, 19.01.2022.
5. Ziyo Ko'kalp, "Turklashmoq, islomlashmoq", Istanbul, 1974. 12-bet
6. N. Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent. "O'zbekiston", 2011. 79-bet.

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI ERTAKNI QAYTA HIKOYA QILISH
VOSITASIDA MONOLOGIK NUTQQA O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI**

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi
Qo‘qon Universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklarni qayta hikoya qilish vositasida monologik nutqqa o‘rgatish texnologiyasidan foydalanishni o‘rganadi. Maktabgacha yosh ta‘limi va tilni rivojlantirish bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganib chiqib, biz ushbu aniq kontekstda texnologiyani kiritish samaradorligini tushunishga intilamiz. Maqolada mavjud usullarning har tomonlama tahlili keltirilgan, so‘nggi tadqiqotlar natijalari muhokama qilingan va maktabgacha yoshdagi bolalarda til ko‘nikmalarini oshirish uchun texnologiyadan foydalanishning potensial afzalliklari va muammolari haqida tushuncha berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta‘lim, texnologiya, monologik nutq, ertaklarni qayta hikoya qilish, tilni rivojlantirish, maktabgacha yosh, ta‘lim ilovalari.

Kirish:

Maktabgacha yosh tilni rivojlantirish uchun muhim davr bo‘lib, umrbod muloqot qilish qobiliyatiga asos soladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tilni bilishni rivojlantirishning yondashuvlaridan biri bu texnologiyadan foydalanish, xususan monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarda monologik nutqni kuchaytirish uchun ertaklarni qayta hikoya qilish vositasida takrorlashni osonlashtirish uchun ta‘lim dasturlaridan foydalanish samaradorligini o‘rganadi.

Adabiyotlar sharhi:

Maktabgacha katta yosh davrida tilni rivojlantirish va ta‘limdagi texnologiyaning o‘rni bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni o‘rganadi. Oldingi tadqiqotlar hikoya qilish kabi interaktiv va qiziqarli faoliyatning tilni o‘zlashtirishga ijobiy ta‘sirini ta‘kidlaydi. Bundan tashqari, sharh maktabgacha ta‘limga texnologiyani integratsiyalashning potensial afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni rivojlantirishda texnologiyalarning ta‘sirini baholash uchun tizimli tadqiqot o‘tkaziladi. Ishtirokchilar ya‘ni tarbiyalanuvchilar ertaklarni takrorlashga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan o‘quv dasturi asosida nutqni rivojlantirish texnologiyalari orqali sinovdan o‘tkazilishi mumkin. Tadqiqot tilni bilish qobiliyatini texnologiya aralashuvidan oldin va keyingi holatini baholash, shu jumladan so‘z boyligini kengaytirish, jumalarning murakkabligi va hikoya qilishning izchilligi orqali o‘lchanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga monologik nutqni o‘rgatish, xususan ertakni qayta takrorlash kontekstida, ularning rivojlanish bosqichiga mos keladigan qiziqarli va interaktiv tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonni yengillashtirish uchun texnologiyaga asoslangan ba‘zi g‘oyalar qo‘llashimiz mumkin bo‘ladi:

Interaktiv ilovalar, ertaklar va hikoyalar platformalari:

- Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan interaktiv hikoyalar av ertaklar dasturlarini yoki platformalarini tanlaymiz. "Toontastic" yoki "StoryJumper" kabi ilovalar

bolalarga belgilar, sozlamalar va syujetni aytib berish orqali o'zlarining animatsion hikoyalarini yaratishga imkon beradi.

- Bolalarni o'z so'zlari bilan ertak aytib berish uchun ushbu ilovalardan foydalanishga undaymiz. Ushbu vositalarning interaktiv tabiati ularga monologik nutqni qiziqarli va ijodiy tarzda mashq qilishga yordam beradi.

Raqamli hikoyalar kitoblari:

- Audio xususiyatlari bilan raqamli hikoyalar kitoblaridan foydalaning. Ko'pgina ertak ilovalari bolalar o'zlari hikoya qilishdan oldin hikoyani bir necha marta tinglashlari mumkin bo'lgan ovoz chiqarib o'qish imkoniyatlarini taqdim etadi.

- Tinglaganingizdan so'ng, raqamli kitobdagi tasvirlardan ko'rsatma sifatida foydalanib, ertakni qayta aytib berishlarini so'rang. Bu ularning xotirasini va og'zaki ifoda etish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Animatsion hikoya videolari:

- Bolalar e'tiborini jalb qilish uchun ertaklarning animatsion videolarini namoyish eting. YouTube Kids kabi platformalar yoshga mos animatsion hikoyalarni taklif qiladi.

- Videoni tomosha qilgandan so'ng, bolalarni hikoyaning qahramonlari, voqealari va asosiy elementlari haqida munozaraga jalb qiling. Ularni o'z so'zlari yordamida hikoyani aytib berishga undang.

Raqamli hikoyalar vositalari:

- Ularni ertak uchun ssenariy yaratish va keyin yaratilgan vizual tasvirlar asosida hikoyani qayta hikoya qilish jarayonida boshqaring.

Ovoz yozish ilovalari:

- Bolalarning imlosini yozib olish uchun ovoz yozish ilovalaridan foydalaning. "Ovozli eslatmalar" yoki maxsus hikoya qilish ilovalari kabi ilovalar ertakni hikoya qilish paytida o'z ovozlarni yozib olish imkonini beradi.

- O'zlarining yozuvlarini tinglash yoqimli va ibratli tajriba bo'lib, ularga monologik nutq qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Interfaol doska o'yinlari:

- Interaktiv doskalar yoki smartboards birgalikda hikoya qilish faoliyati uchun ishlatilishi mumkin. "SMART Learning Suite" kabi ilovalar interaktiv o'yinlarni taklif qiladi, bu yerda bolalar ertak versiyalarini yaratish uchun hikoya elementlarini sudrab tashlashlari mumkin.

- Ularni o'z ijodlarini guruhga taqdim etishga undang, gapirish va hikoya qilishga ishonchni oshiring.

Kengaytirilgan haqiqat (AR) hikoyalari:

- Ertaklarni hayotga olib keladigan ar storytelling ilovalarini o'rganing. Ushbu ilovalar raqamli elementlarni qurilmaning kamerasi orqali haqiqiy dunyoga joylashtiradi.

- AR orqali- bir ertak boshlangandan keyin, bolalar o'z hayolij tafakkurida ularning elementlarini birlashtirgan holda qisqa hikoya qilib berishlarini so'rang.

Texnologiyani birlashtirganda, har tomonlama o'rganish tajribasini ta'minlash uchun ekran vaqtini amaliy, oflayn faoliyat bilan muvozanatlash juda muhimdir.

Bundan tashqari, har doim ishlatiladigan tarkib va texnologiya vositalarining yoshga mos kelishiga va ta'lim maqsadlariga mos kelishiga ishonch hosil qiling.

Muhokama bo'limi maktabgacha yoshdagi bolalarda yaxshilangan monologik nutqning uzoq muddatli ta'sirini hisobga olgan holda tadqiqot natijalarining oqibatlarini o'rganadi. Shuningdek, u tadqiqot davomida kuzatilgan har qanday cheklovlarni, masalan, ekran vaqtidagi muammolar va o'rganish uslublaridagi individual farqlarni ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, maqolada texnologiyadan foydalanishni boshqa an'anaviy o'qitish usullari bilan muvozanatlash muhimligi muhokama qilindi.

Xulosalar:

Ushbu maqola texnologiyani, xususan, ertaklarni qayta hikoya qilishga qaratilgan ta'lim ilovalarini o'z ichiga olgan holda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda monologik nutqni rivojlantirish uchun samarali yondashuv hisoblanadi. Ijobiy natijalar shuni ko'rsatadiki, puxta ishlab chiqilgan raqamli aralashuvlar maktabgacha yosh ta'limida muhim rol o'ynashi mumkin, bu tarbiyachilar va ota-onalar uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi vazifalarni hal etishda albatta milliy ta'lim modelining muhim tarkibiy qismi bo'lgan pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi alohida o'rin tutadi. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi pedagog kadrlar tomonidan yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalar olishning bosh manbai hisoblanadi.

Bolalarning nutqini o'stirishda nafaqat ko'rganlarini idrok etish, balki suhbatdoshlarini tinglay olish layoqatining mavjud darajasini ham hisobga olish zarur. Mashg'ulotlarda sezgirlikni rivojlantirish orqali bolalar nutqini shakllantirishda turli buyumlarning nomlari, ularning xususiyatlarini aniq, to'liq yetkazish, narsalarning ranglari, shakllari, hajmi haqida aniq tasavvur hosil qilish talab etiladi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor

tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa, grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi. (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi).

Tadqiqot tilni rivojlantirishda texnologiyaning afzalliklarini ta'kidlagan bo'lsa-da, uning integratsiyasiga mas'uliyat bilan yondashish juda muhimdir. O'tkazilgan nutqiy tadqiqotlar maktabgacha ta'limda texnologiya yordamida til o'rganish uchun uzoq muddatli ta'sirni, potensial kamchiliklarni va maqbul foydalanish ko'rsatmalarini o'rganishi kerak. Bundan tashqari, pedagoglar va ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tilni rivojlantirish muhitini yaratish uchun raqamli aralashuvlarni an'anaviy usullar bilan birlashtirishga da'vat etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fozilova O.N., Jaloliddinova M.M., „Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachining kasbiy-pedagogik mahorati“ “PEDAGOGS” international research journal. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
2. O‘rinova F.U., Jaloliddinova M.M., „Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari“ Journal of Advanced Research and Stability. ISSN: 2181-2608. www.sciencebox.uz/
3. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.
4. Махкамов, А. (2023). Аралаш таълим технологиялари асосида булажак уқитувчиларда соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш технологиялари. *Общество и инновации*, 4(6/S), 45-49.
5. Махкамов, А. Ю. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ БИТИРУВЧИЛАРИ УЧУН ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЙ-МЕТОДИК ИМКОНИАТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(9), 844-851.
6. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
7. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.
8. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTH LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS”. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.
9. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических

взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-
INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.

<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ
МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25.
Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

15. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS).
Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ
ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**INTERAKTIV DARS METODLARI VA ULARNING BOSHLANG‘ICH SINFLARDA QO‘LLANISH
IMKONIYATLARI****Jaloliddinova Nargiza Xusniddin qizi**

Qo‘qon Universiteti BT 3-kurs talabasi

*"Muvaffaqiyatga erishish uchun emas, balki hayotingiz mazmunli bo'lishini ta'minlash uchun
harakat qiling."*

Albert Eynshteyn.

Annotasiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf darslarida interaktiv metodlardan foydalanish , boshlang‘ich ta‘limni tashkil etishda interaktiv metodlarning tutgan o‘rni ta‘lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e‘tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchi , talabalarga faqat tayyor bilimlar berib kelingan bolsa , zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topib , mustaqil ravishda o‘rganib va tahlil qilib , ushbu qilingan ishlardan xulosalar keltirib chiqarishga undaydi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakillanishi bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi , shu bilan birgalikda boshqaruvchanlik funksiyasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar ,ijodkorlik ,interaktivlik, qo‘llash mahorat ,ona tili, kooperatsiya

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri - bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib , asosan o‘quvchilarni fikrlashga undaydi .Kerakli xulosaga kelishini ular o‘zini tahlil qilishni va amaliyotga qo‘llashni o‘rgatadi . O‘qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o‘quvchilarga yo‘l ko‘rsatish , yo‘nalish berish eng to‘g‘ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to‘g‘ri xulosani aytib o‘tib ketadi. Natijada o‘quvchi xatosini o‘zi tushunib oladi. Bu usul orqali o‘quvchilar erkin fikr yuritish ko‘nikmasini o‘zlarida shakillantiradilar bu esa ularni tushkunlikka tushish ,fikrlashda tormozlanish xatolarni oldini oladi. Interaktiv metodlar orqali bolaga ta‘lim va tarbiya bir vaqtning o‘zida berib boriladi , chunki Interaktiv metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmatga asoslangan. O‘qituvchi qanday bo‘lmasin o‘quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashni bildiradi, shu bilan birga o‘quvchilarda bir birini tinglash ko‘nikmasi hosil boladi . Bunday tashkil etilgan darsda oquvchi ozini hurmat qilinayotganini sezadi va bunday sharoitda xech qanday taziqsiz erkin fikr lay boshlashdi va uni ochiq bayon eta oladi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarda eng avvalo, darsning texnologik loyahasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyixalash uchun esa o‘qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo‘lishi lozim. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda talim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida boy tajriba to‘plagan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo‘lib, hozirda uning chala tarjimasi ko‘p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so‘zidan olingan bo‘lib, "o‘zaro tasirlashish"

manosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o‘zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o‘quv qo‘llanmalarini varaqlaganimizda “o‘qitishning interaktiv metodlari” termini qo‘llanishini ham guvoni bo‘ldik. Talim berish jarayoni bevosita o‘qitish metodi bilan uzviy bog‘liqdir. Xo‘sh aslida interaktiv metodning o‘zi hozirgi kunda qanday ma‘no anglatadi? Interaktiv (inglizcha INTERACTION anglatadi) metodlar- bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya‘ni yuqorida aytib o‘tganimizdek, bir paytning o‘zida ham pedagog ham o‘quvchining birdek faoliyati tushuniladi. Uning asosiy mazmuni ham, tarkibi ham shundan iboratdir.

Interaktiv metodlar o‘zining quyidagi maqsadlariga ega: 1. Interfaol metodlar o‘qituvchi va o‘quvchining faol munosabatlaridan biri 2. Interfaol metodlarning maqsadi o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro hamfikrligini ta‘minlash. 3. Ushbu metodlar orqali o‘quvchi qabul qilishni rivojlantirish, o‘quvchilarni bilim olishini ta‘minlash kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. . Shunday qilib, hozirgi kunda interaktiv metodlarning quyidagi turlari mavjud: 1. Aqliiy hujim. 2. Jamoaviy o‘qitish usuli. 3. Kichik guruhlarda ishlash. 4. O‘yinli o‘qitish. 5. Muloqot metodi. 6. Bumerang.

7. Tarmoqlar metodi. 8. Boshqaruv metodi va boshqalar. Bu metodlardan bir nechtasiga to‘xtalib o‘tishni joiz bildik. Bugungi kunda miya faoliyatining ish koeffisientini oshirishga qaratilgan turli xil metodlar o‘ylab topilmoqda. Vaholanki, olimlarning fikriga qaraganda, inson miyasining 7 % gina ishlar ekan, xolos. Eng avvalo, aqliy hujum metodiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Chunki bu metod eng ommalashgan metodlardan biridir. Chunki bizning kelajagimiz bo‘lgan avlod asosiy ya‘ni fundamental bilimni shubhasiz, boshlang‘ich sinfdan olishni boshlaydi. Bizning maqsadimiz bugungi kun pedagoglari o‘z faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida interaktiv metodlardan keng foydalana olishidir. Lekin bugungi kunda interaktiv metodlardan foydalanib, ham o‘qituvchi ham o‘quvchi birdek faol harakat qilayotganligini barcha umumta‘lim maktablarida ham kuzatish qiyin masala. Shuning uchun bu mavzuni bugungi kunning dolzarb masalasiga aylantirdik. Interaktiv dars metodlari, boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini yanada qiziquvchan va samarali qilishda muhim rollarni o‘ynaydi. Bu metodlar o‘quvchilarning masofaviy ta‘limni, faol qatnashishini, fikr bildirishini va mustaqil o‘rganishini rag‘batlantirishga yordam beradi. Masalan, o‘yinlar, animatsiyalar, elektron darsliklar, interaktiv ko‘nikmalar va jamoada ishlash orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Bunday interaktiv dars usullari o‘quvchilarning o‘zlarini o‘rganish va tushunishini rag‘batlantiradi, shuningdek, o‘quvchilarning ko‘nikmalarini oshiradi va o‘rganishni o‘ylab ko‘rish orqali ta‘lim jarayonini yanada o‘rganadilar, shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchilarning ma‘lumotlarini aniqlaydi va o‘rganishini monitor qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O‘zMU
2. Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
3. Xo‘jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T.: 2003. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi –Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi –O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida||gi Farmoni.
5. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning
6. pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.
7. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining –Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga
9. majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida|| 132-son qarori
10. B.X.Xodjayev. –Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti||. –Sano-standart|| nashriyoti. Toshkent – 2017. 92-bet. 7. T.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. –Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat||. Toshkent. –IQTISOD-MOLIYA|| 2009.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA PISA XALQARO DASTURIDAN FOYDALANISH**Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**

Qo‘qon universiteti dotsenti (PhD)

Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, o‘quv jarayonida PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro dasturining qanday foydalanilishi haqida muhokama qilinadi. Maqolada, PISA dasturining o‘quvchilarning umumiy ma‘naviyatini, fanlararo ko‘nikmalarini va qobiliyatlarni baholashda qanday samarali bo‘lishi, metodologiyasi, qat‘iylik, kutilganlik va to‘g‘ri qo‘llanishning muhimligi ko‘rsatiladi. Yozuvda PISA dasturidan foydalanishning o‘quv tizimini rivojlantirish, o‘qitishning sifatini oshirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va mamlakatlararo ta‘lim sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishda qanday muhim rolni o‘z ichiga olganligi aytib o‘tiladi. Maqola, PISA dasturining natijalaridan foydalanishning ta‘lim sohasidagi muammolarga javob topishda yordam berishining o‘rinli ravishda ko‘zda tutilganligini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: salohiyat, baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, kompetensiya, malaka, ko‘nikma, tafakkur, metodik shartlar, tajriba, innovatsiya, kontent, tadqiqot, dastur, loyihalash.

Yurtimizda ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e‘tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma‘nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste‘dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta‘lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish hamda 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish vazifalari belgilab berildi.¹ Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta‘lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud.

Mamlakatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, davlatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir. Aynan, shuning uchun ham yurtboshimiz: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”, – deb qayta va qayta ta‘kidlamoqdalar. Chunki “Uchinchi Renessans poydevori”ni ta‘limni isloh qilmasdan qurib bo‘lmaydi.

Prezidentimizning 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi To‘g‘risida”gi farmoni

Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish kabi yo‘nalishlarning belgilanishi pirovardida sohada ulkan o‘zgarish va islohotlar o‘tkazilishidan dalolat beradi.

Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta‘limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish, inson qadrini ulug‘lash, aholi manfaatlarini ta‘minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish maqsadida, shuningdek, Davlat rahbarining 2019 yil 29 apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirilib, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq maktab ta‘limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan “Milliy o‘quv dasturi”ni to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish jadal suratlarida amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, milliy o‘quv dasturini maktablar uchun amaliyotga joriy etish judayam quvonarli hol bo‘ldi. Chunki, amaldagi o‘quv dasturi bilan milliy o‘quv dasturidagi o‘zgarishlar hajmi va mazmun-maqsadi ancha farq qiladi. Undan ko‘zlangan maqsad yoshlarni xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirish, o‘quvchilarga keng qamrovli bilim berish, og‘zaki nutqini shakllantirish va tarbiyalashdan iboratdir.

Yangi darsliklarni tayyorlashda PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardagi namunaviy vazifalar asos qilib olingan. Darslik bilan birga mashg‘ulot daftarlari, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar ham chop etilgan. Shuningdek, bu tizimga Estudy elektron ta‘lim platformasi integratsiya qilingan. Undan dars paytida ham, bo‘sh vaqtda ham foydalanish mumkin.

Prezident aytganlaridek, “Dunyo pedagoglari tajribasidan foydalangan yaxshi. Shu bilan birga, darsliklarda milliy g‘oya, ajdodlarimiz merosi ham bo‘lishi kerak. Masalan, jadid bobolarimiz ta‘lim bo‘yicha qancha ishlar qilgan. Yaqinda Elbekni o‘qidim. “Qiz bolani o‘qitgan davlat butun jamiyatni o‘qitgan bo‘ladi” deb yozgan ekan. Bizning darsliklarimizda bunday gaplar yo‘q-ku. Nima demoqchiman? Yangi darsliklarni shunday mukammal tayyorlash kerakki, keyinchalik bunga yana qaytmaylik. Bugungi ta‘lim qirq yildan keyin biz haqimizda so‘zlaydi?”.

Ta‘lim jarayoni asosan til vositasida kechar ekan, ona tili va o‘qish ta‘lim tizimidagi fanlar orasida alohida o‘rin tutadi. Boshqa fanlarning o‘zlashtirilishi o‘quvchining o‘z ona tilida yozma matnni, og‘zaki matnni tushunish, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda izchil bayon eta olish ko‘nikmasi bilan bevosita bog‘liq. Ona tili va o‘qish savodxonligi har qanday bosqichdagi ta‘limning asosini tashkil etadi. Tilning eng birinchi vazifasi ma‘lumotni kodlash va dekodlashdir, ya‘ni so‘zlovchi o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma‘lumotni to‘g‘ri

² <https://m.kun.uz/uz/news/2022/12/29/shavkat-mirziyoyev-zamonaviy-darsliklar-korgazmasi-bilan-tanishdi>

tushunish kerak. Umum ta’lim maktablarida ona tili va o’qish savodxonligining maqsadi tilning aynan shu birlamchi xususiyatini qo’llash malakasini shakllantirishga qaratilishi zarur.

Psixolingvistik tadqiqotlardan bizlarga shu ma’lumki, insonning til qobiliyati to’rt xil kognitiv malakaning o’zaro bog’liqligida rivojlanadi: tinglab tushunish, fikrini og’zaki bayon qilish, o’qib tushunish, fikrini yozma ravishda bayon qilish.

Tinglab tushunish va so’zlash og’zaki nutq shakli bilan bog’liq, o’qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan, tinglab tushunish va o’qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, so’zlash va yozish esa nutq jarayonidir. Mazkur malakalarning har biri insonning turli a’zolari yordamida yuzaga chiqar ekan, ularning har biri o’zaro bog’liqligi bilan birga, bir-biridan farqli ekanligiga e’tibor qaratish zarur. Xususan, nutqni tinglab tushunish inson bosh miyasining chakka qismida joylashgan neyronlar ta’sirlanishida amalga oshadi; o’qib tushunish bosh miyaning peshona bo’limidagi nutq a’zolarini harakatlantiruvchi neyronlar yordamida, yozish esa bosh miyaning peshona bo’limidagi qo’lni harakatlantiruvchi neyronlar yordamida amalga oshiriladi. Bir qarashda mazkur farqlar muhim emasday tuyuladi, chunki asosda semantik tizim bitta bo’ladi, semantik tizim qolgan hammasini boshqaradiganday tasavvur qilamiz, chunki sog’lom odamda mazkur 4 malakaning jiddiy farqi sezilmaydi.³

Ilmiy tadqiqotimizda biz ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilan suhbatlashdik va ularning olib borayotgan faoliyati hamda ta’limdagi o’zgarishlarga bo’lgan munosabatini bilishga qiziqdik. Bir qator pedagogik metodlardan foydalanib oldimizga qo’yilgan maqsadga erishish uchun harakat qildik.

Har qanday sohada rivojlanishning asosi, eng avvalo, yosh avlodga berilayotgan ta’lim-tarbiya bilan bog’liq. Bu borada ta’lim jarayonida ko’plab islohotlar olib borilmoqda, yangicha yondashuvlar tatbiq qilinmoqda. Quyida kuzatuvlarimiz asosida o’qituvchilarining tizimdagi islohotlarga munosabatini umumlashtirishga harakat qildik.

1. **Intervyu metodi** asosida ona tili va o’qish savodxonligi darsliklarining afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr va mulohazalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi:


Afzalliklari	Kamchiliklar
<p>Ona tili va o’qish savodxonligi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Milliy o’quv dasturi asosida chiqarilgan darsliklarning xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilgan. ✓ Og’zaki nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. ✓ Mavzular integratsiyalashgan. ✓ Yangi atamalar kiritilgan. ✓ Audio matnlar orqali o’quvchilarning tinglab tushunish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga erishilgan. ✓ O’quvchilarni ijtimoiy munosabatlardagi faol muloqot jarayoniga tayyorlaydi. 	<p>Ona tili va o’qish savodxonligi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ayrim mavzularning mentalitetimizga begonali. • Yozma savodxonlik kamaygan. • Murakkab so’zlarning biroz ko’pligi. • Kitob qismlarga bo’lingan va bu choraklarda almashishi bilimlarni takrorlab borishiga mone’lik qiladi. • O’quvchilarning o’qish tezligi ma’lum darajada pastlagan.

³ I.Azimova. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi (til ta’limi). Uslubiy qo’llanma. – T.: “Hilol-Nashr”, 220 b., - 96 b.

2. “Ta’limdagi islohotlar” mavzusida olib borgan kuzatuvlarimiz asosidagi tadqiqotlarimizni SWOT tahlilida keltirdik. Joriy o‘quv yilining dastlabki 5 oyida Qo‘qon shahridagi 30-, 6-, 24-, 33-, 10-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kuzatuv ishlarini olib bordik: darslarni kuzatdik, fan o‘qituvchilari bilan suhbatlashdik, ularning ta’limdagi islohotlarga bo‘lgan munosabatlarini quyidagi tahlilda keltirdik.

3. O‘tkazilgan suhbatlar, kuzatilgan darslar va amaliyotdagi faoliyatimiz asosida amaldagi dastur bilan Milliy o‘quv dasturining yutuq va kamchiliklari haqida quyidagi savollarga javob topishga harakat qildik:

1. Nimani o‘qitish kerak?
2. Qanday o‘qitish kerak?
3. Qanday natijalarga erishamiz?



4. Eksperiment metodi. Qo‘qon shahar 6-maktab o‘quvchilarida multimediali o‘qitish orqali zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib 2 ta sinfda tadqiqot olib bordik. Natijada multimediali o‘qitish darsi o‘tilgan sinfning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yozma ish yakunida yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Aksincha, multimediadan foydalanilmagan sinfning o‘zlashtirish darajasi past bo‘ldi.

5. Test metodi . Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahar 24-maktabning 9- “A” sinf o‘quvchilari va 10-maktabning 9-“A” sinf o‘quvchilari o‘rtasida PISA bo‘yicha test o‘tkazdik. Ushbu jarayonda PISA talablari bo‘yicha 30 ta o‘quvchiga talab bo‘yicha matn berildi va shu bo‘yicha test o‘tkazildi.

Quyida PISA topshirig‘idan namuna beramiz:

PISA (Programme for International Student Assessment), UNESCO va OECD tomonidan 1997-yildan boshlab amalga oshirilayotgan badiiy, matematika va tabiiy fanlardagi o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini baholash uchun tuzilgan xalqaro dasturdir. PISA dasturi, 15 yoshdan keyin o‘qiydigan o‘quvchilarning umumiy qobiliyatini, g‘oyaviy va nazariy bilimlarini, xalqaro samaradorlik va ishlash bo‘yicha muhim malakalarini baholaydi.

PISA dasturining muhim xususiyatlari:

Boshqarish va tizim: PISA natijalari barcha ishtirok etuvchilar mamlakatlar uchun anonim bo‘ladi, shuning uchun ular shaxsiy ma‘lumotlari haqida tafsilotlar taqdim etmaydi. Bu xususiyat, barcha davlatlarning o‘quvchilarini bir-biriga taqqoslash uchun boshqarishga imkoniyat yaratadi.


Baholash sohaslarining kengligi: PISA testlari o‘qish, matematika va tabiiy fanlarda o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini baholaydi. Bu tahlillar o‘quvchilarning amaliyotga asoslangan bilimlarini, ta‘limni nazariy ravishda tushuntirishni va yangi muammolarga duch kelganlarida qanday hal qilish zarurligini o‘rganishni maqsad qiladi.

Mualliflik va jahon tillaridan foydalanish: Testlar mualliflar tomonidan jahon tillariga tarjima qilingan, shuningdek, mavzu tuzumlarida va misollarida jahonning har xil mamlakatlaridan voqealar ishlatilgan. Bu, o‘quvchilarning xalqaro tahlil va muhokama tajribasini rivojlantirishni ko‘zlaydi.

So‘rovnoma turi: PISA testlari asosan, so‘rovnoma turi bo‘lib, tushuntiruvchi, sinov tadbirlari, fan tizimlarini o‘rganish, muammolarni yechish va ma‘lumot tahlil qilishning turli ko‘nikmalari orqali olib boriladi.


Natijalarning taxminiy muddati: PISA testlarining natijalari mamlakatlar o‘rtasida solishtirib, ta‘lim tizimini yaxshilashda kerakli o‘zgarishlarni aniqlash uchun amalga oshiriladi. Natijalar har yil ochiladigan sinov davriga tayyorlanishda yordam bera olish uchun muhokama va ta‘limni rivojlantirishda xizmat qiladi.

PISA dasturi, o‘quvchilarning dunyo standartlariga muvofiq tayyorlanishini oshirish va ta‘limni sifatliroq qilishni maqsad qilgan. Natijalar dunyo bo‘ylab ta‘lim sohasidagi rivojlanishlarni kuzatib borishda yordam beradi.




1-rasm. Likeard asosida so‘rovnoma.

Ushbu tadqiqotda respondentlarning 50 %i ta’limdagi islohotlar samarali degan natijani bergan, respondentlarning 35%i biroz yaxshi, 10%i esa na yaxshi, na yomon, 5%i biroz samarali degan fikrlarni bergan.




2- rasm. Xalqaro tajribalar asosida yaratilgan darsliklar samaradorligi.

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, darsliklar haqida 55% kishi “ha, juda foydali” ya’ni juda yoqdi, 40 % kishi “biroz foydali”, 4 % ishtirokchi esa “samarasiz”, 1 %i “umuman foydasiz” degan fikr bildirgan. Demak, xalqaro tajribalar asosida yaratilgan darsliklar o‘z samarasini beryapti.



3 -rasm. AKT resurslaridan foydalanish.



4 -rasm. Baholash tizimi.

Respondentlarning 60%i AKT resurslaridan juda zo‘r, to‘laqonli foydalanishlari, 25%i to‘laqonli foydalana olmasliklari, 14%i ozroq foydalana olishlari, 1%i esa umuman foydalana olmasliklarini aytib o‘tishgan.

Rasmda 80% ishtirokchi baholash tizimidan rozi ekanliklarini, 14%i rozi emasliklarini, 5%i sal rozi ekanliklarini, 1%i esa qattiq norozi ekanliklarini ko‘rish mumkin ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu diagrammada darsliklar bo‘yicha fikrlar ko‘rsatib o‘tilgan. Ishtirokchilarning 50%i juda ham mamnun ekanliklarini, 35%i qoniqarli, 10 %i na mamnun, na qoniqqanliklarini, 5%i esa biroz norozi ekanliklari bayon qilishgan.

2 ta sinf miqyosida o‘tkazilgan eksprementimiz natijasi ham foizlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

PISA dasturining 2-yo‘nalishi o‘qish savodxonligi juda muhim sanaladi. Buning boisi odatda, ushbu rivojlanish davrida o‘quvchilar o‘qib tushinish ko‘nikmasini egallaganligi boshqa fanlarni qay darajada o‘zlashtirishining bosh omili sanaladi. Ma‘lumki, o‘qish savodxonligi insonlarning o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ko‘pgina o‘quvchilarda o‘qib tushinish darajasining past yoki yuqoriligi aqliy salohiyatini, fikr tezligini, tafakkur kengligini belgilaydi.

Maqolalarda ta‘lim jarayonida matn ustida ishlash, o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘qish, yozish va nutqning boshqa asoslari boyicha qiziqarli ko‘rsatmalar berilgan. Ayniqsa, ona tilini o‘rganish va o‘qishning asosiy vazifalari qanday rivojlanishini ko‘rsatishga diqqat qaratilgan. Bu, o‘quvchilarning ma‘naviy tarbiyasini ta‘minlash, ularning o‘qish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini kuchaytirish va o‘rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Badiiy matnlarni o‘qish, tahlil qilish va uning ustida ishlash, o‘quvchilarning ma‘naviy tarbiyasini oshirishga yordam beradi. Bu usullar o‘quvchilarning tushunishini kuchaytirish, ularning tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning dunyoni tushunishiga yordam beradi.

Ta‘lim jarayonida foydalaniladigan usullar va metodikalar hozirgi vaqtning talablariga mos ravishda yangilanib borayotganligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar, o‘rganish usullari va ma‘naviy tarbiya bilan bog‘liq yangiliklar bu maqolalarda ko‘rsatilgan. Bu esa o‘quvchilarning bugungi dunyoga mos ravishda tayyorlashganligini ta‘minlaydi va ularni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va yaratishga ilhomlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
2. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
4. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
5. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from
6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from
7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

4- SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna

Qo‘qon universiteti dotsenti (PhD)

Xodjayeva Muazzamxon Qodirjon qizi

Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya: PIRLS xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ta‘lim sohasida keng qo‘llaniladigan baholash vositasi bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qishni tushunish ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan. Maqolada o‘qish savodxonligi darsligida berilgan Meri Joslinning “Marvarid” hikoyasi asosida PIRLS baholash dasturidan foydalanish muhokama qilindi va ularning o‘quvchilarning o‘qish malakasini baholashdagi ahamiyati ta‘kidlanadi. Unda ushbu baholashlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘qishni tushunishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda qanday yordam berishi va ularga ta‘lim strategiyalarini mos ravishda moslashtirishga imkon berishi ta‘kidlanadi. Metodologiya bo‘limida tegishli test materiallarini tanlash va standartlashtirilgan test protseduralarini amalga oshirishni o‘z ichiga olgan baholashlarni o‘tkazish jarayoni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: IEA, PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, EGMA, EGRA.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta‘lim-tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta‘lim tizimi uchun juda muhim ekanligi aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta‘lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.¹

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta‘limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni³ asosida Respublikamizda bir qancha ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8- dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori⁴ bilan

¹ <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=15772>

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020dagi O‘RQ-637-son

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.12.2018 yildagi 997-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilib, O‘zbekiston o‘quvchilarining quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilandi:

- PISA – The Programme for International Student Assessment – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;
- TIMSS – Trends in International Mathematics and Science Study – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash;
- PIRLS – Progress in International Reading and Literacy Study – boshlang‘ich 4- sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;
- TALIS – The Teaching and Learning International Survey – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish⁵.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, 2021- yilda o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotda 57 davlat va 8ta ta’lim tashkiloti qatorida O‘zbekiston Respublikasi ham ishtirok etdi. Ta’kidlash joziki, mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyo davlatlaridan faqat Qozog‘iston va O‘zbekiston davlatlari ishtirok etgan. Ketma-ket beshinchi marotaba o‘tkazilgan mazkur tadqiqotda O‘zbekiston ilk bor ishtirok etib, 437 ball to‘pladi. Bu PIRLS dasturida qabul qilingan o‘rtacha ko‘rsatkich (500 ball)dan sezilarli darajada kam bo‘lib, 57 mamlakat orasida 49 - o‘rinni egalladi.

Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo‘ylab ta’limni baholash, tushunish va yaxshilash bo‘yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog‘ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o‘qish salohiyati bo‘yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

PIRLS xalqaro tadqiqotida qo‘llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo‘ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o‘quv dasturlari va madaniy jihatdan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida olish qo‘shimcha murakkablik tug‘diradi. Masalan, she’riy matnlarni tarjima qilish o‘quvchilar uchun qiyinlik tug‘dirgani bois, ular topshiriq sifatida berilmaydi.

Axborotni olish va undan foydalanish uchun o‘qish. Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o‘qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma’lumot berishdan iborat bo‘lgani sababli, odatda, yozuvchilar o‘zlari yoritimoqchi

⁵ “Xalqaro tadqiqotlar tajribasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” Djurayeva Perdegul Saidovna, Navoiy viloyat XTXQTMOHM Jurnal - "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 235-bet.

bo‘lgan mavzuga turli maqsad bilan yondoshadi. Ko‘p axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Masalan, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar toki puxta o‘ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o‘quvchiga yetkazib berishi mumkin. O‘quvchi o‘z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak.

O‘quvchi matnlarning maqsad va vazifalariga yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma‘lumotlar boshqacha tartibda, ya‘ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o‘zgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy matnlarni o‘qishlari mumkin. Bunday matnlar ham undagi o‘quvchiga yetkazib berilishi kerak bo‘lgan mazmun-mohiyatni ochiq berilishi nuqtai-nazaridan farqlanishi mumkin. Masalan, tarixiy ma‘lumotlar xronologik tartibda, ko‘rsatmalar yoki yo‘riqnomalar ketma-ket tartibda va mulohazalar esa mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etilishi mumkin (masalan, sabab va oqibat yoki qiyoslash va zidlash). Ma‘lumotlar turli formatlarda taqdim etiladi. Hatto bir matn ko‘rinishida taqdim etilgan ma‘lumot ham faktlarni asoslashda jadvallardan, tasvirlarni tasvirlashda esa suratlardan iborat bo‘lishi mumkin. Har ikkala bosma materiallar (masalan, qo‘lyozmalar va gazetalar) va veb-sahifalar ro‘yxatlar, chizmalar, grafalar va diagrammalar yordamida qator ma‘lumotlarni taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, reklama yoki e‘lonlarda bo‘lgani kabi so‘zlar katta hajmli matn yoki izohlar, ro‘yxatlar yoki vaqt chizig‘i kabi qo‘shimcha ma‘lumotlardan iborat matnga ilova qilingan ustun (rukn) shaklida bo‘lishi shart emas. PIRLS xalqaro tadqiqotida qo‘llanilgan axborot beruvchi matnlar o‘quvchining ham maktabda, ham maktabdan tashqarida axborot beruvchi matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini aks ettiradi. Odatda, mazkur matnlar va ayrim PIRLS veb-saytlari yosh o‘quvchilar auditoriyasi bilan ishlash tajribasiga ega mualliflar tomonidan yoziladi va o‘zlarining o‘quvchilari o‘qiydigan axborot beruvchi materiallarga namuna sifatida ishtirokchi mamlakatlar tomonidan taqdim etiladi.

Tushunish jarayonlari. Turli o‘qish tarzi o‘quvchilardan matn mazmunini turli xil usulda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, PIRLS tadqiqoti, odatda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan qo‘llaniladigan to‘rt tushunish jarayonini baholaydi. Bu to‘rtala tushunish jarayonlariga diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotni topish; to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g‘oyalar va ma‘lumotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish kiradi. Mazkur jarayonlar o‘quvchilarga o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirish va o‘z qarashlarini o‘zgartirish imkonini beradigan tushunish jarayonlari va strategiyalarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning o‘qib tushunishlari uchun kerak bo‘ladigan bilim va birlamchi tajribalari ularga tilni, matnlarni, dunyoni tushunishlariga yordam berib, ular bu bilim va ko‘nikmalaridan foydalanib, biror material (yoki ma‘lumot) haqidagi tushunchalarini tahlil qiladi.

Hozirda PIRLS testlariga tayyorlashda tanlangan matn “Marvarid” hikoyasini o‘rgatishdagi bir qancha metodlarni ko‘rib chiqamiz:

"SINKVEYN" metodi

"Sinkveyn" atamasi fransuzcha "besh qatordan iborat" she'r ma'nosini bildiradi. 'Sinkveyn' metodi "O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" maqsadida yaratilgan. "Sinkveyn" metodini nisbatan adabiyot, falsafa, tarix va boshqa shunga o'xshash fanlarda qo'llash osonroq. Sababi, ularning sifati va harakati bilan bog'lovchi sinonim so'zlarni topish oson. "Sinkveyn" metodidan iqtisodiy kategoriyalarni o'rganishda foydalanishni quyidagi misol yordamida ko'rish mumkin. "Sinkveyn" metodini amalda tadbiriq etishga misol: 1. Nom (ot) - Marvarid 2. Tavsifi (2 ta sifat) - qimmatbaho, chiroyli 3. Harakat (3 ta fe'l)- terdi, yig'di, hadya qildi 4. Mavzuga tegishli gap (4 ta so'z) - Josh marvaridni do'stiga berdi. 5. Sinonim (1 ta so'z) - gavhar

Bu metod orqali o'quvchilarning tanqidiy taffakkuri rivojlanadi. O'qish savodxonligida berilgan matnning nomi yaxshi eslab qolinadi va darsda ona tili fani bilan integratsiyani hosil qiladi.

"PAZL" metodi

O'qish savodxonligida Pazl ("Bo'laklardan butunni tuz") metodi.

Pazl (inglizcha puzzle - topishmoq, boshqotirma) - rasmni uning bo'laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o'yinining nomi. Shuning uchun bu metod nomini o'zbek tilida "Bo'laklardan butunni tuz" deb ham atash mumkin.

O'quvchilar 5 ta guruhga ajratiladi. "Marvarid" matni o'qituvchi tomonidan 5 ta qismga bo'linadi, har bir qism qog'ozga yozilib, so'ng bir nechta bo'laklarga bo'linib, aralashtirib yuboriladi. Har bir guruh bu bo'laklar ichidan faqat o'zlarining guruhlariga mos qismni matn tartibi bo'yicha tiklaydilar. Bu metod o'quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to'plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usulni yakka tartibda ham, sinfni guruhlariga bo'lib ham o'tkazish mumkin.

"STORY-TELLING" metodi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sevimli metodlaridan biri bo'lgan "story-telling" metodini o'qish darslarida qo'llash yaxshi samara beradi.

Bu metod orqali o'quvchilarning matnni to'g'ri va to'liq tushunishlariga erishish mumkin. Shuningdek o'quvchilar mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalari shakllanadi.

O'quv metodik komplekslar faol o'quv jarayoni uchun to'liq materiallar to'plami: darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi."⁶

Qo'qon shahar MMTB tasarrufidagi 6 - umumta'lim maktabining 4-"B" sinf o'quvchilari Meri Joslinning "Marvarid" hikoyasi yuzasidan PIRLS testlariga tayyorgarlik vaqtida shuni aniqladikki, o'quvchilarning matnni o'qish tezligi yuqori o'quvchilar 44%, o'qish tezligi o'rtacha 38%, o'qish tezligi sust o'quvchilar 18% natijani; matnni tushunganlik darajasiga ko'ra yuqori 69%, tushunganlik darajasi o'rtacha 35%, tushunishi qiyin yoki sust bo'lgan o'quvchilar 6% natijani;

matnga munosabat bildira olish ko'nikmasiga ko'ra to'liq fikr bildira olganlar -53%, noto'liq fikr bildira olganlar - 41%, umuman fikr bildira olmaganlar - 6% ni tashkil etdi.

⁶ O'zbekistonning yangi avlod darsliklari qanday bo'ladi - foto - 29.12.2022, Sputnik O'zbekiston (sputniknews.uz)

Ushbu tahlillardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan doimiy izchil va tizimli ishlashi orqali nafaqat PIRLS, balki boshqa turdagi xalqaro baholash dasturlaridan ham yuqori natijalarga erishish mumkin.

Biz, Qo‘qon universitetining bir qator talabalari Xalqaro baholash dasturlaridan biri bo‘lgan PIRLS baholash dasturining mohiyati va 4-sinf o‘quvchilarida qay tarzda qo‘llanilishi yuzasidan tadqiqot ishlarini to‘liq va izchil olib borishga harakat qildik.

Bizdan keyingi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan ilm egalariga Xalqaro baholash dasturlaridan biri bo‘lgan PIRLS dasturiga mos bo‘lgan ilmiy matnlar bilan ishlashda 4 - sinf o‘quvchilarining matnini o‘qish va tushunish jarayonlarini kengroq tahlil qilishlarini tavsiya qilgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
2. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
4. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA‘LIM MUASSASALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
5. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O‘QISH VA ONA TILI O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA). Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.
6. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 83-87.
7. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
8. JS Ikromjonovna, X Muazzamxon “O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI”
9. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-81
10. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
11. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

12. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.

13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-
INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

**BOSHLANG‘ICH HAMDA MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI TA‘LIM-TARBIYA
JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH****Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**

Qo‘qon universiteti dotsenti (PhD)

Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi

Qo‘qon universiteti talabasi

moxiratojkarimova660@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotida tabiiylash, maktab ta‘limiga tayyorlash jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolaning aqliy qobiliyatini, xotira va diqqatini rivojlantirishda hamda boshlang‘ich ta‘limlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy rivojlanish, texnika, multimedia, zamonaviy axborotlar.

Kirish.

Taraqqiy etib borayotgan informatsion vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an‘anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmdagi ma‘lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog‘liq axborot yaratish jarayoni inson faoliyatini turli sohalarida kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko‘zda tutadi. Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli soxalari, balki madaniyat va ta‘lim sohalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta‘lim jarayonini yangi bosqichga ko‘tardi. Bu o‘z o‘rnida ta‘lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko‘rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko‘nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug‘dirdi. Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning professionallik darajasi ularning kompyuter texnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida, ya‘ni ta‘lim muassasalarida yetarli baza yaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda ta‘lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda.

Asosiy qism

Boshlang‘ich hamda Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun, avvalo, multimedia to‘g‘risida asosiy tushunchalarni qarab chiqamiz. Multimedia atamasining lug‘aviy ma‘nosi [multum+medium] (yoki [ingl. multi+media]) kabi ikkita so‘z yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, multi – ko‘p, media – muhit manosini anglatadi. Atama ilmiy va o‘quv adabiyotlarida ko‘p vositalilik, multimedia muhiti, ko‘p qatlamli muhit, multimedia – bittadan ko‘p bo‘lgan mediadir, mahsulot tashuvchi vosita, ma‘lumot tashuvchi vosita kabi talqin qilinib kelinmoqda, xatto, ayrim adabiyotlarda hozirgacha multimedia

atamasining aniq ta’rifi mavjud emasligi ham e’tirof etilgan. Hozirgi davrda multimedia atamasi ko’p kirrali bulib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etilib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi; multimedia mahsuloti; multimedia didaktik vositasi va boshqalar shular jumlasidandir. Multimedia tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta’rifini keltiramiz: Multimedia, deganda turli shakldagi ma’lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia – bu maxsus texnologiya bo’lib, dasturiy va texnik moddiy ta’minot asosida kompyuterda bir vaqtning o’zida tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo’ljallangan multimediali texnologiyalar joriy an’anaviy texnologiyalarga nisbatan quyidagilar bilan farqlanadi: - bolalarning psixologik jihatlari; - bolalarning yoshi (5-7 yosh); - kompyuterli mashg’ulotning davomiyligi (15 daqiqaga); - materialning bolalarga mosligi (multimedia shaklida); - materialning hajmi (30 daqiqaga mo’ljallangan); - materialning murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi); - ularning faollik darajalari va hokazo. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan multimediali kompyuter texnologiyasi variantida texnologik yondashuv quyidagicha kechadi: birinchidan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining o’rganiladigan materialni o’zlashtirishini qulay qilish va osonlashtirish maqsadida material bir-biri bilan bog’liq qismlarga, bo’laklarga ajratiladi; ikkinchidan, ta’limdan mo’ljallangan natija olish uchun amallar ketma-ket bajarilishi va loyihalashtirilgan ishlar oxiriga yetkazilishi ko’zda tutiladi. Eng muhimi, ushbu texnologiyada o’rganiladigan material multimedia asosida taqdim etiladi. Bola miyasiga bunday multimediyaviy ta’sir natijasida uning o’zlashtirishi yaxshilanib, mashg’ulot samaradorligi oshadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning muloqotga bo’lgan ehtiyojini qondirish va har tomonlama rivojlantirishda multimedialardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. STEAM texnologiyasida animatsiya studiyasini yaratish uchun bugungi kunda odatiy bo’lgan texnik vositalar kerak bo’ladi: raqamli kamera, ovoz yozish va animatsiya dasturlari bilan ta’minlangan kompyuter yoki noutbuk. Shu bilan birga bolalar bilan multfilmlar yaratishda ma’lum shart-sharoitlarni hisobga olish, alohida vaqt ajratish, to’garak faoliyatlarini yo’lga qo’yish, ota-onalar bilan ham reja asosida ishlarni tashkil etish va tarbiyachilarning media savodxonligi talab etiladi. Animatsiya kattalar va bolalar manfaatlarini, faol harakatlarini iloji boricha yaqinlashtiradi, ijodiy muhitni yaratadi. Bolalar rassomlar, ssenariy mualliflari, rejissyorlar, aktyorlar, operatorlar bo’lishadi, bir-birlari bilan kichik muzokaralar, bevosita muloqot olib borishadi, o’z harakatlarini muvofiqlashtirishni va umumiy natijaga erishishni o’rganadilar. Bu jarayonda bolalar ijodkorligini muvaffaqiyatli rivojlantirishda tarbiyachilarning ota-onalarni ham jalb etish samarali natijani beradi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oddiy mashg’ulotlarga qiziqishmaydi. Animatsiya yordamida bolalarni o’quv va ijodiy faoliyatga oson jalb qilish mumkin. Animatsiyada ijodiy fikrlash erkinligi, eng muhimi, ota-onalarning bolalarni har tomonlama rivojlanishida qo’shimcha ta’lim xizmatlari yaratiladi. Bolalar asosan tasviriy faoliyatga qiziqishadi va turli xil san’at turlari orqali ijodiy g’oyalarni shakllantiradilar, ijodiy jarayonda faollik ko’rsatadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar o’z tengdoshlari, kattalar bilan birgalikda ijodiy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar, ularning axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilish darajasi, foydalanish samaradorligi oshadi. Ota-onalarning muhim ehtiyojlari qondiriladi. Zamonaviy bolalar doimiy ravishda multimedia vositalari bilan yuzma-yuz muloqot qilganliklari uchun, kun davomida multfilmlar

tomosha qilishadi, ularni yaratilish murakkabligini anglab yetishmasada, ularda alohida ishtiyoq bo‘lgani uchun o‘zlarida kuch, energiya topa oladilar, o‘zlarining ijodiy multfilmlarini yaratishga osonlik bilan kirishadilar. Ularning animatsiyadan foydalanishi vizual faoliyatga, AKT ga qiziqishni oshiradi, o‘zlarini ijodkor sifatida tasavvur etishadi. Maktabgacha ta‘lim faoliyatida qo‘langandan so‘ng ushbu yo‘nalishni Boshlang‘ich ta‘limga targ‘ib etiladi. Boshlang‘ich ta‘limga o‘tganidan so‘ng bolalarda multimediya bo‘yicha ko‘nikma paydo bo‘ladi va ular multimediya orqali darslarni osongina, qiziqarli tarzda tushina oladilar. Ushbu jarayondi amalga oshirish uchun avvalo o‘qtuvchida yetarlicha bilim va hozirgi kundagi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish ko‘nikmasi bo‘lishi zarurdir. Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an‘anaviy va noanaviy metodlar bilan bir qatorda ta‘limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu manoda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi. Bunda inson inofrmation koinot bilan o‘zaro muloqotga kirishadi. Telekommunikasiya (telefon, televideniye, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan birikishi yagona jahon axborot makonini-multimediani tashkil etadi. Ushbu makonning eng muhim qismi Internet tarmog‘i ayniqsa uning giper-media xizmatlari (Vorld-Vide Veb), gipermediapochta, videokonferensiyalardir. Multimedia (“ko‘p muhitlik” degan ma‘noni bildiradi) - zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo‘lib, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko‘rinishlari-matn, jadval, grafika, nutq, animatsia, multiplikatsiya), video tasvir, musiqa yordamida axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishash va uzatish vazifalarini bajaradi.¹

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak har qanday bola jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, mamlakatimiz ravnaqi uchun komil inson qilib voyaga yetkazish, haqida qayg‘urish har bir pedagog tarbiyachining axloqiy va ijtimoiy burchidir. Hozirgi kunda Maktabgacha hamda Boshlang‘ich ta‘limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog‘lom va yetuk, tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozosidir. Bugungi kunda ta‘lim tashkiloti pedagoglarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatlarni yanada o‘stirish, bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat. Shunga ko‘ra o‘qtuvchichi va tarbiyachi mashg‘ulotlarida, dasturlardan, ekekrton qo‘llanmalardan, pedagogik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatiladi, bolalarning harakteri kengroq ochiladi, kuzatuvchanlik, xotira diqqat kuchayadi, Ta‘lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

¹ <https://azkurs.org/steam-talim-texnologiyasi--ni-tadbiq-etishda-elektron-talim-re.html>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son qarori.
2. R.R.Boqiyev, R.Yu. Mehmonov, D.K.Xusniddinova Bolalar bog'chasida kompyuter savodxonligi
3. JS Ikromjonovna, X muazzamxon "o'qish savodxonligi darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati" Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-81
4. Moxira, T. (2023). bolalarning psixologik rivojlanishida elektron resurslardan foydalanish. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(1), 20-25.
5. Moxira, T., & Muxlisabonu, M. Y. (2024). boshlang 'ich sinf o 'quvchilariga ta'lim berishda ko 'rgazmali metodlardan foydalaish usullari. yangi o'zbekistonda ijtimoiy-innovatsion tadqiqotlar, 2(1), 60-62.
6. Tojkarimova, M. A. (2023). boshlang 'ich ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar. Educational Research in Universal Sciences, 2(16 SPECIAL), 824-828.
7. JS Ikromjonovna. (2023). maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin kompetensiyasini rivojlantirish. qo'qon universiteti xabarnomasi, 586-588
8. Qo, J.S.I.,& Gulbahor,M. (2023). maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari. qo'qon universiteti xabarnomasi, 8, 98-100.
9. <https://azkurs.org/steam-talim-texnologiyasi--ni-tadbiq-etishda-elektron-talim-re.html>
10. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
11. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
12. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
13. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
14. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOYI-

INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

15. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

16. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

17. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH USULLARI**Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**

Qo‘qon universiteti dotsenti (PhD)

Ablayeva Sevara

Qo‘qon universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda baholashning ahamiyati, foydalanishning afzalliklari, formativ baholash va summativ baholashning muhimligi, darslarda foydalanish natijasida erishilgan natijalar tahlili bayon qilinadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotni o‘tkazishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar tilga olinadi, o‘qish darslarida o‘quvchilarni baholash bo‘yicha olib borilgan ishlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, baholash, formativ baholash, summativ baholash, o‘quvchilar, metodlar, savodxonlik, metodlar, baholash usullari.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” - degan da‘vatlari ta‘limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.¹

O‘qish savodxonligini baholash o‘quvchining funksional savodxonligini baholanishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Yurtimiz ham o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha katta tajribalar ega ammo, zamonaviy dunyodagi o‘zgarishlar, shuningdek o‘qish faoliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan ta‘lim oldidagi maqsad va vazifalar o‘zgardi. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi.²

Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha turli xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksar hollarda, ta‘lim tizimi jadal o‘zgarib borayotgan jamiyat talablariga javob berishga ulgurmayapti va o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyati, jamoada ishlash hamda kundalik hayotda va ishlab chiqarishda foydalaniladigan yangidan-yangi texnologiyalarga moslashish kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantira olmayapti. Bilimlarni baholash usullarini isloh qilish ta‘lim sohasidagi har qanday tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu o‘zgarishlar maktab bitiruvchilarini munosib hayot uchun zarur bo‘lgan malakalar bilan

¹ “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” FANI BO‘YICHA YARATILGAN DARSLIKLARDAGI MATNLARNING MAZMUNIGA QO‘YILGAN TALABLAR Nusratova Hamida Cho‘liboyeva, Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.b. PhD

² BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING O‘QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI Muazzamxon Xodjayeva, Qo‘qon universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

qurollantira oladi. O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar bilimini baholash samarali ta‘limning asosiy jihati hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘qishni tushunish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va umumiy savodxonlik darajasini baholash orqali o‘qituvchilar kuch va takomillashtirish sohalarini aniqlashlari mumkin, bu esa ko‘proq maqsadli va ta‘sirli ko‘rsatmalarga olib keladi.

Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini, oldingi yutuqlari bilan taqqoslash jarayonini va o‘quv natijalarini amaldagi o‘quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o‘zaro bog‘liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o‘quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to‘plami “Formativ baholash” (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan o‘quv jarayonining bir qismi bo‘lib, o‘quv va o‘qitish usullarini o‘zgartirish orqali o‘quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan.

Yozuv topshiriqlari: Talabalardan o‘qish materiallari bo‘yicha xulosalar, javoblar yoki mulohaza yozishni so‘rash ularning tushunish va fikrlarni izchil ifodalash qobiliyatini baholashga yordam beradi.

“Mazmunini moslashtir” deb nomlanadigan ta‘limiy o‘yin. Bunda ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilib borilayotgan she‘rlarning mazmunini qanday tushunganligini aniqlab olish mumkin. Bu usulda topshiriq jadval asosida beriladi. O‘quvchilarga tarqatma shaklida tashkil etilgan variantlar tarqatiladi. Jadvalning birinchi ustuniga she‘rdan parcha beriladi. Ikkinchi ustunga esa o‘quvchi o‘zining tushunchasi bo‘yicha she‘rni tahlil qilib mazmunini yozadi. Bunda har bir o‘quvchining qanday she‘r mazmunini tushunganligi, ularning o‘z tushunchasi va dunyoqarashini aniqlash mumkin. Bu ta‘limiy o‘yin o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatini oshishiga, tafakkuri yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Agar to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, “Barakala” deb o‘qituvchi rag‘batlantiradi. Bu ta‘limiy o‘yindan boshlang‘ich sinflar 2-3-4- sinf o‘quvchilarida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki aynan mana shu sinf o‘quvchilari bu davrda mustaqil fikrlay boshlagan va matnni ham to‘liq ifodalay oladigan ko‘nikmaga ega bo‘lishgan bo‘ladi. Darslar davomida bu o‘yinni qo‘llash o‘quvchida, avvalo ona tilida lug‘at boyligini oshishiga yordam beradi. O‘quvchi she‘r matnini o‘z so‘zlari bilan ifodalash uchun so‘z izlaydi, o‘ylyadi.

Og‘zaki baholash: Og‘zaki baholash o‘tkazish o‘quvchilarning o‘qigan materialini tushunishi, ravonligi va o‘z fikrlarini bayon eta olishini baholashning samarali usuli bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilardan **“Davomi kimda?”** metodi orqali o‘quvchilar matnni so‘rash davomida o‘qituvchining tavsiyasi bilan to‘xtatilgandan so‘ng navbatni davom ettirish uchun qolgan o‘quvchidan ham zukkolik, ham xotira mustahkamligi, ham diqqatni jamlash talab etiladi. O‘quvchilarda darsga qiziqish ortadi. Kim aniq, lo‘nda va qisqa qilib to‘g‘ri davom ettiraversa, o‘sha o‘quvchi o‘ziga ball yig‘ib boradi. Bu ta‘limiy metodni biz yana ko‘pgina matnni so‘rash orqali foydalanishimiz mumkin. Masalan: 2 - sinf o‘qish savodxonligi darsligining **“Bakteriya va mikroblar”** bo‘limida odam tanasida yuz beradigan mikroblar bilan bog‘liq qiziqarli voqealar tasvirlangan. Ana shu hikoyani o‘quvchilardan mazmunini bo‘lib – bo‘lib so‘rash orqali “Davomi kimda” o‘yinidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana xuddi shu darslikda keltirilgan

“Qora oltin” matnini va “Qish ro‘moli” hikoyasining mazmuni bilan ishlashda ham bu o‘yindan foydalanish ancha samara beradi.

“Daraxtga yordam” metodi - 2 ta daraxtning biriga to‘g‘ri fikrlarni, ikkinchisiga noto‘g‘ri fikrlar yozilgan sariq rangli barglarni yopishtirib kuz faslini namoyon qilishadi. Ya‘ni buni har bir faslga moslashtirish yoki o‘qish darslaridagi hikoyalarni tahlil qilishda foydalanish mumkin. O‘qituvchi shu faslga mos rangdagi rangli barglarga o‘tilgan mavzularga mos ravishda ma‘lumotlarni tayyorlab qo‘yadi. Bu o‘yinni guruh bo‘lib o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 2 guruh o‘quvchilariga o‘rtada aralash holatda berilgan ma‘lumotlar daraxtga yordam o‘yini orqali o‘z barglarini ajratib qo‘yishiga yordam beradi. Bu o‘yinni biz darsning mustahkamlash bosqichlarida va takrorlash darslarida amalga oshirishimiz mumkin.


“Sirli so‘z” metodi

Bunda sirli katakchalarda turli so‘zlar beriladi. O‘quvchilar esa sirli katakchalarda bir xil so‘z necha marta yozilganligini topishlari kerak bo‘ladi. Sirli so‘zni eng ko‘p topgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida “sirli so‘z” o‘yinidan foydalanish o‘quvchilarga boshqotirmalarni hal etishdagi dastlabki ma‘lumotlarni beradi va ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

“Test” metodi


Bunda o‘tilgan mavzular yuzasidan variantli savollar beriladi. Bolalar chorak oxirida yoki yil oxirida bilimlarini sinash uchun qo‘llaniladi. Bu metod asosan boshlag‘ich sinlarda har chorak oxirida qo‘llaniladi. Yopiq testlar va ochiq testlar kabi turlaridan foydalaniladi.

O‘qish savodxonligi darslarida bilimlarni baholashda qo‘llaniladigan usullarning natijalari o‘quvchilarning tushunish, tanqidiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalariga oid qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Yuqorida keltirilgan baholash usullardan tajriba - sinovida 26 nafar o‘quvchilarda o‘tkazib ko‘rdik. Shundan 15 nafari 5 baho, 6 nafari 4 baho , 5 nafar o‘quvchi 3 baho oldilar. O‘qish darslarida formative baholashda olingan “Mazmunini moslashtirish” metodi jarayonida o‘quvchilarning samaradorligi 90%ni tashkil etdi. Bunda ko‘rinadi “Mazmunini moslashtirish” metodi qayta ikkinchi marta o‘tkizganda tinglab tushunish va o‘qib tushunish malakari o‘sganligini guvoh bo‘lishimiz mumkin.



1-jadval Mazmunini moslashtirish metodi natijasi. Respondent 26

“Test” metodi. Bu tajriba-sinovni o‘quvchilarda sinab ko‘rdik. Summativ baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘quvchilarning muvaffaqiyati, motivatsiyasi va bir chorakda olgan bilimlarini tekshirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada o‘quvchilarni baholash, o‘zlarini o‘zlari baholash malakasi rivojlandi. Bunda 20 nafar o‘quvchi 5 baho, 4 nafar o‘quvchi 4 baho va 2 nafar o‘quvchilar o‘zlarini o‘zlari 3 baho oldilar. Natijasini quyidagi diagrammalari orqali ko‘rish mumkin.



2- jadval Test metodini 1 chorak oxiridagi natijalari. Respondent 26³

Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, O‘quvchilar chorak oxiridagi natijalari asosida summative baholandi. O‘quvchilarni bilimini mustahkamlash va baholashda o‘qituvchini ham, o‘quvchini ham ahamiyati katta.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish darslarida samarali baholash ko‘p qirrali, dinamik va inklyuziv bo‘lishi kerak. O‘qish malakasining ko‘p qirrali xususiyatini aks ettiruvchi turli baholash usullarini birlashtirib, o‘qituvchilar o‘quvchilarning qobiliyatlari haqida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘lishlari va o‘qishga bo‘lgan muhabbat va umrbod savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi boyitilgan o‘quv tajribalarini yaratishlari mumkin.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarining qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o‘zlashtirilishi aniq, ravshan bo‘ladi. Bu ta‘lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta‘lim oluvchiga ham ta‘lim jarayonida qaysi o‘quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani ma‘lum bo‘ladi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ta‘lim oluvchilarning o‘qishga, o‘z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug‘iladi. Baholash hamisha ta‘lim oluvchining shaxs sifatida o‘ziga nisbatan muayyan bir munosabatini

³ Muallif ishlamasi

hosil qiladi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining o’ziga nisbatan munosabatini, tuyg’ularini, uning xarakteridagi irodalilik, sinfdoshlari bilan hamkorlik, o’zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e’tibor qaratishi lozim bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
2. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
4. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
5. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 188–193. Retrieved from
6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from
7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

XALQARO PISA TESTINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI**Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**

Qo‘qon universiteti dotsenti (PhD)

Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi

Qo‘qon universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

odilovamaxliyo04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada alqaro PISA testi 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish bo‘yicha malakasini baholash uchun standartlashtirilgan mezonni taklif qilish orqali global ta‘limni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Taqqoslashdan tashqari, u ta‘lim sohasidagi islohotlar uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi, mamlakatlarni o‘z faoliyati haqida fikr yuritishga undaydi va dalillarga asoslangan yaxshilanishlarni ilhomlantiradi. Sinovning innovatsion ta‘siri butun dunyo bo‘ylab samarali o‘qitish metodologiyalarini qabul qilishga yordam beradi. Global hamkorlik uchun dinamik vosita sifatida PISA ta‘lim sohasidagi mukammallikka, global miqyosda raqobat, islohotlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga jamoaviy sadoqatni ta‘minlaydi.

Kalit so‘zlar: PISA, ta‘lim, raqobat, tendentsiya, ta‘lim samaradorligi, baholash.

Misli ko‘rilmagan bog‘liqlik va o‘zaro bog‘liqlik bilan ajralib turadigan davrda global miqyosda ta‘lim tizimlarini har tomonlama tushunish zarurati hech qachon muhim bo‘lmagan. Xalqaro Talabalarni Baholash Dasturi (PISA) bu maqsadda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘lib, davlatlar o‘z ta‘lim amaliyotlari samaradorligini o‘lchashlari va yaxshilashlari mumkin bo‘lgan noyob ob‘yektivni taklif etadi. Ushbu insho xalqaro PISAning ko‘p qirrali ahamiyatini o‘rganadi, uning global etalon, ta‘limni isloh qilish katalizatori va o‘qitish metodologiyasidagi innovatsiyalarning haydovchisi sifatidagi rolini o‘rganadi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan boshqariladigan PISA shunchaki baholash emas; u butun dunyo bo‘ylab ta‘lim yutuqlari uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. PISA 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish bo‘yicha malakasini baholash orqali mamlakatlar bo‘ylab ta‘lim tizimlarining qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Ushbu global taqqoslash turli mamlakatlarning nisbiy kuchli va zaif tomonlari haqida tushuncha beradi va madaniyatlararo ta‘lim va hamkorlik uchun platformani rivojlantiradi.

Bundan tashqari, xalqaro PISA natijalari ta‘lim islohoti uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatlar o‘z faoliyati haqida o‘ylashga va boshqalarning muvaffaqiyat hikoyalaridan ilhom olishga majbur. Qiyosiy ma‘lumotlar nafaqat takomillashtirishga muhtoj bo‘lgan sohalarni ta‘kidlabgina qolmay, balki muvaffaqiyatli ta‘lim natijalariga hissa qo‘shadigan samarali strategiya va siyosatlarini ham namoyish etadi. Binobarin, davlatlar o‘z ta‘lim tizimlarining sifati va dolzarbligini oshirish uchun dalillarga asoslangan islohotlarni moslashtirishi va amalga oshirishi mumkin.

Xalqaro PISA o‘zining etalon va katalizator rolidan tashqari, o‘qitish metodologiyasidagi innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini aniqlash orqali o‘qituvchilar va siyosatchilar pedagogik yondashuvlarga global nuqtai nazarni

qo‘llashlari mumkin. Ushbu fikr almashuvi butun dunyo bo‘ylab talabalarning ta‘lim tajribasini boyitib, madaniy chegaralardan oshib ketadigan innovatsion o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni rag‘batlantiradi.

Xalqaro PISA ning ta‘limdagi ahamiyati uning shunchaki imtihon sifatidagi rovidan ham ustundir; u butun dunyo bo‘ylab ta‘lim landshaftlarini baholash va shakllantirish uchun keng qamrovli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning muhimligining asosiy jihatlaridan biri uning global etalon sifatidagi vazifasidadir, bu mas‘uliyat hissini uyg‘otadi va davlatlarga xalqaro ta‘lim maydonidagi nisbiy mavqegini baholash imkonini beradi. PISA ning qiyosiy tabiati mamlakatlarga o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish bo‘yicha malakalarini standartlashtirilgan o‘lchovini taqdim etish orqali o‘z ta‘lim tizimlari samaradorligini baholash imkonini beradi.

15 yoshli o‘quvchilarning qobiliyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali PISA ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasidagi tendentsiyalar, naqshlar va nomutanosibliklarni aniqlash uchun qimmatli vositaga aylanadi. Millatlar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari, qayerda ustunlik qilishlari va qayerda yaxshilanishlar zarurligini tushunishlari mumkin. Ushbu global taqqoslash nafaqat o‘z-o‘zini aks ettirishni osonlashtiradi, balki sog‘lom raqobatni rag‘batlantiradi, mamlakatlarni ta‘limda doimiy takomillashtirish va mukammallikka intilishga undaydi. Siyosatchilar va o‘qituvchilar uchun PISA ning taqqoslash jihati kompas bo‘lib xizmat qiladi va ularning sa‘y-harakatlarini global standartlar va ilg‘or tajribalarga moslashtirishga yo‘naltiradi.

Bundan tashqari, PISA ning ta‘lim sohasidagi islohotlarni rag‘batlantirishdagi katalitik rolini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Mamlakatlar o‘zlarining PISA natijalarini o‘rganar ekan, ular ta‘lim samaradorligiga hissa qo‘shadigan omillar haqida qimmatli tushunchalarga ega bo‘lishadi. O‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitish metodologiyasi yoki resurslarni taqsimlash bo‘ladimi, PISA diagnostika vositasi bo‘lib, e‘tibor talab qilinadigan sohalarni aniqlaydi. Ushbu introspektsiya ko‘pincha siyosatchilarni boshqa mamlakatlardagi muvaffaqiyatli modellardan ilhom olib, dalillarga asoslangan islohotlarni boshlashga undaydi.

Bundan tashqari, PISA tomonidan yaratilgan qiyosiy ma‘lumotlar mamlakatlarga bir-birining muvaffaqiyati va muammolaridan saboq olish imkonini beradi. Muayyan sohada muvaffaqiyat qozongan millat boshqalar uchun ilhom manbai bo‘lib, ilg‘or tajriba almashishni rag‘batlantiradi. Misol uchun, agar biror mamlakat ilm-fan bo‘yicha doimiy ravishda yuqori ballga erishsa, boshqa davlatlar shunga o‘xshash strategiyalarni moslashtirish va amalga oshirish uchun uning ta‘lim siyosati, o‘qitish usullari va o‘quv dasturlarini o‘rganishi mumkin. Ushbu bilimlarni uzatish samarali o‘qitish amaliyotining doimiy evolyutsiyasiga hissa qo‘shadigan ta‘lim innovatsiyalarining dinamik, global tarmog‘ini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, xalqaro PISA innovatsion salohiyati taqqoslash va islohotdan tashqarida; u o‘qitish metodologiyasidagi yutuqlarni faol ravishda boshqaradi. PISA tomonidan taqdim etilgan madaniyatlararo tahlil o‘qituvchilar va siyosatchilarga o‘qitish va o‘rganishga turlicha yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi. Turli mamlakatlarda qo‘llaniladigan muvaffaqiyatli strategiyalarni o‘rganish orqali o‘qituvchilar o‘z nuqtai nazarlarini kengaytirishlari va innovatsion pedagogik usullarni qo‘llashlari mumkin. Bu fikr almashuvi geografik va madaniy chegaralardan tashqariga chiqadigan yangi va samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish katalizatoriga aylanadi.

Aslini olganda, xalqaro PISA global hamkorlik va o‘rganish uchun dinamik markazga aylanadi. U o‘z-o‘zini anglashni rag‘batlantirish, sog‘lom raqobatni rag‘batlantirish, dalillarga asoslangan islohotlarni ilhomlantirish va innovatsion o‘qitish uslublari almashinuvini rag‘batlantirish orqali xalqlarni ta‘lim sohasidagi yuksaklikka undaydi. Dunyo tobora o‘zaro bog‘lanib borar ekan, ta‘lim kelajagini shakllantirishda bunday vositaning ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Bu butun dunyo bo‘ylab talabalar XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlar bilan jihozlanishini ta‘minlab, global miqyosda sifatli ta‘limni ta‘minlash bo‘yicha jamoaviy majburiyatning isboti bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) ta‘limda mukammallikka intilishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ko‘p qirrali ahamiyati global etalonni ta‘minlashdan ta‘lim islohotlarini jadallashtirish va o‘qitish metodologiyasida innovatsiyalarni rag‘batlantirishgacha. PISA ko‘zgu vazifasini o‘taydi va o‘quvchilarning asosiy fanlar bo‘yicha malakasining standartlashtirilgan o‘lchovini taklif qilish orqali mamlakatlarga o‘z ta‘lim darajasi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Ushbu taqqoslash nafaqat mas‘uliyat hissini uyg‘otadi, balki butun dunyo bo‘ylab ta‘lim tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirishga turtki bo‘lgan davlatlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rag‘batlantiradi.

PISA ning ta‘lim sohasidagi islohotlarni rag‘batlantirishdagi katalitik rolini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Mamlakatlar o‘zlarining PISA natijalarini o‘rganar ekan, ularning ta‘lim samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar haqida qimmatli tushunchalarga ega bo‘lishadi. Ushbu introspektsiya ko‘pincha boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli modellardan ilhom olib, dalillarga asoslangan islohotlar uchun tramplin bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, PISA mamlakatlarni ta‘lim siyosati, metodologiyasi va resurslarni taqsimlashda takomillashtirishga undaydigan dinamik kuchga aylanadi.

Bundan tashqari, xalqaro PISA global hamkorlik va ilg‘or tajriba almashish uchun katalizator hisoblanadi. Davlatlar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari bilan ular ta‘lim innovatsiyalarining global tarmog‘ida ham hissa qo‘shuvchilar, ham foyda oluvchilarga aylanishadi. Muvaffaqiyat hikoyalari o‘xshatishni ilhomlantiradi va chegaralardan oshib ketadigan g‘oyalarning madaniyatlararo urug‘lanishiga olib keladi. Ushbu hamkorlik ruhi davlatlar bir-birining yutuqlari va muammolaridan saboq oladigan, global miqyosda samarali o‘qitish amaliyoti evolyutsiyasiga hissa qo‘shadigan dinamik muhitni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, PISA ta‘siri siyosat va islohotlar doirasidan tashqariga chiqadi; u o‘qitish metodikasining kelajagini faol ravishda shakllantiradi. PISA tomonidan olib boriladigan madaniyatlararo tahlil o‘qituvchilar va siyosatchilarga ta‘limga turlicha yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi. Turli mamlakatlarda qo‘llaniladigan muvaffaqiyatli strategiyalardan o‘rganish orqali o‘qituvchilar global miqyosda talabalarning o‘rganish tajribasini yaxshilaydigan innovatsion o‘qitish usullarini moslashtirishi va joriy etishi mumkin.

Aslini olganda, PISA dunyoning o‘zaro bog‘liqligi va sifatli ta‘limni ta‘minlashga qaratilgan jamoaviy majburiyatning dalilidir. U doimiy takomillashtirish, hamkorlik va innovatsiyalar muhitini qo‘llab-quvvatlovchi mamlakatlarga o‘zlarining ta‘lim landshaftlarining murakkabliklarida harakat qilishlari uchun yo‘l xaritasini taklif qiladi. 21-asrda olg‘a

intilayotganimizda, ta'limning kelajagini shakllantirishda PISA ahamiyati beqiyos bo'lib qolmoqda va ta'limda mukammallikka erishish uchun global izlanishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O'RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 113-118.
2. Maxliyoxon, O., & Marifatxon, A. (2024). BADIY O 'QISH VA DRAMA FANINING BOSHLANG 'ICH TA'LIMDAGI O'RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 104-108.
3. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). THE ROLE OF WTO IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 140-148.
4. Maxliyoxon, O., & Shaxrizoda, M. (2024). SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI ORQALI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 41-46.
5. Gulruh, M., & Maxliyoxon, O. (2024). BOSHLANG 'CH TA'LIMDA BADIY O 'QISH VA ONA TILINI O 'QITISH USULLARI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 29-34.
6. Mahliyo, R. Z., & Maxliyoxon, O. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AKTYORLIK QOBILİYATINI RIVOJLANTIRISH. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 109-112.
7. Axadjon o'g'li, A. A., & Maxliyoxon, O. D. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.
8. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O 'RNI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 806-808.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 581-583.
10. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
11. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
- 12.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISH OLIB BORISH
USULLARI****Kalendarova Zarafshan Kalbaevna**

“Ta’lim” kafedrasida katta o’qituvchisi

Ummatullaeva Muslima

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda insoniyat bilim, ko’nikma va ijtimoiy jarayonlar natijasida davlat ta’lim standartlariga asosan boshlang’ich ta’limda tarbiyasi og’ir bolalar bilan ishlashga bo’lgan e’tibor va tarbiya sohasidagi ulkan mas’uliyatlarni his etgan holda, tadqiqotimizning asosiy maqsadi boshlang’ich ta’limda tarbiyasi og’ir bolalarni ijodiy faoliyatlarga har tomonlama jalb etish, ulardagi yashirin va o’ziga xos qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda ko’maklashish, qiziqishlarini yanada oshirish, rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlash haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Oila va maktab hamkorligi, ta’lim va tarbiyadagi uyg’unlik, jamoaviy tarbiya, tarbiyadagi muhim unsurlar, pedagogik-psixologik va axloqiy tarbiya usullari, tarbiya qonuniyatlari va qoidalari, tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Kirish:

Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilganidir. Boshlang’ich maktabdayoq bolaning tarbiyasiga e’tiborli bo’lish talab qilinishining sababi, bola shu davrda olgan ko’nikmasini hayoti davomida qo’llaydi. O’z-o’zidan ko’rinib turibdiki, tarbiyasi og’ir bolalar bilan kichik yoshdayoq yetarlicha shug’ullanilmasa muammoli vaziyatlarga yechim topishi yanada qiyinroq kechadi. Va afsuski O’zbekistonda rivojlangan mamlakatlarga qaraganda hali hamon ta’lim yo’nalishida tarbiyasi qiyin o’quvchilar bilan ishlash uchun inklyuziv ta’lim strategiyasi tuzilmaganligi aniqlandi.

Undan tashqari hozirgi kundagi vaziyatni bilish maqsadida Toshkent viloyatida joylashgan 42 sonli umumta’lim maktabida faoliyat olib borayotgan o’qituvchi Irina Nikolayevna bilan suhbat olib borganimizda, u o’z suhbatida farzandlar tarbiyalashda ota-onalarning roli pasayib borayotganligini, aksar ota-onalar ushbu muammo va holatlarga mutlaq befarqligi, bunday holatlarda pedagoglar ancha muammolarga duch kelishini aytib o’tdi.

Irina Nikolayevna ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash tizimini yaratilish, mavjud holatlarda uni yanada takomilashtirilish maqsadga muvofiq bo’ladi va pedagogik nuqtai nazaridan har bir pedagog bolaning salohiyatini, qobilyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holatda ularga so’z erkinligini berish kerakligini alohida ta’kidlab o’tdi. Suhbatimizdan ma’lumki tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda nafaqat o’qituvchi, o’quvchi balki ota-onaning o’rni juda katta.

Shu o’rinda mamlakatimizda tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash yo’lida qo’llanilayotgan uslublarga ko’ra tarbiyachi tegishli qoida va talablarga qanday rioya qilish zarurligini bolalarga ko’rsatadi va tushuntiradi. Tarbiyachining bolaga tushuntirishi va uqtirishi amaliy natijalarga erishishida muhim o’rin tutadi. Chunki boshlang’ich sinfdagi bolaga tarbiyaviy unsurlarni uqtirish

osonroq kechadi, shuningdek bu yoshda bolalar ko‘rsatilgan axloqiy na‘munalarga rioya qiladilar. Masalan, oilada ota-ona, aka-opalarni hurmat qilish, kattalarga gapirganda sizlash va hurmat qilish, ularning gapiga quloq solish kabi unsurlar bolaga uqtiriladi. Yana shunga e‘tibor qaratishimiz kerakki, boshlang‘ich sinf bolasiqa oila doirasida tushuntirish bolada avvalo unib-o‘sgan muhitida voqelikka yoki biror hatti-harakatga to‘g‘ri baho berish, ongli munosabatda bo‘lishini shakllantirishga yordam beradi.

Qoida va talablar fakt va misollar orqali tushuntirilsa, ularni bolalar ravshan anglab oladilar va onglariga chuqurroq singdiradi. Natijada bu qoida va talablar bolaning kundalik hayot tarziga aylanadi. Tarbiyachi esa bolaga voqea-hodisalarni tushuntirish orqali ularning tevarak-atrofdagi voqeiklarni va munosabatlarni to‘g‘ri baholay olishlariga ham yaqindan ko‘maklashadi.

Asosiysi, tarbiya usullari – o‘qituvchi-tarbiyachining o‘quvchiga ta‘sir ko‘rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, aniqrog‘i, tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta‘sir etishdir.

Maktablarda bolalarga nisbatan ba‘zan “tarbiyasi qiyin bola” jumlasini ishlatiladi. Tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko‘pgina holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilari ro‘yxatida hisobga olingan yoki olinmagan, giyohvandlik va spirtli ichimlikka ruju qo‘ygan, o‘g‘rilik va bezorilikka moyil o‘quvchilar ham nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinflarida o‘qiydigan bolalar orasida bu ehtimol tabiiyki, kamroq uchraydi. Shu bois endigina unib borayotgan niholni to‘g‘ri o‘sishiga ko‘maklashish, vaqtida tarbiyasiga e‘tibor qaratish lozim. Kuzatishlardan ma‘lum bo‘lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta‘sirirlarga qarshilik ko‘rsatadi, ularning xulqida o‘zini biz xohlaganday tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Bolaning o‘sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin va o‘qish faoliyati, bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar bolalarning hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bolalarning bunday xilma-xil faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish, uni yaxshi alohida sifatlar, xarakter xislatlari, yaxshi odatlar tarkib toptirishga qaratish tarbiyaning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Tarbiyasi og‘ir bolalarga esa bu usullar yanada ko‘proq qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Hulosa qilib aytganimizda ilg‘or o‘qituvchilar tajribasining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo‘ladi va muvaffaqiyatga erishiladi. Nosog‘lom oila muhitida voyaga yetgan yoki ota-onasidan yomon tarbiya ko‘rgan tarbiyasi og‘ir bolada ham his-tuyg‘ular mujassam bo‘ladi. Bunday bola mehrga, e‘tiborga muhtojdir. Shuni hisobga olib, bolaning oilasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ota-onasining qarashlarini o‘zgartirish, bolaning atrofida do‘stlarni ko‘paytirish, uni ma‘nan qo‘llab-quvvatlab turish ham bola tarbiyasiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон” -2017 йил.14 январь.104 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: “Ўзбекистон” 2016
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш- юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон” 7 декабрь 2016 йил. ЎзРес конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси.
4. Мунавваров А.Қ. Оила педагогикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. -127-бет.
5. А.В. Прялухина, И.Б. Храпенко. “Трудные дети: актуальные проблемы и возможности профилактики деструктивного поведения”. УДК 316.624. Казанский педагогический журнал №3, 2019.
6. Данилова Л. Н. Культурологические основания педагогического взаимодействия в школах Японии // Педагогический ИМИДЖ. 2022. Т. 16. № 3 (56). С. 248–260. DOI: <https://doi.org/10.32343/2409-5052-2022-16-3-248-260>
7. Halovat Baxtiyrovna Ismatova. “Tarbiyasi qiyin va bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning metodik imkoniyatlari”. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016 Page 1017. 2022.
8. G.Eshchanova (2023). SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION: DISTINCTIVE CHARACTERISTICS. Science and innovation, 2 (B3), 2023. 333-337. doi: 10.5281/zenodo.7764475.
9. Календарова. “Primary education – the foundation of general secondary and higher education”. Journal theoretical & applied science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2022 Issue: 06 Vol. 110. SOI: 1.1/TAS DOI:10.15863/TAS. Morocco.
10. Календарова З.К. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference (13 December, 2023). Part 24 – 234p. <https---interonconf.org-index.php-ity-article-view-10125-8553>.
11. Ganiyeva, Muborak. "Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишга доир баъзи мулоҳазалар." *Архив научных исследований* (2019).
 1. Ganiyeva, M. (2019). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишга доир баъзи мулоҳазалар. *Архив научных исследований*.
12. Ганиева, М. А. "Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии." *Наука и современность* 22 (2013): 179-181.
 2. Ганиева, М. А. (2013). Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии. *Наука и современность*, (22), 179-181.
13. Ganiyeva, Muborak. "Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари." *Архив научных исследований* (2020).

3. Ganiyeva, M. (2020). Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари. *Архив научных исследований*.
14. Ganiyeva, Muborak. "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола." *Архив научных исследований* (2019).
4. Ganiyeva, M. (2019). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола. *Архив научных исследований*.
5. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
6. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
7. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
8. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
9. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
10. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
11. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
12. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA BILISH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH”**Kalendarova Zarafshan Kalbaevna**

“Ta‘lim” kafedrası katta o‘quvchisi

Raximova Komila Odiljon qizi

Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida bilish qobiliyatini rivojlantirish masalalari va bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar, o‘quvchilarda bilish qobiliyatini rivojlantirishda o‘quvchilar diqqatini jalb qilish va o‘quvchilarni individual muammolarini aniqlash va bartaraf qilish, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratish, shuningdek maktab yoshidagi bolalarning ixtiyoriy ongli diqqati o‘qish motivlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, o‘qituvchi, didaktik o‘yinlar, tarqatma materiallar, metodika, o‘qish motivlari, ta‘lim, bilish shakllari, hissiyot, sezgi, idrok, xotira, xayol, tasavvur, tafakkur, belgi, ko‘nikma, malaka, qobiliyat, metod.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, ularning tajribalarini o‘rganish, shu bilan bir qatorda hayotning barcha sohalarida yangidan-yangi yutuqlarga erishish bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichi uzluksiz ta‘lim tizimi oldiga yosh avlodni har jihatdan barkamol etib tarbiyalash vazifasini qo‘ymokda. Uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri bo‘lgan - boshlang‘ich ta‘lim muhim o‘rin tutadi. Binobarin, mazkur bosqichda o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni puxta va chuqur o‘rgatish ularning tafakkurini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois respublikamiz rahbariyati boshlang‘ich ta‘lim mazmunini takomillashtirish, uni ilg‘or g‘oyalar bilan boyitish, bu davrda o‘quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkon beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda joriy etilgan uzluksiz ta‘lim tizimida olib borilayotgan ijobiy ishlar yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da yetarlicha qayd etilgan.

Kelajagimiz vorislari bo‘lgan yoshlarni komil inson sifatida shakillanishlari uchun umuminsoniy va milliy madaniy qadiryatlardan unumli foydalanish, ularni yangi innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish lozim ekanligi qayd etilmoqda. Ta‘lim muassasalari, o‘qtuvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo‘lib, ularni amalyotga joriy etish orqali ta‘lim va tarbiya texnologiyasini takomillashtirishni, ta‘lim olish uzluksizligini puxta va ixcham tizim sifatida ishlashni taminlash mumkin.

Bunda ayniqsa, ta‘lim tizimi tarbiyalanuvchilarining jismoniy, axloqiy va aqliy yetukligini ta‘minlash vositalariga alohida e‘tibor qaratish zarur. Shuning uchun bilim olish, kasbiy tayyorgarlik ta‘limining ham ob‘yekti, ham sub‘yekti hisoblanmish o‘quvchidan mustaqil

tafakkurni va aqliy faollikni talab qiladi. Har qanday o‘quv-tarbiyaviy jarayon ota-onalar, o‘qtuvchi hamda o‘quvchilar munosabatini ifodalovchi murakkab pedagogik tizim hisoblanadi.¹

“O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”²gi PF-5712-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”³gi PF-6097-sonli, 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”⁴gi PF-134-sonli Farmonlari hamda 2019-yil 31-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵gi 1059-sonli qarorida keltirilgan vazifalar hamda ilg‘or xorijiy tajribalarning yurtimizga olib kelinishi, mahalliyashtirilishi va tatbiq qilinishida ko‘rishimiz mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish qobiliyatini rivojlantirishda ham bir qator tamoyillarga amal qilinadi. Muayyan o‘quv vaziyatlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan tamoyillar o‘qitish metodlari kabi o‘quv vaziyatining o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi lozim. Muayyan tamoyillar va metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantiruvchi bilish mayllari va yo‘naltiruvchi kuchlarni namoyon qilishda muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, mantiqiy va hisoblashga oid topshiriqlarni namunaga qarab yoki ijodiy tarzda yechadilar.

Ko‘rgazmali metodlar qisman izlanuvchanlikni ta‘minlash xarakteriga ega bo‘ladi. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilar ishiga rahbarlik qiladi. O‘quvchilarning ishlarini shu tarzda tashkil etish natijasida ular topshiriqlarning bir qismini o‘zlari mustaqil izlab topgan holda bajaradilar.

Amaliy metodlar ham qisman izlanuvchanlik va ko‘rgazmalilik xarakteriga ega. Bunday vazifalar o‘quvchilar muammoli topshiriqlarni yechib, bilimlarni qisman mustaqil izlanish yo‘li bilan egallaydilar. Ular o‘z tajribalarini har tomonlama muhokama qilish orqali ham yangi axborotlarni o‘zlashtiradilar.

O‘quvchilarning bilish faoliyatlari tarkibi quyidagilarni o‘zida birlashtiradi: bilish faoliyatining alohida ko‘rinishlari, o‘zaro bog‘langanligi; muayyan darajada uyg‘unlashgan o‘quv harakatlarining bajarilishi; bilish faoliyatini yaxlit tarzda bajarish imkonini berishi; o‘quv operatsiyalari harakatlarni bajarish usuli ekanligi kabilar.

O‘quvchilarni umumlashgan ko‘nikmalarni egallashga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi – ularda xususiy xarakterdagi o‘quv-bilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur yondashuvdan kelib chiqqan holda umumlashgan bilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni quyidagi bosqichlarda amalga oshirdik:

1. O‘quvchilarda xususiy ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, jumladan, so‘zlardan o‘z o‘rnida foydalana olish, so‘zlardan gaplar, gaplardan matn tuzish, tez o‘qish, ifodali o‘qish kabi.
2. O‘quvchilarni faoliyatning ilmiy asoslari bilan tanishtirish.

1 M. Q. Raxmanova Chirchiq davlat pedagogika instituti p.f.f.d.(PhD) S. G‘. Umrzoqov Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti lazizbek 9400@mail.ru

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. (<https://lex.uz/docs/-4312785>)

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son. (<https://lex.uz/docs/-5073447>)

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son. (<https://lex.uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000>)

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son. (<https://lex.uz/docs/-4676839>)

3. O‘quvchilarni faoliyatning tarkibi bilan tanishtirish.
4. O‘quvchilar o‘quv vaziyatlarida bajaradigan o‘quv harakatlari va operatsiyalari izchilligini mustaqil tarzda aniqlashlari.
5. O‘quvchilarda o‘z bilish faoliyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmasining shakllanishi.

O‘quv vaziyatlarini muayyan turlarga ajratishda asos bo‘ladigan holat o‘quv topshiriqlarining turlari va murakkablik darajasidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish qobiliyatini rivojlantirishda faol va passiv o‘quv vaziyatlari, uzoq va yaqin vaqtda amalga oshiriladigan vaziyatlar, hamkorlik asosidagi vaziyatlar hamda maqsad va vazifalarni aniqlashtirib olish muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bilish qobiliyatlarini o‘rganishdagi faoliyat nuqtai nazaridan yondashuv shuni ko‘rsatadiki, bolalarda bilish qobiliyatini rivojlantirish da amaliyotning o‘rni g‘oyat muhim. Chunki amaliyot voqelikni hissiy aks ettirish sohasini kengaytirishni taqozo qiladi. Misol uchun bolaning ranglarni farqlashi, deylik, osmonning ko‘k rangda, bulutning oq rangda, gulning qizil yoki pushti, sariq yoki ko‘k rangda bo‘lishini, predmetning sifat va xususiyatlarini ajratish va farqlashida avvalo, o‘qituvchining ko‘magi va o‘rni ahamiyatlidir. Bola buni farqiga bordimi, unda amaliyot rivojlanadi va hissiy bilish orqali taassurotlar uyg‘onadi. Bularning barchasini bilishi bolada amaliyot qancha ko‘p bo‘lsa, u shunchalik ko‘p hissiy taassurot olishini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712 Фармони.
2. Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5538-сон фармони. Тошкент. 2018 йил 5 сентябрь. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.09.2018 й., 06/18/5538/1840-сон).
4. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизимига бошқаришнинг янги принципларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-3931-сон қарори.
5. М.Б.Гурьянова. «Развитие познавательных способностей у обучающихся младшего школьного возраста.», МБОУ «СОШ №1 г. Петровска Саратовской области».09.05.2017.
6. Kalendarova Zaravshan Kalbaevna. PRIMARY EDUCATION - THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. Kokand University "Education" Senior

Lecturer of the Departmen. International Conference on Humanity, Education and Science
London U.K December 15th 2021 conferencezone.org . 330-332.

7. A.X.Кукубаева, А.Б.Садвакасова. “Наука и реальность / science & reality no 94 удк 373.31., формирование познавательных способностей младших школьников”, Кокшетауский университет им. Абая Мырзахметова (г. Кокшетау, Республика Казахстан) 4(8)♦2021.

8. Kalendarova Z.K. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini muammoli vaziyatlarni yaratish metodi asosida shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish nuqtai-nazaridan tahlil qilish. “Uzluksiz ta’lim tizimida “boshlang‘ich ta’lim”mazmunini sifat jihatidan yangilash :muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Guliston davlat universiteti. 2022 yil 5-noyabr. 92-96 bet UDK: 37.013 KBK: 74.0 U – 11 DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7307482>. [Zenodo](#)

9. QUALITATIVE UPDATING OF THE CONTENT OF "PRIMARY EDUCATION" IN THE SYSTEM OF CONT...

10. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "QUALITATIVE UPDATING OF THE CONTENT OF " PRIMARY EDUCATION" IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION: ...

11. Л.В.Чеботарева, Познавательные умения младших школьников / Л. В. Чеботарева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 27 (474). — С. 262-264. — URL: <https://moluch.ru/archive/474/104719/> (дата обращения: 08.01.2024).

12. J.S.Ikromjonovna. UMUMIY O ‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663. (2023).

13. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>

14. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

СТРЕМЛЕНИЕ ПОДРОСТКА К САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ

Каримов Фарход Собирович

ассистент, Джизакский политехнический институт

Аннотация: В данной статье излагаются мнения о том, что в подростковом возрасте как и всякому другому времени, присущи проблемы, трудности и противоречия. У всякого возраста есть и свои преимущества, особые достоинства, на которые можно опереться в воспитании; они заключаются в избирательной готовности, в повышенной восприимчивости, чувствительности детей разного возраста к тем или иным сторонам обучения.

Ключевые слова: подросток, воспитание, чувство, психика, восприимчивость.

Вступление в отрочество несет с собой серьезные перемены в отношении ребенка к школе, к учению. Начиная разговор об этих переменах, можно напомнить важную мысль: сила, дающая движение психическому развитию ребенка, порождается изменением его реального места в жизни.

В подростковом возрасте изменяется прежде всего условия школьной жизни – у ребенка уже не один учитель, как было в младших классах, а несколько учителей; учебный материал усложняется, по – иному идет и сама работа на уроке. Далее, значительно расширяется весь практический жизненный опыт ребенка – это касается разнообразных занятий вне школы, контактов со взрослыми и сверстниками вообще[2].

Главные трудности с подростком возникают из – за того, что его требования забегают вперед по сравнению с его жизненным опытом, с его возможностями использовать предоставляемую ему самостоятельность свой образ жизни не только в соответствии с этими возможностями, но и на опережении их. Поэтому – то взрослым приходится ограничивать самостоятельность подростка, вводя ее в какие – то берега, придавая ей реальный и разумный вид. Однако эти ограничения должны быть реальными и разумными.

Как и всякому другому времени детства, отрочеству присущи проблемы, трудности и противоречия. У всякого возраста есть и свои преимущества, особые достоинства, на которые можно опереться в воспитании; они заключаются в избирательной готовности, в повышенной восприимчивости, чувствительности, или говоря более специальным языком, в сенситивности детей разного возраста к тем или иным сторонам обучения.

Большим достоинством подростка является его готовность ко всем видам учения, учебной деятельности, которые делают его взрослым в собственных глазах. Его, привлекают самостоятельные формы работы на уроке, сложный учебный материал, возможность самому учиться, узнавать что-то новое и за пределами школы. Беда подростка в том, что эту готовность он еще не умеет воплотить в дело, он не владеет новыми способами самостоятельного овладения знаниями. Подвести его к этим способам, помочь овладеть ими, не дать им угаснуть - важная задача взрослого. Понятно, что подход к тому и

другому в том, что касается учения, не может быть одинаковым, хотя генеральный мотив - опора на тягу к самостоятельности - должен звучать и тут и там.

Подросток тяготеет к тому, что делает его в собственных глазах взрослым, что дает чувство самоуважения, столь необходимое для крепнущей личности. Но, увы, отвечающие этой тяге виды деятельности до сих пор мало еще представлены в школе, способам их выполнения не всегда учат. Возможность утверждать себя подросток ищет и находит во внешкольных занятиях, которые становятся все более привлекательными для него, чем школьные.

Нарастающее стремление подростка к самостоятельности и взрослости особенно остро не удовлетворяется тогда, когда школа использует преимущественно традиционную структуру урока[6]. У некоторых учителей универсальной формой преподнесения нового материала продолжает оставаться изложение его «в готовом виде». Создается атмосфера монотонности общения.

Но привлекают подростков не только новые формы учебной работы, требующие от них большей активности, но и более сложный учебный материал. Их огорчает и обижает, если им задают слишком простые вопросы, предлагают облегченные задачи[9]. Напротив, они оживляются, когда им самим приходится осмысливать материал, делать обобщения.

От класса к классу растет владение приемами запоминания. Поначалу запас приемов преднамеренного (произвольного) запоминания невелик, а в ряде случаев оно происходит без употребления каких – либо приемов, т.е. остается непосредственным. Но в старшем подростковом возрасте, к VIII классу, приемы запоминания становятся значительно более осознанными, разнообразными и гибкими.

И все - таки всем нам хорошо известно, что сплошь и рядом навыки самоорганизации подростков оставляют желать лучшего. Ребята далеко не всегда осознают применяемые ими приемы запоминания, их внимание нередко продолжает оставаться неустойчивым и произвольным, зависящим от того, оказался ли материал интересным для них. Анализируя и оценивая свою работу, подростки используют чаще всего самоконтроль лишь по результату или по образцу: «получилось – не получилось»[10]. А вот умения проверять себя по ходу работы не хватает. Затрудняет подростков и перспективный самоконтроль – они не всегда умеют составить общий план работы, наметить ее этапы, определить их трудность. Хотя подростки и прибегают к составлению планов, однако эти планы далеко не всегда становятся руководством к действию, оставаясь благими порывами.

Словом, в отрочестве налицо благоприятные условия для того, чтобы выработалась саморегуляция в учении: общая широкая активность подростков, готовность их включаться в самые разные дела, стремление к «взрослым» формам учения. Плохо, когда это стремление не учитывается, когда в школе и дома не поощряется поиск и выработка способов самостоятельной учебной работы, когда подросток не пополняет опыта исследовательской познавательной деятельности, когда его не учат тем приемам, с необходимостью которых он все чаще сталкивается на практике.

Сказанное определяет и другую упомянутую выше причину снижения интереса к школе, к учению – подросток не всегда получает здесь возможность самоутверждения.

Неуспех в учении может быть вызван рядом обстоятельств.

Прежде всего это может быть связано с усложнением самого учебного материала: ведь теперь надо усваивать систему научных понятий, уметь соотносить отвлеченный и конкретный материал. Не все справляются с этим новым уровнем сложности. Плохая успеваемость может быть вызвана и тем, что в предыдущем звене обучения, в начальных классах, ребенок, по сути, не научился учиться.

Подростку может стать скучно в школе еще и оттого, что стало интереснее в других местах. Это происходит тогда, когда рутинные формы школьной жизни не выдерживают в глазах подростка сравнения с другими сферами его жизнедеятельности. Ведь подросток получает возможность утверждения своей самостоятельности и взрослости вне школы, будь то спорт или коллекционирование, увлечение кино или шахматами; многие ребята занимаются в кружках, на станциях технического творчества.

Испытав за порогом школы вкус активности, самостоятельности, прикоснувшись к способам творческой деятельности, подросток еще более остро ощутит нехватку такой деятельности в школе. А при неразвитости других интересов способом самоутверждения подростка, его «борьбы за самостоятельность» может стать и становится бесцельное времяпрепровождение в компаниях сверстников.

Литература:

1. Абдувахобова Д. Взаимоотношения подростка со сверстниками: умеет ли он дружить? Innovations in technology and Science Education. 2022.
2. Кадилова М. Познавательные мотивы подростка в процессе обучения. Молодой учёный. 2015-7.-614
3. Эргашев У. Формирование умений и навыков в учебной работе. Молодой учёный.762-769.2014.
4. Кадилова М. Поведение человека в трудных ситуациях. Актуальные вопросы современной психологии. 17-20. 2017
5. Кадилова М. Особенности периода взросления подростка. Молодой ученый 2016 - 999-1002 стр.
6. Эргашев У.Э. Мотивы учения в подростковом возрасте. Молодой учёный.2015 -7.-702
7. Кадилова М. Психологические особенности обучения в процессе образования. Молодой учёный.2014. 912-914
8. Абдувахобова Д. Э. Основные принципы медиации по разрешению конфликта. Ученый 21 века.
9. Абдувахобова Д.Э. Использование ИКТ в образовании – важный фактор развития информационного общества. Экономика и социум. 386-388. 2023

10. Абдувахобова Д.Э. Использование информационно коммуникативных технологий в процессе обучения иностранным языкам. Экономика и социум 155-158. 2022
11. Абдувахобова Д.Э. Важность инновационных технологических факторов в повышении знаний студентов. ББК 81.2-5 Т-307,212
12. Зияева М.Ф. Таълим жараенида маънавий-маърифий ишларни самарали ташкил этиш йуллари, шакл, метод ва воситалари. Образование и инновационные исследования. 2021.
13. Абдувахобова Д.Э. Стремление к «взрослым» формам учения в подростковом возрасте. Gospodarka i Innowacje.2024/2/14.122-128.
14. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
15. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISHDA
TEXNLOGIYA TA‘LIMINING O‘RNI****Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Mahmudjonova Sevaraxon Dilmurod qizi

Qo‘qon universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayonda texnologiyaning o‘rni, ijodiy faoliyat, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga o‘rgatish, va uning pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, zamonaviy ta‘lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari haqida fikrlar yozilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, ta‘lim, dars, pedagogik jarayon, o‘qitish, boshlang‘ich ta‘lim, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi;

Kirish:

“Texnologiya” fani o‘quvchi hayotida muhim o‘rin egallovchi amaliy mehnat faoliyati jarayonidir. Ko‘pgina fanlar qatorida yosh avlodning har tomonlama yetuk bo‘lishi ta‘lim – tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda texnologiya fani o‘zining muhim o‘rniga ega. O‘quvchi voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim bo‘lmasin, ushbu fandan olgan bilim va ko‘nikmalari hayotda, albatta, naf keltiradi. Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy ko‘makchi va muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiya darslarining muhim ahamiyati shundaki, o‘quvchilarning ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga ko‘maklashadi, ularning tafakkurlarini rivojlantirib, o‘rganilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantiradi. Ushbu fan qiziqarli va o‘quvchilarga quvonch bag‘ishlaydi. Chunki ular bu darsda o‘z mehnatlarining natijasini ko‘radi, bajargan ishlaridan zavqlanadi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda bir qancha ijobiylikni shakllantirishga yordam beradi. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning bilim doirasi kengayadi, mehnatga bo‘lgan hurmati oshib boradi, kasb tanlashga bo‘lgan e‘tibori kuchayadi. Bu jarayonlar sodir bo‘lishi uchun esa o‘qituvchi darsni samarali tashkil qilishi va har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishi kerak bo‘ladi.

Shu o‘rinda davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida ta‘kidlaganidek: “Mamlakatimiz yuqori texnologik sohalar bo‘yicha dunyodan ortda qolib ketgan. Barcha sohalarni modernizatsiya qilish, jahon bilan hamqadam bo‘lish uchun innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etib, shunday sharoitlar yaratdik. Biz barcha harakatlarimizni va barcha urinishlarimizning samarasini ortig‘i bilan natijasini ko‘rish uchun kelajagimiz qo‘lida bo‘lgan kelajak egalariga barcha shart-sharoitlarni yaratishni uzimizga burch deb bilamiz, yoshlardan esa har bir imkoniyatning minnaddorchiligi sifatida ulkan zafarlar kutib qolamiz”. Bu shunchaki so‘zlar emas balki oldimizga qo‘yilgan ulkan vazifadir. Ushbu jumlar albatta asosli. Zamon, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda texnologiya faniga e‘tiborni kuchaytirmaslikning iloji yo‘q. Har bir ijodkorlikning dastlabki bo‘g‘ini albatta bolalikdan

boshlanadi va rivojlanish bosqichlari esa tizim asosida shakllangan ta’limiy tartibning to’g’ri qo’yilganiga bog’liq.

Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo’lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy ko’makchi va muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Bu esa o’z navbatida texnologiya fanining bola ruhiyatiga ta’siri orqali ko’rishimiz mumkin. Texnologiya darslari, uyushtiriladigan ekskursiyalar davomida o’quvchilar duradgorlik, dizaynerlik, tikuvchilik, pazandachilik kabi sohalarga oid bilimlar olib, ko’plab kasb-hunar bilan tanishadilar. Bu esa o’quvchilarni kelajak hayotlarida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo’lib yetishishlariga sabab ham bo’ladi. Shuningdek, bola kelajakda qaysi kasbni egallamasin, shu soha faoliyatiga ijodkorlik bilan yondashishga o’rganadi.

Ijod— insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajri-basi, iste’dodi namoyon bo’ladi.¹

Ijodkorlik- faoliyatning turli holatlarida paydo bo’ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo’lishidan, namoyon bo’lishigacha jarayonini o’z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo’yilmagan, hal etuvchi vosita bo’lib hisoblanmagan intilishdir.² Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy ijodiy izlanishlarga yo’llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o’z samarasini beradi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo’yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samaralidir.

O’qituvchi va o’quvchi maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashi uning ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi natijaga erishishga qaratilgan, bunda o’quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun tarqatma material, chizma, plakatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish kerak bo’ladi, Shu bilan bir qatorda o’qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o’qituvchi o’quv predmetining o’ziga xos tamoni, joy va sharoitni, o’quvchining imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyati eng asosiysi natijaviylikni hisobga olgan holda tashkil eta olishi kerak. Bunda o’qituvchiga tomonidan o’tiladigan darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi dars samaradorligini belgilab olishning muhim omilidir.

Aytish lozimki, o’quv jarayonida ijodkorlik talab etadigan topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish ijodkorlik ko’nikmalarini shakllantirishiga olib keladi. Shu bilan birga darslardagi yasash ko’rgazmali vositalar tayyorlash jarayoni ham o’quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlanishiga turtki bo’ladi. Masalan boshlang’ich sinf texnologiya darsligida Qo’ziqorin mavzusi berilgan bo’lsin. O’qituvchi bu mavzu haqida dastavval ma’lumot beradi, o’quvchilarning tushuncha va tasavvurlarini

¹ <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijod&prev=search&pto=aue>

² <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://azkurs.org/mavzu-ijodiy-faoliyat-turlari-reja-tafakkurning-mustaqilligi.html&prev=search&pto=aue>

kengaytirish maqsadida suhbat, savol-javoblar o‘tkazadi. Bir nechta mavzuga doir ish turi bilan dars jarayonini olib boradi. O‘quvchilarni mavzuga yo‘naltirib olgandan keyin, yasash jarayoniga tayyorlanadi. Aynan mana shu yasash darslarida ya‘ni amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ijodkorliklariga erishiladi.

Texnologiya fani darslarining asosiy qismini amaliy mashg‘ulotlar tashkil qiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda nazariy mashg‘ulotlarda olingan bilimlarni amalda, hayotiy tajribalar asosida mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilar ijodiy ishlaydilar, yangi g‘oya va fikrlar asosida o‘zlariga ishonch, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash sifatlari tarkib topadi.³ Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarga ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbga yo‘naltiruvchi maqsadlar singdiriladi. O‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotga yakka tartibda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan ishlashga jalb etiladi.

Texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarda buyum yasash jarayonida o‘quvchilarga badiiy loyihalash elementlarini o‘rgatish kerak.

Bular:

- rang va shaklning yaxlitligi;
- materialning shakli va birligi:
- shaklning vazifasiga mosligi:
- kompozitsiyada turli shakllarning muvofiqligi:

1. Buyumni rejalashtirish. Bu jarayonda o‘quvchilarning matematik savodxonlik va tejamkorlik sifatlari shakllanadi.

2. Buyumni yasash. Buyum yasashda amaliy jarayonlarni qonun-qoidalari asosida tushuntirish maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilarning barcha fanlardan egallagan bilimlarining amaldagi isboti kuzatiladi hamda o‘quvchilarning jarayonga qiziqishlari kuchaytiriladi.

3. Briktirish va pardozlash. Bu jarayon o‘ta muhim sanaladi. Bunda o‘quvchilar tayyorlagan buyum qismlarini estetik jihatdan zamonaviy va texnik talablarga javob beradigan qilib birlashtirishlari va bezashlari talab etiladi.⁴

O‘quvchilarga yasaladigan buyumni loyihalash va yasashga imkon berish, berilgan na‘muna asosida taqlid qilib loyihalash va yasash ham foyda beradi. Bu jarayonda o‘z ijodiy g‘oyasi asosida loyihalash va yasashga imkon tug‘iladi. Berilgan na‘muna asosida taqlid qilib loyihalash va yasash taqdim etilganda o‘quvchilar faqat shu berilgan na‘muna asosida, unga taqlid qilib buyumni yasaydilar, loyihalaydilar. Bunday usul o‘quvchi o‘rganishining dastlabki jarayonida qo‘l keladi. O‘quvchilar buyumni yasashlari jarayonida yangi g‘oya tug‘iladi va ular buyumni o‘z ijodiy g‘oyalari asosida loyihalab yasashni istaydilar. Chunki o‘quvchilarda bu buyumni o‘ziga moslab yangicha dizayn asosida yasash fikri tug‘iladi. O‘quvchilarning ijodiy g‘oyalari rivojlantirilganidan so‘ng ularga shart asosida loyihalash vazifasi berilsa bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab bosqichidagi ta‘lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, joiz bo‘lsa, ushbu davrlardayoq o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning kun tartibidagi muammo bo‘lishi darkor. Zero,

³ <https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/download/333/312>

⁴ <https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/download/333/312>

ilk bilim olish davrlarida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini takomillashtirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olish, ta‘limni samarali tashkil etishda darslarni qiziqarli tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish, yangi shakl, metod va vositalarga murojaat etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. *Science and Education*. (2021).
2. Dilova N.G. Ajdodlarimiz merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta‘limtarbiya berishning ahamiyati. *Science and Education*. (2021).
3. P.Magzumov. O‘quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari sifati. T. 1994y
4. 1-4 sinf o‘quv uslubiy tavsiya kitobi. “O‘qituvchi” nashriyoti 2017 yil.
5. qizi Abduraxmonova N. A. BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 208-211.
6. Abduraxmonova, Nigoraxon Akramali qizi. "BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12 (2023): 208-211. qizi Abduraxmonova, N. A. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.
7. Diyoraxon S., Komiljonova G. BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH // *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*. – 2023. – C. 783-785. Diyoraxon, Sobirova, and Guluzra Komiljonova. "BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH." *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 783-785. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.
8. Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li, & Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi. (2023). YOSH AVLOD KAMOLOTIDA TEXNOLOGIYA FANI VA UNING KELAJAGI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 923–926. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.760>. Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li, and Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi. "YOSH AVLOD KAMOLOTIDA TEXNOLOGIYA FANI VA UNING KELAJAGI". *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, vol. 1, no. 1, May 2023, pp. 923-6, doi:10.54613/ku.v1i1.760.
9. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from

<http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507Sadriddinova> 14. Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>

10. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.

11. qizi Komiljonova G. N. FANLARARO BOG ‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 198-201.

12. Khusnidakhon, K. (2021). The importance of enhancing social skills of preschoolers. *European Scholar Journal*, 2(3), 74-78. qizi Komiljonova, Guluzraxon Nizomjon. "FANLARARO BOG ‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12 (2023): 198-201. qizi Komiljonova, G. N. (2023). FANLARARO BOG ‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198-201.

13. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 37-42.

14. Mansurovna, X. X. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY ONGINI OSHIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 680-682.

15. Имомалиева, М. (2023). АМИРИЙ ИЖОДИДА ПАЙФАМБАРЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ТИМСОЛ-ТУШУНЧАЛАР ТАЛҚИНИ. *Interpretation and researches*, 1(1).

16. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199). Bohodirovna, Sanginova Gulnoza, and H. Usmanova. "MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION." *Conference Zone*. 2022.

17. Сангинова Г.Б. (2023). ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Экономика и социум*, (4-1 (107)), 840-846.

18. Сангинова Г.Б.. "ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ" *Экономика и социум*, no. 4-1 (107), 2023, pp. 840-846.

19. Rahmatovna, J. R. A., & Athamboyeovna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.

20. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.

21. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences* 2.2 (2024): 51-57.

22. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>
23. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
24. ST Davlatova, FS qizi Abdullayeva BOLALARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI *Educational Research in Universal Sciences* 2 (16), 819-823
25. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
26. Asilova Sanobar Xatamboiyevna. (2023). O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10429442>
27. Ganiyeva, Muborak. "Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари." *Архив научных исследований* (2020).
1. Ganiyeva, M. (2020). Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари. *Архив научных исследований*.
28. Ganiyeva, Muborak. "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола." *Архив научных исследований* (2019).
2. Ganiyeva, M. (2019). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола. *Архив научных исследований*.
29. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHY LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS". *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.
30. Maxkamov, A. Y. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING GYMNASTICS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(7), 350-355.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЯНГИ ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИ ҚЎЛЛАНИШИ**Курбонов Баходир**

“Kokand university” Андижон филиали, доцент

Кирйигитов Бахридин

“Kokand university” Андижон филиали, ассистент

Бердихўжаева Шахноза

“Kokand university” Андижон филиали, Компьютеринг инжиниринг талабаси

Аннотация. Ушбу ишда таълим жараёнида янги интерфаол усулларни амалда қўлланилиши ва уларнинг таълим самарадорлигига таъсири ҳақида маълумот берилган. Ўқув материални тушунтириш ва унинг ўзлаштирилиши мониторингини олиб бориш ҳолати ва уни қандай баҳолашни амалга ошириш тўғрисида фикрлар келтирилган.

Калит сўзлар: манба, кичик гуруҳда ишлаш, ақлий хужум, кейс-стади.

Kirish.

Таълим бериш ва унинг натижасида тайёрланган мутахассисларнинг янги авлодининг малакаси ва компетенциясининг ҳолати тўғридан-тўғри жамиятнинг иқтисодий ҳолатини белгилаб бериши маълум. Умумий ҳолда мана шу жараённи ҳаётда тадбиқ этиш учун Ўзбекистон ҳукумантининг амалий ёрдами ва кўмагини кўрсатиш доимо эътибор марказида бўлган. Бошқа томондан таълим бериш ва унинг битирувчиларининг тайёргарлик даражасини ошириб бориш асосий вазифалардан биридир.

Ҳозирги даврда касбий фаолиятини яхшилаш бўйича энг муҳим вазифалардан бири сифатида мавжуд меҳнат бозорининг талабларига жавоб беерадиган юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш, уларнинг юқори малакаали бўлишини таъминлашда ўқув жараенини тегишли тарзда шакллантириш масаласи куннинг муҳимларини бирига айланди. Таълим жараёнининг натижаси – битирувчисининги истеъмолчичиси бўлган ташкилотда ўзини яхши томондан кўрсата олиши ва жойини топиб кетишини таъминлаш мақсади бўйича ката жажмда ишлар амалга оширилган. Уларнинг ҳуқуқий асосларини ҳукумат таъминлаб берса, ташкилий томонини эса ташкилот мавжуд меҳнат бозордаги ҳолатдан келиб чиқиб танлашини вазият тақозо қилмоқда [1].

Ҳозирги кунда таълим куйидаги шаклари амалда қўлланилмоқдаб кундузги, сиртқи ва кечки. Уларнинг имконияти ва зарурий талаблари хар бўлиб дуал таълим учун хар бир таълим шакли ҳамда унинг иқтисодий шериклари ўртасидаги муносабатларга асосланиб танланади.

Соҳаси фаолият олиб бораётган ёш мутахассисларни тайёрлашдан куйидаги мақсадлар амалга оширилиши назарда тутилганди:

- меҳнат бозори талабига жавоб берадиган малакали кадрлар базасини яратиш,
- касблар соҳасида мутахассисларда янгича ёндашувни шакллантириш,
- таълим бериш жараёнига янги технологияларни кенг қўллаш,
- замоннинг талабига тезда мослашадиган мутахассисларнинг базасини шакллантириш.

Охирги йилларда дуал таълимнинг ривожланишига катта туртки бўлгани кузатилмоқда. Унинг учун куйидаги сабабларига кўрсатишимиз мумкин:

- жамиятнинг меҳнатга лаёқатли қатламининг иқтисодий фаоллигининг ортиши;
- меҳнат қилиш лойик ва истаги бор қисмининг қўшимча мутахассислик еки касбга эришиш ҳамда унинг истиқболлари яққол кўриниб қолди;
- ижтимоий ҳолатини яхшилашда бошқа касбга эга бўлиши янги имкониятларни очиб беришини англаниши намоён бўлди.

Охирги келтирилган сабаби [2] ишда жуда яхши даражада ёритилиб берилган. Унда мутассисларнинг янги авлодини тайёрлашдаги куйидаги омиллар ўрганилган: таълим бериш жараёнида қўшимча равишда янги манбаларни кенгроқ амалда қўллаш, хорижий тил малакасини юқори мутахассисларни тайёрлашига эъбор кучайиши, ахборот технологиялар бўйича яхши кўникмага эгаллиги ва унинг ишлаш жараёнидаги аҳамиятини тушунганлиги.

2015 йилдан кейинги даврда таълим тизими ва ишлаб чиқариш, қишлоқ хўжалиги, туристик фаолият олиб борувчи объектлар ўртасида узилиш мавжудлиги аён бўлиб қолди. Мана шу масала бўйича эътибор қаратилган томонларини бошқа олимла ҳам ўзининг ишларида кўрсатиб ўтишган. Таълим жараенининг сиртқи шакли ва унинг жараёнидаги муносабатларни [3] ишда ўрганиш ишларини олиб борган.

Таълим сифатини ошириш ва ўқув жараёнинг самарадорлигини янада яхшилаш мақсадида электрон манбаларнинг кенг қўламда амалда қўлланилиши ҳақида [4] ишда маълумот берилган. Ушбу ишнинг яна бир яхши томони шуки электрон манбаларни сиртқи таълим ташкил этиш жараёнида амалда фойдаланиши жуда қулай ва ижобий таъсири кўрсатилиши мумкинлиги таъкидланган.

Энди дуал таълимнинг моҳиятини кенгроқ ёритишга уриниб кўрамиз. Мутахассисларни тайёрлашнинг дуал таълим шакли деганда профессионал таълимни ташкил этишнинг маълум бил инновацион шакли тушунилади. Бунда иш берувчи ва мутахассис ўртасида куйидаги мақсадлар эрилишади:

- мутахассис зарурий малака иалабларига эга бўлиши,
- иш берувчи ва мухассис ўртасида ҳуқуқий муносабатлар ўрнатилиши.

Бошқа томондан, мана шу жараёнда дуал таълимнинг аҳамияти сифатида инсонпарварлик ва қадрият меъёрларининг тенгшлиги, компетенцияга асосланган ёндашув, касбий фаолият ва ижтимоий-касби муносабатларнинг шакллантириш ҳамда ривожлантиришни келтиришимиз ўринлидир.

Дуал таълим – таълим берувчи ташкилотлари ҳамда бозор иқтисодиёти муносабати асосида бошқа субъектлар ўртасида ўзаро муносабатларнинг тегишли ва мантиқий моделидир. Бундай таълим шаклида талабаларнинг касбий ва ижтимоий жиҳатдан корхона ёки ташкилот ходимининг ролига мослаштириш билан асосланади. Афсуски, дуал таълим модели амалга оширишда унга нисбатан ишбилармон доира вакиллари томондан салбий муносабат билдириши кузатилмоқда. Лекин хорижий мамлакатларда айнан дуал таълим орқали ташкилотлар ўзларига янги ма малакали ходимларнинг базасини яратишда катта ишлар бажарилган [1].

Тайёрланаётган мутахассисларнинг янги авлодининг малакали ва танланган касби бўйича билимларга эга бўлиши учун интерфаол дастурий таъминот билан ишлай олиши зарурлиги тўғрисида [5] ишда маълумот бериб ўтилган. Унинг таълим соҳасида фойланиш мумкин бўлган имкониятлари ва талаб шартлари тўғрисида батафсил тугунтириш берилиб ўтилган.

Энди ўқув жараеннинг самарадорлигини ошириш учун ишлатиладиган бир нечта янги педагогие технология усуллари ва уларнинг амалда фойдаланиш ҳақида маълумот бериб ўтамыз.

Кичик гуруҳда ишлаш. Бундай таълим бериш усулининг амалга оширилиши учун қуйидаги шартлар бажарилиши шарт:

- ўтиладиган фаннинг мавзуси олдиндан талабаларга маълум қилиниши,
- фойдаланадиган манбалар рўйхати ёки уларнинг электрон шаклида таъминланганлиги,
- гуруҳларнинг таркиби олдиндан бўлиниши ва уларга бериладиган мавзунинг моҳиятини қисман тушунтирилганлиги бўлиши.

Хар кичик гуруҳ ва фан ўқитувчиси белгиланган муаммо ва унинг ечимини намое қилиш учун бир-бирига ижобий жараённи ташкил этилиши талаб этилади.

Натижа: катта хажмдаги маълумот батафсил мустақил тарзда ўрганишга эришилади ва умумий маълумот узоқроқ, кенгрок талқинда ўрганишга эришилади.

Ақлий ҳужум. Бундай усулда ўрганиладиган мавзу юзасидан талабаларга аввалдан маълумотлар тақдим этилади. Муҳокама доираси дарс машхулоти вақтида кенгайтирилади. Талабаларни мавзу бўйича фикрлаш ва ўзининг қарашини асослаш орқали чуқурроқ ўзлаштириш эришилади.

Фан ўқитувчиси томонидан фаоллоқ бўлиши учун қўшича саволлар берилади.

Натижа: мавзу тўла ва кенг талқинда, бошқа фанлар кесимида батафсил ўранишга эришилади.

Жадвалли кейс. Таълим сифатини оширишда яна бир фойдали восита кейс-стадидан фойдаланиш мумкин. Айрим мамлакатларда унинг бошқа номлар остида қўлланишади. Унинг шакллари қуйидаги шаклари мавжуд: графикли, матнли (катта ва кичик хажмдаги матн) ва жадвалли.

1-жадвал

Тушунчаларнинг комплекс тарзда мазмуни ўрганиш

№	Тушунчанинг номи	1-талқин	2-талқин
1	Ресурс	АКТ да ва номга хажмга эга файл	Лойиҳани амалга учун маблағ
2	Манбанинг шакли	АКТ да дастур файли	Лойиҳани амалга ошириш молиялаштириш шакли
3	Самарадорлик даражаси	Мавзу чуқур ва кенгрок тушунишга эришилади	Ижтимоий вазиятни яхшилашга эришилади

4	Тескари алоқа	Маълумот алмашиш жараёнида тармоқ ишлаши амалга оширилади	Лойиханинг тадбиқ этиши натижасида ҳудуд аҳоли ижтимоий имконияти ошиши кузатилади
---	---------------	--	---

Келтирилган жадвал шаклида кейс топшириқ натижасида талабада АКТ ва иқтисодиёт фанидан тушунчалар пайдо бўлишига эришамиз.

Мутахассисларнинг малакали ва меҳнат бозорига талабига жавобига бериши жамиятнинг иқтисодий ривожланишини таъминлашига ижобий таъсир кўрсатади. Бу эса аҳолининг ижтимоий яшаш шароитини янада яхшилаш учун янги имкониятларни яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алхамова М.Р. Професионал таълим муассасаларида дуал шаклини амалга оширишда корхоналарнинг ҳамкорлик тамойиллари //Та’лим тизимида innovasiyalar va ularning amaliy radbirlari: muammolar va yechimlari. Respublika ilmiy konferensiyasi. Farg’ona. 2024 yil 25 yanvar. 203-209-bet.

2. Кирйигитов Б.А., Каршибаев А. Аспекты и анализ процесса подготовки специалистов – основа будущего /Вопросы науки и образования. - 2020. №7.- С.77-80.

3. Бабаев Д.Б., Хайитов Ш.К. Формирование профессиональных умений у студентов инженерных специальностей при выполнении лабораторного физического эксперимента /Научно-методические проблемы инновационного педагогического образования, 2018. 18-23

4. Юнусов О., Косимов Ш., Абдувохидов А. Электронные ресурсы в образовании: возможности, преимущество и проблемы /Ilm pugl журнаги. - 2023. Issue 6. June. - 82-86-бетлар.

5. Кирйигитов Б. Мультимедиянинг қўлланилиши //“Таълим жараенига ахборот коммуникация технологияларини тадбиқ қилиш муаммолари” мавзусидаги республика илмий ава илмий-техник анжумани материаллари тўплами. Андижон, 2017 й. 24 апрель. 2-қисм. 175-176-бетлар.

6. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

7. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

ДУАЛ ТАЪЛИМ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: АМАЛИЙ ТАЪСИР ВА ВА МУАММОЛАРИ**Кубонов Баходир**

Kokand University Андижон филиали, доцент

Кирйигитов Бахридин

Kokand University Андижон филиали, ассистент

Мухаммаджанов Шохрухбек

Kokand University Андижон филиали, Компьютер инжиниринг йўналиши талабаси

Аннотация: Ушбу ишда жамият ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро боғлиқ масалалари кўриб чиқилган. Дуал таълим ва унинг моҳияти, имконияти ва ишлаб чиқариш соҳаси билан ривожланиши учун заррурий тамойилларнинг мазмуни ёритилган. Келтирилган масала юзасидан олиб борилган илмий изланишлар ҳақида маълумот берилган. Уларнинг амалий хулосалари ва таклифлари келтирилди.

Калит сўзлар: кооперация, ўқув жараени, бозор иқтисодиёти, муносабатлар, сиртқи таълим шакли, электрон манбалар.

Kirish.

Ҳозирги даврда касбий фаолиятини яхшилаш бўйича энг муҳим вазифалардан бири сифатида мавжуд меҳнат бозорининг талабларига жавоб беерадиган юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш, уларнинг юқори малакаали бўлишини таъминлашда зқув жараенини тегишли тарзда шакллантириш масаласи муҳим бўлиб қолди. Ишлаб чиқаришнинг етакчи тармоқлари (текстил, қурилиш моллари, озиқ-овқат махсулотларини етиштириш ва қайта ишлаш, туризм ва бошқалар) ни ривожлантириш цццн малакали мутахассисларнинг базасини шакллантириш жамиятнинг иқтисодий ривожланишига ижобий тасир кўрсатинини намоён қилди ва ўзининг самарали эканлини амалда кўрсатди. [1]

Аввалги даврда сиртқи таълим шакли мавжуд бўлиб унда талабалар ишлаб янги касбга эга бўлиши ёки ҳозир фаолият олиб бораётган фаолияти бўйича таълим олиниши назарда тутилган.

Охирги йилларда манаи шу фаолиятга узоқлашган (масофавий) ёндашув қўлланила бошланди.

Автомобил йўлларга хизмат кўрсатиш соҳасида фаолият олиб бораётган ёш мутахассисларни тайёрлашдан қуйидаги мақсадлар амалга оширилиши назарда тутилганди:

- ёш малакали кадрлар базасини яратиш,
- соҳада янгича қарашни шакллантириш,
- янги технологияларни жорий этишни жадаллаштириш.

Кейинроқ кечки таълим шаклига эътиборга тушди ва унинг таълимдаги қўлларнилиши кенгайди.

Жамиятнинг ривожланишига дуал таълимнинг томонлари намоён этиш бошлагани туфайли охириги йилларда унга эътибор кучайганини кузатишимиз мумкин.

Мана шу ҳолатнинг куйидаги сабабаларига кўра фаоллашганини кўрсатишимиз мумкин:

- жамиятнинг иқтисодий фаоллигининг ортиши;
- қўшимча мутахассислик ёки касбга эришиш ва унинг истиқболлари яққол кўриниши;
- бошқа касбга эга бўлиши янги имкониятларни очиб беришини англаниши.

Охирги келтирилган сабаби [2] ишда жуда яхши даражада ёритилиб берилган. Унда мутахассисларнинг янги авлодини тайёрлашдаги куйидаги омиллар ўрганилган:

- таълим жараёнини ташкил этишда қўшимча манбаларни кенгроқ амалда қўллаш,
- хорижий тил ва ахборот технологиялар бўйича язши кўникмага эгаллиги ва аҳамияти.

2015 йилдан кейинги дврда таълим тизими ва ишлаб чқариш, қишлоқ хўжалиги, туристик фаолият олиб борувчи объектлар ўртасида узилиш мавжудлиги аён бўлиб қолди. Мана шу масала бўйича эътибор қратилайган томонларини бошқа олимла ҳам ўзининг ишларида кўрсатиб ўтишган. Масалан, Ҳайитов Шавкат Қирғиз-ўзбне университетида фаолиятини олиб боради ва илмий тадқиқотларини қайд қилинган соҳанинг муаммоларини ўрганиш ишларини олиб борган. Масалан, [3] ишида сиртқи таълимнинг самарадорлигини ошириш масаласининг ёритилишини кўришимиз мумкин:

- сиртқи таълимда ўқув жараёнини ишлаб чиқариш билан узвий боғлаш зарурлиги,
- мутахассисликларни тағлашда амалий эҳтиёждан келиб чиқиб ёндашиш.

[4] ишда таълим сифатини ошириш ва ўқув жараёнининг самарадорлигини янада яхшилаш мақсадида электрон манбаларнинг кенг қўламда амалда қўлланилиши ҳақида маълумот берилган. Ушбу ишнинг яна бир томони шуки электрон манбаларни сиртқи таълим ташкил этиш жараёнида амалда фойдаланиши жуда қулай ва ижобий таъсри кўрсатилиши мумкин.

Техникум ва корхона ўртасида мулоқотни ташкил этиш жараёнлари [5] ишда жуда яхши ёритилган. Бизнинг мамлакатда айнан шундай муносабатлар биров кечроқ фаоллашганини кузатиш мумкин. Лекин ижобий таъсир эса 2023 йилдан яққро кўзга ташлана бошлади. Унгача таълим берувчи ташкилот (техникум) ва хўжалик субъекти ўртасидаги муносабатлар деярли ўргатиламаган эди.

Энди дуал таълимнинг моҳиятини кенгроқ ёритишга уриниб кўрамиз. Мутахассисларни тайёрлашнинг дуал таълим шакли деганда профессионал таълимни ташкил этишнинг маълум бил инновацион шакли тушунилади. Бунда иш берувчи ва мутахассси ўртасида куйидаги мақсадлар эрилишади:

- мутахассис зарурий малака иалабларига эга бўлиши,
- иш берувчи ва мухассис ўртасида ҳуқуқий муносабатлар ўрнатилиши.

Бошқа томондан, мана шу жараёнда дуал таълимнинг аҳамияти сифатида инсонпарварлик ва қадрият меъёрларининг тенгишли компетенцияга асосланган ёндашув, касбий фаолият ва ижтимоий-касби муносабатларнинг шакллантириш ҳамда ривожлантиришни келтиришимиз ўринлидир.

Дуал таълим – таълим берувчи ташкилотлари ҳамда бозор иқтисодиёти муносабати асосида бошқа субъектлар ўртасида ўзаро муносабатларнинг тегишли ва мантиқий моделидир. Бундай таълим шаклида талабаларнинг касбий ва ижтимоий жиҳатдан корхона ёки ташкилот ходимининг ролига мослаштириш билан асосланади.

Афсуски, дуал таълим модели амалга оширишда унга нисбатан ишбилармон доира вакиллари томонидан салбий муносабат билдириши кузатилмоқда. Лекин хорижий мамлакатларда, айнан, дуал таълим орқали ташкилотлар ўзларига янги ма малакали ходимларнинг базасини яратишда катта ишлар амалга оширмоқда.

Германияда дуал таълим шаклининг амалий мисоли сифатида автомобилсозлик соҳасида ҳолат орқали келтиришимиз мумкин. Бундай жараён натижасида муҳандис ва ишчиларнинг касбий компетенциясини доимо ортишага эришмоқдалар ва янги авлод мутахассисларни яратишга эришмоқдалар. Дуал таълимнинг амалга оширишда қуйида келтирилган тамойилларига эътибор қаратиш керак бўлади [1].

Фаолият турлари ва шакллари эркин танлаш.

Бунда ҳар қандай хўжалик юритувчи субъектнинг ўзининг мақсадига мувофиқ фойдали ёки афзал кўрган турини амалга ошириш эътироф этади. Масалан, сиртқи ёки кечки таълим шаклини қўллаган ҳолда ўзларининг ҳодимлаини касбий малакасини оширишга эришига қаратилган ишларни амалга оширади. Бунда таълим муасасаси ва хўжалик субъекти ўртасида шериклик муносабатлари ўзаро фойдали шартларда амалга оширилади.

Нархларни эркин белгилаш.

Хизмат ёхуд маҳсулот ишлаб чиқариш ёки фаолиятни ҳаётга тадбиқ этишда нархларни эркин белгилашда ташқи чекловлар йўқ бўлиши, ҳеч ким томонидан белгиланмаслиги, балки талаб ва таклифга асосланиб натижаси сифатида бўлиши кераклигини унутмаслигимиз керак.

Рақобат.

Таълим берувчи ташкилот ва и берувчи ташкилот ўртасида, энг аввало, истеъмолчиларнинг хоҳиш-истаклари учун бозор муносабатларга таяниш лозим. Мутахассисларнинг тайёргарлик даражаси ва эришилган малакаси меҳнат бозори талабига мос ҳолда доимо ҳисобга олиб борилини талаб қилади.

Мулкчилининг турли шакллари эга бозор субъектларнинг ўзаро тенглиги.

Бу тамойил икки томонлама - дуал таълим шакли орқали таълим муасасаси ва иш берувчи ўртасида иқтисодий чекловлар, солиқлар, имтиёзлар аниқ ва шаффоф бўлиши керак. Шунингдек, мулкчиликнинг турли шакллари ва иқтисодий имкониятларига эга субъектлар ўртасида ўзаро ҳурматни шакллантиради.

Иқтисодий фаолиятини тартибга солиш.

Бозор иқтисодиётининг ўз-ўзини тартибга солишда, энг аввало, унга бошқарувнинг ҳал килувчи роли маъмурий эмаслиги, балки иқтисодий усулларига асосий урғу қаратилаганлиги билан таъминланиши назарда тутилиши – энг биринчи омил бўлишидир.

Бозорнинг универсал тамойили.

Таклиф этилаётган фаолияти тури доирасида бозор муносабатларини ўрнатишнинг мақаррарлиги, акс ҳолда икки томонлама дуал таълим ишламайди. Мана шу жараёндаги иштирокчилар ўртасида товар-пул муносабатлари кенг тарқалган. Айнан шу боорнинг универсал тамоёили моҳиятини белгилаб беради.

Жамиятнинг иқтисодий ривожланишини таъминлашда дуал таълимни имкониятини кенгроқ фойдаланиш зарур. Мутахассисларнинг бозор муносабатлар шароитида ўзларининг аниқ жойини эгаллаши ва доимий равнақ сари интилиш воситаси сифатида қарашни кенг ишбилармон вакилларига сингдириш натижасида жамиятнинг иқтисодий фаоллигини оширишга эришамиз. Бу эса аҳолининг яша шароитини янада яхшилашга асос ва имкониятларни яратиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алхамова М.Р. Професионал таълим муассасаларида дуал шаклини амалга оширишда корхооналарнинг ҳамкорлик тамойиллари //Та'лим tizimida innovasiyalar va ularning amaliy radbirlari: muammolar va yechimlari. Respublika ilmiy konferensiyasi. Farg'ona. 2024 yil 25 yanvar. 203-209-bet.
2. Кирйигитов Б.А., Каршибаев А. Аспекты и анализ процесса подготовки специалистов – основа будущего /Вопросы науки и образования. 2020.-№7. С.77-80.
3. Бабаев Д.Б., Хайитов Ш.К. Формирование профессиональных умений у студентов инженерных специальностей при выполнении лабораторного физического эксперимента /Научно-методические проблемы инновационного педагогического образования.- 2018. - 18-23
4. Юнусов О., Косимов Ш., Абдувохидов А. Электронные ресурсы в образовании: возможности, преимущество и проблемы /Ilm nuri журнали- 2023. Issie 6. June. - 82-86-бетлар.
5. Керер О.П., Пименова Н.А. Дуальное образование как условие эффективного взаимодействия техникума и предприятия. /Научно-методический электронный журнал «Профессиональное образование и рынок труда».- 2017. №18. Март. – С.1-3.
6. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

**MAKTABGACHA TA‘LIMDA BOLALARNI XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHDA INNOVATSION
USULLARDAN FOYDALANISH**

Madaminova Shohsanam Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ilk yoshidanoq xorijiy tillarni o‘zlashtirishlari bolalarga kelajakda o‘sha tilni samarali egallashlariga yordam beradi. Maqolada MTT tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning innovatsion usullari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, bola, chet tili, ilk yosh, muloqot.

Manbalardan ma‘lumki, kishilik jamiyatida insoniyat bir qator tillarni bilishga intilganlar va unga ehtiyoj sezganlar. XX asr tilshunosligining mashhur namoyandalaridan biri Yevgenit Dmitriyevich Polivanov 46 tilni mukammal bilgan, o‘zbek tili va shevalarini o‘rganib tahlil qilgan holda do‘ppi-chopon kiyib, "Men o‘zbekman, familiyam Polvonov" deb o‘zbeklar orasida o‘zbekday yurgan olim sanaladi. Yoki Jor Smit BMT sobiq bosh tarjimoni 10 dan ziyod tillarda erkin muloqot qila olgan. U har yili bir mamlakatning tilini o‘rganishga harakat qilgan. K.D. Ushinskiyning ta‘kidlashicha, chet tilida so‘zlashishni yosh bola kattalarga o‘xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o‘rganib oladi. Bu borada ko‘plab fikr, mulohazalar mavjud bo‘lib, bolalarga ilk yoshidan ikkinchi tilni o‘rgatish mumkinmi? kabi ko‘plab savollar tug‘iladi.

Albatta bolalarga ilk yoshidanoq ikkinchi tilni o‘rgatish juda yaxshi samara beradi. Bolaning miyasi cheklanmagan miqdorda ma‘lumot qabul qila oladi deyilgan "Uchdan keyin kech" kitobida. Inson miyasi hayotning boshidanoq ikki yoki undan ortiq tillarni o‘rganishga qodir. Mario singari odamlar hayotning dastlabki bir necha yillarida muntazam ravishda ikki tilga duch kelganda, miyaning bir xil tilga xos sohalari (odatda chap yarim sharda to‘plangan) ikkala tilga ham tegishli bo‘lib ko‘rinadi. Odamlar ikkinchi tilni bolaligida yoki erta yoshida o‘rganganlarida, ular ikkala yarim sharning ham ko‘proq nerv tuzilmalarini jalb qilishlari kerak bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘limda bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatishning asosiy muammosi bolalarning yoshi bo‘lib, ta‘lim jarayonida bunga aloida e‘tibor qaratish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o‘rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilida boshlang‘ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- o‘z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- chet tillarini o‘rganishda ijobiy munosabat yaratish ;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg‘otish;

Bolalarni o‘qitish - bu maktab o‘quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Misol qilib aytganda, agarda oddiy kundalik sharoitimizda ko‘chada, o‘qishda yoki uyda chet tilida muloqot qilsak, bola uchun yaxshi najita beradi deb o‘ylaymiz, ammo bu ko‘proq katta yoshdagi bolalar uchun ancha samarali. Chunki ko‘p holatlarda bola bunday vaziyatda bu tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi so‘nshi mumkin.

Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o‘qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetensiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

- fonetik nuqtai nazardan to‘g‘ri takrorlash qobiliyati inglizcha so‘zlar o‘qituvchi orqasidan, ya‘ni eshitish diqqatini, fonetik eshitish va to‘g‘ri talaffuzni bosqichma-bosqich shakllantirish;
- inglizcha so‘z boyligini o‘zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;
- ma‘lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Metodikani qo‘llashda bolalarni yosh bosqichlari va xususiyatlariga, individual va psixologiyasiga qarab qo‘llay olishimiz talab etiladi. ¹

Ilk yoshli bolalarga muloqot motivatsiya va yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o‘ynashdir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarga ilk yoshidanoq til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko‘pgina ro‘llar ko‘pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo‘ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta‘lim vositasi sifatida qo‘llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta‘lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba‘zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo‘lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyoqarashini shakllanishining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o‘qitishda biz Amerika Qo‘shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli, ya‘ni multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki, bu bosqichda yosh bolalar o‘zlarining fikrlash qobiliyatlari va tilni qo‘llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o‘rganib boradilar, ayniqsa, bu bosqichdagi yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun xizmat qiladi.

Bolalar til o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o‘rganishlari uchun samarali yo‘ldir. Rol ijro etish (role play) o‘qituvchi biror ma‘lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o‘rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o‘quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko‘rsatib bersa, boshqa bir o‘quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur.

Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: - qo‘shiq va she‘rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo‘lgan, ma‘noga ega bo‘lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o‘rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo‘shiq qilib o‘rganishlari shunchaki yodlashdan ko‘ra samarali ekanligini ko‘rsatish mumkin aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar. ²

¹ file:///C:/Users/%D0%B7/Downloads/7315-Article%20Text-19643-1-10-20230228%20(3).pdf

² [7301-Article Text-17641-1-10-20221209.pdf](#)

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi til mashg‘ulotlari o‘tkazayotgan paytda mashg‘ulot xonasini mavzuga mos tarzda jihozlangan, bolalar mavzuga kirishlari oson bo‘ladi va o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar xotirasida mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunning talabi sifatida bolalarni ilk yoshidanoq ikkinchi tilga o‘rgatish ko‘nikmalarini hosil qilib borsak, bolalar uchun ancha samaraliroq bo‘ladi. Ular kelajakda ikkinchi tilni o‘rganishlari osonroq bo‘ladi. Bolalarga til o‘rgatayotgan til o‘qituvchisi, avvalo, bolalar o‘qitish metodikasini bilishlari talab etiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek bolalarga til o‘rgatish boshqacha yondashuv talab qiladi. Bolalarning nutqidan chiqayotgan talaffuzlari to‘liq ingliz tilida chiqishi talab etiladi. Yuqoridagi barcha fikrlar bolalarni kelajakda barkamol avlod sifatida voyaga yetkazish uchun poydevor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. O‘qitish usullari. Talabalarning bilim olishini targ‘ib qilish [M] 2002.
2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi.-T.:O‘qituvchi,2016 y.
3. Yo‘ldosheva D.A. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning innovatsion usullari. 2022.
4. Parpiyev Odil Olimovich. (2023). MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 876–881. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.748>
5. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>
6. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
7. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
8. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.
- 9.

**BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHDA ELEMENTAR MATEMATIK
TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI****Madaminova Shohsanam Odiljon qizi,**

Qo‘qon universiteti Talim kafedrası o‘qituvchisi

Shamsiddinova Orastaxon Nizomiddin qizi,

Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonini rivojlantirish hamda ularda elementar matematik malakalarini shakllantirishning ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, bilish jarayoni, bilim, matematik tasavvur, elementar matematika, malaka.

Ayni davrda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini isloh qilish bosqichida yuqori malakali pedagogik kadrlarni tayyorlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261 sonli «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaroriga hamda 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305 sonli O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qaroriga muvofiq barcha maktabgacha ta‘lim tizimida va Respublikaning zamonaviy maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun yuqori malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash sohasida faol islohotlar jarayoni kechmoqda.

Respublika maktabgacha ta‘lim tizimi bo‘yicha qabul qilingan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Ilk qadam” tayanch dasturi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashdek zarur ishni ta‘minlaydi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘nalaganligi ular o‘rtasida ta‘lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Maktab maktabgacha davrlarda shakllantiriladigan jamoatchilik xususiyatlarini sifat jihatdan yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratadi, o‘quvchi shaxsi jamoatchilikka yo‘nalganligini qaror toptirishni ta‘minlaydi. Maktab o‘quvchilarda yuksak insoniy hissiyotlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik va milliy istiqlol g‘oyalari, o‘z vatani oldidagi o‘z burchlarini his etish kabi hissiyotlar tarkib toptiriladi. Bularning asosini maktabgacha yillarda shakllantirilgan ota-onaga, oilaga muhabbat, kattalarga hurmat, tabiatni sevish, uni asrash kabilar tashkil etadi.


Maktabgacha ta‘lim muassasasi va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘nalganligi ular o‘rtasida ta‘lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan, bolalar bog‘chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta‘minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang‘ich sinflarida o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan o‘quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta‘minlaydigan qilib tashkil etilish nazarda tutiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar egallagan xulq-atvor va kattalar va tengqurlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllari, ma’naviy tasavvurlar va hissiyotlar boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning o‘quvchilarda rivojlantirishdagi ma’naviy xatti-harakat, ong, hissiyot va munosabatlarning zamini hisoblanadi.

Maktab maktabgacha davrlarda shakllantiriladigan jamoatchilik xususiyatlarini sifat jihatdan yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratadi, o‘quvchi shaxsi jamoatchilikga yo‘nalganligini qaror toptirishni ta‘minlaydi. Maktab o‘quvchilarda yuksak insoniy hissiyotlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik va milliy istiqlol g‘oyalari, o‘z vatani oldidagi o‘z burchlarini his etish kabi hissiyotlar tarkib toptiriladi. Bularning asosini maktabgacha yillarda shakllantirilgan ota-onaga, oilaga muhabbat, kattalarga hurmat, tabiatni sevish, uni asrash kabilar tashki etadi.

Maktabgacha ta‘lim davlat talablaridan kelib chiqib, bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: rang, shakl va o‘lcham kabi atrof muhit ob‘ektlarini va ularning modellarini tushunishga yordam berish, kuzatish va tajriba, tahlil va taqqoslash, klassifikatsiyalash va bo‘lish kabilar orqali atrof-muhit ob‘ektlarini hamda ularning modellari bilan o‘zaro munosabatida bolalarning bilish faoliyati uchun sharoit yaratish, vaziyat, topshiriq va ularni bajarish usullari, faoliyat va uning natijalarini tahlil qilishni bayon etish orqali bolalar lug‘atini oddiy matematik terminlar bilan boyitish, o‘rgatuvchi o‘yinlar, topshiriqlar, mashqlarni qo‘llash qoidalarini tushunish hamda keyinchalik qo‘llashga yordam berish hamda faoliyat turlari va usullarini tanlash bo‘yicha tashabbuskorlik ko‘rsatish uchun sharoit yaratish.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida bolaning har tomonlama rivojlanishi



Bolalarning mantiqiy tushunchalarni o‘zlashtirishi darajasi solishtirish, umumlashtirish kabi muayyan uslubiy vositalardan foydalana olishga bog‘liq. Masalan, bolalar to‘plamni miqdoriga qarab solishtirishga o‘rganadi, buning uchun ular shu to‘plamning tarkibi va miqdorini tahlil qiladi. Predmetlarni shakli bo‘yicha solishtirayotganda, bolalar ularning o‘zaro farqlarini qiyoslab, alohida elementlari o‘lchamini ajrata oladi.

Amaliy harakatlar bolaning matematik rivojlanishida muayyan rolni bajarish davomida o‘zi ham o‘zgaradi. Masalan, hisob bilan bog‘liq faoliyat o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Dastlab muayyan ikki to‘plamning har bir elementi bo‘yicha solishtirilishga asoslansa, keyinroq esa raqam muayyan

to‘plam quvvati hamda natural son qatori ko‘rsatkichi sifatida ahamiyatga ega bo‘lib boradi, natijada esa muayyan to‘plamlardan birining o‘rnini egallaydi.

Maktabgacha yosh davrida muayyan vazifani yechishga yo‘naltirilgan xayol bilan bog‘liq ijodkorlik qobiliyatlari intensiv tarzda rivojlanib boradi. Xayol mahsuldorlikka erishishga yordam berib, u haqiqiy voqelikni kengaytiradi, uni predmet tarzida “jonlantiradi”; xayol qilish qobiliyati yuqori darajada rivojlangan bolalarning faoliyati mahsuli ham noyob chiqadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini matematik modellashtirish texnologiyalari yordamida shakllantirish, ularning ijodiy natijalarni boyituvchi ramziy ishoralar bilan ko‘rsatish va qismlarga ajratish bo‘yicha harakatlariga tayanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta‘limiga tayyorligi darajasini diagnostika qilishga yordam beruvchi vazifalarga nisbatan qo‘yiladigan quyidagi talablarni asoslashga harakat qilaman.

-Ongli ravishda belgilangan maqsadga muvofiq harakat qila olish qobiliyati sifatida ixtiyoriylik indikatsiyasi;

-Bola tomonidan o‘z imkoniyatlarining ob‘ektiv baholanishi;

-Nozik motor kordinatsiya xususiyatlarining aniqlanishi;

- O‘yin vazifasining belgilanishi.

6-7 yoshdagi bolalar bilan ularni maktabga tayyorlashda yil, oy, soat, daqiqa, soniya kabi vaqt birliklari bilan tanishtirish nazarda tutilgan. Vaqtni ajrata ola bilish ko‘nikmalari tobora takomillashib yangi shaklga kirib boraveradi. Bolalar amaliy vazifalarni bajarish davomida belgilangan vaqtga rioya qilishi, oddiy qum soatdan foydalangan holda muayyan vaqt davomiyligida o‘z harakatlarini rejalashtirib, ulgurishni mo‘ljal ola bilishi lozim bo‘ladi.

Maktabga tayyorlov guruhida katta guruhida bolalarga ta‘lim berish jarayonida shakllantirilgan ko‘nikmalar takomillashtiriladi. O‘quv yilining boshida barcha bolalar, ayniqsa, birinchi navbatda, bolalar bog‘chasiga endi qabul qilingan bolalarning predmetlarni sanashni bilishlari, turli predmetlarni solishtirib, qaysilari kattaroq (kichikroq) yoki uning tengligini aniqlay olishini o‘rganish maqsadga muvofiq. Buning uchun sanoqning qaysi usulidan foydalanayotganligini, bolalar predmetlarning hajmi hamda u egallagan maydon sathi hajmiga chalg‘imasdan, yig‘indi miqdorini qiyoslay oladimi yoki yo‘qmi, shularni tekshirib ko‘rish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar predmetlar o‘lchamini bevosita solishtirish asosida aniqlashga, shartli o‘lchov birligi, chizg‘ich yordamida o‘lchashga, muayyan uzunlikni belgilashga o‘rganadi. Ko‘pburchaklar hamda ularning elementlar(burchaklari, uchlari) bilan tanishadi, qog‘oz varag‘i sathida, kitobda, vaqt hamda tevarak-atrofdagi muhitga erkin mo‘ljal olishni uddalashlari lozim.

Masalan, Italiya olimi Mariya Montessori metodikasi har bir bolaga cheksiz tanlov erkinligini beradi. Unga asosan, har bir bola bugun nima bilan shug‘ullanishini hal qilishni mustaqil ravishda tanlay oladi. Mariya Montessori asosan inklyuziv ta‘limga qaratgan. U har bir bolani mustaqil bo‘lishi uchun, o‘zi mustaqil qaror qabul qila olishi uchun metodikalar ishlab chiqqan. Bu metodikalardan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda barcha 6 yoshdagi bolalarning maktabga tayyorlanishini takomillashtirish maqsadida maktablar qoshida tayyorlov sinflari, Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tayyorlov guruhlari tashkil etilgan. Birinchi sinfga chiqayotgan bolalarning matematik rivojlanishining

yuqori darajasini ta’minlash, ularning oldindan tayyorlanishi, shubhasiz, maktabdagi o’quv materiallarining o’zlashtirilishi sifatiga ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, ayniqsa, katta maktabgacha yosh davridagi bolalar bilan o’quv pedagogik ishlarni to’g’ri tashkil etishiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

So’nggi yillardagi psixologik-pedagogik tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limi, xususan, matematikaga o’qitish bo’yicha ishlar mazmuninig takomillashtirilishi imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Z.K.Kalendarova. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning zamonaviy nazariyasi va metodikasi. O’quv qo’llanma. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti. Toshkent. 2018 y. 170 B.
Bolaning jamiyatda ijtimoiylashuvi ko‘p jihatdan uning keyingi hayotidagi muvaffaqiyatiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 yildagi 802-sonli “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “Ijtimoiylashtirish” ta‘lim yo‘nalishi “Aloqa” ta‘lim yo‘nalishi bilan birlashtirildi .

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan , ta‘lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda anglab, huquqiy, psixologik, pedagogik sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan qilib tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining tabiatga doir bilimlarini tarbiyalanuvchilar o‘rtasida samarali targ‘ib etishlarida ularning ekologik madaniyatga ega bo‘lishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zi yashab turgan joy tabiati: fasl almashinuvlarini kuzata olishi, kalendar tuza olishi, o‘simlik va gullarni ko‘paytirish ko‘nikmasini egallashga o‘rganishi muhim. Bolalarni tabiatga to‘g‘ri va ehtiyotkorona munosabatda

tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasida mavjud bo'lgan hayvon va o'simliklarni oziqlantirish jarayonlari ham yordam beradi. Tarbiyachidan jonli tabiat burchagini tashkil etish, o'simlik va hayvonlar uchun ularning tabiatda yashashlariga yaqin shart-sharoitlar yaratishga oid bilim va malakalari talab etiladi. Bundan tashqari u maktabgacha ta'lim tashkiloti yer maydonchasi va tabiat burchagida o'simliklarni sug'orish va hayvonlarni boqishning agrotexnik usullari bilimini egallay olishi lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratganlar. "Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi" – deb alohida ta'kidladilar muhtaram prezidentimiz. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etish jarayoni ketmoqda. Ushbu jarayon samarasi ko'p jihatdan madaniy saviyasi baland barkamol inson shaxsini shakllantirishga bog'liq. Zotan, ana shunday shaxsgina ijtimoiy taraqqiyot maqsadini va millat manfaatlarini chuqur anglab yetadi, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiladi. Barkamol inson shaxsi, ma'naviy qiyofasida ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud zaxiralardan oqilona foydalanish yuzasidan 2025-yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalari kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Ushbu amalga oshirilayotgan amaliy ishlar bilan bir qatorda albatta, yoshlarga oliy ta'lim, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshlik davrlaridan boshlab ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirib borish zarur xisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda atrof-muhitni asrab avaylash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimlaridanoq kichik yoshli tarbiyalanuvchilarga yuqorida sanab o'tilgan bilim va tushunchalarni berish masalalari keng amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim talabi bo'lib qolmoqda. Biz tadqiqot jarayonida Namangan viloyati Uychi tumanidagi bir qancha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tabiat bilan hamkorlik darajasini aniqlashda turli xil usullar orqali yondoshishga harakat qildik. Erishilgan natijalarning har birini tahlil qilib bordik. Pedagogikada metod deb, pedagog va bolalarning birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. Bunda pedagog bolalarga bilim beradi, bolalar esa bilim, ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Tabiat bilan tanishtirishda quyidagi metodlardan foydalaniladi.

Kichik yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi aralashmagan holda sezgilar bilan amalga oshiriluvchi usul – **kuzatish usulidir**.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining aytib bergan hikoyasi, tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan, suhbatdan foydalaniladi. **Og'zaki uslub** yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnat jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi, to'ldiriladi, umumlashtiriladi hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, og'zaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Mashg‘ulotlar bolalarga ta‘lim va tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dasturda belgilangan bilim va malakalarni tarbiyachi ta‘lim tamoyillari asosida bolalar o‘zlashtira oladigan qilib tashkil etadi. Kundalik hayotda kuzatish, o‘yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig‘ilib boradi. Mashg‘ulotlar ularni aniqlash va sistemalashtirish imkonini beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning xilma-xil yo‘llari mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo‘llari:

- mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- ekskursiya;
- o‘yinlar o‘ynash;
- kundalik hayot ishlari;
- mehnat.

Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan extiyotkorlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari shakllantiradi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan ma‘suliyatni his etib yondoshishni tarbiyalaydi. Bolalar o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar uning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Biroq tabiat ne‘matlariga nisbatan ma‘suliyatni tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari, o‘z faoliyatlarining ahamiyatlarini tushunishlari lozim. Buning uchun birqancha tadqiqot usullarini olib bordik.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelindiki, bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida guruhlar qamrovida tabiat, uni asrab-avaylash, uning bebaho ne‘matlariga oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari ma‘lum darajada shakllantirib borilmoqda. Shu bilan birga ayrim kamchilik va nuqsonli holatlar ham mavjud. Bizning sog‘ligimiz, kelajagimiz poydevori bo‘lgan farzandlarimiz sog‘ligi uchun ham atrof-munit, uni asrab avaylash haqidagi tushunchalar juda muhimdir. Bu bilimlarni farzandlarimizga ularning kichik yoshligidanoq o‘rgatib, singdirib bormasak, buning oqibatida ko‘plab katta muammolar yuzaga keldi. Shuning uchun ekologik tarbiyadagi eng muhim yo‘nalish - Respublika hududidagi hozirgi zamon ekologik holatlarni ilmiy asoslash va uni maqsadga muvofiq tarzda ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish, bolalardagi ekologik nuqsonlarni bartaraf etish va ularni ekologik muammolarni hal etishga qodir ekologik madaniyatli insonlar qilib shakllantirish muhim pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbek xalqi tarixi yosh avlodlarni tabiat bilan tanishtirishga doir boy ijodiy merosga ega bo‘lib, bu merosni o‘rganish, hayotga tatbiq etish hamda kelajak avlodlarga yetkazish shu kunning eng muhim vazifasidir.

Yuqoridagi xulosalar bilan bir qatorda ayrim tavsiyalar ham mavjud. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachiga qo‘yiladigan bir qancha talablar haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishlari muhim. Jumladan, maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyachilaridan bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim zahiralari ega bo‘lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izohlay olishlari talab etiladi.

Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra,

maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go’zalliklarini ko’ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea, hodisalar haqida to’g’ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta’lim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyachi eng avvalo o’zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo’lmog’i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.Mirziyoyev “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 29.12.2016 y. Qarori.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yladigan Davlat talablari. Toshkent. 2008. D. Sharipova va boshqalar. «Agar bolam sog’lom bo’lsin desangiz» (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida). Metodik qo’llanma. Toshkent. 2006.
3. P.S.Sultonov Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari O’zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta mahsus ta’lim Vazirligi tomonidan oliy o’quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan, Toshkent – 2007
- . Hasanboyeva. H.Jabborova. Z.Nodirova. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – T.: Cho’lpon NMIU. Qo’llanma. 2006.
4. Sh.M. Kamolxo’jayev. «Tabiatshunoslik asoslari». – T.: «Moliya». Qo’llanma. 2002.
5. H.S. Yo’ldoshev. SH.M. Avazov. «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari». – T.: «Mehnat» nashriyoti. Qo’llanma. 2003 .
1. Xolliyev. A. Ikromov. «Ekologiya» – T.: «Mehnat». Qo’llanma. 2001.
6. «Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim». – T.: 2012.
7. Kindergardens lessons.com Mike Adams Copyright 2014,page-14.
8. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
9. Alijon, M., Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). TA'LIM JARAYONIDA ISH STRESSI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARGA PSIXOLOGIK YECHIM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 854-860.
10. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. *Interpretation and researches*.
11. Xatambojevna, A. S. (2024). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 7(1), 16-20.
12. Asilova, S. X. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 2(8), 12-16.
13. Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 770-772.
14. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 861-864.

15. Xatambojevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA ‘LIM TASHKIOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 344-350.
16. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
17. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
18. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
19. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
20. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA XALQ O‘YINLARI TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS TEXNIKASI****Muhammadjonov Muslimbek Muhsinjonovich**

Qo‘qon univetsiteti o‘qtuvchisi

Faxriddinova Asila Hoshimjonovna

Qo‘qon univetsiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola, milliy xalq o‘yinlari va milliy urf odatlarimizni o‘zida mujassamlangan O‘zbek xalq o‘yinlari, ularning jamiyatdagi va yosh avlodni tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida so‘z boradi. Xalq o‘yinlari orqali maktabgacha ta‘lim yoshdagi tarbiyalanuvchilariga samarali o‘rgatish, bolalarda milliy o‘yinlar orqali milliylikimizni chuqurroq anglatish ko‘zda tutilgan. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari o‘tmishda ajdodlarimizning kundalik turmush – tarzi nimalardan iborat ekanligini anglashdan iborat. Xalq o‘yinlari orqali bolalarda jismoniy barkamollikni tarbiyalash va maktabgacha ta‘lim tarbiyada zamonaviy jismoniy tarbiyani ma‘daniyatini shakllantirishda ulkan ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: Xalq o‘yinlari, milliy qadiryatlar, YUNISEF, Infratuzilma, pedagog, tarbiyalanuvchilar.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali ta‘lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta‘limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, dedi Prezidentimiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy etuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlanadi¹” deb aytgan gaplari maktabgacha talim tashkilotlarida asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining yanada rivojlanishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2017- yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uch yirik hujjat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3261 sonli Qarori. 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5198 sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ- 3305 Qarori qabul qilindi². “Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik

¹ <https://darakchi.uz/oz/35964>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-harakatli-o-yinlarni-qo-llash-orqali-jismoniy-sifatlarni-tarbiyalash-hususiyatlari>

va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz–ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar, bog’cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo’nalishi bilan to’liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat”. Ushbu maqsadlarni ro’yobga chiqarish maqsadida 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi³. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori ushbu sohada tub o’zgarishlarning amalga oshishiga asos bo’ladi⁴. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta’minlashda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarning moddiy-jismoniy tarbiya metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining o’ziga xos xususiyatlarini ochib beradi⁵. YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan keng qamrovli islohotlar doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan hamkorlik o’rnatilgan. 2018-yilda YUNISEF Maktabgacha ta’lim vazirligiga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablarini qayta ko’rib chiqishda texnik jihatdan ko’maklashdi va bolaning rivojlanish davrlari aniq ishlab chiqilishiga urg’u berildi. Shuningdek, YUNISEF bolaning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan yangi “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o’quv dasturini ishlab chiqishda amaliy yordam ko’rsatdi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, hayotiy bilim va ko’nikmalarining shakllanishida xalq o’yinlar alohida o’rin egallaydi. Insoniyatning har tomonlama rivojlanishining umumiy tizimida bola tarbiyasi muhim o’rin tutadi. “Maktabgacha yoshdan boshlab salomatlik, jismoniy rivojlanish asoslari qo’yiladi, vosita ko’nikmalari shakllanadi, jismoniy fazilatlarini tarbiyalash uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ketma-ket rivojlanib, jismoniy tarbiya bilan katta zavq bilan shug’ullanadilar. Ular, ayniqsa, xalq o’yinlariga qiziqishi kattadir⁶” Prezidentining ushbu so’zlari bolalarimizga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq o’yinlarini o’rgatish milliy o’yinlarimizni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo’llab bolalarimizda milliylikimizni va milliy qadriyatlarimizni bardavom bo’lishiga bolalarimizga yoshligidan o’rgatib borishimiz kerak.

“Harakatli o’yin” tushunchasi o’ziga ko’pgina har-xil falklorli o’yin shaklini qamrab olib, shulardan har qaysisi nihoyatda bolalarni har tomonlama rivojlantirishiga jismoniy psixologik va aqliy o’sishiga yordam beradi. Harakatli xalq o’yini falklor o’yinlarning bir turidan iborat bo’lib, asosiy mazmuni ko’proq harakat faoliyatining samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan⁷. Xalq

³ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/sunggi-5-yilda-maktabgacha-talim-sohasida-olib-borilgan-islohotlar-va-ularning-natijalari>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-may 2019-yildagi PQ-4312-son qarori <https://lex.uzdocs/-4327235?ONDATE=10.05.2019>

⁵ <https://fayllar.org/bolalar-jismoniy-tarbiyasi.html>

⁶ Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekistonning istedadli yoshlari”; ilmiy ishlar to’plami O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta talim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi istedadli yoshlarni qo’llab-quvvatlash Ulug’bek jamg’armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun masullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov- ta’lim nashriyoti., 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7

⁷ <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14460-harakatli-o-yinlarni-qisqacha-tarixi-tushinchasi-davrlari-va-pedagogik-ahamiyati.33-36>- bet

o‘yinlari bolaga barcha sohalarda ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin: masalan jismoni, intellektual hissiy va kommunikativ. Xalq o‘yinlari bolalar salomatligiga foyda keltiradi, yurak qon tomir, nafas olish tizimini yaxshilaydi mushaklarini va suyaklarini mustahkamlaydi⁸.

Yuqoridagilarni nazarda tutib o‘zbek xalq o‘yinlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- ✓ Harakat sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar.
- ✓ Darsning ayrim qismlarida qo‘llaniladigan o‘yinlar.
- ✓ Turli yoshdagi bolalar faoliyatida qo‘llaniladigan o‘yinlar.
- ✓ Bolalar jinsiga qarab qo‘llaniladigan o‘yinlar.
- ✓ Ruhiiy hissiyotlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar.
- ✓ Hayotiy zarur malakalarni egallashda yordam beruvchi va takomillashtiruvchi

o‘yinlar.

- ✓ Sport faoliyatida qo‘llaniladigan o‘yinlar.

O‘zbek xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan o‘zbek xalq harakatli o‘yinlari jismoniy madaniyat, yosh avlodni tarbiyalash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixida birinchi marta milliy o‘yin namunalari bayon etilishi, ularning ta‘rifi-tavsifi qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg‘ariy qalamiga mansubdir. Harakatli o‘yinlar inson faoliyatini ta‘minlovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajdodlarimiz ham yaxshi bilishgan va kundalik turmushda ular bilan shug‘ullanishga amal qilishga

Mustaqil yurtimiz kelajagi buyuk bo‘lishi eng avvalo farzandalari salomatligiga bog‘liq sog‘lom yurt qudratli va boy bo‘ladi. O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo‘ljallanish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi; o‘yinlar ijodiy tasavvurni, xotirani, fikrlashni, tafakkur faoliyatini yana ham rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Xalq o‘yinlarida bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq - atvoriga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘yin faoliyati tufayli bola nafaqat jismoniy balki ruhiy tomondan ham rivojlanadi. O‘yin tufayli bola baquvvat, sog‘lom, bo‘lib rivojlansa, o‘yin faoliyatini tabiat qo‘ynida tashkil etish esa bolaning estetik rivojlanishi, dunyoqarashini kengayishi, tabiatni his qilish, sezish kabilarni hissiyotlari rivojlantiradi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishning yoshga bog‘liq xususiyatlari o‘tkazilgan tajribalar orqali aniqlandi va nazariy jihatdan asoslab berildi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlarni qo‘llash bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga o‘tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berdik:

1. Bolalarda xalq o‘yinlarini o‘ynashi orqali milliylikimizni ongida yanada shakllantiramiz.

⁸ Bazhenova OV. Bolalar uchun hissiy-irodaviy rivojlanishni o‘rgatish. Sankt-Peterburg: Rech; 2010. p. 192

2. Xalq o‘yinlarini bolalar bilan ko‘proq tashkil qilish.
3. Xalq o‘yinlarini bolalarning yoshi, ruhiy holatiga va qiziqishlariga mos ravishda tashkil qilish.
4. Ota-ona hamda MTT hamkorligini yanada kuchaytirish.
5. Rag‘batlantirish- bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchni ortiradi.
6. Milliy sport o‘yinlari bolalarni kichik yoshidan boshlab jismoniy, aqliy va axloqiy qilib tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qarashimiz.
7. Bolani kuzatuvchan bo‘lishga va o‘rtoqlari fikrini eshita olishga o‘rgatish;

Eng asosiysi, ushbu xalq o‘yinlar ko‘pincha sharoit va maxsus o‘yin qurollarini tanlamaydi, ular asosan og‘zaki nutqqa va jismoniylikka asoslanadi. Shuningdek, deyarli barcha o‘yinlar o‘g‘il bolalar o‘rtasida ham, qiz bolalar o‘rtasida ham birdek sevib o‘ynaladi. Ularning aynan maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun asos qilib olinganligida ham o‘ziga xos maqsad bo‘lib, bolalar kichik yoshligidan Vatanga muhabbat, qadriyatlarimizga ehtirom ruhida tarbiya topishligidadir. Harakatli o‘yinlar bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, ularda ijobiy hislarni uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar bola dunyoqarashini kengaytiradi. Respublikamizda ko‘p hollarda bunday ishlar maktabgacha ta‘lim tashkiloti mashg‘ulotlarida emas, balki ko‘proq uyda, ota-onalari, akalari va opalari bilan ham amalga oshirishadi. Buni maktabgacha ta‘lim tashkilotida ham bolalar bilan birgalikda mashg‘ulot sifatida qo‘shib ketritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-may 2019-yildagi PQ-4312-son qarori <https://lex.uzdocs/-4327235?ONDATE=10.05.2019>
2. Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekistonning istedadli yoshlari”; ilmiy ishlar to‘plami O‘zbekiston Respublikasi |Oliy va o‘rta talim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi istedadli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug‘bek jamg‘armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun masullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov- ta‘lim nashriyoti,, 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7
3. Pedagogika: muammolar va echimlar : III xalqaro materiallar. ilmiy. konf. (Qozon, 2018 yil mart). - Qozon: yosh olim, 2018 yil. - 103-106 betlar. - URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/276/13813/>
4. Pedagogika: muammolar va echimlar : III xalqaro materiallar. ilmiy. konf. (Qozon, 2018 yil mart). - Qozon: yosh olim, 2018 yil. - 103-106 betlar. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archi>
5. MILLIY HARAkatli O‘YINLAR. Karimjon Rahimqutov kitobidan nash «TAFakkur-BO‘STONI*TOSHkent — 2012 65-66 betlar/
6. MILLIY HARAkatli O‘YINLAR. Karimjon Rahimqutov kitobidan nash «TAFakkur-BO‘STONI*TOSHkent — 2012 72-74 betlar.

7. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
8. Alijon, M., Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). TA'LIM JARAYONIDA ISH STRESSI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARGA PSIXOLOGIK YECHIM. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 854-860.
9. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. Interpretation and researches.
10. Xatambojevna, A. S. (2024). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 7(1), 16-20.
11. Asilova, S. X. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 2(8), 12-16.
12. Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 770-772.
13. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 861-864.
14. Xatambojevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA ‘LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 344-350.
15. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
16. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
17. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
18. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

TA'LIM MUASSASASI RAHBARLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI**Nigmatova Mo`tabarxon Xusanovna**

Qo'qon universiteti,

Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi magistranti

mutabarxon7777@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash texnologiyasi, tanqidiy fikrni shakllantirish, ta'lim muassasalaridagi rahbarlar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni takomillashtirish, o'z-o'zini baholash va o'zini isloh qilish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikr, texnologiya, ta'lim muassasasi, rahbarlar uchun tanqidiy fikrlash, rivojlantirishni takomillashtirish, o'z-o'zini baholash, o'zini isloh qilish, monitoring.

Kirish.

Ta'lim va tarbiya siyosati ayni vaqtda yangi ijtimoiy tartibni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz, tezda qayta quradigan va g'oyalarni yaratish orqali qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topadigan shaxslarni talab qilmoqda. Zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanishni ustuvor vazifa sifatida qo'yimoqda.[1]

Tanqidiy fikrlash bugungi tez sur'atlardagi biznes landshaftida rahbarlar uchun bebaho mahoratdir. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va qo'llash orqali rahbarlar yaxshiroq qarorlar qabul qiladi, muammolarni yanada samarali hal qiladi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va yanada yuqori samarali jamoani yaratadi.

Adabiyotlar tahlili

"Tanqidiy fikrlash" atamasiga murojaat qilganimda, aksariyat odamlar buni nima to'g'ri va nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan aks ettiruvchi fikrlash deb atashadi. Boshqalar uchun bu, masalan, voqea yoki muammo haqida fikr yuritish usuli bo'lib, unda odam haqiqatni tahlil qiladi, tanqid qiladi, baholaydi va qayta tiklaydi. Shuningdek, ular tanqidiy fikrlashning o'z-o'zini boshqarish xususiyatiga e'tibor berishadi va uni "o'z-o'zini to'g'rilash" deb atashadi.

Imiy ishlarda, masalan, M.Veksler asarlarida tanqidiy fikrlash xatoni aniqlash, hodisaning haqiqatini yoki ob'ektning qiymatini aniqlash qobiliyati deb ta'riflanadi.[6]

Popkova va A.V. Korjuevning "tanqidiy fikrlashi" insonning o'z xatti-harakatining aksi sifatida namoyon bo'ladi.[7] Bunda inson nima va qanday qilayotganini tushunadi va tahlil qiladi, boshqacha qilib aytganda, u harakat qiladigan modellar va qoidalarni tahlil qiladi.

Klarina "tanqidiy fikrlash tendentsiyasi" haqida shunday fikr yuritadi, bunda "mavzuning aniq bayonini izlash; kompleks qismlarini ketma-ket ko'rib chiqish; o'z navbatida; sezgirlik va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish, bilim darajasi va chuqurligi fikrlash "borliq, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini hayotda qo'llash tendentsiyasi". [3]

J.Braus va D.Vund tanqidiy fikrlashni nimaga ishonish va nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan oqilona aks ettiruvchi fikrlash deb ta'riflaydi. Ularning fikriga ko'ra, bu aql-idrokning chiyillashi, ya'ni ularning nuqtai nazarini va boshqa fikrlarini hisobga olgan holda qanday qilib ob'ektiv ravishda fikr yuritish va mantiqiy harakat qilish, shuningdek, o'zlarining noto'g'ri qarashlaridan voz kechish qobiliyatini aks ettiradi.[2]

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi XX asrning 80-yillarida Amerikada paydo bo‘lgan.

Ta'lim va o'quvchilarni o'rganishda tanqidiy fikrlashni o'rganishga zamonaviy yondashuv 20-asr oxirida amerikalik pedagoglar Jeni D. Stil, Kertis S. asarlarida joriy etilgan. Meredit, Charlz Templ va Skott Valter. Bu yondashuv doirasida qiziquvchanlikni rivojlantirish, tadqiqot usullari, savol berish, javob izlash, o'zini mantiqiy himoya qilish kabi parametrlarni o'z ichiga olgan "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" texnologiyasi taklif etildi.

Rossiyada texnologiya 90-yillarning oxiridan beri ma'lum va boshqa nomga ega "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish". L.S.Vygotskiy proksimal rivojlanish zonasi va o'rganish va bolaning umumiy rivojlanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqida; K.Popper va R.Pol tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish asoslari haqida; E. Braun va I. Bek metakognitiv ta'lim haqida; fuqarolik va huquqiy ta'lim va h.k. KM texnologiyasini ishlab chiquvchilari Kurtis Meredit, Charlz Templ va Ginni Still ushbu nazariyalarning qoidalarini amaliyot tiliga tarjima qilganlar, o'z ishlarini pedagogik texnologiya darajasiga olib chiqdilar, uning bosqichlari, uslubiy texnikasi va me'zonlarini ajratib ko'rsatdilar.[5]

O'zbekistonda oxirgi yillarda ushbu soha tadqiqotlar uchun aktuallashtirishni ta'limda "4K modeli" joriy qilinishida ko'rsak bo'ladi. Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan o'quv-metodik komplekslar (O'MK) asosini Tanqidiy fikrlash, Jamoaviy ishlash, Ijodkorlik (Kreativlik) va Muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi.

Metodologik tahlil

Hozirda sotsiologik metodlarga asoslanib shuni aytish mumkinki; "Yangi normalar" bu geosiyosat va global beqarorlik, tez texnologik o'zgarishlar, noyob moliyaviy bosimlar, filtrlash uchun ma'lumotlar va ma'lumotlarning ko'tarilishi va yangi korporativ biznes modellarining tarqalishi bilan to'ldirilgan boshqa turdagi raqobat muhitidir. O'tmishda rahbarlarni muvaffaqiyatga erishtirgan fikr kelajakda muvaffaqiyat qozonmaydi.

Darhaqiqat, yaqinda o'tkazilgan bir qancha emperik metodlarga asoslangan tadqiqotlar va so'rovlar tanqidiy fikrlashni XXI asrda muvaffaqiyatli yetakchilik uchun birinchi raqamli talab sifatida aniqladi. Shunga qaramay, ko'plab hozirgi va paydo bo'lgan rahbarlarda bu sifat yo'qligi haqida ko'plab dalillar mavjud.

Universitetlardagi boshqaruv kadrlari va davlat xizmatchilarini tayyorlash bugungi kunda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini amaliyotga yo'naltirilgan shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Biroq, menejerlar uchun zarur bo'lgan yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko'plab ta'lim dasturlari mantiqqa asoslangan tanqidiy fikrlash va matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslarni taklif qilmaydi. Qoida tariqasida, ta'lim dasturlari kompleks yoki fanlararo yondashuv mavjud bo'lmaganda, kompetentsiyalar doirasida tanqidiy tahlil komponentlarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Natijalar.

Ta'lim muassasalaridagi raxbarlar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni takomillashtirish uchun bir nechta usullar mavjud. Bu usullar rivojlanayotgan ta'lim muhitining sifatini va ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyidagi usullarni amaliyotda qo'llash mumkin:

1. O'z-o'zini baholash va o'zini isloh qilish: Raxbarlar o'zlarini chuqurroq tahlil qilish va o'zlarini yangilashlari uchun o'z-o'zini tanqidiy baholashlari kerak. Bu, o'zlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nuqtai nazarlarni aniqlashga yordam beradi.

2. O'quvchilarning mahsulotlariga tanqidiy yakunlanish: Raxbarlar o'quvchilarining ishlarini va mahsulotlarini tanqidiy taftish etish orqali, ularning rivojlantirishlari uchun tavsiyalarda bo'lishadi. Bu usul, o'quvchilarning o'zlashtiriladigan muammolari va mukofotlari haqida fikrlarni oshirishga imkon beradi.

3. Dasturning o'zini monitoring qilish: Raxbarlar ta'lim dasturi va so'rovlarni tanqidiy ravishda monitoring qilish orqali, dasturni yaxshilash uchun zarur o'zgarishlarni aniqlashadi. Bu usul, ta'lim jarayonining o'z ichiga xos muammolari aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

4. Mazmunning sifatini oshirish uchun tajribalar almashish: Raxbarlar o'zlarining mazmuni va dasturlarining sifatini oshirish uchun boshqa raxbarlar bilan tajribalar almashish orqali, yangi ko'nikmalar va usullar olishadi. Bu, ta'lim jarayonining qulay va samarador bo'lishi uchun muhim bo'lib, o'zlashtirilgan ta'lim matnlarini va dasturlarini yaxshilashda yordam beradi.

5. O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan baholash va munozaralar o'tkazish: Raxbarlar ta'lim muassasalari o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan doiraviy munozaralar o'tkazish orqali, ularning fikrlarini eshitish va ular bilan birgalikda masalalarni hal qilishadi. Bu, ta'lim jarayonidagi masalalarni aniqlash va ularni muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi.

6. O'quvchilar va raxbarlar bilan birgalikda maqbul va isbotlangan ko'nikmalarni qo'llash: Raxbarlar o'quvchilar bilan birga isbotlangan ko'nikmalarni qo'llash, ularning fikrlari va tajribalari bilan tanishishga yordam beradi va ta'lim jarayonini samarador qilishda muhim bo'ladi.

7. Tanqidiy fikrlashni o'z ichiga olgan holatda tadqiqotlar olib borish: Raxbarlar tanqidiy fikrlashni o'z ichiga olgan holatda tadqiqotlar olib borish va bu native(o'ziniki) qilish orqali, o'zlarining kuchli tomonlarini aniqlashadi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tanqidiy fikrlash o'rgatish mumkin bo'lgan mahoratdir. Xelperning so'zlariga ko'ra, "Odamlar yaxshiroq fikrlashni o'rganishi mumkinligi haqida ko'plab dalillar mavjud. Albatta, ta'lim barchamizni aqlli qiladi, ammo tanqidiy fikrlash ko'proq e'tiborga ega. Chunki, yangi vakolatlar chuqurroq va tahliliy yondashuvni talab qilishi mumkin. Bugungi muammo o'tmishda o'rganilgan narsadan voz kechish emas, balki an'anaga asoslanishdir.

Butunlay yangi va murakkab ko'nikmalar, vositalar va sezgirlik to'plamiga ega bo'lgan kompetensiyalar rahbarlarning yangi standarti aqldan foydalanishni, aniq va oqilona fikrlashni va biznesga ta'siri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganishi kerak. Agar rahbar tanqidiy fikr yuritsa, u faoliyatining istalgan bosqichiga osongina olib boradi. Har bir bosqich vazifalarini bajarishga qaratilgan o'ziga xos uslubiy uslublarga ega. Tanqidiy fikrlashning har bir usuli va strategiyasi rahbarlarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Maxbuba Sattorovna Shamsiyeva Buxoro davlat universiteti Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati
2. Zagashev I. O., Zair-Bek S. I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. – Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2003.- 284 b
3. Zagashev I.O., "Savol berish qobiliyati". - Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2005 yil
4. French, E., & Tracey, N. (2010). Critical thinking and organisation theory: Embedding a process to encourage graduate capabilities. E-Journal of Business Education & Scholarship of Teaching, 4(1), 1- 10. Retrieved from Education Research Complete, EBSCOhost
5. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. М.: Арена, 1994. 222 с
6. Sowton Ch. Strategies for teaching critical thinking more effectively - Academic English Conference // <https://www.cambridge.org/elt/blog/2018/11/09/strategies-teaching-critical-thinking-effectively-academic-english/>
7. Asilbekovnaabduvalieva, M., & Khabibovnaganieva, M. (2020). Analysis of medical and social services in the context of the modernization of the social sphere in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(Special Issue 6), 726-74
8. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

**BOLALARDA SHARTLI O‘LCHOV YORDAMIDA TURLI O‘LCHAMLARNI O‘LCHASH HAQIDAGI
TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH.****Nurmatov Sardor Siddiqovich**

Qo‘qon Universiteti Ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarni matematik o‘lchamlar, uzunlik, vazn, va vaqt kabi savodxonligini oshirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati mavzusiga bag‘ishlanadi. Bu maqolada asosan didaktik o‘yinlarning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan. Maqolada ko‘rilgan o‘yinlar va ularning ahamiyati to‘liq bayon qilingan. Bu maqola maktabgacha katta yoshdagi o‘quvchilar uchun matematikani asosi bo‘lgan o‘lchamlarni o‘rganishda va bu fanga o‘quvchilarni qiziqtirish uchun murabbiy-ustozlarga.

Kalit so‘zlar: Bolalarga an‘anaviy o‘lchovlarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanishga yordam beradigan amaliy mashg‘ulotlar.

Kirish:

Davlatimiz rahbari tomonidan ta‘lim tizimining ilk poydevori qo‘yiladigan maktabgacha ta‘lim sohasini yangi pog‘ona olib chiqish, bolalarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardan oq to‘g‘ri yo‘naltirish borasida juda ko‘p tashabbuslar ilgari surilmoqda va bu sa‘y-harakatlar bolalar ta‘lim-tarbiyasida o‘zining ijobiy mevasini bermoqda.

Jumladan, Maktabgacha ta‘lim vazirligining tashkil topishi, Prezidentimizning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2707-sonli qarori¹, “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori², O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”³ kabi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta‘lim tizimidagi ishlar sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda bolalarni predmetlarning kattaliklari bilan tanishtiruvchi masalalar ma‘lum o‘rin egallaydi. Har qanday predmetga to‘g‘ri va to‘la xarakteristika berishda predmet kattaligining ahamiyati uning boshqa asosiy xususiyatlarining ahamiyatidan kam emas. Taqqoslash asosidagina predmetning kattaligini ta‘riflash mumkin. “Kattalik” tushunchasining ma‘nosini ochib berar ekan, matematika metodisti D.Galanini bunday ko‘rsatadi: “Kattalik” deb predmetlar va harakatlarning shunday xususiyatiga aytiladiki, bu xususiyat bo‘yicha predmetlarni bir-biri bilan taqqoslay olamiz, bu xususiyat har xil predmetlarda har xil miqdorda bo‘lishi mumkin”. Predmetlarni taqqoslashning ma‘lum mezonlariga ko‘ra predmetlarning kattaliklari tengligi yoki tengsizligi munosabati o‘rnatiladi. Ammo har doim ham bevosita taqqoslashga duchor qilinavermaydi. Biz ko‘pincha berilgan predmetni tanish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda «Maktabgacha ta‘lim vazirligining tashkil etish to‘g‘risida»gi 2707-sonli qarori

² O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-3923110>

³ Xalq so‘zi gazetasi. <https://xs.uz/uz/post/o‘zbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacharivojlantirish-konsepsiyasi-amal>

predmetlarning kattaliklari haqidagi o‘zimizda hosil bo‘lgan umumiy tasavvurlarda (fikrda) taqqoslaymiz. Bu o‘rinda idrok qilinayotgan predmetning kattaligi umumlashtirilgan obraz bilan taqqoslanadi, bu borada predmetlarni amalda farqlash tajribasi tugallangandek bo‘ladi. Kattalik, shuningdek, o‘zgaruvchanligi bilan ham xarakterlanadi. V.V.Davidov bunday yozadi: «O‘lchamlar — bu obyektning shunday holatiki, ma‘lum chegaralargacha o‘zgara borib, aqalli berilgan alohida obyektни o‘zgartirsa ham, ammo uning tur, boshlang‘ich sifatini o‘zgartirmaydi. Berilgan stol uzunliginig o‘zgarishi uning kattaliginigina o‘zgartiradi, ammo uning mazmuni va sifatini o‘zgartirmaydi, stol stolligicha qolaveradi”.

Kattalikning uchinchi xossasi uning nisbiyligidir. Haqiqatan ham, bir predmetning o‘zi kattaligi bo‘yicha qanday predmet bilan taqqoslanayotganiga qarab katta yoki kichik deb aniqlanishi mumkin. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, kattalik predmetning shunday xossasiki, uni predmetdan ajratib, alohida tasavvur qilib bo‘lmaydi, kattalikni predmetdan ajratib bo‘lmaydi. Predmetning kattaligini idrok qilib, biz predmet borasida butun tasavvur (oriyentir) olamiz (va shundagina uni “katta, kichik” so‘zlari bilan aniqlaymiz) yoki alohida uzunliklarning (o‘z kengligi, balandligi) nisbati haqida ma‘lumotga ega bo‘lamiz. Bunday subyekt uchun har bir konkret holda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan uchun ko‘p holda kattalikni aniqlash uchun asos bo‘lib hizmat qiladi. Bu holda kattalikning «baland», «uzun», «yo‘g‘on» va h.k. kabi aniq ta‘riflaridan foydalanadilar («bolaga past stul kerak», “mashinalar keng yo‘ldan bormoqda”, «Baland archa sotib olishdi» va h.k.) . Bir qator predmetlar borki, ular uchun «katta-kichik” atamalarini ishlatib bo‘lmaydi. Masalan: lenta uzun, qisqa, keng yoki ingichka (tor bo‘lishi mumkin: sakragich esa uzun yoki qisqa bo‘lishi mumkin va h.k. Shu bilan birga kuzatishlar va maxsus tekshirishlar ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalar predmetlarning kattaliklarini aniqlashda «katta-kichik», «ortiq-kam» so‘zlaridan foydalanishni afzal ko‘radilar. Buning sababi, birinchidan, bolalarni predmetlarni alohida uzunliklarini (uzunligi, kengligi, balandligi, differensiallashtira olmasliklari, ular orasida o‘lchamlik munosabatlarini o‘rnata olmasliklari va ularning har birini., so‘zlar bilan aniqlay olmasliklari, ikkinchidan, o‘zlari ko‘pincha kattalikning aniq ta‘rifi o‘rniga juda umumiy bo‘lgan katta-kichiklik terminlarini ishlatadilar.

Katta-kichiklik narsalarning fazoviy belgilaridan eng umumiy, ularning bir-biridan farqlanuvchi belgisidir. Har bir hajmli narsa haqida gapirganimizda, biz katta yoki kichik narsa to‘g‘risida so‘zlaymiz. Bundan tashqari, narsaning uchta o‘lchami – bo‘yi, uzunligi, eni (qalinligi, balandligi) bo‘ladi. Ana shu o‘lchamlarni bilgan holdagina narsani uzun yoki qisqa, keng yoki tor, baland yoki past deyish mumkin. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, buyumlarning hajmi (balandligi, rangi, pastligi, eni) o‘zgargani bilan stol yoki stulniig nomi o‘zgarmaydi. Stol stolligicha, stul stulligicha qoladi. Agar biz sonlarni oladigan bo‘lsak 6 soni 5 sonidan katta, faqat 5 dan emas balki 4,3,2,1 dan ham katta. 3 soni esa faqat 4 sonidan kichik emas balki, undan yuqori sonlarning hammasidan kichik. Bolalrni narsalarning kata-kichikligi bilan tanishtirish ularni maktabga tayyorlashda juda zarur bo‘lib, bolalarning aqliy, matematik jihatdan o‘shishida, xususan, matematik qobiliyatlarning o‘shishida muhim ahamiyatga ega.

Ishchanlik o‘yin darsi - dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta‘minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Ro‘lli o‘yin darsi - dars mavzusi bo‘ yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma‘lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

O‘qituvchi - pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishda qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

An'anaviy o'lchovlarga kirish: Dyuum, fut, funt va untsiya kabi o'lchov uchun ishlatiladigan an'anaviy birliklarni tushuntirib, ularning ahamiyati va umumiy ishlatilishiga e'tibor bering.

Bolalarga ushbu birliklar bilan tanishish imkonini beradigan oddiy mashg'ulotlar yoki o'yinlar bilan tanishtiring, masalan, ularning balandligini dyuumlarda o'lchash yoki tarozi yordamida ob'ektlarni tortish.

O‘qituvchi - pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishda qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Bolalarni an'anaviy o'lchovlardan foydalanishga jalb qilish uchun mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlarning batafsil tavsiflarini bering.

2. O'lchagichlar yordamida turli ob'ektlarning uzunligini o'lchash, tarozi yordamida turli buyumlarning og'irliklarini solishtirish

3. Hajmni tushunish uchun suyuqliklarni turli idishlarga quyish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'yin topshirig'i: - O'lchovni o'z ichiga olgan va uyda yoki ta'lim sharoitida osongina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan turli o'yinlar va tadbirlarni tasvirlab bering.

- **Uy atrofida ob'ektlarni o'lchash:** Bolalarni uy atrofida turli shakl va o'lchamdagi narsalarni topishga va ularning uzunligi, kengligi va balandligini chizg'ichlar yoki o'lchov lentarlari yordamida o'lchashga undash.

- **O'lchovlarni solishtirish:** Bolalarga ob'ektlarning o'lchamlarini ularni eng kichikdan kattagacha joylashtirish yoki qaysi ob'ekt balandroq, qisqaroq, uzunroq yoki og'irroq ekanligini aniqlash orqali solishtirish imkoniyatini bering.

- **O'lchovlarni ayirish:** Bolalar ikkita ob'ekt orasidagi farqni topish uchun o'lchovlarni olib tashlaydigan o'yinlarni yarating, masalan, kitob javoni va stol o'rtasidagi uzunlikdagi farqni topish.

An'anaviy o'lchovlarni kiritish: - O'yin faoliyati orqali shartli o'lchov birliklarini qanday kiritish mumkinligini tushuntiring.

- Yoshga mos o'yinlar va izlanishlarda o'lchash tasmasi, o'lchagich, tarozi va o'lchov stakanlari kabi o'lchov vositalaridan foydalanish bo'yicha takliflar bering.

Izlanish va ijodkorlikni rag'batlantirish: - Bolalarga ijodiy va ochiq shaklda o'lchovlarni o'rganish va tajriba qilish imkonini berish muhimligini ta'kidlang.

- tarbiyachilar va o'qituvchilarni bolalarga o'lchov tushunchalari bo'yicha o'z kashfiyoti va aloqalarini yaratish imkoniyatini yaratishga undash.

Tadqiqot metodologiyasi

Didaktik o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda

maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Keyingi ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qanchalik yaxshi va o'z vaqtida tayyorlanishiga bog'liq. Chunki, matematika ta'limning keyingi bosqichlaridagi asosiy fanlardan biridir. Matematika o'ziga xos rivojlanish ta'siriga ega bo'lib uni o'rganish xotira, nutq, tasavvur, his-tuyg'ularni rivojlantirishga yordam beradi, shaxsning matonatini, sabr-toqatini, ijodiy salohiyatini shakllantiradi.

Ma‘ruzachi sifatida sizning muvaffaqiyatingiz shaxsiy ishonchingiz, mavzuni bilishingiz, nutqni tayyorlashingiz, nutq yetkazib berish tarzingiz, tinglovchilarga sezgirligingiz va vaziyatga bog‘liq. Ammo muvaffaqiyatli nutq ham g‘ayratni talab qiladi.

O‘zingiz qiziqmasangiz, odamlar sizning so‘zlaringizga qiziqishini kutishingiz mumkin emas. Agar siz o‘zingizning mavzuingizdan chinakam hayajonlansangiz, tinglovchilaringiz siz bilan birga hayajonlanishlariga amin bo‘lasiz. Siz samarali nutq so‘zlashning barcha usullarini o‘rganishingiz mumkin, ammo ulardan foydalanish uchun avval g‘ayratingizni uyg‘otadigan gapga ega bo‘lishingiz kerak.

Xabar.

Xabar – bu ma‘ruzachi boshqalarga yetkazadigan axborot. Agar siz do‘stingizga qo‘ng‘iroq qilib: “Bugun kechqurun sizni olib ketishga biroz kech qolaman”, - deb aytishingiz mumkin. Bu

¹ I.A.Karimov.Barkamol avlod- O‘zbekiston tarrafiyoti poydevori._Toshkent:1997.9-bet.

xabar. Ammo bu faqat xabar bo‘lmasligi ham mumkin. Ehtimol, sizning ovozingizda istamaslik, ikkilanishni ko‘rsatadigan ma‘lum bir ohang bordir.

Sizning omma oldida nutq so‘zlashdagi asosiy maqsadingiz haqiqatan ham yetkazilgan xabar bo‘lishi kerak. Bunga erishish sizning so‘zlaringizga (og‘zaki xabarga) va uni qanday aytishingizga (og‘zaki bo‘lmagan xabarga) bog‘liq.

Og‘zaki xabarni to‘g‘ri qabul qilish mehnatni talab qiladi. Siz o‘zingizni mavzuni nutq uchun belgilangan vaqt ichida yetarli darajada muhokama qilishingiz mumkin bo‘lgan jihatlarga e‘tibor qaratishingiz kerak. Fikrlaringizni aniq va ishonchli qilish uchun izlanishlar olib borishingiz va qo‘shimcha ma‘lumotlarni tanlashingiz kerak. Siz o‘z g‘oyalaringizni tartibga solishingiz kerak, shunda tinglovchilar ularni adashmasdan kuzatib borishlari mumkin. Va shunda siz xabaringizni aniq, jonli, va aloqador deb hisoblaysiz. So‘zlar bilan yuboriladigan xabardan tashqari ovozingiz, tashqi ko‘rinishingiz, imo-ishoralaringiz, yuzingiz ifodasi va ko‘z bilan aloqangiz bilan xabar yuborasiz.

Ommaviy axborot vositalari

Ommaviy axborot vositalari - bu xabarni yetkazish vositasi. Do‘stingizga qo‘ng‘iroq qilish uchun telefondan foydalanasiz. Demak, telefon bu kanaldir. Ommaviy ma‘ruzachilar bir yoki bir nechta kanallardan foydalanishi mumkin, ularning har biri tomoshabinlar qabul qilgan xabarlarga ta‘sir qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yig‘ilishdagi nutqini ko‘rib chiqing. Nutqni radio, televideniye va internet kanallari xalqqa yetkazadi. Radio auditoriyasi uchun xabar Prezidentning ovozi bilan yetkaziladi. Televizion, internet auditoriya uchun xabar Prezidentning ovozi bilan ham, tasvir orqali ham yetkaziladi.

Tinglovchi

Tinglovchi – bu xabarni qabul qiluvchi shaxs. Tinglovchisiz aloqa bo‘lmaydi. Do‘stingiz bilan telefonda gaplashingiz bitta tinglovchiga, jamoatchilik oldida so‘zlashda esa ko‘plab tinglovchilarga ega bo‘lasiz.

Spikerning hamma aytganlari: bilimlari, tajribalari, maqsadlari, qadriyatlari va munosabatlari tinglovchilarning ma‘lumotlari orqali filtrlanadi. Notiq va tinglovchi har xil odamlar bo‘lgani uchun ular hech qachon aynan bir xil ma‘lumotlarga ega bo‘lolmaydi. Va tinglovchining ma‘lumot doirasi har doim noaniqligi sababli xabarning ma‘nosi hech qachon tinglovchilar uchun ma‘ruzachinikiga o‘xshash bo‘lmaydi.

Buni sinab ko‘rish uchun quyidagi topshiriqni bajarish kifoya. Kursdoshlaringizning har biridan stulni tasvirlab berishlarini so‘rang. Agar sizda 20 ta kursdoshingiz bo‘lsa, ehtimol, siz 20 ta turli xil tavsiflarni olasiz. Bir talaba katta, ortiqcha narsalar bilan to‘ldirilgan stulni, boshqasi nafis, tekis suyanchiqli stulni, boshqasi ofis stulini, yana biri esa tebranadigan stulni va boshqalarni tasavvur qilishi mumkin.

Ikki yoki undan ortiq kishi bir xil umumiy turni, masalan, tebranadigan stulni nazarda tutgan taqdirda ham ularning stul haqidagi aqliy tasavvurlari boshqacha bo‘lishi mumkin.

Va “stul” - bu juda oddiy tushuncha. “Vatanparvarlik” yoki “erkinlik” haqida nima deyish mumkin? Odamlar turli xil ma‘lumotlarga ega bo‘lganligi sababli ommaviy ma‘ruzachi xabarni murojaat qilinayotgan auditoriyaga moslashtirish uchun juda ehtiyot bo‘lishi kerak.

Notiq qachon o‘z tinglovchilarini yo‘qotadi? Agar notiq nutq ma‘ruzasini tinglovchilarga to‘g‘ri yo‘naltira olmasa va ularning tajribasi, qiziqishlari, bilimlari va qadriyatlari bilan bog‘lay olmasa o‘z tinglovchilarini yo‘qotadi. Siz tinglovchilarning qiziqishiga sabab bo‘ladigan nutq so‘zlaganingizda deyarli har doim muvaffaqiyatli bo‘lasiz.

Sharh (Feedback)

Prezident televideniye orqali xalqqa murojaat qilganda, u bir tomonlama aloqa bilan shug‘ullanadi. Siz televizor qarshisidasiz, lekin Prezident sizni eshitmaydi. Biroq aksariyat vaziyatlar ikki tomonlama aloqani o‘z ichiga oladi. Ushbu xabarlar teskari aloqa deb nomlanadi.

Jamoatchilik oldida so‘zlashuvda xabaringiz qanday qabul qilinayotganligi haqida sizga xabar berish uchun ko‘plab mulohazalar mavjud. Tinglovchilaringiz diqqat bilan e‘tibor berganda, o‘z o‘rindiqlarida oldinga egilishadimi? Ularning yuzlarida viktorina ko‘rinishlari bormi? Ular oyoqlarini silkitib, soatga qarashadimi? Ushbu reaksiyalar tomonidan yuborilgan xabar “Men hayratda qoldim”, “Men zerikib ketdim”, “Men sizning fikringizga qo‘shilaman”, “Men sizga qarshiman” yoki boshqa har qanday holat. Notiq sifatida ushbu reaksiyalardan ogoh bo‘lishingiz va xabaringizni shunga mos ravishda o‘zgartirishingiz kerak. Muloqotning har qanday turi singari fikr-mulohazalarning paydo bo‘lishiga ma‘lumotlar ta‘sir qiladi.

Agar ma‘ruza nutqingizdan so‘ng, barcha kursdoshlaringiz stol ustiga qo‘llarini urishni boshlasa, o‘zingizni qanday his qilasiz? Siz umidsizlikka tushib xonadan chiqib ketasizmi?

Aralashuv

Interferensiya - bu xabarni yetkazishga xalaqit beradigan har qanday narsa. Siz telefonda gaplashayotganingizda, ba‘zida harakatsiz bo‘ladi yoki simlar kesib o‘tiladi, shunda bir vaqtning o‘zida ikki xil suhbatlar davom etadi. Bu aralashuvning bir turi.

Ochiq so‘zlashishda ikki xil aralashuv mavjud. Ulardan biri xuddi telefon suhbatlaridagi statik yoki kesilgan simlar kabi tinglovchilar uchun tashqi muhit. Ko‘pgina sinflar bunday aralashuvga duch kelmoqdalar - bino tashqarisidagi tirbandlik, zalda suhbatlashayotgan talabalar, bo‘g‘adigan issiq yoki o‘ta sovuq. Ularning har biri tinglovchilarni sizning gaplaringizdan chalg‘itishi mumkin. Ikkinchi turdagi aralashuv ichki bo‘lib, sizning auditoriyangiz ichidan kelib chiqadi. Ehtimol, tinglovchilaringizdan birining tishi og‘riyapti. U og‘riqdan shunchalik chalg‘ishi mumkinki, natijada u sizning nutqingizga ahamiyat bermaydi. Notiq sifatida siz ushbu turli xil aralashuvlarga qaramay tinglovchilaringizning e‘tiborini jalb qilishga harakat qilishingiz kerak.

Vaziyat

Vaziyat - bu nutq aloqasi paydo bo‘ladigan vaqt va joy. Suhbat har doim ma‘lum bir vaziyatda o‘tadi. Ba‘zan vaziyat yordam beradi. Masalan, xuddi shamni yoqib, kechki ovqatda turmush qurishni taklif qilish. Boshqa paytlarda bu achinarli holat bo‘lishi mumkin. Masalan, sevgi so‘zlarini aytmoqchi bo‘lganingizda shov-shuvli musiqa xalaqit berishi mumkin. Biror kishiga ta‘sirchan muammo haqida gaplashishga to‘g‘ri kelganda, odatda vaziyat to‘g‘ri kelguniga qadar kutasiz.

Ommaviy ma‘ruzachilar ham vaziyatdan ogoh bo‘lishi kerak. Ba‘zi marosimlar: dafn marosimlari, to‘y marosimlari, bitiruv marosimlari nutqlarning ayrim turlarini talab qiladi. Jismoniy parametr ham muhimdir. Uyda yoki tashqarida, kichik sinfda yoki maktabda, zich joylashgan olomonga yoki bir nechta tarqoq qalblarga nutq so‘zlash juda katta farq qiladi. Omma

oldida nutq so‘zlagan vaziyatga moslashganda, siz har kuni suhbatda qilayotgan ishingizni shunchaki kattaroq hajmda bajarasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stephen E. Lucas, Paul Stob, The Art of Public Speaking. Thirteenth edition. McGraw-Hill Education. 2020. 492 pages.
2. Andrew J. DuBrin. Leadership: Cengage Learnin. Eighth Edition. 2016. 562 pages.
3. Michael J. Gelb. Mastering the Art of Public Speaking. New World Library. 2020. 98 pages.
4. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
5. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
6. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
7. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>
8. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
12. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
13. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
14. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA 4 K MODEL**Parpiyev Odil Olimovich,**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi

odilparpiyev71@gmail.com

Annotatsiya: Rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimida 4 K modeli asosidagi moslashuvchan ko‘nikmalar qo‘llanilib, uning maqsadi bolalarni zamonaviy kompetensiyalar – kollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik asosida hayotga tayyorlashdir. Maqolada 4 K tamoyilining mohiyati, uning paydo bo‘lish tarixi, imkoniyatlari, zarurati haqida so‘z boradi.

Muallif 4 K modeli asosida yaratilgan yangi avlod darsliklarining mohiyati, amaliyotga joriy etilishi, 4 K kompetensiyalarining har biriga alohida to‘xtalib, uning mazmunini sohada ilmiy-tadqiqotlar olib borgan atoqli olimlar fikrlaridan iqtiboslar keltirish orqali ochib bergan.

Kalit so‘zlar: Soft skills, yumshoq, moslashuvchan, kompetensiya, 4 K modeli, kritik, kreativ, kollaboratsiya, kommunikativlik.

Jahon Iqtisodiy Forumi asoschisi va ijrochi raisi professor Klaus Shvab o‘zining “To‘rtinchi sanoat inqilobi” nomli kitobida insonlarning hayot tarzi, ishlashi va o‘zaro munosabatlarini tubdan o‘zgartiruvchi inqilob boshida ekanligiga ishonch hosil qildi. Oldingi sanoat inqiloblari insoniyatni hayvonlar kuchidan ozod qilgani, ommaviy ishlab chiqarishni amalga oshirgani va milliardlab odamlarga raqamli imkoniyatlarni taqdim etgani haqida gapirib, To‘rtinchi sanoat inqilobi jismoniy, raqamli va biologik olamlarni uyg‘unlashtirgan, barcha fanlar, iqtisodiyot va sanoatlarga ta‘sir ko‘rsatadigan va hatto inson bo‘lish nimani anglatishi haqidagi g‘oyalarni qiyinlashtiradigan bir qator yangi texnologiyalar bilan tavsiflanishini ta‘kidlaydi.¹2016-yilda Davosdagi Jahon iqtisodiy forumi prezidenti Klaus Shvab To‘rtinchi texnologik inqilob boshlanganini ma‘lum qilib, tez orada robotlar biz uchun hamma narsani qilishi va 2020-yilga kelib har bir xodim murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, odamlarni boshqarish, jamoada ishlash, boshqa odamlar va o‘zining his-tuyg‘ularini boshqara olish, hukmlarni shakllantirish va qarorlar qabul qilish, mijozga e‘tibor qaratish, muzokaralarni olib borish, tezda bir vazifadan ikkinchisiga o‘tish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaydi.²

Rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimi mazmunida Davosda ilgari surilgan malakalar 4 K modelida ifodalanib, moslashuvchan ko‘nikmalar deb yuritila boshlandi. So‘nggi bir necha yil ichida butun dunyoda maktab ta‘limi fan bilimlari va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan an‘anaviy usullardan voz kechib, XXI asrning zamonaviy asosiy kompetensiyalari yoki ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga harakat qilmoqda.

2023/2024-o‘quv yilidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 K tamoyili asosida yaratilgan darsliklar asosida ta‘lim olmoqda. Xo‘sh, 4 K modeli nima? Uni qanday tushunish mumkin? Bir qator xorijiy olimlar 4 K modelini quyidagicha ta‘riflaganlar. D.Goleman fikricha, insonning kasbiy faoliyatdagi samaradorligi bevosita uning “yumshoq” qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, “muvaffaqiyatli mutaxassislarini muvaffaqiyatsizlardan, samarali tashkilotlarni

¹ <https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab/>

² Авдеева О.М. Модел 4 К: развитие soft навыков младших школьников через взаимодействие семьи и школы. Муром, 2020.

samarasizlardan ajratib turadi”³. T.Ya.Yarkova XXI asr shaxsining yetakchi mahoratini “tanqidiy fikrlash va faollik; hamma narsaga ochiqlik va uni boshqarish qobiliyati; aloqa mahorati; ma’lumotni topish va qayta ishlash qobiliyati; doimiy ravishda o’zini yaxshilash istagi va boshqalar” da ko’radi⁴.

Soft skills ingliz tilidan tarjima qilinganda yumshoq qobiliyatlar yoki moslashuvchan qobiliyatlar ma’nosini anglatadi. “Moslashuvchan” ko’nikmalar (ing. soft skills) – “ish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etish, yuqori mahsuldorlik uchun mas’ul bo’lgan va o’zaro bog’liq kasbiy ahamiyatga ega bo’lmagan, o’zaro faoliyat jarayonidagi ko’nikmalar to’plamidir”⁵.

“Moslashuvchan” ko’nikmalarni rivojlantirish muammosi bilan turli davrlarda ko’plab olimlar shug’ullanib, bu tushunchani idrok etishning o’ziga xos xususiyatlarini ilmiy qarashlar, fikrlar doirasida izohlash kerakligini ta’kidlaganlar. Shuni aytish mumkinki, tushunchaning barcha mavjud ta’riflari o’zaro bog’liq bo’lib, uning mazmunini yaxlit idrok etish amaliyoti kontentni tahlil qilish orqali muvaffaqiyatli aniqlanadi.

E.Gaiduchenko, A. Marushevlar “yumshoq (moslashuvchan) qobiliyatlar”ni boshqa odamlar bilan umumiy til topish, ular bilan aloqa o’rnatish va saqlab qolish, o’z fikrlarini yetkaza olish imkonini beradigan ko’nikmalar deb ta’riflab, “yumshoq (moslashuvchan) ko’nikmalar” - bu kundalik hayotda ham, kasbiy faoliyatda ham zarur bo’lgan eng muhim ko’nikmalar deb aytadi⁶. V. Davidovanning fikricha, “yumshoq malakalar” qo’shimcha ta’lim va shaxsiy hayotiy tajriba orqali egallangan va shaxsiy rivojlanish uchun maxsus kasbiy faoliyatda qo’llaniladigan ko’nikmalardir⁷.

I. Kanardov yumshoq malakalarning psixologik komponentini tadqiq qiladi va ularni “ijtimoiy malakalar” sifatida tasniflaydi: ishontirish, odamlarga yondashuvni topish, yetakchilik, shaxslararo muloqot, muzokaralar jarayonlari, jamoada ishlash, shaxsiy rivojlanish, vaqtni boshqarish, bilimdonlik, ijodkorlik va boshqalar⁸. O. Sosnitskaya uchun moslashuvchan ko’nikmalar aloqa va boshqaruv qobiliyatlari bo’lib, ular muallifning fikriga ko’ra, ishontirish, yetakchilik qilish, boshqarish, taqdimot qilish, odamlarga to’g’ri yondashuvni topish, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish va notiqlik qobiliyatidir⁹.

D.Tataurshikova “moslashuvchan ko’nikmalar” deganda ish samaradorligini va boshqa odamlar bilan o’zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradigan ko’nikmalar va shaxsiy fazilatlarini tushunadi, shu jumladan, ushbu ko’nikmalarga shaxsiy rivojlanishni boshqarish, birinchi yordam ko’rsatish, vaqtni to’g’ri boshqarish, ishontirish, muzokaralar qobiliyati, yetakchilik va boshqalar kiradi¹⁰.

Shu o’rinda “4 K modeli”, “4 K yondashuvi”, “4 K tamoyili” kabi nomlarda atalayotgan bu yangi innovatsion yondashuv mazmunini tashkil qilgan 4 ta kompetensiya haqida fikr yuritimiz.

Kollaboratsiya. Bu umumiy maqsad va unga erishish yo’llarini aniqlash, rollarni taqsimlash va natijani baholash qobiliyatidir. Kollaboratsiya deganda boshqa odamlar

³ Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – М.: АСТ, 2009. – 480 с

⁴ Яркова Т. А., Черкасова И. И. Указ. соч.

⁵ Lippman L.H., Ryberg R., Carney R., Kristin A. Workforce connections: key “soft skills” that foster youth workforce success: toward a consensus across fields. – Child Trends Publication, 2015. – 56 p.

⁶ Гайдученко Е., Марушев А. Эмоциональный интеллект. – URL: <https://l-a-b-a.com/lecture/show/99>.

⁷ Давидова В. Слушать, говорить и договариваться: что такое soft skills и как их развивать. – URL: <http://theoryandpractice.ru/posts/11719-soft-skills>.

⁸ Канардов И. Soft skills и Hard skills – в чем разница? – URL: <http://www.znai.su/statya/soft-skills-i-nard-skills-%E2%80%93-vchem-raznica>.

⁹ Сосницкая О. Soft skills: мягкие навыки твердого характера. – URL: <http://be-st.ru/ru/blog/13>.

¹⁰ Татауршикова Д. Soft skills. – URL: <https://4brain.ru/blog/soft-skills>.

bilan samarali o‘zaro munosabat va turli jamoalarda faol ishlash tushuniladi. Ushbu kompetensiyaning tuzilishi quyidagicha:

1. Umumiy maqsadlarni qabul qilish: jamoaning maqsadlarini baham ko‘rish va ularni o‘z shaxsiy maqsadlardan ustun qo‘yish, jamoada ishlash, o‘z mehnat natijasini jamoaviy qarorga birlashtirish, jamoaviy ishda his-tuyg‘ularni boshqarish.

2. Ijtimoiy aloqa:

- munozarada ishtirok etish, muzokaralar olib borish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, boshqa odamlarning fikrlarini tinglash va qabul qilish, harakatlarni jamoaning boshqa a‘zolari harakatlari bilan muvofiqlashtirish, ularga yordam berishga tayyorlik;

- umumiy natija uchun javobgarlikni olishga tayyorlik.

3. O‘z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish:

- jamoada ishlash uchun samarali bo‘lgan pozitsiyani egallash va rolni qabul qilishga tayyorlik;

- ishning bir qismini mas‘uliyat bilan bajarish.

4. Mustaqillik va tashabbuskorlik:

- topshirilgan vazifa doirasida mustaqil ishlay olish va tashabbus ko‘rsatish qobiliyati;

- muammoni hal qilishda jamoaning barcha a‘zolarini jalb qilish, ularga psixologik yordam ko‘rsatish va ularni rag‘batlantirish qobiliyati.

Boshlang‘ich sinf darsliklarini kuzatar ekanmiz, ular o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi. Kommunikativ kompetensiyaga ega o‘quvchida ifoda qilish qobiliyati kuchli bo‘lib, fikrlar, his-tuyg‘ular va faktlarni og‘zaki va yozma shaklda (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) sharhlaydi, shuningdek, turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda samarali muloqot qila oladi. Muloqot o‘quvchining sinfdoshlariga savol berish va ularning savollariga tushunarli tarzda javob berish, xabarlarida yoki mulohazalarda tushunarsiz bo‘lgan narsalarni tushuntirishga harakat qilish va o‘z navbatida, fikr va takliflarini oydinlashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kompetensiyaning tuzilishi quyidagicha:

1. Muloqotga tayyorlik: muloqotga kirishda qo‘rquvning yo‘qligi, muloqotni boshlash, boshqa birovning savoliga javob berishga tayyorlik, savol berishga tayyorlik.

2. Muloqotning maqsadi va kontekstiga va sherikga moslashish: muloqot qilish vaziyatlarida sherikning hissiy holatiga e‘tibor qaratib, turli xil og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalarini tanlash qobiliyati.

3. Ishonchli muloqot: muloqot maqsadiga erishish uchun og‘zaki (lug‘at va til qoidalarini bilish) va noverbal vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodalari, intonatsiya) foydalanish.

Kreativ fikrlash. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ijodkorlik innovatsion qarorlar qabul qilish va o‘zgaruvchan sharoitlarda ishonchni his qilishda vaziyatni turli tomonlardan baholashga imkon beradi. Ijodiy

qobiliyati rivojlangan odam ijodkorga aylanadi. U g‘oyalarni ishlab chiqishi va boshqa odamlarning tashabbuslarini rivojlantirishi mumkin. Qiyinchiliklarni yengish uning uchun hayajonli jumboqqa aylanadi. Kreativ fikrlash orqali o‘quvchilarda bilimlarni qo‘llash, sintez qilish va o‘zgartirish orqali muammolarni hal qilishda, mavzu oldida turgan savollarga javob berishda yoki fikrlarni ifodalashda prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni tasavvur qilish va ishlab chiqish qobiliyati rivojlanadi.

B.Lukas¹¹ tadqiqotlarida ijodkorlikning individual komponentlarini quyidagilarga ajratadi:

1. Qiziqish (topshiriqqa faol qiziqish):

- atrofimizdagi dunyoga qiziqish (vazifa vaziyati) va atrofimizdagi dunyo haqida ko‘proq bilish istagi (vazifa vaziyatining turli jihatlari haqida);

- o‘z savollariga mustaqil ravishda javob izlash, yangi ma‘lumotlarni faol qidirish.

2. G‘oyalar yaratish (tasavvur). O‘z g‘oyalarni ishlab chiqish.

Bu yerda ikkita jihat bor:

- taklif etilayotgan g‘oyalarning o‘ziga xosligi;

- moslashuvchanlik yoki harakatchanlik, ko‘p sonli g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati.

3. Taklif etilayotgan g‘oyalarni ishlab chiqish:

- g‘oyani takomillashtirish yoki undan voz kechish uchun taklif qilingan g‘oyalarni turli pozitsiyalardan baholash va ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash;

- o‘zgaruvchan sharoitlarda va tadqiqot ob‘ekti haqida yangi ma‘lumotlar paydo bo‘lishi bilan o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Kritik (tanqidiy) fikrlash. Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Kritik fikrlashning asosiy elementlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tahlil: bayonotlar, savollar, dalillar o‘rtasidagi aloqalarni topish qobiliyati.

2. Baholash: fikrlar va dalillarning ishonchligini baholash qobiliyati.

3. Tushuntirish: o‘z fikrini tushuntira olish va xulosalarni himoya qilish qobiliyati.

4. Gipotezalarni chiqarish: farazlarni shakllantirish va xulosalar chiqarish, ma‘lumotlar yetishmasligini aniqlash qobiliyati.

5. O‘z-o‘zini tartibga solish: fikrlash, o‘z-o‘zini tekshirish va tuzatish.

Yuqoridagi kompetensiyalar tasavvurga, g‘oyalar yaratishga, argumentlar tuzishga, ma‘lumotdagi bo‘shliqlarni yoritib berishga va izlashga, o‘z g‘oyalarni shakllantirishga va boshqalarni rivojlantirishga, o‘z taxminlari va mulohazalarini baholashga, guruh maqsadlarini qabul qilishga va umumiy natijani baholashga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авдеева О.М. Модел 4 К: развитие soft навыков младших школьников через взаимодействие семьи и школы. Муром, 2020.

¹¹ Авдеева О.М. Модел 4 К: развитие soft навыков младших школьников через взаимодействие семьи и школы. Муром, 2020.

2. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – М.: АСТ, 2009. – 480 с
3. Яркова Т. А., Черкасова И. И. Указ. соч.
4. Lippman L.H., Ryberg R., Carney R., Kristin A. Workforce connections: key “soft skills” that foster youth workforce success: toward a consensus across fields. – Child Trends Publication, 2015. – 56 p.
5. Гайдученко Е., Марушев А. Эмоциональный интеллект. – URL: <https://l-a-b-a.com/lecture/show/99>.
6. Давидова В. Слушать, говорить и договариваться: что такое soft skills и как их развивать. – URL: <http://theoryandpractice.ru/posts/11719-soft-skills>.
7. Канардов И. Soft skills и Hard skills – в чем разница? – URL: <http://www.znai.su/statya/soft-skills-i-nard-skills- %E2%80%93vchem-raznica>.
8. Сосницкая О. Soft skills: мягкие навыки твердого характера. – URL: <http://best.ru/ru/blog/13>.
9. Татаурщикова Д. Soft skills. – URL: <https://4brain.ru/blog/soft-skills>.
10. Авдеева О.М. Модел 4 К: развитие soft навыков младших школьников через взаимодействие семьи и школы. Муром, 2020.
11. <https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab/>
12. Parpiyev Odil Olimovich, & Raupova Laylo Rakhimovna. (2024). Stages and Peculiarities of Increasing Written Literacy in Primary Education. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 62–64. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2061>
13. Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>
14. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
15. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>
16. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
17. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIISHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
18. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**Parpiyev Odil Olimovich**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Olimova Muazzamxon Tursunali qizi

Qo‘qon universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasida qo‘llaniladigan interfaol metodlar haqida so‘z boradi. Ona tilidan beriladigan o‘quv materialini o‘quvchilar aniq tushunishi va puxta o‘zlashtirishiga, ulardan olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o‘quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya‘ni ularning zehni, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o‘ylashini, nutqini o‘stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol, metod, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, ona tili, 4K.

Hozirgi kunda barcha ta‘lim muassasalarida o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta‘lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo‘lishini ta‘minlashga ko‘maklashadi. Interfaol metodlar asosidagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol so‘zi iglizcha “Interact” so‘zidan olingan bo‘lib, “inter” – birgalikda o‘zaro, “act” harakat qilish degan ma‘noni bildiradi. Interfaol metodlar o‘zaro harakat o‘quvchilarning faolligi, guruh tajribasiga tayanish, qayta bog‘lanish tamoyillariga asoslanadi. Masalan bir qancha interfaol metodlarni ko‘rib chiqamiz.


Kakografiya interfaol metodi.

Kakografiya so‘zi lotincha kakos – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, muayyan maqsadni ko‘zlab xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan matnni tuzatirish orqali o‘quvchilarga imloni o‘rgatish usuli sanaladi. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo‘yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O‘quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo‘qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, tobelik, nefaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo‘limlari bilan bog‘liq amaliy darslarni o‘tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o‘quvchilarga unli va undosh tovushlar bo‘yicha yetarlicha ma‘lumotlar berilgach, “Mustahkamlash darslari” yoki “Takrorlash darslari” da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e‘tibor so‘zlarning aytilishi va yozilishi o‘rtasidagi farqqa qaratiladi. Tajribadan ma‘lumki, o‘quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirmaydilar. So‘zlarni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya soladi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik

darajasining qotib qolishiga, so‘zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas‘ul, daryo kabi so‘zlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma‘sul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo‘yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi.

“Oltin qafas” metodi.

“Sifatlar shaharchasi”da juda ko‘p to‘tiqushlar bor ekan. Ular erkin uchib yurishar, kech kirganda “Oltin qafas”iga qaytar ekan. Kunlardan bir kun chang-to‘zon bo‘lib, ular qafasini topa olishmabdi. Qani aziz bolajonlar to‘tiqushlar qafasini topishga yordam beringlarchi.



Zumrad va Qimmat metodi.

Bu metodni bajarish mobaynida doskaga Qimmat va Zumrad rasmlari ilingan bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan quyidagi savol bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

Qani, aziz bolajonlar ushbu qizlarni tanidingizmi? Ularni qaysi ertak orqali bilamiz? O‘quvchilar javobi tinglanadi va o‘quvchilarga Zumrad va Qimmatning fazilat va illatlarini sinfdagi so‘zlardan topib, qizlar qo‘lidagi jadvalga joylashlari aytiladi. Sinfning turli joylariga oldindan ushbu so‘zlar ilingan bo‘ladi. Bu topshiriqni o‘quvchilar bajarishadi. Topshiriqni bajarish mobaynida o‘quvchilar qarama qarshi ma‘noli sifatlarni yaxshi o‘zlashtirib boradi.

Zumradoy	Qimmatxon
Odobli	Odobsiz
Mehnatkash	Dangasa
Aqlli	Aqlsiz
Saxiy	Ochko‘z
Yaxshi	Yomon
Tartibli	Tartibsiz

Blum moychechagi metodi. Bu metod hozirgi yangi avlod darsliklaridagi 4 K modelini qo‘llashda o‘qituvchiga yaqindan yordam beradi. Ona tili ta‘limi uchun mos metod hisoblanib, ushbu metod orqali beriladigan savollar natijasida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanib boradi. Bu metodni nafaqat ona tili darslarida, balki boshqa darslarda ham qo‘llashimiz mumkin. Buning uchun qog‘ozga yoki doskaga katta moychechak rasmi chiziladi, o‘rta qismiga bironta mavzu nomi yoziladi. Moychechak yaproqlariga esa quyida keltirilgan savollar joylashtiriladi. Bu metodni yakka yoki guruh bo‘lib bajarilsa ham bo‘ladi.

1. Oddiy savollar. Kim?, nima?, qayer?, qanday?, qachon?
2. Aniqlashtiruvchi savollar. “Sizning aytishingizcha,...” “Agar sizni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam,...” “Balkim adashayotgandirman, ammo siz ... dedingiz”
3. Tushuntiruvchi savollar. “Nima uchun... bo‘ldi?”
4. Ijodiy savollar. “Agar... bo‘lsa, nima qilar edi?” “Siz nima deb o‘ylaysiz ... bo‘lsa, nima bo‘ladi?”
5. Baholovchi savollar. “Nima uchun bu salbiy, bu ijobiy?” “Bu narsa bunisidan nimasi bilan farq qiladi?”
6. Amaliy savollar. “Buni qanday qo‘llash mumkin?” “Bunday hollarda nima qilish mumkin?”

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu metodlar orqali o‘quvchilarni ona tili bo‘yicha o‘rganayotgan bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.E.Toirova. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I qism.–Toshkent “Novda Edutainment”, 2023-81 b.
1. 2.U.B. Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism.–Toshkent “Novda Edutainment”, 2023-80 b.
2. Parpiyev Odil Olimovich. (2023). MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 876–881. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.748>
3. Mirzakarimova Nurhayo Erkinboy qizi, Odil Parpiyev. (2024). Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi. *SAMARALI TA‘LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 153–159. Retrieved from <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/436>
4. Parpiyev Odil Olimovich, & Raupova Laylo Rakhimovna. (2024). Stages and Peculiarities of Increasing Written Literacy in Primary Education. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 62–64. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2061>
5. Парпиев, О. . (2024). Повышение грамотности письменной речи учащихся на уроках родного языка на основе передовых педагогических технологий. *Общество и инновации*, 5(2/S), 146–152. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp146-152>

6. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.

7. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>

8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH**Parpiyev Odil Olimovich,**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Raximova Lobarxon,

Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning ahamiyatini va o‘qituvchilar ushbu hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun amalga oshirishi mumkin bo‘lgan strategiya va tadbirlar yoritiladi. Misollar keltirish orqali fikrlar isbotlangan.

Kalit so‘zlar: ona tili, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, til, qobiliyat.

Ta‘limda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini tarbiyalash o‘quvchilarni doimiy rivojlanayotgan va murakkab dunyoda rivojlanishga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ijodiy fikrlash shaxslarga muammolarga innovatsion yechimlar bilan yondashish, tanqidiy fikrlash va o‘zgacha va mazmunli usullarda o‘zini namoyon qilish imkonini beradi. Ona tili darsligidagi ijodkorlik bu ko‘nikmalarni yoshligidanoq tarbiyalashda qimmatli yondashuv hisoblanadi. O‘quv dasturiga ijodiy fikrlash mashqlari, ko‘rsatmalar va loyihalarni kiritish orqali o‘quvchilarda aqliy hujum, tahlil qilish va ona tilida samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda ijodiy fikrlash qobiliyati har qachongidan ham muhimroqdir. Ijodiy fikrlash odamlarga muammolarga innovatsiyalar bilan yondashish, tanqidiy fikrlash va samarali muloqot qilish imkonini beradigan hayotiy qobiliyatdir. Ta‘lim haqida gap ketganda, o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish ularni XXI asrda muvaffaqiyatga tayyorlashning kalitidir. Til o‘rganishda ijodiy fikrlashning ahamiyati yuqori.

Til shunchaki muloqot vositasi emas; shuningdek, ijodkorlik va o‘zini namoyon qilish uchun vositadir. O‘quvchilar ijodiy til faoliyati bilan shug‘ullansa, ular tilni chuqurroq o‘zlashtirib, so‘z boyligini kengaytiradi, muloqot ko‘nikmalarini oshiradi. Qolaversa, ona tilida ijodiy fikrlash o‘quvchilarning o‘z fikr va g‘oyalarini yanada nozik va ta‘sirchan ifodalashiga yordam beradi.

Ona tili darslarida ijodkorlikni qo‘llash o‘quvchilarning til bilimlarini, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini va materialga umumiy qiziqishlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. O‘quvchilarni o‘z ona tilida ijodiy fikrlashga undash o‘z-o‘zini ifoda etish, muloqot qilish va muammolarni yechish uchun keng imkoniyatlar ochadi. O‘quvchilarga o‘z fikrini betakror va xayoliy usullarda ifodalash uchun vositalar va erkinlik bilan ta‘minlash orqali o‘qituvchilar til bilan chuqurroq bog‘lanishni kuchaytirishi va o‘rganishga umrbod muhabbat uyg‘otishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish nafaqat til ko‘nikmalarini egallash, balki o‘quvchilarni o‘z ona tilida izlanish, yangilik yaratish va samarali muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirishdir.

Ona tili darslarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish ularning tilni bilish va kognitiv qobiliyatlarini oshiradigan qimmatli mahoratdir. Ona tili darslarida ijodkorlikni rivojlantirish uchun bir necha strategiyalar:

1. Ochiq savollarni rag‘batlantirish: O‘quvchilarni tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni talab qiladigan ochiq savollarni berish va ularga javob berishga undash. Bu o‘quvchilarga maqsadli tildagi ma‘lumotlarni tahlil qilish va sharhlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Hikoya qilish: hikoya qilishdan o‘quvchilarning tasavvurini va ijodini jalb qilish vositasi sifatida foydalaning. O‘quvchilarni ona tilida o‘z hikoyalari, she‘rlari yoki dialoglarini yaratishga undash, o‘z fikrlarini ijodiy ifodalash imkonini beradi.

3. Hamkorlikdagi loyihalarni rag‘batlantirish: muammolarni hal qilish yoki yangi narsalarni yaratish uchun o‘quvchilarning birgalikda ishlashini talab qiladigan hamkorlik loyihalarini tayinlang. Bu ijtimoiy muhitda ijodkorlikni rivojlantirish bilan birga o‘quvchilarga jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Multimedia resurslaridan foydalaning: ona tili darslariga musiqa, video va tasviriy san‘at kabi multimedia resurslarini integratsiya qilib, ijodkorlikni ilhomlantirish va o‘quvchilar uchun turli ilhom manbalarini taqdim eting.

5. O‘z-o‘zini ifoda etish erkinligini ta‘minlash: o‘quvchilarga yozma, nutq yoki badiiy loyihalar orqali maqsadli tilda o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yarating. O‘quvchilarni o‘zlarining nutqini rivojlantirishlari uchun turli uslublar va janrlarni o‘rganishga undash.

6. Muammoni hal qilish ko‘nikmalarini ta‘kidlang: o‘quvchilarni ona tilida ijodiy yechimlarni talab qiladigan muammolar yoki ssenariylar bilan tanishtiring. Bu o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ularning til qobiliyatini oshiradi.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali o‘qituvchilar ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlariga yordam berishlari mumkin, ularda tasavvur va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash orqali tilni chuqurroq tushunish va qadrlashni rivojlantirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

2. Mavlonova I.V. “O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda fe‘l nisbatlaridan foydalanish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent-2015.

3. Parpiyev Odil Olimovich, & Abdushuxratova Durдона Anvarovna. (2024). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yin usullari. *Yangi O‘zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 2(1), 158–161.

4. O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LIRIK SHE‘RLARNI O‘TISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH. (2024). *Ustozlar Uchun*, 53(3), 130-136. <http://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/294>

5. Gulbakhor Abdullayevna Gaynazarova, Karomat Otaboyevna Matnazarova, & Odil Olimovich Parpiyev. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. *Academia*

Repository, 4(12), 131–135. Retrieved from
<https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/318>

6. Mirzakarimova Nurhayo Erkinboy qizi, Odil Parpiyev. (2024). Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 153–159. Retrieved from <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/436>

7. Parpiyev Odil Olimovich, & Raupova Laylo Rakhimovna. (2024). Stages and Peculiarities of Increasing Written Literacy in Primary Education. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 62–64. Retrieved from
<http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2061>

8. Парпиев, О. . (2024). Повышение грамотности письменной речи учащихся на уроках родного языка на основе передовых педагогических технологий. *Общество и инновации*, 5(2/S), 146–152. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp146-152>

9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

10. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

**TARBIYA – ZIROATGOH, HOSILI – BILIM JADID PEDAGOGIKASIDA
“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI****Parpiyev Odil Olimovich,**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi, 4-kurs talabasi

*“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”¹.***Abdulla Avloniy**

Annotatsiya: Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari, o‘zbek pedagogikasining tarbiya bobidagi eng ko‘p murojaat qilinadigan asarlaridan biridir. Bu asar Avloniyning nafaqat o‘z davridagi, balki bugunning yoshlarini ham yangicha yo‘nalishda o‘qitish va milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan, pedagogik xususiyatga ega namunalardan biridir.

Asarning mazmuni yoshlarni ma‘rifatga chorlash, axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish, sharqona, ko‘p milliy an‘analarimiz ruhidagi tarbiya ishlarining yo‘l-yo‘riqlarini talqin etishga asoslangan. Unda vatanparvarlik, ma‘rifatparvarlik va milliy ozodlik taronalari alohida o‘rin tutadi. Uning deyarli barcha asarlarida ilm-marifatga e‘tiborsizlikni qoralab, ma‘rifatli va ilmi bo‘lishga targ‘ib qiladi va bu, har bir xalqning taqdiri va taraqqiyotini belgilab berishini e‘tirof etadi.

Asarda «Axloq», «Tarbiya», «Yaxshi xulqlar», «Yomon xulqlar» deb nomlangan mavzular hayotiy misollar yordamida keng yoritilgan bo‘lib, ushbu maqolamiz orqali undan “Tarbiya” fani darsligi sifatida yanada kengroq foydalanishimiz mumkinligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: jadid maktabi, ta‘lim-tarbiya, axloq, pedagog, ma‘rifat, milliy uyg‘onish ruhi, “Jamiyati xayriya”, iffat, hayo, isrof, vatanparvarlik g‘oyasi, loqaydlik, namimat, johillik, vatan saodati, ijtimoiy muammo, yaxshi va yomon xulqlar.

Abdulla Avloniy jadid adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri, pedagog, ijodkor va taniqli jamoat arbobi sanaladi. O‘tgan asrimizning boshlarida o‘zbek matbuoti va adabiyoti, shuningdek, marifat va maorifini Abdulla Avloniysiz tasavvur etish bo‘lmaydi.

Yoshligidan qiyinchiliklarga qaramay zehni o‘tkir Abdulla tirishqoqligi, shijoat va g‘ayrati, intiluvchan va qiziquvchanligi sabab doimo o‘qishga, ilm olishga chanqoqlik bilan yashadi. Turkiston, Tatariston, Kavkazda nashr etiluvchi qator gazeta va jurnallarni kuzatib borish uning dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo‘ldi².

Umri davomida vatan va millat kelajagi uchun ilm-ma‘rifat sohasida ko‘plab xizmatlar qiladi. Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi yo‘nalishdagi jadid maktabini ochib, o‘zi unga mudirlik va o‘qituvchilik qiladi. 1909-yilda kambag‘al, yetim-yesirlarga ko‘mak beruvchi “Jamiyati xayriya” degan uyushmani tashkil etadi³.

¹ <https://hikmatlar.uz/quote/1139>

² <https://ziyomaskan.uz/wp-content/uploads/2018/05/ABDULLA-AVLONIYNING-HAYOTI-VA-IJODI.doc>

³ <http://jadidlar.uz/jadids/abdulla-avlonii-10>

U pedagog sifatida ta’limni hayot, turmush bilan bog’lashga intilib, bir dars bilan boshqasi o’rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o’tishdagi imtihonni joriy etadi, ta’lim tizimining yo’nalishlarini kengaytirish hamda kuchaytirishga alohida e’tibor beradi.

Uning “Birinchi muallim” (1909), “Ikkinchi muallim” (1912) nomli darsliklari hamda “Turkiy Guliston yoxud axloq” (1913) nomli qo’llanmasi o’z davrida yoshlarni yangicha yo’nalishda o’qitish va an’anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo’ldi desak, hech mubolag’a bo’lmaydi. Uning besh to’plamdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (1909-1919) maktablarda qo’llanma vazifasini o’tagan⁴.

Abdulla Avloniyning shoir sifatidagi ko’plab she’rlarida vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik va milliy-ozodlik taronalari alohida o’rin tutadi⁵.

U ko’plab she’rlarida el ichida hukm surib kelayotgan ilm-marifatga e’tiborsizlikni qattiq qoralab, ma’rifatli va ilmi bo’lish har bir xalqning taqdiri va taraqqiyotini belgilaydigan omil ekanligini ta’kidlaydi.

Avloniyning she’r, qo’shiq darsliklaridan tashqari “Advokatlik osonmi?”, “Pinsk”, “Biz va Siz”, “Ikki muhabbat”, “Portugaliya inqilobi” kabi bir qator pyesalari o’zbek dramaturgiyasining shakllanishida munosib o’rin tutgan.

Abdulla Avloniyning 1913-yilda “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli o’z davrining maktab o’quvchilari uchun qo’llanma tarzida yozgan asari asr tonggi o’zbek badiiy pedagogikasi tarixida o’ziga xos o’ringa ega⁶.

Asarning tub mohiyatini yoshlarni ma’rifatga chorlash, sharqona, ko’p milliy an’analarimiz ruhidagi tarbiya ishining yo’l-yo’riqlarini talqin etish, ayni vaqtda, ta’lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg’or talablarini qo’yish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqidagi o’rnini yoritish tashkil etadi. Abdulla Avloniy o’z asarida yaxshi va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, o’y va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritar ekan, ularning har biridagi o’ziga xos tomonlarni ochib berishga harakat qilgan. Uning o’qish, o’qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur degan fikrni o’z zamoni uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir. “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, deb yozadi Avloniy.

Shunisi alohida diqqatga sazovorki, “Turkiy Guliston...” da tarbiyaviy ishlar bugun deyarli unutilib borayotgan diyonat, sa’y va g’ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, sabr, hilm, nafs, vijdon, iffat, hayo, viqor, hivzi lison, munislik, xayrixohlik, oliyhimmatlik kabi yuksak axloqiy tushunchlar (ilmni egallash va vatanparvarlik g’oyasi bilan chambarchas aloqada); zulm, nifoq, ta’ma, hasad, loqaydlik, g’iybat, haqorat, uyatsizlik, namimat (chaqimchilik), adovat, xasislik, vijdonsizlik, johillik, g’azab, xiyonat singari shaxs tabiatidagi yomon xulqlar (millat va vatan saodatiga e’tiborsizlik va bepisandlik bilan bog’langan holda) muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etiladi. Ularning inson hayoti va taqdiridagi o’rni va rolini muallif lo’nda, aniq va muxtasar ravishda talqin qiladi. Bu axloq luzumlarini chuqur o’zlashtirish bugungi yoshlar uchun ham, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi⁷.

⁴ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/abdulla-avloniy-1878-1934>

⁵ A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O’zbek musiqasi tarixi. — T.: «Fan va texnologiya», 2018, 204+12 bet.

⁶ Turkiy guliston yoxud axloq: Ibratli hikoyalar/Abdulla Avloniy.—T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.-96 b.

⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-avloniy-chin-ma-noda-muallim>

Asar quruq pand-nasihatlardangina tashkil topmay, undagi qator fikr, g‘oyalarda millat kelajagi haqidagi qayg‘urish, vatan istiqboli haqida o‘ylash, el va yurtga sodiq, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga birinchi darajali e‘tibor berish kerakligi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunida alohida o‘rin tutadi.

“Men xastayamu millatim o‘lmish nega bemor?!“⁸, – degan savolga butun asar davomida javob berishga intiladi.

Asardagi barcha naql-hikoyatlar g‘oyasidan kelib chiqadigan badiiy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatni ravnaq toptirishning asosiy yo‘li – har bir shaxsning yuksak axloqli va ma‘naviy go‘zal, ilmi va ma‘rifatli bo‘lishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, bilimu idrok, aqchayu iqtisod – barchasini vatan ravnaqi va xalq saodatiga yo‘naltirishdan iboratdir.

Asarda XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish ruhi, ayniqsa, vatanga, millatga sodiq farzandlar tayyorlash zarurligi o‘tkir qo‘yilgan. “Amerikaliklar bir dona bug‘doy ekub, yigirma qadoq bug‘doy olurlar. Ovrupalilar o‘zimizdan olgan besh tiyinli paxtamizni kelturib, o‘zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo bizlar osiyolilar, xususan, turkistonlilar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o‘rniga kesak tishlaymiz!“⁹ degan fikrlar ulug‘ adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq bu masala xususida nechog‘lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko‘rsatib turibdi.

Hozir alohida iftixor bilan takrorlayotganimiz – muqaddas hadisda aytilgan “Xubbul vatan-minal iymon” – “Vatanni sevmoq iymondandir” degan fikrga ham Abdulla Avloniy o‘z asarida alohida o‘rin ajratgan. Yoxud yana bir misol. “Hifzi lison deb har bir millat o‘z ona tili va adabiyotining saqlamagani aytilur, - deydi Abdulla Avloniy shu asarida. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tili ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukukatimiz bo‘lg‘on rus lisonin bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z erkimizga ishlatmak va so‘zlamak lozimdur“¹⁰.

Avloniyning asr boshidagi bu xasratli nidosi buyuk bobolarimiz ruhi yanglig‘ turkistonliklar boshi uzra hamon charx urib yuribdi.

Axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” badiiy teran va go‘zal asardir. U “Axloq”, “Tarbiya”, “Yaxshi xulqlar”, “Yomon xulqlar” deb nomlangan dolzarb mavzularni hayotiy misollar yordamida keng yoritgan. Ularning ichida har bir axloqiy tushunchani yuritishga alohida parcha ajratiladi va u mo‘jaz naql, ixcham hikoyatlar bilan bezaladi, pedagogik mazmun badiiy va tarixiy obrazlar vositasida yanada mustahkamlanadi¹¹.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta‘kidlagan edilar: “Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta‘lim – tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Taraqqiyotning tamal toshi, millatni buyuk qiladigan kuch ilm-fan va ta‘lim-tarbiyadir“¹².

⁸ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avloniy-1878-1934/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq>

⁹ <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-zbek-pedagogikasining-asoschisi.htm>

¹⁰ https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/10/conf_21_2020/8.Adabiyot_1_qism.pdf

¹¹ <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/abdulla-avloniy-3>

¹² <https://president.uz/oz/2049>

Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim. Tarbiya – pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir¹³.

Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo‘lgan axloqi zamimlar: yomon xulqlarning fanoliqlarini, yaxshi xulqlarning go‘zalligini insof muvozanasi ila o‘lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdur. Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so‘zlarni eshitub va ko‘rub hissa olmak, yomon va zararlilarini uqub, bilub o‘zini tiymak, qo‘ldan kelguncha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmaktadur. Chunki har narsaning haddan ortuqchasi isrofdur. Lekin yaxshilik va yaxshi sifat qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha mamduh va maqbuldur. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bandalarning yaxshirog‘i bandalarga foydali bo‘lganidur», – demishlar¹⁴.

Darhaqiqat, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini darsliklar orqali kichik maktab yoshidan bosqichma bosqich o‘rgatib borsak, bugungi kun ta’lim-tarbiyamizda uchrayotgan noxush holatlarga ma’lum darajada yechim topgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. - Toshkent: “O‘zbekiston” – 2019.
2. Shavkat Mirziyoyevning «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. 15.06.2017.
3. Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola./Olim Oltinbek. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 – 156.
4. Turkiy guliston yoxud axloq: Ibratli hikoyalar/Abdulla Avloniy. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.-96 b.
5. A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” T: “O‘qituvchi” – 1992.
6. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. –T.:»Fan va texnologiya», 2018, 204+12 bet.
7. Dinshunoslik asoslari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent Islom Universiteti nashriyot – matbaa birlashmasi. Toshkent – 2013.
8. Gaynazarova, G. A., & Bahronovna, I. Z. (2023). Mediasavodxonlikning yosh avlod ma’naviyatiga ta’siri. World of science, 6(11), 123-128.
9. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-zbek-pedagogikasining-asoschisi.htm>

¹³ <https://hikmatlar.uz/quote/774>

¹⁴ https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Abdulla%20Avloniy.%20Turkiy%20Guliston%20yoxud%20axloq.pdf

10. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avloniy-1878-1934/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq>
11. <http://jadidlar.uz/jadids/abdulla-avlonii-10>
12. Parpiyev Odil Olimovich. (2023). MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 876–881. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.748>
13. Parpiyev, O., & Pozilov, H. (2023, June). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI. In Конференция: Союз Науки и Образования (Vol. 5, No. 2, pp. 63-74).
14. Parpiyev Odil Olimovich, & Raupova Laylo Rakhimovna. (2024). Stages and Peculiarities of Increasing Written Literacy in Primary Education. International Journal of Formal Education, 3(2), 62–64. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2061>
15. Парпиев, О. . (2024). Повышение грамотности письменной речи учащихся на уроках родного языка на основе передовых педагогических технологий. Общество и инновации, 5(2/S), 146–152. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp146-152>

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FORMATIV BAHOLASH**Parpiyev Odil Olimovich**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Yoqubova Dilraboxon Dilmurodjon qizi

Qo‘qon universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida formativ baholash va uning mazmuni yoritilgan. Baholashga doir misollar, samarali va samarasiz izoh-mulohazalar, qay tarzda baholash usullari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: formativ baholash, o‘qituvchi, o‘quvchi, yutuq, kamchilik, baholash, xulosa chiqarish.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o‘zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Jumladan, ta‘lim tizimida ham. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilib, ta‘lim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir. Formativ baholash O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv faoliyatining doimiy monitoringini o‘tkazish qoidalari doirasida ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va amaldagi 284-sonli buyrug‘iga kiritilgan.

O‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy usullar to‘plamini formativ baholash deb ataymiz. Bu o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan o‘quv jarayonining bir qismi bo‘lib, o‘quv va o‘qitish usullarini o‘zgartirish orqali o‘quvchilarning tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotini kuzatadigan doimiy jarayondir. Pedagogika fanlari nomzodi, tadqiqotchi Malina Aleksandrovna Pinskaya o‘zining “Baholashning yangi shakllari” kitobida formativ baholash o‘quv jarayonining yakuniy bosqichida, balki boshlang‘ich va o‘rta bosqichda qanday o‘tayotganiga tashxis qo‘yish uchun zarur va agar ma‘lumotlar qoniqarsiz bo‘lib chiqsa, olingan ma‘lumotlar asosida kerakli ma‘lumotlarni kiritish va ta‘lim faoliyati sifatini oshirish uchun o‘zgartirishlar kiritish mumkinligini, bu jarayon butun o‘quv dasturi o‘rniga individual o‘quv mahoratiga yoki o‘quv dasturidagi ko‘nikmalarga yo‘naltirilishini, ushbu baholashlar ma‘lum bir maqsad sari intilishni o‘lchash uchun mo‘ljallanishini aytib o‘tadi.

Hozirgi kunda baholashning maqsadi o‘zgartirildi. Barchamizga ma‘lumki, baholash – rag‘batlantirish yoki jazolash quroli vositasida foydalaniladi. Lekin endi ta‘limda baholash jazolash yoki rag‘batlantirish quroli bo‘libgina qolmay, xulosa olish vositasi ham bo‘la oladi.

An‘anaviy baholash:

O‘quvchilarga savol beriladi va qay biri savolga yaxshi javob bersa, o‘sha o‘quvchiga yaxshi baho qo‘yiladi.

O‘qituvchi:

–Qani turing, Marhaboxon, o‘zbek tilida nechta unli tovushlar bor va ular qaysilar?

1-o‘quvchi: O‘zbek tilida 6 ta unli tovush bor. Ular... (O‘quvchi ayta olmaydi).

O‘qituvchi :

–O‘tiring xato aytdingiz.

2-o‘quvchi: O‘zbek tilida 6 ta unli tovushlar bor. Ular: a,o,i,u,o‘,e.

O‘qituvchi:

–To‘g‘ri topdingiz sizga 5 baho.

Yangicha baholash :

Yangicha baholashning maqsadi butunlay boshqa. Bunda ham o‘quvchilarga xuddi shunday savol beriladi, lekin ularga aniq baho qo‘yilmaydi. Aksincha, ularning xatolari, kamchiliklari va yutuqlari og‘zaki tarzda, yozma tarzda ifodalanib, ularni rivojlantirishga qaratiladi.

1-o‘quvchini baholash:

–Barakalla, Marhaboxon, siz unli tovushlar 6 taligini to‘g‘ri topdingiz, lekin ular qaysilar ekanligini eslolmadingiz.

(O‘qituvchi sinfga yuzlanadi va bir o‘quvchi aytadi).

–Qani kim aytadi, unli tovushlar qaysilar? Marhaboxon eslab qoling.

–Mana, Marhaboxon unilarni eshitdingiz a, endi doskaga chiqib yozing. Endi esa doskaga qaramay takrorlab ayting. (O‘quvchi unilarni takrorlab aytadi.)

–Barakalla, yodingizdan chiqmasin, ko‘proq qoidalarni o‘qing.

2- o‘quvchini baholash:

–Barakalla, unli tovushlar 6 taligi va ular a, e, i, u, o‘ o‘ligini to‘g‘ri topdingiz. Sizing xotirangiz juda yaxshi ekan, albatta, bundan keyingi darslarni ham shunday o‘zlashtirishda davom eting.

Bunda o‘qituvchi baholashda formativ baholashni amalga oshiradi, ya‘ni o‘quvchining yutuq va kamchiliklari aytiladi. 1-o‘quvchining yutug‘i uning unli tovushlarning 6 taligini to‘g‘ri topgani va kamchiligi esa qaysilar ekanligini ayta olmaganligidir. 2-o‘quvchining to‘g‘ri javob bergani uning yutug‘i bo‘lib, buni o‘qituvchi asoslab berishi juda samaralidir. Ko‘rib o‘tganimizdek, o‘quvchilarning bahosini har doim e‘lon qilmaydi. O‘qituvchi o‘zi uchun o‘quvchiga baho qo‘yadi. Lekin uni ommaviy tarzda o‘quvchilarga e‘lon qilmaydi. Yuqoridagi misolda o‘qituvchi o‘quvchining bahosini aytgani yo‘q, faqat uning yutuqlari, kamchiliklari aytilib bilmaganini takrorlab o‘tilyapti. O‘quvchilarning javoblaridan kerakli xulosa chiqaradi. Bunda o‘quvchining javobi noto‘g‘ri bo‘lsa, to‘g‘ri xulosa chiqariladi. Ya‘ni yuqorida ko‘rganimizdek, o‘quvchi savolga noto‘g‘ri javob berganidan keyin o‘qituvchi o‘quvchiga eshitib turishini aytib, sinfga yuzlandi va bir o‘quvchi to‘g‘ri javob berdi. Bunda o‘quvchi o‘zi uchun kerakli xulosani chiqarib oldi, nimalarda xato qilgani va uni keyingi darslarda mana shunday xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi. Hatto o‘qituvchi o‘quvchining qilgan xatosini to‘g‘rilab, mustahkamlab ham qo‘ydi. Buni misoldan ko‘rsak bo‘ladi:

–Mana, Marhaboxon unilarni eshitdingiz a, endi doskaga chiqib yozing. Endi esa doskaga qaramay takrorlab ayting. (O‘quvchi unilarni takrorlab aytadi.)

Izoh- mulohazalarni berib boradi. Har bir o‘quvchining berilgan javobiga izoh berib o‘tiladi.

Masalan:

1-o‘quvchiga izoh:

–Barakalla, Marhaboxon, siz unli tovushlar 6 taligini to‘g‘ri topdingiz, lekin ular qaysilar ekanligini eslolmadingiz.

2-o‘quvchiga izoh:

–Barakalla, unli tovushlar 6 taligi va ular a, e, i, u, o‘ o‘ligini to‘g‘ri topdingiz. Sizing xotirangiz juda yaxshi ekan, albatta, bundan keyingi darslarni ham shunday o‘zlashtirishda davom eting.

Formativ baholashda har bir o‘quvchi javobiga izoh berib o‘tiladi. Keling, siz bilan samarali va samarasiz izohlarga misollarni ko‘rib chiqamiz.

Samarali izoh-mulohazaga misollar:

–Asosdosh so‘zlar bilan bog‘liq so‘zlar berilgan. Ularda asosdosh bo‘lmagan so‘zlar ham bor. Kitobning 45-betidagi asosdosh so‘zlarga oid qoidani yana takror o‘qing. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligi haqida.

–Madina, tuzgan gapingizda kelishiklardan juda yaxshi va juda ko‘p foydalansangiz, keyingi safar kelishik qo‘shimchalarini qo‘llashda e‘tiborli bo‘ling.

Bu izoh o‘quvchining yanada rivojlanishiga qaratilgan.

–Malika, barakalla, siz kelishiklarning soni va ular qaysilar ekanligini to‘g‘ri topdingiz.

Bu izoh o‘quvchining xatti-harakatlari kutilgan natija bilan qiyoslab berilgan.

–Siz hikoyani ko‘p o‘qimangansiz, unda talaffuzida qiyinchilikka uchraydigan atamalarni ham qaytarmangansiz, shuning uchun siz atamalar talaffuzida qiynaladingiz va o‘qish tezligingiz juda past. Hikoyani ko‘proq o‘qing.

Bu izoh xoslangan aniq shaklda, mavhum bo‘lmagan.

Samarasiz izoh-mulohazaga misollar:

–Siz she‘rni sinfdoshlaringizga nisbatan yaxshi yodlagansiz. Bu izoh o‘ta umumiy. Bu yerda o‘quvchi she‘rni nimasiga ko‘ra yaxshi yodlagani, aynan qaysi nuqtalari baholanayotgani, keyingi harakatlari qanday bo‘lishi kerakligini bilmaydi.

- Sizing javobingizdan qoniqmadim. Bu izoh noaniq. O‘quvchi nimalarda xato qilganini va bu xatoni takrorlamaslik uchun nimalar qilishi kerakligini bilmaydi.

–Sizing javobingizdan qoniqdim, siz juda yaxshi javob berdingiz.

Noaniq. O‘quvchi qaysi javobi to‘g‘riligi va shu tarzda davom etib ketishi samaralimi yoki samarasizmi aniq anglay olmaydi.

–Siz sinfdagi yaxshi o‘quvchilar va a‘lochilar qatoridan joy olgansiz. Rahmat.

Bu o‘ta umumiy. O‘quvchi qaysi xatti-harakati yoki nimasi tufayli yaxshi o‘quvchilar va a‘lochilar qatoridan joy olganligini bilmaydi.

Formativ baholash o‘quvchilarga va o‘qituvchilarga juda samarali hisoblanadi. O‘quvchilar uchun bilmaganlarini bilishiga, takrorlab olishiga, o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘rilashga, qay yo‘sinda ketishiga, juda katta yordam beradi. O‘qituvchilarga esa o‘quvchiga qay tarzda bilim yetkazayotgani, bilim olish darajasi qay tarzda rivojlanayotganini ko‘rishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>

2. Parpiyev Odil Olimovich, & Abdushuxratova Durдона Anvarovna. (2024). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yin usullari. *Yangi O‘zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 2(1), 158–161.

3. O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LIRIK SHE‘RLARNI O‘TISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH. (2024). *Ustozlar Uchun*, 53(3), 130-136. <http://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/294>

4. Gulbakhor Abdullayevna Gaynazarova, Karomat Otaboyevna Matnazarova, & Odil Olimovich Parpiyev. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. *Academia*

Repository, 4(12), 131–135. Retrieved from
<https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/318>

5. Mirzakarimova Nurhayo Erkinboy qizi, Odil Parpiyev. (2024). Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 153–159. Retrieved from <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/436>

6. Parpiyev Odil Olimovich, & Raupova Laylo Rakhimovna. (2024). Stages and Peculiarities of Increasing Written Literacy in Primary Education. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 62–64. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2061>

7. Парпиев, О. . (2024). Повышение грамотности письменной речи учащихся на уроках родного языка на основе передовых педагогических технологий. *Общество и инновации*, 5(2/S), 146–152. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp146-152>

8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

YUQORI DARAJALI KO‘PHADLAR MAVZUSINING O‘QITILISHI**Qaxxorova Muslimaxon Shokirjin qizi**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim kafedra”si o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori darajali ko‘phadlarning o‘qitilish jarayonini zamonaviy metod asosida tashkil etish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy metod, “635-usul”, ko‘phad, funksiya, tenglama.

Kirish:

Bugungi kunda barcha sohalar singari ta‘lim sohasi ham yuqori cho‘qqilar tomon rivojlanib bormoqda. Eng oliy maqsad ta‘lim tizimini rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, Respublikamizda ham ko‘plab ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy metodlar ta‘lim sohasiga tadbiiq qilinmoqda. Buning birgina isboti sifatida yurtboshimiz tomonidan 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” deya nomlanishidir.

Albatta, biz yoshlar vatanimiz kelajagidirmiz. Yoshlar qanchalar bilimli, idrokli bo‘lar ekan, bizning yurtimiz ham rivojlanish tomon olg‘a qadamlar qo‘yaveradi. Ta‘limni rivojlantirishda ,avvalo, yangi o‘qitish metodlarini topish va uni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Albatta, ta‘lim sifatli bo‘lsa, ta‘lim oluvchi ham shu kabi o‘sib boradi. Ta‘lim sifatini oshirish ,albatta, o‘qituvchilar, ya‘ni ta‘lim beruvchilarning malakasini oshirishdan boshlanadi. Shu sababli , Oliy ta‘lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalar va metodlar joriy qilinmoqda.

Ushbu maqolada ta‘lim sifatini yanada oshirish uchun kerak bo‘ladigan zamonaviy metod haqida so‘z yuritiladi. Zamonaviy metodlar ta‘lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ta‘lim berish jarayonida pedagog ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lishi, turli zamonaviy metodlardan foydalanishi, talabalarni o‘zlari tanlagan mutaxassisliklariga nisbatan qiziqishlarini uyg‘otishi, talabalarni o‘zlashtirishlarini yuqori ko‘rsatkichlarga ko‘tarishi, dars davomida ularning faolligini oshirib, rag‘batlantirib, doimo baholab borishi zarur. Shu o‘rinda dars jarayonida bir necha aqliy hujum, bahs-munozara, muammoli vaziyat, ven diagrammasi, assesment kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Shunday faol metodlardan biri bu “Aqliy hujum” metodidir. Bu metodning asosiy mohiyati jamoa hamkorligi asosida jarayonlarni vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga ajratishdan iborat. Dars jarayonida aqliy hujumdan foydalanish, ijodiy nostandart tafakkurlarni rivojlantirish garovidir. “Aqliy hujum” metodi – biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadigan usuldir. “Aqliy hujum” usulining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” usulining yozma shaklida javoblarni ma‘lum belgilar bo‘yicha

guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi

“Aqliy hujum” metodi ta‘lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi, ya‘ni:

1. Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib quyilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib quyilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

3. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

4. o‘tilgan mavzuni mustaxkamlash mavzudan so‘ng, darsning mustaxkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” usulining bir turi bo‘lmish, “635-usul” metodi. Ushbu usul qat‘iy ishtirokchilar soni va g‘oyalarni yaratish bosqichida ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ma‘lum tartibi bilan tavsiflanadi. Guruh ishida 6 kishi ishtirok etadi. Ularning har biriga g‘oyalarni to‘plash uchun maxsus jadval beriladi.. Barcha ishtirokchilar o‘zlarining jadvallariga uchta asosiy g‘oyalarni yozadilar va olingan jadvalni o‘rganadigan va uchta yangi g‘oyalar bilan to‘ldiradigan keyingi ishtirokchiga aylana bo‘ylab uzatadilar. 5 ta takrorlashdan so‘ng barcha jadvallar to‘ldirilib, oxir-oqibat "tanqidchilar" ga yetkazilgan 108 ta fikrni o‘z ichiga oladi. "635 uslubi" dan foydalanish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, yozma ravishda berilgan g‘oyalar og‘zaki bayon qilinganlarga qaraganda ancha asosli va ravshanroq, garchi ular ko‘pincha o‘ziga xos bo‘lmagan bo‘lsa ham."635-usul" 36 nafar o'quvchi aytarli uzoq bo'lmagan vaqt ichida qandaydir masalani muhokama qilish yoki o'rganish va guruh a'zolari ko'pchiligining fikrini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladigan uslubdir.

Har 3 guruhda (har guruh 6 kishidan iborat bo'ladi) 6 nafardan o'quvchi o'qituvchining topshirig'i bo'yicha muammoni muhokama qiladi yoki muammoning bir qismini o'rganadi. Shundan keyin o'qituvchi har bir guruhga avvalgi bahslashgan guruhda ishtirok etgan o'quvchi bo'ladigan bir tarzda yana 3 ta yangi guruh tuzadi. Yangi guruhlarda ishtirokchilar hammani o'z guruhlari ishi yakunlari bilan tanishtiradi.

Bu usul-guruhning barcha a'zolarini faollashtiruvchi uslubdir. Ulardan har biri uncha katta bo'lmagan, vaqt davomida ham bahs ishtirokchisi, ham ma'ruzachi sifatidagi rolni ijro etadi.

Mashqni tartibida 5,7 va 8 nafardan o'quvchi bo'lgan guruhlarda ham ro'yobga chiqarish mumkin. Katta guruhlarda vaqtni oshirish zarur. Guruhlar bitta muammoni yoki huddi shu muammoning turli jixatlarini muhokama qilishlari mumkin.

Bu uslub o'qituvchidan faollikni va guruhlarga mohirona ta'sir o'tkazishni talab qilidi. Mashq avvalidagi guruhlarga bo'lish bilan bog'liq qiyinchiliklar mashq to'la muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin.

Buni misolida yuqori darajali ko'phadlar mavzusini olishimiz mumkin. Bunda birgina ko'phad emas, funksiya va tenglama sifatida qarash nazarda tutiladi. Bu esa bizga berilgan ko'phadni yanada boyitilgan tarzda o'rganishimizga sabab bo'ladi. o'quvchilar 3 guruhga bo'linib,

o‘zlariga berilgan jadvallarni to‘ldirib chiqadilar. Va bir birlarini takrorlamagan holda. Dars yakunida , albatta, eng to‘la bo‘lgan jadval egalari g‘olib bo‘lishadi.

Quyida umumiy tarzda to‘ldirilgan jadvalni ko‘rishimiz mumkin:

Nomi	Ko‘phad	Funksiya	Tenglama
	$P(x) = 0$ dagi ildizlari	Ox o‘qini kesib o‘tuvchi qiymatlari (nollari)	To‘g‘ri tenglikni hosil qiluvchi qiymatlari (yechimlari)
Bikvadrat ko‘rinishidagi $ax^4 + bx^2 + c = 0$ Misol: $x^4 - 10x^2 + 9 = 0$	$x_{1,2} = \pm \sqrt{\frac{-b - \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}}$, $x_{3,4} = \pm \sqrt{\frac{-b + \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}}$. $x_{1,2} = \pm 1, x_{3,4} = \pm 3$	$x_{1,2} = \pm \sqrt{\frac{-b - \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}}$, $x_{3,4} = \pm \sqrt{\frac{-b + \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}}$. $x_{1,2} = \pm 1, x_{3,4} = \pm 3$	$x_{1,2} = \pm \sqrt{\frac{-b - \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}}$, $x_{3,4} = \pm \sqrt{\frac{-b + \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}}$. $x_{1,2} = \pm 1, x_{3,4} = \pm 3$
O‘zaro teskari ifodalarni o‘z ichiga oluvchi $a \frac{f(x)}{g(x)} + b \frac{g(x)}{f(x)} = c$ Misol: $\frac{x^2 + 1}{x} + \frac{x}{x^2 + 1} = 5, 2$	$f(x) - t_1 g(x) = 0,$ $f(x) - t_2 g(x) = 0,$ $f(x)g(x) \neq 0$ $x_{1,2} = \frac{1 \pm i\sqrt{101}}{10},$ $x_{3,4} = \frac{5 \pm \sqrt{21}}{2}.$	$f(x) - t_1 g(x) = 0,$ $f(x) - t_2 g(x) = 0,$ $f(x)g(x) \neq 0$ $x_{1,2} = \frac{1 \pm i\sqrt{101}}{10},$ $x_{3,4} = \frac{5 \pm \sqrt{21}}{2}.$	$f(x) - t_1 g(x) = 0,$ $f(x) - t_2 g(x) = 0,$ $f(x)g(x) \neq 0$ $x_{1,2} = \frac{1 \pm i\sqrt{101}}{10},$ $x_{3,4} = \frac{5 \pm \sqrt{21}}{2}.$
To‘la kvadratga ajraladigan. Misol: $x^4 + 4x^3 - 10x^2 - 28x - 15 = 0$	$x_1 = x_2 = -1,$ $x_3 = 3,$ $x_4 = -5.$	$x_1 = x_2 = -1,$ $x_3 = 3,$ $x_4 = -5.$	$x_1 = x_2 = -1,$ $x_3 = 3,$ $x_4 = -5.$
Qaytma ko‘rinishidagi $ax^{2k+1} + bx^{2k} + cx^{2k-1} + \dots + cx^2 + bx + a = 0$ Misol: $21x^6 + 82x^5 + 103x^4 + 164x^3 + 103x^2 + 82x + 21 = 0$	$x_{1,2} = \pm i,$ $x_{3,4} = \frac{-2 \pm 3i\sqrt{5}}{7},$ $x_5 = -\frac{1}{3},$ $x_6 = -3.$	$x_{1,2} = \pm i,$ $x_{3,4} = \frac{-2 \pm 3i\sqrt{5}}{7},$ $x_5 = -\frac{1}{3},$ $x_6 = -3.$	$x_{1,2} = \pm i,$ $x_{3,4} = \frac{-2 \pm 3i\sqrt{5}}{7},$ $x_5 = -\frac{1}{3},$ $x_6 = -3.$

Yuqoridagi jadval umumiy tarzda keltirilgan bo‘lib, bunga yana ko‘plab misollarni qo‘llash mumkin.

Ushbu usul guruh protsedurasi bo‘lishiga qaramay, uni individual ravishda qo‘llash mumkin. Ba‘zan yakka tartibdagi o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini baholashda ko‘maklashadi. Har bir o‘quvchi o‘zining olgan bilimiga , asosan, ushbu jadvalni to‘ldirishi mumkin, bu esa mavzuni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu kabi jadvallarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bu metodning afzallik tomoni shundaki, yakka tartibda ham individual ravishda ham yaxshi natijalarga olib keladi.

Quyidagi metodni faqat matematika fanini o‘qitishda qo‘llash bilan cheklanib qolmay, boshqa sohalarda foydalanish yaxshi natijalarni beradi. Hozirgi paytda oddiy dars o‘tish tizimi nafaqat talabani zeriktirishi, balki mavzuni yaxshi tushunmasligiga ham olib keladi. Shu sababli ta‘lim beruvchilar dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishi, o‘quvchi uchun ham o‘zi uchun ham foydali hisoblanadi, Dars jarayoni qiziqarli va bahs munozaralarga boy o‘tishiga sabab bo‘la oladi. Berilgan imkoniyatlardan keng foydalangan holda yanada yangi interfaol metodlarni topish va ularni dars davomida qo‘llash, ta‘lim beruvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ma‘lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan matematika fanini chuqur va samarali o‘rgatish hamda va uni amaliyotda qo‘llashni rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, bir qator qarorlar imzolangan. Matematika fanini o‘rgatishning negizida albatta fanni ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga o‘rgatish yotadi.

Xulosa:

Ushbu maqolamdan xulosa shuki, bilim egallashdan ko‘ra bilim berish ancha murakkab hamda ma‘suliyatlidir. Shuning uchun hozirgi zamon yoshlariga fanni chuqur o‘rgatishimizda bizga turli qiziqarli metodlar hamda usullar yaxshi foyda beradi. Bunday faol metodlardan har bir yangi mavzuni tushuntirishda hamda mustahkamlashda foydalanish dars unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu munosabat bilan maqolada tavsiya qilingan “635-usul” ilg‘or pedagogik usulini yuqori darajali ko‘phadlar mavzusini o‘qitishda ham qo‘llanilishi, talabalarning ilmiy natijalarni o‘rganishlarida qulayliklar tug‘diradi. Buning uchun yuqori darajali ko‘phadlar nazariyasi, ular ustida amallar, ularning xossalari mavzularini o‘qitishda “635-usul” usulini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Matematika fani mislsiz ummon kabidir. Uning hali ochilmagan qirralari benihoya ko‘p, bunday qirralarni ochish uchun esa kelajak avlodga bu fanni chuqur o‘zlashtirishlari uchun zamin yaratmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudayberganov G., Vorisov A., Mansurov X., Shoimqulov B. Matematik analizdan ma‘ruzalar. I T.: «Voris-nashriyot». 2010 y. – 374 b.
2. Azlarov. T., Mansurov. X., Matematik analiz. T.: «Ўзбекистон». 1 t: 1994 й.-416 б.
3. Газиев А., Исраилов И., Яхшибаев М. “Математик анализдан мисол ва масалалар” Т.: “Янги аср авлоди” 2006 й.
1. 4.N.N. Azizxo‘jayeva ., Pedogogik texnologiyalar va pedogogik mahorat-., Toshkent-2006
4. Ганиева, М. А. "Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии." *Наука и современность* 22 (2013): 179-181.
5. Ganiyeva, M. (2019). 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. *Архив научных исследований*.

6. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
7. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
9. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
10. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
11. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
12. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
13. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
14. Madaliyeva Xurshida Ulug'bek qizi, & Muborakxon Ganiyeva. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 350–352. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.445>

BEHBUDIY- O‘ZBEK ADABIYOTINING BIRINCHI MUALLIMI**Qayumova Muqaddasxon Muxtorjon qizi**

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

E-mail: qayumovamuqaddas32@gmail.com

*“Bugun islohi maktab madrasa, ya‘ni islohi millatga qo‘shish qilinmasa, rub‘i asr so‘ngra
diyonat barbod bo‘lur va anino javobi mas‘uliyati bugungilarga qolur”
Mahmudxo‘ja Behbudiy.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston Jadidlarining ilk rahnamosi, mustaqil hurriyat g‘oyasi asoschisi, yangi maktablar targ‘ibotchisi, ma‘rifatparvar olim Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta‘lim olishni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan hayoti va ijodi haqida ma‘lumotlar berilgan. Mavzu yuzasida adabiyotlar taxlili va adabiyotlar sharxi yuzasidan olimlar fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, yangi jadid maktabi, darslik, matbuot, ma‘rifat tarqatish, ma‘rifatparvar adib.

XX asr boshlarida Turkistonda kechgan jadidchilik harakatini Behbudiy tasavvur qilish qiyin. Adib Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. U jadidcha maktablar ochib, o‘zi darslik yozgan buyuk murabbiy, matbuotimiz va adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan, teatrchi, noshir, jurnalist hamda, o‘zbek dramaturgiyasiga asos solgan birinchi dramaturg, islomiy e‘tiqodli ulamo edi. Xalqning ozodligi va farovon hayotini ta‘minlash yo‘lida fidokorlik ko‘rsatib, milliy ta‘lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shgan, jadidchilik dasturining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy- Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining birinchi muallimi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ertangi kun egalari bo‘lmish yosh avlodni munosib darajada ta‘lim-tarbiya etmoqlik, ularni vatanimizga munosib yetakchi kadrlar etib tarbiyalog‘imiz uchun bizga nafaqat, zamonaviy balki, ajdodlarimizning ma‘naviy-marifiy xazinaga boy ilmiy me‘rosi bugungi kun yoshlarining ta‘lim sohasida, shu bilan bir qatorda hayot yo‘llarida ham, mustahkam poydevor qo‘yishlariga yaqindan yordam beradi desak adashmaymiz. Shuningdek bugungi zamonaviy o‘zbek maorifi, pedagogikasining asoschisi kimligi haqida o‘ylansa, buning javobi Mahmudxo‘ja Behbudiy deyilsa, adolatdan bo‘ladi. Zero muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “...Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy me‘rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch- quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak...”¹. Xalqni hurriyat va ilm fan nurlaridan bahramand qilishni, ularni ma‘nan boy bo‘lishini o‘zining birdan-bir burchi deb bilgan fidokor adib faoliyati va hayot yo‘li haqida ushbu maqolada yaqindan tanishishingiz mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda (hijriy 1291. 10-zulhijja oyida) Buxoro amirligi Samarqandning Siyob bo‘lisidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida tug‘ilgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li imom, islom dinining yirik mutaxassisi, dinga oid qator maqolalar, ilmiy ishlar muallifi, Turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan. Ona tomonidan bobosi


¹ Sh.M.Mirziyoyev . Daryo.uz.rasmiy sayti 30.09.20220

Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1785-1880) Samarqandga kelib qolgan. Otasining ilmga ixlosmandligi Behbudiyga ta‘sirli bo‘lmagan, u adabiyot tarix fanlari bilan birga siyosatni ham o‘rgangan. Tog‘asi qozi Muhammad Siddiq yordamida xat savod chiqaradi. Kichik tog‘asi unga arab tili va grammatikasini o‘rgatadi va uning yordami bilan A. Jomiyning arab tili qoidalariga bag‘ishlangan “Sharhi mullo”, mantiq ilmiga oid “Muxtasar al-viqoya”, “Xoshiya” asarlarini, hisob ilmini o‘rganadi. Shundan so‘ng Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil oladi. Adib arab, fors, ingliz, nemis, fransuz, rus tillarida mukammal va erkin so‘zlasha olgan. An‘anaviy, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali shariatning yuksak maqomlari- qozi, muftiy darajasigacha ko‘tariladi(24 yoshida). 1894-yilda otasi vafot etgach, tog‘asi Muhammad Siddiq jiyanini yoniga oladi va Chashmaob qishlog‘iga qozilik lavozimiga tayinlaydi(18 yosh). Keyin Kobud bo‘lisining qozisi mulla Zubayr huzurida Mirza bo‘lib ishlaydi. Ko‘p o‘tmay Muftiy lavozimini egallaydi. Shuningdek Behbudiy 1917.XI yili IV qurultoyida Turkiston muxtoriyati rahbariyatiga saylanadi, 1918-yilda esa, “Musulmonlar ishchi va dehqon sho‘rosi” ga maorif xalq komissari etib tayinlandi. Behbudiyning ta‘limga, hurriyat va ma‘rifatga bo‘lgan qarashlari, ilm olishga bo‘lgan qiziqishlari uni gazeta va jurnallar orqali dunyoda bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishishga, g‘arbda amalga oshayotgan sivilizatsiya ishlarini o‘rganishga undagan. Gazeta va jurnallar bilan hamkorlik o‘rnatib, o‘z maqolalarini chop eta boshlagan, ularda asosan maktab va san‘atni yaxshilash masalalarini ko‘tarar edi. Chunonchi o‘sha davrda nafaqat Samarqand balki, butun Turkiston ahli taraqqiyot va turmushda, ilm va ma‘rifatda Ovro‘padan yer va osmon qadar uzilib qolgan, biron qaram, o‘z dini, tarixini, ta‘limi va ma‘rifatini unutish (go‘yoki manqurt) darajasidagi fojiali ahvolga kelib qolgan edi. Shuning uchun u maqolalarida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, ta‘limning yangicha usulda yoritishga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli ma‘lumotlarni ko‘tarib chiqar edi. *“...Ulug‘ ma‘rifatparvar qo‘ldan berilgan ozodlik oqibatida xalq yuz yillar asirlik domida qolib, o‘z qadr-qimmatini, juda ko‘p moddiy va ma‘naviy zararlar ko‘rib, keyin ketishidan nadomat chekadi: - Aziz hamshaharlarimg‘a, mo‘tabar ahli vatanim, hammangiz bir bo‘lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, Xudoning bergan hurriyat ne‘matidan naf‘lanmoq harakatida bo‘lmoq kerak va a‘lon(hozirgi holatda) bizning bizning harakatsizlig‘imiz hurriyatni ketkurib, yana boshqalarg‘a bizni asirlik darajasig‘a tushurur va yuz yillar ila keyin keturmiz. Bizning avlodimiz hamda halqi olam bizga rahmat o‘rnig‘a la‘nat o‘qurlar”*². Behbudiy *“Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur”*³-degan shiorni o‘ziga dastur qilib olgan edi. Markaziy Osiyoda Ismoilbek Gaspirali tashabbusi bilan keng tarqala boshlagan “Jadidchilik” harakatlari Turkistonga aynan Samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa bir qator ziyolilar orqali kirib kelgan. Bu harakatlar xalq orasida ma‘rifiy-ma‘naviy dunyoqarashni rivojlantirish, bolalarni taraqqiy etgan uslublarda o‘qitish, millatga qaramlik holatida ekanini anglatib, ozodlikka intilishga qaratilgan. Bu qisqa vaqt ichida erk uchun tashlangan katta qadam edi. Behbudiyning yangi maktablar ochib ta‘limga, yangicha o‘qitish usullarini olib kirishining asl sababi ham yuqoridagi illatlardan halos bo‘lib xalqini o‘z milliy tarixini saqlab kelajakka jadal qadam tashlash, Ovro‘pa mamlakatlari singari taraqqiy etish edi. Jadid maktablarining mohiyati Behbudiy tononidan qisqa va lo‘nda qilib

² N.Shodmonov. “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi”, Yangiliklar.uz, 01.08.2023.

³ Mahmudxo‘ja Behbudiy.

shunday talqin qilinadi: "... Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm vayangi fikrlar va fununi zamoniyanani darbar(o‘zida saqlagan, tashuvchi) odamlarni talab qilur...". Binobarin ana shunday odamlarni o‘qitib, tarbiyalab yetishtirish jadid maktablarning maqsadi bo‘lgan. Ismoilbek 1892-yil Turkistondaagi maktablarni isloh qilish, "usuli satviya"ni joriy etish taklifi bilan general-gubernator N.O.Rozenbaxga murojaat etadi, javob ololmagach 1893-yilda Toshkentga kelib, Samarqand, Buxoroda bo‘ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, bir qator ulamaolar, xususan Behbudiy bilan maslahatlashgan holda dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo‘ladi. " *Avvaliga musulmonlar bu maktabga uncha ishonqiramay qaradilar,- deb yozadi u bu haqida,- ammo 1-ommaviy, ochiq imtihondan so‘ng o‘quvchilarning soni ancha ko‘paydi...*"⁴- deydi ma‘rifatparvar adib. Dastlab Behbudiy 1884-yilda Boqchasaroyda bir maktab ochadi va unga "Usuli jadid maktabi" deb nom beradi. O‘qitishda "usuli satviya" (tovush usuli) qo‘llanilishi tufayli, Behbudiy rahbarligida muallim, bolalarga olti oyda turkcha va arabcha o‘qitishni, turkcha yozish va boshlang‘ich diniy qoidarni o‘rgatishga erishadilar va shu zaylda bolalarga ta‘lim berishni davom ettiradilar. 1899-1900 yillarda Behbudiy Buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi, safar chog‘ida yangi maktablar haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi va 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamiy (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil etishga muvaffaq bo‘ladi. 1908-yilda esa Behbudiy Shakuriy maktabini Samarqanddagi o‘z xovlisiga ko‘chirib olib o‘tadi. Adib ushbu maktablar uchun o‘zi darsliklar tuzishga krishadi. U darsliklarni yozishda olgan ko‘nikmalari, o‘rgangan bilimlari va dunyo bo‘ylab sayohatlari chog‘ida orttirgan tajribalarini mohirlik bilan o‘z o‘rnida qo‘llaydi. Darsliklar bilan quyidagi chizmada tanishishingiz mumkin:



1- chizma. Adib darsliklaridan misollar.

⁴ M.Behbudiy. Guliston jurnali. №26.1995-yil

Yangi usuldagi jadid maktablar uchun yozilgan kitoblar adibning fikricha, *“..Yangi usuldagi maktablar darsliklari, ta’lim va tarbiyasi tevarakdagi Ovro’pa sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovro’pa sivilizatsiyasini o’rganib, uni milliy madaniyatga moslashtirib xizmat ettirishning bir ifodasi edi”*⁵. Uning darsliklari o’z davri ta’limida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo’lsa, “Padarkush”(1911.Samarqand.) dramasi va maqolalari tarbiyaviy xarakteri bilan San’at va Pedagogika sohalarini shakllanishiga undan ham ko’proq xizmat qildi, deya olamiz. Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo’lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o’z qabohatini ham, malohatini ham ko’ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyini nashriyot, matbuot sohasiga yetakladi. 1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug’ullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki so’ng, to’rt sahifada chop etilgan. 45-sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to’xtagan. O’sha yilning 20-avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan, o’zbek tilida bo’lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar berib borilardi... Ziyo Saidning ta’kidlashicha, jurnal-*“Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Avg’oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevimli jurnallari edi”*. Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg’in shug’ullandi. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o’z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Shuningdek “Behbudiy kutubxonasi”ni yo’lga qo’ydi. Adibning birgina “Oyna” jurnali ma’daniyat vama’rifat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Shuningdek muharrir I.Gaspirinskiyning “Tarjumon” gazetasini doimiy muallifi bo’lgan Behbudiy 200 dan ziyod o’zbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifi. Xususan yozuvchi ushbu jadvalda keltirilgan va yana bir qator gazeta va jurnallarda fidokorona faoliyat yuritgan:

1- jadval. Behbudiy faoliyat yuritgan gazeta va jurnallar

2-

“Xurshid”(1907)	8.	“Shuhrat”
“Sadoi Farg’ona”(1914)	9.	“Mehnatkashlar tovushi”(1918-1922)
“Ulug’ Turkiston gazetasi”(1917)	10.	“Tujjor”(1907)
“Birlik suvi”(1917)	11.	“Osiyo”(1907)
“Taraqqiy”(1906)	12.	“Hurriyat”(1917)
“Turon”(1913)	13.	“Buxoro axbori”(1920-1922)
“Najot”(1914-1918)	14.	“Oyna”(1913-1915)

⁵ Z.Ko’kalp. “Turklashmoq, islomlashmoq”, Istanbul. 1974y.12bet

Yuqorida keltirilgan gazeta va jurnallar o‘z davrida ommalashgan xatto, chet davlatlarda ham o‘z muhlislariga ega zamonasining eng ilg‘or jurnallardan hisoblanar edi. Ularning taraqqiy etishiga bevosita Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni beqiyosdir. Adibning 1-jahon urushi atroflaridagi maqolalari 200ga yaqin bo‘lib, “Turkiston idorasi”, “Turkiston maktab jarida”, “Buxoroda usuli jadid”, “Yoshlarga murojaat”, “Ehtiyoji millat”, “Ikki emas to‘rt til kerak”, “Buxoro xonligig‘a sayohat”, “Felyeton”, “Bayoni haqiqat”, “Xayrul-umuru avsatuho (Ishlarning eng yaxshisi o‘rtachasidir)”-bu maqola Behbudiyning qoralashga nishon bo‘lib keldi, “Duma va Turkiston Musulmonlari”, “Tahsil oyi”, “Samarqand kitobxona va matbaaxona” kabi maqolalar shular jumlasidandir. Shuningdek muallif o‘z davrining yetakchi jumhurriyat g‘oyasi asoschilari, noshir jadidlar, **I. Gaspirali, M. Qori, Fitrat, Hoji Muin (eng iqtidorli shogirtlaridan biri), Shukrullo, Ajziy, Mirzo To‘lagan, S. Ayniy va Akobir Mahdum** kabi bir qator allomalar bilan muntazam aloqada bo‘lib, Jadidlar dasturining asosini tuzdi, matbuotni rivojlantirdi, yangi darsliklar yaratdi, yangi uslubdagi maktablar ochdi, yangi pedagogika, publitsistika, dramaturgiya, teatr, sahna san‘atiga asos soldi, Ovro‘pacha ta‘lim-tarbiyani Turkiston maktablariga joriy etdi va ilm berishning jahon miqyosidagi tajribalaridan foydalandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy **Turkiya, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Germaniya, Ukraina, Saudiya, Suriya, Odessa** kabi dunyoning 40 dan ortiq shaharlarida bo‘lib u yerdagi ta‘lim usuli va o‘qitish metodikalari, ijtimoiy hayoti, geografik muhiti bilan tanishib chiqadi va ta‘limda ilg‘or mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy sohalarda peshqadamligini butun zamona ahlida shakllantirishga, o‘z diyori bo‘lmish Turkiston ham ana shunday davlatlar qatorida bo‘lishiga butun umri davomida harakat qiladi. Ana shunday ulamoning tabiiyki, sobiq sho‘ro davrida raqiblari ko‘p bo‘lib, ular faqat rus mustamlakachilarigina emas, johil va mutaassib ulamolar ham edi. Mutaassiblar muftiy Mahmudxo‘jani o‘zlariga raqib deb bilar, har qanday yangilikka, millatning uyg‘onishiga qarshi edi. Uning “Xurshid” gazetasining 10.X.1906-yildagi 6-sonida bosib chiqargan “Xayrul umuru avsatuho” (Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir) nomli maqolasi xurofotchilarning inini to‘zitishiga, halovatini yo‘qotishiga sabab bo‘ldi, chunki adib maqolada Rusiyaning bir qator shuningdek, Lenin partiyasini rad qilgan edi. Bu vaqtda Samarqand Turkiston general-gubernatorligiga qarashli viloyat bo‘lib, mustamlaka amirlik hukmdori Sayyid Olimxon, mutassib ruhoniylar, johil bolsheviklar chaquvi bilan Mahmudxo‘ja Behbudiyning qatl etishiga buyruq beradi. Bu haqida N. Karimov 1950-yil, 66-son, Milliy Turkiston” jurnalida bosilgan bir fakti keltiradi: *“Ul Qarshi shahrinda o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini o‘rinlov harakatida ekan, qizil Rusiyaning Buxoro elchixonasi xizmatchisi Utkin vositasila amir tomonidan tutildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy amirning Qarshi shahrindagi voliyi Nuriddin Og‘aliq tomonidan 25.III.1919-yil 44 yoshida vahshiyona o‘ldirildi, o‘limidan oldin vasiyatnoma yozib, Ahmad ismli kishiga topshiradi”*. Buyuk ma‘rifatparvar adibning vafoti haqidagi xabar roppa-rosa 1 yildan keyin e‘lon qilinadi va 1920-yil aprelida butun Turkiston ahli motam tutadi. Zamondoshlari Fitrat, S. Ayniy tomonidan bir qancha marsiyalar yoziladi, binobarin Cho‘lpon ham quyidagicha marsiya yozadi:

- Qayg‘uringiz, kishanlarni yasovchi ustalar,
- Boshqalarni tubanlar deb atovchi xo‘jalar!
- Sizlar uchun yoz boshining qoridek, erur kunlar keladur!

- Sizlar uchun alvastining zoridek, yig‘lar kunlar keladur!

Ulug‘ mutaffakirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e‘tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan, 2006-yil buyuk ma‘rifatparvar sharafiga Samarqand shahrida yodgorlik o‘rnatilgan. 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma‘rifat mash‘alasini ko‘tarib chiqqan noshir va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi keng nishonlandi. O‘zbek milliy adabiyotining asoschisi, dramaturg, jurnalist, publitsist, jadidlar otasi, mohir pedagog, mutafakkir olimning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, millat, ma‘rifat ozodligi, hurligi yo‘lida amalga oshirgan xizmatlari uchun davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 30-sentabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan munosib taqdirlandi. Xozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma‘rifiy me‘ros o‘z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsi, uning xalq va millati uchun qilgan beqiyos xizmati haqida shunchaki gapirib bo‘lmaydi. Boisi uning nihoyatda murakkab davrda kechgan mashaqqatli hayot yo‘li, siyosiy ilmiy, ijodiy va ta‘lim sohasidagi muhim targ‘ibot ishlari nihoyatda keng, sermazmun va serqirradir. Ma‘rifatparvar adib, o‘z publististik asarlarida mamlakatda fuqarolarni bilimli qilish, birinchi navbatda yoshlar ta‘limi sifatiga e‘tibor berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, maktablar ochish, iqtidorli yoshlarni dunyoning nufuzli oliy ta‘lim dargohlarida o‘qitish masalalariga jiddiy e‘tibor berish zarurligini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Shuning uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini adabiyot, tilshunoslik, dinshunoslik, siyosat, tarix, falsafa va geografiya kabi qator fanlar doirasida qancha erta o‘rganilsa, hozirgi zamonaviy bilimlar bilan chambarchas bog‘lanib kelajak avlod yoshlarini, xususan butun millatni jaholatdan qutqarishga, yurtimizni dunyo miqyosida tutgan o‘rni yuksalishiga dasturul amal bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?”. “Samarqand” gazetasi, 1913-yil 30-iyul. Manba: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti>
2. SH.Mirziyoyev, “O‘qituvchi va murabbiylar-yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” “Xalq so‘zi” gazetasi 2020-yil 30-sentabrdagi nutqi”, 19-soni.
3. D. Kamolova. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022-yil 19-yanvar, 12-son.
4. U.Bekmuhammad, “Zarafshon” va “Samarkandiskiy vestnik” gazetalari, 19.01.2022.
5. Ziyo Ko‘kalp, “Turklashmoq, islomlashmoq”, Istanbul, 1974. 12-bet
6. N. Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2011. 79-bet.

G‘OYAVIY KURASH: TARIXI METODOLOGIYASI MUAMMO VA YECHIMLARI**Qurbonova Umida**

Farg‘ona politexnika instituti o‘qituvchisi

To‘raqulova Zebo Shaynardanovna

Farg‘ona politexnika instituti talabasi

Anotatsiya. Maqolada mafkuraviy faoliyat milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi ekanligi haqida so‘z yuritilgan. Mafkuraviy faoliyatni tashkil etishda tashkiliy tamoyillarga amal qilinish tahlilga tortilgan. Asosan, yoshlarning informatsion-psixologik immunitetini shakllantirish jarayonini texnologiyalar asosida tizimlashtirish, o‘z navbatida bir qancha ishlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiqlashtirish kabi vazifalar uyg‘unlashuviga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: milliy g‘oya targ‘iboti, sohalari, milliy g‘oya yo‘nalishlari, milliy g‘oya tamoyillari, keng qamrovlilik me yoriylik uzliksizlik bosqichma- bosqichlik

Kirish.

Har qanday jamiyat muayyan ijtimoiy tarkibga ega bo‘lib, u turli ijtimoiy qatlamlarni, sinflarni, guruhlarni, ijtimoiy institutlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy tarkibning xilma-xilligi uni tashkil qilgan unsurlar manfaatlarining, intilishlarining rang-barangligiga asos bo‘ladi. G‘oyaviy-mafkuraviy qarashlar bu manfaatlar va intilishlarning o‘ziga xos ifodasi bo‘lib, turli kuchlarning maqsadlari, faoliyat yo‘nalishlarini ko‘rsatuvchi mantiqiy asoslangan qarashlar tizimiga aylana boradi. Shunga ko‘ra, har qanday davlatda bunyodkor g‘oyalar, mafkuraviy faoliyat ustuvor bo‘lganda, milliy taraqqiyot imkoniyatlari kengayadi. «yer planetasi» deb atalgan ijtimoiy-siyosiy makonda: huquqiy tenglik, iroda erkinligi, xalqaro miqyosda tinchlik qaror topadi, millatlararo, dinlararo do‘stona munosabatlar mustahkamlanadi.

Milliy taraqqiyot g‘oyalari muayyan davlatning istiqbolini ta‘minlash uchun jamiyatning obyektiv rivojlanish qonuniyatlarini, ularning amal qilinishida subyektiv omillarning rolini, konkret tarixiy shart-sharoitlarni inobatga olib, o‘z potentsial imkoniyatlarini safarbar qilishdir. Boshqacha aytganda, mamlakat ichidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning g‘oyaviy-mafkuraviy murosasi - barqaror milliy taraqqiyotning asosiy shartidir.

Mafkuraviy faoliyatni tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- keng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a‘zolariga g‘oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada, jamiyatning barcha bo‘g‘inlari mafkuraviy ta‘sir doirasida qamrab olinadi;

- umumiy maqsadga yo‘naltirilganlik;

- faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh maqsadi qilib olinadi;

- uzluksizlik - milliy istiqloq g‘oyasi targ‘ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili milliy g‘oyani xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta‘lim tizimidagi o‘quv rejalari, dasturlar,

darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko‘rgazmali qurollar milliy g‘oyaga uyg‘un bo‘lishini taqozo etadi.

- ketma-ketlik - har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik - milliy mafkurani targ‘ib qilishning ruhiy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ham targ‘ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tishini taqozo qiladi. Aytaylik, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari to‘g‘risida gapirish noo‘rin bo‘lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bog‘chada, boshlang‘ich sinflarda, to‘liqsiz o‘rta maktabda, yuqori sinflar, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlari va mehnat jamoalarida mafkuraviy ish tinglovchi va o‘quvchilarning yoshi, bilimi, ma‘lumoti kabi jihatlarni hisobga olib aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak;

- me‘yoriylik - aksiltarg‘ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvoqlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo‘l qo‘ymaydi;

- shaxsiy ibrat - mafkuramizni targ‘ib qilishda muvaffaqiyatni ta‘minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o‘quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, intilishlari to‘g‘risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o‘zi hayotda shu manfaatlarga zid ishlarni qilsa, bu targ‘ibotning samarasi nol‘ga teng bo‘ladi. Mamlakat va millat ravnaqi to‘g‘risida og‘iz ko‘pirtirib gapiradigan boshliq bo‘shab qolgan lavozimga layoqatli va munosib xodim qolib, o‘ziga qarashli, Lekin, bu o‘ringa nomunosib odamni tiqishtirsa, u millatning yuziga oyoq qo‘ygan bo‘ladi va uning milliy mafkurani aksiltarg‘ibot qilgan bo‘ladi. Shuning uchun, milliy g‘oyani aholi ongiga singdirishda targ‘ibotchilar faoliyatida ish bilan so‘z birligini ta‘minlash, ayniqsa, rahbar xodimlarning shaxsiy ibrat ko‘rsatish tamoyiliga amal qilishi muvaffaqiyatni ta‘minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Korxonalar, tashkilot, muassasa rahbari, ular davlat sektori yoki xususiy sektorga tegishli bo‘lishidan qafiy nazar o‘z jamoasidagi ma‘naviy-mafkuraviy jarayonlarga mas‘ul bo‘lishi kerak;

- ilg‘or targ‘ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish - bunda mafkuraviy targ‘ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Milliy g‘oyaning targ‘iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va‘z aytish va ma‘ruza o‘qish kabi targ‘ibot shakllari yordami bilangina keng xalq ommasi ongiga singdirib bo‘lmaydi. Maqsadga erishish uchun targ‘ibotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Yoshlar orasida targ‘ibot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbatlari kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to‘laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruxiy xususiyatlari va‘z va ma‘ruzalarni emas, ko‘proq interfaol usullar va sanab o‘tilgan targ‘ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi.

G‘oyaviy-mafkuraviy ishlarga sistemali yondoshish, birinchidan, shu sohada muammolarni ilmiy tahlil qilishning zaruriy sharti bo‘lsa, ikkinchidan, bu - milliy mafkuraning nazariy-metodologik xarakteriga mos keladi. Boshqacha aytganda, milliy mafkuraning o‘zi, jamiyatimiz taraqqiyoti va manfaatlarini ifoda qiluvchi yaxlit sistemalashgan g‘oyalar, nazariyalar tizimidan iborat bo‘lib, uni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq amaliy ishlar ham shunga muvofiq bo‘lishi lozim. Mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g‘oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish deganda, jamiyatdagi hayotiy talab, ehtiyoj, maqsad-

intilishlarga muvofiq rivojlanib boruvchi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan iborat o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy tartib - tizim yaratish tushuniladi. Zero, voqelikdagi o‘z shakl-ko‘rinish va mazmuniga, ma’lum o‘zgarishlar xarakteriga, aniq makon va zamonda alohida o‘rniga ega bo‘lgan har qanday narsa, hodisa, jarayonlarni muayyan sistemaga solish mumkin. Bu sistemaning mohiyati shundaki, uning makrostrukturasini tashkil qilgan asosiy qism-elementlar (milliy taraqqiyot qonunlari, "O‘zbek modeli", milliy istiqloq mafkurasi asosiy kontseptsiyasi, milliy mafkura va uning asosiy g‘oyalari) va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar hamda o‘zgarishlar xarakteri turlicha va ko‘p tomonlama bo‘lib (jamiyatdagi turli kishilar, guruhlar, toifalar, etnik va diniy birliklarning g‘oyalari), mazkur sistemadagi barcha jarayonlarning qanday kechishini shu sistemani sistema sifatida rivojlanishini ta’minlovchi omillar (milliy taraqqiyot manfaatlari va shart-sharoitlari) belgilab beradi. Ushu sistemaning mavjudlik sharti, shakllanib, rivojlanish manbai, undagi jarayonlarni harakatlantiruvchi kuch -milliy taraqqiyot qonunlariga muvofiq amalga oshiriladigan g‘oyaviy-mafkuraviy faoliyatlardir. Bu faoliyatlar nazariy va amaliy yo‘nalishlarga bo‘linadi. Jamiyatdagi g‘oyaviy ta’lim-tarbiya tizimi, tasvirlanayotgan makrosistemadagi muhim yo‘nalish bo‘lib, butun sistema faoliyatida katta o‘rin tutadi. Milliy g‘oya va mafkurani yoshlar ongiga singdirib, xalqchillashtirish va ishonch-e’tiqodga aylantirishda asosiy o‘rin tutuvchi bu tizimning o‘zi va undagi mikrosistemalar faoliyati ta’lim-tarbiya uzluksizligi bilan milliy g‘oyani shakllantirishning izchilligi (doimiyligi) o‘rtasida uzviy bog‘lanishni vujudga keltiradi. Demak, g‘oya va mafkuraning mazmuni davlat va jamiyat qurilishiga doir sistemali bilimlar (nazariya va metodologiya) bilan bog‘liq: madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy saviya; ong, tafakkur, dunyoqarash tamoyili; ruhiy-ma’naviy ishonch-e’tiqod; ijtimoiy norma, me’yor, mezon va ayni paytda, inson hamda jamiyat hayotini harakatlantiruvchi mexanizm - usulvositalardan iborat tizim sifatida tushunilsa, milliy g‘oya va mafkuraning xalqchilligi ta’minlanadi.

O‘zbekiston hayotidagi o‘zgarishlar insonlar ongida ham katta o‘zgarishlar qilishni talab etadi. O‘tish davrida har qanday davlat yangi zamon kishisini tarbiyalash haqida jiddiy qayg‘urishi tabiiy. Demak, O‘zbekistonda ham «komil inson» g‘oyasida e’tirof etilgan shaxs mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko‘ndalang turibdi. «Fuqarolik axloqi»ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi. O‘zbekistonda yosh avlodni yangicha fikrlashga va tafakkurini rivojlantirishga, siyosiy faolligini yo‘naltirishga, ularni mustaqillik g‘oyalari sodiq qilib tarbiyalash vazifalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida siyosiy va psixologik ko‘rsatmalarning butunlay o‘zgarishi yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashning dolzarbligini ko‘rsatadi. Xavfni sezish va unga qarshi kurashish tuzilmalari - shaxsning o‘zini-o‘zi anglash jarayonida shakllanadi. Yoshlarda shaxsiy fikr, mulohaza, dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tahliliy va tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. Yoshlar o‘zining siyosiy kontseptsiyasini mustaqil ravishda to‘g‘ri shakllantirishda, siyosiy jarayonlarni aniq qamray olishida va tahlil qila olishida, mohiyatini tushunishida - harakatlanish kontseptsiyasi shakllanadi. XULOSA

Yoshlarning informatsion-psixologik immunitetini shakllantirish jarayonni texnologiyalar asosida tizimlashtirish, o‘z navbatida bir qancha ishlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiqlashtirish kabi qo‘yida keltirilgan tashkiliy ishlarni bajarishni talab qiladi:

- Mavjud siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglash, immunitetni shakllantirishda foydalanish;
- Immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qidirish, yig'ish va qayta ishlash;
- Informatsion-psixologik immunitetni shakllantirishga tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- Muammolarni sezish, aniqlash, dolzarbligi bo'yicha differentsiallashtirish;
- Immunitetning rivojlanish tamoyillarini anglash, qabul qilish;
- Tashqi va ichki vaziyatni strategik ko'p faktorli analiz qilish;
- Axborot, moliyaviy, tashkiliy-texnik resurslarning chegaralanishini aniqlash, resurslarni boyitish ishlarini amalga oshirish;
- Xalqaro maydondagi voqealarning rivojlanishini kuzatish, tahlil va siyosiy bashorat qilish;
- Geopolitik manfaatga erishishning strategiya va taktikasini shakllanti-rish, tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni klassifikatsiyalash, ularni neytrallashtirish hamda dezinfektsiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish;
- Ichki axborot muhitining informatsion-psixologik immunitetni shakllantirishniig texnologiyalarini, metodlari va usullarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish;
- Immunitetni ta'minlash ishlarini amalga oshirishning al'ternativ variantlarini ishlab chiqish;
- U yoki bu al'ternativ variantlarni tadbiq etishda yuzaga keladigan holatlar hamda vaziyatlarni bashorat qilish;
- Amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, bajarilayotgan har bir ishni baholash;
- Davlatning ichki axborot muhitini kuchaytirish, tashqi xavflarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish, axborot tahdidlari va xavf-xatarlariga qarshi kurashuvchanlikni ta'minlash;
- Immunitetni shakllantirishning eng maqbul variantlarini ishlab chiqish va tadbiq etish;
- Yoshlarda qaror qabul qilishga ko'rsatiladigan ta'sirni tahlil qilish;
- Yoshlarning o'zi qabul qilgan qarorlarini o'zi korrektsiya qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- Yoshlarniig o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilishlarini shakllantirish.

Shuningdek, yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik omillarni to'liq ishlab chiqish ham zarurdir. Bu esa yuzaga keladigan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlami, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rganish, murakkab va tahlikali hayotning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida biryoqlama va soxta tasavvurlar shakllanmasligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning uchun insonlarda sog'lom hayot tarzi, milliy

va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, o‘z kuchiga va ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini yanada kamol toptirish zarur.¹²

Boshqalarning tasavvuriga muvofiq, globallashuv iqtisodiy sohada emas, balki diniy sohada katta xavf-xatar tayyorlamoqda, chunki, globalizm va axborot dunyoviy xarakterga ega bo‘lgan bir paytda xudosizlik targ‘iboti bilan uyg‘unlashtiriladi. Yana boshqalarning qarashlarida globallashuv millatga va milliy o‘ziga xoslikka putur etkazadi. Madaniy, shu jumladan diniy qadriyatlar, turmush tarzi ham xavf ostida qoladi. Bunday yondashuvga moyillik bildirayotgan fan va siyosat arboblari uchun madaniy o‘ziga xoslikni saqlashga intilish asosiy maqsaddir. Chunki hozirda internet tarmog‘idan foydalanadiganlarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda. Yoshlar esa millat va davlat kelajagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild -T.: O‘zbekiston , 2018. 29-30-betlar.
2. Mirziyoev.Sh.M. .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O‘zbekiston. 2017. -326 b.
3. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohasiga ta’siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. - Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
4. Quchqarov. V. Milliy o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya , 2013 67-bet
5. Zokirov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatleri // Tafakkur, 2007. №2. - 23 b.
6. Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya ,2008 54-bet

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNI HUSNIXATGA O‘RGATISH METODIKASI**Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon Universiteti “Ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchisi

Ibrohimova Safiya Maxsudaliyevna

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada husnixat nima, xattotlik san‘ati tarixi bilan qisqacha ma‘lumotlar berilgan. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o‘rgatish metodikasi, oquvchilarning chiroyli yozuv malakalarini hosil qilishda ishtirok etuvchi psixofiziologik funksiyalar, chiroyli yozuvga o‘rgatishda o‘qituvchidan talab etiladigan malakalar haqida ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan bir qatorda, husnixatga o‘rgatishning metodik shartlari ham yorqin tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: husnixat, xattotlik, siyoh, qamish-qalam, davot, juzgir, qog‘oz, kitobot san‘ati, bebaho, qadimiy,

Kirish:

HUSNIXAT (chiroyli yozuv) -chiroyli yozish san‘ati. Arab xati turlari (kufiy, nasx, suls, nasta‘liq va b.) musulmon Sharqning yirik madaniy markazlarida keng tarqaldi hamda taraqqiy etdi. husnixatni o‘rganish asosida 2 — “nazariy” (mashhur xattotlarning yozuvlaridan nusxa ko‘chirish) hamda “xayoliy” (turli yozuvlarni o‘rganish va qiyoslash) uslubi yotadi. Xattotning asosiy ish qurollari — qora va rangli siyoh, qog‘oz, qamish-qalam, mistar, davot (qalamdon), juzgir va qalamning uchini tekislash uchun pichoq. Xattotlar matn bilan birga me‘moriy yodgorliklar (kitobalar), qog‘oz, mato va boshqa bezaklar ham yaratganlar. 19-asr. oxirlariga kelib, shtografiyaning paydo bo‘lishi bilan husnixatning ahamiyati pasaya boshladi. 20-asr. 2-yarmidan kitobat san‘atini qayta tiklashga urinishlar husniyatning qayta jonlanishini ta‘minladi (yana q. Xattotlik).¹

Xattotlik san‘ati Sharq mamlakatlarida o‘ziga xos alohida yo‘nalish kasb etgan, maxsus ixtisos darajasiga ko‘tarilgan qadimiy va bebaho san‘atdir. Bu davrlarda yozuv va kitob ko‘chirishga e‘tiborning ortishi tufayli ajdodlarimiz tasarrufida bo‘lgan o‘lkada “Buxoro xattotlik maktabi”, “Xorazm xattotlik maktabi”, “Farg‘ona (Qo‘qon) xattotlik maktabi”, “Samarqand xattotlik maktabi”, “Toshkent xattotlik maktabi” kabi bir necha yirik san‘at markazlari vujudga keldi.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitoblarida ta‘kidlanishicha, xunuk xat bilan yozilgan matn kishining ko‘ziga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun husnixat bilan yozilgan kitoblar nihoyatda qadrlangan, e‘zozlangan hamda tabarruk sanalgan.²

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o‘rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o‘qitish usullarini, yozuviga o‘rgatishning gigiyenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

¹ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ Ҳ ҲАРФИ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ, 241-бет

² Tashkent islom instituti talabasi Xaytbayev Ravshanbek, <https://oliymahad.uz/36669>

Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. 1-4-sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish uchun o‘qituvchining o‘zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgata olishi kerak. Bu o‘quvchilarga ta‘lim berish jarayonida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to‘g‘ri va chiroyli yozishga o‘rgatish hisoblanadi.³

O‘qituvchining namunaviy yozuvi bolalarda to‘g‘ri yozuvni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yozishga o‘rgatish ko‘pincha taqlid qilish orqali amalga oshadi. O‘qituvchi o‘z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo‘lishi uchun uzluksiz shug‘ullanib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi shart. O‘quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma ketligini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun o‘qituvchi bularning hammasini sinf taxtasida ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishi lozim. Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo‘lgan holdagina o‘qituvchi bolalarga namuna bo‘la oladi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. Husnixat mashqlarini o‘zaro bog‘liqlikda muntazam uyushtiriladi. O‘quvchilar to‘g‘ri yozuvning har kungi ko‘nikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat tekshiruv ishlarini yoki yozuvning sifatini ko‘rib olib borishlari zarur bo‘ladi. O‘quvchilarning husnixat bilan to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish, husnixatga o‘rgatish ishlarini sistematik tarzda olib borish talab etiladi.⁴

Husnixatning gigiyenik talablariga rioya qilishlari, harflarni grafik jihatdan shakllantirishlari, ulashlari, ritm asosida yozishlari nazarda tutiladi. 1-sinfda xat-savod o‘rgatish davrida bolalar yozuvga bevosita yozuvga yozuv daftarlaridagi materiallar asosida o‘rgatiladi. Harflar elementining qiyaligiga, harflar bo‘yining tengligiga, harflar va so‘zlar orasidagi oraliq masofalarning teng bo‘lishiga e‘tibor berilishi kerak. Yozayotganda daftarning holati bir tomonga qiya bo‘lishi o‘z-o‘zidan yozuvning qiyaligini ta‘minlaydi. Husnixat darslari boshlang‘ich sinflarda 1-sinfning 2-yarim yilligidan boshlanadi. Husnixatga o‘rgatish izchillik va ketma-ketlik xarakteriga ega bo‘lishi kerak. O‘rgatish jarayonida o‘qituvchining dastur materialini, o‘quvchini soddaroq shakily ko‘rinishga ega bo‘lgan harflardan, murakkabroq ko‘rinishga ega harflarga o‘tkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga o‘tkazishga e‘tibor berilishi kerak bo‘ladi. Bolani sekin yozuvda harfni to‘g‘ri yozishni o‘rganib olmaguncha tez yozuvga o‘tkazish mumkin emas. Ayrim o‘quvchilarni yozuvi individual farqlanishi mumkin. Oquvchida aniq individual yozuv hosil bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘quvchining butun diqqatini harfning chiroyli yozilishiga, o‘qiganda boshqa harf bilan qo‘shilib ketmasligiga, har biri bir-biridan o‘ziga ko‘rsatilgan o‘lchashga xos yozilganligi va ajralib turishiga ahamiyat berishi lozim.⁵

Husnixat va uni o‘rgatish fani amaliy fan bo‘lib u chiroyli yozishga o‘rgatish bilan bir qatorda o‘qitish tarbiyalash, vazifalarini bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatishning asosiy vazifasi ularga husnixat yuzasidan amaliy bilimlar berish, tez, to‘g‘ri va chiroyli yozuvga o‘rgatishdir. Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakasini o‘qitish orqali olib boriladi. Chiroyli va toza yozilgan xat yozayotgan shaxsning madaniyatini va uni o‘qiydigan kishiga nisbatan hurmatini ham belgilaydi. Umumiy ta‘lim maktabini isloh qilishning asosiy yo‘nalish-larida ko‘rsatilganidek, yozuv darslarida harflarni aniq, toza va chiroyli yozishni mukammal o‘rgatish

³ X.G‘ulomova, "Husnixat va uni o‘qitish metodikasi" Toshkent-2007.

⁴ G‘ulomov M. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatish" Toshkent 1997.

⁵ D. Po‘latov "Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish" Uslubiy qo‘llanma Toshkent "Turon Iqbol" 2013

talab etiladi. Chiroyli yozuvga o‘rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi.⁶

1. Yozuv vaqtida partada to‘g‘ri o‘tirish.
2. Ruchkadan to‘g‘ri foydalanish.
3. Daftardan to‘g‘ri foydalanish.
4. Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo‘g‘in, so‘z va gap tuzishga o‘rgatish.

Daftar chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to‘g‘ri saqlash kichik va bosh harflarning nisbatini to‘g‘ri chamalab yozishga o‘rgatish juda muhimdir. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o‘xshash harflarning shaklini buzib yozish xollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish lozim. Bir chiziqli daftarga yozishga o‘tilganda esa o‘quvchilar oldiga qator vazifalar qo‘yiladi, endi ulardan harflarning balandligini, qiyaligini va harflarning orasidagi masofalarni chamalab yozishlari talab etiladi. Har bir o‘quvchi u yoki bu harfni tushunib, yozilishini, harflarning bir-biriga bog‘lanishini, kichik va bosh xarflarning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, avtoruchkani ushlab va to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini yaxshi bilishlari lozim. Chiroyli yozuv malakalarini o‘stirishda eng birinchi qoida bu gigiyenik talablar va yozuvning qiyaligini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatilib, so‘ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish qoidalari singdirib boriladi. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson tushunarli olib borilishi kerak. O‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati bor. Chiroyli yozuv o‘quvchida mehnat qobiliyatini shakllantirish, yuklatilgan vazifalarni toza, aniq madaniyat bilan bajarishda o‘rganish, estetik didni tarbiyalash, chiroyli yozuv imlo xatolarining oldini olishi, xunuk xat o‘quvchida yozuvga nisbatan mas‘uliyatsizlik hissini uyg‘otishi, o‘ylamay yozishga, imlo xatolariga befarq bo‘lishga olib kelishi, chiroyli yozuvning ijtimoiy ahamiyati-dir, hujjatlar o‘qib bo‘lmaydigan dastxat bilan yozilsa, o‘quvchining ko‘p vaqtini olishi va tushunmaslikka olib kelishi mumkin. Bola maktabga qadam qo‘ygan kundanoq yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o‘rgatib boriladi. O‘qituvchi doskaga yozib ko‘rsatgan harf yoki bog‘lanishlarni, o‘quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkani havoda harakatini ko‘rsatib, o‘quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so‘ng daftarga yozishga ruxsat etadi.⁷

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda bolalarga chiroyli yozuv malakasini singdirish har bir o‘qituvchidan chidam va mahorat talab etadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘stiradi hamda jismoniy mashqlarini ham bajarish imkonini berishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda bolalarga chiroyli yozuv malakasini o‘rgatish har bir o‘qituvchidan chidam va mahorat talab etadigan muhim jarayondir.

⁶ “Xusnixat metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 1976

⁷ Doniyorov M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili darslarida chiroyli yozuvga o‘rgatish. 2020

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ ҲАҚИДА “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ, 241-бет
2. X.G‘ulomova, “Husnixat va uni o‘qitish metodikasi” Toshkent-2007.
3. G‘ulomov M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatish” Toshkent 1997.
4. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from
5. Abduraxmonova, N. A. qizi. “BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA”. Educational Research in Universal Sciences, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11,
6. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550
7. Olimov, S. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 245–248. Retrieved
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
9. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from
10. Sadriddinova, Z. M. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI TA‘LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA O‘LCHOVLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 241–244. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5513>
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
12. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
13. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
14. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
15. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

**BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY MASALALAR USTIDA ISHLASH
USULLARI****Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi:

Dadaboyeva Madina Aziz qizi

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Email: mavludaaliyevna@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish uchun turli usullardan foydalanishni o‘rganish va shu bilan mavzuni yanada qiziqarli va o‘quvchilar uchun ochiq qilishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar, o‘quvchilarning matematik mantiqni tushunishi va qadrlashini oshirishga qaratilgan bo‘lib, matematikada ishlash va umumiy yutuqlarga olib keladi. Matematik mantiqiy masalalar ilmiy tadqiqotlar asosida o‘quvchilarning analitik fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu masalalar o‘quvchilarning o‘zlarini tahlil qilish, mantiqiy jihatlaridan muammo va savollarga yaqinlashish va yechishda ko‘rsatilgan ishlar orqali o‘ylash va ishlashga imkoniyat beradi.

Kalit so‘zlar: Matematik mantiq, boshlang‘ich sinflar, jalb qilish, mavjudlik, tushunish, ishlash, yutuq

Kirish:

Matematika o‘qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda o‘qitish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Umumiy metodika boshlang‘ich sinf matematikasining mazmunini va tizimlilikini aks ettiradi, har bir bo‘limni o‘qitishning o‘ziga xos xususiy metodlarini o‘rgatadi. Xususiy metodika matematika o‘qitishning asoslangan metodlarini va o‘qitish formalarini, shuningdek, o‘quv faoliyatini tashkil qilish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, o‘qitish tarbiyalash bilan o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Ushbu metodika o‘qitishni tarbiyalash bilan qo‘shib olib borish yo‘llarini o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir:

- 1) o‘qitish asosi bo‘lgan matematika bilan;
- 2) pedagogika;
- 3) psixologiya;
- 4) boshqa o‘qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...).

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish kursi o‘quv predmetiga aylangan.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasining o‘qitish vazifalari:

- a) ta‘lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi;
- b) nazariy bilimlar tizimini o‘rganish jarayonini yoritib berishi;
- d) o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatishi;
- e) ta‘limni insonparvarlashtirishi;

f) matematika o‘qitish jarayonida insonni mehnatni sevishtga, o‘zining qadr qimmatini, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko‘rsatib berishi;

g) o‘qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo‘lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog‘lab o‘qitishdaniborat.¹

Matematik mantiq-bu ramziy mantiq yordamida fikrlash va xulosa chiqarish bilan shug‘ullanadigan matematikaning bir bo‘limi. Bu muammolarni hal qilish, bashorat qilish va matematik tushunchalarni tushunish uchun muhim vositadir. Biroq, ko‘plab o‘quvchilar mavzuni mavhum va tushunish qiyin deb bilishadi, bu esa matematikada yomon ishlash va yutuqlarga olib keladi. Mantiqiy masalalar, boshlang‘ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish usullarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, asosiy maqsad o‘quvchilarning matematik tushunchalarini, faolligini va samaradorligini oshirishdir.

Asosiy qism:

Boshlang‘ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etishning turli usullari qo‘llaniladi. Bunday usullardan biri mantiqiy fikrlashni o‘z ichiga olgan o‘yinlar va jumboqlardan foydalanishdir. Masalan, Sudoku o‘yini o‘yinchilarni raqamlar bilan panjara to‘ldirish uchun mantiqiy mulohazalardan foydalanishni talab qiladi. Xuddi shunday, Xanoy minorasi va daryodan o‘tish muammosi kabi mantiqiy jumboqlar o‘quvchilardan muammolarni hal qilish uchun mantiqiy fikrlash va deduksiya ko‘nikmalaridan foydalanishni talab qiladi. Ushbu o‘yinlar va jumboqlar matematik mantiqni o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi, bu ularning mavzu bo‘yicha tushunchalari va ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan yana bir usul-bu mantiqiy fikrlashni o‘z ichiga olgan hayotiy misollardan foydalanish. Masalan, o‘quvchilarga muammoni hal qilish uchun mantiqiy fikrlashdan foydalanish kerak bo‘lgan stsenariylar berilishi mumkin. Masalan, ularga trafik va masofa kabi omillarni hisobga olgan holda A nuqtadan B nuqtaga o‘tishning eng tezkor usulini aniqlash kerak bo‘lgan stsenariy berilishi mumkin. Hayotiy misollardan foydalangan holda, o‘quvchilar matematik mantiq tushunchalari bilan yaxshiroq bog‘lanishlari mumkin, bu esa tushunish va ishlashni yaxshilashga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik mantiqni o‘rgatish qiyin vazifa bo‘lishi mumkin, ammo bu ularni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini bilan tanishtirish uchun ajoyib imkoniyat bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematik mantiq masalalarini hayotga tatbiq etishga yordam beradigan ba‘zi fikrlar:

1. Aniq misollardan foydalaning: bolalar tushunchalar aniq va aniq tarzda taqdim etilganda eng yaxshi o‘rganadilar. Masalan, tasniflash, naqshlar va ketma-ketlik kabi asosiy mantiqiy tushunchalarni o‘rgatish uchun bloklar, o‘yinchoqlar yoki hatto mevalar kabi kundalik narsalardan foydalanishingiz mumkin.

2. O‘yinlar: o‘yinlar bolalarga mantiqiy tushunchalarni kiritishning qiziqarli usuli. Sudoku, tic-tac-toe va boshqa jumboq o‘yinlari kabi o‘yinlar bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Muammoni hal qilish strategiyasini o‘rgating: muammoni hal qilish matematik mantiqning muhim tarkibiy qismidir. Bolalarga muammolarni hal qilishda yordam berish uchun orqaga qarab ishlash, stol tuzish yoki rasm chizish kabi strategiyalarni o‘rgating.

4. Hikoyalar va ko‘rgazmali qurollardan foydalaning: Hikoyalar va ko‘rgazmali qurollar yosh bolalar uchun mavhum tushunchalarni aniqroq qilishga yordam beradi. Masalan, sabab-

¹ M.E. Jumayev, Z.O. Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 10-12 bet.

oqibat tushunchasini o‘rgatish uchun hikoyalar kitobidan foydalanishingiz yoki naqshlarni qanday topishni ko‘rsatish uchun rasmlardan foydalanishingiz mumkin.

5. Texnologiyani qo‘shing: Bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ko‘plab ta‘lim dasturlari va o‘yinlari mavjud. Texnologiyani darslaringizga kiritish ularni yanada qiziqarli va interaktiv qilishi mumkin.

6. Muhokamani rag‘batlantirish: Bolalarni o‘z yechimlari ortida fikrlash va mulohazalarini baham ko‘rishga undang. Bu ularga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

Matematikadan “sinfdan tashqari ish” deyilganda o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog‘liq bo‘lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg‘ulotlar tushuniladi.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlarining mohiyati va uning turlari sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba‘zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarining quyidagi turlari uchraydi: Matematik to‘garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba‘zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O‘z mazmuni bo‘yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o‘quvchilarning kuchiga mos bo‘lishi kerak.

2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o‘quvchilarni jalb qilishi, ya‘ni qiziqarli bo‘lishi zarur. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham qiziqish yordamida faol o‘quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta‘minlash lozim. Bu mashg‘ulotlarga baho qo‘yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

4. Mashg‘ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.²

Umuman olganda, boshlang‘ich o‘quvchilarga matematik mantiqni o‘rgatish uchun yanada qiziqarli va qulay bo‘lishi mumkin. Mantiqiy fikrlash va mantiqiy fikrlashning hayotiy misollarini o‘z ichiga olgan o‘yinlar va jumboqlardan foydalanib, o‘quvchilar mavzu bilan yaxshiroq bog‘lanishlari mumkin, bu esa tushunish va ishlashni yaxshilashga olib keladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘qitish uslublarida ijodiy bo‘lishlari, mavzuni o‘z o‘quvchilari uchun hayotga tatbiq etish uchun turli xil vositalar va usullardan foydalanishlari zarurligini ta‘kidlaydi.

² M.E. Jumayev, Z.O. Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 73-74 bet.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda matematik mantiqiy masalalar boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘rganishning muhim qismini tashkil etadi. Ularni matematik fikrlashni o‘rganishlari, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilishga ko‘mak beradi. Bu masalalar o‘quvchilarning analitik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Aniq misollar, o‘yinlar, muammoni hal qilish strategiyasi, hikoyalar va ko‘rgazmali qurollar bilan matematik mantiqni o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda ham qiziqarli va foydali bo‘ladi. Bular o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumayev M.E. “ Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum”. - T.2003-yil.
2. Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. II-qism. – T-2018-M.Axmedov va b.q. 1-sinf “Matematika” darsligi T-2020- yil.
3. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K.To‘rtinchi sinf matematika darsligi.Toshkent. “Oqituvchi”.2017 yil.
4. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang‘ich matematika tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent.”Ilm-Ziyo” 2013 yil.
5. Jumayev M.E. Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. “Turon-Iqbol”. 2012 yil.
6. Dadaboyeva, M. A. Qizi. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16 SPECIAL), 833–841. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5108>
7. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN‘ATNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 865-867.
8. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNANOLOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
9. Yo‘Ldashev, A. (2022). Ta‘limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 3(11), 726-729.
10. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
11. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
12. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
13. O‘ZBEKISTONDA SUV MUAMMOSINI OLDINI OLISH INSON VA TABIAT UCHUN ZARURIY MASALA
14. MA qizi Dadaboyeva – Educational Research in Universal Sciences, 2023

15. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 861-864.
16. Xoliqovich, M. A., & Faxriddin, H. (2023). TURLI DIN VAKILLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 745-748.
17. Xoliqovich, M. A., & Faxriddin, H. (2023). TURLI DIN VAKILLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 745-748.
18. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 861-864.
19. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
20. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
21. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
22. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
23. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIFLARDA TA‘LIM VA TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI****Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon univertiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Jo‘rayeva Munisa Akmal qizi

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Email: munisaxonjorayeva@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllari to‘g‘risidagi umumiy xulosalarga bag‘ishlangan. Darslarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari bayon etilgan sinflarda ta‘lim va tarbiya jarayonini yanada sifatli va samarador qilish maqsadida innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilishi aks etgan. Boshlang‘ich sinflarda interaktiv darsliklar, onlayn ta‘lim platformalari, video darslar va boshqa texnologiyalar o‘quvchilarga ko‘proq imkoniyatlar beradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, Innovatsion texnologiya, VR (virtual reallik), axloqiy, aqliy, jamoa, yondashuv

Kirish:

Bugungi kunda mustaqil Respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog‘liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o‘ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o‘z to‘g‘ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo‘lmog‘i lozim. O‘quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so‘zsiz o‘qituvchiga, uning o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri boshqara olishiga va o‘quvchilar bilan o‘rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog‘liq.¹

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ta‘lim sohasiga oid bir nechta qonunlar mavjud. Bu qonunlar ta‘limning tartibi, tizimi, o‘quv jarayoni, o‘quvchilar va o‘qituvchilar huquqlari va vazifalari bilan bog‘liq masalalarni belgilaydi. Quyidagi muhim qonunlar O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasida amal qilinadi:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta‘lim Tizimini Yanada Rivojlantirish Dasturi” - Bu dastur O‘zbekiston ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish va samaraliroq qilish maqsadida qabul qilingan. Bu dastur ta‘lim sohasidagi yangiliklarni amalga oshirish, interaktiv darslar uchun texnologiyalarni rivojlantirish va o‘quvchilarni yaxshi tayyorlashni maqsad qiladi.

2. “O‘zbekiston Respublikasining Oliy va O‘rta Maxsus Ta‘lim Muassasalari To‘g‘risida” - Bu qonun oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarining faoliyatini tartibga solish, ularning huquq va vazifalarini belgilash, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish masalalarini reglamentlashni maqsad qiladi.

3. “O‘zbekiston Respublikasining O‘rta Ta‘lim Muassasalariga Doir” - Bu qonun o‘rta ta‘lim muassasalarining faoliyatini, o‘quv jarayonini, o‘qituvchilar va o‘quvchilar huquqlarini belgilaydi.

¹ B.Sayfullayev “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar- Toshkent 2017. 66-bet

Bu qonunda o‘rta ta‘lim muassasalarining tashkil etilishi, boshqarilishi, pedagogik kadrlar tayyorlash va boshqa muhim masalalar keng ko‘rildi.

Bu kabi qonunlar O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi tartib va tuzilishni belgilab turadi. Ularning asosiy maqsadi o‘quvchilarni yaxshi tayyorlash, ta‘lim jarayonini samaraliroq qilish va ta‘lim sohasidagi huquq-huquqiy munosabatlarni belgilashdir.

Har qanday texnologiya negizida mehnat faoliyati ko‘rinishidagi o‘zaro jamoaviy ta‘sir yotadi. Texnologiya mehnat jarayonining o‘ziga singdiriladi. Texnologiyaning shaklidan qat‘i nazar asosiy natija umumiy jarayonning tavsifi, predmeti, vositalari va yakuniy ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Shaxs ongi jamoaviy o‘zaro ta‘sir in‘ikosining ideal shakli va dialektik qarama-qarshiligini ifoda etadi. Shu sababli ongni qayta shakllantirish qonuniyatlarini ijtimoiy texnologiya amaliyotdan izlash taqozo etiladi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy texnologiyadan ajralib chiqqan. Shunga ko‘ra u o‘z taraqqiyotida jamoaviy mashqlantiruvchi refleks bosqichini bosib o‘tgan bo‘lib, texnologik o‘zaro ta‘sirlarni maqsadga muvofiq takrorlovchi harakat va operatsiyalar kabi tizimga ajratadi.²

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim va tarbiya jarayonida innovation texnologiyalar o‘rni juda muhimdir. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarga yangi va qiziqarli usullar orqali ma‘lumot olish imkoniyatini beradi va ularning ma‘lumotlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Misol uchun, interaktiv darsliklar, onlayn ta‘lim platformalari, robotlar va boshqa innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga ta‘lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning tajribalarini yanada boyitish, ularni motivatsiyalash va yangi bilimlarni o‘rganishga ilhomlantirishga yordam beradi. Buning natijasida, o‘quvchilarning ta‘lim natijalari va ma‘lumotlarini oshirishiga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, muammolarini hal qilish va yangi yaratuvchi yondashuvlar topishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu texnologiyalar o‘qituvchilar uchun ham qulayliklar yaratadi, ularning darslarni tayyorlash va o‘quvchilarga ma‘lumotlarni yetkazish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shu sababli, innovation texnologiyalar boshlang‘ich sinflarda ta‘lim va tarbiya jarayonida juda muhim ahamiyatga ega.

Ta‘lim texnologiyalari fani talabalarni pedagogik faoliyat, uning mazmuni, o‘qituvchi odobi va unga qo‘yiladigan talablar, pedagogik faoliyatni zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida mahoratli tashkil etish yo‘llari xususidagi dolzarb muammolar bilan tanishtiradi, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarga hamkasblar, ota-onalar hamda o‘quvchilar bilan olib boriladigan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyat va yo‘nalishlari, ularning bola shaxsining shakllanishi, unda ma‘naviy- axloqiy sifatlarning hosil bo‘lishiga ta‘siri borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni beradi.³

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim va tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar o‘rni juda muhimdir. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarga interaktiv darslar o‘tkazish, ma‘lumotlarni oson va qiziqarli o‘rganish, kreativlikni rivojlantirish va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.

² Ro‘ziyeva D.A Tolipov O‘.Q {PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARVA PEDAGOGIK MAHORAT}Toshkent 2019 34-bet

³ B.Sayfullayev “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar- Toshkent 2017. 3-bet.

Masalan, smart boardlar, interaktiv darslar, online ta’lim platformalari, ilova dasturlari va boshqa texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada samarali va motivatsiyali qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning ma’lumotlarni o‘rganish va tushunish jarayonlarini yanada qulaylashtiradi va ularning kreativlik va tajribalarini oshiradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda innovation texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning yaxshi tayyorlanishiga va ma’lumotlarni o‘rganishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar bolalar uchun bir nechta ijobiy taraflarga ega. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim jarayonini o‘zlashtirish, ularning tushunchalarini oshirish va ularga yangi bilimlar o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi ijobiy taraflar innovatsion texnologiyalarni bolalar uchun muhim qiladigan sabablarni ko‘rsatadi:

1. Interaktivlik: Innovatsion texnologiyalar, masalan, interaktiv darslar, onlayn o‘quv platformalari va dasturlar orqali o‘quvchilarga interaktivlik imkoniyatini taqdim etadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning darslarda faol ishtirok etishini, savollarga tez javob berishini va o‘zlashtirgan bilimlarni amalga oshirishini ta’minlaydi.

2. Yaratuvchi fikrlash: Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga yaratuvchi fikrlash va innovatsion mahsulotlar yaratish imkoniyatini beradi. Masalan, robototexnika, 3D printerlar va boshqa texnologiyalar yordamida bolalar o‘zlarining fikrlarini amalga oshirish, dizayn qilish va yangiliklar yaratishni o‘rganishlari mumkin.

3. O‘quvchilar bilimlarini rivojlantirish: Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga yangi bilimlar o‘rgatishda yordam beradi. Virtual realitet (VR) va augmental realitet (AR) texnologiyalari orqali bolalar virtual dunyolarda sayohat qilish, tarixiy joylarni ko‘rish yoki ilmiy fanlarga oid interaktiv mashg‘ulotlar qilishlari mumkin.

4. Ta’limning samaraliroq bo‘lishi: Innovatsion texnologiyalar ta’limning samaraliroq bo‘lishiga yordam beradi. Onlayn darslar, elektronik darsliklar va interaktiv dasturlar orqali o‘quvchilarning o‘qish jarayonini yanada sodda va qulaylashtirish, ularning darslardan foydalanishini oshirish va ta’lim jarayonini samaraliroq qilish imkoniyatini beradi.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi har tomonlama va uyg‘un kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirlar turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir. Ta’lim jarayoni alohida mashg‘ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar tarbiya jarayonining bir bo‘lagidir⁴.

Tarbiya jarayonida texnologiyalar o‘rni juda katta ahamiyatga ega. Texnologiyalar o‘quvchilarga yangi va qiziqarli usullar orqali ma’lumot olish imkoniyatini beradi va ularning ma’lumotlarini amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarning tajribalarini yanada boyitish, ularni motivatsiyalash va yangi bilimlarni o‘rganishga ilhomlantirishga yordam beradi. Texnologiyalar o‘qituvchilar uchun ham qulayliklar yaratadi, ularning darslarni tayyorlash va o‘quvchilarga ma’lumotlarni yetkazish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

⁴ Ishmuxammedov R.J. Abduqodirov A. Pardayev A. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”-T 2010.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko‘rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko‘rinishlarining yagona jarayonga ta’siri bilan tabiiy “qo‘shilib” ketishida namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o‘ziga axlokiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta’sirlarni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo‘nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog‘liq tomonlarini shakllantirish)ni; rejalashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bevosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi⁵.

Boshlang‘ich siniflarda texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, muammolarini hal qilish va yangi yaratuvchi yondashuvlar topishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim natijalari va ma’lumotlarini oshirishiga yordam beradi va ularni dunyo bo‘yicha ko‘proq bilimlarga ega qiladi. Buning natijasida, o‘quvchilar yanada yaxshi tayyorgarlik bilan ishlashadi va yangi texnologiyalar bilan tanishib, ularni samarali foydalanishga tayyorlashadi.

Shuningdek, tarbiya jarayonida texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarga ijtimoiy va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular onlayn platformalar orqali boshqa o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lish, jamoatchilik qilish va jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning ijtimoiy taraqqiyotini va inson bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki boshlang‘ich, sinflarda innovatsion texnologiyalar o‘rni, o‘quvchilarga yangi va zamonaviy usullar orqali ma’lumot olish, tushunchalarini tushunish va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtirish, motivatsiyani oshirish va o‘rganish jarayonini interaktiv va amaliy qilishga olib keladi. Boshlang‘ich siniflarda innovatsion texnologiyalar o‘rni, masalan, interaktiv darsliklar, onlayn ta’lim platformalari, video darslar, animatsiyalar va boshqa multimediya vositalari orqali o‘quvchilarga ko‘proq vizual va auditiv materiallarni taqdim etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Sayfullavex “Ilg‘or Redagogik texnologiyalar”- Toshkent 2017. 66-bet
2. Hazina DA Jolinay O‘Q (PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARVA PEDAGOGIK MAHORAT Toshkent 2019 34-bet
3. Sayfullayev “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar” Toshkent 2017. 3-bet.
4. Ishmuxammedov RJ. Abdugadirov A. Pardavey A. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”-T 2010
5. Ishmuxammedov RJ. Abduqodirov A. Pardavey A “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”-T 2010.13-bet

⁵ Ishmuxammedov R.J. Abduqodirov A. Pardavey A. "Tarbiyada innovatsion texnologiyalar"-T 2010.13-bet

6. Dadaboyeva, M.A qizi.(2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI.Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari,2(16 MAXSUS), 833-841.<http://erus.uz/index.php/er/article/view/5108> dan olindi
7. O'ZBEKISTON HUDUDI, INKLYUZIV TA'LIMIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM TARBIYA OLISHLARI, UNDAGI KAMCHILIK VA MUAMMOLAR.(2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR,2(1), 85-89.<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/6>
8. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
9. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA MULTIMEDIALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 519-521.
10. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78-83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
11. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
12. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
13. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
14. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
15. Umarov Toxirjon. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
17. Umarov, T. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKKA O‘RGATISHDA MAHALLIY VA XORIJ
TAJRIBALARINI QIYOSIY TAHLILI****Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijodkorlik nima ekanligini va u qachon sodir bo‘lishi mumkinligini o‘rganadi. Shuningdek, u o‘z ijodingizni yaxshilash uchun qilishingiz mumkin bo‘lgan ba‘zi qadamlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqola ijodkorlikning harakat nazariyasini tavsiflaydi va chet el va mahalliy ta‘lim sohasiga oid, ijodiy ifodani o‘rganish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatish usullari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, innavatsiya, integratsiyalash, qobiliyat, azaliy, eksentrik, boshlang‘ich ta‘lim, mistik

Kirish.

“Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas” Mazkur ibora paydo bo‘lganidan buyon ming yillar o‘tdi. Butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda, yangilanishda deganidir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyati shunday. Davrlar o‘taveradi, zamonlar almashaveradi. Bu yorug‘ olamga kelgan har bir odamzot avlodi turli o‘zgarish va yangilanishlar sari intilaveradi. Ayni paytda xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o‘z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Nisbatan qisqa muddatlarda erishilgan ulug‘ marralar butun jahon ahlini lol qoldiradi. Ayni bir xalq salohiyatining ulkan natijasi bo‘lgan bu kabi olamshumul yutuqlar esa, insoniyat tarixining yorqin sahifalariga aylanadi, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta turtki beradi.¹

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta‘limning dunyo ta‘lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.²

Biz o‘zimiz va atrofimiz haqida o‘ylash va savol berishni boshlaganimizdan beri ijodkorlik insoniyatning bir qismi bo‘lib kelgan. Insoniyatning ijodkorlikka bo‘lgan qarashi sharqiy va g‘arbiy sivilizatsiyalarda sezilarli darajada rivojlangan. Qadimgi Rim va Xitoyda ijodkorlik xudolar tomonidan tanlangan bir necha kishiga in‘om qilingan sovg‘a sifatida aytilgan. O‘n to‘qqizinchi asrda ijodiy ilhomning yanada romantik ko‘rinishi paydo bo‘ldi. 1920-yillarga qadar ijodkorlik san‘at va eksentrik sohada mustahkam o‘rin olgan ma‘lum bir mistik xususiyat sifatida ko‘rinardi.³

Tadqiqotchilardan keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish, mahalliy va chet eldagi ilg‘or tajribani o‘rganish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiiq qilishni talab etadi. Chet el tajribasi

¹ Мирзиёев Ш.М. М 54 Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. - 464 б.5-б.

² Н.Т. Омонов, Н.Х. Хо‘jayев, С.А. Мадьярова, Е.У. Eshchonov “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT”, Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009,9-б.

³ <https://theeducationhub.org.nz/how-to-support-and-promote-creativity-in-primary-schools>

haqida so‘z yuritar ekamiz, Finlandiya ta‘lim tizmi, xususan boshlang‘ich ta‘lim tizimi sohasidagi tajribasi haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

Bu haqida, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2022-yilning 8-oktabrida, Sirdaryo vioyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan qilgan muloqotida alohida to‘xtalib, quydagilarni ta‘kidlab o‘tganlar: “Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kiringach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo‘ldi.

Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo‘ldik. Finlandiya xalq ta‘limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi. Finlyandiya ta‘lim tizimining yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qiziq faktlarning guvohi bo‘lamiz. XX asrning 70-yillariga qadar bir qator kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular ta‘lim tizimini samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilgan. Natijada ta‘lim tizimida jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan. Ilg‘or tajriba va ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda islohotlar yo‘nalishlari belgilab olingan va bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.⁴

Koreya, boshlang‘ich ta‘limida urg‘u o‘qish-o‘rganish va kundalik hayot uchun zarur bo‘ladigan asosiy odatlar, fundamental qobiliyatlarni o‘stirish va to‘g‘ri xarakterni rivojlantirishga beriladi. Har bir dars 40 daqiqa davom etadi. 1- va 2- sinflar koreys tili, matematika, yaxshi yashash odatlari, hayotiy hikmatlar va hokazolar kabi asosiy hayot odatlari va qobiliyatlarini o‘rganadi. 3-sinfdan 6-sinfgacha esa o‘quvchilar koreys tili, ijtimoiy fanlar, etika, matematika, fan/ro‘zg‘orshunoslik, jismoniy tarbiya, san‘at(musiqat/saviriy san‘at), ingliz tili va hokazo fanlarni o‘rganadi.

Ijodiy tajriba mashg‘ulotlari to‘rt turdagi faoliyatga bo‘lingan sinfdan tashqari mashg‘ulotlardir (“Birinchisi va ikkinchi sinflar uchun”, “Xavfsiz hayot” ni o‘z ichiga oladi): o‘z qiziqishlariga moslashtirilgan o‘quv mashg‘ulotlari, kasbiy rivojlanish, va boshqa ixtiyoriy xizmatlari. Maktablar o‘quvchilarning rivojlanishi va maktab sharoitlarini hisobga olgan holda sinflar (guruhlar) bo‘yicha tadbirlarni tanlab tashkil qilishi mumkin. O‘z qiziqishlariga moslashtirilgan ijodiy o‘quv faoliyatining turlari va faoliyatlariga qarab, mustaqil harakatlar, o‘zini boshqarish, moslashish, ijodiy g‘oyalar mashg‘ulotlari kabilarda namoyon bo‘ladi.⁵

Janubiy Koreyada yaxshi ta‘lim olish har qanday koreysning muvaffaqiyatli martabasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun nufuzli ta‘lim muassasasiga kirish vazifasiga ustuvor ahamiyat beriladi va kirish imtihonlarini topshirish jarayoni juda og‘ir bo‘lishi mumkin. Koreya davlat ma‘muriy organlari bolaning dastlabki yillaridan to‘rta maktabdagi so‘nggi yilgacha butun o‘quv jarayonini aniq shakllantiradi va nazorat qiladi. Matematikaga, koreys va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat fanlariga alohida e‘tibor qaratiladi.⁶

Boshlang‘ich ta‘lim Buyuk Britaniyada etti yoshdan boshlanadi. Shundan so‘ng, bolalar, odatda, shu muassasa ichida o‘rta maktabga borish. Yilda asosiy sinflar bolalar matematika, ingliz, musiqa, geografiya, tarix, san‘at va sanoat texnologiyasi o‘rganishadi. Ko‘pchilik britaniyalik bolalar 5 yoshida davlat boshlang‘ich maktablariga kiradi va keyin 11 yoshida o‘sha maktabdagi

⁴ file:///D:/saqlangan%20fayllar/1840-1848.pdf

⁵ <https://krguide.kr/UZB/1172/contents.do>

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreyada_ta%CA%BClim

o‘rta ta‘lim sinflariga o‘tadi yoki kollejga boradi. Boshlang‘ich maktabda bolalar ingliz tili, matematika, tarix, geografiya, musiqa, sanoat texnologiyasi va san‘at fanlarini o‘rganadilar.⁷

So‘nggi yillar ichida ijodkorlikning yoshlar tarbiyasining bir qismi sifatida ahamiyati tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda. Ijodkorlikka e‘tibor kuchayishiga turtki bo‘lib, turli manbalar, jumladan, milliy iqtisodiyotni yanada yuksaltirish va yoshlar ta‘limining ma‘rifiy qarashlari sabab bo‘ldi. Ta‘limdagi ijodkorlikning bir jihati uning milliy davlatlarning milliy o‘quv dasturlari matnlarida tutgan o‘rni bo‘ldi.⁸

Bugungi kundagi ta‘lim faqatgina kurs va leksiya to‘plamidan iborat emas. Endilikda u mustaqil ta‘lim, elektron texnologiyalar va dars o‘tishning ilg‘or metodikalari konsepsiyasini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda o‘quvchilar axborot olish va uni samarali o‘zlashtirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganib olishdi. Zamonaviy ta‘lim dunyodagi tinimsiz o‘zgarishlarga ko‘nikkan, turli muammo va to‘siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta‘lim o‘quvchilarni nafaqat amaliy ko‘nikmalar bilan, balki o‘quvchilarga bugungi kunda zarur bo‘lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o‘quv texnikalari bilan ta‘minlaydi.⁹

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.¹⁰ Interfaol metodlar ta‘limda bolaning, harakati, teng maqsadlarini amalga oshirishga ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘mak beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishida ta‘lim muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta‘lim tizimini keyingi bosqichlarining natijasi va samaradorligi boshlang‘ich ta‘lim jarayonida olingan bilim va shakllangan ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim tizimini bu sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g‘oyalarni va ilg‘or chet el tajribasini tadbiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz, bu sa‘y-harakatlar yaqin kelajakda o‘z natijasini beradi va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. М 54 Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: "O‘zbekiston" нашриёти, 2021. - 464 б.5-б.
2. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT", Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2009,9-б.

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyuk_Britaniyaning_ta%CA%BCLim_tizimi

⁸ Creativity and education: comparing the national curricula of the states of the European Union and the United Kingdom Dominic Wyse and Anusca Ferrari British Educational Research Journal Vol. 41, No. 1 (February 2015), pp. 30-47 (18 pages) Published By: Wiley

⁹ "Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi Toshkent – 2023

¹⁰ <https://kun.uz/24325219?q=%2Fuz%2F24325219>

3. Creativity and education: comparing the national curricula of the states of the European Union and the United Kingdom Dominic Wyse and Anusca Ferrari British Educational Research Journal Vol. 41, No. 1 (February 2015), pp. 30-47 (18 pages) Published By: Wiley
4. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN‘ATNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 865-867.
5. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH.QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550
6. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. “TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI.” Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
7. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
8. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from
9. Muslimaxon Ibrohimova, & Nargizaxon Usmonova. (2023). PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR MISOLIDA. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 578–580.
10. Raximjonovna, U. N. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
11. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from
12. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH.QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
13. Shahnoza, I, & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
14. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
15. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
16. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

17. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
18. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
19. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
20. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
21. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKKA O‘RGATISHDA MAHALLIY VA XORIJ
TAJRIBALARINI QIYOSIY TAHLILI****Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijodkorlik nima ekanligini va u qachon sodir bo‘lishi mumkinligini o‘rganadi. Shuningdek, u o‘z ijodingizni yaxshilash uchun qilishingiz mumkin bo‘lgan ba‘zi qadamlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqola ijodkorlikning harakat nazariyasini tavsiflaydi va chet el va mahalliy ta‘lim sohasiga oid, ijodiy ifodani o‘rganish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatish usullari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, innavatsiya, integratsiyalash, qobiliyat, azaliy, eksentrik, boshlang‘ich ta‘lim, mistik

Kirish.

“Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas” Mazkur ibora paydo bo‘lganidan buyon ming yillar o‘tdi. Butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda, yangilanishda deganidir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyati shunday. Davrlar o‘taveradi, zamonlar almashaveradi. Bu yorug‘ olamga kelgan har bir odamzot avlodi turli o‘zgarish va yangilanishlar sari intilaveradi. Ayni paytda xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o‘z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Nisbatan qisqa muddatlarda erishilgan ulug‘ marralar butun jahon ahlini lol qoldiradi. Ayni bir xalq salohiyatining ulkan natijasi bo‘lgan bu kabi olamshumul yutuqlar esa, insoniyat tarixining yorqin sahifalariga aylanadi, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta turtki beradi.¹

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta‘limning dunyo ta‘lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.²

Biz o‘zimiz va atrofimiz haqida o‘ylash va savol berishni boshlaganimizdan beri ijodkorlik insoniyatning bir qismi bo‘lib kelgan. Insoniyatning ijodkorlikka bo‘lgan qarashi sharqiy va g‘arbiy sivilizatsiyalarda sezilarli darajada rivojlangan. Qadimgi Rim va Xitoyda ijodkorlik xudolar tomonidan tanlangan bir necha kishiga in‘om qilingan sovg‘a sifatida aytilgan. O‘n to‘qqizinchi asrda ijodiy ilhomning yanada romantik ko‘rinishi paydo bo‘ldi. 1920-yillarga qadar ijodkorlik san‘at va eksentrik sohada mustahkam o‘rin olgan ma‘lum bir mistik xususiyat sifatida ko‘rinardi.³

Tadqiqotchilardan keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish, mahalliy va chet eldagi ilg‘or tajribani o‘rganish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiiq qilishni talab etadi. Chet el tajribasi

¹ Мирзиёев Ш.М. М 54 Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “О‘збекистон” нашриёти, 2021. - 464 б.5-б.

² Н.Т. Омонов, Н.Х. Хо‘jayев, С.А. Мадьярова, Е.У. Eshchonov “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT”, Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009,9-б.

³ <https://theeducationhub.org.nz/how-to-support-and-promote-creativity-in-primary-schools>

haqida so‘z yuritar ekamiz, Finlandiya ta‘lim tizmi, xususan boshlang‘ich ta‘lim tizimi sohasidagi tajribasi haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

Bu haqida, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2022-yilning 8-oktabrida, Sirdaryo vioyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan qilgan muloqotida alohida to‘xtalib, quydagilarni ta‘kidlab o‘tganlar: “Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo‘ldi.

Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo‘ldik. Finlandiya xalq ta‘limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi. Finlyandiya ta‘lim tizimining yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qiziq faktlarning guvohi bo‘lamiz. XX asrning 70-yillariga qadar bir qator kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular ta‘lim tizimini samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilgan. Natijada ta‘lim tizimida jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan. Ilg‘or tajriba va ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda islohotlar yo‘nalishlari belgilab olingan va bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.⁴

Koreya, boshlang‘ich ta‘limida urg‘u o‘qish-o‘rganish va kundalik hayot uchun zarur bo‘ladigan asosiy odatlar, fundamental qobiliyatlarni o‘stirish va to‘g‘ri xarakterni rivojlantirishga beriladi. Har bir dars 40 daqiqa davom etadi. 1- va 2- sinflar koreys tili, matematika, yaxshi yashash odatlari, hayotiy hikmatlar va hokazolar kabi asosiy hayot odatlari va qobiliyatlarini o‘rganadi. 3-sinfdan 6-sinfgacha esa o‘quvchilar koreys tili, ijtimoiy fanlar, etika, matematika, fan/ro‘zg‘orshunoslik, jismoniy tarbiya, san‘at(musiqat/saviriy san‘at), ingliz tili va hokazo fanlarni o‘rganadi.

Ijodiy tajriba mashg‘ulotlari to‘rt turdagi faoliyatga bo‘lingan sinfdan tashqari mashg‘ulotlardir (“Birinchi va ikkinchi sinflar uchun”, “Xavfsiz hayot” ni o‘z ichiga oladi): o‘z qiziqishlariga moslashtirilgan o‘quv mashg‘ulotlari, kasbiy rivojlanish, va boshqa ixtiyoriy xizmatlari. Maktablar o‘quvchilarning rivojlanishi va maktab sharoitlarini hisobga olgan holda sinflar (guruhlar) bo‘yicha tadbirlarni tanlab tashkil qilishi mumkin. O‘z qiziqishlariga moslashtirilgan ijodiy o‘quv faoliyatining turlari va faoliyatlariga qarab, mustaqil harakatlar, o‘zini boshqarish, moslashish, ijodiy g‘oyalar mashg‘ulotlari kabilarda namoyon bo‘ladi.⁵

Janubiy Koreyada yaxshi ta‘lim olish har qanday koreysning muvaffaqiyatli martabasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun nufuzli ta‘lim muassasasiga kirish vazifasiga ustuvor ahamiyat beriladi va kirish imtihonlarini topshirish jarayoni juda og‘ir bo‘lishi mumkin. Koreya davlat ma‘muriy organlari bolaning dastlabki yillaridan to‘rta maktabdagi so‘nggi yilgacha butun o‘quv jarayonini aniq shakllantiradi va nazorat qiladi. Matematikaga, koreys va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat fanlariga alohida e‘tibor qaratiladi.⁶

Boshlang‘ich ta‘lim Buyuk Britaniyada etti yoshdan boshlanadi. Shundan so‘ng, bolalar, odatda, shu muassasa ichida o‘rta maktabga borish. Yilda asosiy sinflar bolalar matematika, ingliz, musiqa, geografiya, tarix, san‘at va sanoat texnologiyasi o‘rganishadi. Ko‘pchilik britaniyalik bolalar 5 yoshida davlat boshlang‘ich maktablariga kiradi va keyin 11 yoshida o‘sha maktabdagi

⁴ file:///D:/saqlangan%20fayllar/1840-1848.pdf

⁵ <https://krguide.kr/UZB/1172/contents.do>

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreyada_ta%CA%BClim

o‘rta ta‘lim sinflariga o‘tadi yoki kollejga boradi. Boshlang‘ich maktabda bolalar ingliz tili, matematika, tarix, geografiya, musiqa, sanoat texnologiyasi va san‘at fanlarini o‘rganadilar.⁷

So‘nggi yillar ichida ijodkorlikning yoshlar tarbiyasining bir qismi sifatida ahamiyati tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda. Ijodkorlikka e‘tibor kuchayishiga turtki bo‘lib, turli manbalar, jumladan, milliy iqtisodiyotni yanada yuksaltirish va yoshlar ta‘limining ma‘rifiy qarashlari sabab bo‘ldi. Ta‘limdagi ijodkorlikning bir jihati uning milliy davlatlarning milliy o‘quv dasturlari matnlarida tutgan o‘rni bo‘ldi.⁸

Bugungi kundagi ta‘lim faqatgina kurs va leksiya to‘plamidan iborat emas. Endilikda u mustaqil ta‘lim, elektron texnologiyalar va dars o‘tishning ilg‘or metodikalari konsepsiyasini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda o‘quvchilar axborot olish va uni samarali o‘zlashtirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganib olishdi. Zamonaviy ta‘lim dunyodagi tinimsiz o‘zgarishlarga ko‘nikkan, turli muammo va to‘siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta‘lim o‘quvchilarni nafaqat amaliy ko‘nikmalar bilan, balki o‘quvchilarga bugungi kunda zarur bo‘lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o‘quv texnikalari bilan ta‘minlaydi.⁹

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.¹⁰ Interfaol metodlar ta‘limda bolaning, harakati, teng maqsadlarini amalga oshirishga ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘mak beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishida ta‘lim muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta‘lim tizimini keyingi bosqichlarining natijasi va samaradorligi boshlang‘ich ta‘lim jarayonida olingan bilim va shakllangan ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim tizimini bu sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g‘oyalarni va ilg‘or chet el tajribasini tadbiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz, bu sa‘y-harakatlar yaqin kelajakda o‘z natijasini beradi va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. М 54 Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: "O‘zbekiston" нашриёти, 2021. - 464 б.5-б.
2. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT", Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2009,9-б.

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyuk_Britaniyaning_ta%CA%BCLim_tizimi

⁸ Creativity and education: comparing the national curricula of the states of the European Union and the United Kingdom Dominic Wyse and Anusca Ferrari British Educational Research Journal Vol. 41, No. 1 (February 2015), pp. 30-47 (18 pages) Published By: Wiley

⁹ "Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi Toshkent – 2023

¹⁰ <https://kun.uz/24325219?q=%2Fuz%2F24325219>

3. Creativity and education: comparing the national curricula of the states of the European Union and the United Kingdom Dominic Wyse and Anusca Ferrari British Educational Research Journal Vol. 41, No. 1 (February 2015), pp. 30-47 (18 pages) Published By: Wiley
4. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN‘ATNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 865-867.
5. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH.QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550
6. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
7. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
8. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from
9. Muslimaxon Ibrohimova, & Nargizaxon Usmonova. (2023). PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR MISOLIDA. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 578–580.
10. Raximjonovna, U. N. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
11. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20. Retrieved from
12. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH.QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
13. Shahnoza, I, & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
14. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." *Архив научных исследований* (2020).
15. Ganiyeva, M. (2020). Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение». *Архив научных исследований*.
16. Ganiyeva, Muborak. "«Шахс ва жамият» фани-тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони." *Архив научных исследований* (2020).
17. Ganiyeva, M. (2020). «Шахс ва жамият» фани-тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий тушунчаларни ёритиш мезони. *Архив научных исследований*.

18. Ganiyeva, Muborak. "“Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш-мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами." *Архив научных исследований* (2020).

19. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.

20. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHY LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS". *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 368-374.

1. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

2. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

2-SINF O‘QISH DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISH YO‘LLARI**Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon Universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Mamasobirova Dilafruz Akmaljon qizi

Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va vazifalari, shuningdek, nutq o‘stirishning metodik shartlari borasida ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek nutq o‘stirish tushunchasi, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning mavjud ahvoli, o‘qish darslarida nutq o‘stirishning shakl va vositalari, nutq o‘stirishda noan‘anaviy usullardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nutq, temp, tovush, nutqiy mahorat, estetik tarbiya, logoped mashg‘ulotl

Kirish:

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Istiqloq yillarida ona tilimiz tom ma‘noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida ta‘kidlanganidek, “Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” degan hayotiy da‘vat har birimizning ongimiz va qalbimizdan mustahkam o‘rin egallagan. Shu maqsadda ta‘lim tizimining, o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta‘lim berish, ularni jismoniy va ma‘naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Farzandlarimizni hayotda munosib o‘rin egallashlarini ta‘minlashni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda”¹ degan edilar.

Ba‘zi bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilbigina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o‘zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bunday hollarda logoped mashg‘ulotlar yordamiga muxtoj bo‘ladilar.²

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvafaqqiyatli ta‘lim olish qurolidir.

Asosiy qism:

Nutqning tovush madaniyati o‘z ichiga nutqning talaffuz tomonini to‘lig‘icha oladi. Bunda ona tilidagi hamma tovushlarni, so‘zlarni aniq va tushunarli talaffuz etish, nutqdagi tovushlarning

¹ Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. —32 b.

² fayllar.org/2-oqish-darslarida-ogzaki-nutqni-ostirish-yoli-va-vositalari-v2.html

intonatsiyasi, tempi, ovoz kuchi, imo-ishora, nutq orqali aloqa qilishning elementar madaniyati-nutq toni, turish holati va boshqalarga e’tibor beriladi. Tovush madaniyatining asosi-nutq tovushlarini eshitish va nutq paytida nafas olish holati ohangdor nutqning kelib chiqishidagi asosiy sabab va sharoitlar hisoblanadi³.

G‘arb tilshunosligida umumiy ma’noda “til madaniyati” termini ham qo’llanadi. 1-ma’nodagi, “Nutq madaniyati” tushunchasi adabiy tilni o’zlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning to’g’riligi nutqiy mahorat. Nutqning to’g’riligi muayyan tilda so’zlovchilar va yozuvchilar tomonida, “ideal” yoki umum tomonidan qabul qilingan va an’anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me’yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorati esa nafaqat adabiy me’yorlarga amal qilish, balki o’zaro mavjud bo’lgan variantlardan mazmunan eng to’g’ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Masalan: aka—oka —ako; kelyapti—kevotti—kelopti variantlaridan birining adabiy me’yor sifatida tanlanishi). Yuksak nutqiy madaniyat kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mexr-muhabbatini namoyon qiladi. Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til me’yoridir. 2-ma’nodagi Nutq madaniyatining asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol ta’sir ko’rsatish maqsadida (tilning barcha sathlarida) ob’ektiv til me’yorlarini ularning barqarorlashgan shakllarida, ziddiyatlarida, vujudga keluvchi tamoyillarida o’rganishdir. Zamonaviy Nutq madaniyati nazariy va amaliy fan bo’lib, u til amaliyotiga ta’sir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va boshqa tilshunoslik bo’limlarining yakunlari va xulosalarini umumlashtiradi. Alisher Navoiy o’zining butun hayoti va ijodiy faoliyati bilan o’z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo’shgan bo’lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o’sha davr tili va nutq madaniyati ma’lum darajada aks etgan, “Yaxshi so’z—jon ozig’i”, “Bug’doy noning bo’lmasa ham, bug’doy so’zing bo’lsin”, “O’ynab gapirsang xam o’ylab gapir”, “Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi” kabi maqol va hikmatli so’zlarning paydo bo’lishi ham o’zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e’tibor kuchli bo’lganidan darak beradi. O’tgan asrning 20-yillaridan so’ng o’zbek tilining xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me’yorlariga asoslanadi. Bu me’yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqa), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho’lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor va boshqa) munosib hissa qo’shdilar⁴.

Bolaning rivojlanishi va yosh xususiyatlariga mos nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning fikrlarini biz ham qo’llab-quvvatlagan holda bugungi kun talablari darajasida aniq maqsadlarga qaratilgan ishlarni amalga oshirish muhimligini ta’kidlab o’tmoqchimiz.

Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog’liqdir. “Tilni egallash jarayoni – bu faqat shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko’nikmalarni berish jarayoni emas. Bu, eng avvalo tarbiyadir.

³ “Til va nutq” rivojlantirish markazidagi ta’lim faoliyatini rejalashtirish. (O’quv qo’llanma) - T.:, Innovatsion rivojlantirish nashriyot -batbaa uyi”, 2023. 8-bet J:252 bet.

⁴ “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” N harfi Davlat ilmiy nashriyoti TOSHKENT J:367bet 350-351-betlar

Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir⁵

Ko‘pgina tajribalar shuni ko‘rsatdiki, nutqi rivojlanmagan o‘quvchi to‘liq shaxs sifatida kamol topmaydi⁶ demak, o‘qituvchi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatleri shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi. nutq bu rivojlanishiga ko‘maklashuvchi vositadir.

Xulosa:

Xulosa shuki, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darslarida nutqiy muammolari bilan ishlash va ularning nutqining rivojlanishi uchun kerakli yordamlarni o‘rganishga yordam beradi. O‘qish va o‘rganish jarayonida nutqiy muammolarga duch kelsa, ularning o‘qish qobiliyatlarini ham oshirishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantiruvchi omillar sifatida ilg‘or pedagogik texnologiyalar va didaktik metodlar belgilab olindi. Ulardan dars jarayonida unumli foydalanib, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish zarurligi belgilandi. Bolalarning nutqini rivojlantirishda savod o‘rgatish, ona tili va o‘qish darslari o‘rni benihoya kattadir. Agar o‘qituvchi dars jarayonini to‘g‘ri tashkillab bolalar bilan hamohang tarzda ishlay olsa ularni nutqi tez va oson rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayon esa o‘qituvchidan faqatgina pedagogik mahoratni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. -- Toshkent: "O‘zbekiston" NMIU, 2017. --32 b.
2. 2."Til va nutq" rivojlantirish markazidagi ta‘lim faoliyatini rejalashtirish.(O‘quv qo‘llanma)-T.:., Innovatsion rivojlantirish nashriyot -batbaa uyi”
3. "O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi" N harfi Davlat ilmiy nashriyoti TOSHKENT J:367bet 350-351-betlar
4. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturlari. Toshkent, 2021
5. Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI(O‘QISH VA ONA TILI O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers, 11(6), 598–603.
6. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 188–193. Retrieved from
7. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.

⁵ "Science and Education" Scientific Journal April 2021 / Volume 2 Issue4

⁶ Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturlari. Toshkent, 2021.

9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>

11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

12. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O‘RGATISHDA XORIJIY
TAJIRIBALARNI O‘RGANISH METODIKASI (ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI
MISOLIDA)****Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon univerviteti Ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi

Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini shakllantirish va uni takomillashtirib borishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining mazmuni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Undan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatishda xorijiy tajribalarni o‘rganish metodikalari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, hamkorlik, o‘qish samaradorligi, o‘qish savodxonligi, samarali natija, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, xorijiy tajribalar, metodika, kreativ.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son, Farmonida 2030-yilga kelib ta‘limi taraqqiy etgan mamlakatlar doirasida reyting bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.¹

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me‘yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida mulohazaga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.²

Avvalgi darsliklarda eshitib tushunish kompetensiyalariga doir mashqlar deyarli yo‘q edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi darsliklarda esa eshitib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Undan tashqari

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни (2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон // <https://lex.uz/docs/5013007>

² Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 1-sinf uchun / I.Azimova [va boshq.]. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2021. – 104 b.

darsliklarda o‘qish va yozish amallari bo‘yicha qator topshiriqlar ishlab chiqilganligi ham e‘tiborga loyiqdir.

O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar ham asosan matnda ochiq ifodalangan ma‘lumotlarga yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi.

Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan. Bilamizki rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlar bolalarda qiziqish uyg‘otadi qolaversa o‘sha topshiriqlar bajarish mobaynida bolada har xil ko‘nikmalar, ijobiy qarashlar, kreativ g‘oyalar yuzaga keladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf darsliklarida rang-barang tasvirlar, qiziqarli topshiriqlar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Yurtimizda ta‘lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma‘noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma‘noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari - mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, ta‘limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.³

Ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta‘lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir chunki o‘quvchilar dars mobaynida erkin ishtirokchiga aylansa ko‘proq ma‘lumotlarni eslab qoladi va uni amaliy qo‘llash haqida ham tushunchaga ega bo‘ladi. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq

³ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatishda Xorijiy tajribalardan foydalanish metodikasi(o‘qish va ona Tili o‘qish savodxonligi darslari misolida /Sadriiddinova Zulfiya Mirzaliyevna/FARS publishers Volume-11| Issue-6| 2023 Published: |22-06-2023|

bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi, xohish va istaklarini o‘qituvchi uyg‘otishi va bu bolalar uchun motivatsiya bo‘lishi, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvi bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi. Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin. O‘quvchilarning axborotni mustaqil topish, qayta ishlash, xulosa chiqarishga o‘rgatish orqali intellektual salohiyatini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanish tavsiya etiladi. AKT o‘quv mashg‘ulotlarida musiqa, animatsiya yordamida estetik va emotsional muhit yaratish, ko‘rgazmalarning rang-barangligini ta‘minlash, yirik miqdordagi didaktik materiallarni qamrab olish, keng hajmdagi mashqlarni bajarish, o‘quvchilar bilan individual ishlash imkonini beradi. Natijada sinfda do‘stona va hamkorlik muhiti vujudga kelib, o‘g‘il-qizlarning o‘qish va o‘rganish faoliyati jadallashadi. Biz innovatsion metodikalarni ona tili darslarida korib o‘tsak, ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi – o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgaralar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikada oid o‘zlashtiriladigan bilimlar (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv, imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalar)ni rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Boshlang‘ich ta‘limning ona tili o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 – yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti hamda ona tili fani bo‘yicha malaka talablari asosida tuzilgan. Mazkur o‘quv dasturida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan 1-4 sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan.⁴

O‘quv jarayonini faollashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida xorijiy tajribalarni amalda qo‘llashimiz bizga har xil ko‘nikmalar beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bulardan biri CRADLE o‘qitish metodikasidir.

CRADLE o‘qitish metodikasi Yevropa Ittifoqining Erasmus dasturi doirasida 2-asosiy harakat – Innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar almashinuvi bo‘yicha hamkorlik bo‘yicha ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘quvchilar uchun ta‘minotni yaxshilash va innovatsion tajribalarni almashish maqsadida tashkilotlarga hamkorlik qilish imkonini berishga qaratilgan. Bu boshlang‘ich maktablar uchun uch tomonlama yo‘naltirilgan o‘qitish metodologiyasi bo‘lib, o‘zaro kurslar, faoliyatga asoslangan, o‘quvchiga yo‘naltirilgan, izlanishli o‘qitish va o‘rganish yondashuvidan foydalanadi.

⁴ Boshlang‘ich ta‘limda xorijiy ilg‘or tajribalar va zamonaviy texnologiyalarning o‘rni/ Xasanova Kamola Ergashboy qizi// www.pedagoglar.uz

U turli xil o‘quv dasturlari va o‘quv natijalariga tegishli mavzular asosida mazmunli dars tsikllarini yaratish modelini taqdim etadi. Natijada, o‘qituvchilar o‘zlarining o‘quv dasturlarida tanlangan mavzu bo‘yicha rivojlanayotgan bir qator darslarni rejalashtirishlari va darslarini ushbu mavzuni qo‘llab-quvvatlovchi va qo‘llab-quvvatlovchi harakatlar ketma-ketligi sifatida tashkil qilishlari mumkin. Darslar tadqiqot, muammolarni hal qilish, prototiplash, harakat va aks ettirishga e‘tibor qaratgan holda Dizayn fikrlashdan ilhomlangan chiziqli to‘rt bosqichli jarayonda davom etadi.

CRADLE metodikasi o‘quvchilarning qiziqishi va tashabbuskorligini o‘quv jarayonining markaziga qo‘yadi. U muammoni hal qilish, shaxsiy mas‘uliyat, ijtimoiy mas‘uliyat, qiziquvchanlik, muloqot va hamkorlik kabi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishga intiladi, bularning barchasi o‘z-o‘zini samaradorlik va qiymat yaratishga olib keladi. O‘z tabiatiga ko‘ra, metodologiya ta‘limdagi konstruktivizm doirasida ta‘riflanganidek, talabaga yo‘naltirilgan ta‘lim va amalda o‘rganish tamoyillariga qo‘shiladi. Ushbu tizim o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini ta‘lim jarayonining markaziga qo‘yadi. Biz bu loyihadan ona tili va o‘qish savodxonligi darslari misolida ham qo‘llab ko‘rishimiz kerak. Va bundan biz yaxshi samara olamiz.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar, interfaol uslublar, ta‘limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o‘quvchini yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishga va ta‘lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. O‘quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag‘batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo‘l keladi. Har bir o‘qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o‘tsa bu o‘z natijasini, shu bilan birgalikda xorijiy loyihalardan ham foydalanib darslar tashkil qilish ham yaxshi samara beradi. Mustaqil O‘zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog‘liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi. Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur “Uchdan keyin kech” kitobida yozganidek: “bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi mumkin”.⁵ Yana shunga e‘tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma‘lumotlar ma‘nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tilni o‘rgatishni grammatik tushuncha berishdan emas aksincha, tushunchalarni soddaroq qiziqarli tarzda bola miyyasiga singdirilsa bolada tushuncha kengayadi. Aks holda o‘rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini susaytirib qo‘yish mumkin. Chunki boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga ona tili va o‘qish fanlarini ozlashtirish biroz qiyin bo‘lishi shu bilan birga mas‘uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни (2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 1-sinf uchun / I.Azimova [va boshq.]. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2021. – 104 b.

⁵ Masaru Ibuka. “Uchdan keyin kech” [N.N.Hamidulla qizi tarjimas]. – T.: “Akademnashr”, 2019. – 258 b

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatishda Xorijiy tajribalardan foydalanish metodikasi(o‘qish va ona
4. Tili o‘qish savodxonligi darslari misolida /Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna//FARS publishers Volume-11| Issue-6| 2023 Published: |22-06-2023|
5. Boshlang‘ich ta‘limda xorijiy ilg‘or tajribalar va zamonaviy texnologiyalarning o‘rni/ Xasanova Kamola Ergashboy qizi// www.pedagoglar.uz
6. Masaru Ibuka. “Uchdan keyin kech” [N.N.Hamidulla qizi tarjimasi]. – T.: “Akademnashr”, 2019. – 258 b
7. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
10. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
12. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH
YO‘LLARI****Sadriddinova Zulfiyaxon Mirzaliyevna**

Qo‘qon univertiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Raximova Ziyodaxon Rashidjon qizi

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo‘llarini o‘rganishga oid ma‘lumotlar berilgan. Bu mavzu, o‘quvchilarga matematik fikrlashni o‘rganish, matematik muammolarini yechishga o‘rganish, matematikaning hayotiy muammolar bilan bog‘liqlikni tushuntirish va matematik hisoblashning amaliyotini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, o‘quvchilar matematik savollarga joriy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali matematik fikrlashni o‘rganishadi

Kalit so‘zlar: matematik tafakkur, tadqiqot ishlari, qobiliyat, pedagogik texnologiya, metod **Kirish.**

Bugun zamon tez sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan ekan, bunday rivojlanish har sohaga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. So‘nggi yillarda ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish, takomillashtirish to‘g‘risida ko‘plab qonunlar chiqarildi va ular hayotga tatbiq etimoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹gi qonuniga binoan ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning samarali shakl va usullarini, ta‘lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish, ta‘lim tashkilotlarida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy talablar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o‘quv-metodik majmualari nashr qilinmoqda.

Ma‘lumki hozirgi asrimiz axborot-kommunikatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar davri. Har qanday texnologiyalar asosida aniq hisob-kitoblar yotadi. Bu esa o‘z navbatida matematika fani va uni o‘rganishga, rivojlantirishga, uning yutuqlaridan samarali foydalanishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham bu sohaga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga kuchaymoqda. 2020-yil yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”²gi qonuniga binoan mamlakatimizda matematik ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta‘limini yangi sifati bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Asosiy qism:

Yangi o‘quv darsliklar ishlab chiqildi. darsliklarda o‘quvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan misol va masalalar bilan boyitilish hozirda amalga oshirilayotgan

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЙЕВ Тошкент ш., 2023 йил 20 апрель, ПҚ-128-сон
²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 7-may, PQ-4708-son

jarayonlardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to‘g‘ri, aniq, qisqa matematik nutqni o‘stirish masalasi uzviy ravishda bog‘langan bo‘ladi. Bu boshlang‘ich ta‘limning muhim vazifalaridan biri. Bunda tavsiya etilayotgan savol va topshiriqlar o‘quvchilardan ma‘lum darajada izlanish talab qilsa-da, u bola kuchi yetadigan darajada bo‘lishi kerak. Matematik mashg‘ulotlarda bunday topshiriqlarni tanlash katta ahamiyatga ega. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilardan mustaqil kuzatishlar o‘tkazishni, qaralayotgan hodisalar narsalar va shu kabilarni taqqoslash, solishtirishni talab qiladi. Matematika fani boshlang‘ich sinflardan boshlab inson hayotining mazmuni ekanligi ko‘rsatib boriladi. Matematika haqiqiy olamning miqdoriy munosabatlari va fazoviy formalari haqidagi fandır. Matematikadan masalalar yechish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.³

O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo‘lib hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V.Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A.Krutetskiy, E.G‘oziyev, G‘.Shoumarov, O.Roziqov, B.Adizov ta‘kidlashlaricha,- bu davrda o‘quv faoliyati ta‘sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg‘usi kabi jarayonlar rivojlanadi.⁴

Bundan kelib chiqadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik bilimlarni o‘rgatish bilan birga ularni ichki ruhiy olamini, diqqat, xotira, idrok etish darajalari hamda tafakkurini ham shakllantirib borar ekanmiz.

Sharq mutafakkirlari: Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish va boshqalar asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iste‘dodini takomillashtirishga alohida e‘tibor berilgan. Abu Rayhon Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga ega. Bilishga bo‘lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o‘ziga hos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojini qondirishdir. Bilish sezgilar yetkazib bergan ma‘lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o‘ziga hos ko‘makchi va asos bo‘lib xizmat qiladi,- deydi.⁵

O‘quvchilar matematik fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to‘g‘ri, aniq, qisqa matematik nutqni o‘stirish masalasi uzviy ravishda bog‘langandir. Matematika o‘qitishning asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarga hisoblash, o‘lchash va grafik ko‘nikmalarning ma‘lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo‘lib, ko‘p marta takrorlash hisobiga avtomatizmgacha yetkazildi. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga

³Akramjon O‘ktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek Qizi Pozilova. Matematikafaninio‘qitishsamaradorligini oshirishdatimsshalqarotadqiqotiningo‘rni. Scientific Progress. Volume 3 | ISSUE 4 | 2022. P 77.

⁴БОЛТАЕВА ШАХЛО ТОШПЎЛАТОВНА “БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ” МОНОГРАФИЯ 6-бет© НавДПИ, 2012 йил

⁵Falsafa asoslari (tuzuvchi va mas‘ul muxarrir Q.Nazarov). –T.: O‘zbekiston nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2005. -384 b.

qaramay hozirgi vaqtda boshlang‘ich matematika kursini o‘rganishni faqatgina ko‘nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o‘zlashtirish bilan almashtirish ham mumkin emas. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishda kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o‘rganishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishni o‘rganishlari kerak. Boshlang‘ich sinf matematika programmasi xuddi shunga yo‘naltiriladi, unda o‘qitishda nazariylik sa‘viyasini oshishida ochiq – oydin ifodalangan, nazariyaning amliyot bilan uzviy bog‘langanligi seziladi.⁶

Darsga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchi o‘ziga kerakli ta‘lim vositalarini tanlaydi. Ma‘lumki, maqsadni amalga oshiradigan vositalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- O‘qitish mazmuni;
- O‘qitish metodlari;
- O‘qitishning tashkiliy shakllari;
- Sinf jamoasi
- O‘qituvchiga ta‘sir etish metodi;
- O‘quv texnik vositalari.⁷

O‘quv materialining asosini darslik va rejalashtirish tashkil etganligidan, o‘qituvchi uning tarkibiga o‘qitish shartlarini bilgan holda mavzuga oid o‘zgartirish va to‘ldirishlar kiritadi.

O‘qitishning muhim tomonlaridan biri bu - o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatining o‘zaro uzviyligi. Bu jarayonning asosiy funksiyasi, jumladan, o‘quvchilarni o‘qitishda rivojlantirish va tarbiyalashda yagona metoddan iboratligidir. O‘qitish metodlari – bu o‘quv-tarbiyaviy masalalar yechimiga qaratilgan o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini yo‘lga qo‘yish demakdir. Har bir metod o‘qitish jarayoni qonuniyatlari va o‘qitish maqsadlarining determinatsiyasi hamda murakkab tuzilishiga ega. Shunday ekan o‘qitish metodini tanlashda berilgan mulohazani hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga o‘qitish metodini tanlashda o‘qituvchining tajribasi, xususan, metodlardan foydalana olish va ularni turkumlarga ajrata olish muhim rol o‘ynaydi. O‘qitish metodi ta‘sirini oshirishda har bir holat uchun turkumlash turini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonda o‘qitish metodlari turkumining turli-tumanligi bizga ma‘lum. Bular:

- Bilim manbalari bo‘yicha;
- O‘quv masalalari bo‘yicha;
- O‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘yicha;
- O‘quvchining bilish faoliyati bo‘yicha;
- Binar turkumlash va boshqalar.

Bular zarur bo‘lganda o‘qituvchi didaktik materiallardan foydalanishi mumkin. Nuqtai nazarimizda o‘qituvchi o‘qitish metodlarini qancha ko‘p bilsa, shuncha darslari qiziqarli o‘tadi, chunki har bir metodning o‘ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Bunday ijobiy va salbiy tomonlar aniq shartlar bo‘yicha katta yoki kichik darajali tomonlarni o‘zida aks ettiradi.

⁶ Umirbaeva Ulzada. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING MATEMATIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. “PEDAGOGS” international research journal. Volume-25, Issue-1, January - 2023

⁷ TOSHPOLATOVA NIYOXON SHAHKAT QIZI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIYA ELEMENTLARINI IJODIY O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH DISSERTATSIYA Termiz-2022, 22-bet

O‘quvchining bilim manbaalari orqali turkumlash, o‘qitish amaliyotida ko‘proq qo‘llaniladi (so‘z, obraz, harakat). Bundan uchta o‘qitish metodi guruhini ajratish mumkin.⁸

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, biz bolalarga matematika fanidan ilk saboqni boshlang‘ich sinfdanoq berar ekanmiz, bu bilan birga matematik masalalar bilan ishlash ko‘nikmasini ham shakllantirib boramiz. O‘quvchilar matematik fikrlash qobiliyatini shakllantirish bilan birga ularda to‘g‘ri, aniq, qisqa matematik nutqni o‘stirish masalasi ham uzviy ravishda bog‘langandir. Matematika o‘qitishning asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarga hisoblash, o‘lchash va grafik ko‘nikmalarning ma‘lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda o‘quvchilar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtda boshlang‘ich matematika kursini o‘rganishni faqatgina ko‘nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o‘zlashtirish bilan amalga oshirish ham mumkin emas. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni o‘rganishda kuchlari yetadigan darajada o‘zlashtirishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishni o‘rganishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ Тошкент ш., 2023 йил 20 апрель, ПҚ-128-сон
2. О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 7-may, PQ-4708-son
3. БОЛТАЕВА ШАХЛО ТОШПЎЛАТОВНА “БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ” МОНОГРАФИЯ 6-бет© НавДПИ, 2012 йил
4. Falsafa asoslari (tuzuvchi va mas‘ul muxarrir Q.Nazarov). –Т.: O‘zbekiston nashriëtmatbaa ijodiy uyi, 2005. -384 b.
5. 5 Umirbaeva Ulzada. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. “PEDAGOGS” international research journal. Volume-25, Issue-1, January - 2023
6. 6 TOSHPOLATOVA NIYOXON SHAVKAT QIZI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIYA ELEMENTLARINI IJODIY O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH DISSERTATSIYA Termiz-2022, 22-bet
7. 7. TOSHPOLATOVA NIYOXON SHAVKAT QIZI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIYA ELEMENTLARINI IJODIY O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH DISSERTATSIYA Termiz-2022 23-bet
8. 8. Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI(O‘QISH VA ONA TILI O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers, 11(6), 598–603. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8041770>

⁸ TOSHPOLATOVA NIYOXON SHAVKAT QIZI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIYA ELEMENTLARINI IJODIY O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH DISSERTATSIYA Termiz-2022 23-bet

9. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI**Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ibrohimova Safiya Maxsudali qizi

Qo‘qon Universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika o‘qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o‘quvchilarga puxta bilim berishga, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatish, matematika o‘qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o‘zining qadr-qimmati bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko‘rsatib berish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, metodika, taqqoslash, didaktik maqsadlar, malaka va ko‘nikmalar, dars turlari, yangi maqsadlar, didaktik materiallar

Kirish: Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Haqiqatdan ham ushbu jumlar zamirida keng ma‘no-mazmun yotibdi “Matematika fanlar ichra shox, uning sirlaridan bo‘lingiz ogoh”. Matematika olamini o‘rganish juda ham zavqli, hayot uchun kerakli. Matematika faniga qiziqish uyg‘ota olish esa albatta pedagog ustozlarimizning mahoratlariga bog‘liq. Biz bugun kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matematik tushuncha va tafakkurini rivojlantirishda murakkab masalalarning o‘rni va ahamiyati xususida to‘xtalamiz.

Murakkab masalalarni yechish boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun biroz o‘rganilishi qiyin bo‘lgan mavzular qatoriga kiradi. Chunki yosh o‘quvchilarning sodda masalalardan murakkab masalalarga o‘tish jarayoni ularning fikrlash qobiliyatlaridan kelib chiqadi. Aksariyat bolalar bu masalalarni oson qabul qilsa, ko‘pchilik o‘quvchilar qiyinchilik sezadilar. So‘ngi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o‘qitish, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Matematika fani eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda o‘qitish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Umumiy metodika boshlang‘ich sinf matematikasining mazmunini va tizimlilikini aks ettiradi, har bir bo‘limni o‘qitishning o‘ziga xos xususiy metodlarini o‘rgatadi. Ma‘lumki, o‘qitish tarbiyalash bilan o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Ushbu metodika o‘qitishni tarbiyalash bilan qo‘shib olib borish yo‘llarini o‘rgatadi. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir:¹

Metodika grekcha so‘z bo‘lib, “metod” degani “yo‘l” ma‘nosini anglatadi. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog‘i bo‘lib, jamiyat tomonidan qo‘yilgan o‘qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma‘lum bosqichida tatbiq qiladi. O‘qitishda yangi maqsadlarning qo‘yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikadan samarali ta‘lim berilishi uchun o‘qituvchi boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallab, chuqur

¹Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O‘zinkomsentr, 2013

o‘zlashtirmog‘i zarur. Hozirgi zamon matematikasi natural son tushunchasini asoslashda to‘plamlar nazariyasiga tayanadi.

Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. 1-sinf o‘quvchilarining bilimlarini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya‘ni past bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o‘quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi.²

Bolalarni o‘qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil , sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarini o‘zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi. Har bir alohida darsning maqsadi darslar tizimining maqsadini aniqlab, uning yordamida o‘qitilayotgan mavzuning mazmunini o‘quvchilarga ochib beradi. Bu holda yangi tushunchalar bilan o‘quvchilarni tanishtirish bo‘lsa, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchani kengaytirish va chuqurlashtirish, uchinchisida, biror malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, to‘rtinchisida, bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish va h.k. bajariladi. O‘tilganlarni takrorlash oldin o‘tilgan darslarni yangi tizimga solish, shu bilan bilimlarni tekshirishni o‘z ichiga oladi. Odatda darsning boshida uy vazifasi tekshiriladi yoki o‘tgan mavzu takrorlanadi, so‘ngra o‘tgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. Shundan keyin yangi material bayon etiladi va mustahkamlash uchun o‘quvchilarga misol va masalalar yechdiriladi yoki nazorat savollari beriladi. Dars oxirida uyga vazifa to‘g‘risida ko‘rsatmalar beriladi. Yangi materialni o‘zlashtirishga qaratilgan misol va masalalarni mustaqil yechish ham mumkin. Boshlang‘ich matematika kursining eng muhim xususiyati uning amaliy yo‘nalganligidir. Agar yuqori sinflarda matematika dasturining ba‘zi masalalari nazariy xarakterda bo‘lsa, boshlang‘ich sinflarda har bir yangi tushuncha, xossa, qonun amaliy faoliyat uchun kiritiladi.³

O‘quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o‘rgatish, o‘quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatish. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak. O‘qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlari; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Boshlang‘ich maktabda

² Jumayev Mamanazar Ergashevich, Tadjiyeva Zumrad G‘iyosovna. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2005.

³. Bikbayeva N.U va boshqalar ”Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi ”- Toshkent.: O‘qituvchi, 2014

matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba‘zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.⁴

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish keraki, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishning samarali jihatlari juda ko‘p. Matematika fanini o‘qish orqali o‘quvchida fikrlashi, og‘zaki nutqi, yozma nutqi kengayib boradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga bu fanni o‘rgatish uchun avvalo o‘zida yetarlicha bilim bo‘lishligi lozm. O‘quvchi darsga qanchalik qiziqsa o‘rganishi ham shuncha oson bo‘ladi. Matematika fani aqlni charxlaydi. o‘sib kelayotgan yosh avlod bilimiga chanqoqdir, matematika fanini qanchalik qiziqarli qilib o‘tib bola qalbiga matematikaga bo‘lgan muhabbatni oshirish berish ham pedagoglarning qo‘lida. Bolalarni matematik tafakkurini oshirish yildan yilga yangidan yangi metodlar va multimedia vositalari va ko‘rgazmali vositalar takomillashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O‘zinkomsentr, 2013
2. Jumayev Mamanazar Ergashevich, Tadjiyeva Zumrad G‘iyosovna. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2005
3. Bikbayeva N.U va boshqalar “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”- Toshkent.: O‘qituvchi 2014
4. Bikbayeva N.U. va boshqalar. – Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi Toshkent - O‘qituvchi 1996-yil
5. Zulfiya, S. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188-193.
6. Zulfiya, Sadriddinova. "BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 188-193.
7. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
8. Xatamboevna, A. S. (2024). O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 7(1), 16-20.
9. Mushtariy, O., & Odiljon, P. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 640-644.

⁴ Bikbayeva N.U. va boshqalar. —Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi Toshkent —O‘qituvchill 1996 yil.

10. 1. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from
11. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 549-550.
12. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл. "Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." Т.: ТДИУ 95 (2013).
13. Abdullayeva, V. (2023). МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 888-891
14. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). *YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
17. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

**BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLARIDA KALASTER METODIDAN FOYDALANISHNING QULAY
USULLARI****Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Shavkatova Mohiraxon Baxtiyor qizi

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 8-23 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta‘lim metodlari, klaster metodi va uning mazmun mohiyati, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darslarini samarali tashkil etishda klaster metodining qulayliklari, hamda boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda klaster metodining afzalliklari haqida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: klaster, boshlang‘ich sinf, metod, bola tafakkuri, qobilyatlar, tadqiqot

Kirish. Barchamizga ma‘lumki, ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarga ta‘lim berish jarayonida axborot beradi yani ma‘lumotlarni uztadi, ta‘lim oluvchilarda ma‘lumot olish jarayonida boshlang‘ich sinf oquvchilarning fikrlash, idrok va tafakkur etish qobilyatlari rivojlanib boradi.

Bu jarayon ta‘lim oluvchining o‘zi orqali yoki boshqa shaxsning ya‘ni ta‘lim beruvchining ko‘magida amalga oshirilishi mumkin. Ta‘lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta‘lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iboratdir. Qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo‘ladi.¹

Asosiy qism:

Metod – yunonch „metodos“ so‘zidan olingan bo‘lib „tadqiqot yo‘li“ degan ma‘noni bildiradi.

Ta‘lim metodini(usulini) – ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchining ma‘lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo‘l-yo‘rig‘i sifatida ta‘riflash mumkin.

Ta‘lim modelini, esa bir yoki bir nechta ta‘lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta‘lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin. Ta‘lim metodi - bu ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchining ma‘lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo‘l-yo‘rig‘i. Ta‘lim metodi ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.

Ta‘lim metodlari o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi.²

Klaster metodi deganda – ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida bo‘lgan ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchini faol ishtirok

¹ Himmataliyev Do‘stnazar Valiyeva Shaxnoza Abrorxujayevnaning TA‘LIM JARAYONIDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI maqolasidan Volume-9_Issue-1_November 2022

² Shohida Rahmatullayevna Mahkamova Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Musiqqa ta‘limi” kafedrası mudirining TA‘LIM JARAYONIDA KLASTER METODINING MAZMUN-MOHİYATI maqolasi 150

etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi o’qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar o’qib-o’rganishni yuqori darajada bo’lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas’uliyat, qo’llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O’qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o’ziga hos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri yechimini topishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Klaster metodi orqali talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy muammolarga bo’lgan qarashlari rivojlanadi.

Klaster so’zi - inglizchadan olingan bo’lib g’uncha, bog’lam, tarmoqlantirish manolari bildiradi.

Mamlakatimizda klasterlar bilan bog’liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000-yillarga to’g’ri keladi, bu boradagi ilmiy-amaliy ishlar esa O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar Strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarda keng ko’lamli islohotlar olib borish bilan boshlandi. Mazkur jarayonlar bilan bog’liq texnopark, texnopark, klaster kabi qator tushunchalar turmush tarzimizgakirib keldi.³

Kungaboqar guli klasteri ona tili fani misolida

”Kungaboqar guli yoxud Quvnoq kungaboqar” texnologiyasini yasash juda ham oson va qiziqarli. Ushbu texnologiya kungaboqar bo’lishining sababi o’quvchining darsga, o’tilgan mavzuni mustahkamlashga bo’lgan qiziqishi yanada ortadi. Rangli materiallardan tayyorlangan ushbu texnologiya nafaqat boshlang’ich sinf balki yuqori sinf hattoki talabalar etiborini o’ziga tortadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini rasmga bo’lgan qiziqishlari orqali ularni darsga olib kirib ketadi.

- Qog’ozga(qog’oz o’lchamining farqi yuq) kungaboqar gulining rasmi rangli holatda chizilgan bo’ladi va doskaga yopishtirilgan bo’ladi. Yoki o’qituvchi kungaboqar rasmi I o’quvchilarga chizdirgan bo’ladi o’z daftarlariga albatta

- Kungaboqar gulining markazida, doira ichida mavzu nomi yozilgan bo’ladi, o’qituvchi savol beradi, o’quvchilar o’qituvchining savoliga javob berishadi.

- O’qituvchining savoliga javob berish orqali o’quvchilar kungaboqar gulining yaproqlarini, sekin asta poyasi va barglarini to’ldirib kungaboqar gulini shakllantirishadi

Misol uchun

- Kungaboqar gulining markazida Mustaqil so’z turkumlari mavzusi yozildi.

- Kungaboqar gulining markazidan uning yaproqlari chiqadi va uning ichiga ot sifat son fel so’zlari yoziladi.

- Kungaboqar gulining gulqo’rgoni shakllanib bo’lganidan so’ng uning poyasi ichiga biror bir mustaqil so’z turkumi yoziladi. Masalan fel

³ Sh.M.Mirziyoyev. “Oliy majlisga murojaatnomasi hamda O.,zbekiston yoshlar forumida so’zlagan nutqidan iqtiboslar”. Toshkent-2021-y.

● Yozilgan mustaqil so‘z turkumi fe‘l yani poyadan endi barglar o‘rib chiqib boshlaydi. U barglarning ichiga o‘quvchilar fe‘l so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlarni yozishadi, masalan yugurmoq, o‘tirmoq, sakramoq kabi so‘zlar yoziladi.

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z ustida ishlagan, zamon bilan hamnafas, interfaol texnologiyalarni, metodlarni texnikalarni yaxshi bilishi, uni tahlil qila olishi, yangiliklar yaratishi, o‘zida barcha pedagogic mahoratlarni jamlay olishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o‘quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo‘lgan usullarni tanlashi va qo‘llay olishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta‘lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Dars samaradorligini oshirishda har bir pedagog ta‘lim oluvchilarning qiziqishlari fikrlash hamda qobiliyatlarini, ta‘lim samaradorligini oshirishda klaster metodidan foydalangan holatda, o‘z pedagogik texnologiyalaridan yaratib ularni dars davomida qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirishiga erishiladi va bu usul juda ham qulay. Boshlang‘ich sinf darslarida klaster metodidan foydalanishning qulay usullari shundan iboratki qisqa vaqt ichida o‘yin orqali o‘tgan mavzularni mustahkamlashga, yangi mavzuni qiziqarli tashkil etishga, o‘quvchilarning diqqat e‘tiborlarini o‘ziga tortgan holda ularni kreativ fikirlashga tafakkur etishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev „Oliy majlisga murojatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlar forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar”. Toshkent-2021-y.
2. Himmataliyev Do‘stnazar Valiyeva Shaxnoza Abrorxujayevnaning „Ta‘lim jarayonida klaster metodidan foydalanishning o‘ziga xos ahamiyati” Volume-9_Issue-1_November 2022
3. Shohida Rahmatullayevna Ta‘lim jarayonida klaster metodining mazmun-mohiyati” maqolasidan
4. Muxriddin Yuldosh o‘g‘li Rejabov Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute 4 «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 4 34“Klaster” – erkin fikrlashning asosiy metodi.
4. Azamat Ruzvonovich Raxmonov Ta‘lim klasteri va uning pedagogik faoliyatdagi yuksak imkoniyatlari.
5. Saida, N., & Mirzaliyevna, S. Z. (2023). XALQ O‘YINLARI ORQALI BOLALARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBIYALASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 575-577.
6. Saida, Nabijonova, and Sadriddinova Zulfuya Mirzaliyevna. "XALQ O‘YINLARI ORQALI BOLALARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBIYALASH." QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 575-577.

7. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.

8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

9. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>

10. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

BOSHLANG‘ICH SINLARDA NUTQIY XATOLARNI BARTARAF ETISHNING USULLARI**Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna**

Qo‘qon Universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi:

Valiyeva Muxlisaxon Vahhob qizi

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya; Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy xatolari va ularni bartaraf qilish haqida so‘z bozadi. Nutq o‘stirishning metodik usullari, nutq turlari va ularni o‘z o‘rnida qo‘llay olish haqida ma‘lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: nutq, lug‘aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy, og‘zaki nutq, yozma nutq, pedagogik mahorat.

Kirish:

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli hisoblanadi. Nutq aloqa-aralashuv vazifasini bajaradi va bundan tashqari poetik vazifani ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida ko‘rinishi o‘qishdir.¹

Bugungi kunda O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan g‘oya asosida taraqqiyotning yuksak pog‘onalariga ko‘tarilmoqda. Bu borada davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi yuksaklikning cho‘qqisi tomon yo‘nalmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham “Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak; oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jiplashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi. Men bunga qat‘iy ishonaman va bu fikrni sizlar ham qo‘llab-quvvatlaysizlar, deb o‘ylayman” o‘z fikrlarini aytishgan.²

Nutqiy xatolarga noto‘g‘ri, noo‘rin qo‘llangan so‘zlar, noto‘g‘ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto‘g‘ri ishlatish kiradi. Boshlang‘ich sinflarda bunday xatolar ustida ishalash ancha qiyin, chunki ularni to‘g‘irlash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma‘lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o‘rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: **lug‘aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy.**

Boshlang‘ich sinflarda lug‘aviy-uslubiy xatolar ko‘proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

Bir so‘zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o‘quvchi so‘zni ishlatishga kam e‘tibor beradi va faol lug‘atidagi so‘zdan takroriy foydalanadi;

¹Abduvahob Mavdaliyev O‘ZME Birinchi jild . Toshkent . 2000-yil

² Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so‘zlagan nutqlari.-Toshkent-„O‘ZBEKISTON“-2020.6-b

ikkinchidan, o‘quvchining so‘z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so‘zlar o‘rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o‘qituvchi bir so‘zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma‘nodoshlaridan yoki shu so‘z o‘rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o‘quvchi matnni e‘tibor bilan o‘qib, takrorlarni nisbatan tez tuzata oladi.

So‘zning ma‘nosini yoki ma‘no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma‘nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so‘z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

Leksik xatolar xilma-xil bo‘lgani uchun uni to‘g‘rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo‘li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o‘qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so‘zlarning ma‘no qirrasini tushuntirishdir. Morfologik-uslubiy xatolarga so‘z shaklini, so‘z o‘zgaruvchi va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi. Sintaktik-uslubiy xatolarga so‘z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir.

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqida yo‘l qo‘ygan nutqiy xatolarni o‘z vaqtida tog‘rilab borish zarur. O‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatosining to‘g‘ri variantini o‘rgansin, imkoni bo‘lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to‘g‘rilashning eng foydali usuli yo‘l qo‘ygan xatosini o‘quvchining o‘zi to‘g‘rilashi hisoblanadi, agar o‘quvchi xatosini to‘g‘rilay olmasa, uni o‘qituvchi to‘g‘rilaydi. Bu borada o‘qituvchi o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lmagan o‘quvchilar uchun alohida mashg‘ulotlar tashkillaydi va ulardagi bo‘shliqni to‘ldirib, bilmaganlarini o‘rgata boshlaydi. Agarda o‘qituvchi ularning xatosini sinfdagi o‘quvchilar oldida aytib izza qilsa, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchi pastlab, qo‘rquv hissi ko‘paya boshlaydi. Buning oqibatida o‘z fikrini ko‘pchilik oldida bayon qila olmaydi va bu haqida tushunchasi bo‘lsa ham ayto olmaydi va bilmaganlarini ham so‘ray olmaydi. Bu holat uni ruhan sindirishi mumkin. Bejizga pedagog kuchli psixolog bo‘lishi kerak deyilmaydi. U har bir o‘quvchisining ichki olamidani xabardor bo‘lishi darkor. Albatta, shu bilan birga unga qanday muomalada bo‘lishni bilishi shart. Buning uchun xatolarning sabablari aniqlanib, ko‘pchilik o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘ygan xatolar ustida ishlanadi.

Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va harakat sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda. bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay. ortiqcha takrorga yo‘l qo‘ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi. O‘quvchilarga yozma va og‘zaki nutqni birgalikda tushuntirish zarur. Chunki, Nutqda fikr shakllantritadi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. „Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi. Til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi”.³

³ J Ivanov P. I. U m u m i y psixologiya. — T: „O‘qituvchi“, 1967. 306-bet.

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo‘limlari „Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish“, „O‘qish va nutq o‘stirish“, „Grammatika, imlo va nutq o‘stirish“ deb nomlangan.⁴

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti — nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta‘lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda „tilni sezish“ shakllanadi.

Agar o‘qituvchi o‘quvchilarda yuqorida sanalgan xususiyatlarni shakllantira olsa, ular keyingina yetuk shaxs bo‘lib yetishishadi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun ular bilan birgalikda hamohang ishlash zarur. Shu bilan birga og‘zaki va yozma nutqni bir-biriga bog‘lab tushuntirish kerak. Shundagina o‘quvchilarda adashish holatlar kamroq uchraydi. Agar o‘qituvchi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va didaktik metodlardan foydalansa, natijasi yaxshi bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchidan ozgina harakat va sabr talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahob Mavdaliyev O‘ZME Birinchi jild . Toshkent . 2000-yil
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so‘zlagan nutqlari.-Toshkent-„O‘ZBEKISTON“-2020.6-b
3. J. Ivanov P. I. Umumiy psixologiya. — T: „O‘qituvchi“, 1967. 306-bet.
4. J Ivanov P. I. Uumumiy psixologiya. — T: „O‘qituvchi“, 1967. 306-bet.
5. ONA TILI O‘QITISH METODIKASI. Toshkent “NOSHIR” nashriyoti 2009.Karima Qosimova], Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev

⁴2 Рождественский Н. С., К устаревая В. А. М етоди к а начального о б у -чени русском у зы ку,— М.: „П р о с в е щ е н и е“, 1965. с . 289.

6. Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). ISHOQXON TO‘RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOIIY-FALSAFIY NAZAR. Interpretation and researches.
7. Xatamboevna, A. S. (2024). O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 7(1), 16-20.
8. Saida, N., & Mirzaliyevna, S. Z. (2023). XALQ O‘YINLARI ORQALI BOLALARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBIYALASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 575-577.
9. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
10. Sadriddinova, Z. M. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI TA‘LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA O‘LCHOVLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 241-244.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI BOLALAR IJODIY FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING HAMKORLIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH****Shamsiddinova Sadoqatxon G‘opporojon qizi**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim muassasalari boshqaruvi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik mexanizmini takomillashtirish zarurati ko‘rib chiqiladi. Standartlashtirilgan test sinovlari va akademik yutuqlarga e‘tibor qaratilayotgan bir paytda, ko‘plab iqtidorli talabalar o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Mavjud ta‘lim manzarasini tahlil qilish orqali cheklangan resurslar, o‘qituvchilar malakasini oshirishdagi kamchiliklar va esdalik o‘rganishga ortiqcha e‘tibor qaratilishi kabi asosiy muammolar aniqlanadi. Biroq, maqsadli strategiyalarni, jumladan, erta aniqlash, tabaqalashtirilgan o‘qitish, boyitish dasturlari va o‘qituvchilarni tayyorlash tashabbuslarini amalga oshirish orqali transformativ o‘zgarishlar uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Moslashuvchan o‘quv rejalari, loyihaga asoslangan ta‘lim yondashuvlari va tashqi manbalar bilan hamkorlik ta‘lim tajribasini yanada boyitadi, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantiradi. O‘qituvchilar, ma‘murlar, siyosatchilar va keng jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik to‘siqlarni bartaraf etish va ijodkorlik va innovatsiya madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Pirovardida, iqtidorli bolalarning ijodiy rivojlanishiga sarmoya kiritish nafaqat kelajak yetakchilari va mutafakkirlarini yetishtiribgina qolmay, balki xilma-xillik, zukkolik va umrboqiy bilim olishni qadrlaydigan jamiyatni ham tarbiyalaydi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, resurs, rivojlanish, o‘qituvchi, o‘quvchi, tanqidiy fikrlash, tajriba.

Kirish

Ta‘limning dinamik manzarasida iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodkorlikni rivojlantirish innovatsiyalar, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va jamiyat taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu shaxslarning noyob salohiyatini e‘tirof etgan holda, ta‘lim muassasalari uchun nafaqat aniqlaydigan, balki ularning ijodiy harakatlarini samarali qo‘llab-quvvatlaydigan muhitlarni yaratish zarur. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari doirasida iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik mexanizmini optimallashtirish muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu maqolada iqtidorli bolalarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi hamkorlik mexanizmini takomillashtirishning nozik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Ta‘limning hozirgi manzarasini o‘rganish, asosiy muammolarni o‘rganish va innovatsion strategiyalarni taklif qilish orqali ushbu ma‘ruza iqtidorli talabalarning to‘liq salohiyatini yuzaga chiqarishda faol choralarning ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

O‘qituvchilar, ma‘murlar, siyosatchilar va keng jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa‘y-harakatlar orqali biz nafaqat akademik mukammallikni rivojlantiradigan, balki ijodkorlik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi ekotizim yaratishga intilamiz. Hamkorlik mexanizmini takomillashtirish orqali biz iqtidorli bolalar uchun yanada inklyuziv, boyitish va qoniqarli ta‘lim

tajribasiga yo‘l ochish, ularning rivojlanishi va jamiyatga mazmunli hissa qo‘shishini ta‘minlashni maqsad qilganmiz.

Asosiy qism

Ta‘lim sohasida "iqtidorli" atamasi ko‘pincha akademik jasoratdan badiiy qobiliyat va ixtirochi fikrlashgacha bo‘lgan qobiliyatlar spektrini o‘z ichiga oladi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari sharoitida iqtidorli o‘quvchilarning xilma-xil iste‘dod va imkoniyatlarini aniqlash va ularga e‘tibor qaratish zarur. Biroq, bunga erishish ta‘lim ekotizimida hamkorlik mexanizmini optimallashtirish uchun birgalikda harakat qilishni talab qiladi.

Hozirgi landshaftni tushunish:

Yaxshilash strategiyalarini o‘rganishdan oldin, mavjud landshaftni baholash juda muhimdir. Ko‘pgina umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida e‘tibor odatda standartlashtirilgan test va o‘quv yutuqlariga qaratiladi va ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun kam joy qoldiradi. Ilmiy muvaffaqiyat shubhasiz muhim bo‘lsa-da, u iqtidorli bolalarning ijodiy ruhini bo‘g‘ish hisobiga kelib chiqmasligi kerak.

Bundan tashqari, sinfning an‘anaviy tuzilishi va o‘quv dasturi iqtidorli o‘quvchilarga o‘zlarining noyob iste‘dodlarini kashf qilish va namoyon qilish uchun har doim ham etarli imkoniyatlarni taqdim etmasligi mumkin. Cheklangan resurslar, ixtisoslashtirilgan dasturlarning etishmasligi va o‘qituvchilarni tayyorlashdagi kamchiliklar iqtidorli o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirishda o‘qituvchilar duch keladigan muammolarni yanada kuchaytiradi.

Asosiy qiyinchiliklar:

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodiy faollikni samarali rivojlantirishga bir qancha muammolar to‘sqinlik qilmoqda:

1. Tan olish va aniqlash: Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning iste‘dodlarining kengligini tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri aniqlash mexanizmlari bo‘lmasa, ko‘plab iqtidorli bolalar e‘tibordan chetda qolishi yoki etarli darajada foydalanilmasligi mumkin.

2. Ixtisoslashtirilgan yordamning etishmasligi: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ko‘pincha iqtidorli o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan resurslar va maxsus dasturlar etishmaydi. Qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarning etishmasligi iqtidorli shaxslarning har tomonlama rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

3. Cheklangan o‘qituvchilar malakasi: O‘qituvchilar iqtidorli talabalarni samarali jalb qilish va ularga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlik va tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin. Tegishli kasbiy rivojlanish imkoniyatlari bo‘lmasa, o‘qituvchilar ijodiy izlanish uchun qulay o‘quv muhitini yaratishda qiynalishi mumkin.

Standartlashtirilgan testlarga haddan tashqari e‘tibor berish: Standartlashtirilgan test va qat‘iy o‘quv rejalariga ustun e‘tibor tanqidiy fikrlash va ijodiy ifodadan ko‘ra eslab o‘rganishni birinchi o‘ringa qo‘yishi mumkin. Bu iqtidorli bolalarning tabiiy qiziquvchanligi va topqirligini bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin.

Yaxshilash strategiyalari:

Ushbu muammolarni hal qilish va iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik mexanizmini takomillashtirish uchun bir nechta strategiyalarni amalga oshirish mumkin:

- Erta aniqlash va tabaqalashtirilgan ko‘rsatma: Iqtidorli talabalarni turli xil iste’dod sohalarida tanib olish uchun mustahkam aniqlash tartib-qoidalarini o‘rnatish juda muhimdir. Aniqlangandan so‘ng, tabaqalashtirilgan ta‘lim strategiyalarini amalga oshirish iqtidorli bolalarning ta‘lim ehtiyojlarini etarli darajada qondirishni ta‘minlaydi.
- Boyitish dasturlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar: Iqtidorli o‘quvchilarning qiziqishlari va iste’dodlariga moslashtirilgan boyitish dasturlari, to‘garaklar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni joriy etish ijodiy izlanish va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.
- O‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish: Iqtidorli o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunish va samarali o‘qitish strategiyalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga sarmoya kiritish juda muhimdir. O‘qituvchilarni ijodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun vositalar va bilimlar bilan jihozlash iqtidorli bolalarning ta‘lim natijalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.
- Moslashuvchan o‘quv rejasi va loyihaga asoslangan ta‘lim: Moslashuvchan o‘quv rejalari va loyihaga asoslangan ta‘lim yondashuvlarini o‘z ichiga olish sinfdan ko‘proq avtonomiya va ijodkorlikni ta‘minlaydi. So‘rovga asoslangan ta‘lim va ochiq loyihalarni rag‘batlantirish iqtidorli o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin.
- Tashqi manbalar bilan hamkorlik: turli sohalardagi tashqi tashkilotlar, murabbiylar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish iqtidorli bolalarga real loyihalar va tajribalarda ishtirok etishlari uchun qimmatli imkoniyatlar yaratishi mumkin. Soha mutaxassislari, madaniyat muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish o‘quv muhitini boyitib, iqtidorli talabalarni turli istiqbol va imkoniyatlar bilan tanishtirishi mumkin.

Xulosa

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik mexanizmini takomillashtirish ko‘p qirrali ish bo‘lib, jamoaviy sa‘y-harakatlar va tirishqoqlikni talab etadi. Iqtidorli o‘quvchilarning noyob iste’dodi va salohiyatini tan olish va ularning ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli strategiyalarni amalga oshirish orqali biz har bir bola rivojlanishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan inklyuziv ta‘lim muhitini yaratishimiz mumkin. O‘qituvchilar, ma’murlar, siyosatchilar va keng jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik orqali biz umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi iqtidorli bolalar uchun yanada adolatli, boyitilgan va kengaytirilgan ta‘lim tajribasiga yo‘l ochishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar o‘rtasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik mexanizmini kuchaytirish zarurligi inkor etilmaydi. Mavjud ta‘lim manzarasini har tomonlama o‘rganish orqali biz iqtidorli o‘quvchilarning har tomonlama o‘sishiga to‘sqinlik qiladigan asosiy muammolarni aniqladik. Cheklangan resurslar va o‘qituvchilarni tayyorlashdagi kamchiliklardan tortib standartlashtirilgan testlarga e‘tibor qaratishgacha turli omillar sinfdan ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Biroq, bu qiyinchiliklar orasida transformativ o‘zgarishlar uchun imkoniyatlar mavjud. Erta aniqlash, tabaqalashtirilgan o‘qitish, boyitish dasturlari va o‘qituvchilarni tayyorlash tashabbuslari kabi maqsadli strategiyalarni amalga oshirish orqali biz iqtidorli bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beruvchi qulay o‘quv muhitini yaratishimiz mumkin. Moslashuvchan

o‘quv rejaları, loyihaga asoslangan ta‘lim yondashuvlari va tashqi manbalar bilan hamkorlik ta‘lim tajribasini yanada boyitadi, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantiradi.

Muhimi, ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun hamkorlik mexanizmini takomillashtirish pedagoglar, ma‘murlar, siyosatchilar va keng jamoatchilikning hamkorlikdagi sa‘y-harakatlarini talab qiladi. Birgalikda ishlash orqali biz to‘siqlarni bartaraf etishimiz, ijodkorlik va innovatsiya madaniyatini yuksaltirishimiz hamda har bir iqtidorli bolaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan qo‘llab-quvvatlash va imkoniyatlarni olishini ta‘minlashimiz mumkin.

Mohiyatan, iqtidorli bolalarning ijodiy rivojlanishiga sarmoya kiritish nafaqat ma‘naviy, balki porloq kelajakni barpo etishning strategik shartidir. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ijodkorlik va innovatsiyalarni tarbiyalash orqali biz nafaqat yetakchilar, mutafakkirlar va muammolarni hal etuvchi kelajak avlodni shakllantiribgina qolmay, balki xilma-xillik, zukkolik va umrbod ta‘limni qadrlaydigan jamiyatni tarbiyalayapmiz. Ta‘lim sohasidagi yuksaklikka yo‘l ochar ekanmiz, keling, har bir bolaga o‘z potentsialini to‘liq ro‘yobga chiqarish va shu orqali cheksiz imkoniyatlar olamini ochishga intilmaylik

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyeva, M. M. Q., & Abdullayev, A. A. U. (2021). The use of modern technologies in statistical data collection. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 752-757.
2. Akhrorjon, A., & Zumradkhan, K. (2022). The impact and results of membership of the wto on the education system. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(5), 24-32.
3. Abdullaev, A. (2022). BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI. *NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR*, 1.
4. Keldiboyeva, Z. M. Q., & Abdullaev, A. A. O. G. L. (2022). Inklyuziv ta‘limga bo‘lgan ehtiyojlar va sabablar, inklyuziv ta‘limga jalb qilish. *Science and Education*, 3(11), 704-711.
5. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
6. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB Olishga QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
7. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

ЁШЛАР - ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН БУНЁДКОРЛАРИ**М.Н. Содиқова.**

Аннотация: мақолада ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича олиб борилаётган давлат ислохотлари, уларга тадбиркорлик, бизнес соҳаларида яратилаётган имтиёзлар ва уларнинг амалий кўрсаткичлари ҳақида маълумотлар берилган.

Таянч сўзлар: иқтисодий ислохот, ёшлар дафтари, темир дафтар, аёллар дафтари, маҳаллабай.

Янги Ўзбекистон –бу аввало, янгича иқтисодий муносабатлар, янгича иқтисодий дунёқараш демакдир.¹ Бозор муносабатларига асосланган давлатимиз иқтисодиёти янгича иқтисодий ислохотлар ила қайта қурилмоқда. Аҳолининг турмуш даражасини ошириш, халқ фаровонлигини янада яхшилаш, даромадларини кўпайтириш, камбағалликни қисқартириш, қишлоқ ва шаҳарлар инфраструктурасини янгилаш иқтисодий стратегиямизнинг энг муҳим йўналишлари ҳисобланади. Ижтимоий муаммоларни ҳал этишнинг янгича ва ўзига хос тизими, яъни “темир дафтар”, “аёллар дафтари”, “ёшлар дафтари”, “маҳаллабай”, “хонадонбай” ишлаш усуллари миллий қадриятларимизга, урф-одатларимизга мос равишда жорий этилди. Ушбу ишлаш тизими орқали оила, хотин-қизлар, ёшларнинг муаммолари ўз жойида ва аниқ ўрганилиб ечимлари ҳал этилмоқда, кексалар, ногиронлар, оғир аҳволга тушиб қолган инсонларга ҳам амалий ёрдамлар қилинмоқда.

Юртимизда олиб борилаётган ислохотларнинг самарали амалга оширилишида ёшларимиз ҳал қилувчи куч сифатида асосий роль ўйнайди. Давлатимиз ва жамиятимиз эътиборида бўлиб турган ижтимоий қатламлардан бири ёшлар бўлиб ҳисобланади. Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш улардаги бор имкониятлардан фойдаланишга ва ўз иқтидорларини янада намоён этишига баркамол ёш авдлони тарбиялаш ва ёшларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини таъминлаш давлатимиз олдида турган вазифалардан бири бўлиб бу давлат ва жамият тараққиётининг муҳим омили бўлиб ҳисобланади. Ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш мақсадида 14.09.2016 йил “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ЎРҚ-406-сонли Ўзбекистон Республикаси Қонуни қабул қилинди. Ўзбекистонда 30 июнь — «Ёшлар куни» деб эълон қилинди. Турли соҳаларда юксак натижа ва ютуқларга эришаётган фидойи ёшларимизни рағбатлантириб бориш мақсадида «Мард ўғлон» давлат мукофоти ва «Келажак бунёдкори» медали таъсис этилди. Ёшларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларнинг ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини ошириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлаш вазифаларини ўз ичига олган бешта муҳим ташаббус амалга оширилмоқда. Шундай ислохотларнинг давоми сифатида 2020йил 30-

¹ Шавкат Мирзиёев “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда” Тошкент-“Ўқитувчи”-2021 йил.

июнь куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6017-сон Фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини янги босқичга олиб чиқиш, ёшлар соҳасидаги муаммоларга самарали ечимлар ишлаб чиқиш, ваколатли органлар фаолиятини самарали ташкил этиш ва мувофиқлаштириш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 декабрдаги мамлакат ёшлари билан учрашувида белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида: Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги (Агентлик) ҳамда унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳар бошқармалари ва туман (шаҳар) бўлимлари ташкил этилди. Агентликнинг асосий вазифа ва фаолият йўналишлари белгиланди. Агентлик, жумладан, ёшлар билан боғлиқ соҳа ва йўналишларда ягона давлат сиёсати, стратегик йўналишлар ва давлат дастурларини ишлаб чиқади ҳамда амалга оширади. Шунингдек, Агентлик ёшлар сиёсати соҳасидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан давлат назоратини амалга оширади. Фармонга мувофиқ, Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини янада ривожлантириш борасидаги чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш ташкил этилди ҳамда унинг асосий вазифалари белгиланди. Агентлик ҳудудлар кесимида ишсиз ёшлар рўйхатини шакллантиради ҳамда уларнинг бандлигини таъминлашга қаратилган манзилли чора-тадбирларни амалга оширади. Шунингдек, юқори касбий салоҳиятга эга, ташаббускор ва ислохотларни амалга оширишда фаол иштирок этувчи ёш кадрлар захирасини шакллантиради.

Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги Қонуннинг 5-моддасида² асосий йўналишлар белгиланган бўлиб, унда иқтидорли ва истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш ҳамда рағбатлантириш, ёшлар тадбиркорлигини ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш, ёшларни ишга жойлаштириш ва уларнинг бандлиги учун шарт-шароитлар яратиш каби зарур масалалар белгилаб қўйилган.

20.04.2021йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларнинг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва бандлигига кўмаклашиш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда бўш вақтини мазмунли ташкил этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6208-сон Фармони ёш тадбиркорларга бир қанча қулайликлар, имтиёзлар яратди. Ушбу фармон билан ёшларни қўллаб-қувватлаш тизими янада такомиллаштирилди, уларнинг бандлигига кўмаклашиш механизмлари белгиланди, тадбиркорлик ғоя ва ташаббуслари рағбатлантирилди, ёш тадбиркорлар муносиб даромад олиши учун қўшимча шароитлар яратилди, бу борада олиб борилаётган ишлар янги босқичга кўтарилди.

Ушбу Фармон ижроси доирасида 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустақкамлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури ижросини таъминлаш мақсадида: Ёшларни

² “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун. -14.09.2016 й.

тадбиркорликка жалб қилиш, уларни доимий иш билан банд қилиш, қўшимча даромад олиши учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича бир қатор янги тартиблар жорий қилинди, унга мувофиқ: 2021 йил 1 майдан бошлаб 2023 йил 1 январга қадар иш берувчиларга (бюджет ташкилотлари, давлат корхоналари, устав жамғармаси (капитали)да давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган юридик шахслар бундан мустасно) улар томонидан 25 ёшдан ошмаган ходимлар учун тўланган ижтимоий солиқ суммаси Давлат бюджетидан тўлиқ қайтариб берилди. Бунда, ижтимоий солиқ суммаси ёш ходимлар олти ой давомида узлуксиз меҳнат фаолиятини амалга ошириши шарти билан еттинчи ойдан бошлаб қайтарилди. «Ёшлар дафтари»га киритилган ёшларга тадбиркорлик фаолиятини бошлаш ва ўзини ўзи банд қилишга зарур бўлган асбоб-ускуналар ва меҳнат қуроолларини харид қилиш учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 40 бараваридан кўп бўлмаган миқдорда «Ёшлар дафтари» жамғармалари ҳисобидан субсидия ажратилди.

«Ёшлар дафтари»га киритилган ишсиз ёшларни ишга қабул қилган тадбиркорлик субъектларига давлат мулкани ижарага олишда ижара тўловларидан имтиёзлар тақдим этилди. 2021 йил 1 июндан бошлаб «Ёшлар дафтари»га киритилган тадбиркорлик фаолиятини бошлаш учун бино ва иншоотларни ижарага олган ёш тадбиркорларга бир йиллик ижара харажатларининг 30 фоизи, бироқ базавий ҳисоблаш миқдорининг 25 бараваригача бўлган миқдори «Ёшлар дафтари» жамғармалари ҳисобидан компенсация қилинди. Профессional таълим ташкилотларида таҳсил олаётган «Ёшлар дафтари»га киритилган ёшларга улар ишлаб-чиқариш ёки хизмат кўрсатиш корхоналарида амалиёт ўтаган вақтида, бироқ олти ойдан кўп бўлмаган муддатда профессионал таълим ташкилотлари томонидан Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг икки баравари миқдоридан ҳар ойлик субсидия ажратилди. Иқтисодиёт соҳасидаги ислохотларнинг давоми сифатида 23.02.2024 йил Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон -2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-37-сонли Фармони қабул қилинди. “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида белгиланган кенг кўламли ислохотларни 2024 йилда самарали амалга ошириш учун бир қанча давлат органлари ва идораларига бир қатор вазифалар белгиланди. Жумладан, **2024 йил 1 июндан бошлаб “Ёш тадбиркор” танловларини ўтказиш амалиёти йўлга қўйилиши, Ёшлар ишлари агентлиги томонидан танлов асосида “маҳалла – туман – вилоят – республика” босқичларида ёшларнинг истиқболли бизнес лойиҳа ва ғоялари сараланади.** Бунда, **ногиронлиги бўлган ёш тадбиркорларнинг лойиҳа ва ғояларига** алоҳида эътибор қаратилиши, республика босқичида саралашдан ўтган ҳар бир лойиҳага базавий ҳисоблаш миқдорининг **1 000 бараваригача** миқдордаги имтиёзли кредитлар ажратилиши, ғолиб бўлган бизнес лойиҳа ва ғоялар эгалари Ёш тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси ҳисобидан **хорижий давлатларга малака оширишга** юборилиши кўрсатиб ўтилди..Мазкур вазифаларни тўлиқ, сифатли ва сўзсиз бажарилиши учун масъуллар этиб **Ёшлар ишлари агентлиги, Савдо-саноат палатаси** ва **Ўзбекистон ногиронлар уюшмаси** белгиланди.

Миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг асосий омили сифатида **бизнес учун** янада қулай шароитларни яратиш мақсадида **“Бизнесни қўллаб-қувватлаш дастури”** доирасида **2024 йил якунига қадар:** комплекс қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларини амалга ошириш орқали **2 миллион аҳолини бизнесга жалб қилиш, янги иш ўринларини** яратиш орқали **5 миллион аҳолининг бандлигини** таъминлаш учун зарур шароитлар яратиш белгиланди.

Бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатимиз бугунги иқтисодий тараққиётининг бош масалаларидан бири сифатида бизнесни қўллаб –қувватлаш, тадбиркорликни ва хусусий мулкни ҳимоя қилиш бўлиб, бу иқтисодий тараққиёт омилларининг мезонидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун.14.09.2016й.
2. Шавкат Мирзиёев “ Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар. Кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда”-Тошкент- 2021й.
3. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 30 июндаги ПФ-6017-сон Фармони.
4. “Ёшларнинг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва бандлигига кўмаклашиш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда бўш вақтини мазмунли ташкил этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 20.04.2021 йил.ПФ-6208-сон Фармони.
5. “Ўзбекистон-2030 стратегиясини Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги 23.02.2024й.ПФ-37-сон Фармони.
6. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARNING AHAMIYATI**Sultonov Mavlonjon,**

Andijon davlat universiteti. "Iqtisodiyot" kafedrası o`qituvchisi

Madaminova Odinaxon

ADU akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim olish jarayonlari, davlat tomonidan ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish nuqtai nazardan munosabatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, ta'lim-tarbiya, loyiha, tizim, pedagog, ijodkor, ijodkorlik.

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odimlab borayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida bo'lib qolmoqda. Zeroki, O'zbekiston ravnaqi, kelajagi shu yoshlar, ya'ni zamonaviy kadrlar qo'lida ekan, jamiki e'tibor ularning hur fikrli bo'lishi, jahon ta'lim standartlariga mos kela oladigan ta'lim olishi buyuk kelajak uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir. Buning uchun esa, avvalo, ta'lim sifatini jahon andozalariga mos ravishda oshirish lozimdir. Zamonaviy ta'lim olishning o'zi har bir shaxs zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zeroki, ta'lim-tarbiyajarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, milliy g'ururli, chuqur ma'lumotli, ma'naviy va jismoniy yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko'zdatutadi va o'z harakatlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi. Istiqlolning dastlabki qadamlaridanoq, yosh avlodni tarbiyalash, hayotda o'z o'rnini topishi, demokratik davlat qurish vazifalariga bo'ysundirilishi lozim ekanligini uqtiribo'tilgandi. Oradan yillar o'tib, zamonaviy innovatsion ta'limni turli usullarda amalga oshirish imkoniyatlari kundan-kunga kengayib bormoqda.

Bularning baridabutun mas'uliyat faqatgina o'qituvchi zimmasigagina yuklatilmasdan ta'lim oluvchidan ham o'z-o'zini boshqarish talab etilmoqda.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish, ta'lim sifatini oshirish, mavjudta'lim dasturlarini zamonaviy talablarga muvofiq isloh qilish va yosh avlod tarbiyasi muammolarini oqilona tarzda hal qilish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu ulug' niyatlarni amalga oshirishda, avvalo, ta'lim tizimini maktab yoshigacha bo'lgan bola tarbiyasidan boshlab, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yuksak aql-zakovat mohiyatini shakllantirish, buning uchun zamonaviy moddiy-texnik va axborot bazasini yaratishgacha bo'lgan barcha sohalarni isloh etish kerak

Ta'lim tizimini isloh etish va uning sifatini oshirish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy - siyosiy sohalar sekin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Bugungi kunda hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tub mohiyati bevosita ta'lim jarayoniga taqaladi. Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- a) ta'lim mazumuni tizimini isloh qilish;
- b) ta'lim - tarbiya tizimini isloh qilish;
- c) ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini isloh qilish;

- d) ota-ona, o‘qituvchi va o‘quvchining ta‘lim jarayoniga bo‘lgan yangicha
- e) qarashlarini shakllantirish;
- f) yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Ta‘lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bumazmunga nafaqat bilim, ko‘nikma, malaka, balki umumisoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak - atrofga munosabatlarni ham kiritish g‘oyasi juda muhimdir. Ilg‘or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogic mahoratni shakllantirishda muhim omildir. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyda tuzish lozimligidir. Darsliklar tuzish ko‘p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma‘naviy tajribalarga tayangan holda amalga oshirilmog‘i kerak.

Ta‘lim jarayonidagi pedagogik faoliyat o‘z mehnatiga ko‘ra ijodiyxarakterga ega. Ma‘lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikkaehtiyoj tug‘iladi. O‘qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsi, uning dunyoqarashi, e‘tiqodi, ongi, xulq-atvoriga bo‘ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarini yechish jarayonidir.

O‘qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo‘llarini qidirib topa bilishida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu ilg‘or pedagogik tajribadir. Ilg‘or pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda, bizo‘qituvchining o‘z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishi, o‘quvchilarning ta‘lim-tarbiyasida yangi, zamonaviy, samarali yo‘l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Ilg‘or pedagogik tajriba o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalar hamda innovatsion texnologiyalardir. Ilg‘or pedagogik tajriba o‘rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o‘quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o‘zgarishlar kiritish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko‘rinishdagi o‘quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo‘ladi. Ijodiy ishlaydigan o‘qituvchi faqatgina muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribalarini tahlil qila olish tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur. Ilg‘or o‘qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o‘qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o‘z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishi, o‘z fanining muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishi, va nihoyat, o‘quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O‘qitvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olibborishi davomida olimlarning tajribalarini to‘playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi. Ilg‘or o‘qituvchilar o‘qitish metodlarini tanlashga alohida e‘tibor beradilar. O‘quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko‘proq bo‘lsa-da, ularni tashkil etish o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta‘sir ko‘rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod

bo‘ladi. O‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg‘or pedagogik tajribalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta‘limda ilg‘or pedagogik tajribalarni qo‘llash orqali ta‘lim sifatini yanada takomillashtirish zarur. Bu orqali biz yoshlarimizning quyidagi xususiyatlarini rivojlantirgan bo‘lamiz:

- bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jahon arenalariga intilishlariga zamin yaratish hamda ularning yetuk kadr sifatidagi raqobatbardoshligini oshirish;
- ularda ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish.

Yana shuni aytish lozimki, bugungi kunda oldimizda turgan asosiy hamda buyuk vazifamiz har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4545884>
2. N.R. Kelchevskaya N.B. Proxorova M.V. Pavlova “Provedeniye finansovogo analiza gosudarstvennogo obrazovatel’nogo uchrejdeniya” (Izdaniye vtoroye, ispravlennoye). Yekaterinburg 2003, 126 st.
3. Xojayev A.S. Oliy ta‘lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘lar ichki auditi va nazoratini tashkil qilishning metodologik masalalari// “Soliq va hayot” elektron ilmiy-ommabop jurnali, IV son, 2022 yil, 108-117 betlar http://soliqvahayot.uz/packet/maqolalar/9852473_maqola.pdf 9-bet
4. Ekonomicheskaya ustoychivost vsshego uchebnogo zavedeniya / N.R. Kelchevskaya. Yekaterinburg: GOU UGTU–UPI, 2002. 77 s.
5. A‘zamov A., Yusupov A. "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" Toshkent. 2002.
6. Jumayev M.E, Jumayev E.E, Adilxanova N.A. “Matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent, “Ilm Ziyo”. 2003.
7. “Erudit” gazetasi. 2015 yil sonlari.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
9. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA QO‘L MEHNATINI RIVOJLANTIRISH**Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi**

Qo‘qon Unversiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari va muammolari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorlikka o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari, bolalarda qo‘l mehnati jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati va mazmuni, MTTdagi rivojlanish markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirish omillari, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faolligini oshirish, ularni ijodkor, kreativ va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashning yangi innovatsion metod va usullarini ishlab chiqish maktabgacha ta‘lim sohasi mutaxassislari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo‘l mehnati jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish mazmuni va amaliy ishlar tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, qo‘l mehnati, rasm chizish, ijod, maktabgacha ta‘lim, badiiy ishlar, plastilin, origami, qaychi, dekorativ, tarbiyalovchi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning, bilimdon, ma‘naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Bu o‘rinda inson ruhiyati qonunlarini o‘rganuvchi psixologiya fani va uning sohalari alohida ahamiyat kasb etadi. Insonni jamiyatimiz uchun to‘laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lishi juda muhimdir. Hozirgi davr talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsada, lekin aqliy kamolotga yetishish asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoiylik namunalari evaziga bosqichma bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmonining IV bo‘limida **Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishda 37-45-maqsadlarda aynan ta‘lim tizimi, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi va maktabgacha ta‘limda bolalarga ta‘lim-tarbiya berish haqida maqsadlar belgilangan**¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 9 sentyabrda PQ-3261-son “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 mayda PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 mayda 391-son “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda

¹ 28.01.2022 yildagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmoni

mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Shaxsning barcha aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishining asosiy prinsipi, yadrosi mehnatdir. An'anaviy hunarmandchilik va badiiy hunarmandchilik odamlarning madaniy merosi va g'ururi bo'lgan odamlarning uy va ijtimoiy mehnati asosida shakllanadi. "Hunarmandchilik ruhi" qo'l mehnatiga asoslangan bo'lib, uni bog'cha yoshdagi bolalarga ham tanishtirish kerak bo'ladi². Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar – rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqlid qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi. Qiziquvchanlik va taqlid asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohaları bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limdagi mehnat faoliyat turlari har xil bo'ladi. Ular orasida bolalar uchun eng qiziqarlisi va bolaning har taraflama aqliy sifatlarini shakllantirishda katta yordam beradigan turi-bu qo'l mehnatidir. Qo'l mehnati pedagogik adabiyotlarda bolalarni kelajakda ular tanlaydigan va shug'ullanadigan mehnat faoliyatiga tayyorlovchi muhim psixologik vosita sifatida e'tirof etiladi. Qo'l mehnati maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida muhim o'rin egallaydi. Aynan shu yoshda bolalarning jismonan sog'lom, baquvvat bo'lishiga asos solinadi, bolalarning aqliy sifatleri shakllanadi.

Qo'l mehnati deganda biz asosan turli materiallar masalan, qog'oz, karton, fomeran, izallon, yog'och tabiiy materiallar somon daraxt po'stlog'i shaftoli donagi, makkajo'xori so'tasi shuningdek tashlandiq ashyolar qiyqimlar, matolar, g'altak qutichalar, turli plastmassa idishlardan bolalarning o'yinchoqlari, turli hayvonlar yasashni tushunamiz³. Qo'l mehnati bolalarning qurish, yasash qobiliyatini ijodkorligini, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, kirishuvchanlikni, ishning uddasidan chiqishni va o'z imkoniyatlarini baholashni, yasayotgan buyumini mumkin qadar chiroyliroq yasashga intilishni, estetik didni o'rgatadi. Shuningdek, qo'l mehnati mashg'ulotlarida bolalar mehnat asboblarini ishlata bilishni ham xomashyoni tejab ishlatishni o'rganadilar. Dastlab bola ko'ziga ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan narsa, uning qo'li va idroki bilan ko'z oldida o'zgarib boradi. Bunda bola uchun eng qimmatli tuyg'u mehnat quvonchi, undan rohatlanish, o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Qo'l mehnatiga rahbarlik qilish tarbiyachidan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishni bolalarga yasash usullarini o'rgata bilishni, o'z vaqtida ularga yordamga kela bilishni zarur narsalar bilan ta'minlay bilishni talab etadi. Bolalar bog'chasi amaliyotida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy ishlarining mazmuni quyidagilardir:

- qog'oz, karton bilan ishlash;
- mato, iplar bilan ishlash ;

² <https://mv-wedding.ru/uz/sport/ruchnoi-i-hudozhestvennyi-trud-kak-vid-truda-detei-doshkolnogo/> [internet ma'lumoti]

³ . Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin turlarining mazmuni M Norquziyeva – Maktabgacha ta'lim jurnali, 2021. 19-bet.

- tabiiy materiallar bilan ishlash;
- yog`ochga ishlov berish ;
- loy bilan ;
- sun`iy materiallar bilan ishlash .

Bolalar bog`chasida va oilada to`g`ri tashkil etilgan qo`l mehnati bolalarga turli xil materiallar sifati va imkoniyatlari to`g`risida chuqur bilim beradi, ijobiy his-tuyg`ularni birlashtirishga yordam beradi, ishlash va hunarmandlikning o`ziga xos xususiyatlarini o`zlashtirishga intilishni rag`batlantiradi. Badiiy qo`l mehnati - bu turli xil materiallar bilan bolaning ijodiy ishi, bu jarayonda u kundalik hayotni bezash uchun foydali va estetik ahamiyatga ega narsalar va mahsulotlarni (o`yinlar, ish, dam olish) yaratadi. Bunday ish bolaning dekorativ badiiy va amaliy faoliyati chunki u chiroyli narsalarni yaratishda materiallarning estetik fazilatlarini hisobga oladi, buning asosida uning g`oyalari, bilimlari, amaliy tajribalari ishlab chiqiladi, ish jarayonida olinadi. Shuning uchun qo`l mehnatini bolalarning uyg`un rivojlanishining muhim elementi deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud . Oddiy qog`ozdan bolalar kaptar, varrak archa bezaklari ,turli aplikatsiyalar, origami asosida yasalgan buyumlar yasashlari mumkin. Bolalarga yasashlari uchun jihozlarni berishdan avval shu jihozlar haqida, ularning qayerda, qanday ishlatilishlari haqida batafsil suhbarto`tkazish, uning qayerda ishlatilishini tushuntirish lozim. Bolalar kerakli ashyolarni berayotganda ularni ishlatishda dastlabki texnik usullar , xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish kerak.

Har qanday mehnat ham ijodiy yo`naltirilgan, fikrni rivojlantirgan bo`lgan taqdirdagina yaxshi samara beradi ⁴. Qo`l mehnati mashg`ulotlarida bolalar tushunib yetadigan formalarni tanlash, bolalarning o`ylagan g`oyalarini tezroq amalga oshirishga yordam beradigan, ishtiyoq uyg`otadigan, o`z ishiga mehr bilan yondashadigan usullarni tanlash kerak. Bolalarda dastlab o`ylagan g`oyani amalga oshirish uchun doim ham qobiliyat, qunt yetarli bo`lavermaydi. Yasay boshlagan buyumlarini yarim yo`lda tashlab ketish holatari ham uchrab turadi. Ayrim bolalar o`ylagan narsani yasash uchun material tanlay bilishni mavjud material bilan qanday ishlash kerakligini bilishmaydi. Tarbiyachi material haqida qayta-qayta so`zlab, bolaning nutqini o`stirishi, aqliy qobiliyatlarni tarbiyalashi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorliklarini rivojlantirishda qo`l mehnati jarayonida qog`oz va tabiat materiallaridan o`yinchoq yasashga o`rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Mashg`ulotlar davomida tabiiy materiallardan “Tizimcha” yasash, kartondan “Stakancha”, matodan “Mo`yqalam artgich”, “Ninachi va chumoli” yasash mumkin. Mashg`ulotning maqsadi: bolalarni tabiiy materiallardan, kartondan, matodan foydalanib, turli ashyolar yasashga o`rgatish.

Mashg`ulotda bajariladigan vazifalar:

- qo`l mehnati bilan shug`ullanishga o`rgatishni davom ettirish;
- bolalarda o`zlarining mehnat ko`nikmasi va malakalarini rivojlantirish;
- bolalarni tabiatni asrashga, muhofaza qilishga, tejamkorlikka o`rgatish.

Mashg`ulot jihozlari: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na`matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog`oz, yelim, ip, igna, mato qiyqimlari.

⁴ Олий таълим муассасалари педагоглрининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г.Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021. 34-b.

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: bolalar, o‘lkamizda oltin kuz fasli kezmog‘da. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to‘g‘rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko‘chalarda, xiyobonlarda ostiga to‘kilib yotibdi.

Bolalar bilasizlarmi, bugungi mashg‘ulotimizda sizlar bilan ana shu manzarali daraxt mevalaridan o‘yinchoqlar yasaymiz. Faqatgina o‘yinchoqlar emas, birinchi sinfga boradigan kichkintoylar uchun hisob-kitob mashg‘ulotida foydalanish mumkin bo‘lgan tizimchalarni ham yasaymiz.

Tizimcha yasalishi uchun qalinroq ip olamiz-da kashtan mevasini teshib, ipga o‘tkazamiz.

Dastlab bolalar 10 raqami ichida sanashni o‘rganishlari sababli, tizimchaga 10 ta mevani ipdan o‘tkazib chiqamiz. Bu tizimchani eman daraxti mevasidan ham tayyorlash mumkin. Agar meva bir oz ko‘rib qolgan bo‘lsa, ozroq suvga solib qo‘yilsa, ustki po‘stlog‘i yumshaydi va tizimchani tayyorlash mumkin bo‘ladi. Qani kim sanab beradi?

Tarbiyachi: barakalla, bolalar sizlar bilan mana bunday stakanchalar tayyorlaymiz. Kvadrat shaklidagi karton qog‘oz olib, undan doira qirqamiz. So‘ng to‘rtburchak shaklidagi qog‘ozning pastki qismini bir sm enlikda qoldirib arra tishlariga o‘xshatib kesib chiqamizda, ikki tomonini yelimlab, pastki qismidagi qirqilgan bo‘laklarga yelim surtamiz va doirachaga yelimlaymiz. Stakancha tayyor. Bolajonlar, sizlar ham stakanchangizni tayyorlab bo‘ldingizlarmi?

Barakalla! Stakan tayyor bo‘lgan bo‘lsa, endi mo‘yqalamni artish uchun artgich, salfetka, tayyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvadratchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni ustma-ust qo‘yib, o‘rtasidan tiqib qo‘yamiz. Mana mo‘yqalam artgich ham tayyor bo‘ldi.

Bolalar, o‘yinchoq ham yasaylik, deyapsizlarmi? Albatta, o‘yinchoqlar ham yasaymiz. Hozir na‘matak va kashtan daraxtining mevasidan "Ninachi va chumoli"ni yasaymiz. Buning uchun kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasiga chumolining bosh qismini o‘rnatamiz, oyoq-qo‘llarini esa novdadan yasab, to‘nkaga o‘tkazib qo‘yamiz, ko‘zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan mevasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho‘p o‘rnatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz: qo‘l-oyoqlarini esa novdadan tay-yerlaymiz. Manzarali daraxt mevasidan qanotlarini yasab, plastilin bilan yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor! Qani eslangchi, ninachi haqidagi qaysi masalni bilasiz?

Bolalar javobi rag‘batlantirilib, mashg‘ulot yakunlanadi.

Bolalarga chiqindi materiallar (ip, shoyi, mo‘yna, polietilen kabilar)dan

foydalanib har xil mazmunda applikatsiyalar tuzish taklif etiladi. So‘ng ularga matolardan o‘yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun ertak kahramonlarining kiyimlari hamda quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tikishga ham o‘rgatiladi. Bolalarning o‘zlari yasagan o‘yinchoqlar ijodiy, harakatli o‘yinlar jarayonida namoyon bo‘ladi.

Bolalar har xil o‘yinchoq yasayotganidan qat‘i nazar tarbiyachi hammaga e‘tibor beradi. Kingadir yordamlashadi, kimnidir yaxshi ishi uchun rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Bolalarning 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha maktab talimiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo‘lishini taminlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi. Shunday ekan bu davrdagi bolalarga turli qo‘l mehnatiga

asoslangan hunarlarni o‘rgatib bolalarning ijodkorlik, intellektual salohiyatlarini oshirishda bog‘cha tarbiyachisining o‘rni beqiyos va bu ular zimmasiga izlanuchanlik va mas‘uliyat yuklaydi.

Adabiyotlar:

1. Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021
2. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin turlarining mazmuni M Norquziyeva – Maktabgacha ta‘lim jurnali, 2021
3. Tsvetnoy mir.” Jurnal. Bolalar bog'chasida, boshlang'ich maktabda va oilada san'at va dizayn ". - IHORAO: №1 / 2012.
4. <https://mv-wedding.ru/uz/sport/ruchnoi-i-hudozhestvennyi-trud-kak-vid-truda-detei-doshkolnogo>
5. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8.
6. Makhamov, A. Y. (2019). THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHY LIFESTYLES FOR PROSPECTIVE TEACHERS”. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(10), 368-374.
7. Махкамов, А. (2023). Аралаш таълим технологиялари асосида булажак уқитувчиларда соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш технологиялари. Общество и инновации, 4(6/S), 45-49.
8. Махкамов, А. Ю. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ БИТИРУВЧИЛАРИ УЧУН ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЙ-МЕТОДИК ИМКОНИЯТЛАРИ. Scientific Impulse, 1(9), 844-851.
9. Махкамов, А. Ю. (2022). Гимнастика ва уни уқитиш методикаси. Дарслик. 2022й, 106-161.
10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
12. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
13. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
14. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
15. <https://presedu.jspi.uz>

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARI VOSITASIDA TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI
TAKOMILLASHTIRISH****Turg'unova Barnoxon Nabiyevna**

Qo'qon universiteti magistranti

email: barnohon2104@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlari, Sharq mutafakkirlari asarlari, Sharq mutafakkirlari asarlarining ta'lim muassasalaridagi, boshqaruvidagi ahamiyati, Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida ta'lim muassalari boshqaruvini takomillashtirish, Sharq mutafakkirlarining islomda tarbiya va axloq, bola tarbiyasi masalalariga qarashlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, ta'lim boshqaruvi, axloq qoidalari, tarbiya, odob, komil inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati.

Kirish.

Yoshlar tarbiyasida mutafakkir allomalarning fikr-mulohazalarini o'rganar ekanmiz, xalqimizga xos axloqiy-tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda beixtiyor mujassam bo'ladi. Shuningdek, erta tarbiya, samimiy munosabat, yaxshi xulq-atvor ota-onalarimiz namunasi sifatida oiladan shakllanadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Haydar Xorazmiy, Hofizdir. Xorazmiy kabi buyuk siymolar xalqimiz faxri ekanini bilishimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili.

Al-Xorazmiy asarlarida insonni ulug'lash, adolatparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, saxovat, kamtarlik, halollik, do'stlik, olijanoblik, xayrixohlik, odob-axloq, bilim olg'a suriladi. Insonning insonga bo'lgan samimiy muhabbatini ta'riflab, mutafakkir shunday yozadi: "Muhabbat har bir qimmatbaho narsaning bahosidir va bu har qanday yuksak narsaning mevasidir. Agar sevgi zulmga chidamasa va uning loyqa suvini ichmasa, unda yaxshilik bo'lmaydi. Ishq naqadar yaxshi ne'mat, qalb egasiga naqadar yaxshi yordamchidir".

Mutafakkir yoshlarni yoshlikning har bir lahzasini asrab-avaylashga, halol mehnat qilishga, farovonlik va baxtga erishishga chaqiradi.

Boshqaruvda ilm-fan ziyolilarining, el tanigan iqtidor sohiblarining xizmati ham alohida ta'kidlangan. Masalan, jasur sarkarda Jaloliddin Manguberdi bilan shayx Najmiddin Kubro, Temuriy shahzodaning zamondoshi va vaziri Alisher Navoiy faoliyatlari bunga misol bo'la oladi. Dunyo tan olgan, qomusiy aql sohibi, ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, Arastuning benazir ilmiy qarashlari, yunon donishmandligi maktabi asoschilaridan biri, boshqaruvning inson tarbiyasiga ta'siri borasidagi nazariyalarni ilgari surgan Abu Nasr Farobiy (873-950) tadqiqotlari alohida o'ringa ega. Alloma boshqaruvni "iste'dod va malakasiga qarab, har bir kishiga munosib vazifa berish orqali ulardan(qo'l ostidagi odamlardan) samarali foydalana olish qudrati"- deb e'tirof etadi. Mutafakkirlarning fikricha tahlil va qiyoslash, doimiy kuzatish-boshqaruvning,

boshqaruvchining asosiy vazifasidir. Mana shu asos allomaning “Ruhni tarbiyalash va poklash muttasil davom etsagina, yaxshi amallarga erishish mumkin”, - deb e’tirof etishiga sabab bo’lgan.[1:280]

Farobiy jamiyat rivojida madaniyatning nechog’li o’rin tutishini, “Fozil odamlar shahri”, “Kitobli madaniyat al-fozila vaal-madanatal-mubaddalavaal -madanatazzola” (Fozil, johil, fosiq, o’zgartirilgan va adashganlar shahri haqida kitob), “Kitob mubodioroual-madanatal fozila “(Fozil shahar ahli qarashlarining asoslari haqida kitob) , “Kalom fi almillatal fiqh al-madaniy” (Xalq va shaharlarni boshqarish huquqi haqida so’z) singari kitoblarida to’laqonli asoslab beradi. Asarlarning mazmunmohiyati allomaning “Madaniyat”, “al-madaniya”, “al-madanat”, “al-madaniy” singari tushunchalarni jamiyat hayoti, odamlarning munosabatlari, xislatlari bilan mushtarak tasvirlaydi.[2:280]

“Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo’ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo’lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo’ladi, kishilar o’rtasida farq bo’lmaydi, har kim o’zi istagan yoki o’zi tanlagan kasb-hunar bilan shug’ullanadi. Odamlar chin ma’noda ozod bo’ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton bo’lmaydi. Ular odamlar ichida ko’tarilgan, sinalgan eng oliyanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo’ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o’z saylovchilarini to’la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladi. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo’ladilar, hatto hammaning manfaatini o’zlarining manfaatlaridan ortiq ko’radilar, uning manfaati uchun o’zlarining shaxsiy manfaatlaridan kehadilar, xalq manfaati uchun o’zlaridagi kuch-g’ayrat va boyluklarini ayamaydilar”, - deb e’tirof etadi alloma.[3:284]

Mana shunday boqiy allomalar qatoriga Ahmad Yassaviyni ham kiritish mumkin. O’tkazilgan tadqiqotlardan ko’rinib turibdiki, Xoja Ahmad Yassaviy o’zining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos hissa qo’sha olgan.

"Xoja Ahmad Yassaviy nuqtai nazariga ko’ra, yolg’on va gunohni yashirish boshqalarga xiyonatdir. Bu fikrlar bilan.

Xoja Ahmad Yassaviy rostgo’ylik, rostgo’ylik, o’ziga ishonishni targ’ib qiladi. U mehnat qilgan odam sabrli, chidamli, irodali bo’ladi, degan g’oyani ilgari suradi.

Hushyorlik insonni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari kitobxonni ogohlikka, faollikka, fitna va buzuqlikdan saqlanishga chorlaydi.” Shuning uchun ham ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy madaniyat sohasiga qo’shgan hissalarini nihoyatda boy. va qadriyatlarining barcha yo’nalishlarini qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Ular:

- ✓ intellektual madaniyatni shakllantirish bilan bog’liq qadriyatlar;
- ✓ axloqiy va ma’naviy qadriyatlar;
- ✓ ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- ✓ badiiy va nafis qadriyatlar;
- ✓ Diniy qadriyatlar shaklida ifodalangan.

Abu Rayhon Beruniy umuminsoniy qadriyatlarni o’rganishning kaliti bilim ekanligini ta’kidlaydi. Ma’rifatli inson jamiyat taqdiri, odamlar taqdiri uchun kurashuvchi, har qanday

yomonlikdan yiroqdir. “Ilmning foydasi oltin-kumushni ochko‘zlik bilan yig‘ish emas, balki u orqali inson uchun zarur bo‘lgan narsalarni qo‘lga kiritishdir”.

“Ta‘lim - bu bir narsani bosqichma-bosqich mukammallikka etkazishdir”. Rog‘ib Asfixoniy ta‘lim-tarbiyaga shunday ta‘rif beradi: “Tarbiya biror narsani bir holatdan ikkinchi holatga keltirish va uni to‘liqlik darajasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma‘nolaridan biri insonning diniy, aqliy va axloqiy kuchlarini uyg‘unlik va mutanosiblik bilan o‘stirishdir. .Islomda farzand tarbiyasi ota-onaning eng mas‘uliyatli va doimiy burchi hisoblanadi. Boshqa burchlar qandaydir ish qilish yoki mol-mulknı sarflash bilan tugaydi. Lekin tarbiya mas‘uliyati davom etadi. Axir ota-onaning farzandiga bergan ne‘matiga haqiqiy rahmati keladi. Tarbiya mas‘uliyatini sharaf bilan ado etish orqali.

Metodologik tahlil: Tarixiy-sotsiologik tahlil metodi, qiyosiy tahlil metodi, emperik , suhbat metodlari.

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk tarafdori va muxlisi sifatida yurt ravnaqi ilmning gullab-yashnashida, inson baxti esa uning bilim va ma‘rifatida, deb hisoblagan. U yaratgan asarlarida ta‘lim-tarbiya haqidagi she‘r va hikmatlardan namunalar keltirganki, ular orqali har bir inson o‘z qalbining amriga ko‘ra ezgulikka intiladi, sun‘iy obro‘-e‘tibor va shuhrat qozonish uchun ezgulik va izzat ko‘rsatmaydi. zarurligini bildiradi.

Bu tajribaning shakllanishiga Sharq mutafakkirlarining ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlari katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Ta‘lim ota-onaning burchi va farzandning huquqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe‘lidan olingan bo‘lib, o‘smoq, ko‘paymoq, ergashmoq, yetaklamoq, isloh qilmoq ma‘nolarini bildiradi. Musulmon olimlari “ta‘lim”ga turlicha ta‘riflar berganlar. Jumladan, Imom Bayzaviy buni shunday ta‘riflaydi:

Natijalar

Sharq mutafakkirlari asarlari, madaniy, falsafa, din va g‘oya sohalarida jiddiy tadqiqot va fikr-mulohazalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning ta‘lim muassalari boshqaruviga katta ahamiyatga ega. Bu asarlarning mutaxassislar va talabalar uchun o‘qish va tadqiqot asoslari sifatida ahamiyati oshirilmoqda. Bunda davlatlar o‘rtasida ta‘lim va fan sohasida ko‘pchilik yorqin epistemologiya, falsafa, dinshunoslik va madaniy masalalarda ko‘proq samarali hamkorlikni oshirish zarur.

Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida ta‘lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi lozim.

1. Ko‘p tili va madaniyatlar bo‘yicha ta‘lim muassalari dasturlarini rivojlantirish: Sharq mutafakkirlari asarlari mazmunlari mustahkamlar orqali o‘rganuvchilarga ko‘p tili va madaniyatlarni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunday dasturlarni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning dunyoqarash va global integratsiyasiga xizmat qilishga imkon yaratadi.

2. Tahliliy fikrlar va mafkuralar muassasalarni o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish: Sharq mutafakkirlari asarlari o‘quvchilarga tahliliy fikrlarni o‘rganish, nazariya va amaliy amaliyotlarni integratsiyasini takviyalash orqali ularning o‘zaro hamkorlikni rivojlantiradi. Bunday tahdidli tahliliy va muhokamaviy o‘quv usullari fikrlar va mafkuralarni o‘rganishga yordam beradi va o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

3. Ta'lim muassalari dasturlarini yangilash va nutqiy va nazariy maqbuliyatni oshirish: Sharq mutafakkirlari asarlari o'quvchilarning nutqiy va nazariy maqbuliyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bunday maqbuliyatni oshirish uchun ta'lim muassalari dasturlarini yangilash kerak bo'lib, ularning ta'lim maqsadlariga va o'quvchilarning maqbuliyatiga mos to'g'ri keluvchi tajribalarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

4. Talabalar va o'qituvchilar uchun hamkorlik tizimlarini tashkil etish: Sharq mutafakkirlari asarlari mutaxassislar va talabalar uchun o'zaro fikr almashish va ko'p tili madaniyatlarini o'rganish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Talabalar va o'qituvchilar arasida hamkorlik, o'zaro fikr almashish va tajribalar almashinish tizimlarini tashkil etish, ularning bilim va tajribalarini kengaytirishga yordam beradi.

Xulosalar

"Ta'lim - bu bir narsani bosqichma-bosqich mukammallikka etkazishdir". Rog'ib Asfixoniy ta'lim-tarbiyaga shunday ta'rif beradi: "Tarbiya biror narsani bir holatdan ikkinchi holatga keltirish va uni to'liqlik darajasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri insonning diniy, aqliy va axloqiy kuchlarini uyg'unlik va mutanosiblik bilan o'stirishdir. Islomda farzand tarbiyasi eng mas'uliyatli va mas'uliyatli ota-onalarning doimiy burchi hisoblanadi. Boshqa vazifalar ba'zi ishlarni bajarish yoki mol-mulkni sarflash bilan tugaydi. Ammo tarbiyaning mas'uliyati davom etadi. Zero, ota-onaning farzandiga bergan ne'matiga chin rahmati tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etishi bilan namoyon bo'ladi.

Xulosa qilish mumkinki, Sharq mutafakkirlarning merosini o'rganish, ularning Sharq taraqqiyoti va rivoji borasida ta'lim muassasalari boshqarishda qimmatli yo'nalishlarni belgilab berganlarini e'tirof etish ibratlidir. Ayniqsa, ularning madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish borasidagi tavsiyalari bo'lajak rahbarlar uchun dasturilamal bo'lishi kerak. Zotan, har bir davlat taraqqiyotini bilimdon va ishbilarmon kadrlar hal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Yangi avlod. 2016. 284-bet
2. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Yangi avlod. 2016.: 280-bet
3. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Yangi avlod. 2016.: 284-bet
4. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Happy family. T.: "Hilal-Nashr". 2013
5. A. Haydarov. Human perfection and national-spiritual values. T.: Editor, 2008.
6. M. Khajiyeva. Spiritual and educational views of Khoja Ahmed Yassavi. Abstract. T.: 2004
7. M. Shokhadjyaev. Burkhaniddin Marginani's views on moral and legal education.
8. M. Hamdamova. The foundations of spirituality. T.: "Science and technology". 2008
9. Buronovich, U. B. (2022). THE PLACE OF MODERN PROFESSIONAL QUALITIES OF VIRTUAL TECHNOLOGIES IN TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Open Access Repository, 9(11), 37-43.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1L1W6_cAAAAJ&citation_for_view=1L1W6_cAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

10. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Perspectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.

SAVOD O‘RGATISH DARSLARIDA SO‘Z O‘YINLARIDAN FOYDALANISH**Turg‘inboyeva Nilufarxon Nurali qizi,**

Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish jarayonlarida darsni o‘quvchilar uchun yanada qiziqarliroq o‘tkazish va yodda saqlab qolishni shakllantirish, xotirani mustahkamlash maqsadida so‘z o‘yinlaridan foydalanish haqida ma‘lumotlar berilgan. Fikrlar misollar keltirish orqali mliy isbotlab berilgan.

Kalit so‘zlar: savod o‘rgatish, tovush, tahlil-tarkib, harf, ta‘lim, dars, o‘yin, so‘z o‘yinlar.

Maktabda o‘qitish birinchi navbatda o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. Alifbega asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o‘rgatiladi, ya‘ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar. Endigina maktabga qadam qo‘ygan bolaga savod o‘rgatish juda nozik ish bo‘lib, uning qulay usullarini topishga intilish ta‘lim jarayonida uzoq tarixga borib taqaladi. Maktabga kelishi bilan bolaning hayotida muhim bosqich boshlanadi. Shaxsning yangi ijtimoiy mavqei, ya‘ni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat shakllaridan birining bevosita ishtirokchisi bo‘lib, bu juda ko‘p kuch talab qiladi. Bu davrda bolalarga yangi talablar qo‘yiladi, u yangi mas‘uliyatga ega bo‘ladi, yangi o‘rtoqlar, kattalar bilan yangi munosabatlar, shuningdek, muayyan axloqiy sa‘y-harakatlar va ish munosabatlariga qo‘shilish tajribasini talab qiladi. Lekin bolalar unga yangi ijtimoiy vaziyatga javob berishga tayyormi? Psixologlar, umuman olganda, bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasi ularni umumta‘lim maktabida muntazam ta‘lim ishlarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi, deb hisoblashadi. Shu bilan birga, bolalarning hayajonlanish, hissiylik, juda tez charchash, e‘tiborning beqarorligi, xatti-harakatlarning holati bilan ajralib turishini hisobga olish kerak. Ko‘pgina tadqiqotchilar maktab o‘quv materiallarida aqliy harakatlarning shakllanish jarayoni bolalarning o‘yin faoliyatida aks etishini ta‘kidlaydilar. 1-sinfga kelgan o‘quvchilar maktab sharoitlariga, uning qat‘iy tartib-qoidalariga tezda moslashib keta olmaydilar. Shu bois ularni o‘zlari o‘ynab yurgan tanish o‘yinlar vositasida ilm-fan sirlari tomon qiziqtirish kerak. Bu o‘rinda o‘tkaziladigan so‘z o‘yinlari, didaktik o‘yinlarni dastur talabiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishini hisobga olish, ularning yangi mavzuga bog‘lanishini ham inobatga olish lozim.

So‘z o‘yinlar jarayonida bolalarda yodda saqlab qolish, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi. Masalan: darsda o‘quvchilar bilan “Esla” so‘z o‘yinini o‘tkazish bolalarga xotirani mustahkamlash, ma‘lumotlarni doim yodda saqlab qolishga yordam beradi. O‘yinni o‘tkazilish tartibi: o‘quvchilarga doira bo‘lib o‘tirib olishga ruxsat beriladi va bitta harf tanlab olinadi. Bolalar tanlab olingan harf bilan boshlangan so‘zlardan ayta boshlaydilar. Birinchi o‘quvchi kapalak desa, ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan so‘zni ham aytib so‘ng o‘zi ham shu harf bilan boshlanadigan biron bir so‘z aytadi, uchinchi o‘quvchi ham xuddi shu tarzda davom ettiradi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarda xotira mustahkamlanadi.

O‘yin bolalarning birgalikdagi, hamkorlikda amalga oshiradigan faoliyatini vujudga keltiradi. Har qanday o‘yin muayyan mezonlar, qonun-qoidalar, tartib va intizomni talab etadi. O‘yin jarayonida bola o‘zini bemalol, erkin his qiladi, o‘zining haqiqiy qiyofasini namoyon etadi.

Yayrab kuladi, harakatlanadi, o‘z fikrini uyalmay, tortinmay bayon qiladi. O‘yin asnosida ko‘pgina jamoatchilik qoidalarini o‘zlashtiradi, tartib-intizomga o‘rganadi. O‘yin bola hayotida juda muhim rol o‘ynaydi. Kattalarga kundalik hayot tajribalari qanchalik zarur bo‘lsa, bola uchun o‘yin shunchalik zarur. O‘yin jarayonida bola qanday bo‘lsa, keyinchalik katta bo‘lgach, ishda ham o‘zini shunday tutadi. Shu sababli faol insonni tarbiyalashda o‘yinlarning ahamiyati juda katta.

“Kim chaqqon-u kim tezkor” o‘yini. Bu o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Jamoa bo‘lib ishlaganda o‘zaro inoqlik, tengdoshiga bo‘lgan hurmat, bir-birini tinglash axloqlarini rivojlantiradi. Bu o‘yinda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib olishadi. So‘ng esa doskaga bitta so‘z yoziladi. Bu so‘z har ikkala jamoa uchun ham tegishli. Masalan: o‘zbekiston so‘zi yozilsa, har ikkala jamoa shu so‘zdagi harflardan foydalanib yangi so‘zlar yasashlari kerak: o‘zbek, bek, to‘n, zot, it..... kabi.

“So‘z tuzish” o‘yini. Bu o‘yinni bajarish o‘quvchilarga tovushning so‘z hosil qilishidagi ahamiyatini to‘laroq tushunib olish imkonini beradi. O‘quvchilar ushbu o‘yinda ishtirok etar ekan, so‘zlarning turli-tuman usullar bilan hosil bo‘lishi katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zlari hosil qilgan yangi so‘zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo‘ladi. So‘z tuzish o‘yini savod o‘rgatishning tahlil – tarkib (analiz – sintez) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma’nolarni bildiradi. So‘z tuzish o‘yini ham aynan so‘zga xilma-xil tovushlarni, bo‘g‘inlarni qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Bu o‘yinni bajarishda so‘zga turli xil usullar bilan tovush qo‘shib, yangi so‘z hosil qiladi.

“Bo‘g‘inlardan so‘z tuzish” o‘yini. Doskaga yozma harflar bilan lola, ona, ana, tola, Lola, Ali so‘zlari yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar kesma bo‘g‘inlar yordamida shu so‘zlarni yozadilar. L tovushi so‘zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar. L tovushi qatnashmagan so‘zlarning aralastirib berilishi o‘quvchilar diqqatini orttiradi. Bunday o‘yinlarni boshqa harflarni o‘rganish davomida ham qo‘llash mumkin. M harfini o‘rganish jarayonida Omina, mana, Noila, nom, amma, nima singari so‘zlarni kesma bo‘g‘inlar yordamida yozish mumkin. Birinchi bo‘lib yozib bo‘lgan o‘quvchi o‘yin g‘olibi hisoblanadi va rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab bola hayotida juda muhim o‘rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati haqidagi bilimlarni egallaydi. So‘z o‘yinlar orqali bola jamoani tushunadi, o‘zi bajarayotgan mashg‘ulotga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O‘yinda ilg‘orlikka, g‘alaba qozonishga intiladi. Shu sababli ham savod o‘rgatish davrida darslarga o‘yin elementlarini kiritish va undan ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh. Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, –“Nosir”, 2009.
2. Safarova R., Inoyatova M. Alifbe.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.-Toshkent, 2021.

3. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
4. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>
5. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
6. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
7. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
8. *Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
9. *Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA XAVFLILIK TOMONLARNING MAVJUDLIGI**Turg'inboyeva Nilufarxon Nurali qizi**

Qo'qon universiteti „Boshlang'ich ta'lim“ yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya darslarida xavflilik tomonlarni mavjudligi va bunga o'qituvchi jiddiy, ma'sulyatli yondashishi kerakligi va albatta shu bilan birgalikda o'quvchilarni bu qoidalar bilan tanishtirishi lozim bo'ladi.

Kalit so'zlar: xavf, elektr, ultrabinafsha, tok kuchi, issiqlik, oshxona jihozlari, biologik.

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e'lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi va insonparvarlashuvi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'ldi va ta'lim tizimida tub islohotlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy voqelik ta'limni boshqarish muammolarini ko'rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo'nalish sifatida ajratib olish, ta'lim tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o'rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot kutubxonasi aloqalari, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatidagi ahamiyatini oshirdi. Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarni joriy etish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta'lim boshqaruvini demokratlashtirishni o'z ichiga oladi.

«Texnologiya — bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir». Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi: - samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish; - uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv Gadal), mumkin qadar, ilmiy asosda qurish; - talab etilgan natijalami kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish; - o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish; - ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash; - texnik vositalarni yaratish. ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar. Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. Amal — o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Hech kimga sir emaski, barcha fanlar kabi texnologiya fani ham hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Biz bu fanni o'quvchilarga yani boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziqarli ular o'rganishiga qulay va oson tarzda tushuntirib berishi kerak. Texnologiya fani qiziqarli tarafi bilan

birgalikda xavflilik tomonlari ham mavjud. Texnologiya fanini o‘rganish jarayonida ham texnika-xavfsizlik qoidalariga amal qilish shart. Masalan, texnologiya fanining o‘ziga xos bo‘limlari borki, quyida ularni yoritishga harakat qilamiz: Texnika xavfsizligi dars jarayonidagi baxtsiz xodisalar, kasbiy kasalliklar, avariya, portlashlar, yong‘inlarning mumkin bo‘lgan sabablarini aniqlaydi va o‘rganadi. Ushbu sabablarni bartaraf etish, o‘quvchilar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar va talablar tizimini ishlab chiqadi. Bunda ulkan ijtimoiy samara bilan bir qatorda ma‘lum bir iqtisodiy samaraga ham erishiladi.

Texnologiya darsi vaqtida eng katta ma‘suliyat albatta o‘qituvchi zimmasida bo‘ladi. Agar bir zumgina bee‘tibor qoladigan bo‘lsa qandaydir ko‘ngilsizlik chiqishi mumkin. Barchamiz bilganimizdek boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda ham sho‘x bo‘lishadi. Chunki ular maktabning qonun qoidalariga to‘liq ko‘nikmagan va amal qilmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi butun dars mobaynida doim ma‘suliyatli bo‘lishi kerak.

Bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bir-biriga nisbatan g‘ayrlik tuyg‘usi bo‘ladi. Ular bir-birining darsda yasagan narsalarini ko‘rolmasliklari sababli bir-birlariga ziyon yetkazib qo‘yishlari mumkin. Bu natijada bolalar zarar ko‘rishlari yoki jarohat olishlari mumkin.

Ba‘zida esa amaliy darslar mobaynida o‘qituvchi bergan topshiriq bo‘yicha biron nima yasash kerak bo‘lgan paytda o‘quvchilar bir-birlaridan o‘zlarida bo‘lmagan ish qurolini so‘rab turishlari lekin berayotganda ehtiyotkorlik qoidalariga rioya qilmasliklari mumkin. Buni oldini olish uchun o‘qituvchi doimo partalar bo‘ylab aylanib ularni nazorat qilib turishi kerak.

Hammamizga ma‘lumki, xuddi kundalik hayotdagi kabi texnologiya darsi jarayonida ham elektr toki xavfsizligiga diqqat qilish shart. Texnologiya darsida ham elektr tokidan foydalanishimiz kerak bo‘lgan darslarimiz bo‘lishi mumkin. Bunday darslarda esa elektr toki bilan ishlash kerak bo‘lganda avvalo xavfsizlik qoidalarini bilan tanishtirib o‘tishi kerak. Iloji bo‘lsa agar qoidalarni oq varoqlarga yozib doskaning burchagiga ilib qo‘yishi kerak. Bunday darslarda o‘qituvchi iloji boricha tok bilan ishlash kerak bo‘lsa o‘zi bajarib berishi kerak. Aks holda o‘qituvchi nazoratida bajarilmagan ish kutilmagan ko‘ngilsizlikka olib kelishi mumkin.

Elektr tokidan olingan jarohatlarni shartli ravishda mahalliy va umumiy turlarga bo‘lish mumkin. Umumiy turini odatda tok urishi deyiladi. Mahalliy turlari organizmning ma‘lum qismini elektr toki yoki elektr yoyi ta‘sirida shikastlanishidir. Elektr tokidan kuyish badandan tok o‘tganda hamda elektr yoyi ta‘sirida bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda jarohat nisbatan yengil o‘tadi. Bunda terining qizarishi, pufakchalar paydo bo‘lishi kuzatiladi. Elektr yoyi ta‘sirida bo‘lgan kuyish odatda ancha og‘ir xarakterga ega bo‘ladi. Elektrooftalmiya – elektr yoyidan chiqadigan kuchli ultrabinafsha nurlar oqimining ko‘zga ta‘siri natijasida tashqi pardasining yallig‘lanishidir.

Odatda kasallik bir necha kun davom etadi. Ko‘zning muguz pardasi jarohatlanganda davolash murakkablashadi va uzoq davom etadi. Kishining elektr tokidan jarohatlanishi qator omillarga ega: tok kuchi, kuchlanish, chastotasi va uning turi, tokning organizmdan o‘tish yo‘li, ta‘sirning davomiyligi hamda kishi tanasining xususiyatlariga bog‘liqdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, texnologiya darslarida o‘qituvchi hammadan ko‘ra ko‘proq ma‘suliyatli bo‘lishi kerak. Doimo amaliy darsdan oldin o‘quvchilarga xavfsizlik qoidalarini tanishtirib o‘tishi kerak. Shunda har ikkala tomon uchun ham dars ko‘ngildagidek xavfsiz o‘tadi.

Dars mobaynida o‘qituvchi doim o‘quvchilarni kuzatib va nazorat qilib turishi kerak. Eng muhimi e‘tiborliroq bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dils G. Antichnaya texnika — Moskva-Leningrad, 1934.
2. Zaysev G. N., Fedyukin V. K., Atroshenko S. A. Istoriya texniki i texnologiy. SPb.: Politehnika, 2007. — 416 s. ISBN 978-5-7325-0605-1
3. Zvorikin A. A., Osmova N. I., Chernishev V. I., Shuxardin S. V. Istoriya texniki. — M.: Nauka, 1962. — 772 s. [1] (Wayback Machine saytida 2022-06-29 sanasida arxivlangan)
4. Kamardin I. N. Razvitie texniki v drevnem mire (uchebnoe posobie). Penza, 2006. — 72 s.
5. Sidorov A. I. Ocherki po istorii texniki. — M. : Gostexizdat, 1925. — 94 s [2]
6. Shuxardin S. V., Laman N. K., Fedorov A. S. (otv. red.). Texnika v eyo istoricheskom razvitii (70-e godi XIX — nachalo XX v.). M.: Nauka, 1982. — 511 s.
7. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
12. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
13. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
14. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**“KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI” – O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM TIZIMINI
ISLOH QILISHNING ASOSI****Turgunova Shaxlo Matmurodovna**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali Akademik litseyi Informatika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimining faoliyati davlat ta‘lim standartlari, turli darajadagi ta‘lim dasturlarining uzluksizligi asosida ta‘minlanadi va ta‘lim turlari haqida, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnika yutuqlariga asoslangan mukammal kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirilishi haqida so‘z boradi. Dastur, xorijiy tajribadan o‘rganilgan asosiy usullar va pedagogik yondashuvlar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ta‘minlaydi. Uning asosiy maqsadi ta‘lim tizimini rivojlanish va yangilanishga o‘rgatishdir. Bunda ta‘lim muassasalarining barcha darajalarini olib keladi, shunda o‘quvchilardan boshlab, o‘qituvchilar va ma‘muriyatgacha. Milliy dastur, yangi yondashuvlar va texnologiyalar o‘rganish uchun imkoniyatlar yaratadi, hamkorlik orqali ta‘lim amaliyotining rivojlanishini rag‘batlantiradi va O‘zbekistonning mamlakat sifatida inson kapitalini rivojlantirish uchun samarali sarmoyalar qilishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: intellektual meros, shaxs, ta‘lim, pedagogik faoliyat, kadrlar, kasb-hunar, psixologiya, qobiliyat, iqtidor.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida istiqloq yo‘lidagi dastlabki qadamlardan o‘q ma‘naviyatni tiklash va yanada rivojlantirish, milliy ta‘lim tizimini takomillashtirish, uning milliy poydevorini mustahkamlash, jahon andozalari darajasiga ko‘tarishga katta e‘tibor qaratilmoqda. zamon talablari, chunki Haqiqiy bilimli shaxs inson qadr-qimmatini yuksak qadrlay oladi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashi, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini yuksaltirishi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatidan munosib, nufuzli o‘rin egallashi uchun erkin jamiyatda yashash uchun fidokorona kurasha oladi.

Respublikada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi inson, uning barkamol rivojlanishi va farovonligini ta‘minlash, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit va samarali mexanizmlarni yaratish, tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning eskirgan qoliplarini o‘zgartirishdir. Xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnika yutuqlariga asoslangan mukammal kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Belgilangan maqsadlarga erishish, ezgu intilishlar, jamiyatni yangilash, taraqqiyot va kelajak yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi va taqdiri – bularning barchasi, avvalo, yuqori malakali, vijdonli kadrlar, mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. Zamon talablariga javob beradiganlar.

Metodologiya: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni qoidalariga mos keladi, milliy tajribani tahlil qilish, ta‘lim tizimidagi jahon

yutuqlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va yuqori umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil harakat qilish qobiliyatiga ega, kelajak uchun muammolarni qo‘yish va hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlari.

Dasturda kadrlar tayyorlashning milliy modelini amalga oshirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, zamonaviy o‘zgaruvchan jamiyatda hayotga moslashish, ongli tanlash va malakasini oshirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik, pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutilgan. jamiyat, davlat va oila oldidagi mas‘uliyatini anglaydigan fuqarolarni tarbiyalash, ta‘lim va kasbiy dasturlarni keyinchalik ishlab chiqish.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: shaxs – davlat va jamiyat – uzluksiz ta‘lim – fan – ishlab chiqarish.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limining mustaqil bosqichlar sifatida joriy etilishi bo‘lib, ular umumiy ta‘limdan kasbiy ta‘lim dasturlariga o‘tishning uzluksizligini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimining faoliyati davlat ta‘lim standartlari, turli darajadagi ta‘lim dasturlarining uzluksizligi asosida ta‘minlanadi va quyidagi ta‘lim turlarini o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta‘lim;
- umumiy o‘rta ta‘lim;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi;
- oliy ma‘lumot;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta‘lim.

Umumta‘lim dasturlari maktabgacha, boshlang‘ich (I-IV sinflar), umumiy o‘rta ta‘lim (I-IX sinflar), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini qamrab oladi.

Kasbiy ta‘lim dasturlariga o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi kiradi. Oliy (bakalavr, magistratura) va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash. Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Bolalar maktabning birinchi sinfiga olti yoki yetti yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o‘rta ta‘lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini, tashkilotchilik qobiliyatini va amaliy tajribani rivojlantiradi, boshlang‘ich kasbga yo‘naltirish va ta‘limning keyingi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi olish uchun har kim umumiy o‘rta ta‘lim negizida akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o‘qish yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari egallagan kasb bo‘yicha ishlash yoki keyingi bosqichda uzluksiz ta‘lim olish huquqini beruvchi va asos bo‘lgan o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi beradi.

Akademik litsey - o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal rivojlantirish, chuqur, tabaqalashtirilgan va kasbiy yo‘naltirilgan ta‘lim berishni ta‘minlovchi uch yillik o‘rta maxsus ta‘lim muassasasi hisoblanadi.

Kasb-hunar kolleji – o‘quvchilarning kasbiy moyilliklari, qobiliyatlari va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir nechta mutaxassisliklarni olishni ta‘minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar ta‘limi muassasasi.

Oliy ta‘lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta‘minlaydi. Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy ta‘limning boshqa o‘quv yurtlari) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi negizida amalga oshiriladi.

Oliy ta‘lim ikki bosqichdan iborat: davlat tomonidan berilgan oliy ta‘lim hujjatlari bilan tasdiqlangan bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - oliy ta‘lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlarga ega bo‘lgan, o‘qish muddati kamida to‘rt yil bo‘lgan tayanch oliy ta‘limdir.

Magistratura – bakalavriat negizida o‘qish muddati kamida ikki yil bo‘lgan aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy ta‘lim.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma‘lumot olish huquqiga ega.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (doktorantura, PhD) olish mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kasbiy bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish va yangilashni ta‘minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Muhokama: Bolalar va o‘smirlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtlari va dam olishlarini tashkil etish, davlat organlar, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy-texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishdagi maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta‘lim muassasalariga saroylar, uylar, bolalar va o‘smirlar ijodiyoti klublari va markazlari, bolalar va o‘smirlar sport maktablari, san‘at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘liqni saqlash va boshqa muassasalar kiradi. Maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarini tashkil etish va faoliyat yuritish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Yetim bolalarni va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni yoki boshqa qonuniy vakillarini o‘qitish va boqish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘liq davlat ta‘minoti asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy mavqeini oshirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. O‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘qishi, salomatligini mustahkamlashi, dam olishi uchun zarur shart-sharoit yaratilgan.

Ta‘lim muassasalari va sog‘liqni saqlash organlari bolalar va o‘quvchilar salomatligini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘radilar. Ta‘lim jarayonining sog‘lomlashtirish yo‘nalishini amalga oshirish va sog‘lom turmush tarzi standartlarini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratilgan. O‘quvchilarning tibbiy-gigiyenik madaniyatini yuksaltirish, ularning jismoniy tarbiya va sport faolligi hamda jismoniy rivojlanish darajasini oshirishga

qaratilgan tashkiliy-metodik yondashuvlar takomillashtirilmoqda. Nogiron va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratilmoqda.

Pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy mavqeini oshirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. O‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘qishi, salomatligini mustahkamlashi, dam olishi uchun zarur shart-sharoit yaratilgan.

Ta‘lim muassasalari va sog‘liqni saqlash organlari bolalar va o‘quvchilar salomatligini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘radilar. Ta‘lim jarayonining sog‘lomlashtirish yo‘nalishini amalga oshirish va sog‘lom turmush tarzi standartlarini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratilgan. O‘quvchilarning tibbiy-gigiyenik madaniyatini yuksaltirish, ularning jismoniy tarbiya va sport faolligi hamda jismoniy rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan tashkiliy-metodik yondashuvlar takomillashtirilmoqda. Nogiron va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratilmoqda.

Natija: O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlikning xalqaro huquqiy asoslari yaratildi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari amalga oshirilmoqda, xalqaro ta‘lim tuzilmalari rivojlanmoqda, ilmiy-pedagogik kadrlar, talabalar va talabalar almashinuvi yo‘lga qo‘yilmoqda. kengaymoqda. Ta‘lim to‘g‘risidagi milliy hujjatlarning xalqaro miqyosda tan olinishi uchun zamin yaratildi. Kadrlar tayyorlash sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish bo‘yicha manfaatdor vazirlik va idoralar, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi elchixonalari faoliyati faollashmoqda.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturining to‘liq amalga oshirilishi demokratik huquqiy davlat va inson huquq va erkinliklari hurmat qilinishini ta‘minlaydigan ochiq fuqarolik jamiyati barpo etilishini, jamiyatning ma‘naviy yangilanishini, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va jahon hamjamiyatiga integratsiya. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining eng muhim ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy vazifalari qatorida ustuvor ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiyeva Komila Suvonqulovna. (2020). Ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish. *Oriental Art and Culture*, (III), 383-389.
2. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tish yo‘llari. O‘quv – uslubiy ishlanmalar to‘plami. Akademik S.S.G‘ulomov umumiy rahbarligi ostida. – T.;TDIU 2015. 105 b.
3. Belov V.S. Informatsonno-analiticheskie sistemi: Uchebnoe posobie, – M.,MESI, 2014.
4. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
5. Novosardova S.A., Gaynutdinova F.X., Otajonov U.A. Metodika prepodavaniya kursa “Informatika”: Uchebnoe posobie. – T.: TGEU, 2020.

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS**Umarov T. M.***Specialist Scientific Research Department*

Abstract: Adolescence is a complex period of its own, and the observation of aggressive behavior in most of the representatives of this age group has become a natural state. will be The purpose of aggression is to inflict pain on the victim and to use aggression as a means to achieve other goals. The article describes the classification of aggressive behavior in adolescence, the possibilities of correction.

Keywords: Aggressive, Crisis, Aggression, stress. Aggressive behavior, Instinct.

2. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
3. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264-269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
4. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Perspectives, 1(2), 78-83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
5. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
6. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
7. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Perspectives, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
8. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

9. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
10. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
11. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
12. <https://interactive-plus.ru/e-articles/572/Action572-473333.pdf>

**“TARBIYA” FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARDA AXLOQIY IDEALNI
SHAKLLANTIRISH****Usmonova Nargiza Raximjonovna**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda “Tarbiya” fanini o‘qitish orqali axloqiy idealni shakllantirish haqida fikr va mulohazalar, shuningdek davlatimiz ertasi bo‘lgan yosh avlodning hayotida tarbiyaning ahamiyati, tarbiya, axloq ideal va axloqiy idealning mazmuni, buyuk mutafakkir olimlarimizning ta‘lim tarbiya axloq haqidagi qimmatli fikrlari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ideal, axloq, axloqiy ideal, o‘quvchi, tarbiya ahamiyati.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2020 yildagi «Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 422-son qarori qabul qilgan. Unga ko‘ra yagona «Tarbiya» fani 1–9-sinflarda – 2020-2021 o‘quv yilidan, 10–11-sinflarda esa – 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab ajratilgan umumiy soatlar doirasida «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtirishi belgilab o‘tilgan. Shuningdek ushbu qonunda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma‘naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridagi ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsad qilinganligi belgilab o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasining muhtaram prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tarbiya haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tganlar: “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. Darhaqiqat yurtimiz ravnaq topishida, xalqimiz esa faravon yashashida yoshlarga berilayotgan ta‘lim tarbiya, ularning axloqiy idealga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi.

Dunyoga kelgan har bir inson – davlat uchun tom ma‘nodagi noyob boylikdir. Unda o‘ziga xos qobiliyat yashiringan bo‘ladi. Shu qobiliyat yuzaga chiqsa, undagi iste‘doddan butun jamiyat manfaatdor bo‘ladi. Insondagi iste‘dodni kashf qilishning vositasi – ta‘lim hisobladi. Davlatimiz ertasi, kelajagi bu albatta yoshlardir. Yurtimizning qay darajada rivojlanishi, xalqimiz farovon hayoti ham albatta yoshlar va ularning ta‘lim tarbiyasi, dunyoqarishi, kreativ g‘oyalari va eng muhimi albatta ilmiy salohiyati va tarbiyasi bilan belgilanadi desak adashmagan bo‘lamiz. Shu sababli mamlakatlarning e‘tibori inson aql-zakovatini «zabt etish»ga qaratilgan. Inson omili yuksalib, jahon iqtisodiyoti tobora bilimga asoslangan sohalar ixtiyoriga o‘tmoqda. E‘tibor qiling, dunyoning eng boy kompaniyalari ham aql evaziga boyimoqda. Hozirgi jarayonda ko‘proq bilim olib, ilg‘or fikrlarni ilgari surish – muvaffaqiyat asosidir. Jamiyat rivoji shaxslarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Inson omili yuksalgani sayin davlat ham taraqqiy etib boradi. Shaxsiy rivojlanish esa umr bo‘yi davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu bilan birgalikda e‘tibor qaratishimiz kerakki,

inson hayotida eng muhim bo‘lgan ta‘limlardan biri bu- tarbiyadir! "Tarbiya" fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarda axloqiy idealni shakllantirishda esa dastlab tarbiya, axloq va ideal tushunchalarining ma‘nolari bilan tanish chiqsak. Tarbiya bu insonlarga berilgan eng buyuk bo‘lgan ne‘matlardan biridir deyishimiz mumkin. Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o‘qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta‘sir ko‘rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko‘p tarqalgan tendensiyadir. Bu o‘rinda kattalar to‘g‘ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta‘sir ko‘rsatish ko‘zda tutiladi, albatta. Shubhasiz dunyodagi insonlar uchun eng ahamiyatli va eng ta‘sirli narsa bu tarbiyadir. Bizning ertamiz bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi, ularni bilimli va har taraflama komil inson sifatida shakllantirish barcha zamonlardagi eng muhim bo‘lgan masalalardan biridir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to‘g‘risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi jaloliy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Nigoriston", "Bahr al-ulum", "Kachko‘li sultoniy", "Jovidoni xirad", "Bistu se hikmat", "Hikoyoti dilpisand", "Odob as-solihin", "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Axloq – insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta‘siri bordur. Tarbiyaning axloqqa, albatta, ta‘siri bo‘ladur. Yaratgan insonlarni asl xilqatda iste‘dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomon, foyda ila zarar, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo‘ladur. Qush uyasinda ko‘rganin qiladur. Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go‘zal xulqlarga odatlanub katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulib o‘ssa, Allohdan qo‘rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog‘iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lub qolur. Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur degan fikrlarni bildirib o‘tganlar. Endi ideal so‘zining ma‘no mazmuni bilib ta‘nishib chiqsak. Ideal (yun. idea — timsol, g‘oya, tushuncha) — biror narsa, voqea va hodisaning oliy namunasi, kamoloti ayrim shaxs, shaxslar guruhi, tabaqa va jamiyat intiluvchi oliy maqsad hisoblanadi. Axloqiy-ideal esa axloq me‘yorlariga asoslangan xulqning yuksak darajasi, mukammal holati haqidagi tasavvur. U ma‘naviy hodisa bo‘lib, axloqiy me‘yorlarning inson orzu qilgan va yuksak darajada shakllangani bilan bog‘liq tasavvurlar majmuidir. Axloqiy aqidalar insonning real hayotdagi turli voqea-hodisalarga munosabatida aks etgan holda uning hayotda o‘z o‘rnini topishiga, hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. U insonni ma‘naviy jihatdan yuksalishga chorlaydi, insonning o‘tmish hayotini tanqidiy tahlil etishga, hozirgi kunda amalga oshirayotgan xatti-harakatlarini ibrat bo‘lishga munosib insonlarniki bilan solishtirish, kelajakda esa o‘z hayotini yanada mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Axloqiy

idealni shakllantirishda esa tarbiya fanining ahamiyati beqiyosdir. O‘quvchilar ushbu fanni o‘qib o‘zlashtirar ekanlar ularda inson orzu qilgan mukammal axloqiy me‘yorlar va xulqning yuksak darajasi shakllanib boraveradi.

Xulosa: Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Serquyosh o‘lkamizning kelajagi bo‘lgan yoshlarning ertangi kuni naqadar quyoshli, iliq bo‘lishida esa ularning kugungi kunda olayotyan ta‘lim tarbiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman olganda, jamiyat a‘zolarining ta‘lim tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat esa turg‘unlik va inqirozga mahkumdur desak hech ham adashmagan bo‘lamiz. Tarbiyaga e‘tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishi haqida o‘z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e‘tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldirgan fikrlari nechog‘liq haqiqat ekanligi bugungi hayotimizning har kunida o‘z isbotini topayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini uning davlatimiz rivojlanishidagi o‘rnini anglagan holda maktablarda tarbiya fanining tashkil etilganligi va ta‘lim berilayotganligi va bu orqali o‘quvchilarda axloqiy idealni shakllantirish davlatimizning va yosh avlodning bugungi va ertangi go‘zal hayotlarida ahamiyati kattadir. O‘quvchilar “Tarbiya” fanini puxta o‘rganib berilgan imkoniyatdan unumli foydalanib, o‘zlarining ta‘lim tarbiyaviy salohiyatlarini oshirib borsalar, jamiyatda munosib o‘rin egallashga kirishsalar yoshlarning kelajagi ham go‘zal va yaxshi bo‘ladi. Yoshlarning kelajagi butun bir millatning shirin tashvishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARIDA “TARBIYA” FANINI BOSQICHMA-BOSQICH AMALIYOTGA JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA. 06.07.2020 yildagi 422-son.
2. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari
3. TARBIYA 8 BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI darslik. Toshkent – 2020. «Zamin nashr».
4. TARBIYA 9 BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI darslik. Toshkent – 2020. «Zamin nashr».
5. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
6. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
7. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from

8. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
9. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
10. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
11. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
12. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
13. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
14. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
15. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
16. <https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda yangi/umumiy urta talim muassa salarida tarbiya fani joriy etiladi>

**MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBİYALANUVCHILARDA AGRESSIV HATTI HARAKATLARNI
KO'RINISHLARI VA KORREKSIYALASH****Usmonova Nargiza**

Qo‘qon universiteti “Ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Ilyosjonov Shahboz

Qo‘qon universiteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik va uni korreksiyalash yo‘llariga e‘tibor qaratilgan. Bolalarda agressivlikning kelib chiqish sabablari, kuzatiladigan muammolar, “Agressiya” va “Tajovuzkorlik” tushunchalari, hamda bu holatlarni korreksiyalash usullari va psixologik maslahat berish haqida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: agressiya, agressiv xatti-harakatlar, impulsivlik, jo‘rquv.

Kirish.

Har qanday jamiyatning kelajagi sog‘lom fikrli, keng dunyoqarashli, ilmga chanqoq kreativ fikrlaydigan intellektual salohiyati yuksak taraqqiy etgan yoshlarga har tomonlama bog‘liqdir. Barkamol sog‘lom fikrli avlodgina Vatan va yurt oldidagi umumjamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan mashqlarni harakatga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Hozirgi kunda ta’lim –tarbiya borasida olib borilayotgan islohatlardan asosiy ko‘zlangan maqsad har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Maktabgacha davr bolaning o‘shish, rivojlanish, o‘zini nomoyon etishga intilish, o‘rganish, bilish ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bola barkamol shaxs sifatida poydevor qo‘yiladi. Inson agressivligi ko‘rinishlarining turli tuman tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o‘rganishda. ¹Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik muammolaridan biri tajovuzkorlikdir. Bolalarning tajovuzkorligi turli shakllarda bo‘lishi mumkin: jismoniy tajovuz (urish, itarish, tishlash, tupurish, chimchilash va h.k.) va tengdoshlarga ham, kattalarga nisbatan haqorat qilish, jozibali o‘yinchoq uchun janjal, o‘yinda etakchi o‘rin va boshqalar. maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘pchiligida tajovuzkor xatti-harakatlar kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, ba’zi bolalar tajovuzkorlikka nisbatan aniqroq moyillikni namoyon etadilar. Shu bilan birga, tajovuzkor bola nafaqat boshqalarga, balki, birinchi navbatda, o‘ziga ham juda ko‘p muammolarni keltirib chiqaradi. Vaqt o‘tishi bilan tajovuzkor xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi doimiy bo‘lishi mumkin, bu esa o‘z navbatida bolaning shaxsiyatida bu xususiyatlarning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin. Agar erta yoshda tajovuz ko‘pincha vaziyatga bog‘liq bo‘lsa, ya’ni bu bola u yoki bu ehtiyojni qondira olmaydigan, masalan, kerakli ob’ektni yoki kattalarning e’tiborini jalb qila olmaydigan yoki o‘z manfaatlarini himoya qiladigan vaziyat bilan bog‘liq. Keyinchalik kattaroq yoshda, tengdoshlarga "befarq" zarar ko‘rinishi mumkin (agressiya o‘z-o‘zidan maqsad sifatida) va zo‘ravonlikning eng shafqatsiz shakllarida namoyon bo‘ladi.

Agressiya (lotincha aggressiō - hujum) - bu odamlarning birgalikda yashashi me‘yorlariga zid bo‘lgan, hujum nishonlariga zarar etkazadigan, odamlarga jismoniy va ma’naviy

¹ <https://psysami.ru/articles/agressivnoe-povedenie-doshkolnika/>

zarar etkazadigan yoki ularga psixologik noqulaylik tug'diradigan motivatsiyalangan buzg'unchi xatti-harakatlardir.

Uch yoshga kelib, o'g'il yoki qizning o'jarligi haqidagi shikoyatlar ko'proq davom etadi. Ushbu davrda 2-3 yoshli bolalar bolalar bog'chalariga kiradilar, bu erda M.D. Lisina, V.S. Muxina, L.D. Koshelevning so'zlariga ko'ra, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar tajribasi ko'proq yoki kamroq uzoq muddatli xizmat ko'rsatish va boshqalarga qaratilgan harakatlarni qo'llash jarayoni sifatida shakllana boshlaydi.

²A. Fromm uch yoki to'rt yoshda tajovuzkorlikning eng keng tarqalgan belgilaridan biri bo'lgan "transfer" hodisasining mavjudligiga ishora qiladi. Uning mohiyati shundaki, bu yoshdagi bola o'z g'azabini onasiga ochiqchasiga to'kishga jur'at etmaydi va g'azab va tajovuzkorlikni boshqa, ancha zararsiz narsaga o'tkazadi. Bola onasi va otasidan ustun bo'la olmaydi, chunki ular kattalar va haqiqiy hokimiyatdan foydalanadilar. Bundan tashqari, bola allaqachon tahdid va jazodan foydalangan holda hurmat va itoatkorlik tuyg'usini uyg'otgan. Bola juda keng doiradagi harakatlarni zo'ravonlik sifatida tasniflashi mumkin, jumladan, hatto shirinliklar, o'yinchoqlar va baland ohangda aytilgan og'zaki takliflardan mahrum qilish.

³D.Bass tomonidan taklif qilingan konseptual ramkalar bilan chegaralash juda foydaliligi barchaga ayon bo'ldi. Uning fikricha agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy verbal, aktiv-passiv, to'g'ri –egri. Ularning kombinatsiyalari sakkista ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib ko'plab agressiv harakatlar ular asosida yuzaga kelishini tushuntirish mumkin. Masalan, bir kishining ikkinchisining ustidan otib, kaltaklab zo'ravonli qilishi ham jismoniy, ham aktiv, ham to'g'ri shkala bo'yicha kvalifikatsiyalanadi. Bundan tashqari, afsuski, ayrim oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr- muhabbatidan bebahra o'sayotgan bolalar ham yo'q emas. Ba'zi oilalarda esa ota –ona farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir, albatta. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan ayniqsa, jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida bu xatti- harakatlar bolalarda agressiv xulqatvorning shakllanishiga zamin yaratadi. Bolalarda agressiya bugungi kunda ko'p kuzatiladigan muammolardan biridir. Agressivlik holati ko'pchilik kichik yoshdagi bolalarga xos bo'lib, ko'p hollarda agressiv xatti-harakat o'tish davrida, inqiroz shaklida nomoyon bo'ladi. Bola yosh davrlar inqirozi paytida birmuncha qiyinchiliklarga ro'baro bo'lishi natijasida, unda agressiyaning ilk elementlari kuzatiladi. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bog'liq o'lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprafilaktikasi bo'yicha horijda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va ulardan amalyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada, maktabgacha ta'lim muassalari xodimlari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlik juda ko'payib ketayotganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi.

Odatda boladagi tushkinlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmaydi. Aslida bunday harakatlar bolada chuqur taassurot qoldirib, bolani rivojlanishi, mana shu o'tish davridan tezroq va yaxshi o'tishida birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi.

² <https://moluch.ru/conf/psy/archive/34/2395/>

³ <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/8413/5831>

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlar turli yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkin, masalan, urish, tishlash, tepish, turtish yoki og‘zaki tajovuz. Yosh bolalarda bu xatti-harakatlar ma‘lum darajada normal ekanligini tushunish muhimdir, chunki ular hali ham his-tuyg‘ularini tartibga solish va samarali muloqot qilishni o‘rganmoqdalar. Biroq, uning namunaga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun doimiy tajovuzkor xatti-harakatlarga murojaat qilish kerak.

Bolalarda tajovuzkorlikning qanday namoyon bo‘lishi mumkin?

Kichkintoyning umidsiz yig‘lashida ifodalangan g‘azab va yana g‘azabning, sababi oddiy: bolaning fiziologik ehtiyojlari qondirilmaydi. Bu holatda tajovuzkor reaksiya omon qolish uchun kurashning reaksiyasidir.

G‘azabning paydo bo‘lishi va tengdoshga jismoniy hujum, 1,2-5 yoshli bolada o‘yinchoqlarga ega bo‘lish uchun mojarolar.

Agar bu yoshdagi ota-onalar bolaning xulq-atvoriga toqat qilmasalar, buning natijasida tajovuzkorlikning ramziy shakllari shakllanishi mumkin: yig‘lash; itoatsizlik, o‘jarlik va boshqalar.

3 yoshli bolaning qichqirig‘i, yig‘lashi, tishlashi, oyoqlarini bostirishi uning "tadqiqot instinkti" ning cheklanishi, to‘yib bo‘lmaydigan qiziqish va ota-onaning "yo‘q" o‘rtasidagi ziddiyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘g‘il bolalarda g‘azablanish, maktabgacha yoshdagi qizlarda yig‘lash, chiyillash. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda ko‘proq tajovuzkor tendentsiyalarni namoyon etadilar, chunki ular jazodan qo‘rqib, ularning namoyon bo‘lishidan qo‘rqishadi, atrof-muhit esa o‘g‘il bolalarning tajovuzkorligiga ko‘proq ijobiy va bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ladi.

Boshlang‘ich maktab yoshida o‘g‘il bolalarda eng ko‘p uchraydigan jismoniy hujumlar va qizlar o‘rtasida tajovuzning "ijtimoiylashgan" shakllari: haqorat, masxara va raqobat.

O‘smir o‘g‘il bolalar o‘rtasida jismoniy tajovuz (hujum, janjal), qizlarda esa negativizm va og‘zaki tajovuz (g‘iybat, tanqid, tahdid, so‘kinish) hukmronlik qilishda davom etmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlar turli yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bu erda bir nechta umumiy namoyishlar mavjud:

1. Jismoniy tajovuz: Bu boshqa bolalar, kattalar yoki hatto ob‘ektlarga urish, tepish, tishlash, turtish yoki boshqa jismoniy zo‘ravonlik shakllarini o‘z ichiga olishi mumkin.

2. Verbal tajovuz: maktabgacha yoshdagi bolalar g‘azab yoki umidsizlikni ifodalash uchun qo‘pol so‘zlar, baqirish yoki qichqirishdan foydalanishi mumkin. Shuningdek, ular boshqalarga nisbatan tahdidli so‘zlarni ishlatishlari mumkin.

3. Buzg‘unchi xatti-harakatlar: ba‘zi maktabgacha yoshdagi bolalar narsalarni uloqtirish, eshiklarni yopib qo‘yish yoki boshqa buzg‘unchi harakatlarni bajarish kabi buzuvchi xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin.

4. Bo‘ysunmaslik: ko‘rsatmalarga rioya qilishdan bosh tortish, hokimiyat vakillariga e‘tibor bermaslik yoki hokimiyat uchun kurashda qatnashish ham tajovuzkor xatti-harakatlarning belgilari bo‘lishi mumkin.

5. Impulsivlik: o‘ylamasdan harakat qilish, o‘z harakatlarining oqibatlarini hisobga olmaslik, impulslarini nazorat qila olmaslik ham tajovuzkor xatti-harakatlarning ko‘rinishi bo‘lishi mumkin.

Ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar uchun bu ko'rinishlarni tan olishlari va ularga to'g'ri munosabatda bo'lishlari uchun sabr-toqat, hamdardlik va yo'l-yo'riq bilan javob berishlari, maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zlarini ifoda etish va boshqalar bilan muloqot qilishning ijobiy usullarini o'rganishga yordam berishlari muhimdir.

4Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning , tajovuzkorlikning yuzaga kelishi quyidagi omillarga bog'liq;

Birinchi o'rinda oiladagi nosog'lom muhit: oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi, sababsiz ko'p janjallar, nizolardir

Farzand bilan yetarlicha vaqt o'tkazmaslik, uni muvaffaqiyatlariga befarqlik

Kattalarning munosabatlari: qo'pol so'zlar, ko'p buyruq berish, arzimagan narsaga kamsitish

Farzandini boshqa oila farzandi bilan taqqoslash

Televideniya : ko'rsatuvlar, jangari filmlar, ayrim multfilmlar

Bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlarni tuzatish bo'yicha ishlar bir necha bosqichlardan iborat:

Muammoni aniqlash, bolaning ahvoriga tashxis qo'yish

Xulq-atvorda og'ishlarni keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash

Huquqbuzarliklarni bartaraf etish usullarini aniqlash

Agressiyadan qutulish uchun ishlash

Bolada tajovuzga nima sabab bo'lishini to'g'ri aniqlash, muammo psixologik yoki jismoniy ekanligini aniqlash va tuzatishning samarali usullarini tanlash ma'lum bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassisning vazifasidir.

Bolalarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- Yostiq bilan kurashish;
- Jismoniy harakatli o'yinlar bilan shug'ullanish;
- Qog'ozlarni yirtish;
- Urishgisi kelayotgan odamni rasmini chizish va uni yirtib tashlash;
- Psixogimnastika bilan shug'ullanish va boshqalar

O'z his-tuyg'ularini aytishga qiynaladigan bolalarning agressiyasi, qasos olishdan forig' bo'lishlari uchun unda rivojlanayotgan salbiy his-tuyg'ular xavfsiz obyektlarga o'tkaziladi.

Taxminan bir xil usullar bolalarda tajovuzkor xatti-harakatni tuzatish uchun profilaktika uchun mos keladi. Bunday turdagi bola uchun faqat yaxshi so'z uning g'azabini engillashtiradi. Bunday bolani "buzilgan" deb hisoblamang. Agar siz shu tarzda o'ylashni boshlasangiz, sizda begonalashish va bolani rad etish hissi paydo bo'lishi mumkin. U ham buni albatta his qiladi va unga eng yaqin bo'lganlar orasida yolg'izlik hissi bolaning yanada qiyinlashishiga olib kelishi mumkin.

Agar bolaning tajovuzkorligini engish qiyin bo'lsa, mutaxassislardan yordam so'rashga harakat qiling: psixoterapevtlar va neyropsixiatrlar, psixologlar, o'qituvchilar.

⁴ <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/8413/5831>

⁵Bolaning o'zi tajovuzkorlikdan eng ko'p azob chekadi: u ota-onasi bilan janjallashadi, do'stlarini yo'qotadi, u doimiy g'azabda va ko'pincha qo'rquvda yashaydi. Bularning barchasi bolani baxtsiz qiladi. Bunday bola uchun g'amxo'rlik va iliqlik eng yaxshi doridir. Ota-onasi uni sevishini, qadrlashini va qabul qilishini har daqiqada his qilsin. Farzandingizga u siz uchun zarur va muhim ekanligini ko'rsating.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasida psixolog, tarbiyachi va oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, mehribonlik, g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lsa, agressiv xatti-harakatlarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlarini hal qilish sabr-toqat, hamdardlik va ularning his-tuyg'ularini va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarini boshqarishga yordam beradigan izchil yo'l-yo'riqni talab qiladi. G'azablanish, qo'rqish va shu kabi boshqa emotsiyalar insonni o'rab turgan sharoitga moslashish vazifasini bajaradi. G'azablanish odamlarda ham hayvonlarda kabi to'siqlarni yo'qotishga, maqsadiga erishishiga, o'zini himoya qilishiga yordam beradi. Shuning uchun har qanday agressiyani ko'rsatish qonun buzarlilik hisoblanmaydi. Bolalar hayotida agressiv xulq-atvor tez-tez uchrab turadi. Ulg'ayib kelayotgan bolalarda psixologik holatlar kechishiga vaqtida e'tibor berilmasa, salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari:

1. Z.Nishonova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.- T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 14-15-b
2. Rahmatullayeva M., Rashidova G., Karakulova U. XXI asrda Pedagogik
3. Texnologiyalar va Pedagogik Mahorat //Журнал Педагогика и
4. психологии в современном образовании. – 2023. – Т. 3. – №. 1.
5. Furmanov I.A. Bolalarning tajovuzkorligi. Psixodiagnostika va tuzatish. - Minsk, 1996 yil.
6. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
7. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
9. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
10. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения.

⁵<https://www.unicef.org/kazakhstan>

Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.

<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

11. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

12. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

13. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

TALABALARDA INTELLEKTUAL- IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH**Usmonova Nargiza**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Ismoiljonova Shahrizoda

Qo‘qon universiteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta‘lim tizimida talabalarda intellektual ijodiy qobiliyatni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo‘lib, talabalarda asosiy kreativ intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning hozirgi zamon ta‘lim tizimidagi darajasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ijodiy qobiliyat, kasbiy tayyorgarlik, tafakkur, ta‘lim, ijodiy ifodalash, tizimli harakatlar, ijodkorlik, tasavvur, ishtiyoq.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida, uning kelajagini belgilovchi yoshlarni har tomonlama yetuk, komil, yuksak madaniyatli va ma‘naviyatli bo‘lib yetishishini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak maxoratga ega bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy sharoitida ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini, jumladan, oliy ta‘limni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning asosiy maqsadi, ijodiy faoliyatga qodir bo‘lgan tashabbuskor shaxsni shakllantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish ta‘limni insonparvarlashtirish g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, oliy ta‘limning maqsadli tamoyillaridan biri sifatida bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini dolzarblashtirishni o‘z ichiga oladi. Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligi asoslovchi tajriba-sinovda o‘z tasdig‘ini topdi. Talabalarning intellektual salohiyati ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasi bo‘lib, ijodiy qobiliyatlarni, ta‘lim va kasbiy tayyorgarlikni, yangilik va o‘ziga xoslik bo‘lgan intellektual mahsulotlarni yaratish zarurligini o‘z ichiga oladi. Intellektual qobiliyatlar-bu shaxsning ta‘sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to‘g‘risida keng ma‘lumotlarga ega bo‘lishdir. Shunindek, tafakkur o‘zgaruvchanligi va tezkorligi, mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o‘z fikriga ega bo‘lish bilan namoyon bo‘ladi. Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta‘limning amaliy va nazariy shakllarini innovatsion didaktik metodlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi natijada zamonaviy malakali shaxsni shakllantirishga erishiladi. "Ijodkor shaxs", "ijodiy yondashuv", "ijodiy yutuqlar", "ijodiy o‘ylang", "ijodkorlikning namoyon bo‘lishi"... Ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko‘rsatkichlarini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi.

Oliy ta‘lim muassasalarini asosiy vazifasi, har bir yoshning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning tashabbuskorligi va ijodkorligini kuchaytirishdir. Bunda hamkorlik pedagogikasi- bu talaba shaxsiga yo‘ldir. Shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogika tamoyiliga asoslangan ijodiy hamkorlik natijasida va o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida

talabalarning ijodiy qobiliyatlari to'liq amalga oshiriladi. Ijodiy qobiliyatlar xususida so'z borganda, Rossiyalik olimlardan I.P Volkov, "ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish - talabalarni turli xil ijodiy faoliyat bilan tanishtirish", G.S. Alxuller - "ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish"; "ijodiy xayolot texnikasi bilan tanishtirish"; I.P. Ivanovda - " Bu ijtimoiy madaniyatni yuksaltirishga qodir, ijtimoiy faol ijodkor shaxsni tarbiyalash" - deb ta'kidlashgan. Har bir talabaning shaxsiy xususiyati, imkoniyatiga qarab ijodiy qobiliyati, ishtiyoqi, qiziqishini samarali rivojlantirish:

- yechimi aniq bo'lgan ijodiy vazifalar berish;
- pedagogik faliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga o'rgatish;
- ijodiy darslarida faoliyat turlarini samarali va qiziqarli tashkil qilishda erkin ijodiy muxitni yarata bilish;
- Mutaxassislik fanlarining amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalardagi ijodiy qobiliyatlarni faollashtirish va yo'naltirish usullari bilan amalga oshirilishi mumkin.
- Talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish ularning qiziqishi, xohish-istaklari bilan ham bog'liq.

Talabalar yangi narsalarni tezda o'rganishga moyildirlar, chunki ularning yoshi o'sib bormoqda; shuning uchun yangi narsalarni o'rganish nisbatan osonroqdir. Bundan tashqari, boshqa talabalarning ijodiy ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rish, o'quvchilarning yanada ijodiy bo'lish motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Qiziqish ko'pincha ijodiy fikrlashga olib keladi; qiziquvchan aqllar eng ijodiydir. Ijodkorlik har qanday shaxsning umumiy rivojlanishiga yordam beradi va shuning uchun talabalar innovatsion va qiziquvchan aqlni rivojlantirishlari kerak. Talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning turli usullari quyida keltirilgan:

1. O'quv faoliyatini yaratish:

Ma'muriyat talabalar uchun ijodiy fikrlashni yaxshilash uchun turli xil o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishi mumkin, masalan, ranglar va varaqlar bilan ta'minlash va o'quvchilardan xayoliga kelgan narsalarni bo'yashni so'rash yoki ko'zlarini yumib, qanday fikrlar kelayotganini kuzatish va boshqalar. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil ravishda va boshqa talabalardan o'rganish orqali ijodkorligini oshirishi mumkin. Bu mashg'ulotlar o'quvchini atrof-muhit haqida ko'proq xabardor bo'lib, ongini oshiradi. Ijodiy yozish - bu o'qituvchilar o'z o'quvchilariga berishi mumkin bo'lgan ajoyib mashg'ulotdir va ko'plab maktablarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshirish uchun bunday ijodiy tanlovlar allaqachon o'tkaziladi.

2. Ijodkorlikni oshirishga yordam beradigan turli ko'nikmalarni o'rgatish

Turli ko'nikmalarni o'rgatish, masalan, yangi dasturiy ta'minot yoki trikotajdan foydalanishni o'rgatish yoki boshqa ko'plab ko'nikmalar talabaning ijodkorligini oshirishi mumkin; shuning uchun akademik o'qitishdan tashqari yangi ko'nikmalarga ega bo'lish ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Yangi ko'nikmalarni o'rganish talabaning oldida yotgan turli imkoniyatlardan xabardor bo'ladi va bunday ko'nikmalar talabaning qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi. Ko'proq ijodiy fikrlash qobiliyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

aloqa maxorati, ochiq fikrlash, yozish, muammoni hal qilish, tasviriy san'at, 3D rasm, fotoshop, video tahrirlash, jurnal qilish, o'zimizni kashf qilish, meditatsiya qilish, o'qish.

3. Yaxshi tinglovchi bo'ling

Talabalarning ijodiy g'oyalarini tinglash ularni rag'batlantirish uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Diqqatini so'zlovchiga qaratish, sukut saqlash, yaxshi savollar berish va so'zlovchiga xalaqit bermaslik orqali yaxshi tinglovchi bo'lishi mumkin. O'qituvchi sifatida yaxshi tinglovchi bo'lish talabaning mas'uliyatini oshiradi. Ular kimdir ularni tekshirayotganini va ulardan ko'proq narsani kutayotganini bilishadi; shuning uchun talabalar tomonidan ko'proq hissa ko'rish mumkin, bu esa o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga olib keladi.

4. Talabalarni taqdirlash

Qanchalik kichik bo'lishidan qat'iy nazar, talabalar o'zlarining ijodiy g'oyalarini taqdim etganlarida ularni mukofotlang - bu ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Sinf oldida og'zaki maqtash o'quvchini mukofotlashning yaxshi usuli hisoblanadi. Talabani rag'batlantirishning ko'proq usullari orasida konfet/shokolad tarqatish, rangli ruchkalar kabi qimmatbaho kantselyariya buyumlarini berish kiradi. Talabani mukofotlash ularning motivatsiyasini oshiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

5- Fikr bildirish

Talabalarga fikr-mulohaza berish motivatsiyani oshirishi mumkin, bu ularning yaxshilik qilishi yoki yaxshilashi kerak bo'lgan narsadir; demak, fikr-mulohazalar o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning kuchli usuli hisoblanadi. Fikr-mulohazalar muammoni hal qilish uchun yaxshiroq yondashuvlarni, nima qilish va nima qilish kerakligi haqida tanqidiy fikrlarni bildirish va hokazolarni o'z ichiga olishi mumkin. Yaxshi fikr-mulohaza ushbu to'rtta savoldan iborat:

- Talaba nima qila oladi?
- Talaba nima qila olmaydi?
- Qanday qilib talaba yaxshiroq o'qishi mumkin?
- Talabaning ishi boshqalarnikiga nisbatan qanday?

6- Ijodiy ishlariga turli burchaklar berish

Talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun o'z g'oyalarini berish orqali uning ijodiy g'oyasini kengaytirish talabalarda ijodkorlikni rivojlantirishda juda samarali bo'lishi mumkin. Talabalar bir xil muammoga turli yo'llar bilan yondashishni qiyin deb bilishadi; demak, bu ijodiy fikrlashni rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun bir xil muammolarni hal qilish uchun turli burchaklarni berish ularning ijodkorligi va qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi.

7- Har kimning fikrini hamma bilan baham ko'rish

Ijodiy g'oyalarni butun sinf bilan bo'lishish foydali bo'lishi mumkin, chunki u bir mavzu bo'yicha turli nuqtai nazarlarni oshiradi. Bu usul bir vaqtning o'zida butun sinfning mahsuldorligini oshirishga yordam beradi va bu usul allaqachon ko'plab muassasalarda tez-tez qo'llaniladi. O'qituvchi barcha o'quvchilarning yondashuvlarini tushuntirganda, o'quvchi o'z navbatini kutadi, bu esa o'quvchilarda raqobat tuyg'ularini rivojlantirar ekan, ularni yanada g'ayratli va qiziquvchan qiladi. Bu o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'proq hissa qo'shishga olib keladi.

8. Bir xil real hayot muammosiga turlicha yondashuvlar

Talabalardan real hayotiy vaziyatni turli yo‘llar bilan hal qilish uchun ijodkorlikdan foydalanishni so‘rash ularning ijodkorligini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilar, shuningdek, o‘quvchilarning ongini ochish uchun muammolarni hal qilish uchun turli usullar va ijodiy g‘oyalarni taqdim etishlari mumkin.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta‘lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida amalga oshadi. Ijodiy yondashuv esa shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini to‘la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Shunday shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan biri - hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidir. Bunda ayniqsa, guruhlarda o‘qitish, muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish, individual ta‘lim asosida o‘qitish kabilar yuqori samara beradi. Ijodiy qobiliyatlar - bu turli ijodiy faoliyatning samarali bajarilganligini aniqlaydigan talabning individual psixologik xususiyatidir. Talabning faoliyatida turli ijodkorlik ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, badiiy ijodiy, mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish jarayonida ("Cholg‘u ijrochiligi, "vokal ijrochiligi", "an‘anaviy xonandalik", "dirijyorlik" fanlarini samarali o‘rganish imkonini beradi; "musiqqa o‘qitish metodikasi" va "musiqqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash" "musiqqa to‘garaklarini tashkil etish "va boshqa fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida o‘qituvchilik maxoratini shakllantirishda) kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishga oid topshiriqlarni bajarishda: asarlar ijrosida, asar mazmunini ifodalashda, slaydlar tayyorlashda, dars ishlanmalar tayyorlashda, ssenariylar tuzishda, musiqiy to‘garaklarni rejalashtirishda musiqiy diktomasiya qilishda, musiqiy foliyat turlarini olib borishda, metod va texnologiyalardan foydalanishda va pedagogik texnikani oshirishda ijodiy qobiliyati shakllanadi, rivojlanadi, va takomillashib boradi. Bunda professor- o‘qituvchining talaba bilan hamkorlikda ishlash jarayonida to‘g‘ri yo‘nalish berishi va natijani nazorat qilib borishi muhim ahamiyatga ega. Talabalar qiyinchiliklarni yengish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun jozibali istiqbolni ochadigan faol ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishning shunday texnika va usullarini tanlashlari kerak:

1. Birinchi pedagogik talablardan biri - hech qanday holatda o‘quvchining individualligini bostirish kerak emas. Ko‘pincha pedagogik vaziyatlar mavjud bo‘lib, talabalar taxmin yoki taxminni ifodalab, ularni mantiqiy asoslay olmaydilar. Biroq, ularni o‘z sezgilaridan foydalanishga harakat qilish va ilgari surilgan g‘oyani keyingi mantiqiy tahlil qilishga yo‘naltirish kerak.

2. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ularda o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni, ijodiy muammolarni hal etish qobiliyatiga ishonchni shakllantirish kerak. O‘ziga ishonmaydiganlar allaqachon muvaffaqiyatsizlikka mahkum. Albatta, bu ishonch oqlanishi kerak.

3. Shuningdek, talabalarning maqsad, vazifalar va ularni hal qilish vositalarini mustaqil tanlashga intilishlarini har tomonlama rag‘batlantirish kerak. Mustaqil harakat qilishga, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga odatlanmagan odam qaror ijodkorlik qobiliyatini yo‘qotadi.

4. Xavfli muammolarni hal qilishga moyillikning keng doirasini rag‘batlantirish kerak.

5. Tasavvurni rivojlantirish va xayolparastlikka moyillikni bostirmang, garchi u ba‘zan fantastikani haqiqat sifatida qabul qilish bilan chegaralanib qolsa ham. Ayniqsa, tashvishli dastlabki bosqichlar o‘rganish.

6. Kengroq qo‘llaniladi muammoli usullar mustaqil yoki o‘qituvchining yordami bilan yangi bilimlarni kashf qilishni rag‘batlantiradigan o‘rganish, talabning bunday kashfiyotlar qilish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

7. Talabalar ijodiyotini rivojlantirishning eng muhim sharti - o‘qituvchi bilan birgalikda tadqiqot faoliyati. Bu muammo yechilgandagina mumkin bo‘ladi, uning javobini talaba ham, o‘qituvchi ham bilmaydi.

Shunday qilib, talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish davlat ahamiyatidagi va ijtimoiy-pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi. Talabalarda asosiy kreativ intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish–hozirgi zamon ta‘lim tizimida birinchi darajali vazifadir. Yuksak intellektual salohiyatli zamonaviy bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimidagi integratsion jarayonlarni tahlili natijasida kompetentlik yondashuvi asosidagi integrativ kurslarni ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ushbu jarayonning belgilangan natijalarga erishilishini ta‘minlaydi. Integratsion jarayonning asosi sifatida kasbiy kompetensiyalar tanlanib, ular bitta yoki bir nechta integrativ kurslar doirasida shakllantirilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida, talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari ularga musiqiy asarlarni o‘rgatishda texnologik va ijodiy-tadqiqiy yondashuv asosida ta‘lim-tarbiya berishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Yangi avlod shaxsining kreativ–ijodiy rivojlanishi, unda yuksak idrok qilish faolligi bilan intellektual-ijodiy singari shunday muhim qobiliyatlarning rivojlanishi – zamon talabi, o‘quv, hayotiy, mehnatga oid va sotsial-ijtimoiy muvaffaqiyatning asosidir. Yuqori bosich talabalarining muntazam ravishda doimiy-intellektual ijodiy jihatdan rivojlantirilishi maqsad qilib qo‘yilmog‘i lozim. Talabalarning, ayniqsa, intellektual-ijodiy qobiliyatlar sohasida kreativini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan – tizimi, mazmuni, shakllari, texnologiyalari, metodlari, usullari, uslublari va vositalari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar to‘plami:

1. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017, 48-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 26.03.2021 yildagi PQ 5039-son Qarori;
3. Sharipova, G. Najmetdinov, Z. Xojdjayevlar, "Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" Darslik, "TURON-IQBOL" - 2018 yil. 28- bet.
4. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari - M, 2001y. 236 b.G.
5. Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo‘naltirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. - 128 b.
6. Safarova R. O‘quvchilarning bilim sifatini oshirish // Xalq ta‘limi. 2005. №1. - B.14-19.
7. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
8. 8..Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.

9. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
10. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 245–248. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5514>
11. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
12. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
13. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
14. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
15. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
16. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
17. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
18. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIDA O‘Z- O‘ZINI ANGLASH
XUSUSIYATLARI****Usmonova Nargizaxon**

Qo‘qon Universiteti Ta‘lim fakulteti, Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Muxammadova Dildoraxon

Qo‘qon Universiteti talabasi

Anotatsiya: Maktabgacha yosh davrida bola shaxsining shakllanishida o‘z-o‘zini anglash xususiyatlarining o‘zgaruvchan va inkulziv imkoniyatlarining oldi olish juda muhimdir. Bu davrda bolalar o‘zlarini shakllantirishda ko‘pchilik bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishlari uchun o‘zgaruvchan muhitga ega bo‘lishi zarur. Ularning o‘z fikrlarini ifoda qilishlari, o‘ylarini izohlashlari va bir-biriga qarshi munosabatlarni rivojlantirish zarur.

Kalit so‘z: inklyziv, konsepsiya, formal, noformal, ob‘ektiv, ijtimoiy muhit.

Hozirgi jadallashib borayotgan davrda "Men" muammosi tobora dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Bu insonning ahamiyati darajasini, uning zamonamizning muammolarini hal qilish qobiliyati, zamonaviy inson qadriyatlarini muammolari bilan belgilash zarurati va nihoyat, o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida idrok etish bilan bog‘liqdir. "Men" konsepsiyasi – bu insonning o‘zi haqida umumlashtirilgan tasavvuri, shaxsning o‘ziga nisbatan tartib tizimi, yoki psixologlar aytgandek, "Men" konsepsiyasi o‘zi haqidagi nazariyasi. Qayd etib o‘tish muhimki, "Men" konsepsiyasi statik emas, balki dinamik psixologik hodisasidir. "Men" konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanishi va o‘zgarishi ichki va tashqi tartib omillari bilan bog‘liq. Ijtimoiy muhit oila, maktab hisoblanib, "Men" konsepsiyasining ijtimoiylashuv jarayonida shakllanishiga ta‘sir o‘tkazadi. Bu ta‘sir nafaqat shaxsning ijtimoiylashuvining boshlang‘ich bosqichida, balki oila bolaning yagona yoki mutlaq kuchli ijtimoiy muhiti bo‘lgan paytida, shu bilan birga keyinchalik ham uning hayotida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yosh ulg‘aya borishi bilan "Men" konsepsiyasining rivojlanishida ijtimoiy tajribaning, shaxs ko‘rgan ko‘p sonli formal va noformal guruhlarining ahamiyati kuchayib boradi. "Men" konsepsiyasining rivojlanishiga juda kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Maktabda va noformal guruhlaridagi o‘zaro aloqalarning ahamiyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin, shu bilan birga, oila shaxsning ijtimoiylashuv instituti sifatida o‘smirlik va o‘spirinlik davrida ham muhim rol o‘ynashda davom etadi. Bolani ijtimoiy dunyo bilan tanishtirish, boshqa odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatish, aksariyat psixologlarning fikriga ko‘ra, o‘zi haqida g‘oyalarni shakllantirishdan boshlanadi. O‘zini anglash hamda o‘zini idrok etish muammosi psixologiyada eng qiyin muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta‘kidlashlaricha, erta yoshdan boshlab bolalar o‘zlariga - tanasiga, harakatiga, tashqi ko‘rinishiga, shuningdek atrofdagi odamlarga va ularning munosabatlariga alohida qiziqish bilan qarashadi. O‘zi haqida shakllangan g‘oyalar bolaning odamlar bilan kattalar va tengdoshlar munosabatlarining shakllanishiga hamda bolalar faoliyatining barcha turlarini rivojlanishiga ta‘sir qiladi. Psixologiyada o‘zini anglash hamda o‘zini idrok qilish muammosiga katta e‘tibor qaratildi. Psixologlar K.A. Abulxanova, B.G. Ananyeva, A.S. Arsentieva, R. Berns, A.A. Bodaleva, A.V. Ivaschenko, I.S. Kon, K. Levin, A. Maslou, K.

Rojers, S.A. Rubinshteyn, A.N. Slavskoy, E. Elkonin va boshqalar shu muammo ustida tadqiqotlar olib bordilar.

Maktabgacha yosh - bu inson hayotidagi o'ziga xos davr. Bu davr atrofdagi dunyoni faol bilish vaqti, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning ma'nosi, ob'ektiv va ijtimoiy dunyo tizimidagi o'zini anglash va idrok etishning rivojlantirish davridir. Maktabgacha yoshda bolaning o'zi haqidagi g'oyalari hamda atrofni idrok qilishi sezilarli darajada o'zgarib boradi: u o'z imkoniyatlarini yanada to'g'ri tasavvur qilishni boshlaydi, boshqalarning u bilan qanday munosabatda bo'lishini tushunadi, bu esa atrofni idrok etish va bilishni keltirib chiqaradi. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda o'zini anglashning boshlang'ich shakllari - bolaning bilishi va uning fazilatlarini, imkoniyatlarini baholash hamda o'zi uchun o'z tajribalarini kashf etish rivojlanadi. D.B. Elkonin ta'kidlashicha maktabgacha yoshdagi bola o'zini boshqalar bilan ajratishdan o'zini anglashga, ichki hayotini kashf etishga o'tadi. Bir so'z bilan aytganda o'zini idrok eta boshlaydi. Bolani kattalar va tengdoshlari bilan maxsus tashkil etilgan muloqot jarayoniga qo'shilishi bolalarning o'zlari haqidagi g'oyalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Ma'lumki, o'zini anglash va uning asosida shakllangan o'zini idrok qilish tushunchasi insonning o'zi, uning motivlari, fazilatlarini, xususiyatlarini va shaxsiyatini, barqarorligini va vaqt o'tishi bilan tuzilishining o'zgaruvchanligini tavsiflovchi boshqa ko'rinishlarini anglash jarayonidir. Insonning o'zi haqidagi g'oyalar yoki ushbu jarayonning mahsuli bo'lgan "Men" konsepsiyasi o'tmishdan kelajakgacha o'z vaqtida o'zgarib, rivojlanib boradi. O'zini idrok etishni shakllantirish g'oyasi J.Meadning har bir inson tug'ilishidanoq boshqa odamlar, birinchi navbatda, uning ota-onasi o'rtasidagi munosabatlarning ob'ekti ekanligi haqidagi g'oyasiga asoslanadi. Shuning uchun har bir bolaning o'zini anglashi hamda o'zini idrok etishining dastlabki shakllari, mohiyatiga ko'ra, u tomonidan kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyat jarayonida ongsiz ravishda sintez qiladi. O'zining qiyofasi bolalarda bolaning individual tajribasi va boshqa odamlar bilan aloqa qilish tajribasining o'zaro ta'siri sharoitida shakllanadi. Uch yoshga kelib, ko'plab bolalar o'zlarining qobiliyatlari to'g'risida juda aniq g'oyalarga ega bo'ladilar, shuning uchun individual tajriba faqat katta yoshdagina hal qiluvchi bo'ladi va maktabgacha yoshdagi bolalarda ahamiyatsiz rol o'ynaydi, deb hisoblaydigan tadqiqotchilar fikri tasdiqlanmagan. 3-4 yoshda allaqachon o'zlarining ayrim imkoniyatlarini mustaqil ravishda baholay oladigan va o'zlarining harakatlarining natijalarini boshqalarning yordamisiz to'g'ri taxmin qiladigan, faqat individual tajriba asosida ishlaydigan maktabgacha yoshdagi bolalar bor. O'z-o'zini anglash tushunchasining o'zgarishi va rivojlanishi insonning o'zida, uning o'zgarishi va rivojlanishida u yoki bu darajada voqelikda yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettirishi tubdan muhimdir. Aynan bolaligida, E. Eriksonning fikriga ko'ra, shaxsda o'zaro munosabat bolada o'ziga xos munosabatni shakllantirish uchun ayniqsa muhimdir va ularning ahamiyati uchun mezonlarni tanlashda bir qator cheklovlar mavjud. Bolaligidanoq o'zini qadrlashning mezonlari inson hayoti davomida o'zini qo'llab-quvvatlaydi va ulardan voz kechish juda qiyin. E.Erikson nuqtai nazaridan o'zini anglash konsepsiyasining rivojlanishining ikkinchi bosqichi bir yarim yildan uch-to'rt yilgacha davom etadi. Ushbu davrda bola o'zining shaxsiy kelib chiqishi va o'zini faol harakat qiluvchi mavjudot sifatida allaqachon biladi. Chunki atrof, muhit, o'zaro munosabatlar bolada ko'plab tushunchalarni yuzaga keltirgan bo'ladi. Bunday tushunchalarning idrok etilishi bola hayoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq. Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini turli majburiyatlari va huquqlari bo‘lgan va unga turli talablar qo‘yiladigan o‘quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo‘lishi lozim. Tayyorlov guruhi yoshdagi bolalar asosan maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo‘lishi mumkin. “Menga chiroyli forma va daftar, qalam, ruchkalar sotib olib berishadi”, “Maktabda o‘rtoqlarim ko‘p bo‘ladi va men ular bilan mazza qilib o‘ynayman”, “Maktabda uxlatishmaydi” kabi. Maktab tashqi ko‘rinishlari shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun asosiy motiv bo‘la olmaydi. “Men otamga o‘xshagan bo‘lishim uchun o‘qishim kerak”, “Yozishni juda yaxshi ko‘raman”, “O‘qishni o‘rganaman”, “Maktabda qiyin misollarni yechishni o‘rganaman” ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma’lum bir majburiyatlari bor bo‘lgan o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Har bir bola jamoaga qo‘shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba’zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka harakat qilish kerak. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta’minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o‘qishdagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, ko‘pincha bu yoshdagi bolalar o‘qituvchini uzoq vaqt davomida eshita olmaydilar. O‘quv harakatlariga uzoq vaqt diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga bog‘liq hisoblanadi. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan savollarini bera oladilar. Natijada ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va o‘qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshitadilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o‘qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili:

1. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Majidov, N., Abdullayev, B., & Nigmatullina, L. (2020). Psychological aspects of addiction to social media, computer and computer games. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*
2. Маслоу А. Психология бытия. // Пер. с англ. О.О. Чистякова. Рефл-бук: Ваклер, 1997.-84 с
3. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.

4. 5.Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
5. 6.Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
6. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 245–248. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5514>
7. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
8. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
10. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
11. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>
12. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
13. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
14. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**AGRESSIV XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI DIAGNOSTIKA QILISH HAMDA OLDINI OLISH
CHORA-TADBIRLARI****Usmonova Nargizaxon**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Ashuraliyev Rahmonjon

Qo‘qon universiteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada agressiv xulq-atvorning tajovuzkor xatti-harakatni tashxislashning muhim mavzusi ko‘rib chiqiladi. U odamlardagi tajovuzkor tendentsiyalarni tashxislashda qo‘llaniladigan turli metodologiyalar va yondashuvlarni ta‘kidlaydi, tajovuzkor xatti-harakatlarga yordam beradigan omillar, psixologik baholash va atrof-muhit ta‘sirini yoritadi. Maqolada tajovuzni tashxislashning ko‘p o‘lchovli xususiyati ta‘kidlangan va tajovuzkor xatti-harakatni tushunish va baholashda psixologik testlar, klinik baholashlar, nevrologik tekshiruvlar va ijtimoiy atrof-muhit tahlillarining ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: aggressiya, agressiv xatti-harakatlar, diagnostika, psixologik baholash, atrof-muhit ta‘siri, klinik baholash

Jamiyatimizda tajovuzkor xatti-harakatlar jiddiy muammo bo‘lib, har bir ishtirokchi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu jismoniy tajovuz, og‘zaki haqorat, tahdid, mobbing va boshqa zo‘ravonlik shakllarini o‘z ichiga olgan turli shakllarda keladi. Agressiv xatti-harakatlar turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, ijtimoiy tengsizlik, stress, past darajadagi ta‘lim, oiladagi zo‘ravonlik, salbiy atrof-muhit ta‘siri va boshqa omillar. U alohida shaxslarga ham, guruhlarga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin va jamoat joylarida ham, shaxsiy munosabatlarda ham o‘zini namoyon qilishi mumkin. Agressiv xatti-harakatlar jamiyat uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu jismoniy va ruhiy zararga, shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, ruhiy salomatlikning yomonlashishiga, jinoyatchilikning kuchayishiga va jamoat tartibining buzilishiga olib kelishi mumkin. Agressiv xatti-harakatlar jamiyatda turli shakllarda va turli darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu hodisaning tarqalishi ko‘plab omillarga, jumladan, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va individual xususiyatlarga bog‘liq. Mana ulardan ba‘zilari:

Ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlar: Agressiv yoki ziddiyatli ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlar ustun bo‘lgan jamiyatlarda tajovuzkor xatti-harakatlar ko‘proq bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy sharoitlar: Tengsizlik, qashshoqlik, ishsizlik va boshqa iqtisodiy omillar jamiyatda tajovuzkor xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Oila va ta‘lim muhiti: salbiy oilaviy munosabatlar, etarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaslik va etarli ta‘lim bolalar va o‘smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning rivojlanishi ehtimolini oshirishi mumkin. Media va madaniy ta‘sirilar: OAV va madaniy mahsulotlarda tasvirlangan zo‘ravonlik va tajovuz tajovuzkor e‘tiqod va xatti-harakatlarning rivojlanishiga ta‘sir qilishi mumkin.

Psixologik omillar: Ba‘zi individual xususiyatlar, masalan, o‘zini o‘zi boshqarishning pastligi, o‘zini past baholash va hissiy tartibga solish muammolari ham tajovuzkor xatti-

harakatlarga yordam berishi mumkin. Agressiv xatti-harakatlar jamiyatda keng tarqalgan bo'lsa-da, bu muammolarni hal qilishning odatiy yoki maqbul usuli emasligini unutmash kerak. Agressiyaning oldini olish va jamiyatdagi nizolarni bartaraf etish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va dasturlarni ishlab chiqish uning tarqalishini kamaytirish va hamma uchun xavfsizroq va uyg'unroq muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatdagi tajovuzkor xatti-harakatlarga qarshi kurashish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu tinchlik va bag'rikenglikni targ'ib qilishga, tajovuzga uchragan odamlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va jamiyatning barcha a'zolari uchun xavfsiz va hurmatli muhitni yaratishga yordam berishga qaratilgan ta'lim dasturlarini o'z ichiga olishi mumkin. Agressiv xatti-harakatlarning sabablarini va oldini olishning samarali usullarini yaxshiroq tushunish uchun tadqiqot va diagnostika o'tkazish ham muhimdir. Bu tajovuzkor xatti-harakatlarni kamaytirish va uyg'un va xavfsiz jamiyatni yaratish uchun maqsadli dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Agressiv xulq-atvor muammolari so'zlar, harakatlar va xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu barcha turdagi tushunchalar va urf-odatlar uchun umumiydir. Agressiv xulq-atvor muammolari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: - davolash tufayli xavfsizlik; - ishonch bilan bog'liq muammolar; - jismoniy yoki psixologik salbiy o'zgarishlar; - aloqa va aloqa usullaridagi muammolar; - o'zgarmagan xulq-atvor va boshqa muammolardagi yechimingizning muallifligi. Ularni bir kechada yo'q qilmaslik uchun aqlli bo'ling va ularni yo'q qilishdan qanday qochish kerakligini oldindan bilib oling. Agressiv xulq-atvor muammolari haqida ko'proq bilish uchun mutaxassis bilan maslahatlashing. Xulq-atvorning muammolari bilan ishlash uchun, sizning interpersonal kompetentsiyani tuzatish lozim. Bu shaxsiy xarakter va his-tuyg'ularingizni rivojlantirish orqali amaliy bilimga yoki xulq-atvorni boshqacha harakatni o'z ichiga oladi. Psixologik yordam: Agar sizga "agressive xulq-atvorning muammolari" bilan muammo bo'lsa, psixolog yordamni o'rganganingiz foydali bo'ladi. Psixolog sizning muammoingizni tahlil qiladi, sizga xulq- o'zi bilan yordam beradi va yordam beradi. Agar siz "agressive xulq-atvorning muammolari" haqida ko'proq ma'lumot olish uchun, tartibi: Xulq-atvorni ishlab chiqarish: Agar sizga "agressive xulq-atvorning muammolari" haqida ma'lumot kerak bo'lsa, hujjatlar va o'rganishga yordam berish uchun xulq-atvor berishni tushuntiruvchi materiallar, o'quvlar yoki kurslar izlang. Bu jarayon xulq-atvorni sizga yaxshilash, o'z davrining sabablari va halolatlarni tushuntiradi. "Agressiv xulq-atvor" ifodasi odamning o'zini boshqalarga qarshi yoki qo'llashga yo'l qo'yishda ko'rib chiqiladigan, qattiq, yo'qotishgina va zararli harakatlarini tozalash. Bu turgan xulq-atvorlik odamning tuyg'usi yo'l bo'lib, shaxsiyning jismoniy yoki ma'naviy holati yo'lida zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agressiv xulq-atvorlikning ko'rsatkichi va belgilari ko'p va turli bo'lishi mumkin. Ba'zilarida bu o'zini boshqalarga salbiy qo'llash, fizikaviy yoki so'zlashgan tarzda zarar yetkazish, boshqalarga yo'l qo'yima, tez tez qiyinchilik va ziddiylik ko'rsatish kabi xulq-atvorlik shakllarini o'z ichiga oladi. tajovuzkor xatti-harakatni tashxislashning muhim mavzusi ko'rib chiqiladi. U odamlardagi tajovuzkor tendentsiyalarni tashxislashda qo'llaniladigan turli metodologiyalar va yondashuvlarni ta'kidlaydi, tajovuzkor xatti-harakatlarga yordam beradigan omillar, psixologik baholash va atrof-muhit ta'sirini yoritadi. Maqolada tajovuzni tashxislashning ko'p o'lchovli xususiyati ta'kidlangan va tajovuzkor xatti-harakatni tushunish va baholashda

psixologik testlar, klinik baholashlar, nevrologik tekshiruvlar va ijtimoiy atrof-muhit tahlillarining ahamiyati o'rganilgan.

Agresiv xulq-atvorlikning sababi ko'plab omillarga bog'liq bo'lishi mumkin, masalan: Biologik omillar: Genetik omillar, nevrologik holatlar, salbiy biologik o'zgarishlar, kimyoviy tasiri va boshqa biologik faktorlar agresiv xulq-atvorni shakllantirishda o'rin olishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, tajovuzkor xatti-harakatlarning diagnostikasi shu kabi muammolar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lgan psixologlar psixoterapevtlar yoki psixiatrlar kabi malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ular nafaqat tajovuzkor xatti-harakatlarning o'zini, balki uning kontekstini ham baholashga qodir, shuningdek, har bir aniq holatning individual xususiyatlari va sharoitlarini hisobga oladi. Agresiv xatti-harakatni tashxislash tajovuz bilan bog'liq muammoni tushunish va baholashda muhim qadamdir. Diagnostika jarayonida odatda kuzatish, suhbatlar va psixologik testlar kabi turli usullar va vositalardan foydalaniladi. Mana ulardan ba'zilari:

Kuzatish: Kuzatish haqiqiy vaziyatda tajovuzkor xatti-harakatlarni ko'rish imkonini beradi. Kuzatuvchi tajovuzning tafsilotlarini, masalan, tajovuzkor xatti-harakatlarning turlarini, epizodlarning chastotasi va davomiyligini va bu vaziyatlar yuzaga kelgan kontekstni qayd qiladi.

Suhbatlar: bola yoki kattalar bilan suhbat o'tkazish tajovuzkor xatti-harakatlarning sabablari va sabablari haqida qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beradi. Suhbat davomida sub'ektiv tasavvurlar va taxminlar muhokama qilinishi va tajovuzga yordam berishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash mumkin. Agresiv xatti-harakatlar dushmanlik, zo'ravonlik yoki boshqalarga zarar etkazish yoki g'azablantirishga qaratilgan har qanday harakatni anglatadi. U jismoniy tajovuz (masalan, urish, surish), og'zaki tajovuz (masalan, qichqiriq, haqorat) yoki munosabatlardagi tajovuz (masalan, mish-mishlarni tarqatish, istisno qilish) kabi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Agresiv xatti-harakatlar turli omillar, jumladan, atrof-muhit ta'siri, ijtimoiy o'rganish, genetik moyillik yoki asosiy psixologik muammolardan kelib chiqishi mumkin. Muayyan vaziyatlar yoki stress omillariga javoban yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladigan tajovuzni va professional aralashuvni talab qiladigan surunkali yoki patologik tajovuzni farqlash muhimdir. Agar siz yoki siz bilgan kishi tajovuzkor xatti-harakat bilan shug'ullansa, yo'l-yo'riq va yordam beradigan ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassis yoki terapevtidan yordam so'rash tavsiya etiladi. Ular asosiy sabablarni aniqlashga, tajovuzni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga va sog'lom kurash mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Agar siz xatti-harakatni tashxislash bo'yicha ma'lumot izlayotgan bo'lsangiz, kontekstga qarab turli xil yondashuvlar mavjud. Psixologiya va ruhiy salomatlik sohasida mutaxassislar xatti-harakatlar muammolarini baholash va tasniflash uchun ruhiy kasalliklar diagnostikasi va statistik qo'llanmasi (DSM-5) diagnostika vositalari va mezonlaridan foydalanishlari mumkin. Agresiv xatti-harakatlar atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy, psixologik va hatto jismoniy sohalarning turli jihatlariga ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi ta'sirlarga quyidagilar kiradi: tajovuzkor xatti-harakatlar jamoalar ichidagi ijtimoiy uyg'unlik va hamjihatlikni buzishi mumkin. Bu shaxslar, guruhlar yoki jamoalar o'rtasida nizolar, nizolar va keskin munosabatlarga olib kelishi mumkin, bu esa umumiy ijtimoiy tuzilishga ta'sir qiladi.

Psixologik ta'sir: Agressiv xatti-harakatlarga guvoh bo'lish yoki boshdan kechirish odamlarga chuqur psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu qo'rquv, tashvish, stress va travma olib kelishi mumkin, bu ruhiy farovonlik va atrof-muhitdagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarga ta'sir qiladi.

Ta'lim muhiti: Ta'lim muhitida tajovuzkor xatti-harakatlar o'quv muhitini buzishi mumkin. Talabalar o'rtasida qo'rqitish yoki tajovuzkor xatti-harakatlar xavfli yoki dushmanlik muhitini yaratishi mumkin, bu ham jabrlanuvchilar, ham jinoyatchilarning akademik faoliyati va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.

Jismoniy muhit: Agressiv harakatlar ba'zan atrofdagi muhitga jismoniy zarar etkazishi mumkin. Bunga mulkni yo'q qilish, vandalizm yoki jamoat joylariga zarar yetkazish, jamoalarning jismoniy infratuzilmasiga ta'sir ko'rsatish kiradi. Uzoq muddatli ta'sirlar: Agressiv xatti-harakatlarning davom etishi uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin, jumladan, jamiyatda ishonchsizlik, izolyatsiya va jamiyatda qo'rquv madaniyati. Bu ishonchning yo'qolishiga, ijobiy o'zaro munosabatlarga va jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Umuman olganda, tajovuzkor xatti-harakatlar odamlar va jamoalarning ijtimoiy, psixologik va jismoniy farovonligiga chuqur ta'sir qilishi mumkin. Bunday xatti-harakatni tan olish va hal qilish har bir inson uchun xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va uyg'un muhitni saqlash uchun juda muhimdir. Agressiyaning oldini olish va uni boshqarishga qaratilgan sa'y-harakatlar sog'lom munosabatlar, ijobiy o'zaro ta'sirlar va shaxsiy va jamiyat o'sishi uchun qulay muhitni yaratish uchun juda muhimdir. gressiv xulq-atvorni psixologik qo'llab-quvvatlash tajovuzni boshdan kechirgan yoki namoyon bo'lgan odamlarga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Bunday hollarda foydalanish mumkin bo'lgan ba'zi strategiyalar va texnikalar: Empatiya va tushunish: Psixolog mijozga empatiya va tushunishni ko'rsatishi kerak. Agressiya turli omillar, jumladan, stress, travma yoki salbiy tajribalarning natijasi bo'lishi mumkinligini tushunish muhimdir. Ishonchli munosabatlarni o'rnatish: mijoz o'zini qulay his qilishi va psixologga ishonishi muhimdir. Bu ularga o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini ochishga va baham ko'rishga imkon beradi.

Tuyg'ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish: Psixolog mijozga his-tuyg'ularini va tajovuzkor reaksiyalarini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Bu ge'vseme texnikasi, nafas olish mashqlari va ongni saqlash texnikasini o'z ichiga olishi mumkin. Muloqot ko'nikmalari ustida ishlash: Psixologik yordam mijozlarga tajovuzkorlikdan foydalanmasdan o'z his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini ifoda etishga yordam beradigan samarali muloqot qobiliyatlarini o'rgatishni o'z ichiga olishi mumkin.

Stress omillarini aniqlash: Psixolog mijozga ularning tajovuzkor xatti-harakatlariga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar yoki omillarni aniqlashga yordam berishi mumkin. Bu ularga ushbu qo'zg'atuvchilarni bartaraf etish va ularning reaksiyalarini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Qo'llab-quvvatlash va fikr-mulohazalar: Psixologning agressiya ustida ishlash jarayonida mijozni qo'llab-quvvatlashi va uning rivojlanishi haqida fikr-mulohazalarini taqdim etishi muhimdir. Albatta, tajovuzkor xatti-harakatlarga psixologik yordam ko'rsatishga yondashuv individual bo'lishi va mijozning o'ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashtirilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki agressiv xatti-harakatlarning diagnostikasi individual moyilliklarni, psixologik baholashlarni, atrof-muhitni qo'zg'atuvchi omillarni va nevrologik omillarni hisobga olgan holda ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Klinik baholash, ijtimoiy atrof-muhit tahlilini birlashtirish tajovuzkor xatti-harakatlarning sabablari va namoyon bo'lish sabablarini chuqurroq tushunishga yordam beradi, bunday tendentsiyalarga ega bo'lgan shaxslarni yanada samarali aralashuv strategiyalari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McCloskey, M. S. va Lichter, J. B. (2003). Turmushdagi zo'ravonlikning turli munosabatlardagi o'smirlar tajovuzkorligiga qo'shgan hissasi. Shaxslararo zo'ravonlik jurnali, 18(4), 390-412.
2. Moffitt, T. E. (2006). Hayot kursi - doimiy va o'smirlik davrida cheklangan antisotsial xatti-harakatlar. D. Cicchetti va D. J. Koen (Eds.), Rivojlanish psixopatologiyasi, jild. 3: Xavf, tartibsizlik va moslashish (570-598-betlar). John Wiley & Sons.
3. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
4. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
5. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
6. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
7. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
8. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
9. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
10. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-

INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

11. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

12. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

13. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

Internet manbalar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-o-quvchilarida-agressiv-xulq-atvorning-namoyon-bo-lishi-va-uni-bartaraf-etish-mexanizmlari>

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI O‘QUVCHILARDA ADAPTATSION JARAYONLAR**Usmonova Nargizaxon**

Qo‘qon universiteti ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ibrohimova Muslimaxon

Qo‘qon universiteti amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

ibrohmovam05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktabgacha yosh davri haqida ma‘lumotlar va maktabga tayyorlov jarayonlari haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek maqolaning mazmuni shundan iboratki, bola hayotida ushbu davrning naqadar muhim davr ekanligi, kichik maktab yosh davrida bolalarda kechadigan adaptatsion jarayonlar va eng muhim masala hisoblanadigan bolaning ta‘lim jarayoniga ilk qadami qanday qo‘yilsa samaraliroq bo‘lishga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yosh davri, maktabga tayyorlov, bolalarda jismoniy, psixik, axloqiy rivojlanish, maktabga psixik tayyorlik, maktabga moslashish, adaptatsion jarayonlar.

O‘zbekiston respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma‘qullangan qonunda Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta‘limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta‘lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xususan 50-moddasida har kim ta‘lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat maktabgacha ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlashining, Ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanishi qonunlarimiz va qomusimiz bo‘lmish konstitutsiyamizda belgilab berilishi davlatimizda bolajonlarning ta‘lim olishlariga bo‘lgan yuksak e‘tiborni ko‘rishimiz mumkin.

Kichik maktab yosh davri! Bu misoli farishtadek bolajonlarning ta‘lim sohasiga, bilimlar dunyosiga qo‘yadigan ilk poyqadamlaridir. Ushbu poyqadamning qay tarzda qo‘yilishi esa jajji bolajonlarning ertangi buyuk kunlarining naqadar porloq, yoqrin bo‘lishini belgilashda katta ahamiyatga ega albatta.

Maktab! Bu maktabgacha yosh davridagi bolajonlar uchun yangi so‘z yangi olam bo‘lishi bilan bir qatorda ularning bilimlar dunyosiga kiradigan yangi hayotlari hamdir. Maktabga ilk qadamchalarning qo‘yilishi bolalarning hayotida judayam katta voqea hisoblanadi. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolajonlarning asosiy faoliyatlari o‘zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o‘qish bo‘lib qoladi. Ilk maktab yoshi davridagi bolalar uchun yangi faoliyat bo‘lgan o‘qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo‘lishlarini talab etadi. Buning uchun esa bolajonlardan barqaror diqqat, o‘tkir

zehn, mustaqillik, ishchanlik va tartibli xislatlari bo'lishi kerak. Bundan tashqari bolajonlarda maktabgacha ta'lim tashkilotidan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'ladigan munosabatlarida ham birmuncha kuzatish mumkin bo'ladi. Bolajonlarning maktabga chiqishlari murakkab bosqichdir. Shuni ham e'tiborga olish lozimki, bolajonlarning maktabga chiqishlari bilan ularning ijtimoiy holatlarida ham birmuncha o'zgarish holatlari mavjud bo'ladi. Ya'nikim, maktabgacha yosh davriga to'lgan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida "katta" deb hisoblansalar. Maktabga chiqishgach, ular yana "eng kichkinalar" qatorlariga tushib qoladilar. Bolalarning maktabga chiqishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda turib, ularni maktabga har tomonlama tayyorlash har bir pedagog va psixologlar, qolaversa ota onalar uchun eng dolzarb bo'lgan mavzulardan biridir. Bundan tashqari bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zni beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har taraflama ta'lim va tarbiya berish, ularning taraqqiyot darajalarini maktabda ta'lim ololadigan darajada rivojlantirishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, maktabdagi o'qitish ishlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida ma'lum izchillik bo'lishini talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolajonlarning jismoniy tarafdin rivojlanishiga qay darajada katta e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy rivojlanishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashg'ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, hayol hamda tafakkurlari, irodalari sistemali tarzda taraqqiy ettirilib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda birmuncha makon tushunchalari, misol uchun uzoq, yaqin, o'ng, chap, katta, kichik shuningdek, dumaloq va doira haqidagi tushunchalar, va yana shuningdek vaqt, bugun, kecha, indin, erta zamon tushunchalari haqida tasavvur va axloq tushunchalari sanaladigan hurmat, uyalish, yaxshi, yomon, rost, yolg'on kabi tushunchalar ham paydo bo'ladi. Bolajonlar bu davtda, jimoniy jihatdan ham rivojlanib boradilar. Uning nerv sistemasi, miyasi, muskullari, qo'llari yanada rivojlanadi. Bu davrda bolajonlarning xarakteri va o'ziga xos individual xususiyatlari ko'zga tashlana boshlaydi. Shunisi ahmiyatliki, barcha maktabgacha ta'lim muassalaridagi 6, 7 yoshdagi bolajonlar maktabdagi o'qishga bab-baravar tayyor bo'lavermaydilar. Bazi bolalar maktabga chiqqach, yangi muhit yangi hayotga tezlik bilan kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat etishmayotgandek ko'rinadi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o'qishga tayyor deb hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Bolajonlarning aqliy jihatdan rivojlangan bo'lishlari dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biri hisoblansada, bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil sanalmaydi. Negaki, bu yerda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining rivojlanganligidir, degan fikrlarni birdirib o'tganlar. Yetti yoshga to'lish davri go'daklikning tugashi davriga to'g'ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib tapa

boshlaydi. Shuning uchun bolalarning etti yoshga to'lgan davridan boshlab sistemali ravishda o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

K.D. Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik jarayonlarning taraqqiyot darajasi bilan emas, balki bola shaxsining umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi. Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rinadiki, bolalar o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitdan o'z o'rinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq, yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta guruh bolalari maktabga o'tishdan ancha ilgariyoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda havaslari kelib, o'zlari bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar.

Tayyorlov yoshdagi MTT bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar sistemasidan yangini egallashga bo'lgan intilishlarining konkret ifodasidir. Shunday qilib, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Bolajonlarni bu bosqichga maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishlari orqali ko'tarish mumkin. Bolajonlar yetti yoshga yetganlarida jismoniy tarafdin ancha rivojlandilar, o'zlarini idora qilishga, nojo'ya xatti-harakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladilar. Jamoada yashashga ko'nika boshlaydilar. Bolaning nutqi ma'lum darajada o'sgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladi. Yetti yoshli bolalarning his-tuyg'ulari ancha o'sadi. Xayrixohlik, rahmdillik, o'rtoqlik kabi xis-tuyg'ular mustaxkamlana boshlaydi. Bu davrda bolada turli harakatlar mustahkamlanadi, u qaychi, ruchka, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor aktivlik ancha ustun turadi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta'sir qiladigan narsalar uning diqqatini tortadi. Bu yoshda ham o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga, javobgarlikka, jamoa manfaatini ustun qo'yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchalik o'qish mehnatiga o'tish uchun zarur bo'lgan xislatlardir. O'yin jarayonida bolaning aql-idroki, zehn va boshqa psixik xususiyatlari rivojlanadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'qishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yetti yoshga to'lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o'sishi maktabda hamda oilada olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishi jarayonida amalga oshiriladi.

Ta'limga psixologik tayyorlik deganda bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirli, ravshanli, sofligi, aniqli, o'zining qiziquvchanli, dilkashli, xayrixohli, ishonuvchanli, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish

va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, o'zgacha bo'lgan, kishini taajubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish irkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga etarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi). Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi haqida gapirilganda ko'pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin yaratishini o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek, ta'lim uchun psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, uslubiy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorligining ob'ektiv tomonlarini ifodalaydi. Bola maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishning sub'ektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o'qish xohishi, intilish, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha yosh davri darhaqiqat bolajonlarning bilimlar dunyosiga kiradigan ilk eshiklari hisoblanadi. Ertangi kunlari naqadar buyuk bo'lishida esa ushbu eshikdan qay darajada kira olishlari ya'ni ular uchun yangi hayot bo'lmish bilimlar dunyosiga har tomonlama psixologik, jismoniy va ruhiy tayyor bolishlari muhimdir. Negaki ular maktab degan yangi hayotlarida qiyinchiliklarga, turli muammolarga duch kelmasliklari zarur. Yo'qsa bolajonlarda maktabga va ta'lim olishga bo'lgan adabatsion jarayonlar qiyin kechish holatlari kuzatilishi mumkin. Bu o'z navbatida bolajonlarning maktabga borishni hohlamaslik, ta'lim olishni istamaslik kabi nohush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buning natijasida esa bolaning ta'lim samaradorligi keskin tarzda paslash holatlari yuzaga keladi. Bu kabi nohush holatlarning oldini olish uchun esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, tarbiyachilarning, psixologlarning va ota-onalarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “ Ta’lim to‘g‘risida ” gi qonuni. 30.10.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son. MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING DAVLAT STANDARTINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA.
3. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.NISHANOVA, N.G.KAJVQLOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018
4. Ontogenez psixologiyasi E,G‘oziyev, Toshkent"NIF MSH"2020
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi.«Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya).- T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
6. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. Z.NISHANOVA, G.ALIMOVA . O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent – 2006.
7. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
8. Muslimaxon Ibrohimova and Nargizaxon Usmonova 2023. PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR MISOLIDA. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*. 1, 1 (May 2023), 578–580.
9. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
10. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
11. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
12. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>
13. Eshchanova, G. (2022). SOCIALIZATION OF REFORMS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. Science and Innovation, 1(8), 561-564.
14. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
15. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.

16. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
17. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
18. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
19. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
20. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**MAKTAB YOSH DAVRIDA RUHIY FAOLLIKNI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
MUAMMOLARI****Usmonova Nargizaxon**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qtuvchisi

Aliyeva Iqlimaxon

Qo‘qon Universiteti talabasi

aliyevaiqlimaxon@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari haqida bayon etilgan ya‘ni maqolamning qisqacha mazmuni shundan iboratki, boladagi ruhiy faollik holatlari, psixologik jihatdan muammoli vaziyatlarni yuzaga kelishi, boladagi ruhiy faollikni shakllantirish bosqichlari hamda maqola mavzusiga doir bo‘lgan olimlarning fikrlari berib o‘tildi. Shuningdek jismoniy aqliy va ruhiy nuqsoni bo‘lgan bolalarning maxsus maktablarda o‘qtish to‘g‘risida va ularning ta‘limida va ruhiy rivojlanishida ta‘lim beruvchi shaxsalar va ota-onalarning ro‘li va ahamiyati keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar. maktab yosh davri psixologiyasi, ruhiy faollik, psixik rivojlanish va sotsiogenetika.

O‘zbekiston Respublikasi XXI - asrda ta‘lim tarbiyani rivojlantirishda ulkan islohatlar olib borilmoqda, ta‘limning har bir bosqichida ta‘lim oluvchilarning manfaatlarini uchun ularning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida jadal rivojlanish bosqichlari shakllantirilmoqda. Yurtimiz kelajagi bo‘lgan o‘quvchi yoshlarni yuqori bilimli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga, har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida shakllantirishgan alohida ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham ta‘lim olish, bilim egallash to‘g‘risida ko‘plab moddalar keltirib o‘tilgan bulardan misol qilib 50-moddani olsak mubolag‘a bo‘lmaydi chunki har kim ta‘lim olish huquqiga ega davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlaydi. Davlat maktabgacha ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta‘lim majburiydir. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratidadir. Ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonunining 55- moddasida Jismoniy aqliy va ruhiy nuqsoni bo‘lgan bolalarni maxsus maktablarda o‘qitish to‘g‘risida qayd etilgan. Avallambor bolalarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash ta‘lim beruvchi va ota-onalarning muhim vazifasi sanaladi. Maktab yosh davrda ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak bolaning tarbiyasi u o‘nib o‘sib-ulg‘ayadigan oiladan boshlanadi. Oiladagi sog‘lom muhitning qanchalik darajada yuqori cho‘qqida turishi bilan maktab yoshidagi bolalardagi ruhiy faollik alomatlari ijobiy jihatlari bilan namoyon etila boshlaydi, bunda ota-onaning aka-ukalarning, opa-singillarning bola rivojlanishidagi ta‘sirlari bilan izohlanadi. Bolada ruhiy faollikni shakllantirish bosqichlari sekin astalik bilan birma bir amalga oshiriladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishida uning psixologik muammoli vaziyatlari vujudga kelishi

mumkin. Oilada ota-onaning farzandlariga hamda atrofdagilarga bo‘lgan munosabatidan kichik yoshdagi bolalardagi ruhiyatining rivojlanish psixologik ta‘sir kuchlarining ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rishimiz mumkin. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishda bolani aqliy tafakkurida kechadigan ruhiy kechinmalar psixologik jarayonlar muhim ahamiyatga ega ya‘ni bunday davrda bolalar tomonidan atrof olamga va atrof muhitga bo‘lgan munosabati yoki e‘tibori jumboqli vaziyatlar yoki jumboqli vaziyatlarda bolaning ruhiyatiga bo‘ladigan ta‘sirlarni to‘g‘ri yo‘nalishga solish va ularning psixologik jihatdan qo‘llab quvvatlash ota-ona, aka-opalari tomonidan to‘g‘ri tashkil qilinishi kerak deb joiz bilaman. Boladagi ruhiy faollik holatlari psixologik jihatdan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin ya‘ni qanday qilib muammoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin buni misollar oraqli ko‘rib chiqamiz oilada ota-ona, aka-opalarning va oilaga qarindoshchiligi bo‘lgan insonlar tomonidan turli vaziyatlarda uchraydigan hodisalar salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Bunday holatlarda bolaning ruhiy rivojlanishiga va psixikasiga salbiy ta‘sir qilmasligi uchun mavjud muammoli vaziyatlarni yosh bolalarning farzandlarning oldida har qanday holatda ham gapirmaslik kerak deb o‘ylayman chunki bola ruhiyatiga va undan tshaqari undagi psixologik o‘zgarishlarga tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarga ham juda ham katta ta‘siri bo‘lishi mumkin ya‘ni yosh bolaning ruhiy holatidagi o‘zgarishlar uning kelajakda qanday xarakterdagi inson bo‘lib rivojlanishida katta ta‘siri bo‘ladi deb aytsak adashmagan bo‘lamiz deb o‘ylayman. Bolada jismoniy rivojlanish bilan birga shaxs xususiyatlari, intizom, javobgarlik, ma‘suliyat va atrofdagilarga bo‘lgan hurmat kabi tuyg‘ular shakllana boshlaydi. 7-12 yoshli bolalarda tashabbus tuyg‘usi ma‘lum bir qandaydir ishlarni amalga oshirish atrofdagi o‘zidan kattalarga nisbatan muloqat tuyg‘usi, bolaning o‘z xayolot dunyosi shakllanadi shu bilan bir qatorda birga ruhiy psixologik jarayonlar kechadi. Rivojlanish jarayonida bilim va harakat usullarining o‘zgarishi murakablashishi sodir bo‘lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o‘zgarishlar va shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritsak mubolag‘a bo‘lmaydi birinchidan bola shaxsini yo‘naltirishdagi umumiy xususiyatlar, anglash, insonlar bilan munosabat o‘rnatish ikkinchisi esa faoliyatining psixologik tuzilishi va xususiyatlariga motiv va maqsad vazifalari kiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi va uchunchisi esa anglash mexanizimining rivojlanish darajasi. Bundan ko‘rinib turibdiki bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo‘lish mumkin ekan deb hisoblayman birinchidan ta‘lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, ikkinchidan egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi hisoblanadi uchunchidan shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi anglash fikirlash va boshqalar kiradi ko‘rsatilgan rivojlanish yo‘llarining har biri o‘ziga xos xususiyatlari mavjud hisoblanadi. Bu yo‘llarning barchasi o‘zaro bog‘liqlik va faqat birgalikdagina psixik rivojlanish deb hisoblasak bunda shaxsdagi o‘zgarishlar jarayonini tashkil etadi ya‘ni psixik rivojlanish bu o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan kuchlar o‘rtasidagi munosabatni qonunlarini o‘rganish bilan bir qatorda yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biri sanaladi shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayondir uning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o‘quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta‘sir ko‘rsatishning zarur shartlatidan biri sanaladi. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim hisoblanib XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan bo‘lib bola psixik

xususiyatlarining tabiati haqidagi ma'lumotlar shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etadi ya'ni ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan bo'lib uning biologik tuzilishiga teng deb hisoblanib o'tilgan, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu bilan bir qatorda xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Biz bilamizki nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi ya'ni shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan biologik omillarga bog'liqdir, deb o'ylayman.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotini emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi. Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiyajarayonida namoyon bo'lib, bazida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchimezondir, deb hisoblaydi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instanktiv mayllar jamiyatda xuddi xayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni juda ko'p jihatdan takidlab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlariva mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'kolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilibyuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekstiv birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu «Komplekslar»ni namoyon bo'lishidir. Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomidayuzuga kelgan yana bir ta'limot- sosiogenetik konsepsiya qobiliyatlarning taraqqiyotini faqat tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr Fransuz olimi K.Gelvesiy ta'limotidan boshlangan. K.Gelvesiyningta'limotiga ko'ra barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tutilishdanoq mutlaqo birxil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar, shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq, faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularningtula xususiyatlari degan taglimotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar. Inson shaxsining tarkib topishini o'rganishdavomida yuzuga kelgan sosiogenetik konsepsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilanbog'liqdir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda va oila jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi va shakllanadi Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi hamda faol a'zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy harakterga ega hisoblanadi. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlar va ruhiy faolligining rivojlaish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzuga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, harakteri, irodaviy sifatleri, qiziqishlari,

e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi. Bu borada, birinchidan, odam muhit ta'siri ostidagi passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir, Shu bois hayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qnyofasi orqali ta'sir qiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bola shaxsi faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi- o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin, lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi insonlarning ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hisoblanadi. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari hozirgi psixologiya ilmi tomonidan ko'rib chiqilgan va ko'plab tadqiqotlar bilan olib borilgan. Bu muammolar o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak, chunki maktab hayoti o'quvchilar uchun muhim va o'ziga xos davrdir. Maktab yoshdagi ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlar tomonidan birgalikda hal qilinishi kerak. O'quvchilarga qo'llab-quvvatlash, ularga tushunish va ularning o'zlarini o'zlashtirishlari uchun qo'lda tutishning o'ziga xos usullarini topish va ularni amalga oshirish bu muammolarni yechishda yordam berishi mumkin deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T
3. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Mahruzalar matni. – Toshkent
4. Alijon M, Iqlimaxon A., Muslimaxon I. Glaballashuv jarayonlari va uning zamonaviy sharoitlarida tarbiyaga ta'siri //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – №.6.S.271-273.
5. Muslimaxon Ibrohimova and Nargizaxon Usmonova 2023. PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR MISOLIDA. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. 1, 1 (May 2023), 578–580.
6. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
7. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
8. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS

TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>

9. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>

10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.

11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>

13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>

14. Umarov Toxirjon. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

16. Umarov, T. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

17. Eshchanova, G. (2022). SOCIALIZATION OF REFORMS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 561-564.

**O‘SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARNI KASBGA YO‘NALTIRISH ORQALI ULARDA IRODAVIY
SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH****Usmonova Nargizaxon**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Ibrohimova Muslimaxon

Qo‘qon universiteti amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

ibrohimovam05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davri, o‘smirlik davriga xos bo‘lgan xususiyatlar, o‘smirlik davridagi bolalarni kasbga yo‘naltirish va kasbga yo‘naltirishga oid bo‘lgan ma‘lumotlar va metodlar shuningdek kasbga yo‘naltirish orqali ulardagi irodaviy sifatlarni rivojlantirishga oid ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek anglab yetishimiz kerakki, bugungi kundagi eng dolzarb bo‘lgan muammolardan biri bu- yoshlarni kelajak hayotlaridagi o‘rinlarini belgilay olish va yurt uchun xalq uchun munosib farzand qilib tarbiyalashdir. Buning uchun esa ularni bolaligidan ayniqsa o‘smirlik davridan to‘g‘ri kasb tanlashga ko‘maklashgan holda yo‘naltira olish darkor. Buning asosida esa albatta insonning irodasi eng muhim sifatlardan biridir.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, o‘smirlik davri xususiyatlari, to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish, o‘smir davrida irodaviy sifatlari.

Kirish: O‘zbekistonda jamiyat uchun kerak bo‘lgan qobiliyatli, raqobatbardosh, ilmi kadrlarni tarbiyalash masalasi dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi. Bu masalalarni hal qilishda O‘zbekistonda ko‘plab amaliy ishlar bajarilib kelinmoqda. Eng asosiylaridan biri bu ta‘lim tizimini isloh qilish va jamiyatga kerakli bo‘lgan kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020- yildagi O‘RQ-637- sonli “Ta‘lim to‘g‘risi”dagi qonunida ko‘tarilgan va amalga oshirilib kelinayotgan say- harakatlarda o‘z aksini topgandir. Misol uchun ushbu qonunning “ta‘lim — ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon” ekanligi shuningdek ushbu qonunning 9-moddasida- Tayanch o‘rta ta‘lim doirasida (VII sinfdan so‘ng) ta‘lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi. O‘rta ta‘lim o‘quv dasturiga muvofiq ta‘lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek ta‘limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta‘minlanishi belgilab o‘tilgan. Kasb tanlashga bo‘lgan hohish bu maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan boshlanadi. Bu davrda kasblar to‘g‘risida ilk bilimlar shakllantirib boriladi. Shu sababdan ham ta‘lim tizimiga nisbatan olib olib borilayotgan islohotlar, kasb sohasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. O‘smirlik davrida albatta o‘smirni qiziqishlari doirasida kasb va hunarga bo‘lgan yo‘naltirish ishlari olib boriladi. Shuning uchun ham maktab psixologlari o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarni kasb hunar tanlashga albatta ma‘suliyat bilan yondashishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davri – bu birinchi ambivalent aptatsiya davri hisoblanadi O‘smirlik davri shaxs shakllanishining mas‘uliyatli davrlaridan biri hisoblanadi. Bu yoshda har xil kasb turlariga ma‘naviy munosabat asoslari, shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi. Bu esa o‘smirlik davridagi bolalarni turli kasblarga bo‘lgan tanlovli munosabatini belgilab beradi. O‘smirlik davridagi bolalar kattalar xulqining tashqi shakllariga taqlid etib, o‘smir bolalar kuchli, irodali, jasur bo‘lgan “Haqiqiy erkaklarning” kasblarga qiziqishlarini yo‘naltiradilar (harbiy, kosmanavt, sportchi, va h.k). Qizlar esa o‘z qiziqishlarini “haqiqiy ayollarga” jozibali, go‘zal va mashhur ayollarga yo‘naltiradilar (doktorlik faoliyati, teleboshlovchi, modeler, va h.k). romantik kasblarga yo‘nalishi ommaviy axborot vositalari ta‘sirida shakllanadi. Bunday kasbiy yo‘nalishning shakllanishiga shuningdek, o‘smirlarning o‘zini namoyon eta olishiga intilishi sabab bo‘ladi. Istalgan kasb namunalari, kasbiy orzular kasbiy shakllanishning psixologik bir bosqichi bo‘lib qoladi. Erta yoshlik davri – bu davrning asosiy vazifasi kasb tanlash. Bu realistik aptatsiya davri hisoblanadi. O‘smirning kasbiy rejaları aniq ifodalanmagan, orzu shaklida bo‘ladi. U odatda o‘zini turli emotsional yoqimli bo‘lgan kasbiy rollarda tasavvur etadi, ammo kasb tanlash bo‘yicha biror xulosaga kelmagan bo‘ladi. Aslida esa o‘spirinlik davrining boshida umumta‘lim maktabini bitirgan yigit-qizlar oldida bu muammo paydo bo‘ladi. Bu taxminan katta yoshdagi o‘smirlarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Ulardan ayrimlari boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta‘lim yurtlariga, qolganlari mustaqil mehnat faoliyatini boshlashga majbur bo‘ladilar. 14-15 yoshda kasb tanlash juda qiyin chunki kasbiy maqsadlar aniqlanmagan bo‘ladi. Kasbiy yo‘nalgan orzular va romantik intilishlarni aslida ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. Real boshlangan kelajakdan qoniqmaslik refleksiya sining ya‘ni shaxsiy “men”ni anglashni rivojlanishiga olib keladi (kim men? mening qobiliyatlarim qay darajada? men kim bo‘lmoqchiman? kimga o‘xshagim keladi?) va boshqalar. Hozirda O‘zbekistonda ham yoshlari ta‘lim va kasb bilan ta‘minlash masalasi dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi. Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o‘ziga, qolaversa ota - onasiga, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. O‘quvchini kasbni tanlashi bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘plab psixolog olimlar kuzatishgan. Ular kasbga qiziqishni klassifikatsiya qilganlar. Deylik rossiyalik olimlar kasb egasi bo‘ladiganlarni har xil davrlarga bo‘lib ko‘rsatganlar. Kudryavsev T.V. shaxsning kasb egasi bo‘lishini 4ta davrini ko‘rsatadi: 1. Kasbni tanlashga bo‘lgan uyni paydo bo‘lishi va shakllanishi. 2.Kasbiy faoliyatga tayyorlanish va kasbga o‘qish. 3.Kasbni faol o‘zlashtirish, unga kirib borish va o‘zini ishlab chiqarish kollektivida tasavvur qilish. 4. Shaxsni kasbiy mehnatda o‘zini to‘la o‘z kuchini sarf qilishi. Klimov E.A. ham kasbni tanlashni quyidagi davrlarini ko‘rsatadi: 1.Ongli ravishda kasbni tanlashga tayyorgarlik(12-17 yosh) davri. 2. Kasbga tayyorgarlik ko‘rish davri (15-23 yosh) - bo‘lg‘usi kasbga xos bilimlarni va malakalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq faoliyat. 3.Kasb taraqqiyoti davri (16-23 dan to pensiyagacha) - kasbga xos shaxslararo munosabatga kirishish va subyektni keyingi taraqqiyot davri. Psixolog va pedagoglar esa o‘quvchini kasbga yo‘naltirish davomida uni yoshiga qarab shu yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlardan kelib chiqqan holda tayyorlashi kerak bo‘ladi. Haqiqatdan ham o‘quvchi shu davrlar davomida o‘zi uchun kasb tanlab boradi. Psixologlar va pedagoglarning yordamida esa uni tan oladi. Shuningdek insonni baxtga olib keluvchi, uning yashashini yaxshilovchi - uning kasbi, ottirgan hunari ekanligini sharqning buyuk faylasuf olimi Forobiy ham o‘z asarlarida ko‘rsatib o‘tgan edi. “Juz‘iy narsalar eng yetuk baxtga-saodatga olib boruvchi fazilatli san‘at (kasb - hunar) lardir.” Bundan tashqari

o‘smirlarni kasbga yo‘naltirish orqali ularda irodaviy sifatlarni rivojlantirish juda muhimdir. Bu borada esa tadqiqotchi V.A.Ivannikov esa irodani motivasiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi, shuningdek, harakat ma'nosining o‘zgarishi hisobiga uni tormozlovchi yoki qo‘shimcha turtki yaratuvchi imkoniyat, yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi yoki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Yoshlar o‘zlariga yoqqan kasblarni tanlaganlardagina unga qiziqadilar va unda o‘zlariga foyda ko‘radilar. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnat faoliyati davomida shakllanadi va rivojlanib boradi. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo‘l-yo‘riqlarini oldindan aniqlab, ma‘lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi. Inson irodasining qay darajada rivojlanganligi maqsadni qanday ro‘yobga chiqarishida ko‘rinadi. Irodaviy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to‘siqlarga duch keladi. Ichki to‘siqlar kishining o‘ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yengib olishi, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati ichki iroda, deb ataladi. Tashqi to‘siqlar tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to‘siqlarni yengib olish layoqati tashqi iroda, deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to‘siqlarni yengib (tashqi iroda) ichki to‘siqlar (ichki iroda) ni yengib bilan uzviy bog‘liq. Iroda - insonning o‘z faoliyati va psixik jarayonlarini o‘zi boshqara olishida namoyon bo‘ladigan qobiliyati. Inson irodaviy harakatini amalga oshirar ekan, o‘ziga hukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: Iroda uchun “men xohlayman” degan kechinma emas, balki “kerak”, “bajarishim shart” degan kechinma xosdir. Irodaning muhim sifatlari: o‘zini tuta bilish, dadillik, qat‘iylik, chidam va toqat, prinsipiiallik, mustaqillik va boshqalar. Bu esa har bir insonning ma‘lum kasbni egallashida va kelajak hayotda o‘zining ma‘lum o‘rniga ega bo‘lishda muhim hisonlanadi. Iroda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo‘lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g‘oyalarga asoslangan ongli qat‘iyat bilan o‘z harakati yo‘lidagi to‘siqlarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi. Iroda kishining karakteri bilan uzviy bog‘liq, uning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shaxsda irodaviy sifatlarning ya‘ni, iroda kuchi, mustaqilligi, qat‘iyatligi kabi ayrim sifatlari turlicha namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo‘yi mustahkamlanib, oqibatda shu odamning xususiy sifatlari (ya‘ni doimiy xislatlari) bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham shaxsning bunday sifatlari uning o‘ziga xos xususiyatlari deb ataladi. Har bir kishidagi mazkur sifatlarning turlicha namoyon bo‘lishi shu kishi karakterining xislati bo‘lavermaydi. Chunki, ayrim hollarda hatto, tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko‘rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi umuman kuchli irodalilik shu kishi karakterining xislati ekanligini ifodalaymaydi. Bunday hollarda kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchi bir marta emas balki, bir necha marotaba namoyon bo‘lishini bilmoq kerak. Inson irodasi ma'lum fazilatlar bilan tavsiflanadi. Avvalo, irodani maqsadga erishish yo'lida yuzaga keladigan muhim qiyinchiliklarni yengibning umumlashtirilgan qobiliyati sifatida ajratish odatiy holdir. Maqsadingizga erishish yo'lidagi to'siq qanchalik jiddiy bo'lsa, irodangiz shunchalik kuchli bo'ladi. Aynan iroda kuchi bilan yengib o'tiladigan to'siqlar irodaning namoyon bo'lishining ob'ektiv ko'rsatkichidir. Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish boshlangan ishni oxiriga yetkaza olmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘smirlik davri va ushbu davrdagi yurtimiz kelajagi sanaladigan yoshlarni davlatimizdagi eng dolzarb bo‘lgan masalalardan biri – kasb tanlash va unga to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ularda irodaviy sifatlarni rivojlantirish eng ahamiyatli bo‘lgan masalalardan biridir. Negaki yurtimizning qay darajada taraqqiy etishi, xalq faravonlikka erishishi bu albatta irodali, hayotda o‘z o‘rnini topa biladigan yoshlar bilan belgilasak adashmagan bo‘lamiz. O‘smirlarni kasb tanlash orqali aynan ulardagi irodaviy sifatlarning rivojlanishiga e‘tibor qaratish va rivojlantirish juda muhimdir. Iroda bu insonning hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishi, maqsadga erishish qobiliyati hisoblanadi. Xususan, u xarakter, maqsadlilik, qat‘iyatlilik, matonatlilik, jasoratlilik kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Iroda insonlarning ma‘lum maqsadlarga erishishdagi ongli faollikdir. Insonlardagi iroda kuchini va irodaviy sifatlarni aniqlash uchun esa bir qancha metodlardan foydalanishimiz mumkin. Misol uchun: N.N.Obozovning “Shaxsning iroda kuchini aniqlash” metodikasidan ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan internet manbalari va adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020- yildagi O‘RQ-637- sonli “*TALIM TO‘G‘RISI*”DAGI QONUNI.
2. Kasb psixologiyasi.darslik. F.R.Abduraxmonov. Z.E. Abduraxmonova.
3. Muslimaxon Ibrohimova and Nargizaxon Usmonova 2023. PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVRO‘ZLAR KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILAR MISOLIDA. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI.1.1(may 2023)* 578- 580.
4. Y.Asadov. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”. Toshkent. 2010 yil.
5. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
6. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
7. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
8. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Perspectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
9. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
10. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

11. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
12. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
13. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
14. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
15. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
- 16.
17. <file:///C:/Users/User.AD.019/Downloads/o-smirlik-vaqtida-kasbiy-niyatlarning-shakllanishi.pdf>.
18. <file:///C:/Users/User.AD.019/Downloads/o-smirlarda-irodaviy-sifatlarning-shakllanganlik-darajasi-va-ularning-o-z-o-zini-boshqarishga-ta-sirini-o-rganish-natijalari.pdf>

BOLALARDAGI FRUSTRATSION HOLATLARDA ART TERAPIYADAN FOYDALANISH**Usmonova Nargizaxon**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ibrohimova Muslimaxon

Qo‘qon universiteti Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

ibrohmovam05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan, bolalardagi frustratsion holatlar va bunday holatlarda art terapiyadan foydalanish haqida ma‘lumotlar shuningdek, bolalarda yuzga keladigan frustratsion holatlarda, ularni oldini olishda va davolashda qanday art-terapiya usullaridan foylanish mumkinligiga doir bilimlar va frustratsion holatlar haqida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar haqida batafsil ma‘lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: frustratsiya, frustratsion holatlar, art terapiya, umidsizlik, tashvish, qo‘rquv, tuzatish, profilaktika.

Kirish: Bugungi kunda zamonaviylashib, rivojlanib borayotgan hayotimizda insoniyatning global muammolaridan biri bu - bolalarning ruhiy va jismoniy salomatligidir, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu muammoni hal qilishning ko‘plab yondashuvlari ko‘pincha oila muhitini, ijtimoiy muhitni, tibbiy yordam sifatini, bolaning kattalar bilan munosabatlarini, shuningdek, bolalarning kasalliklarga moyilligini va boshqa tashqi omillarni o‘rganishga asoslanib tahlil qilishimiz mumkin. Ammo shu bilan birga, bolalarning ruhiy salomatligiga ta‘sir qiluvchi ichki omillarga e‘tibor qaratish ham ahamiyatlidir. Bolalardagi emotsional buzilishlar, frustratsion holatlar bolalarning xatti-harakatlarida turli xil buzilish belgilari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan va kasallikning klinik shakllarini tashkil etmaydigan, lekin chegara xarakterining patologik bo‘lmagan shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab hissiy buzilishlar shuningdek bolalar hayotida frustratsion holatlar namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu buzilishlar bolaning hissiy fonida (qo‘zg‘aluvchan yoki depressiv kayfiyat) beqaror kayfiyat ko‘rinishida, xarakter xususiyatlari (ajablanadigan, g‘azablangan yoki o‘ta beparvo xatti-harakatlar kabi urg‘u) shaklida, ba‘zi bir ijtimoiy qabul qilinmaydigan xatti-harakatlar shaklida namoyon bo‘ladi. Frustratsion holatlar (tajovuz, qo‘rquv, umidsizlik va boshqalar). Emotsional buzilishlarni aniq va chuqur diagnostika qilish, shuningdek, ushbu alomatlar bo‘lgan bolalarning rivojlanishini tuzatish va prognozlash bolaning salomatligi va uning hayoti uchun, shuningdek, oila va jamiyat hayoti uchun katta ahamiyatga ega.

Frustratsiya (lot. frustratio — aldanish, rejalarining barbod bo‘lishi) — muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo‘lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U bolaning maqsadga erishishi yo‘lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo‘lmaydigan yoki sub‘ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo‘ladi. Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Frustratsiya holati frustratorning kuchiga, jadalligiga bog‘liq. Frustratsiya holatida bolaning vaziyatni to‘g‘ri baholash qobiliyati muhimdir. Shu bois bola hayotida noqulay ta‘sirlariga qarshi kurashish uchun uning fe‘l-atvoridagi barqarorlikni

shakllantirish lozim. Frustratsiya ham boshqa ruhiy holatlar singari bolaning fe'l-atvoriga xos yoki yangi xislatlarning boshlanishini ko'rsatuvchi, shuningdek, o'tkinchi holat bo'lishi mumkin. Frustratsiya asosan, salbiy hissiyotlar uyg'otadi. Frustratsiyaning turlari: tajovuzkor holat, apatiya, depressiv holat, g'amginlik tuyg'usi, o'ziga ishonmaslik, kuchsizlik, ma'yuslik va boshqa. Frustratsiyaning tajovuzkor holati ko'pincha o'zini tuta olmaydigan, qo'pol sifatarga xos bo'lsa, depressiya holati o'ziga ishonmaslik sifatlariga taalluqlidir.

Ushbu atama 20-asrning ikkinchi yarmida psixologlar tomonidan asabiy sharoitlar tufayli yuzaga keladigan stressni o'rganish uchun kiritilgan - inson o'z ehtiyojlarini yoki unga yuklangan vazifalarni qondira olmaydigan sharoitlar sifatida talqin etilgan. Bu haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib ulardan biri psixoterapiya xizmati psixoterapevti Miroslav Yasin quydagi fikrlarni bildirib o'tgan. Uning fikricha, inson hayoti davomida vaqti-vaqti bilan umidsizlikni muqarrar ravishda boshdan kechiradi. Va birinchi marta bu bolalikda sodir bo'ladi - masalan, bola ota-onasidan kutilgan maqto'vni olmaganida yoki biror narsa sotib olishni kutsa, lekin unga berilmaganda bolalarda bunday holat yuzaga kelishi mumkin. Frustratsion holatlar namoyon bo'lishining o'ziga xos yondashuvi K.Xorni izlanishlarida ham aks etgan bo'lib, muallifning fikricha, frustratsiya holatini bolalar ham, kattalar ham hech qanday salbiy reaksiyalarsiz boshdan kechirishlari mumkin. Ya'ni agar frustratsiya inson tomonidan mag'lubiyat hissi sifatida qabul qilinsa, inson o'zini o'zi kamsitish hissini boshdan kechiradi. Shuningdek, frustratsiya rohatlanish hissi sifatida qabul qilinsa, unda u inson uchun xavfsizlikni ta'minlovchi omildir va u yengil tarzda boshdan kechiriladi.

Yuqoridagi tahlillardan farqli o'laroq, E.Fromm o'zining "inson destruktivligining anatomiyasi" asarida, frustratsiya va agressivlik o'rtasidagi o'ziga xoslikka alohida alohida e'tibor berib, uni quyidagicha ta'riflaydi: —hech qanday muhim ish frustratsiyasiz bo'lmaydi, frustratsiya va nafrat bir – biridan farq qiluvchi kechinmadir. Frustratsiyaning davomiyligi agressivlikka olib kelmaydi. Ya'ni insonlar har kuni hayotiy vaziyatlardan azob chekadilar, rad javobini oladilar, chorasiz qoladilar, biroq hammaga ham agressiyalarini ko'rsatmaydilar. Frustratsion holatlarning oqibatlarini aniqlash uchun eng muhim omil bu – insonning xarakteridir. Birinchidan, frustratsiyani inson qanday qabul qiladi, ikkinchidan, u frustratsiya holatini yengishda qanchalik darajada diqqat e'tiborli va hokazo.

Art-terapiya 20-asrning 30-yillarida paydo bo'lgan. Bu atama birinchi marta rassom Adrian Hill tomonidan ishlatilgan. Zigmund Freyd va Karl Yung badiiy terapevtik usullarga asos solib, chizish ongsiz ruhiy jarayonlarning natijasi ekanligini tushuntirdilar. A.Maslou, R.Mey va K.Rojers ijodiy salohiyat faolligini uyg'otish asabiy taranglikni pasaytiradi va ichki ziddiyatlarni yengishga yordam beradi, deb hisoblagan. Shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini individuallashtirish, bolalarning hissiy va shaxsiy muammolarini oldini olish va tuzatish, vizual va ijodiy faoliyat vositalari orqali o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi bilish qobiliyati orqali shaxsni uyg'unlashtirish art-terapiyaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Art-terapiya san'atning psixologik ta'sirini bildiradi va ijtimoiy, pedagogik va psixologik ishlarda badiiy izlanishlar orqali inson ruhiyatini uyg'unlashtirish va rivojlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Art-terapiya bolalar bilan ishlash ayniqsa bolalardagi frustratsiya holatlarida, bunday holatlarning oldini olish va davolash uchun eng mos keladigan metodlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bolaning ichki "men" holati

uning ijod mahsullarida aks etishi, uni haddan tashqari keskinlik va ichki ziddiyatlardan xalos qilishiga asoslanadi. Chizish orqali bola nafaqat haddan tashqari hayajon, tashvish, tajovuzkorlik va atrofidagi dunyoga ishonchsizlikni kamaytirish, balki o'ziga ishonch va muvaffaqiyatga erishish, shuningdek, ijobiy tajriba va u bilan bog'liq xatti-harakatlar namunalarini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Art-terapiyaning kontrendikatsiyaga ega bo'lmagan tuzatuvchi va profilaktik imkoniyatlari bolaga o'zini o'zi tasdiqlash va uning "men" ni bilish imkoniyatini berish bilan bog'liq. Bola tomonidan yaratilgan xayoliy ijodiy mahsulotlar boshqa muhim odamlar (qarindoshlar, ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar) bilan muloqot qilish va munosabatlarni o'rnatish jarayonini osonlashtiradi, frustratsiya holatida o'z his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi, izolyatsiya, tashvish, qo'rquvni yengishga yordam beradi. Shuningdek, psixologik jarohatlarni yengillashtiradi va yo'qotishlar, nizolarni boshqalar bilan ham, o'zi bilan ham hal qilishda samarali yordam beradi. O'zini o'zi qabul qilish va o'zini o'zi qadrlash darajasi, bolaning o'zini o'zi qadrlash darajasi boshqalar tomonidan uning ijodiy faoliyati natijalariga aniq qiziqish uyg'otadi, ular vizual ijodning turli mahsulotlarini qabul qiladi. Bolalar chizmalar, rasmlar, kichik haykallar ustida ishlashlari ulardagi frustratsiya holatlarida, jumladan g'azab, tajovuz, qo'rquv, umidsizlik uchun ijtimoiy jihatdan mumkin bo'lgan va maqbul chiqish turli xil badiiy terapevtik usullarni qo'llash orqali ta'minlanadi va hissiy hissiyotlardan xalos bo'lishning xavfsiz va samarali usuli hisoblanadi. Bunda bolalarda mushaklarning kuchlanishi holatlari kuzatiladi. Negaki, ongsiz ichki nizolar va kuchli his-tuyg'ularni og'zaki tuzatish jarayoni orqali ifodalashdan ko'ra, ko'pincha ijodiy tasvirlar orqali ifodalash osonroqdir. Kattalar uchun bolalar bilan ishlashda art-terapiya talqin qilish, diagnostik xulosalar uchun material olish imkoniyatini beradi va bolalarning muayyan xatti-harakatlarini moslashtirish uchun tezkor ta'sir ko'rsatadigan juda moslashuvchan yondashuvlarga ega. Empatiya va o'zaro qabul qilish munosabatlarini yaratish kattalar va bolaning badiiy terapevtik faoliyatida birgalikda ishtirok etishi bilan yordam beradi. Axir, bolalar uchun ijodiy faoliyat o'zini namoyon qilishning yaqin, tanish va qulay usuli bo'lib, ular bunday paytda o'zlarini erkin his qilishadi, bundan tashqari, ular uchun badiiy terapevtik mashqlar ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan o'yin turidir. Ijodkorlik orqali ishonchli o'zaro munosabatlarning bir qismi sifatida o'qituvchi yoki ota-ona bolaning ichki tajribalari, his-tuyg'ulari va his-tuyg'ulariga e'tiborini qaratishga va ularni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Chizmalar, rasmlar yoki modellashtirish ustida ishlash hajmi, rangi va shakllarini tartibga solishni o'z ichiga olganligi sababli, bu bolalarga ichki o'zini o'zi boshqarish tuyg'usini shakllantirishga imkon beradi. Kattalar tomonidan bolaga badiiy terapevtik ta'sirning bir xil darajada muhim mahsuloti yashirin iste'dodlarni aniqlash va ularni yanada rivojlantirish natijasida paydo bo'ladigan qoniqish hissidir. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar uchun art-terapiya o'z farzandlari bilan konstruktiv munosabatda bo'lishni, ularning do'sti bo'lishni, ularning haqiqiy ichki imkoniyatlarini ko'rishni va bo'sh vaqtlarini ularga bag'ishlashni o'rganish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Psixologik va pedagogik amaliyotda art-terapiyaning passiv va faol shakllari ma'lum. Bolaning turli vaqt va harakatlar ustalari tomonidan yaratilgan san'at asarlariga qiziqishi passiv shakl bo'lib, u rasmlar, fotosuratlariga qiziqish bilan qaraydi, kitob o'qiydi, musiqa tinglaydi. Mustaqil ravishda yoki boshqa bolalar va o'qituvchilar bilan birgalikda turli xil ijodiy mahsulotlarni yaratish bolaning hissiy rivojlanishiga badiiy-terapevtik tuzatish ta'sirining faol

shakli hisoblanadi. O.A. Karabanova bolaning tabiatga xos bo'lgan ichki ijodiy salohiyati va ijodiy qobiliyatlaridan foydalangan holda, badiiy terapiya yordamida psixologik tuzatish mexanizmini yaratish mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa san'atning o'ziga xos ramziy ko'rinishida tasvirni qayta tiklashga imkon beradi.

Bolalardagi frustratsiya holarlarida, ularni oldini olish va davolashda foylanish mumkin bo'lgan bir qancha art- terapiya usullari.

"Kaft va barmoqlar bilan chizish" art-terapiya usuli hissiy sohani to'g'rilashning qiziqarli usulidir. Agar bola ilgari hech qachon kaftlari yoki barmoqlari bilan rasm chizmagan bo'lsa, unda bunday qiziqarli ijoddan u nafaqat bo'yoq va qog'oz bilan aloqa qilganda g'ayrioddiy sezgir hislarni, balki o'chmas va yorqin taassurotlarni ham oladi. Ushbu texnikani qo'llash jarayonida nozik vosita mahorati va qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish rivojlanadi va hissiyotlar boyitiladi. Bola yangi hayotiy tajribaga ega bo'ladi, u o'zining ichki dunyosini g'ayrioddiy tarzda aks ettirish qobiliyatini rivojlantiradi, ijodiy salohiyatini ochib beradi. Bunday tasvir jarayoni bolaga xos bo'lmaganligi sababli, u, albatta, unga befarq bo'lolmaydi va shuning uchun u boshdan kechirgan barcha his-tuyg'ular va u olgan natija bu vaziyatda atipikdir. Shuni ta'kidlash kerakki, qattiq ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lgan ba'zi bolalar uchun ushbu chizish texnikasini boshlash juda qiyin. Bunday bolalar uchun "barmoqlarni bo'yash" texnikasi hissiy siqilish, tashvish yoki depressiyaning g'ayrioddiy oldini olish va tuzatish bo'lib xizmat qilishi mumkin.

"Quruq barglar bilan chizish" art-terapiya usuli – qog'oz varag'ida turli rangdagi qoraqarag'ay yoki rovon barglari bilan bo'yalgan bosma yordamida, kichik chinor barglaridan g'ayrioddiy quyosh yoki osmonda uzoq yulduzlarni yaratish mumkin. Ushbu uslub bolalarga frustratsion holatlar noqulaylik, siqilish, negativizm bilan kurashishga yordam beradi, yangi makonga moslashish jarayonini rag'batlantiradi va muvaffaqiyat tuyg'usini beradi. Nostandart, yorqin rangli psixo-emotsional vaziyatda bolalar bilan ishlashda foydalanish dam olishga, mushaklarning kuchlanishini yengillashtirishga, frustratsiya holatlari, qo'rquv, tashvish, umidsizlikni boshdan kechirishni to'xtatishga imkon beradi va varaq nashri bergan tasvir uni o'zgartiradi, quvonchli rang-barang rangga aylantiradi. Natijada esa bolada mo'jiza, quvnoq kayfiyatni ko'rish mumkin bo'ladi. Ushbu ijodkorlik jarayonida siz musiqa terapiyasidan foydalanishingiz mumkin; bolalar tabiatning turli xil tovushlarida ishlashlari mumkin: suv oqimining ovozi, yomg'ir, dengiz to'lqini kuchi bilan yuvilgan dengiz toshlarining tinch shovqini, jarangdor chiyillash qushlarning shov-shuvi, tog' oqimining ko'pirgan shovqini va boshqalar.

"Plastilin bilan chizish" art-terapiya usuli-giperaktiv, xavotirli, tajovuzkor va hissiy jihatdan bostirilgan umidsizlikka tushib qolgan bolalar bilan ishlashda juda ahamiyatlidir, chunki u kichik hajmli yoki yarim hajmli tasvirlarni yaratish jarayonida qat'iyatlilik, diqqatni jamlash va ma'lum miqdordagi jismoniy kuch talab qiladi. Ushbu texnologiya 6-7 yoshli bolalar uchun qiziqarli, chunki u tasodifiy, sezilmas tarzda ichki muammolarni "yechishga" yordam beradi, ularni ijodiy va o'ynoqi, hayajonli va ayni paytda bola uchun tabiiy shaklda hal qiladi. o'zining "plastik qo'rquvlari", qayg'u, tajovuzkorlikni haykalga solish va chizish va to'plangan tajribalarini va ilgari gapirish mumkin bo'lmagan narsalarni baland ovozda gapirish mumkin bo'ladi. Plastilin bilan rasm chizish orqali bolada kuchli irodali shaxsiy xususiyatlar ham rivojlanadi, chunki u asta-sekin tajovuzkorlik yoki qo'rquv, umidsizlik darajasini kamaytirishni, hamda ijodiy faoliyatni

bosqichma-bosqich rejalashtirishni ham o'rganadi. Uning mantiqiy xulosasida nima boshlangani va nima qilinganiga etiborli bo'lish kerak. Emotsional stressni bartaraf etish uchun plastilinni nafaqat qog'oz varag'iga, kartonga yoki plastmassaga surtish mumkin, balki katta bo'laklarga va mayda bo'laklarga bo'linib, kuchli ezilishi va keskin tortilishi mumkin. Bu esa bolada to'plangan aggressiya, tashvish va umidsizlikni bo'shatish uchun kerakli darajada plastilin bilan harakat qilishi mumkin, toki u o'zida ishni to'xtatish va tugatish istagini his qilmaguncha. Bola o'zidagi frustratsiyani haykalga solib, keyin uni maydalashi yoki tekislashi, to'g'rilashi mumkin, yoki bola yorqin ranglar va quvonchli tafsilotlarni qo'shib, haykalchani yoki rasmini quvonch va baxtga aylantirishi mumkin. Umumiy art-terapiya va izoterapiyadan foydalanishning afzalliklari va muvaffaqiyati shundaki, bolalarning frustratsiyalarini, emotsional buzilishlarini tuzatish jarayonida siz har doim eng yaqin va qiziqarli metodni tanlashingiz mumkin. Ya'ni asosiy narsa samaradorlikni oshirgan holatda, bolaning nafaqat ijodiy mahsulotni yaratish jarayonida, balki uning yakuniy natijasiga ham bevosita qiziqishini hisobga olishdir. Ijodiy ishni yaratishda bola noqulaylik yoki qiyinchilikni boshdan kechirmasligi kerak, mashg'ulot paytida u hissiy farovonlikni his qilishi, qulay muhitda bo'lishi va u uchun qiziqarli bo'lishi kerak, chunki u diqqatni ushlab turishi muhimdir. Art-terapiya jarayonida g'ayrioddiy tajribaga ega bo'lgan holda, bolaning ongini nazorat qilish qobiliyati pasayadi va u o'zi bilmagan holda, psixologik himoya mexanizmlari zaiflashadi yoki butunlay o'chadi, o'zini ifoda etish erkinligi va ongsiz ma'lumotlar paydo bo'ladi. Agar bola o'zini to'satdan zaif, himoyasiz his qilsa va unga mavjud bo'lgan psixologik mudofaa usullari bilan munosabatda bo'lganda, har qanday noqulaylik, hatto xayoliy bo'lsa, u holda hozirgi muammoni hal qilish uchun badiiy terapevtik metodni o'zgartirish haqida o'ylash kerak. Har bir bola uchun texnologiyani tanlash individualdir. Biri egiluvchan plastilinga qiziqish bildirsa, ikkinchisi turli xil daraxtlarning rangi va barglarini tanlashdan xursand bo'ladi. Bu erda muhim moment, kattalarning e'tibori, albatta, bolani ma'lum bir davrda zarur bo'lgan materiallar bilan kerakli manipulyatsiyaga yo'naltirishi mumkin bo'ladi, chunki barcha istisnosiz izoterapiya usullari nafaqat nozik vosita mahoratini rivojlantirishga qodir. Nutq, taktil sezgilar darajasini oshirish va barmoq uchlaridagi asab tugunlarini rag'batlantirish, shuningdek, ijobiy his-tuyg'ular bilan zaryadlash, asab tizimini tinchlantirish, giperaktivlikning namoyon bo'lishini susaytirish, fikrlash qobiliyatini va dunyoni tushunish istagini kuchaytirish, ijodkorlikni rivojlantirish, fantaziya va tasavvur, ochiq bo'lish, improvizatsiya qilish va his-tuyg'ularni so'zsiz ifodalash qobiliyatini rivojlantirishda, frustratsiya holatlarida, umidsizlikda, qo'rquv, tajovuzkorlik, uyatchanlikdan xalos bo'lishda va o'z "men"nini qabul qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa: xulosa qilib aytadigan bo'lsak, darhaqiqat bugungi kundagi eng dolzarb bo'lgan mavzulardan, muammolardan biri bu - bizning ertamiz bo'lgan yoshlarda kuzatiladigan frustratsiya holatlari deyishimiz mumkin. Negaki davlatimizning ertangi kunda qay darajada rivojlanishi, ravnaq topishi bugungi kun yoshlariga bog'liq albatta. Bolalarning yurtimizning rivojiga qay darajada hissa qo'sha olishlari esa bu ularda yuzaga keladigan frustratsiya holatlariga qay darajada javob bera olishlari bilan bog'liq jarayondir. Ma'lumki frustratsiya asosan salbiy hislarni namoyon etadi. Bundan hislarga yengilish yoki berilish bu yomon holat shubhasiz. Lekin shuni ham inobatga olish lozimki, hech bir muhim ish frustratsiyasiz bo'lmasligi haqida olimlar tomonidan bildirilgan va hayotimizda ko'rishimiz mumkin bo'lgan holatlar mavjud. Frustratsiya

holatlari har bir bola hayotida kuzatilishi mumkin bo‘lgan holatdir. Shunchaki bunday holatga to‘g‘ri baho bera olish va yechim topa olish ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va internet manbalari:

1. Kiseleva, M.V. Bolalar bilan ishlashda art terapiya. M.V. Kiseleva. - Sankt-Peterburg. : Nutq, 2014. – 160 b.
2. Osipova, A.A. Umumiy psixokorreksiya: universitet talabalari uchun darslik. A.A. Osipova. – M.: Sfera, 2004. – 510 b.
3. Muslimaxon Ibrohimova and Nargizaxon Usmonova 2023. Pedagogik jarayondagi nevro‘zlar kichik maktab o‘quvchilar misolida. Qo‘qon universiteti xabarnomasi.1.1(may 2023) 578- 580 b.
4. Raximjonovna, u. n. (2023). O‘smir yoshidagi o‘quvchilarda “tarbiya” fanini o‘qitish orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatish. *finland international scientific journal of education, social science & humanities*, 11(6), 232-237.
5. Asilova, s. x. (2023). O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.
6. Xursanov, o. (2023). Talabalarni hamkorlik texnologiyasi asosida o‘quv - ma‘naviy moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirish texnologiyasi (1 - kurs talabalari misolida). *educational research in universal sciences*, 2(12), 264–269.
7. Asilova, S. X. (2023). O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
8. Alijon, M., Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). TA'LIM JARAYONIDA ISH STRESSI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARGA PSIXOLOGIK YECHIM. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 854-860.
9. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. *Interpretation and researches*.
10. Xatamboevna, A. S. (2024). O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 7(1), 16-20.
11. Asilova, S. X. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 2(8), 12-16.
12. Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 770-772.
13. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 861-864.
14. Xatamboevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 344-350.

15. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
16. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
17. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1-6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
18. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
19. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
20. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNING BILIM VA
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI****Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

nargizavaliyeva1992@gmail.com**Omonova Maftuna**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

maftunao149@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, jamiyatda pedagoglarning kasbiy kompetentligini hamda intellektual salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish, o‘z kasbini yetuk mutaxasisi bo‘lib yetishishlari uchun xalqaro tajribalardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida bo‘ljak pedagoglarni o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuv asosida dars tashkillashlari to‘g‘risida fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘z: zamonaviy ta‘lim, pedagogik texnologiya, kompetentlik, ta‘lim, tarbiya, pedagogik tajriba, rivojlanish.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan¹. Xorijiy tajribalar tahlili asosida bo‘ljak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta‘limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘ljak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta‘lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta‘lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda xorijiy tajribalar asosida ta‘lim tizimidagi asosiy islohotlar olib borilishi katta ahamiyatga ega. Yaratilgan imkoniyat yosh o‘qituvchilar uchun keng salohiyat malaka va ko‘nikma eshigini ochadi. Bu borada mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta‘lim tizimi uchun bo‘ljak yosh o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari

¹ <https://uzpfiti.uz/2022/10/06/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-2020-yil-27-fevraldagi-pedagogik-talim-sohasini-yanada-rivojlantirish-chora-tadbirlari-togrisidagi-pq-4623/>

imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada bo‘lajak pedagoglarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy pedagogik tajribalar asosida yosh o‘qituvchilar mahoratining shakllanishi o‘qituvchi shaxsining yo‘nalishlari-o‘quvchiga munosabati, ta‘lim jarayoniga, ta‘limning mazmuni va mohiyatiga munosabat, ta‘lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rnini tushunish, ta‘lim va tarbiyada mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim ro‘l o‘ynaydi. Shuning uchun bugungi kunda biz o‘qituvchi kompetentligi haqidagi fikrlarni takror va takror tilga olmoqdamiz. Barcha pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” so‘zining izohli ma‘nosi berilib, ingliz tilidan olingan “competence” - tushungan, qobiliyatli ma‘nosini anglatadi. Mazmunan esa, “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” degan tushunchani anglatadi. Hozirgi kunda respublikamizda ro‘y berayotgan islohotlar bevosita innovatsion ta‘lim tizimi bilan bog‘liqdir. Yangi invitsitsiyalar asosida tajriba almashish bugungi kundagi muhim amaliy ko‘nikma. Bu orqali pedagog o‘qituvchi modellini shakllantirish yuzaga keladi. O‘qituvchi o‘zidagi yetarli va zamonaviy bilimlar asosida yangi avlod tarbiyalashni boshlandi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar: dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish; tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi; insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma‘naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish; axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish; yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish; sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Yaxshi natijalar ko‘rsatish uchun hech bo‘lmaganda o‘qituvchi ikki maqsadga ega bo‘lish kerak: Birinchisi, o‘qituvchilar va ular ishlaydigan va foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir:

1. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish.
2. Ta‘lim va tarbiya jarayonining mohiyati.
3. Ta‘lim va tarbiyaning asosiy funksiyasi.
4. Didaktika va tarbiya jarayonining asosiy kategoriyalari.
5. Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va talabaning hamkorligi.²

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, pedagogik mahorat haqida umumiy ma‘lumot, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallab olishga imkon yaratib beradi.

² <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tajribalar-tahlili-asosida-bo-lajak-pedagoglarni-hayotiy-ko-nikmalarni-rivojlantirish-omillari>

Shuningdek, maktab amaliyotida va pedagogik fikr tarixida o‘qituvchining mahorati masalalari, pedagogika qobiliyat, o‘qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati va o‘quvchining psixologik faoliyati, pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari, darsda va tarbiya jarayonida o‘qituvchi mahorati, o‘qituvchi mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari, pedagogik tajriba orttirishi, tadqiqot metodlari; hozirgi ta‘lim muassasalarida ilg‘or pedagogik g‘oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo‘llari, pedagogik mahorat taraqqiyoti tarixi, mustaqil malaka oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish o‘quv- tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, o‘qituvchi faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslarini o‘rganish, tahlil etish to‘g‘risida boshlang‘ich ma‘lumotlar berishni nazarda tutadi. Pedagogik mahorat fani yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashini, shuningdek, pedagogik shaxsi uning tajribasi, fuqaro‘lik va kasbiy mavqeini o‘rgatadi. “Pedagogik mahorat” fani “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Yosh pedagogikasi va psixologiyasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Pedagogik texnologiya”lar bilan birgalikda bilim va malakalar tizimini yaratadi³. Pedagogik mahorat fanining maqsadi bo‘ljak o‘qituvchiga hozirgi zamon pedagogika sohasidagi dolzarb muammolarni, o‘qituvchi shaxsi va kasbi haqidagi bilim va malakalarni hamda har bir tarixiy bosqichda ta‘lim-tarbiya tizimi, ijtimoiy-pedagogik fikrlar, ta‘lim-tarbiya mazmuniga ijodiy munosabatda bo‘lishini o‘rgatadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti – “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun talablaridan kelib chiqib, o‘z sohasini mukammal egallagan, bilimdon, axloqan pok, ma‘nan etuk, jismonan sog‘lom bo‘lgan pedagoglarni tarbiyalashdir.

Xulosa qilib aytganda maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va hayotiy maqsadlarni belgilashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu bo‘ljak pedagoglarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Demak, bo‘ljak pedagoglarni o‘quvchilarda, avvalo, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini boshqara olishi ham juda muhim sanaladi. Ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun kasb hunarga o‘rgatish, mehnatkash, sabr toqatli, qat‘iyatli va tirishqoq qilib tarbiyalash o‘quvchilarda hayotiy maqsadlarini belgilashda ancha qo‘l keladi. Shu bilan bir qatorda mustaqil shug‘ullanishlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati ham rivojlangan bo‘lishi kerak. Ko‘proq badiiy adabiyotlar mutolaa qilishi asosiy mezonlardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Darslik. - T.: Sano-standart, 2017.
2. Umumiy pedagogika: Darslik / O.Musurrnonova va boshq. I-qism. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 376 b.
3. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" Farmoni // O‘zbekiston

³ <http://library.navoiy-uni.uz/files/a.xoliqov.pedagogik%20mahorat.pdf>

Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - T., 2017. - 6-son. - 70-modda. - 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

6. Axrarova Z., Sadikova Sh., Sodikov U., Allayarova S., Shodmonov Sh. Umumiy pedagogika: Barcha ta'lim yo‘nalishlari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: Mumtoz so‘z, 2020. - 331 b.

7. Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinflarga ta‘lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. qo‘qon universiteti xabarnomasi, 581-583

8. Nargiza, V. (2023). Tarbiya jarayonida oila mahalla hamda ta‘lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 637-639.

9. Moxira, T. (2024). Boshlang‘ich sinfda ta‘limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish. yangi o'zbekistonda ijtimoiy-innovatsion tadqiqotlar, 2(1), 67-71.

10. Shokirjon o‘g‘li, A. D. (2023). Boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarning maqsad va vazifasi. qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 658-660.

11. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o ‘rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. qo‘qon universiteti xabarnomasi, 661-663.

12. Moxiraxon, T. (2024). Bolalarda dunyoqarashni shakllantirishda badiiy asarlar va ularni sahnalashtirish faoliyati. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 194-198.

13. Tojkarimova, M. A. (2023). Boshlang ‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar. Educational Research in Universal Sciences, 2(16 SPECIAL), 824-828.

14. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

15. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.

16. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

17. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>

18. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/79>

19. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18-25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
20. Тохиржон, У. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
21. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARI USTIDA ISHLASH
USULLARI****Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

nargizavaliyeva1992@gmail.com**Nazarova Mashhura**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kelishik shakllarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi, bunga sabab bo‘luvchi omillar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, har xil dialektlarda kelishik qo‘shimchalarining turli variantlari uchrashi, ularning xususiyatlari har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli ham ularni adabiy me‘yor nuqtayi nazaridan o‘rganish tilning noaniq jihatlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini ta‘minlashi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, kelishik qo‘shimchalar, metodika, boshlang‘ich ta‘lim, so‘z turkumlari, turlanish.

Kirish:

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi pedagogik fanlar qatorida o‘quvchilarga boshlang‘ich til asoslarini o‘rgatish, adabiy ta‘lim orqali borliq va jamiyat haqida tushuncha berish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish kabi amaliy ishlar nazariyasini ishlab chiqadi.

Ma‘lumki, 2020-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev jahon miqiyosida “ O‘qish va uni tushunish sifatini” bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot dasturini o‘rganish bo‘yicha talim muassalariga ko‘rsatma berdi. 2021-yildan Pisa va Pirls nazorat dasturida ishtirok etish rejalashtirildi. Ta‘lim sifatini jahon standartlariga javob bera oladigan darajaga ko‘tarish o‘qitish shakllari, metodlari va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.¹

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunlari va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ga muvofiq “Ona tili” fanini o‘qitish oldiga butunlay yangi maqsad va vazifalar qo‘yilmoqda.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, kichik maktab yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning pedagogik asoslarini mukammallashtirishga xizmat qiladigan qator ilmiy qarashlar, pedagogik nazariyalar shakllanganki, ular xarakteriga ko‘ra unitar (yakka) holatdagi, an‘anaviy (predinelli) ta‘lim turidan farqli o‘laroq shaxs kamolotini, uning barkamol shakllanib rivojlanib borishini ta‘minlashga xizmat etuvchi ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish imkoniyatini beradi. Sohalar bo‘yicha ta‘lim mazmunining negizini belgilovchi ko‘rsatgichlar boshlang‘ ta‘limning Davlat standartlarida berilib, ularda boshlang‘ch ta‘lim jarayonidagi uzviylik, fanlararo aloqadorlik, ta‘limning insonparvarlik, milliylik kabiy tamoyillari o‘z aksini topadi.²

¹ S.Matchonov, H.bakiyeva, X.G‘ulomova, sh.Yo‘ldoshev, G.xolboyeva “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi darslik” Toshkent-2021 bet-7

² BOSHLANG‘ICH TA‘LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI Fan dasturi 3- bet

Asosiy qism. “Ona tili” fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o‘z fi krini erkin va ta’sirli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an’analarimizga, boy ma’naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

2006-yilda Xu Yushu “Zamonaviy xitoy tili” kitobida kesim-to‘ldiruvchi guruhi ikki qismdan iborat bo‘lib, ular o‘rtasida hokim va tobelik kabi munosabatlar mavjud deb hisoblagan. 2007-yilda Chju Dexi “Grammatika bo‘yicha ma‘ruzalar” asarida kesim va to‘ldiruvchi ma‘no va tuzilish jihatidan chambarchas bog‘liqligi haqida so‘z yuritar ekan, ularning o‘rni gapda doim yonma-yon va bir biriga mutanosib holda joylashish pozitsiyasiga egaligi haqida fikr bildirgan³.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ot turkumiga oid so‘zlar qadimdan shakllangan bugungi kungacha yetib kelish davrida turli ko‘rinish kasb etgan. Ular jamiyat taraqqiyoti va xalqning turmush tarzi va tilning ichki imkoniyati va tashqi tasirlari doirasida rivojlangan. Bu kabi o‘zgarish jarayonlarini qadimgi turkiy tilda yozilgan asarlarni, ko‘hna obidalarining til xususiyatlarini kuzatish, hamda turkiy tilni davrlashtirib o‘rganish orqali aniqlashtirishimiz mumkin. Turkiy tilni hamma turlicha davrga bo‘lib o‘rganishmoqda. Barcha davrlarda tilning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari mavjud. Qadimgi turkiy tilda ot so‘z turkumiga oid so‘zlarda kelishik qo‘shimchalarining ifodalanishi keyingi asrlarda birmuncha o‘zgarganligini kuzatdim. Bundan tashqari Alisher Navoiy asarlaridagi kelishik qo‘shimchalari ko‘makchilar bilan sinonimlik (ma‘noviy butunlikni) xosil qilgan. Kelishiklar gapda otning yoki otlashgan so‘zning fe‘lga, ba‘zan boshqa so‘z turkumiga munosabatini ifodalaydigan formalardir. Eski o‘zbek tilida hozirgi o‘zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlari uchun xarakterli bo‘lgan vosita kelishigi shakli XIII-XIV asrlarga oid yozma yozma yodgorliklar tilida ham ham ma‘lum darajada qo‘llangan. XV asr va undan keying davrlarda vosita kelishigining qo‘llanishi ancha chegaralangan bo‘lib, o‘zining Grammatik xususiyatini yo‘qotgan va kelishik kategoriyasi sifatida iste‘moldan chiqqan.⁴

Yuqoridagi asarlardan ko‘rinib turibdki, ona tilimiz qadimdan rivojlanib, bugungi kunda o‘z o‘rnini topgan.

Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlaming gapda boshqa so‘zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o‘rgatishda o‘quvchilaming gapda so‘zlaming bog‘lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o‘quvchilar gapda ma‘no va grammatik tomondan bog‘langan so‘zlarni (so‘z birikmalarini) ajratishga o‘rganganlaridan so‘ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so‘zlaming bog‘lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o‘quvchi ot gapda qaysi so‘z bilan bog‘langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda qo‘shimchalar bilan o‘zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Aslida o‘quvchilar 1-sinfdayoq so‘z shakllarining o‘zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so‘z shakli nimaligini hali bilmaydilar. O‘quvchilar keyingi sinfda shakl yasovchi (so‘z o‘zgartuvchi) qo‘shimchalar bilan tanishadilar, bu qo‘shimchalar gapda so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qilishini tushunadilar.

³ Abdivaliyev, S., & Karimov, A. A. (2023). XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDA VOSITASIZ TO‘LDIRUVCHINING IFODALANISHI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 2), 85-91.

⁴ С.Аширбоев, И.Азимов Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўқув кўланма. Т.2012. 176

Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi—turlanish haqida tushuncha berish bilan o‘quvchilarga kelishik qo‘shimchalari gapda so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qilishi, o‘zbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so‘roqlari, qo‘shimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi. O‘quvchilar turlanish bilan kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va so‘z birikmalari ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil so‘zlar bilan shakl yasovchi qo‘shimchalar (ning, -ni, -go, -da, -dan) yordamida bog‘lanishini kuzatadilar, bu qo‘shimchalar kelishik qo‘shimchalari ekanini, otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi turlanish deyilishini bilib oladilar. Bolalarga kelishiklarning joylashish tartibi, so‘roqlari va bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qo‘shimchalari mavjudligi darslikda berilgan jadval yordamida tushuntiriladi. Bosh kelishikdagi ot gapda ega vazifasida, boshqa kelishikdagi otlar esa ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi bilan ham tanishtiriladi. O‘quvchilar o‘zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o‘zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: o‘quvchilar avval gapda ot bog‘langan so‘zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so‘roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar.

Masalan, o‘qidi (nimani?) — kitobni, tushum kelishigi). Ular buni yaxshi o‘zlashtirganlaridan so‘ng, mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi. Ko‘plikdagi otlarning turlanishini o‘rganishda nutqda ko‘plikdagi otlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini takomillashtirish maqsadiko‘zda tutiladi. O‘quvchilar suhbat yordamida bosh kelishikdagi otning so‘rog‘ini va bitta shaxs, narsani bildirishini aytadilar, (nima? — kitob, kim? — o‘quvchi); o‘qituvchi agar shu ot ikki va undan ortiq, shaxs yoki narsani bildirsa, qanday so‘roqqa javob bo‘lishini, qaysi kelishikni bildirishini so‘raydi, ular qiynalmay javob beradilar (nimalar? — kitoblar, kimlar? — o‘quvchilar). Xulosa chiqariladi: ko‘plikdagi otlar bosh kelishikda nimalar? yoki kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. O‘quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko‘plikda turlaydilar va ko‘plik qo‘shimchasi doim kelishik qo‘shimchasidan oldin qo‘shilishini, so‘roqlarini bilib oladilar. Har bir kelishikni alohida o‘rganishning vazifasi kelishikni o‘rganish bilan bog‘liq holda kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va o‘quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi. Kelishiklarni bilib olish maqsadida so‘roqlardan foydalaniladi. Buning uchun o‘quvchilar, birinchidan, so‘roqni otning yakka o‘ziga emas, balki gapda ot ma‘no tomondan bog‘langan so‘zdan shu otga berishni o‘rganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so‘roqlarini yaxshi bilishlari zarur. Kelishiklarni o‘zlashtirishda gapning asosini aniqlagach, gapda o‘zaro bog‘langan so‘zlarni (so‘z birikmalarini) belgilash, ot bog‘langan so‘zni topish, so‘roq berib, qaysi kelishik bilan turlanganini, birlik yoki ko‘plikda qo‘llanganini aniqlash izchilligida ishni uyushtirish maqsadga muvofiq (Masalan, Alisher Nodirni muzeyga taklif qildi. Gap Alisher haqida aytilgan. (Kim?) Alisher — ega (bosh kelishikda, birlik); Alisher (nima qildi?) — taklif qildi — kesim; taklif qildi (kimni?) — Nodirni (ot, tushum kelishigida, birlik); taklif qildi (nimaga? yoki qayerga?) — muzeyga (ot, jo‘nalish kelishigida, birlik). Kelishiklarning xususiyatlarini o‘rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Kelishikning grammatik ma‘nosi.
2. So‘roqlari.

3. Qo‘shimchasi.

4. Gapdagi vazifasi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida kelishik kategoriyasini o‘rgatish bo‘yicha metodlar natijasida bir qancha yutuqlarga ega bo‘ldik va shu qatorda muhokamaga ham o‘rinli savollar tug‘ildi. Metodlar doirasda kelishik qo‘shimchalarini o‘tish o‘quvchilar uchun qay darajada muhim? Qaratqich kelishigi va tushum kelishigi qo‘shimchalarini belgi va belgisiz qo‘llanilishi haqida muommolar, jo‘nalish kelishigi –ga (-ka, -qa) qo‘shimchalarida imlo qoidalarga amal qilgan holda yozish ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirish bir qancha muommolarni keltirib chiqardi. Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, nazariy bilimlarni amaliyotda metodlar orqali o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun birmuncha qulaydir. Asosan kelishik kategoriyasida qanday metodlardan foydalanib o‘tilsa o‘quvchilarning tushunishi oson bo‘ladi? degan savollar biz pedagoglarni eng dolzarb savollaridan biri hisobladi. Yuqoridagi metodlardan foydalangan holda 4-sinf ona tili darslarida berilgan mavzularga tayanib hamda pedagogning mahoratidan kelib chiqqan holda va kreativlikka asoslanib metodlar qo‘llash mumkin. Darsda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, ya‘ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma‘lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hisoblanadi. O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Sanalib o‘tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta‘lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu metodlar orqali o‘quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo‘llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotda o‘ziga ishonch bilan qarashga o‘rganadi.

Foydalanilg:n adabiyotlar.

1. Ziyoyev I. Kelishik formalarining funksional almashinuviga doir. O‘A, 1966.
2. S.Matchonov, H.bakiyeva, X.G‘ulomova, sh.Yo‘ldoshev, G.xolboyeva “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi darslik” Toshkent-2021 bet-7
3. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA‘LIM MUASSASALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
4. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.
5. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O ‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O ‘QISH VA ONA TILI O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA”. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.

7. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. кўлл."Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар" сериясидан." Т.: ТДИУ 95 (2013).
8. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA'LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLAR. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
9. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211.
10. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>
11. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
12. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
13. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
14. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
15. Umarov Toxirjon. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
17. Umarov, T. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIKA DARSLARIDA KOMMUNIKATIV
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH****Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

nargizavaliyeva1992@gmail.com**To‘raqulova Charos**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada kommunikatsiya ya‘ni muloqot qobiliyatlari o‘quvchilar bolaligidan shakllanishi zarur bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalaridan biri ekanligi to‘g‘risida, hamda boshlang‘ich maktab yillari bolaning tili va shaxslararo ko‘nikmalariga asos yaratadi, bu ularning ta‘lim davomida o‘rganish va ijtimoiy rivojlanishi haqida bayon qilingan. Ushbu qobiliyatlarni matematika darslarida qanday rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ nutq, 4K modeli, matematik masalalar, AKT, kooperativ guruh, jamoaviy ishlash, lingvistik kompetensiya.

Kirish:

Hozirgi davrda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlanirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maktablarda hamda o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta‘limning kommunikativ tamoyilini barcha o‘quv fanlariga joriy etishni ko‘zda tutuvchi standartlar hamda dasturlar sinovdan o‘tkazilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish boshqa har qanday o‘quv predmetini o‘qitish kabi ta‘lim, tarbiya va amaliy fazilatlarini hal qilishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati pedagoglar ixtisosiga, uning kasbga oid tayyorgarchiligiga bog‘liq¹.

Bu ta‘lim standartlari amaldagi standartlardan o‘quvchilarni bilim olish bilangina cheklanmasdan, ularda yig‘ilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tajribada qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan farq qiladi. Bunda kommunikativ layoqat alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi tushunishi, bilishi bilan bir qatorda tushuntira olishi ham lozim. Yangi dasturlarda axborot bilan ishlashga e‘tibor kuchaytirilgan. Har bir o‘quvchi kuchayib borayotgan axborot oqimidan o‘zi uchun zarurini tanlab, undan unumli foydalana bilmog‘i kerak. Ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlar o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda samarali ko‘mak beradi. Ta‘lim tizimida fan yunalishlari bo‘yicha berilayotgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay bilish kommunikativ qobiliyat bilan uzviy bog‘liq.

Asosiy qism. Bunda o‘qitish jarayonida tasavvur hosil qilishni ko‘zda tutish muhimdir, ya‘ni o‘qituvchilarning egallagan matematik tushunchalarning rivojlanish darajasini e‘tiborga olish va ularni keyingi yengilroq maydonga siljitish kerak. Ushbu maydonni aniqlash uchun L.S.Vigotskiy ikki ko‘rsatkichdan foydalanishni tavsiya etadi:

¹O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi PhD B.A. Xodjayorova., “Kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari”, Volume-26 Issue-3., April_2023., 66 bet.

❖ o‘quvchining yangi bilimlarni kattalar yordamida egallashi;
❖ o‘quvchilardagi o‘zlashtirilgan bilimlarni, masalalarni mustaqil yechishda qo‘llash, tatbiq etish qobiliyati².

Muallif bolalarda kommunikativ qobiliyatlar va kommunikativ nutq o‘quv jarayonda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham alohida takidlab o‘tgan. Bundan tashqari o‘quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga Yu.M.Kolyagin, Yu.I.Kulyutin, L.M.Fridman, psixologlar, pedagoglar, uslubchilar K.Dunker, J.Piajelarning o‘z asarlari va mashhur tadqiqotlari katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak- atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat - umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o‘qitishdan ko‘zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;
- milliy, ma‘naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.³

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan- texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta‘lim tizimiga, jumladan, matematikani o‘rgatish bo‘yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta‘minlanadi.⁴

Kommunikativ kompetensiya - muloqot va munosabatlarning majmuiga egabo‘lganmurakkab, ko‘p bosqichli tizim. U boshqa barcha kompetensiyalarning asosi bo‘lgani uchunhaqli ravishda yetakchi va poydevori hisoblanadi, shuningdek, jamiyatda o‘zaromuloqotgakirishish uchun ona tilida yoki biror xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda undanmuloqotjarayonidasamarali foydalana olishdir.⁵

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish ijtimoiy moslashishida muhim omil hisoblanadi, chunki nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish,o‘qish va yozuv) takomillashtirish orqali kelajakda ular atrofdagilar bilan muloqot o‘rnatishdamuvaffaqiyatli va samarali natijalarga erishadi va ijtimoiylashuv jarayoni osonlashadi.

²Jumayev.M.E., “Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma 4 nashri., УДК 372.851(075) ББК 74. 102 ya 7 J87., «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011-y., 7 – 8 betlar.

³ Djumayev M., “Mathematical regularity and development of creative thinking of students”. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent. (Uzbekistan)., German International Journal of Modern Science №28, 2022., 26-28 pages.

⁴ M. I. Djumayev., “Boshlang‘ich ta‘limda milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari xususida” Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti., Academic Research in Educational Sciences Volume 3 Issue 6 2022 yil., ISSN: 2181-1385., 559 bet.

⁵ Petrovskaya L.A. Muloqot - kompetensiya - trening. Tanlangan asarlar –Noshirlar:Sense. – 2017. 387 b.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar oldiga talaba - yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllantirish bilan birgalikda ularni faol, zamonaviy muloqot madaniyatiga o'rgatish vazifasi turganligini va kasb ta'limi islohotlarini amalga oshirishda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirishda muloqotning samarali yo'llarini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonida mahorat bilan qo'llay olish har bir oliy ta'lim pedagoglarining oldiga qo'ygan buyuk maqsadiga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi PhD B.A. Xodjayorova, "Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari", Volume-26 Issue-3., April_2023., 66 bet.
2. Jumayev.M.E., "Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi", O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma 4 nashri., UDK 372.851(075) BBK 74. I02 ya 7 J87., «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011-y., 7 – 8 betlar.
3. Djumaev M., "Mathematical regularity and development of creative thinking of students", Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent. (Uzbekistan), German International Journal of Modern Science №28, 2022., 26-28 pages.
4. M. I. Djumayev., "Boshlang'ich ta'limda milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari xususida" Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti., Academic Research in Educational Sciences Volume 3 Issue 6 2022 yil., ISSN: 2181-1385., 559 bet.
5. Petrovskaya L.A. Muloqot - kompetentsiya - trening. Tanlangan asarlar – Noshirlar:Sense. – 2017. 387 b.
6. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA'LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLAR. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
7. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
8. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.
9. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
10. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyevna, V. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.
11. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINIF O 'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O'RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O 'QISH VA ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.

12. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
13. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).
14. Исақова, З., & Абдуллахўжаев, А. (2023). ИСҲОҚХОН ТЎРА ИБРАТ-МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. IQRO INDEXING, 1(1), 41-71.
15. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences 2.2* (2024): 51-57.
16. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269.
17. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
18. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

TA‘LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BU NIMA?**Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta‘lim jaroyonida foydalaniladigan pedagogik texnologiya atamasiga kengroq ta‘riflar ko‘rsatilgan. O‘qitish uslubi (metodika) va pedagogik texnologiyaning bir-biridan farqli jihati ko‘rsatilgan. Shuningdek, Axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib berilgan. Pedagogik texnologiya va ularning ta‘limda qo‘llanilishiga oid ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, o‘qitish uslubi, metodika, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish texnologiyalari.

Kirish:

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta‘lim sohasiga katta ahamiyat berilib, bir qator qarorlar imzolangan. Qarorlar ijrosini ta‘minlashning negizida, albatta, ma‘lum fanni talabalarga ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish yotadi. Bundan kelib chiqib, bo‘lajak yosh kadrlarni mukammal tarzda bilim egallashga ko‘makdosh bo‘lgan tajribalarga tayangan holda innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanilgan.

O‘qitish jarayonida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishi, mas‘uliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Dars o‘tish uchun qaysi texnologiyani tanlab olish o‘quv fani va undagi mavzuning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Asosiy qism. Pedagogik texnologiyaning yuzlab ta‘riflari mavjud, jumladan: “PT-bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir” (**V.P.Bespalko**).

“PT - avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo‘lgan tartibli amallar tizimidir”. (**V.M.Monaxov**).

“PT-o‘quv jarayoniga texnologik yondoshgan holda, oldindan belgilanib olingan maqsad ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini loyihalashdir”. (**M.V. Klarin**).

“PT-o‘quvchilar harakatlarida aks etgan o‘qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlangan maqsadni ifodalaydi” (**I.Ya. Larnier**).

“PT-bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldindan belgilangan shaxs sifatlarining intensiv shakllantirish jarayonidir” (**N.Saydahmedov, A.Ochilov**).

“PT-ta‘lim jarayoniga yangicha yondoshuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy–muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va inson tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir” (**B.L. Farberman**).

“PT-bu majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir”. (T.Sakomoto).

Pedagogik texnologiya-o‘quvchini o‘qitish, tarbiyalash, shaxsini rivojlantirish masalalari yechimiga qaratilgan va ma‘lum ketma-ketlik asosida amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik usullar, uslublar majmuidir.

Pedagogik texnologiya - insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta‘lim-tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish faoliyatidir. Lekin, pedagogik texnologiya bilan o‘qitish uslubi (metodika)ni farqlash joizdir.


O‘qitish uslubi (metodika) – ma‘lum o‘quv fanini o‘qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadbiiq qilishga qaratilgandir.

Hozirgi vaqtda pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarning rivojlanishi hamda takomillashib borishi bevosita axborot texnologiyalari zaminida amalga oshadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarning rivojlanishi hamda takomillashib borishi bevosita axborot texnologiyalari zaminida amalga oshadi.

Axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

“Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun”ning kadrlar tayyorlash haqida belgilangan asosiy vazifalardan biri fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu masala yechimida axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, muvofiqlik, bir-birini to‘ldiruvchanlik bo‘lishi talab etiladi. Hozirgi kunda har bir pedagog yoki ishlab chiqarish xodimi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va texnik tizimlari majmuini puxta bilishi taqozga etilmoqda. Shu bilan bir qatorda pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o‘z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim.



1-Rasm.

Axborot, ta‘lim va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish

Shuningdek, fan rivoji oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlaridagi olimlarning faoliyatiga, ishlab chiqarish bilan hamkorligiga, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishiga bog‘liqdir.

Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va o’qitishning zamonaviy texnik vositalarini qo’llanilishi kadrlar sifatiga salmoqli ta’sir ko’rsatadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi esa bevosita axborot texnologiyalari rivojiga, ulardan ta’lim beruvchilar va oluvchilarning foydalana bilish darajasiga bog’liqdir. Demak, pedagogik texnologiyalarni rivoji kadrlar tayyorlash sifatiga, kadrlar sifati esa ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashuviga ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari bir-biri bilan uzviy bog’liq holda, axborot texnologiyalari rivoji asosida takomillashib borishi, shuningdek axborotlar makoni ta’lim va ishlab chiqarish ma’lumotlari bilan boyitilib borilishi zarurdir. Yuqorida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o’rtasidagi bog’liqlik sxematik ravishda keltirilgan

Xulosa. Dars o’tish jarayonida oddiylikdan qochgan holda, talaba xotirasini shakllantirish, mantiq, tasavvur, fikrlay olishini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish shaxsiy sifatlaridagi notekisliklarni, nuqsonlarini bartaraf qilishga yordam beradi. Ularda erkin fikrlash kamol topadi. Natijada talabalar o’tiladigan mavzuni oz bo’lsa-da, muhokama qilishda faol, pedagog qaysi darsni o’tishdan qat’iy nazar, hech qanday keraksiz, ortiqcha narsalarga to’xtalmay, har bir mavzuni aniq ravshan, lo’nda tushuntirishi lozim. Dars ta’lim jarayonini tashkil qilishga to’g’ri, yangicha munosabat kerak. Dars o’tish davomida pedagog shunday usullardan foydalanish kerakki, talabalar o’zlarini shaxs sifatida his qilishsin. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo’llanilishiga oid ma’lumotlar talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

Demak, nazariyani o’quv amaliyoti bilan bog’lash zaruriyatini va ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o’rganish zamonaviy ta’lim texnologiyalarni aniqlab beradigan qator holatlarni belgilashga imkon berdi, bular quyidagilar:

- a) zamonaviylik ta’lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajriba-sinovda tekshirilgan, tasdiqlangan didaktikaga oid yangiliklar, tartib- qoidalarni joriy etish majburiyiligi taqozo etadi;
- b) o’quv jarayonini maqbullashtirish;
- c) ilmiylik ta’limda yangi vositalar, faol usullar, didaktik materiallarni, tashkiliy masalalarning yangi yechimlarini qo’llashni taqozo etadi;
- d) o’quvchi va ‘edagog-o’qituvchining dasturli faoliyati o’quv jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo’qotishga, yuqori hamjihatlikni ta’minlashga, kerakli natijalarni qo’lga kiritishga intilishni talab etadi;
- e) ta’limni faollashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy ‘edagogik texnologiyalarning eng asosiy belgilaridan biridir;
- f) o’quv jarayoni uchun moddiy-texnik bazaning maqsadga muvofiqligi ‘edagogik texnologiyalarning navbatdagi belgisidir;
- g) o’quv-tarbiyaviy jarayon natijalarini sifatli baholash ‘edagogik texnologiyaning o’z oldiga qo’ygan natijaviy maqsadidir.

Xulosa shuki, ta’lim texnologiyalari o’zining pedagogika va boshqa fanlar yutuqlari bilan bog’liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi navbatda, o’quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo’naltirilgan, ikkinchidan, o’qitishning axborotli vositalaridan va didaktik

materiallardan, faol usullaridan keng foydalanishga asoslangan pedagog-o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi samarali faoliyatiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.D.Raximov, O.M.Turg’unov, Q.O.Mustafaev, H.J.Ro‘ziev Zamonaviy ta’lim texnologiyalari /Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013y., 200bet.
2. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA’LIM MUASSASALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
3. Valiyeva, N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 549-550.
4. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyeovna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.
5. Dilnura, M., & Nargiza, V. (2023). BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI TARBIYADA KO‘MAKCHI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 562-563.
6. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA MULTIMEDIALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 519-521.
7. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
8. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN‘ATNI O ‘QITISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O ‘RNI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 865-867.
9. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
10. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 245–248. Retrieved from
11. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
12. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
13. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA‘LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
14. Исақова Замирахон, Абдуллахўжаев Адхамхўжа. (2023). ИСҲОҚҲОН ТўРА ИБРАТ – МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. IQRO INDEXING, 1(1), 41-71.

15. ST Davlatova, FS qizi Abdullayeva BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI Educational Research in Universal Sciences 2 (16), 819-823
16. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211.
17. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269.
18. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
19. Ganiyeva, Muborak. "Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари." *Архив научных исследований* (2020).
 - a. Ganiyeva, M. (2020). Тарихий-маданий туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари. *Архив научных исследований*.
20. Ganiyeva, Muborak. "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола." *Архив научных исследований* (2019).
 - a. Ganiyeva, M. (2019). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола. *Архив научных исследований*.
21. Ganiyeva, Muborak. "Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение»." *Архив научных исследований* (2020).
 - a. Ganiyeva, M. (2020). Использование педагогических и информационных приёмов в обучении предмета «Обществоведение». *Архив научных исследований*.
22. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
23. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
24. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA
O‘RGATISH****Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

nargizavaliyeva1992@gmail.com**Aliyeva Feruza**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishning turli xil yo‘llari, metodlari, ta‘lim-tarbiya jarayonidagi yangicha ijodkorona qarashlar to‘g‘risida fikr yuritiladi, tadqiqot ishining metodologiya qismida turli xil metodlardan foydalanilgan jumlada Singapur ta‘lim tizimi o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlari: ijodkorlik, innovatsiya, boshlang‘ich ta‘lim, muammoli o‘qitish, erkin fikrlash, kreativlik, sinkveyn, kommunikatsiya.

Kirish:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tmokchimiz; “Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko‘ra ilm kuchi bilan ko‘proq daromad va obro‘-e‘tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz”.

Albatta, chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoliyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarini kiritish, o‘quvchilarning erkin, mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishni taqoza etadi. Ta‘lim –tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste‘dodlarini yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish ,ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish–kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan, raqobatdosh, keng fikrlovchi, kadrlarni voyaga yetkazish muhim masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, san‘at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarining ijodiy faoliyatining shakllantirish, shart –sharoitlari deganda, avvalo, ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘ladi.¹

O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari; Ijodiy faoliyatini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi ; Ijodiy faoliyatini shakllantirishga doir mashg‘ulotlar, evristika, muammoli vaziyatlar yaratish ; O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuvlar. Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi:

- dastur mateillarini qay darajada o‘zlashtirganligi;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;

¹ www.pedagoglar.uz Volume-23, Issue-2, December - 2021.

-tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
-o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
-topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalari ,axborot texnologiyasidan foydalana olishi;

-mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi;

-o‘z variantini tavsiya eta olishi va hakoza.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faollikka undash davomida o‘qituvchi :

1. O‘quvchilarni obrazli fikrlashga undashi;

2. Aniq muammolarni burro ifodalashi;

3.“Fikrning doimo tugallangan jumla bilan ,hamda muhim joylariga urg‘u berib ajratgan holda ifoda etilishi;

4. Xushmuammalali va ziyrak bo‘lishi;

5. Quyidagi so‘z birikmalaridan foydalanishi : „faraz qiling “ , „tasavvur qiling” , „ijodiy parvoz eting” va shu kabilar . Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga metodlar va o‘yinlar nimaga kerak? Bu metod va o‘yinlarning dars jarayoniga qanday bog‘liqligi hamda samaradorligi mavjud? Yuqorida aytilayotgan mulohazalarga birma-bir misollar orqali aniqlik kiritamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda evristik va muammoli ta‘limdan tashqari bilishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil etish muammosini har tomonlama o‘rganib chiqib, quyidagi xulosaga kelishgan:

1. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar ijodida chuqur ma‘no va mantiqning kerakli darajada emasligini tushunish mumkin. Chunki maqsad ular ijodida chuqur mantiq yoki yuksak ma‘no bo‘lishig erishishda emas. Ular keyinroq, ta‘lim-tarbiyaning yuqoriroq bosqichlarida paydo bo‘ladi. Muhimi – irod jarayoni, ularning irod qilishlariga imkoniyat yaratib berishdir. O‘quvchi uchun qiziqarli bo‘lgan har qanday foydali, u nimani xohlasa, nimaga qiziqsa, shuni qilib ko‘rishi kerak ekanligi aytib o‘tilgan.

2. Boshlang‘ich sinfnig o‘qish, ona tili darslarida o‘quvchilarni ijodga yo‘llashning yo‘llari va imkoniyatlari juda ko‘p. ertak qahramonlarining xarakterlarini o‘zgartirib, o‘quvchilarni yangi ertak to‘qishga, tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratishga, o‘sha qahramonlar bilan boshqa ertak to‘qishga o‘rgatish xotira bilan bog‘liq so‘zlar va hodisalarni eslashga sinfda hikoyaci ro‘lini bajarishga o‘ylab topilgan narsani aytib berishga odatlantirish mumkin ekanligi.

3. Boshlang‘ich “O‘qish” darslarida badiiy matn ustida ishlayotganda o‘quvchilarga matn ustida reja tuzish va o‘qishlarini reja asosida qayta hikoyalashga o‘rgatish o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga olib keladi.

4. Muammoli ta‘limni tashkil etish o‘quvchilarning ijodkorligi rivojlanishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Har br o‘quvchi o‘zining o‘quv faoliyatida ma‘lum darajada ijodkorlik qirralarini namoyon qilishi mumkin. Irodkorlik intelektual qobiliyat bilan bitta narsa emas, katta intellectual imkoniyatlar hamisha ham ijodkorlikning baland rivoji mos kelavermaydi. Irodij qobiliyatlarni tarbiyalash va rivojlantirish ijodga o‘rgatish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda hozirgi kunda fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashni o‘rgatishga rivojlantirishga juda ko‘p e‘tibor berilmoqda. O‘quv jarayonlarini kuzatish jarayonida, o‘qituvchilar tomonidan ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilinayotganini ko‘rishimiz mumkin. Har xil metodlar orqali misol, masala va topshiriqlarni yechish o‘quvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini ortiradi. O‘quvchilar bu masalalarning mohiyatini tushunib yetish orqali ularda ijodkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va tejamkorlik xislatlari shakllanadi. Hozirgi kunda fanlarni o‘qitishda talabalarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish masalalariga kam e‘tibor berilmoqda. O‘quv jarayonlarini kuzatish jarayonida, o‘qituvchilar tomonidan ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilinmayotganini kuzatishimiz mumkin. Ijod (kreativlik, inglizcha creativity - yaratuvchanlik) - bu ta‘riflash murakkab bo‘lgan so‘z. Agar inson qandaydir bir g‘ayrioddiy va shu bilan bir vaqtda ahamiyatli va foydali narsa yaratgan bo‘lsa, biz buni « ijod» deymiz. Shunday qilib, ijod jarayon sifatida emas, balki uning oqibati orqali aniqlanadi. Ijod tushunchasining yagona ta‘rifi yo‘qligi shu bilan bog‘liqlik, odamlar «g‘ayrioddiy», «yaxshi» va «foydali» deb nimani atash mumkinligi haqida yagona fikrga ega emaslar, shu sababli bu tushunchalar juda nisbiy. Qaysi nuqtai nazardan qarashingizga bog‘liq. Shu sababli nima uchun ijod tutqich bermaydigan, sirpanib chiqib ketadigan muhokama predmeti ekanligini oson tushunish mumkin. Ijodiy fikrlash qobiliyati deganda talaba uchun fikrlashi ma‘lum doiradan tashqariga chiqib ketishi natijasida qandaydir ma‘lumotlarga ega bo‘lishi. Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish tayyorlanayotgan tayyor kadrlar sifatini belgilab beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘tilgan har bir qiziqarli mashg‘ulot o‘quvchilar ongida yaxshiroq qolishi, shuningdek, dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga mustaqil ijodiy qobiliyatini o‘stiradi. Ijodkor o‘quvchi o‘ziga xos noyob tarzda fikr yuritadi. Uning fikri mustaqil, tiniq, birovnikiga o‘xshamagan bo‘lib, ko‘pincha g‘ayri tabiiy yechimlarni ham topa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya. Metodik qo‘llanma, TDPU, 2007.
1. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA‘LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
2. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211.
3. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA‘LIM MUASSASALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
4. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.
5. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINI IJODKORLIKKA O‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O‘QISH VA ONA TILI

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA”. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.

6. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.

7. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).

8. Исақова, З., & Абдуллахўжаев, А. (2023). ИСҲОҚҲОН ТЎРА ИБРАТ-МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. IQRO INDEXING, 1(1), 41-71.

9. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences* 2.2 (2024): 51-57.

10. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269.

11. Raximjonovna, U. N. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.

12. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

13. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.

14. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

15. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>

16. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

17. Umarov Toxirjon. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

18. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.

19. Umarov, T. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

**ELEKTRON TA‘LIMNI BOSHLANG‘ICH SINFLARGA JORIY QILISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH****Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Erkaboyeva Fotimaxon

Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining darsga yanada qiziqishlari uchun foydalanish mumkin bo‘lgan elektron ta‘lim platformalari haqida, bu platforlarni qo‘llaganda o‘qituvchi nimalarga erishishi haqida fikr yuritilgan. XXI asr o‘quvchilarining bilim salohiyatini oshirishda elektron ta‘limni boshlang‘ich sinflardan oq qo‘llash albatta kutilgan natijani beradi.

Kalit so‘z: Elektron ta‘lim, texnologiya, XXI asr, multimedia, axborot texnologiyalari

Kirish. XXI asr – axborotlashtirilgan jamiyat sari asrida axborot texnologiyalarning roli va o‘rni kundan – kunga o‘sib boraveradi. O‘zbekiston kelajagi bugun maktablarda ta‘lim–tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib yetishishlariga bog‘liq. Bu vazifani bajarish hozirgi davr o‘qituvchilari, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga hozirgi ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ta‘lim samaradorligini oshirish ma‘suliyatli vazifa bo‘lmoqda. . Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan–kunga kuchayib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda ta‘lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e‘tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar Prezidentning 2017- yil 14-martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi,¹ 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi,² 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi,³ 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlarida o‘z aksini topgan.

Asosiy qism. Maktabga endigina qadam bosayotgan bola bilim dunyosiga kiradi. XXI asr - yuqori kompyuter texnologiyalari asri. Bugungi kunda Respublika ijtimoiy hayotiga ham tezkor axborot oqimi bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Axborotlarni tezkor shur‘atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda magistrga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta‘lim-tarbiya jarayoniga pedagogic texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2829-son <https://lex.uz/docs/-3133119>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2829-son <https://lex.uz/docs/-3171590>

³O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.05.2017 yildagi 304-son <https://lex.uz/docs/-3213410?ONDATE=15.02.2018%2000>

ijobiy hal etishga xizmat qiladi.⁴ Zamonaviy bola elektron bilimlar olamida yashaydi. Elektron ta'lim sohasida o'qituvchining roli ham o'zgaroqda - u elektron ta'limning muvofiqlashtiruvchisiga aylanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - dunyoqarashni kengaytirish, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, bolalarning aqliy faoliyatini faollashtirish, nutqini rivojlantirishdir. Boshlang'ich 1-4-sinflar o'quvchilarining visual tafakkuri rivojlangan, shuning uchun iloji boricha yuqori sifatli illyustrativ materiallardan foydalanilgan holda bolalarning bilimni boyitish juda muhimdir. Elektron ta'limning boshlang'ich sinflarga joriy qilinishi, o'quvchilarga bir nechta mavzularni kengroq va tushunarliroq o'rganish imkoniyatini beradi. Grafiklar, animatsiyalar, video darslar va interaktiv darslar orqali o'quvchilar qiziqarli ma'lumotlarni oson tushunish imkonini yaratadi. O'qituvchilar va o'quvchilar uchun vaqtni tejash imkonini yaratadi. O'qituvchilar bir vaqtning o'zida bir necha dars o'tish uchun qulay texnologiyalardan foydalanishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim samaradorligini oshirish yo'lida elektron ta'lim platformalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Dars unumdorligini oshirish maqsadida turli xil multimedia, audio, qiziqarli platformalardan foydalanish mumkin. O'quvchilarda multimedia vositalari asosida bilim olishlari 30 % gacha vaqtni tejashi mumkin va olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qolish imkonini yaratadi. Agar o'quvchilar dars davomida berilayotgan bilimni ko'rish (video) asosida o'rgansa, darsni xotirada saqlab qolishi 25-30 % oshadi. O'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, elektron ta'limiy o'yinlar, yangi-yangi metodlarning hammasi o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog ustozlarning ham maqsadimiz shudir. O'quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo'lamiz. O'quv jarayonida turli xil elektron o'yinlar (Kahoot, Bamboozle, Blooket, Phet va Bookwidgets) foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu yaxshi samara beradi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrleydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2829-son <https://lex.uz/docs/-3133119>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2829-son <https://lex.uz/docs/-3171590>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.05.2017 yildagi 304-son <https://lex.uz/docs/-3213410?ONDATE=15.02.2018%2000>
4. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. TOLIPOV. O'Q. RO'ZIYEV D.I. "INNOVATSIYA-ZIYO"2019 J:275 14-bet.

⁴ PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. TOLIPOV. O'Q. RO'ZIYEV D.I. "INNOVATSIYA-ZIYO"2019 J:275 14-bet.

5. M. Jumayev. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Bayoz, 2022. – 272 b.
6. B.S.Abdullayeva, A.V.Sadikova, M.N.Muxitdinova, M.I.Toshpo‘latova, Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi. Darslik. –Toshkent-2020.
7. G.Djanpeisova. Matematik ta‘lim. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2022. – 290 b.
8. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA‘LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLAR. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
9. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211.
10. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA‘LIM MUASSASALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
11. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.
12. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLAR O ‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O ‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O ‘QISH VA ONA TILI O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA”. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 598-603.
13. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
14. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).
15. Исақова, З., & Абдуллахўжаев, А. (2023). ИСХОҚХОҲ ТЎРА ИБРАТ–МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. *IQRO INDEXING*, 1(1), 41-71.
16. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences* 2.2 (2024): 51-57.
17. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269.
18. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
19. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLIHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MIQDORLARNI O‘RGATISH AHAMIYATI**Valiyeva Nargiza Athamboyevna**

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

nargizavaliyeva1992@gmail.com**Erkaboyeva Fotimaxon**

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida miqdorlarni o‘rgatishning ahamiyati, boshlang‘ich sinflarda uzunlik, jismning massasi va hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinflarda bu miqdorlarni asosiy miqdorlar deyiladi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ba‘zi hosilaviy miqdorlar (tekis harakat tezligi va boshqalar) bilan ham tanishishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: miqdor, DTS, uzunlik, soat, minut, narx, miqdor, qiymat, soat, minut, sekund.

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kichik yoshligidan ijodiy fikrlashga, yangiliklar yaratishga o‘rgatib borish lozim. O‘qitilayotgan har bir fan, jumladan matematika fani ham hayot bilan bog‘liq, hayotiy muammolarni yechishga o‘rgatadigan bo‘lsa, o‘quvchida matematik fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Shu jumladan “Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”, — degan Prezidentimiz SH.Mirziyoyev¹

Boshlang‘ich sinflarning matematik tafakkurini, matematik ijodkorligini, matematik tanqidiy va mantiqiy fikrlashini oshirishda miqdorlar katta ahamiyatga egadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘rgatish metodikasi bo‘yicha Davlat ta‘lim standartlarida ham alohida bandlar bor.

Barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari davlat ta‘lim standartlariga muvofiq ish yuritishadi. Shunga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2021-yil 17- dekabrda 406-son buyrug‘i”ga asosan ² mazkur fanlarni maqsad va vazifalari asosida dars tashkillanishi talab etiladi.

Asosiy qism. Miqdor tushunchasi nafaqat boshlang‘ich sinflarda balki kishining ilk yoshlaridanoq shakllanib boradi.

Matematikada o‘rganiladigan asosiy tushunchalardan biri miqdor tushunchasidir. Boshlang‘ich sinflarda uzunlik, jismning massasi va hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinflarda bu miqdorlarni asosiy miqdorlar deyiladi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ba‘zi hosilaviy miqdorlar (tekis harakat tezligi va boshqalar) bilan ham tanishadilar. Hosilaviy miqdorlarni o‘rganishda ularni o‘lchash masalasi o‘rganilmaydi.³

Miqdor tushunchasi faqat matematika fanida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalardan birigina emas, balki fizika, kimyo kabi boshqa fanlarda qo‘llaniladigan tushuncha hisoblanadi⁴

¹ <https://daryo.uz/2020/01/31/prezident-tumanlar-markazida-bittadan-matematika-faniga-ixtisoslashgan-maktab-tashkil-etish-haqida-korsatma-berdi>

² O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 17-dekabrda 406son buyrug‘i


³ M.E. JUMAYEV, Z. G‘TADJIYEVA “BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI” /314j:159-bet

⁴ N. Hamedova, Z. Ibragimova, T. Tasetov “MATEMATIKA” TOSHKENT “TURON-IQBOL” 2007/ 298-b

Shakarbayeva Ra‘no Erjigitovnaning “Boshlang‘ich sinflarda miqdorlar tushunchasini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish”, Sabirova Maftuna Umidjon qizining “Boshlang‘ich sinflarda miqdorlarni o‘rgatish metodikasining umumiy masalalari”, Z.A.Artikbayevaning “Boshlang‘ich sinf matematika darslarida miqdorlarni o‘rgatishning xalqaro baholash tizimidan foydalanish”, Muxammedova Muattar Iskandar qizining “Boshlang‘ich sinflarda miqdorlarni o‘rgatish metodikasining umumiy masalalari”, Maludaxon Musurmonovaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida massa, sig‘im va vaqt o‘lchov birliklari to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” maqolalarida miqdor haqida ushbu fikrlar keltirilgan: Boshlang‘ich sinflarning dasturida matematik material bilan uzviy bog‘liqlikda turli miqdorlarni ham o‘rganish nazarda tutilgan. Miqdorlarsiz tabiatni, borliq olamni o‘rganish mumkin emas. Chunki miqdorlarda turli narsalarning, borliq dunyoning xossalari aks etgan. Miqdor tushunchasi narsa yoki hodisaning xossasi bo‘lib, bu tushunchalar o‘quvchilarning butun o‘qishi davrida shakllanadi. Biz o‘quvchilarga uzunlik, jismning massasi (og‘irlik), hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar to‘g‘risida tushuncha berishimiz kerak. Bu tushunchalarni o‘rganish arifmetik material bilan qo‘shib o‘qitiladi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinf matematika darsliklarining I qismida miqdorlarga doir mavzular keltirilganligi ma‘lum. Darslikda asosiy miqdorlar bo‘yicha 4 ta mavzu “3. Takrorlash. Uzunlik”, “8. Takrorlash. Soat va minutlar”, “37. Narx, miqdor va qiymat”, “39. soatlar, minutlar, sekundlar”⁵ mavzulari berilgan. Bu mavzular yuzasidan o‘quvchilar kitobning I qismida uzunlik o‘lchov birliklari, vaqt o‘lchov birliklari, narx, miqdor va qiymat kabi bilimlari boyitiladi.

Miqdor bu narsa yoki hodisaning biror xossasi bo‘lib, uni boshqa narsa yoki hodisaning shu xossasi bilan taqqoslash va ulardan qaysi biri shu xossaga ko‘proq darajada ega ekanligini aniqlash.⁶

Boshlang‘ich sinflarda u yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o‘lchash usullari o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa ham, har bir miqdorni o‘rganishda umumiy bosqichlarni alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni asosiy miqdorlar bilan tanishtirish matematika kursining asosini tashkil etadi. 1- 4 sinf matematika kursida miqdorlar ikki bosqichga bo‘lib o‘rganiladi:



⁵ I. V. Repyova Matematika 3-sinf I qism darslik /Novda Edutainment Toshkent-2023.

⁶ Jumaev M.E., Tadjiyeva Z.G`. (2005). Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Fan va texnologiyasi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘rganishda quyidagi tushunchalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir

1.	Bolalarda mavjud miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash
2.	Bir xil nomli miqdorlarni solishtira olish (chamalab ko‘rish, solishtirish, taqqoslash, o‘lchash va boshqa xil usullar bilan)
3.	Mazkur miqdorlarning o‘lchov birliklari va o‘lchov asboblari bilan tanishtirish
4.	O‘quvchilarda o‘lchash ko‘nikmalarini hosil qilish
5.	Bir xil nomdagi miqdorlarni qo‘shish va ayrish (malaka va topshiriqlarni bajara olish)
6.	Miqdorlarning yangi o‘lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdagi o‘lchov birliklarni boshqa o‘lchov birliklariga almashtirish. Ikki bir xil nomli o‘lchov birliklarini bitta ikki nomli o‘lchov birligiga aylantirish va aksincha
7.	Ikki, uch nomli miqdorlarni qo‘shish va ayrish
8.	Miqdorlarni songa ko‘paytirish va bo‘lish
9.	Miqdorlar ustida arifmetik amallarni bajara olish malakasini shakllantirish
10.	Turli miqdorlar haqida tasavvurlarni shakllantirish maqsadida, turli amaliy misol, malaka va topshiriqlarni bajara olish va ularni namoyish eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

3-sinf matematika darslarida asosiy miqdorlarni o‘rgatish amaliyot jarayonida ushbu metodlar orqali ko‘rib chiqamiz.


“Ko‘rgazmalilik” metodi.

Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish metodi, o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘rganishda yordam beradigan samarali usul hisoblanadi. Bu usulda, so‘z bilan emas, namoyish bilan ko‘proq, tez va oson tushunib olish mumkin. Bola rang, shakl, tovush orqali tezroq tushunadi. Ko‘rgazmalilik maqsad emas, balki vosita ekanligini unutmasligimiz lozim. Ko‘rgazmalilik faqat tomosha emas, balki bilim olishning manbai, izlanuvchanlik, ijodkorlikka o‘rgatuvchi omildir. Boshlang‘ich 3-sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘rgatishda bu metod juda muhim. O‘quvchilarga miqdor tushunchasini turli xil ko‘rgazmalar orqali o‘rgatish maqsadga muvofiq. Asosiy miqdorlar haqida tasavvurni shakllantirish uchun quyidagi ko‘rgazmali qurollardan foydalanamiz.



Asosiy miqdorlarni o‘rgatish, takrorlash va mustahkamlash jarayonida yuqorida keltirilgan metod va o‘yinlar o‘quvchilarning yangi bilim olishlariga ko‘kamlashadi. Darslarda o‘quvchini faolligini oshirishda, darsga qiziqtirishda miqdorlarni yaxshi eslab qolishida xizmat qiladi.

Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar 46-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 3-sinf o‘quvchilari doirasida olib borilgan qisqa muddatli asosiy miqdorlarni o‘rgatish maqsadida o‘tkazilgan tajriba sinovida miqdorlar mavzusini ko‘rgazmalilik metodidan foydalanib tushuntirilganda o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichi quyidagicha natija ko‘rsatdi:



4-rasm. Ko‘rgazmalilik metodi orqali⁷

Ushbu natijalardan shuni ma‘lum qilamizki, ko‘rgazmali tashkil qilingan dars ma‘ruza holatida o‘tkazilgan darsdan ko‘ra yaxshi samara berdi. Darsni 1-rasmdan foydalanib tushuntirganimizda 30 nafar o‘quvchidan 25 nafar o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirdi. Dars ma‘ruza tarzida tashkillanganda 10 nafar o‘quvchi miqdorlar haqida bilimga ega bo‘ldi. 2-rasmdan foydalangan holda esa 30 nafar o‘quvchidan 27 nafar o‘quvchi darsni samarali, darsni ma‘ruza qilib o‘tilganda 16 nafar o‘quvchi qoniqarli tarzda tushundi. 3-rasm orqali dars o‘tilganda esa 30 nafar o‘quvchidan 26 nafar o‘quvchi, ma‘ruza shaklida o‘rgatilganda 30 nafar o‘quvchidan 18 nafar o‘quvchi miqdorlar mavzusini yaxshi o‘zlashtirdi. Bu tajriba orqali o‘quvchilarda darsga qiziqish hamda darsni unumdorligini salmoqli darajada oshganini guvohi bo‘ldik.

Xulosa. Miqdorlar haqida mulohazalar tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, Sabirova Maftuna Umidjon qizining miqdorlarga oid maqolasida asosiy miqdorlar haqida tushuncha, uzunlik va uning birliklari bilan tanishtirish metodikasi. Massa va hajm, ularning birliklari bilan tanishtirish metodikasi haqida ma‘lumotlar qayd etilgan. Maqolada massa o‘lchov birliklari daftar orqasidagi massa jadvali orqali tushuntirilgan. Bizning tadqiqotimizning metodologiyada esa, keltirilgan 1-rasmdagi ko‘rgazmali quroldan foydalanish o‘quvchilarda og‘irlik o‘lchov birliklarini o‘rganishda yaxshi samara beradi.

Miqdorlarsiz tabiatni, borliqni, olamni o‘rganish mumkin emas. Chunki miqdor tushunchasi narsa va hodisalarni o‘lchash bilan bog‘lik bo‘lgan xossalar haqida tasavvurlarni boyitib boradi, aks ettiradi. Bilasizki miqdor tushunchasi bolalarda 1 sinfdan boshlab shakllantirila boriladi. Albatta, hali endi maktabga qadam qo‘ygan bolalarning harakatlari beqaror bo‘ladi.

⁷ Muallif ishlanmasi

Shuning uchun o‘qituvchi darsni qiziqarli o‘tsagina, u yaxshi natijalarga erisha oladi. Matematika darslarida miqdorlar ustida ish olib borilayotganda, ko‘rgazmalilikdan foydalanib, darsga hayot va boshqa fanlar bilan bog‘lab olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Jumayev. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Bayoz, 2022. – 272 b.
2. B.S.Abdullayeva, A.V.Sadikova, M.N.Muxitdinova, M.I.Toshpo‘latova, Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi. Darslik. –Toshkent-2020.
3. G.Djanpeisova. Matematik ta‘lim. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2022. – 290 b.
4. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA‘LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLAR. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
5. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211.
6. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA‘LIM MUASSASALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.
7. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyevna, V. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 651-652.
8. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLAR O ‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O ‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O ‘QISH VA ONA TILI O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA”. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 598-603.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
10. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 197-199).
11. Исақова, З., & Абдуллахўжаев, А. (2023). ИСХОҚХОҲ ТЎРА ИБРАТ-МИЛЛИЙ ТАФАККУР МЕЪМОРИ. *IQRO INDEXING*, 1(1), 41-71.
12. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences 2.2* (2024): 51-57.
13. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269.
14. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
15. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING KASB MAHORATINI OSHIRISHDA
TA‘LIM TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH****Xaydarova Irodaxon O‘tkirovna**

Qo‘qon Pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi

Qo‘qon Universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan va hozirda pedagoglarning kasb mahoratini oshirishdagi ta‘lim texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan chora tadbirlar to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit So‘zlar: maktabgacha ta‘lim, ta‘lim tashkiloti, pedagog, ta‘lim texnologiyasi, takomillashmoq, ta‘lim dasturi, kasb mahorati, innovatsion yondashuv.

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar ko‘lamida maktabgacha ta‘lim dasturlar ham chetda qolmagan, yillar davomida ushbu tashkilotlardagi bolalarning kelajagini porloq bo‘lishini o‘ylagan holda ularga ta‘lim beruvchi pedagoglarning mahoratini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Bugungi kunda pedagoglarning ta‘lim texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab sa‘y-harakatlar olib borilmoqda. Qolaversa, pedagoglarga o‘z bilimlarini oshirishda, uslublarini keng ko‘lamda rivojlantirishda qo‘shimcha ta‘lim berish bosqichlari ham tashkil etilgan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan pedagoglarning deyarli barchalari tashkilot rahbarlari tomonidan doimiy nazorat qilinadi, sababi shundaki, ularning kasb mahoratini ko‘rsatishi oddiy jarayon emas, balki, juda muhim bosqichlardan biri bo‘lganligidadir. Ta‘lim texnologiyalarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash lozim, masalan, hozirda hukumatimizda axborot texnologiyalari rivojlanishiga katta e‘tibor berilayotgani ham bejiz emas, shuningdek AKT soxasida yangiliklar qilish barcha pedagoglarga bog‘liq muhim bosqichlardan biridir.

Maktabgacha ta‘lim bosqichida innovatsion jarayonlarning keng joriy etilishi bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va intellektual rivojlanishiga zamin yaratadi. Pedagog bolalarning intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maktabgacha ta‘lim modelini yaratuvchisi sifatida harakat qilishi kerak. Shuni ta‘kidlash kerakki, buning uchun o‘qituvchi maktabgacha ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni puxta egallashi kerak. Bundan tashqari, pedagoglar bolaning aqliy rivojlanishini tashxislashning turli usullarini o‘zlashtirishlari kerak. Ular zamonaviy gumanistik tushunchalarni bilishlari va shaxsni tarbiyalash usullarini egallashlari kerak. Ta‘lim texnologiyalariga zamonaviy innovatsiyalarni olib kirish kichik bosqichlardan yuqori bosqichlargacha amalga oshirilishi lozim. Ularni tashkillashtirishdagi ba‘zi usullarni ochiq axborotga aylantirish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizning “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Davlat ta‘lim standartlari” talablaridan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlodni istiqloq mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama barkamol shaxs etib voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu bois yosh avlodni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilishda hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. bizning

respublikamiz. “Yoshlar xalqni millat qiladi. “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari kerak” – avlodni tarbiyalashdir.

Mahorat – ta‘lim va o‘qitishning yuksak va yuksalish san‘ati. Pedagog o‘z ishining ustasi, o‘z fanini chuqur biladigan, fan va san‘atning tegishli sohalarini yaxshi biladigan, amaliyotda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunadigan, o‘qitish va tarbiya usullarini puxta biladigan, o‘z ishini puxta o‘zlashtirgan, o‘z fanini puxta o‘rganadigan, o‘z fanini chuqur egallagan shaxsdir va yuqori madaniyatli mutaxassis hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislarning malakasini oshirishda seminarlarning o‘rni qanchalik muhim bo‘lsa, ma‘ruzalarning o‘rni ham shunchalik katta. Atoqli pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida ustoz shaxsi, uning faoliyati haqidagi fikrlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Allomaning ta‘kidlashicha, bolaning sog‘lom ulg‘ayishida otanonaning o‘rni alohida bo‘lsa, uning intellektual rivojlanishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos. Xususan, bolalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish “ustoz ma‘suliyatiga yuklangan, ularning vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa” va “Tafakkurning kuchi, bezakliligi, kengligi o‘qituvchi tarbiyasiga bog‘liq.” ekanligini ta‘kidlab o‘tish joiz. O‘z davrida Yan Amos Komenskiy bola dunyoqarashini rivojlantirishda o‘qituvchining rolini juda yuqori baholagan va o‘qituvchilik “Yer yuzidagi barcha kasblardan yuqori bo‘lgan juda faxrli kasb” ekanligini ta‘kidlagan. Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchini chuqur anglashi, uning qadrini to‘la-to‘kis anglay olishi zarur. O‘qituvchi obrazini tasvirlab, Ya.A. Komenskiy o‘z shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligini ta‘kidlaydi: vijdonli, mehnatsevar, izchil, axloqli, o‘z ishini sevadigan, o‘quvchilarga otalaridek munosabatda bo‘ladigan, ularga bilim singdiradigan, ularda hayrat uyg‘otuvchilik jihatlariga egaligi. K. D. Ushinskiy o‘qituvchilarning ma‘naviy-ruhiy va kasbiy faoliyatini yuksak baholab, ularning kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiq, degan fikrni ilgari suradi. Bu g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim birinchi bo‘lib pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim texnologiyalarini yaratishda va ularni takomillashtirishda doimiy tarzda uzluksiz harakatlar olib borilishi lozim, vaholanki harakatlar strategiyasi qanchalar intellektual salohiyatli tashkil etilgan bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga shuncha tez va yuqori natijalar bilan erishiladi. Ta‘lim texnologiyalarini takomillashtirishda qo‘llaniladigan usullardan bir qanchasi hozirda amalda tasdiq topgan texnologiyalardan biridir, ulardan:

- axborot resurrlaridan keng ko‘lamda foydalanish;
- interfaollashtirilgan ta‘lim tizimini takomillashtirish;
- masofaviy ta‘limni yo‘lga qo‘yish;
- innovatsion usullardan foydalanish va hokazolar,

Yuqorida sanab o‘tilgan texnikalar hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshirishga ruxsat berilgan texnologiyalardan hisoblanadi.

Axborot resurrlaridan keng ko‘lamda foydalanishda, pedagoglar zamon bilan hamnafas bo‘lgan xolda, ta‘lim berish bosqichlarini axborot resurrlari orqali amalga oshirishlari ko‘zda tutilgan, axborot resurrlariga hozirdagi elektronlashgan axborotlarni tushunamiz, respublikamizda axborot resurrlaridan foydalanish kundan-kunga rivojlanmoqda.

Interfaollashgan usullar yordamida pedagog bolaning ta’lim va bilimni qabul qilish tizimiga ta’sir o’tkazadi, ushbu so’z ingliz tilidan olingan bo’lib, “interaction” “o’zaro ta’sir” degan ma’nolarni anglatadi. Pedagog ushbu bosqichda iloji boricha o’zi egallagan barcha texnikalardan foydalanishi ko’zda tutilgan, bola va pedagog o’rtasidagi muvozanat ham aynan shu faollikga bog’liq.

Masofaviy ta’limni joriy etishda, ko’pincha vaziyatdan kelib chiqilgan holda AKT vositalaridan foydalaniladi. Masofaviy ta’lim texnologiyalarini amalga oshirishimizda zamonaviy doimo usullar qo’l keladi. Barchamizga ma’lumki, masofaviy ta’lim tizimi yordamida ko’plab pedagoglar o’zlarining salohiyatlari keng yoritishmoqda, bolalarga va o’quvchilarga bilimlarni masofadan turib yetkazib berishmoqda. Raqamli texnologiyalarning ko’plab imkoniyatlardan foydalangan holda, hozirgi zamonimizda ko’plab yangicha uslublar ishlab chiqarilmoqda, masalan, raqamli texnologiyalar davrigacha maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirishda qog’ozbozlik yoki shunga o’xshash targ’ibotlardan foydalanilgan, hozirgi kunda esa, pedagoglarimiz dunyo miqyosidagi pedagoglar bilan malaka oshirish imkoniyatiga ham egalar, buning asosiy omillaridan biri bu raqamli texnologiyadir, sababi, ko’plab pedagoglarda o’z salohiyatlarini oshirishda boshqa mamlakatda malaka oshirish imkoni bo’lmaydi, mana shularni hisobga olgan holda, masofaviy ta’limni tanlashlari va kasbiy mahoratlarini oshirishlari mumkin.

Innovatsion usullardan foydalanish hozirgi davr talabi hisoblanib, har tadqiqotda mana shu tizimni uchratish mumkin. Ushbu usul yordamida pedagoglarda mahoratni oshirish bosqichlari ancha yengillashadi va sifatli yakunlanadi, innovatsion tizimni ham reja asosida amalga oshirgan ma’qul, sababi rejali amalga oshirilgan tizim algoritmidan hech qanday xatoliklar va kamchiliklar kuzatilmaydi.

Pedagoglarning mahoratidan kelib chiqqan xolda ular tashkilot tomonidan baholanib boriladi.

Natijalar va muhokamalar. Shuni ta’kidlab o’tish joziki, pedagogika kasbi murakkab va mas’uliyatli kasb hisoblanadi. Bu kasbning sharafi va murakkabligi uning doimo ongning yagona egasi bo’lgan shaxs bilan muloqotda bo’lishi bilan belgilanadi. Ongli va tirik mavjudot doimo aqliy, ma’naviy va jismoniy jihatdan rivojlanadi. Shuning uchun unga ta’sir o’tkazish uchun u muntazam ravishda psixologiya, ta’lim nazariyasi kabi fanlarni o’rganishi, kasbiy mahorati ustida tinimsiz ishlashi kerak. U o’qituvchilarning pedagogik, psixologik va uslubiy tayyorgarligini ta’minlaydi. Pedagogik mahorat pedagogik jarayondagi mazmundir. Pedagogik jarayon kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni ta’minlaydi, bo’lajak mutaxassisni mehnat va hayotga tayyorlaydi, davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod uchun mas’ul bo’lgan mutaxassislarni tayyorlaydi. Shuning uchun pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlariga ega bo’lishi kerak. Pedagogika nazariyasi pedagogik mahoratning yuqorida qayd etilgan ta’rifiga, shuningdek, pedagogning kasbiy profilining xususiyatlariga hamda pedagoglarga qo’yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy talablarga asoslanib, pedagogik mahorat asosiy tarkibiy qismlardan (tarkibiy qismlardan) iborat bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi.).

Xulosa va takliflar. Xulosa o’rnida ta’kidlash mumkinki, pedagogik madaniyat - pedagogning talabchanligi, adolatligi, komilligi, rostgo’yiligi, to’g’riligi, uning burchi, mas’uliyati, qadr-qimmat, vijdoni, axloqiy e’tiqodini hisobga olish tushuniladi. Pedagogik takt (takt) pedagogik mahorat tizimida o’qituvchining pedagogik qobiliyati chegarasi, foydali, qimmatli o’z-o’zini

o‘lchashi, ifodalash va ta‘sir qilish vositalari bilan tavsiflanadi. Pedagogik mahorat tartiblari, malaka, malaka qismlari pedagogning kasbiy ta‘minotini boyitadi va uni mahoratga yetaklaydi, pedagogning pedagogik mazmunini topishga yordam beradi. Biroq, unga tayanib, o‘z kasbining ustasi bo‘lib, ish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam pedagogik fikrlash, pedagogik tafakkur, pedagogik faoliyat zarur. Demak, shaxsning o‘z rivojlanishi pedagogik hodisa va muammolarni yaratish odatini, har bir bog‘lanish jarayonini tushunishga intilish, kundalik tahlilni mustaqil tahlil qilish, yangi ta‘lim-tarbiyaviy g‘oyalarni oldingilari bilan solishtirish qobiliyatini talab qiladi. Asosiy pedagogik va psixologik yordamni topish va ularni hal qilishning eng qulay usullarini topish haqida o‘ylash kerak. Insonparvarlik inson qadr-qimmatini, erkinligi, baxt-saodati va teng huquqliligi haqida qayg‘urish, insonning barcha imkoniyatlarini yaxshilash uchun motivatsiyaga ega bo‘lishni anglatadi. Pedagoglarning individual yordamini hisobga olish, ulardan foydalanishni to‘g‘ri amalga oshirish, oldindan belgilangan ma‘naviy holatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, uni boshqalar tomonidan ushlab turish va hokazolar tushuniladi. Yuqorida, pedagoglarni kasbiy mahoratlarini qo‘llab quvvatlash masalasiga oid omillar ko‘rib chiqilgan bo‘lsada, ularni amalda qo‘llash ham pedagoglarning mahoratiga bog‘liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Met.qo‘ll.U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
2. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o‘uv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, O‘qtuvchi, 1996, - 301-bet.
3. Mahkamov U, Tillaboeva N, Tillaboeva SH. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: 2003 y
4. Uljaevna, U. F. (2020). Didactic games in preschool educational system. Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 27-29.
5. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 326-329.
6. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. DOI: 10.5958/2249-7137.2021. 00358. X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal.(Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN, 2249-7137.
7. O‘rinova, F. (2019). REPORT ON PROBLEMS IN THE PRE-SCHOOLS OF ORGANIZATIONAL PREVENTIVE CENTERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 311-315.
8. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(2), 235-239.
9. Уринова, Ф. У., & Эркинова, Ш. Ё. (2013). Значение инновационной индивидуальной работы в повышении эффективности самостоятельной учебной

деятельности студентов. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (12-2).

10. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.

11. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.

12. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>

13. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>

14. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>

15. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

16. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.

17. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

18.

ВИДЫ ИНТЕРЕСОВ У ПОДРОСТКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Хазраткулова Анжелика Валерьевна

в.б.доцента, Джизакский политехнический институт

Аннотация: В данной статье излагаются мнения о том, что в жизни подростка занимают внешкольные, избирательные интересы, которые связаны с возможностью приобретать знания самостоятельно, которые могли бы, в частности, лечь в основу профессиональной ориентации. Нередко здесь, как и в других внешкольных интересах, можно увидеть значительно более высокий уровень активности, чем на уроках или в приготовлении обязательных домашних заданий.

Ключевые слова: подросток, интерес, профессия, ориентация, знание.

Знание признаков психического развития позволяет учителю, с одной стороны, избирательно реализовывать такие приемы и методы обучения, которые оказывают максимальное влияние на формирование качеств мышления у учащихся, соответствующих указанным методам[1]. Преподавание любого предмета должно проводиться таким образом, чтобы оказывать максимальную поддержку умственному развитию учащихся. С другой стороны, это позволяет учащимся проверять и оценивать результаты своей деятельности по развитию умственных способностей.

Исследователи выделяют у подростков разные виды интересов: изменчивые, ситуативные (так называемые аморфные); захватывающие широкий круг учебных предметов (широкие); стержневые. Характер интересов подростков тесно связан с их учением, с тем, что перед ними открывается широкое поле деятельности, возможность приложить свои силы к самым разным делам.

С течением времени происходит становление именно стержневых, избирательных интересов. Косвенным следствием этого является вполне отрицательное отношение старших подростков к некоторым учебным предметам.

Особо важное место в жизни подростка занимают внешкольные учебные интересы, связанные с возможностью приобретать знания самостоятельно. Нередко здесь, как и в других внешкольных интересах, можно увидеть значительно более высокий уровень активности, чем на уроках или в приготовлении обязательных домашних заданий.

Конечно, желательно, чтобы у подростка в конце концов складывались избирательные интересы, которые могли бы, в частности, лечь в основу профессиональной ориентации. С другой стороны, важно поощрять известной степени и широту интересов школьника, которая необходима для пробы сил в разных ситуациях.

Можно было бы считать большой нашей удачей, если бы нам удалось связать внешкольные учебные интересы сына, дочери с их работой в школе, если бы удалось показать им, как могут взаимообогащать друг друга широкие познавательные и стержневые интересы. Те способы самостоятельного приобретения знаний, которые подросток усваивает вне школы, могут и должны быть применены и на занятиях в школе, при подготовке домашних заданий[5]. Вместе с тем хорошо бы поддерживать у ребят

ощущение, что учебная работа в школе – это основа и главный резерв самообразования, что именно здесь можно вооружиться навыками самостоятельного получения знаний.

Мало сказать, что подростки не всегда обнаруживают подлинные мотивы своего учения, порой они склонны даже бравировать безразличием к школьным делам, маскируя этим свои весьма сложные переживания. Эти обстоятельства нередко затемняют подлинную картину мотивов учения у подростков.

Будем помнить, что сейчас протекают сложные процессы становления отношений подростка с окружающими, а это существенно сказывается и на его отношении к окружающими акцент перемещается со взрослых на сверстников; именно их оценка приобретает решающее для подростка значение. Заинтересованность в мнении товарищей, в их одобрении можно отметить у детей уже к концу младшего школьного возраста; мнение учителя перестает быть единственной ценностью [6]. Для подростка же порицание учителя, а осуждение сверстников. Учебный процесс будет более успешным только в том случае, если большинство учащихся будут заинтересованы и развиваются в учебе. В этом случае интерес к учебе – желание многому научиться – становится одним из ведущих мотивов ученика. Качество преподавания в школе зависело от уровня знаний учителя. Не случайно проблема интереса к обучению давно привлекает внимание педагогов. Данная проблема изучалась в следующих научных работах Так вот, показное безразличие подростка к отметкам бывает вызвано нежеланием выглядеть «маленьким» в глазах одноклассников. Бывает, подросток из тех же соображений скрывает от товарищей то, что он тщательно готовится к урокам.

Конечно, считаться с этим возрастными особенностями подростков приходится. Вместе с тем важно не допустить, чтобы противопоставленность взрослому влиянию закрепилась и превратилась в негативизм, в «нигилизм полужнания», сохраняющийся порой вплоть до юношеского и даже зрелого возраста.

Отношения со сверстниками могут стать и мощным побуждением к учению. Дело в том, что у подростков познавательные интересы тесно связаны с межличностными, дружескими отношениями. От класса к классу растет осведомленность ребят об интересах друг друга. Совпадение интересов у тех, кто дружит, - следствие взаимного влияния. Новые познавательные интересы нередко возникают сначала именно из желания общаться. Ученики – эрудиты, хорошо осведомленные в той или иной области знания, нередко становятся лидерами в неформальных группах внутри класса.

Много нового и в отношениях учеников подростков с учителями. Главное обстоятельство тут – появление нескольких учителей, ведущих разные предметы. И у каждого из них обычно свои требования. Хорошо, если эти требования лишь дополняют одно другое; хуже, если они в какой-то мере противоречивы или даже носят взаимоисключающий характер [10].

Подросток очень дорожит общением со взрослыми. Внимательный наблюдатель отметит некую двойственность поведения подростка в этом общении: внутренне признавая авторитет взрослых и учитывая их мнение, подросток внешне сопротивляется им, отстаивает свою независимость. Поскольку знание рассматривается как продукт

размышления, то понятие можно определить как общее знание, представляющее важные свойства (аспекты) класса объектов и событий во всем существовании, важные связи и отношения между ними. При всей внешней независимости подросток жаждет общения, очень любит когда его самого оценивают в этой работе по взрослым меркам.

Наибольшее уважение у ребят вызывает высокий профессионализм учителя – если тот хорошо знает предмет, требователен к себе, то подросток готов принять такую же требовательность учителя и к ним.

В заключение следует отметить, что несмотря на бурный рост самосознания, оно продолжает оставаться ограниченным, касается главным образом отдельных качеств личности. Без помощи взрослого подростку трудно оценить себя в целом, в соотношении разных сторон своего развития. Оттого – то ощущение взрослости опережает у подростка наступление подлинной зрелости. Отдельные стороны развития принимаются за зрелость всей личности. Так, раннее физическое созревание и интенсивное умственное развитие создают иллюзию и социальной, духовной зрелости.

Литература:

1. Абдувахобова Д. Взаимоотношения подростка со сверстниками: умеет ли он дружить? *Innovations in technology and Science Education*. 70-79, 2022.
2. Кадилова М. Познавательные мотивы подростка в процессе обучения. *Молодой учёный*. 2015-7.-614
3. Эргашев У. Формирование умений и навыков в учебной работе. *Молодой учёный*. 762-769. 2014.
4. Кадилова М. Поведение человека в трудных ситуациях. *Актуальные вопросы современной психологии*. 17-20. 2017
5. Кадилова М. Особенности периода взросления подростка. *Молодой ученый* 2016 - 999-1002 стр.
6. Эргашев У.Э. Мотивы учения в подростковом возрасте. *Молодой учёный*. 2015 -7.-702
7. Кадилова М. Психологические особенности обучения в процессе образования. *Молодой учёный*. 2014. 912-914
8. Абдувахобова Д. Э. Основные принципы медиации по разрешению конфликта. *Ученый 21 века*.
9. Абдувахобова Д.Э. Использование ИКТ в образовании – важный фактор развития информационного общества. *Экономика и социум*. 386-388. 2023
10. Абдувахобова Д.Э. Использование информационно коммуникативных технологий в процессе обучения иностранным языкам. *Экономика и социум* 155-158. 2022
11. Абдувахобова Д.Э. Важность инновационных технологических факторов в повышении знаний студентов. ББК 81.2-5 Т-307,212

12. Зияева М.Ф. Таълим жараенида маънавий-маърифий ишларни самарали ташкил этиш йуллари, шакл, метод ва воситалари. Образование и инновационные исследования. Межд. Науч. журнал 2021.

13. Абдувахобова Д.Э. Стремление к «взрослым» формам учения в подростковом возрасте. *Gospodarka i Innowacje*.2024/2/14.122-128.

IJTIMOYIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘RNI VA AHAMIYATI**Xo‘jamatova Xusnidaxon Mansurovna**

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Email: ms.xusnida@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda ko‘pchilik tadqiqotchilarning katta qiziqishini orttirgan masala emotsional intellekt mavzusi bo‘lib, mazkur muammoga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bugungi kunda har bir sohada raqobatbardoshlikni talab qilinadigan bir paytda shaxslararo munosabatlarni ijobiy amalga oshirish bo‘yicha ham qator muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda. Mazkur muammoga samarali yechim sifatida shaxsning ijtimoiylashuvini ta‘minlash, ijtimoiy moslashuvchanlikni qaror toptirish talab etilishi ilmiy asoslarda ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: emotsiya, emotsional intellekt, aql, psixika, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, tuyg‘u, psixosomatika, deviant xulq-atvor.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda emotsiyalarni tushunish va ifoda etish muammosi juda dolzarbdir. Emotsional intellekt fenomenini o‘rganish asosiy fan va ‘sixologiya, pedagogika va menejmentning amaliy sohasi olimlarining e‘tiborini tortadi. Yangi kontseptsiyani o‘rganish ma‘lum bir yosh davrida rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini, kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishini va shaxsning muvaffaqiyati va rivojlanishiga ta‘sirini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Ma‘lumki, his-tuyg‘ularni taqiqlash ularning ongdan chiqib ketishiga olib keladi, o‘z navbatida, his-tuyg‘ularni psixologik jihatdan qayta ishlay olmaslik psixosomatik kasalliklardan tortib deviant va huquqbuzarlik xatti-harakatlarigacha bo‘lgan turli xil salbiy ta‘sirni keltirib chiqarishi mumkin, chunki o‘ziga xos kuchga ega bo‘lgan emotsional muammolar o‘zini o‘zi boshqarish darajasi pasaygan odamlarda namoyon bo‘ladi.

Emotsional intellekt deganda insonning his-tuyg‘ularni anglash, ularga erishish va ularni fikrlash, his-tuyg‘ularni va ular nimani anglatishini tushunishga yordam berish va shunga mos ravishda ularni emotsional va intellektual o‘shishiga yordam beradigan holda boshqarish qobiliyati tushuniladi. Emotsional intellekt boshqa odamlar boshdan kechirgan his-tuyg‘ularni og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlari bilan tushunishga, odamlarning his-tuyg‘ularining namoyon bo‘lishini farqlashga imkon beradi, his-tuyg‘ularning kelib chiqishi va sababini, ma‘lum bir vaziyatda uning foydalilik darajasini aniqlash qobiliyatiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, muammolarni hal qilishga va hayotda va ishda o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi. Rivojlangan emotsional intellektga ega odamlar boshqa odamlar bilan muzokara olib borish, qaror qabul qilish va salbiy vaziyatlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish qobiliyatiga ega.

Rivojlangan emotsional intellektga ega bo‘lgan odamlar harakatlar yoki his-tuyg‘ularga emas, balki sabablarga javob beradi. Bu unga tanqidni to‘g‘ri qabul qilishga, boshqa odamlarni tushunishga va ularga munosib javob berishga yordam beradi¹.

¹ Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sijifactor.com/passport.php?id=22257> Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 13
shaxslarda emotsional intellektni rivojlantirish tendensiyalari Madina Fazliddinova Saidvaliyeva

Inson hayoti va faoliyati davomida atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlarni samarali va ijobiy olib borishga intiladi. Eng avvalo, emotsional intellektni masalasini bayon etishdan avval umumiy intellekt tushunchasiga to‘xtalib o‘tish zarur.

“Intellekt” lotin tilidan olingan bo‘lib, aql, idrok, zehn ma’nolarini anglatadi. Intellekt insonning bilish qobiliyati, fikrlash, anglash, tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi. U ma’naviyatga yaqin bo‘lib, insonning ruhiy-hissiy tuyg‘usi, bilish qobiliyati va aql-zakovati, aqliy yetukligi va yuksaklikka intilishi bilan uyg‘unlashadi².

“Pedagogika” entsiklopediyasida intellekt tushunchasi quyidagi talqin qilingan: Intellekt kishilarning aqli, idroki, zakovati, mahnaviy jihatdan yetuklik darajasini ham ifodalaydi; tasavvur, idrok, sinchikovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraktsiya, tushuncha, hukm va.h.k.) orqali asosli bilimga ega bo‘lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etish qobiliyatini ham anglatadi.

Tafakkur tarixida intellekt to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar turlicha bo‘lgan. Intellekt ma’naviyatga taaluqli bo‘lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Intellektual resurs insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida, avvalo, o‘z aqliy omilkorlik salohiyatini, turmush tarzini turli yo‘nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir³.

Adabiyotlar tahlili. ‘sixologik olim E.G‘oziev intellektga tafakkur bilan bog‘liq holda quyidagicha tarzda izoh bergan: insonning aql-zakovati – bilish faoliyati voqelikni, narsa va hodisalarni sezish va idrok etishdan boshlanadi. So‘ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishdan aks ettirishga o‘tadi. Fikr yuritishning sinteziga aylangan yuqori darajadagi bilish jarayoni tafakkur ham hissiy bilish organlarining mahsuli ya‘ni sezgilar, idrok va tasavvur materiallariga asoslangan holda namoyon bo‘ladi⁴.

Emotsional intellektning yuzaga kelishida umumiy intellektning barcha elementlari bevosita ishtirok etadi: tafakkur, tafakkur turlari analiz, sintez, hayol, taqqoslash, xotira va uning turlari.

Emotsional intellekt tushunchasi birinchi marta 1920 yili E.Torndayk tomonidan fanga kiritilgan. U mazkur tushunchani “shaxslararo munosabatlarda ongli, o‘ylab, oqilona harakatlar bilan muloqotda bo‘lish”, deb tushuntirgan. E.Torndayk ijtimoiy ong(aql)ni odamlar bilan muloqotning muvaffaqiyatini tahminlaydigan o‘ziga xos kognitiv qobiliyat deb hisoblagan. Ijtimoiy aqlning asosiy vazifasi muloqot jarayonidagi hatti-harakatlarni oldindan his eta olishdir. Emotsional intellekt umumiy intellektning bir turi hisoblanadi⁵.

V.N.Drujinina, Yu.N.Emilg‘yanova, A.L.Yujaninova, V.N.Kunitsina, Ye.S.Mixaylova va boshqa tadqiqotchilar olib borilgan ilmiy izlanishlarda emotsional intellektning samaradorligini kognitiv qobiliyatlar belgilashi⁶ga alohida ehtibor qaratilgan.

² Шайхова Х. Интеллектуал салоҳият – тараққият мезони. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.12.

³ Педагогика энциклопедия II жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015. – Б.102.

⁴ Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.6.

⁵ Федоренко А.В. Социальный интеллект: Сущность и проблемы у студентов педагогических специальностей // Вестник Военного университета. 2011. №4 (27). С.57-60.; Практический интеллект / Роберт Дж. Стернберг, Джордж Б. Форсайт, Дженнифер Хедланд и др. СПб.: Питер, 2002. – 265 с.

⁶ Дружинин В. Н. Психология общих способностей / В. Н. Дружинин. - СПб. : Питер, 1999. - 289 с.; Емельянов Ю.Н. Активное социально-психологическое обучение / Ю. Н. Емельянов. - Л. : Изд-во ЛГУ, 1995. – 167 с.; Южанинова А. Л. К проблеме диагностики социального интеллекта / А. Л. Южанинова // Проблемы оценивания в психологии. - Саратов: 1994. – С.84-87. Куницына В. Н. Межличностное общение: учебник для

A.L.Yujanina emotsional intellektni amaliy va mantiqiy intellekt bilan bir qatorda ko‘rib chiqadi. Oxirgi ikkitasini u subhekt-obhekt munosabatlari doirasida kiritadi. Emotsional intellektni esa, subhekt-subhekt doirasiga qo‘shadi. Muallif, emotsional intellekt – bu uch o‘lchovda ko‘riladigan alohida ijtimoiy qobiliyatdir⁷, degan xulosaga kelgan:

1. Ijtimoiy-pertseptiv qobiliyatlar – insonning individual adekvat ifodalash imkoniyatini tahminlovchi to‘liq shaxslik qurilmasidir. Uning xususiyatlari emotsional doirasidagi ‘sixik jarayon va vaziyatlarga ko‘chib o‘tadi. Shuningdek, uning atrofdagilar bilan munosabatida xarakterini anglashdagi aniqligidir. Biroq, refleksiyani ijtimoiy-pertseptiv jarayonlar bilan aloqasini ham e‘tiborga olish lozim. Shuning uchun ushbu hodisaning psixologik mazmunini, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati, ya‘ni o‘zining individual-shaxslik sifatlarini anglash, xatti-harakat motivlari va o‘zini boshqalar tomonidan qabul qilinishidagi xarakterini ham hisobga olish zarur.

2. Ijtimoiy tasavvur – bu insonning tashqi belgilari asosida kishilarning individual va shaxslik xususiyatlarini adekvat modellashtirish qobiliyatidir. Shuningdek, kelgusidagi o‘zaro tahsir xususiyatlarini aniq ko‘ra bilish, aniq vaziyatlarda insonning hatti-harakati xarakterini bashorat qilish qobiliyati hamdir.

3. Muloqotning ijtimoiy texnikasi – bu vaziyatni idora qilish va o‘zaro tahsir shaxslik sifatini yo‘naltirish, o‘zining rolini o‘ziga qabul qilish mahoratida namayon bo‘luvchi «harakatdagi» kom‘onentdir. U muloqat texnikasi va vositasini talab qiladi.

Shuningdek, A.L.Yujaninova umumiy va emotsional intellekt munosabatlariga ham to‘xtalib o‘tgan. Ko‘pchilik tadqiqotlar natijasida A.L.Yujaninova shunday xulosaga keladi-ki, emotsional intellekt umumiy intellektga bog‘liq emas, lekin uning rivojlanish darajasi insonning moslashuviga tahsir ko‘rsatadi: emotsional intellekt qanchalik yuksak bo‘lsa, inson shunchalik moslashuvchan bo‘ladi. psixikaning ushbu tomonining ahamiyati ko‘psonli misollarda ko‘zatiladi. Qachonki, moddiy dunyo hodisalarini o‘rganishda yuksak muvaffaqiyatlari bilan ajralib turuvchi insonlar (yuqori umumiy intellekt sohiblari) shaxslararo munosabat doirasida ojiz qolishganida bu yaqqol ko‘rinadi. Shu tarzda emotsional intellekt ijtimoiy moslashuv va muloqotchanlikni belgilab beruvchi integral intellektual qobiliyatdir⁸.

D.V.Ushakov emotsional intellekt deganda o‘zgalarning ichki dunyosini va ularning xatti-harakatini anglash qobiliyatini tushunadi. Shuningdek, u emotsional intellekt adekvat ijtimoiy harakatlarni amalga oshiruvchi emas, balki, anglash qobiliyati bilan cheklanadi, deb tahkidlaydi. Bu esa, shuningdek, sotsiumda samarali harakat qilish mahorati, tem‘erament, tashqi ko‘rinish kabi bir qator omillarga bog‘liqdir. Uning boshqa mualliflar nuqtai nazaridan asosiy farqi ham shundadir.⁹

D.V.Ushakov emotsional intellektning bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatgan:

вузов / В. Н. Куницына, Н. В. Казаринова, В. М. Погольша. - СПб.: Питер, 2002. - 544с. Куницына В. Н. Социальная компетентность и социальный интеллект: структура, функции, взаимоотношение / В. Н. Куницына // Теоретические и прикладные вопросы психологии / Под ред. А. А. Крылова. - СПб. : 1995. - С. 48-59.

⁷ Южанинова А.Л. К проблеме диагностики социального интеллекта / А. Л. Южанинова // Проблемы оценивания в психологии. – Саратов: 1994. – С.84-87.

⁸ Южанинова А. Л. К проблеме диагностики социального интеллекта / А. Л. Южанинова // Проблемы оценивания в психологии. - Саратов: 1994. – С.84-87.

⁹ Ушаков Д. В. Интеллект: структурно-динамическая теория. - М. : Институт психологии РАН, 2003. – 259 с.; Ушаков Д. В. Социальный интеллект и его измерение / Д. В. Ушаков // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / Под ред. Д. В. Люсина, Д. В. Ушакова. – М. : Институт психологии РАН, 2004. – С. 141-160.; Ушаков Д. В. Социальный интеллект как вид интеллекта / Д. В. Ушаков // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / Под ред. Д. В. Люсина, Д. В. Ушакова. - М. : Институт психологии РАН, 2004. – С.11-29.

1. Kontinual (uzluksiz rivojlanish). Kontinual jarayonlar emotsional intellektga mavjud holatni kiritadi va yuqori darajada qabul qilish doirasiga xosdir hamda o‘zga odamning hatti-harakatini baholashda turli motivlarga o‘lchov qo‘llanilishi – “subyektiv baholash”ga javobgardir.

2. Noverbal reprezentatsiyani qo‘llash. Til diskret doiraga yetaklaydi, u borliqni elementlarga ajratadi.

3. Verbalizatsiya ijtimoiy baholashning aniqligi yo‘qolishi –baholashda insonlar o‘zlari anglamagan bir qator mezonlar jamlanmasidan foydalanadilar.

4. Implisit o‘rganish jarayonidagi shakllanish, ya’ni natija subhektning ongli xarakteriga bog‘liq emas, o‘rganish harakat orqali bo‘ladi.

5. “Ichki” tajribadan foydalanish – emotsional intellektning boshqa intellekt turlaridan asosiy farqi, ichki tajriba emotsional intellektni muvaffaqiyatli harakatlantirishga imkon beradi va re‘rezentatsiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tajribaning mavjudligini emotsional intellektni dunyo qarashini kengaytirish uchun resurs hisoblanadi¹⁰.

D.V.Ushakovning fikricha faqat “ichki” tajribadan foydalanish emotsional intellektni boshqa intellekt turlaridan farqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Emotsional intellekt tushunchasining mohiyatini va uning tuzilishini tushunish uchun biz "aql" so‘zining asl ma‘nosini va uning turli xil belgilarini tahlil qilamiz. "Aql" deganda axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq kognitiv xususiyat tushuniladi.

Entsiklo‘ediya aqlni fikrlash qobiliyati, mavhum bilish qobiliyati sifatida belgilaydi va taqqoslash, mavhumlashtirish, tushunchalar, hukmlar, xulosalarni shakllantirish kabi funktsiyalarni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, emotsional intellekt o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini tanib olish, tushunish va ularni boshqarish qobiliyati sifatida tavsiflanadi

Emotsional intellekt qobiliyatlardan tashkil to‘gan tuzilmaga quyidagilar kiradi:

☑ emotsiyalarni aniqlash va ifoda etish;

☑ emotsiyalarni tartibga solish;

☑ fikrlash va faoliyatda emotsional ma‘lumotlardan foydalanish.

Tadqiqot natijalar. Odatda psixologlar emotsional intellektni to‘rt toifaga ajratadilar.

Birinchisi, boshqalar bilan aniq muloqot qilish, o‘z maqsadini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish, faol tinglash, ta‘sir o‘tkazish va ilhomlantirish, jamoada ishlash yoki unga rahbarlik qilish va nizolarni hal qilish qobiliyati.

Ikkinchisi-odamlarning katta guruhida umumiy empatiya va o‘zini qulay his qilish: ekstrovert yoki introvert bo‘lishidan qat’i nazar, boshqalarning emotsional signallarini his qila olishdir. Uchinchi belgi-bu zaif va kuchli tomonlaringizni bilish, shuningdek shaxsiy his-tuyg‘ularning hayotga ta‘sirini yaxshi bilish. Va oxirgisi, his-tuyg‘ularni boshqarish, ularning o‘ziga halokatli ta‘sirini cheklash, o‘z majburiyatlarini bajarish, uzoq muddatli munosabatlarni saqlab qolish va atrof-muhitga mos ravishda o‘zgartirish qobiliyati.

Emotsional intellektning o‘zi odamni ushlab turishga qodir, ammo chuqur bilim va kuchli

¹⁰ Ушаков Д. В. Социальный интеллект и его измерение / Д. В. Ушаков // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / Под ред. Д. В. Люсина, Д. В. Ушакова. - М. : Институт психологии РАН, 2004. - С. 141-160.; Ушаков Д. В. Социальный интеллект как вид интеллекта / Д. В. Ушаков // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / Под ред. Д. В. Люсина, Д. В. Ушакова. - М. : Институт психологии РАН, 2004. - С.11-29.;

motivatsiya bilan birgalikda kareradagi eng yaxshi natijalarni beradi. O‘z-o‘zini tartibga solish, eshitish va o‘zingizni boshqasining o‘rniga qo‘yish qobiliyati, kayfiyatni boshqarish qobiliyati aloqa zarur bo‘lgan barcha sohalarida amaliy ko‘nikmalarni to‘ldiradi. Emotsional intellect motivatsiya va proaktiv xatti - harakatlar bilan chambarchas bog‘liq-o‘zgarishlarga yetarlicha javob berish, odamlarni birlashtirish (ajratmaslik), boshqalarning manfaatlarini himoya qilish, hokimiyatni to‘shirish va odamlarga eng yaxshisiga bo‘lgan ishonchni ilhomlantirish qobiliyatidir

Emotsional intellektga quyidagilar o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi:

1. Empatiya - keng ma‘noda, emotsional intellekt boshqalarning his-tuyg‘ulari va fikrlarini tushunish qobiliyatiga ta‘sir qiladi. Bu har xil turdagi ko‘plab ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin: ijtimoiy psixologiyada guruh xatti-harakatlari yoki er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlar, shuningdek, vahima qo‘zg‘atadigan odamni tinchlantirish diqqatni chalg‘itish usullari.

Umuman olganda, empatiya-bu boshqalarga har qanday holatda kayfiyat berish, ularning kayfiyatini qabul qilish, tilni tushunish va og‘zaki bo‘lmagan belgilarni o‘qish.

Emotsional intellekt ta‘sir qiladigan birinchi narsa bu boshqalarning his-tuyg‘ularini aniqlash va undan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Yig‘layotgan chaqaloqqa baqirmaslik yoki tajovuzkor odamlar bilan uzoq vaqt janjal qilmaslik qoidasi behuda sarflangan sa‘y - harakatlarni kamaytirishga yordam beradigan asosiy empatiya qoidasidir. Bo‘ysunuvchilarni eshitadigan va ularga o‘shirish va rivojlanish vositalarini beradigan menejer o‘zini em‘atik rahbar sifatida namoyon qiladi, chunki u boshqalarning talablarini sezadi va ularga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy ko‘nikmalar - emotsional intellektning yuqoridagi barcha ta‘sir zonalari asosiy narsaga olib keladi: bu fazilatlarining umumiyliigi odamlarni yaxshiroq tushunishga, ularga nisbatan asossiz ginalarni saqlamaslikka, o‘zimizdan va boshqalardan bizning qo‘limizdan ko‘proq narsani talab qilmaslikka, guruh ta‘siriga berilmaslikka yordam beradi¹¹.

M.I.Bobneva emotsional intellektni muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta‘sir muhitida shakllanuvchi insonning alohida qobiliyati sifatida baholash kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek, muallif emotsional intellekt va umumiy intellektni farqlashga harakat qiladi: umumiy intellektual rivojlanish to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional intellekt darajasi bilan bog‘liq emas. Yuqori intellektual daraja inson uchun zarur hisoblanadi. Biroq shaxsning ijtimoiy rivojlanishi uchun yetarli shart bo‘la olmaydi. U ijtimoiy rivojlanishga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari yuksak intellekt egasi ijtimoiy muhitda noadekvat hatti-harakatlari va xulq-atvori bilan qadrsizlanishi mumkin .

A.A.Bodalev o‘zining ilk ilmiy ishlarida emotsional intellektni pertseptsiya ya‘ni, o‘zga odamni anglash va qabul qilish sifatida tavsiflaydi. A.A.Bodalev birinchi bo‘lib, “o‘zgani anglash” iborasini qo‘llaydi. Bu termini juda keng mahnodada tushunish mumkin. U eng avvalo, o‘zga odamni spetsifik (o‘ziga xos tomonini) qabul qilish bilan belgilnadi. Bundan tashqari, ushbu tushunchaning tarkibiga subyekt va obyekt sifatida qabul qilish bog‘lovchi aloqador tasavvurni shakllantirish ham kiradi. Aynan shu fizik obyektlarni qabul qilishda unchalik rol o‘ynamaydigan qator qo‘shimcha omillarga katta ahamiyat beradi .

¹¹ SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 4 | ISSUE 3 | 2023 ISSN: 2181-1601 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257> Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 15

Keyinchalik A.A.Bodalev emotsional intellektni samarali muloqotni tahminlovchi kommunikativ kompetentsiyaning barcha mezonlarning birlashmasi, deb izohlaydi. Mezonlar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatgan:

- ✓ ijtimoiy moslashuvchanlik;
- ✓ empatiya; nutqiy muloqotning yuqori madaniyati;
- ✓ refleksiya rivojining yuqori darajasi;
- ✓ o‘zga odamlarni pozitiv qabul qilish;
- ✓ konfliktlarni ijobiy hal qilish mahorati.

Bunda olim kommunikativ sifatlar shakllanishida asosiysi bu – insonni o‘zini boshqa kishining o‘rniga qo‘ya olishi, deb qayd etadi. Bu o‘zga shaxsiyatga “kirish” va u bilan o‘zaro to‘g‘ri muloqot o‘rnata olish imkonini beradi .

A.A.Bodalev tomonidan taklif etilgan ilmiy yo‘nalish doirasida ijtimoiy pertseptsiya muammosini o‘rganish, odamlar tomonidan bir-birlarini tushunish bir qancha ko‘zga ko‘ringan olimlar, jumladan V.N.Kunitsina ning ilmiy ishlari ijtimoiy psixologiyada yangi yo‘nalishni kashf etdi: ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonida emotsional intellekt va ijtimoiy kompetentlik. Emotsional intellekt va ijtimoiy kompetentlik ko‘p yillik tadqiqotlar, shu jumladan, samarali muloqot muammolari, bu hodisalarni o‘rganishning xususiy asl modeli natijalariga tayanadi.

Xulosa turli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellektga doir nazariy modellarning ma’lum qismini o‘rganish asosida biz taqdim etilgan kontseptsiyalarda farqlar ko‘zga tashlansada, biroq ularning barchasida uchta parametr ishtirok etishi haqidagi xulosaga keldik:

- ✓ ijtimoiy xulq-atvor motivlari va boshqa kishilarning emotsiyasini tushunish;
- ✓ shaxsiy emotsiyalarini adekvat aks ettirish va yo‘naltirish;
- ✓ o‘zining emotsiya va ijtimoiy xulq-atvorini boshqarish.

Mazkur uch blok parametrlar barcha tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan va o‘quvchilarda emotsional intellektning rivojlanganligini tashxis etish imkonini berishi mumkin. Bu esa, mazkur bloklar tahlil oluvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishning tarkibiy asoslari bo‘lib xizmat qilishi mumkinligidan guvohlik beradi.

Insonning emotsional tajribalarini belgilaydigan qadriyatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Tuyg‘ular farovonlikka, ichki holatga, ishlashga va etarli va xolis qaror qabul qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Agar siz his-tuyg‘ularga e’tibor qaratsangiz va aniq nimani boshdan kechirayotganingizni aniqlasangiz, vaziyatni ehtiyotkorlik bilan baholashingiz to‘g‘ri qaror qabul qilishingiz mumkin. Shuning uchun his-tuyg‘ularingizni tan olish va nazorat qilish juda muhimdir.

Tuyg‘ularni aniqlashga yordam beradigan bir nechta savollar mavjud: men va tanam hozir nimani his qilyapmiz? Men nima qilmoqchiman? Tuyg‘ular, qoida tariqasida, odamlarni kundalik hayotda ham, ishda ham boshqaradi, ya’ni ular doimo ongli aqliy faoliyatdan ustun turadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Khusnidakhon, K. (2021). The importance of enhancing social skills of preschoolers. *European Scholar Journal*, 2(3), 74-78.
2. Khojamatova, K. M. (2023). Social Relations and Social Development of Personality In the System Of Preschool Education. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 37-42.
3. Mansurovna, X. X. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini oshirishda muammo va yechimlar. qo‘qon universiteti xabarnomasi, 680-682
4. Xo‘Jamatova, X. (2022). Maktabgacha katta yoshli bolalarda ijtimoiy ongni shakllantish. *science and innovation*, 1(b4), 634-636
5. Махкамов, А. (2023). Аралаш таълим технологиялари асосида булажак уқитувчиларда соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш технологиялари. *Общество и инновации*, 4(6/S), 45-49
6. Махкамов, а. ю. (2023). олий таълим битирувчилари учун жисмоний тарбия машғулотларида соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантиришнинг амалий-методик имкониятлари. *scientific impulse*, 1(9), 844-851.
7. Махкамов, А. Ю. (2022). соғлом турмуш тарзи жамият тараққиётининг асосий омили. *ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 249-252
8. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o‘rni. qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 788-789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
9. Komiljonova, G.N. qizi. (2023). fanlararo bog‘lanish asosida boshlang‘ich ta‘limni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198-201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
10. Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li, and Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi. "yosh avlod kamolotida texnologiya fani va uning kelajagi". qo‘qon universiteti xabarnomasi, vol. 1, no. 1, May 2023, pp. 923-6, doi:10.54613/ku.v1i1.760.
11. Abduraxmonova, N.A. qizi. "bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida". *Educational Research in Universal Sciences*, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
12. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
13. Nigoraxon A., Mohlaroy A. boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 83-87.
14. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi." *yosh tadqiqotchi jurnali* 3.1 (2024): 83-87
15. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.

16. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
17. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
18. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
19. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
20. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.

**O‘QUV JARAYONIDA FANLARNI O‘QITISHDA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO‘LLARI****Xoldarov Xatamjon Mo‘ydinovich**

Islom Karimov nomidagi TDTU Qo‘qon filiali
Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi
xoldorovxatamjon071@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘quv jarayonida talabalar bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda ta‘lim sifatini o‘rni va ahamiyati, uni amalga oshirishda ‘qituvchi-pedagoglarning dars mashg‘ulotlarini olib borishdagi faoliyatini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, metod, loyiha, o‘qituvchi-pedagog, talaba, interaktiv, hamkorlik

Bugungi kunda o‘quv jarayonida ta‘limni sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o‘rganishdagi metodlar ham o‘zgarimoqda. Ta‘limda yangi bilimlarni amalda qo‘llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta‘lim yaratilishiga olib kelmoqda. Talaba o‘zlashtirgan bilimni amaliyotda qo‘llay bilishi uchun uni o‘z vaqtida mustahkamlashi, boshqa tushunchalarni o‘rganishda qo‘llash bilishi va olingan bilimlarni tizimlashtirish ta‘lim samaradorligini ta‘minlashga olib keladi.

Talabalarda mutaqil ishlash ko‘nikmasini tarbiyalash sifatli mutaxassis tayyorlashning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Talabalarning mustaqil ishlari tizimi quyidagilardan iborat:

- o‘quv fani, mazmuni ustida bajariladigan joriy ishlari ma‘ruzalarni o‘zlashtirish, darslik va o‘quv manbalari bilan ishlash, laboratoriya, amaliy, seminar mashg‘ulotlari hamda nazorat topshiriqlarini yechishga tayyorgarlik ko‘rish;

- semestr davomida uy vazifalarining bajarilishi (mavzular bo‘yicha referatlar tayyorlash, mustaqil ravishda berilgan mavzuga doir ma‘lumotlar to‘plash va o‘rganish);

- kurs ishlarini bajarish.

Talabani mustaqil ishlashga o‘rgatish birinchi navbatda dars mashg‘ulotlarida yetakchi va tajribali o‘qituvchilarning ma‘ruzalarini tinglash, ilmiy va ilmiy-uslubiy jurnallardagi maqolalarni o‘rganish, darslik va adabiyotlar bilan ishlashga, elektron manbalardan foydalanishga o‘rganishdan boshlanadi. O‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishi amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida va talabalarning jamoa bo‘lib ta‘lim olishlarida davom ettiriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limining asosiy tamoyili ta‘lim markazida talaba qo‘yiladi. Ta‘lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim muhim hisoblanib u quyidagilarga asoslanadi:

- shaxsning xususiyatlariga;
- uning oldingi tajribalariga;
- aqliy xususiyatlariga;
- ta‘lim jarayoniga mos taxnologiyalarni tanlashga.

Hamkorlikda ta‘lim olish metodi ta‘lim samaradorligini oshirish usullaridan biri bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi turli o‘quv holatlarida talabalarning faol o‘quv faoliyatlari uchun sharoit yaratish ya‘ni talabalar uchun ma‘lumotlarning axborot banki, nazorat-sinov banki, masofadan turib ta‘lim olish, mustaqil ishlarni to‘g‘ri tashkillashtirish kabi muammolarning yechilishida qo‘l keladi.

Ta‘lim samaradorligini oshirishda ta‘lim maqsadlari, metodlari, mazmuni, shakli, vositalari va jarayonlariga yangicha yondashuv asosida fanlarning integrallashuvi va sintezlashuvi ma‘lum maqsadlarga yo‘naltirilganligi uchun **loyihalash metodiga** tayanadi. Loyiha metodi asosiy e‘tiborni kasbni egallashda kerakli shaxsiy qobiliyatlar va ko‘nikmalarni o‘rganishga qaratadi, loyiha, o‘rganish jarayonida nazariya bilan amaliyotni bog‘lashi, o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirila oladigan, mehnatni tashkil etishga va amalga oshirishga yordam beradigan bo‘lmog‘i lozim. Loyiha usulining asosiy maqsadi topshiriqni bajarish uchun kerakli barcha bilim va ko‘nikmalar jarayon davomida o‘rganilishi darkor, bunda o‘quvchilar berilgan topshiriqni bajarishda vazifalarni o‘zaro taqsimlab, loyiha guruhi sifatida mustaqil ravishda rejalashtirishdan boshlab to amalga oshirish va xulosa chiqarishga qadar birgalikda ishlashadi.

Zamonaviy ta‘limning samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkazayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki ta‘limda belgilangan maqsadlarga erishish darajasi talaba aqliy faoliyatining qanchalik o‘sganligi bilan o‘lchanadi.

Talabaning bilish jarayonidagi faoliyati faollashivuni o‘qituvchi tomonidan tashkillashtirish deganda talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari va metodlaridan foydalanishga asoslangan o‘quv materialini mustaqil, faol, maqsadli yo‘naltirilgan shaklda o‘rganish tushuniladi.

Ta‘limda kutilgan natija pedagog va talaba orasidagi munosabatga ko‘proq bog‘liq bo‘lganligidan, bu munosabatlar bilan bog‘liq muommalarni yechishga xizmat qiluvchi hamkorlik pedagogikasining rivojlanishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Ta‘lim maqsadlariga erishishda pedagog va talabaning hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishi uchun o‘rganilgan asosiy omillar quyidagilardir:

- samarali ta‘limda pedagog va talabaning bilimi hamda malakasining o‘shirishini ta‘minlash;
- talaba bilim olishiga ehtiyojining oshishi uning bilim olish faoliyatining faollashuviga, o‘z navbatida o‘qituvchining ham o‘z ustida ishlashi va malakasining o‘shirishiga;
- talabalarning kichik guruhlarda ta‘lim olishini modellashtirishga;
- talabalarning o‘z-o‘zining faoliyatini baholashga sharoit yaratish.

O‘tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga asoslanib, fanlarni samarali o‘rganish bo‘yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- o‘rganish rag‘batlantirilishi kerak (maqtoov orqali);
- o‘quvchilar o‘zlarining o‘rganishdagi yutuqlari haqida xabardor bo‘lsalar, qiziqtirish kuchaytiriladi;
- o‘rganishning faol davrlarini tashkil qilish kerak;
- o‘rganish o‘tayotgan davrda ko‘pgina qulay holatlarni qo‘llash, o‘quv vaziyatlarini o‘zgartirib turish kerak;

- o‘quvchilar qancha ko‘p faol bo‘lib o‘rganishsa, o‘zlashtirish davomli va muvaffaqiyatli bo‘ladi, o‘rganishning interaktiv usullaridan foydalanish va guruhviy o‘rganishni o‘tkazish kerak;

- o‘quv jarayonida yordamchi usullarni qo‘llash orqali o‘rganish samarasini oshirish mumkin.

Ta‘lim sifatini belgilovchi omillardan kelib chiqqan holda ta‘lim sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va shu mezonlar asosida ta‘lim sifatini baholab boradi, duch kelinayotgan muammolar bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar belgilaydi.

Har bir o‘qituvchi-pedagog dars mashg‘ulotlarini olib borishda o‘z faoliyatini tahlil qila olish va shu asosda tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o‘qituvchi o‘z mashg‘ulotlarining samaradorligini baholay olmasa, u holda o‘zi yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni sezmaydi va bu faoliyatda ijodiy yondashuv ham bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga oid chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarori.- Toshkent, 2017 y, 20-aprel.

2. Abdurahmonov Sh. Pedagogik kvalimetriya (baholash) asoslari. Ilmiy-ulubiy ishlanma. Namangan, NamMPI, 2013.

3. Эрганова Н.Е. Методика профессионального обучения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М. Изд. Центр “Академия”, 2007.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Paradaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- Toshkent, 2008.

5. Mirsolieva M, Ibragimova G.Ta‘lim texnologiyalari va pedagogik mahorat.(metodik tavsiyanoma) –Toshkent, TTESI, 2015.

6. Ismoilova Z.K, Maxsudov P.M, S.N.Jo‘raeva, N.YU.Umarov. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Navro‘z”, 2016.

7. Ismoilova Z.K, Maxsudov P.M. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlash tizimini tahlili. “Ta‘lim muammolari”.- Toshkent, 2013,№3

**FIZIKA O‘QITISHDA MUAMMOLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI****Xolov Komil Normamatovich****Bobilov Nodirbek Xolto‘rayevich**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Fizika ma‘ruzalari o‘rganiladigan mavzuning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarini hisobga olgan holda texnologiyadan foydalanishni ilmiy – uslubiy asosda tanlagandagina ko‘zlangan maqsadga va samaradorlikka erishiladi. Texnologiyadan foydalanishning ilmiy-uslubiy asosda tanlangan maqsadga va samaradorlikka erishish uchun, fizika ma‘ruzalari o‘rganishida quyidagi ta‘limiy, tarbiyaviy, va rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilash zarur:

Ta‘limiy maqsadlar:

1. Fizikani o‘rganuvchilarda nazariy bilimlarni oshirish.
2. Amaliy ko‘nikmalarni va malakalarni rivojlantirish.
3. Ilmiy metodlarni va nazariy tushunchalarni ishlab chiqishni ta‘minlash.
4. Fizikadan qiziqishni oshirish va o‘rganuvchilarni qiziqishlarini yengish.

Tarbiyaviy maqsadlar:

1. O‘rganuvchilarning o‘zlarini va doirasini tushunish, qadrlash va rivojlantirish.
2. Ishonch, sabr, va ishtirok etishni o‘rgatish.
3. G‘oyalarini va iste‘dodlarini rivojlantirish orqali shaxsiy rivojlanishlariga yordam berish.

Rivojlantiruvchi maqsadlar:

1. Kognitiv rivojlanishni oshirish.
2. Ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Fizikaviy kompetentlikni rivojlantirish va qisqa vaqt ichida muammoni hal qilishga yordam berish.

Bu maqsadlarni erishish uchun, quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin:

Interaktiv darsliklar va ma‘ruzalar: Virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar orqali, nazariy bilimlarni o‘rganuvchilar uchun ko‘rib chiqish va tajribaga olish imkoniyatini beradi.

Online platformalar: Fizika ma‘ruzalarini onlayn platformalar orqali o‘tkazish, o‘rganuvchilar uchun muntazam murojaat va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini yaratadi.

Multimedia darsliklar va videolar: Animatsiyalar, infografiklar va videolar orqali, ko‘nikma qobiliyatlarni rivojlantirish va konsepsiyalarni tushuntirish.

Ta‘limiy o‘yinlar va testlar: Fizika bo‘yicha interaktiv o‘yinlar va savollar, o‘rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ma‘lumotlarni yodlashga yordam beradi.

Ta‘limiy dasturlar va mobil ilovalar: Fizika masalalarini hal qilish va mustaqil o‘rganishga imkoniyat yaratadigan mobil ilovalar va dasturlar.

Bularning barchasi o‘quvchilarning o‘zlashtirish va amaliyotga yo‘naltirishini ta‘minlash uchun muhim vositalardir. Ta‘limiy jarayon davomida bu texnologiyalardan foydalanish, o‘rganuvchilarning aktiv bo‘lishini va ma‘lumotlarni samarali o‘rganishini ta‘minlaydi.

Ta‘lim jarayonida muhim o‘rin egallagan muammoli ma‘ruza, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) mavzulari muammoli ta‘lim texnologiyasiga asoslanadi. Mazkur mavzularning o‘ziga xos jihati ma‘ruza davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanishi, ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘quvchilarni kritik fikrlashga, muhokama qilishga va muammolarni hal qilishga ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Muammoli ma‘ruzalar:

Bu mavzular o‘rganuvchilarga muammoli masalalarni hal qilishda o‘zlarining kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Texnologiya, interaktiv platformalar va online ma‘lumotlar orqali, o‘rganuvchilar ma‘ruzalardagi muammolar haqida o‘ylash, tahmin qilish va ularni hal qilishda ishtirok etishlari ta‘minlanadi.

Foydalanuvchi-interfeyslarni va grafik dizaynlar o‘rganuvchilarning muammolarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonini osonlashtiradi.

Bu sabablarni hal etish uchun musiqa o‘qituvchisi bu o‘quvchilarga darslarda e‘tiborliroq bo‘lib, ularning fikrlari va diqqatlarining chalg‘imasligiga erishishi kerak. Ular bilan, kerak bo‘lsa, darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda yakka tartibda ishlashi kerak. Shundagina o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oladi.

Musiqiy ta‘lim o‘quv faoliyatini kuchaytirish, tashkil etish va nazorat qilish qonuniy ravishda ta‘limning vazifalari va mazmuniga bog‘liqdir. O‘quvchi musiqa darslarida berilgan o‘quv materiallarini nafaqat eshitish yoki his qilish orqali o‘zlashtiradi, balki o‘zidagi shu musiqiy bilimga nisbatan bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun o‘zlashtiradi. Bola, odatda, kamolotga, go‘zallikka intilib yashaydi. Bu intilish tabiiy ehtiyoj hisoblanib, bunday ehtiyojni qondirish uchun u yoki bu faoliyatni talab etadi. Odatda, o‘qituvchi o‘quvchi bilan tizimli ishlar olib borsa, o‘quvchi o‘qishni istaydi. Lekin doimo bu o‘ylagandek bo‘lavermaydi, ya‘ni bir xil dars mashg‘ulotini guruhdagi o‘quvchilar har xil o‘zlashtiradi.

Bunga sabab:

1. O‘quvchilarning irsiy temperament xususiyatlari.
2. O‘qituvchining darsni tashkil etishdagi kamchiliklari.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ilg‘or o‘quvchilar safiga qo‘shish uchun o‘qituvchidan quyidagilar talab qilinadi:

- o‘qituvchini ta‘lim qonuniyatlari va qoidalari bilan yaxshi va yaqin tanish bo‘lishi;
- chuqur bilimga ega bo‘lishi;
- o‘zi bilgan bilim doirasida chegaralanib qolmay, o‘z ustida tinmay ishlashi;
- ilmiy uslubiy qo‘llanmalardan foydalanib dars o‘tishi;
- o‘qituvchining nutqi ravon bo‘lishi, bunda o‘qituvchining nutqiy ta‘siri ostida o‘quvchida his-hayajon paydo bo‘ladi. Natijada, o‘quvchi ongida qo‘zg‘alish paydo bo‘ladi va materialni eslab qolish oson kechadi.

- o‘quvchini qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishga o‘rgatishi;
- o‘quvchi sinf va maktab kutubxonasidagi adabiyotlarni o‘qib-o‘rganishi;

O‘qituvchi o‘quvchilar bilimini baholashga to‘g‘ri yondashmog‘i joizdir. Ba‘zi vaqt o‘quvchida bilimga intilish paydo bo‘ladi. Bu borada yana bir usul o‘quvchini o‘zini o‘zi baholashga o‘rgatishdir. Bunda o‘qituvchi o‘zini o‘zi baholashlariga o‘tishdan oldin o‘quvchilarni baho etalonlari bilan yaxshi tanishtirgan bo‘lishi shart. Bu jarayon o‘quvchilarning darsdagi faolliklarini

oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchini o‘zini o‘zi baholashga o‘rgatishi quyidagichlarda bo‘sh o‘zlashtirayotgan o‘quvchiga javob berish uchun kam vaqt va imkoniyat beriladi. Bunda o‘quvchi javob bera olmasa, unga qoniqarsiz baho qo‘yilib, o‘rtoqlari orasida izza qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo‘sh o‘zlashtirayotgan o‘quvchi ko‘p hollarda darsga loqayd qaraydi. O‘qituvchi bunda o‘quvchiga samimiy, do‘stona, xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lishi o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Musiqa darslarida o‘quvchilar qo‘shiq matnini yodlaydilar, lekin uni kuylashga tortinadilar. O‘qituvchi bu vaziyatda shu o‘quvchi bilan birga kuylab, unga kuylash uslubini o‘rgatmog‘i kerak. O‘qituvchi bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlashi yaxshi natijalar beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 160 b.
2. D.A. Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. T., Iltisod moliya. 2008
3. Askarova S. “Great Song Genre in the Ethno Music of Uzbek Folk Music”. *JournalNX* 7.05 (2021): 131–134.
4. Eminjanovna, Shodiyeva Gavkhar. “The role of national music in education of youth”. *Academicia: an international multidisciplinary research journal* 11.2 (2021): 1285–1288
5. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
6. Alijon, M., Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). TA'LIM JARAYONIDA ISH STRESSI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARGA PSIXOLOGIK YECHIM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 854-860.
7. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. *Interpretation and researches*.
8. Xatambojevna, A. S. (2024). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 7(1), 16-20.
9. Asilova, S. X. (2023). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 2(8), 12-16.
10. Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 770-772.
11. Alijon, M., Iqlimaxon, A., & Asilova, S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YORDAM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 861-864.
12. Xatambojevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA 'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 344-350.

13. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.
14. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
15. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA‘NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519>
16. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
17. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
18. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
19. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
20. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
21. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 14-17.
22. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.

MAKTABGACHA TA‘LIM TARIXI VA FRIDRIX FREBEL YONDASHUVI**Yo‘ldashev Axrorjon**

Qo‘qon universiteti raqamli texnologiyalar va
matematika kafedrasida o‘qituvchisi

Tojiddinova Muqaddasxon

Qo‘qon universiteti 2-kurs Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tizimining tarixi, ilk bolalar bog‘chasining paydo bo‘lishi, kimlar bu yo‘lda hissa qo‘shganliklari, maktabgacha ta‘lim sohasining rivojlanishi keng targ‘ib etilgan.

Kalit so‘zlar: Fridrix Frebel, Maktabgacha ta‘lim instituti, mayda matorika, didaktik o‘yinlar, maktabgacha tarbiya nazariyasi, F.Frebelning tuhfalari.

Kiriash: Nizom: O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017- 2021- yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq Maktabgacha ta‘lim tizimini yana takomillashtirish, moddiy texnika bazasini musthkamlash, maktabgacha ta‘lim tizimi tarmoqlarini ko‘paytirish, ta‘lim -tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tamonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Asosiy qism: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrda Shvetsariya Angliyava boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha nazariyasi keng ommalashdi. U ilk bor “bolalar bog‘chasi” tushunchasini muomalaga kiritdi.

Fridrix Frebel (1782-1852)ning pedagogik tizimi.

Bolalar bog‘chasining paydo bo‘lish tarixi 1837-yilga borib taqaladi, bolalar bog‘chasining asoschisi deb taniqli nemis pedagogi Fridrix Frebel hisoblanadi. Aynan u Germaniyaning Bad - Blankenberg shaxrida bolalar uchun tashkil qilingan muassasasini “bolalar bog‘chasi” deb atadi va ushbu atama butun dunyoga umumiy tarzda qabul qilindi. Taxminlarga ko‘ra, Frebel bolalarni “Ollohning ekinlari” deb hisoblagan, ya‘ni ular g‘amxo‘rlik va parvarishga muhtoj o‘simliklar bog‘i hisoblanadi. Yana bir taxmin shundan iboratki, nemis pedagogi Sorbixdagi “ Saroy bog‘ida” deb nomlangan sobiq mexmonxonada “bolalarniparvarishlash bo‘yicha birinchi muassasa”ni ochgan. F.Frebelning katta xizmati bolalar bog‘chasining ochilishi, shuningdek, maktabgacha ta‘lim uslubiyatining yaratilishi bo‘ladi. Shuni takidlash joizki aynan Frebel didaktik o‘yinlar tizimini yaratishga ham asos solgan. Olim olib borgan ishlar unda shunday e‘tiqodni shakllantirdiki, “bolalar o‘yini bu turmush ko‘zgusi va ichki olamning erkin namoyishi”dir. Ushbu uslubiyotning asosiy jihatlari sanab o‘taylik: o‘yin, nutqni rivojlantirish, jamoaviy tarbiya, mehr-muhabbat bilan o‘rab olish, jazolarning yo‘qligi va tarixda qolib ketgan “Frebel tuhfalari”. F. Frebel 6 ta nomdagi “Tuhfalar”ni taklif etdi: Birinchi tuhfa - bu koptok. Bu birinchi o‘yinchoq, chunki sharning burchaklari yo‘q, bola uchun qulay.

Material sifatida ko‘pincha mayda, yumshoq, jundan to‘qilgan shar-koptoklar taklif qilingan. Har bir koptokka ip bog‘langan. Bolaga turli rangdagi koptokni ko‘rsatish orqali ona uni ranglarini farqlashga o‘rgatgan. Koptoklar turli ranglarga bo‘yalgan - qizil, yashil, sariq, to‘q sariq,

oq, ko‘k va binafsha rangli koptoklar bo‘lgan. Shar-koptokni turli tomonga: “yuqoriga-pastga”, “chapga-o‘ngga”, “oldinga-orqaga” tebratar ekan, ona harakatlar nomini aytadi va bolani makondagi harakatlar bilan tanishtiradi. Bolani tasdiq va inkor bilan tanishtirish maqsadida ona sharni kaftiga qo‘yib, so‘ng uni yashirar ekan, “Koptok bor - koptok yo‘q” deb aytadi. Ikkinchi tuhfa – kichik o‘lchamli: yog‘och kub, shar va silindr bo‘lgan. Aniqlik kiritamiz: shar diametri, silindr asosi va kubik tomonlar bir xil. Ularning yordamida bola ashyolarning turli shakllari bilan tanishadi. Kubik o‘z shakli va barqarorligi bilan sharning aksidir. Shar nemis olimi tomonidan harakatlanish ramzi, kubik esa - barqarorlik ramzi, xilma xillikda yagonalik ramzi hisoblanadi. Shu narsa nazarda tutiladiki, kub yagona, ammo unga qaysi tomondan qarayotganingizga ko‘ra ko‘rinishi turlicha bo‘ladi: qirrasi, tomoni, uchi bilan. Silindr sharning ham, kubning ham xossalarini birlashtiradi: u asosiga qo‘yilganda barqaror, yotqizilganda harakatlanadi.

Uchinchi tuhfa - bu 8 ta kubikka bo‘lingan kub. Ya‘ni, kub o‘rtasidan bo‘lingan, har bir qismi esa - to‘rt bo‘lakka. Buning yordamida, Frebelning fikricha, bola butun narsa va uning tarkibiy qismlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Shu tufayli bola o‘z ijodini rivojlantirish, kubiklardan narsalar qurish, ularni turlicha kombinatsiyalarga birlashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

To‘rtinchi tuhfa - bu o‘sha o‘lchamli kub bo‘lib, u 8 ta plitkaga bo‘lingan. Ya‘ni, kubik o‘rtasidan bo‘linadi, har bir qismi esa - to‘rtta cho‘ziq plitkaga bo‘linadi. Har bir plitkaning uzunligi kubik tomoniga teng, qalinligi ushbu tomonning to‘rttdan bir qismiga teng.

Beshinchi tuhfa - bu 27 ta mayda kubiklarga bo‘lingan kub, ulardan to‘qqiztasi yanada mayda bo‘laklarga bo‘lingan. Oltinchi tuhfa - bu ham 27 ta kubikka bo‘lingan kub bo‘lgan, ularning aksariyati yana qismlarga: plitkalarga, diagonaliga ko‘ra bo‘lingan.

Shu tarzda Frebel bo‘yicha bolalar bog‘chasining maqsadi va tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi: - faoliyatning 3 ta turiga - o‘yin, o‘quv, mehnatga yo‘naltirilganlik; - bola hissiyotlarini rivojlantirish; - bolaning tanasi va ruhini mustahkamlash; - ko‘rgazmali usul yordamida tabiat bilan tanishish va dunyoni anglash; - odamlar bilan muloqot qilish; - bolaning tabiiy xislatlarini rivojlantirish; - bolalarga cheksiz mehr-muhabbat ko‘rsatish. F. Frebelning ulkan yutuqlari bilan birga, tarixdan ma‘lumki, uning pedagogik yondashuvlari K.D. Ushinskiy, E.A. Flyorina, G.N. Vodovozova kabi olimlar tomonidan tanqid qilingan. Frebel nazariyasida kamchiliklar ham bor, va ular, avvalo, quyidagilar: - bolaning bevosita atrofdagi olam bilan tanishuvi «tuhfalar» tizimiga almashtirilgan; - bolaning hayoti didaktik material bilan chegaralanadi; - bolaning hayoti haddan ziyod tartibga solinadi; - bolaning erkin ijodi cheklanadi va h.z. Shunga qaramay, F. Frebel fanga katta hissa qo‘shgan, zero u nazariya va amaliyotni birlashtirdi, uning maqsadi - bolaning ijodiy salohiyatini namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadigan sharoitni ta‘minlovchi muhitni yaratish bo‘lgan. Ayni paytda bu bolada noan‘anaviy ijodiy fikrlash qobiliyatini, fantaziyani rivojlantiradi, masalalarni hal etishga noan‘anaviy yondashuvni shakllantiradi. Maktabgacha tarbiya g‘oyasini targ‘ib etish va bolalar bog‘chalarini ommalashtirish yo‘lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Olim bolalarning yoshlariga mos ravishda ishlash usullarini ishlab chiqish orqali maktabgacha tarbiya amaliyotini jiddiy boyitdi.

Xulosa:

Ko‘plab mamlakatlarda bolalar bog‘chalari maktabgacha tarbiya tizimida yetakchi o‘rinni egalladi. F.Frebel maktabgacha tarbiya tarixida birinchi bo‘lib ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning

yaxlit, uslubiy ishlab chiqilgan, amaliy qo‘llanmalar bilan boyitilgan tizimini yaratdi. Maktabgacha ta‘lim sohasi vujudga kelishida 1918-yilda Fridrix Frebel kursi qoshida Petrograd Maktabgacha ta‘lim institutining tashkil etilishi muhim voqea bo‘ldi. Bu ta‘lim maskanida Maktabgacha ta‘lim bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlangan, shu bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. 1919-yilda xaq maorifi kommissariyati tomonidan “Maktabgacha ta‘lim” bo‘yicha butun ittifoq anjumani bo‘lib o‘tdi. Bunda ijtimoiy Maktabgacha ta‘lim sohasini tashkil etish, bola tarbiyasining nazariy-amaliy masalalari o‘rin oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. Maktabgacha pedagogika F.R Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.Azamova. "Tafakkur" nashriyoti Toshkent 2019
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining " Maktabgacha ta‘lim tizimini 2017-2021-yillarda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-27.07sonli qarori.
4. Yo‘ldashev, A., & Solidjonov, D. (2022). YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA‘LIM OLISH MUHHITIDA QO‘LLANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 198-204.
5. Yuldashev, A., & Xusanova, M. (2022). THE ROLE OF STUDENT VOICES IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS)*, 1(6), 29-32.
6. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIRNI O‘RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.
7. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 9-13.
8. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 18-21.
9. Axrorjon, Y. L. (2023). МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYLARDAN FOYDALANIB SAMARALI MASHG ‘ULOT O ‘TISHNING AVFZALIKLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 149-150.
10. Yo‘ldashev, A. (2022). TA‘LIMDA SUNIY INTELLEKTNING IMKONIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 726-729.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Зияева Махбуба Фазлидиновна

и.о. доцента, Джизакский политехнический институт

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос воспитания и обучения подростка, учитывая его возрастные психологические особенности, вопрос взаимопонимания родителей с детьми, вопрос взаимоотношения подростка со сверстниками учитывая семейные обстоятельства, рассматриваются причины, которые вызывают нравственные неблагополучия ситуационных обстоятельств. А также даются мнения о правильном построении взаимоотношения подростка с процессом обучения.

Ключевые слова: подросток, автопортрет, взаимоотношение, семья, друзья, удовлетворение.

Психологи обоснованно признают тот факт, что человек, являясь активным существом, может сам сознательно изменять собственную личность, то есть может заниматься собственным воспитанием. Но самовоспитание не может вестись в отрыве от окружающей среды. Этот процесс происходит при активном взаимодействии с окружающим миром.

Специальную роль в психологическом развитии играет обучение и воспитание как «процесс воздействия, отвечающий требованиям общества, целенаправленный процесс воздействия старшего поколения на младшее поколение по пути к сознательной цели» [1]. Если психологические особенности человека во многом играют управляющую роль в его формировании и развитии, то решающую функцию выполняет социальное воспитание человека, условие его проживания, его обучение и воспитание.

Естественные данные человека составляют важный фактор психологического развития. Наличие некоторых анатомо-физиологических особенностей является естественным условием развития способностей. Способности формируются и развиваются под влиянием условий жизни и деятельности человека, его обучения и воспитания. Но это не значит, что при одинаковых условиях у всех людей одинаково развиваются интеллектуальные способности. Отмечено, что психическое развитие связано с биологической зрелостью ребёнка, особенно, в развитии его мозга. Этот факт нужно учитывать при образовательно-воспитательных работах.

Русский психолог Л.С. Выготский первым выдвинул идею об управляющей роли образования и воспитания в психическом развитии ребёнка; Образование идёт впереди развития и ведёт его за собой. Без обучения не может быть полноценного развития. Обучение не отрицает внутренние закономерности развития. Нужно не забывать, что возможности обучения широкие, но не бесконечные. По мере развития психики человека растёт целостность, единство, устойчивость, происходит её интеграция [3]. В результате этого у личности появляются те или иные качества.

При учебно-воспитательной работе учитывание определённых душевных особенностей ребёнка даёт учителю возможность пользоваться такими педагогическими методами и средствами, которые соответствуют возрастным требованиям и возможностям ребёнка. Здесь, обязательно, надо учесть индивидуальные различия детей, уровень умственного развития, особенности психологической деятельности. Умственное развитие характеризуется тем, что отражает в детском сознании и как происходит это отражение.

Психологи отметили характеристику умственного развития как его критерии:

- Скорость усвоения материала или темп его восприятия;
- Сжатость мышления, определяемого количеством обдумываний.
- Уровень аналитико-синтетической деятельности;
- Приёмы переноса умственной деятельности, сформулированной в другом объекте, на основе изучения одного объекта.
- Уметь самостоятельно систематизировать и обобщать полученные знания.

Обучение каждому предмету должно быть построено так, чтобы оно дало максимальную пользу умственному развитию учеников [5].

При организации восприятия учениками разного рода учебных материалов учитель должен учитывать формирование у учеников мыслительных операций (анализ, сравнение, определение общих, частных и специальных особенностей, абстрагирование, обобщение, синтез).

Очень важное значение имеет создание у учеников мастерства систематизировать и обобщать получение по предмету знаний, умение самостоятельно работать с разными литературными источниками, сравнение фактов, полученных из разных пособий, по одному или другому вопросу. У детей младшего школьного возраста физическое психологическое развитие отличается своей особенностью. Именно в этом возрасте развитие научно-творческих способностей является важным, по данному вопросу посвящён ряд работ психологов.

Образование должно не только вооружить учеников знаниями, но и обеспечить его умственный рост. Целевая направленность научно-творческих способностей студентов на основе усвоенных знаний, требует от каждого педагога большого опыта, научного потенциала творения. Значит, в целях повышения мыслительной активности студента мы должны проводить каждое занятие не просто так, а с установкой, что мы готовим грамотных специалистов с высшим интеллектуальным потенциалом, являющихся нашим будущим и опорой, продолжателем общества.

Известно, что обеспечение соответствия методов обучения к определённым педагогическим условиям являются одним из факторов повышения качественного обучения. Оно ведёт к прочному усвоению нужных знаний, сотрудничеству учителя-ученика в процессе урока и единой цели.

При развитии творческой мыслительной способности студента первостепенное значение имеет организация занятия. В этом случае всё мастерство и талант учителя заключается в применении новых педагогических технологий на уроке, творческом подходе к учебному материалу. Только так мы можем повысить мыслительную

способность ученика расширить границы мышления. Перед школой стоит сложная и важная задача – «реализация общего среднего образования детей и молодёжи, отвечающей требованиям современного общества и научно-технологического прогресса, вооружение учащихся глубокими и самостоятельными знаниями по основам дисциплин, пробуждение стремления у них к непрерывному совершенствованию своих знаний и умений, подготовка учащихся к активной трудовой и общественной деятельности, сознательному выбору профессии» [4].

Для выполнения этой задачи необходимо сознательное усвоение мотивов обучения, формирование у учащихся положительные отношения, интереса к предмету.

Под мотивом психологии понимаются причины, призывающие учащихся к действиям. На формирование мотивов воздействуют требования и инстинкты, предрасположенность и эмоции, решения, идеи, интересы.

Учебные мотивы могут быть разными: выполнение желаний родителей при получении информации, желание «не отстать от других», получить свидетельство об окончании средней школы, стремление поступить после школы в институт и т.д.

Самые высокие мотивы – это получение знаний с целью быть полезным обществу, и наконец, мотив «много знать» [6] Задача учителя –формировать у учеников высокие социальные и духовные мотивы, то есть воспитать веру в необходимость получение знаний ради желания «быть полезным обществу». Если у большинства учеников мы смогли пробудить и развить интерес к знаниям, то процесс обучения будет удачнее. В таком случае интерес к знанию – стремление много знать превращается в один из ведущих мотивов учащихся.

Под воздействием интереса растёт интеллектуальная активность, совершенствуется память, усиливается представление, восприятие, сосредоточение внимания, мысли. Также воспитываются под его воздействием духовные, волевые качества личности.

Характерной особенностью интереса к знаниям является то, что он имеет интеллектуальный характер: вызывающий интерес субъект помогает определить новые стороны предмета, открыть значение наблюдаемых событий, понять причинно-следственные связи. Если учитель сумеет пробудить в ученике интерес к своему предмету, то у учащихся появляется возможность для самостоятельных творческих работ; они будут стремиться к знаниям, решению трудностей на пути к получению знаний.

Если интерес к предмету не возник, информация проходит через мозг бесследно при абсолютном безразличии учащихся, не пробуждая позитивных эмоций.

При развитии интересов к знаниям в системе учебных занятий нужно создать условия для того, чтобы учащиеся не только получали новые знания, но и совершенствовались навыки, освоили методы научных исследований: наблюдение, эксперимент, мыслительное моделирование, гипотезы и др.

Использованная литература:

1. Kruteskiy V. A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkolnika.- M., Prosvesheniye, 1976,36-bet.
2. Abduvaxobova D.E. Vzaimootnosheniya podrostka so sverstnikami: umeet li on drujit? *Innovations in technology and Science Education.* 70-79, 2022.
3. Кадырова М.К. Poznavatelnye motivy podrostka v protsesse obucheniya. *Molodoy uchyonyy.* 2015-7.-614
4. Ergashev U.E. Formirovanie umeniy i navykov v учебной работе. *Molodoy uchyonyy.*762-769.2014.
5. Кадырова М.К. Povedenie cheloveka v trudnykh situatsiyax. aktualnye voprosy *Sovremennoy psixologii.* 17-20. 2017.
6. Кадырова М.К. Osobennosti perioda vzrosleniya podrostka. *Molodoy uchenyy* 2016 - 999-1002
7. Кадырова М.К. Psixologicheskie osobennosti obucheniya v protsesse obrazovaniya. *Molodoy uchyonyy.* 2014. 912-914.
8. Кадырова М.К. Osnovnye printsipy mediatsii po razresheniyu konflikta. *Uchenyy 21 veka.*
9. Abduvaxobova D.E. Ispolzovanie ikt v obrazovanii – vajnyy faktor razvitiya informatsionnogo obshchestva. *Ekonomika i sotsium.* 386-388. 2023
10. Abduvaxobova D.E. Vajnost innovatsionnykh texnologicheskix faktorov v povyshenii znaniy studentov. *BVK 81.2-5 t-307,212*
11. Ziyaeva M.F. Ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish yo'llari, shakl, metod va vositalari. *Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya. Mejd. nauch. jurnal*
12. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century,* 2(2), 22-27.
13. Umarov Toxirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives,* 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>
14. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR,* 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
15. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal,* 3(2), 18–25. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655>
16. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st century,* 2(2), 14-17.
17. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. *Integration of Economy and Education in the 21st century,* 2(2), 18-21.



II SHO'BA

**IQTISODIY O'SISHNI KUCHAYTIRISH: MILLIY
ISLOHOTLARDA YOSHLAR VA BIZNESNI
QO'LLAB QUVVATLASH**



TURIZMNI BOSHQARISHDA DAVLATNING ROLI

Shohrubbek Ruziyev Ravshanbek o‘g‘li

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Qo‘qon universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori

Turizm sohasi har bir mamlakat uchun katta iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, buning natijasida turizmni boshqarish davlat organlarini shakllantirish ancha murakkab jarayondir.

Hukumat, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda turizmni rivojlantirishda ko‘pincha qo‘llab-quvvatlovchi va asosan yordamchi rol o‘ynagan. Masalan, Buyuk Britaniyada, masalan, 1969 yilda hukumat o‘zining Turizmni rivojlantirish to‘g‘risidagi qonuni orqali nafaqat yangi mehmonxonalar qurilishini moliyalashtirish orqali sanoatni qo‘llab-quvvatladi, balki Uels, Angliya va Shotlandiyada turli milliy turistik kengashlar va turistik tashkilotlarni tashkil etdi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda hukumat "yashirin" rolni o‘z zimmasiga olishga intiladi, ya‘ni u infratuzilmani ta‘minlaydi va turizm rivojlanishini yo‘naltirish va rag‘batlantirish uchun kerak bo‘lganda aralashadi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda hukumatlar ancha faolroq va qo‘llab-quvvatlovchi intervension rol o‘ynashi kerak edi.

Turizm industriyasida hukumatning roli haqida jiddiy munozaralar mavjud. Takliflardan biri shundaki, ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda hukumat yuqorida aytib o‘tilganidek, infratuzilma va vakillik milliy turizm organini taqdim etish orqali turizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash rolini o‘ynaydi.

Ko‘pgina hukumatlar turizm industriyasini rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun investitsion imtiyozlarni taklif qiladilar. Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda hukumat Hindiston turizmni rivojlantirish korporatsiyasi orqali sayyohlik ob‘ektlariga (chang‘i kurortlari va mehmonxonalar) va turizm xizmatlariga (sayohat agentliklari, avtobuslar, avtomobil ijarasi kompaniyalari va aviakompaniyalar) sarmoya kiritdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm sanoatining roli turizmni davlat tomonidan boshqarish zaruriyatini oldindan belgilab beradi. Shu bilan birga, turizmning hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini ortiqcha baholamaslik kerak, chunki turizm sanoati ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bog‘liq bo‘lib, unga haddan tashqari qaramlik milliy xavfsizlikka tahdid soladi, chunki u deyarli har doim inqirozli vaziyatlarda o‘z qiymatini yo‘qotadigan ikkilamchi ehtiyojlarga asoslanadi. Uning ahamiyati va moddiy ishlab chiqarish tomonidan ishlab chiqariladigan birlamchi ehtiyojlar birinchi o‘ringa chiqadi. Shuning uchun turizm industriyasini davlat tomonidan boshqarishda turizmning milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasidagi o‘rnini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohaga haddan tashqari bog‘liqlikni bartaraf etish uchun yuqori darajadagi o‘zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. ekzogen omillarning ta‘siri.

Bozor munosabatlari rivojlanishining zamonaviy sharoitida turizm nafaqat mahalliy byudjetlarni soliq tushumlari hisobidan to‘ldirish vositasi, balki hududni rivojlantirishning muhim omili sifatida ham mintaqaviy iqtisodiyoti uchun alohida ahamiyatga ega. turizmni rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblangan hududning ekologik holatiga jiddiy talablar.

Demak, hududlar infratuzilmasini rivojlantirishga yangi talablar qo‘yilmoqda, bu esa turistlarning nafaqat dam olishga bo‘lgan ehtiyojini, balki o‘z-o‘zini anglash va dunyoni bilish imkoniyatlarini ta‘minlashi, o‘z navbatida, rivojlanish uchun alohida talablarni shakllantirishi kerak. turizm industriyasidan. Bularning

barchasi turizmning bosqichma-bosqich institutsionallashuvidan, ya'ni uning nafaqat iqtisodiyot tarmoqlaridan biri sifatida, balki hududlarni rivojlantirishning institutsional omili sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi.

Muammoli tomonlar, birinchi navbatda, bozor va uning sub'ektlari manfaatlarining aholining iqtisodiy farovonligi darajasining o'sishi tufayli ijtimoiy taraqqiyotga qaratilgan milliy manfaatlar bilan to'qnashuvi jarayonida yuzaga keladi. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarurati bozor mexanizmining o'zi samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratish, bozor jarayonlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jahon bozorida milliy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq. bozor mexanizmi hal qila olmaydigan yoki yomon hal qiladigan muammolarni hal qilish.

E.Kozlovskiyning fikricha, "davlat tomonidan tartibga solish – bozor" o'zaro ta'sirida birlamchi bo'g'in bozor bo'lib, davlat tomonidan tartibga solish uning mavjud bo'lishi uchun umumiy shart-sharoitlarni ta'minlovchi, o'z sub'ektlari uchun boshlang'ich sharoitlarni tenglashtiradigan va bartaraf qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. iloji bo'lsa, bozor elementlarining salbiy ko'rinishlari.

Bozorning davlat bilan o'zaro munosabatlaridagi ustuvorligi uning o'zini o'zi tartibga solish natijasidir, bu ideal sharoitlarda resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlaydi. Biroq, deyarli har doim bozor mexanizmi resurslardan optimal foydalanishni ta'minlamaydi, chunki bir bozor sub'ekti boshqa sub'ektning holatini yomonlashtirmasdan turib o'z mavqegini yaxshilay olmaydi (Pareto effekti deb ataladi). Bunday munosabatlar natijasida turli xil tashqi ta'sirlar paydo bo'ladi ¹.

Turizm industriyasini davlat tomonidan boshqarish zarurati sohaning o'ziga xos xususiyatlari bilan ham asoslanadi. Turizm sanoati davlat boshqaruvining o'ziga xos ob'ekti hisoblanadi: bir tomondan, turistik mahsulot iste'molchi ehtiyojlarini qondirishi va mamlakatning dunyoda ijobiy imidjini shakllantirishga hissa qo'shishi kerak, ikkinchi tomondan, menejment. ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Darhaqiqat, turizm industriyasini davlat tomonidan boshqarishning yetakchi maqsadi sifatida turizm sohasi va moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi hamda xalq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan tegishli soha va tarmoqlarning faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishni ko'rish mumkin.

ma'lum strategik maqsadlarga erishish uchun davlat boshqaruvining samarali mexanizmi orqali sohaga yoki uning alohida tarkibiy qismlariga maqsadli ta'sir ko'rsatadigan davlat faoliyati turi tushunilishi kerak.

Turizm industriyasini davlat tomonidan tartibga solish - bu amaliy xususiyatga ega bo'lgan va ma'lum maqsadlarga erishishga funktsional yo'naltirilgan ob'ekt sifatida turizm industriyasiga boshqaruv sub'ektlariga ta'sir qilish usullari majmuidir.

Davlat tomonidan tartibga solishning boshqaruvdan ajralib turadigan xususiyati boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish jarayonida bozor qonunlarini hisobga olishdir. **Ya'ni, davlat boshqaruvi tegishli mexanizmni amalga oshirishning nazariy qobig'i va kontseptual asosi bo'lib, davlat tomonidan tartibga solish bozorga joriy jarayonlarni va ularning prognozlarini majburiy kiritish bilan amaliy jihatdan o'z aksini topadi.**

¹Экстерналия (англ. externality), или внешний эффект, в экономической теории — воздействие рыночной транзакции на третьи лица, не опосредованное рынком. Основы понятия были введены в 1920 г. Артуром Сесилом Лигу в книге «Экономическая теория благосостояния» (источник — Википедия).

Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish davlat, jamoat va xususiy tuzilmalarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xarakterdagi harakat usullari, mexanizmlari va vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha maqsadli faoliyati sifatida davlat turizm siyosati orqali amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat mavjud turizm salohiyatidan oqilona foydalanish tamoyillari asosida turizm sohasini samarali rivojlantirishni ta'minlash, turistik xizmatlar va tovarlarga bo'lgan ichki va tashqi talabni qondirish maqsadida amalga oshiriladi.

Turizm sektorini davlat boshqaruvining strategik vazifalari quyidagilardan iborat:

- turizm funksiyalarini amalga oshirishdan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish;
- turizm industriyasining hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sirining oldini olish yoki bartaraf etish (to'liq yoki qisman);
- sanoatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida turizmga ekologik omillarning ta'sirini baholash.

Turizm sohasida davlatning rolini tahlil qilish ushbu sohada rivojlanishning bir nechta kontseptual vektorlari mavjudligini ko'rsatdi:

- *institutsional* - normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va turizmni rivojlantirishning strategik va dasturiy hujjatlarini ishlab chiqish;
- *tashkiliy* — mintaqaviy darajada turizm va rekreatsiya sektorini boshqarish tuzilmasining strategik maqsadlari va funksiyalariga muvofiqlashtirish;
- *axborot* — tabiiy va madaniy resurslar ro'yxati va kadastrlarini yaratish, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda turizm sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha dolzarb ma'lumotlar to'planishini ta'minlash;
- *iqtisodiy* — turizm va rekreatsiyani rivojlantirishni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, innovatsion va samarali loyihalarni birgalikda moliyalashtirish uchun grant mablag'larini ajratish.

Turizm industriyasi davlat boshqaruvining ko'p qirrali ob'ekti ekanligini hisobga olsak, ya'ni bir tomondan, integratsiyalashgan turizm mahsuloti iste'molchilarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirishi va dunyoda mamlakatning qulay imijini yaratishga xizmat qilishi kerak. darajada, boshqa tomondan, turizm sohasidagi davlat boshqaruvi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan ijobiy samaraga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, shuning uchun turizm industriyasini davlat tomonidan boshqarish zarurati zaruriyatning natijasi sifatida qaralishi kerak. jamiyat hayotining barcha sohalarida davlat funktsiyasi sifatida davlat tomonidan tartibga solish uchun.

1- jadval.

Turizmda davlat boshqaruvining yo'qligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar

Muammoli tomonning nomi	Xarakteristikasi
Ijtimoiy	Mehnat resurslarining turizm sektoriga boshqasidan o'tishi milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektori va xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy qismlari; turistlar va mahalliy aholi o'rtasida salbiy munosabatlarning paydo bo'lishi; jinoyatchilik darajasining oshishi
Iqtisodiy	Milliy iqtisodiyotning turizmga bog'liqligining sezilarli darajasi; chet elga valyuta eksporti va buning natijasida chiqish turizmining kirish turizmidan oshib ketishi; turizm industriyasidagi tadbirkorlik

	faoliyatining iqtisodiyotning soya sektoriga ketishi; yuqori daromadli faoliyat sohasi sifatida turizm industriyasiga investitsiya kapitalining ustun migratsiyasi
Ekologik	Turistik oqimlarning hududning atrof-muhitiga salbiy ta'siri va haddan tashqari yuklanishi natijasida ekologik muammolar tahdidi
Madaniy	Mahalliy va milliy mentalitet xususiyatlarini turistlar manfaatlariga moslashtirish; hududga haddan tashqari turistik yuk tushishi natijasida tarixiy va madaniy ahamiyatga ega ob'ektlarning yo'q qilinishi
Tarbiyaviy	Ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda ularning yuqori darajada rivojlanishi natijasida turistik qiziqishlarni xorijiy madaniyat va boshqa mamlakatlarning urf-odatlariga jalb qilish; aholining migratsiya harakatchanligini faollashtirish
Globalashuv	Turist maqomidagi boshqa mamlakatlar shaxslarining davriy tashriflari natijasida madaniy, lingvistik, axloqiy farqlarni e'tiborsiz qoldirish

Turli xil ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq hodisalar turizm industriyasining tashqi omillarga bevosita va bilvosita sezgirligining oshishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, mehmonxona korxonalarini davlat tomonidan bir qator muammoli vaziyatlarga duch kelishlari kerak.

Qo'llab-quvvatlash keyingi mavjudligi, rivojlanishi va samarali ishlashi uchun zarur Ushbu qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladigan bir nechta shartlar (omillar) mavjud.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda davlat darajasida turizmga ko'rsatiladigan xizmatlarni standartlashtirish tendentsiyasi mavjud. Shu munosabat bilan bir qator qonunchilik tashabbuslari qabul qilinmoqda, ularning amalga oshirilishi mehmonxona korxonalarini tomonidan moddiy xarajatlarga olib keladi.

Hukumat yordamini talab qiladigan muayyan iqtisodiy vaziyatlar mavjud, masalan, umumiy iqtisodiy tanazzul, inflyatsiya va biznes muhitining yomonlashuvini tavsiflovchi boshqa tendentsiyalar.

Bundan tashqari, zudlik bilan javob berish va qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan bir qator inqirozli vaziyatlar mavjud. Bu tabiiy ofatlar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar va boshqa xavf omillarini o'z ichiga olishi mumkin. Shunday qilib, 2020-yilda yangi koronavirus infeksiyasi COVID-19 tarqalishi bilan bog'liq vaziyat ushbu vaziyatdan eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chLoralari zarurligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, turizm sohasini davlat boshqaruvi nafaqat mamlakat tomonidan turizm funksiyalarini amalga oshirishdan ijobiy natijalar olishga, balki turizm sohasi ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni zararsizlantirishga va oldini olishga ham yo'naltirilishi kerak. Bundan tashqari, ma'lum bir hududda turizm sanoatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ekologik omillarning ta'sir darajasini baholash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurshidjon, T., & Ravshan o‘g‘li, R. S. (2023). *MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI ORQALI BANKLARNING TRANSFORMATSION SALOHİYATIGA TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 111-116.
2. Mukhammadsiddik, A., Bobir, T., & Shohruxbek, R. (2022). *Main Tendencies of Historical and Cultural Tourism Development in Uzbekistan. In Event Tourism in Asian Countries (pp. 9-37). Apple Academic Press.*
3. Ruziev, S. (2022). *Hamidjon Rasulov. Abbosxon Yusupov. Mehmondo'stlik va turizm sanoatidagi boshqaruv soxalarida gender xilma-xilligi.*
4. Ravshanjon o‘g‘li, R. S. (2023). *ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TURIZM SOHASIDAGI MUAMMOLARGA YECHIMLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 305-308.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING MONETIZATSIYA DARAJASI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI

Berdinazarov Zafar Ulashovich,

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Tashkent International University

Akademik ishlar bo‘yicha prorektor

Isayev Otabek Djurabayevich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Raqamli iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti

Ma‘lumki, iqtisodiyotning o‘shishi, boshqa omillar bilan bir qatorda, iqtisodiyotdning pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasi (monetizatsiya koeffitsiyenti)ga ham bog‘liqdir. Iqtisodiyotni me‘yordagi pul mablag‘lari bilan ta‘minlash uning o‘shish barqarorligini saqlash va ta‘minlashga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilarning tahlillariga ko‘ra, 2020 yilda AQSH iqtisodiyotining monetizatsiya koeffitsiyenti 91.7%ni, Germaniya – 103%, Fransiya – 118%, Byuk Britaniya – 133.6%, Yaponiya – 206.7%, Xitoy – 215.6% va Rossiyada – 55%ni, O‘zbekistonda esa ushbu ko‘rsatkich o‘sha davrda 15.1%ni tashkil etgan [1, 2].

Iqtisodchilar o‘rtasida ushbu koeffitsiyentning normativ ko‘rsatkichi borasida yagona fikrlar mavjud emas, chunki mamlakatlarning rivojlanish darajasi bir-biridan farq qiladi. Shunday bo‘lsa ham aksariyat iqtisodchilar mamlakat iqtisodiyotining monetizatsiya koeffitsiyenti 50%ni tashkil etsa uni chegaraviy ko‘rsatkich deb hisoblash mumkinligi haqida fikr bildirishadi.

Shuningdek, Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra 2022 yilda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining monetizatsiya darajasini 3 toifaga ajratib tadqiq qilingan (jadvalga qarang).

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 74 ta davlat, shu jumladan Armaniston, Gruziya, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarda monetizatsiya darajasi o‘rtacha toifaga (50%dan yuqori) kiritilgan, 61 ta davlat, shu jumladan Ozarbayjon, Belarus, Tojikiston, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston mamlakatlari past toifaga (50%dan past), 30 ta mamlakat esa, shu jumladan Avstraliya, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Singapur, Xitoy va Yaponiya mamlakatlari yuqori toifaga (100%dan yuqori) tasniflangan.

2022 yilda dunyo mamlakatlarining monetizatsiya darajasining guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi¹

T/r	Monetizatsiya darajasi	Mamlakatlar soni	Mamlakatlar
1	Monetizatsiya darajasi yuqori > 100%	30	Avstraliya, AQSh, Buyuk Britaniya, Boliviya, Braziliya, Kambodjia, Kanada, Singapur, Tailand, Yangi Zelandiya, Xitoy, Xorvatiya, Gonkong, Isroil, Yaponiya va h.k
2	Monetizatsiya darajasi o‘rtacha	74	Albaniya, Jazoir, Armaniston, Baxrayn, Bangladesh, Bolgariya, Chili, Chexiya,

¹ Jahon banki ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi (<https://data.worldbank.org/indicator/chart>)

	50 % dan 100 %		Daniya, Gruziya, Ekvador, Misr, Gonduras, Vengriya, Islandiya, Hindiston, Eron, Rossiya, Ummon va h.k
3	Monetizatsiya darajasi past < 50%	61	Afg'oniston, Angola, Argentina, Ozarbayjon, Belarus, Kamerun, Kolumbiya, Tojikiston, Indoneziya, Keniya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izston, Meksika, Ukraina, Pokiston va h.k

Yuqorida tahlil qilingan davlatlar iqtisodiyotining o'sish ko'rsatkichlari (YaIM - GDP) ham 2022 yilda yaxshi natijalarni ko'rsatgan. Xususan, monetizatsiya darajasi o'rtacha toifaga kiritilgan Armaniston va Gruziya davlatlarining GDP o'sish ko'rsatkichlari mos ravishda 12.6 va 10.4%ni tashkil qilgan bo'lsa, monetizatsiya darajasi past toifaga kiritilgan Ozarbayjon Respublikasida 4.6%ni, Qozog'istonda – 3.2%, Qirg'izistonda– 6.3% va O'zbekistonda – 5.7%ni tashkil etgan. Monetizatsiya darajasi yuqori toifaga kiritilgan rivojlangan davlatlar, xususan Avstraliyada ushbu ko'rsatkich 4.3%ni, Buyuk Britaniyada – 4.3%, Kanada – 3.8%, Singapur – 3.6%, Xitoyda – 3.0%ni tashkil qilgan².

Iqtisodchi olim Ya.Mirkin o'z tadqiqotlarida yirik davlatlar Xitoy, Hindiston, Malazaiya va boshqa mamlakatlarda monetizatsiya darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasida to'g'ri bog'lanish borligiga xulosaga kelgan. Uning fikriga ko'ra:

- mamlakat iqtisodiyotining monetizatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga shuncha ko'p investitsiya yo'naltirish (kiritish) va shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligi;

- monetizatsiyaning past darajasi iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi, xususan milliy iqtisodiyot norezidentlarining qisqa muddatli investitsiyalarga bog'liqligi kuchayishi, moliya sektorining resurs salohiyatining zaiflashishi hamda iqtisodiyotda pul narxining oshishiga olib kelishi ta'kidlanadi [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda hozirgi vaqtda monetizatsiya darajasi chegaraviy ko'rsatkichdan 2 barobar past. Monetizatsiya ko'rsatkichining pastligi o'z navbatida iqtisodiy o'sish suratlarini yanada oshirishga salbiy ta'sir qilmoqda.

Ayni vaqtda iqtisodiyotning monetizatsiya darajasini oshirishga to'siq bo'lib turgan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mamlakat moliya bozorining miqyosi va ko'lami etarli darajada rivojlanmaganligi, ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozorining jozibador emasligi;

- pul taklifi kanallari (valyuta, kredit, byudjet) samaradorligining pastligi;

- real sektor moliyaviy resurslari (ishlab chiqarish va iste'mol sohalari)ning bankdan tashqari aylanmasining yuqoriligi shular jumlasidandir.

Yuqoridagi muammolarni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- mamlakat moliya bozorining jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaro moliya bozori instrumentlari turlarini, ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozori instrumentlari bo'yicha (birja fondlari

² Jahon banki ma'lumotlari (<https://data.worldbank.org/indicator/>)

(ETF), investitsiya fondlari, ko'chmas mulk investitsion trastlari (REITs), obligatsiyalar, derivativ shartnomalar (opsionlar, fyucherslar, svoplar kabi), cheklar, depozit sertifikatlari va b.) muomalasini keng joriy qilish;

- pul taklifi kanallari (valyuta, kredit, byudjet)ning tegishli yo'nalishlar bo'yicha monetizatsiya jarayonlari samaradorligini oshirish. Xususan, valyuta va kredit kanallarining real va bank sectoriga, byudjet kanalini esa qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha monetizatsiya mexanizmini rivojlantirish va takomillashtirish;

- real sector moliyaviy resurslari (ishlab chiqarish va iste'mol sohalari)ning bankdan tashqari aylanmasiga batamom barxam berish mexanizmiga o'tish Bunda real sector sub'ektlari o'rtasida xom-ashyo va tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish va tasarruf etish mexanizmini to'liq raqamlashtirish, yani korporativ va davlat xaridlari mexanizmlarini raqamli real sector modeliga o'tkazish lozimdir.

Mazkur chora-tadbirlarni jadallik bilan amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotini pul bilan ta'minlash muammosini keskin pasaytiradi, iqtisodiy o'sish suratlarini esa keskin oshirishga xizmat qilish bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Svetlana Zenchenko, Wadim Strielkowski, Lubos Smutka, Tomáš Vacek. Monetization of the Economies as a Priority of the New Monetary Policy in the Face of Economic Sanctions. *Journal of Risk and Financial Management* 15(3):140, March 2022. DOI:10.3390/jrfm15030140.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari (<https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/?year>).
3. Миркин Я.М. Финансовое будущее России: экстремумы, бумы, системные риски. М.: GELEOS Publishing House; Кэпитал Трейд Компани, 2011. 300 с.
4. Markaziy bank Boshqaruvining 2023 yil 26 oktyabrdagi "Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025-2026 yillarga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705/

KICHIK VA YIRIK BIZNESNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI**Boburmirzo Xursanaliyev**

Qo‘qon universiteti Ilmiy tadqiqotlar departamenti boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot kichik va yirik biznesning iqtisodiy o‘shirishga qo‘shgan hissasi haqida tushuncha berish maqsadida iqtisodiyotga ta’sir qiladigan farqli ta’sirlarni o‘rganadi. Kichik va yirik biznes har qanday iqtisodiyotning ikkita muhim tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo ularning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘pincha turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarga turli xil ta’sir ko‘rsatadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini ta’minlash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, yalpi ichki mahsulot, rivojlanish.

O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) uchun yanada qulay muhit yaratish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston hukumati kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, jumladan, ro‘yxatga olish jarayonlarini soddalashtirish, moliyaviy yordam ko‘rsatish va tadbirkorlar uchun o‘quv dasturlarini taklif etish chora-tadbirlarini joriy qildi. Hukumat byurokraliyani kamaytirish, kichik biznesni ochish va faoliyat yuritishini osonlashtirish maqsadida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Mamlakatimizda bugungi kunda kichik biznes turli sohalarda, jumladan, chakana savdo, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarishda faoliyat yuritadi. Mikromoliya tashkilotlari kichik biznesni, ayniqsa, qishloq joylarda qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bo‘lmagan tadbirkorlarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi.

Taqdim etilgan jadval (2- jadval) 2000 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan yigirma yillik iqtisodiy taraqqiyotni o‘z ichiga oladi. YaIM iqtisodiyotda kompas vazifasini bajarib, iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. 2000 yilda yalpi ichki mahsulot 13,76 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga qarab yalpi ichki mahsulot 80,39 milliard dollarga o‘tdi. Ushbu meteorik ko‘tarilish sanoat, qurilish va ish bilan ta’minlangan qanotlarini cho‘zayotgan iqtisodiyotni aks ettiradi.

Sanoat sektori ham kichik, ham yirik korxonalar tomonidan kengayib bordi. 2000 yilda kichik biznes sub’ektlari tomonidan 244,0 mlrd. so‘mlik mahsulot bozorga taqdim etilgan bo‘lsa, ularning yirik korxonalari esa 1647,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Vaqt o‘tishi bilan o‘rtadagi farq kengaydi, lekin ikkala segment ham o‘tdi. 2022 yilga kelib kichik biznes 143892,7 mlrd. so‘mga yetdi. Sanoat rivojlandi, zavodlar kengayadi va innovatsiyalar rivojlanadi.

Qurilish sanotida ham mamlakatimizda ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 2000 yilda kichik qurilish korxonalari tomonidan 149,0 mlrd.so‘m, yirik firmalar tomonidan 239,0 mlrd.so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Yillar taraqqiyotni ta’minladi: 2022-yilga kelib kichik biznes sub’ektlari tomonidan 93554,5 milliard so‘mlik, yirik korxonalar tomonidan esa 37291,0 milliard so‘mlik binolar bunyod etildi.

1- jadval. Kichik biznes va yirik biznes tarmoqlar va sohalar bo'yicha tarkibi

Yillar	Yalpi ichki mahsulot	Sanoat (mlrd.so'm) (kichik biznes)	Sanoat (mlrd.so'm) (yirik biznes)	Qurilish (mlrd.so'm) (kichik biznes)	Qurilish (mlrd.so'm) (yirik biznes)	Bandlik (ming kishi) (kichik biznes)	Bandlik (ming kishi) (yirik biznes)
2000	13,76	244,0	1647,5	149,0	239,0	4467,1	4521,0
2001	11,40	355,1	2485,7	230,4	339,9	4733,0	4404,1
2002	9,69	690,6	3793,8	306,9	423,8	4994,1	4340,7
2003	10,13	659,6	5447,8	331,9	499,9	5436,7	4151,8
2004	12,03	892,1	7217,9	556,6	565,6	5974,9	3933,7
2005	14,31	1104,8	9943,2	739,2	713,1	6602,5	3586,5
2006	17,33	1589,3	12991,4	1009,8	928,4	7234,1	3234,9
2007	22,31	2432,4	15994,9	1514,2	1219,0	7743,1	2996,3
2008	29,55	3489,5	20411,2	2090,0	1488,8	8071,1	2970,1
2009	33,69	5072,3	23264,6	2996,0	4070,0	8370,1	2956,2
2010	49,77	10132,9	27960,7	4163,2	3766,7	8643,9	2989,9
2011	60,18	13586,8	33919,5	6188,3	2966,0	8950,7	2967,7
2012	67,52	17114,6	40510,3	7925,5	3396,6	9239,7	2982,1
2013	73,18	23312,0	47330,4	10377,7	4321,6	9604,0	2917,5
2014	80,85	30907,0	53079,4	13944,9	6119,7	9950,8	2872,4
2015	86,20	39643,5	58000,6	16954,0	8464,3	10170,4	2885,3
2016	86,14	50654,5	61165,6	19671,0	9732,6	10397,5	2898,5
2017	62,08	61367,8	87583,2	22469,4	12205,6	10541,5	2973,2
2018	52,87	87962,0	147230,5	37451,7	13711,8	10128,8	3146,2
2019	60,28	83344,2	239695,3	53960,9	17227,6	10318,9	3223,0
2020	60,22	103020,8	266229,4	63866,6	24225,3	9865,7	3376,9
2021	69,60	124907,9	330960,3	77907,1	29551,0	10080,6	3450,4
2022	80,39	143892,7	409540,8	93554,5	37291,0	10131,1	3578,1

Har bir rivojlanishning orqasida inson - ishchi, ta'minotchi, yotadi. Ishga joylashish imkoniyatlari yillar oralig'ida sezilarli kengaydi. 2000 yilda kichik biznes sub'ektlari tomonidan 4467,1 ming kishi uchun ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, yirik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 4521,0 ming dona ish o'rinlari ta'minlandi. 2022-yilga kelib kichik biznes sub'ektlari tomonidan 10131,1 ming kishi ish bilan band qilingan bo'lsa, yirik biznesda 3578,1 kishini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boburmirzo, X., & Abbosxon, Y. (2022, March). O'zbekiston Respublikasida Kichik Biznes Faoliyatining Rivojlanish Tahlili. In E Conference Zone (pp. 168-170).
2. Ugli, B. K. F. (2024). THE IMPACTING FACTORS ON SMALL BUSINESS GROWTH. Frontline Marketing, Management and Economics Journal, 4(01), 24-36.

3. Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). Exchange rate influence on foreign direct investment: empirical evidence from cis countries. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 2(04), 19-28.
4. Xursanaliyev, B. (2023). Kichik va yirik biznesni boshqarishning ilg‘or xorijiy tajribalari. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 7, 28-30.
5. Farhod o‘g‘li, X. B. (2024). KICHIK BIZNESNI YIRIK BIZNESGA TRANSFORMATSIYASI: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o‘rni va rivojlanish omillari. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari*, 4(1), 83-86.
6. Farhod o‘g‘li, X. B. (2024). TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA BIZNES XAJMINI BAHOLASH YO‘NALISHLARI. Ta‘limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28(1), 23-27.
7. Farhod o‘g‘li, X. B. (2024). Biznes yuritishning me‘yoriy-xuquqiy asoslari va institutsional sharoitlari. Ta‘limning zamonaviy transformatsiyasi, 4(2), 126-130.
8. Farhod o‘g‘li, X. B. (2024). Biznes yuritishning me‘yoriy-xuquqiy asoslari va institutsional sharoitlari. Ta‘limning zamonaviy transformatsiyasi, 4(2), 126-130.

QO‘QON SHAHAR TURIZMI RIVOJLANISHIDA HUNARMANDCHILIKNING AHAMIYATI**Rasulov Hamidjon Yakubovich,**

Qo‘qon universiteti, Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası mudiri

Isroilova Ma‘rifatxon Murodjon qizi

Qo‘qon universiteti, Turizm yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Qo‘qon qadimdan hunarmandlar shahri hisoblanib keladi. Boy tarixga ega ushbu sahar turli hukmronliklar davrida sayqallanib kelgan va bu maqolada Qadimgi Qo‘qon shahri tarixi, uning kelib chiqishi, tarixiy yodgorliklari, xukmdorlar va ularning davrlarda qurilgan o‘rdalar, bizgacha yetib kelganlari, ular qanday vazifalar bajargani, nima uchun Qo‘qon Hunarmandlar shahri nomini olgani, hunarmandchilik festivaliga qanday tayyorgarliklar ko‘rilishi va buning natijasida sayyohlar oqimining ko‘payishini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Hunarmandchilik, Ho‘qandi latif, Xudoyorxon, sayyohlar, o‘rda.

2019-yilda Qo‘qon shahridan "Jahon hunarmandlar shahri" maqomini olishga ariza yuborilgan edi. Ha‘yat a‘zolarining baholash hisobotlari Jahon Hunarmandlar kengashining ijroiya kengashi va kengash raisi tomonidan tasdiqlangach, Qo‘qon shahri "Jahon hunarmandlar shahri" deb belgilashga qaror qilindi. Xalqaro hunarmandchilik festivali o‘tkazilayotgan Xudoyorxon saroy maydoni Qo‘qon shahriga Jahon hunarmandlar kengashining yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha "Jahon hunarmandlar shahri" maqomi beruvchi sertifikat Qo‘qon shahri hokimi Ma‘rufjon Usmonovga Hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha prezidenti Gada Kaddumi taqdim etdi. Shundan boshlanib Qo‘qon shahri-Hunarmandlar shahri deya atala boshladi. 1-hunarmandchilik festivali 2019-yilning 10-15-sentyabr kunlari bo‘lib o‘tdi. 5 kun davom etgan mazkur festivalda 80 ga yaqin mamlakatdan 180 nafar saralangan hunarmandlar ishtirok etdi. Respublikamiz bo‘yicha ham 1000 ga yaqin hunarmandlar festivalda ishtirok etdi. Bu esa o‘z navbatida shaharda turizmning rivojlanishiga olib keladi. Dastavval, Hunarmandlar shahrining tarixi bilan tanishib chiqsak.

Hozirda rasman "Qo‘qon" deb atalsa-da manbalarda "Xo‘qand" hamda "Xo‘qandi Lafit" shaklida qalamga olib kelingan. Shahar nomining kelib chiqishi bo‘yicha turli talqinlar aytilgan. Bu talqinlar ichida eng mo‘tabari, tan olingani quydagichadir: qadimgi turkiy tilda "Xo"- shamol, "kandt, kent"- shahar ma‘nosini beradi, binobarin "Xo‘qand" shamol shahri deganidir. Shahar iqlimi tahlili natijalaridan ma‘lum bo‘lishicha, shaharda bir yilda o‘rta hisobda 240 kun turli tezlikda shamol esib turadi. Shaharning iqlimi mo‘tadil, suvi totli va pokiza, havosi yugurik, aholisi imon-e‘tiqodli, odobli, xushmuomala, nozikta‘b, hozirjavob, mehmondo‘st, she‘riyatga moyil, ko‘cha va maydonlar orasta bo‘lganligi tufayli "Latif" ta‘rifini olgan yagona shahardir. Shaharning vujudga kelish sanasi bo‘yicha hozircha bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Qadimgi Xitoy manbalarida o‘rganish asosida chiqarilgan xulosaga ko‘ra shahar millodan avvalgi 2-asrda ham mavjud bo‘lgan. Mustaqillik yillari aniqrog‘i 2009-2011-yillarda O‘zbekiston Fankar Akademiyasi Arxeologiya institutining Qo‘qon arxeologik ekspiditsiyasi tomonidan olib borilgan qazuv ishlari asnosida shahar zamini qatlama-qatlam o‘rganildi. O‘rganishlar natijasida bu yerda sopol idishlar, uy-

ro‘zg‘or buyumlari, qurollar va shaharning qadimgi qoldiqlari topildi. Mutaxassislar ularni tadqiq qilib, shahar taxminan millodan avvali 1-asrda vujudga kelgan degan xulosaga keldilar.

Qo‘qon shahri 8-13-asrlarda Arab xalifaligi, so‘ngra tohiriylar, somoniylar, qoraxoniylar, xorazimshohlar davlati tarkibida bo‘ldi. 1222-yili shahar Chingizxon qo‘shini tomonidan yakson qilindi. Temuriylar davriga kelib Qo‘qon yana tiklandi. 16-asr boshlarida shahar Shayboniylar davlatiga, 17-asr oxirlarida Ashtarxoniylar hukronligi ostida bo‘ldi. Buxoro xonligining zaiflashuvidan foydalangan ming urug‘i yo‘lboshchisi Shoxruhbiy poytaxt Qo‘qon shahri bo‘lgan Qo‘qon xonligiga asos soldi. Qo‘qon xonligi 1709-yildan 1876-yilgacha hukm surgan. Qo‘qon xonligi davrida jami 7 ta o‘rda qurilgan bo‘lib, ulardan faqat Xudoyorxon saroyi bizgacha yetib kelgan. Birinchi saroy Qo‘qon xonligining asoschisi Shohruxbiy tomonidan 1709-1710-yillarda shaharning Ko‘k To‘nli Ota mavzeyida Eski qo‘rg‘on deb atalgan qadimiy qal‘a o‘rnida qurilgan. Shohruxbiy 1721-yilgacha ya‘ni, vafotiga qadar shu saroydan davlatni boshqardi. O‘sha yili taxtga Shohruxbiyning katta o‘g‘li Abdurahimbiy o‘tiradi. 1723-yili Abdurahimbiy ham o‘ziga yangi saroy qurdiradi. O‘rdaga xalq "Qal‘ayi Raimbiy" degan nom beradi. U vafot etgach taxtga ukasi Abdukurimbiy o‘tiradi. Abdukurimbiy ma‘lum vaqt shu o‘rdada yashaydi, keyinchalik bu saroy sarbozxona (askarlar yashovchi va mashq qilivchi joy) ga aylantiriladi. Abdukurimbiy 1740-yilda o‘ziga yangi saroy qurdiradi. Bu xonlik tarixidagi 3-saroy edi, bu saroy Eski O‘rda nomini oldi. Bu saroyning atrofi qal‘a bilan o‘rab olindi. Bu qal‘aning 5 ta darvozasi bo‘lgan. Xonlik tarixida eng ko‘p hukmronlik qilgan Norbo‘tabiy dastlab "Eski O‘rda"da yashaydi. Keyinchalik 1767-yilda Qo‘qonsoyning chap sohilida o‘ziga yangi saroy qurdiradi. Bu saroy ortiqcha bezaklardan holi, oddiygina bo‘lgan. Xonlik tarixidagi 5-saroy Norbo‘tabiyning kichik o‘g‘li Amir Umarxon tomonidan 1812-yil bunyod qilingan. Saroyning chiroyliligi va zar bilan bezatilganligi uchun xalq tilida "Zarrinsaroy" nomini oladi. 1842-yilda Buxoro-Qo‘qon urushida bu saroy Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan vayron etilgan. Xonlik tarixidagi 6-saroy Umarxonning o‘g‘li Muhammad Alixon tomonidan 1825-1827-yillarda Chorsu maydoning sharq tomonida bunyod etilgan. Xalq tilida bu saroy- "Jahon oro" nomini oladi. Bu saroy oldida har kuni 3-4 ming askar mashq qilgan. Bu saroy dastlabki beshta saroyga nisbatan uzoqroq saqlangan. Xonlik davridan hozirgi kungacha yetib kelgan yagona saroy bu Xudoyorxon saroyi hisoblanadi. Bu Qo‘qon xonligida qurilgan oxirgi 7-saroy. Bu saroy hukmdor Xudoyorxon farmoni bilan 1865-1870- yillar oralig‘ida qurib bitkizilgan. Bu saroy to‘rt qismga bo‘lingan:

1. Tashi saroy.
2. O‘rta saroy.
3. Ichki saroy.
4. Bog‘.

Hozirgi kunda faqat ichki saroygina saqlanib qolgan bo‘lib, xonalar soni 114 tani tashkil qilgan, bundan maqsad Qur‘oni Karimdagi 114 ta surani ifodalash bo‘lgan. Qurilgan 7 ta saroyning barchasi Qo‘qon shahrida joylashgan, ammo urushlar va boshqa sabablar tufayli, faqatgina Xudoyorxon saroyi bizgacha yetib kelgan. Yuqorida aytganimdek, aynan "Hunarmandchilik festivali" ham Xudoyorxon O‘rdasida bo‘lib o‘tgan. 2023-yilning 21-23 sentyabr kunlari Qo‘qon shahrida II "Xalqaro hunarmandchilik festivali" bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro miqyosdagi mazkur tadbirning Qo‘qon shahrida o‘tkazilayotgani bejiz emas. Chunki ushbu shahar qadim-qadimdan hunarmandchilik rivojlangan madaniy markazlardan biri bo‘lib kelgan. Bu yerda hunarmandchilik va xalq amaliy san‘atining turli yo‘nalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Ustoz-shogird an‘analari, hunarmandlarning oilaviy sulolalari uning sir-asrorlarini ajdodlardan avlodlarga yetkazib kelmoqda.

Bugungi kunda ham Qo‘qon shahrida hunarmandchilik an‘analari izchil rivolanmoqda. Xususan, yog‘och o‘ymakorligi, qog‘ozgarlik, chilangarlik, zargarlik kabi hunarmandchilikning ko‘plab turlari ravnaq topmoqda. Aytish lozimki, 2019-yilda Birinchi “Xalqaro hunarmandchilik festivali”da 78 ta mamlakatdan 570 nafar ishtirokchi, yurtimizning 14 ta hududidan esa 1 ming 200 nafar mahalliy hunarmandlar ishtirok etgan. Shu bilan birga, bir milliondan ortiq tashrif buyuruvchi va xorijiy sayyohlar kelgan.

Ushbu nufuzli tadbirning o‘tkazilishi natijalariga ko‘ra Qo‘qon shahriga sayyohlar oqimi 10 barobarga, hunarmandlar soni 3,5 barobarga, mehmonxonalar 2,5 barobarga oshdi. Jahon hunarmandchilik kengashining 2019 yil 23 iyuldagi qaroriga ko‘ra, Qo‘qon shahriga yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha Hunarmandchilik shahri maqomi berilgan.

Xalqaro tashkilotning bunday e‘tirofi yurtimizda hunarmandchilik qadimdan boy an‘analar asosida rivojlanib kelayotganini ko‘rsatadi. 2020 yilda Butunjahon Hunarmandlar kengashi – Osiyo va Tinch Okeani mintaqasining 2021-2024 yillar Prezidentligi O‘zbekistonga topshirildi. Ushbu xalqaro tashkilotning Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi bo‘yicha ofisini O‘zbekistonga olib kelish va nufuzli tadbirlarni yurtimizda o‘tkazish mamlakatimizda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va mavqeini oshirishga xizmat qilmoqda.

II “Xalqaro hunarmandchilik festivali”da 70 ta davlatdan 200 nafar xorijiy ishtirokchi qatnashadi. Shuningdek, mamlakatimizning 14 hududidan 100 nafar kulol ishtiroki ko‘zda tutilgan. Festival doirasida bir qator tadbirlar, festival ishtirokchilarining tantanali yurishlari, mahalliy va xorijiy hunarmandlarning mahsulotlari ko‘rgazma-savdosi, ilmiy-amaliy konferensiya, festivalni o‘tkazish va yakunlari bo‘yicha matbuot anjumanlari, moda haftaligi, xalq sayllari, qo‘g‘irchoqbozlik va dorbozlar tomoshalari, viloyatlar folklor jamoalari va madaniyat boshqarmalari konsert dasturlari, osh tanlovlari, mahalliy va xorijiy hunarmandlarning mahorat darslari, zamonaviy o‘zbek milliy hunarmandchiligi va amaliy san‘ati va hunarmandlar ijodiga bag‘ishlangan kitob-albomi taqdimoti, kulolchilik mahsulotlari ko‘rgazma savdosi, mohir kulollar shahri Rishton hamda Furqat tumani bo‘ylab sayohat o‘tkaziladi.

Bugungi kunda Qo‘qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalini yuqori saviyada o‘tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Jumladan, xorijiy mehmonlar va festival ishtirokchilari tashrif buyurishi ko‘zda tutilgan tarixiy obidalar, Qo‘qon milliy hunarmandchiligi namoyandalarining uy ustaxonalari, madaniy dam olish maskani festival ishtirokchilari va mehmonlar tashrifi uchun tayyorlanmoqda. Festival tadbirlarini har tomonlama puxta va badiiy jihatdan betakror usulda tayyorlash uchun yuksak professional mahorat va tajribaga ega bo‘lgan ssenarist va rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, usta-hunarmandlar, sahna rassomlari, iste‘dodli yosh san‘atkorlar jalb etilgan.

Xulosa

Qo‘qon shahrida Xudoyorxon o‘rdasi singari ko‘plab saroylar mavjud bo‘lgan, afsuski ular bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan Xudoyorxon o‘rdasi esa nafaqat turizm balki hunarmandchilik uchun ham muhim o‘rin kasb etmoqda. Qo‘qon shahri “Hunarmandlar shahri” nomini olishi turizm uchun ijobiy natija ko‘rsatdi. Har ikki yilda o‘tkaziladigan ushbu anjumanda sayyoh va hunarmandlarni kutib olish uchun puxta tayyorgarlik bo‘ladi, bu esa shaharda turizmning rivoji uchun turtki bo‘layapti va ko‘plab davlatlardan sayyohlarni o‘ziga jalb qilayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шоҳрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3 (2), 617-629.
2. Hamidjon Rasulov, & Noila Musurmonqulova. (2024). TURIZM RIVOJLANISHIDA “YANGI O‘ZBEKISTON” YOSHLARINING TUTGAN O‘RNI. Ta‘lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 12(2), 190–195. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/2811>
3. Umarov, O. (2023). O ‘ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O ‘RNI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 234-236.
4. Umarov, O. (2023). MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA). QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8, 78-80.
5. Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy. - Xo‘qandi Latif manbayi. - T:"Movarounnahr". 2018. 12-19- betlar.
6. Muhammad Yahyoxon Ho‘qandiy. - Xudoyorxon O‘rdasi. - T:"Namangan". 2016. 6-50-betlar.
7. Q.Usmonov, M. Sodiqov, S.Burxonova –O‘zbekiston tarixi||, 2016
8. Vohidov Sh.X. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi:- T.: 1998. – 71-b.
9. Umarov Sh. Xudoyorxon avlodari tarixi. T.: Yangi asr avlodi, 2016.
10. Bobobekov Haydarbek Nazirbekovich. –Qo‘qon tarixi. –T:“FAN”. 1996.
11. Mamurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.
12. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASSTER YONDASHUVINING O‘RNI. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>
13. Rajabov Q, Haydarov M. –Turkiston tarixi. –T:“Universitet”. 2002.
14. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.

МОЛОДЕЖНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

Абдуллаева Ирода Махмуджановна

к.э.н., профессор кафедры «Цифровая экономика и информационные технологии»
Ташкентского Государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы молодёжного предпринимательства в развитии экономики страны, а также поддержка и создание благоприятных условий для молодёжи в данном секторе экономики.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, рынок труда, молодёжное предпринимательство.

Малый бизнес и частное предпринимательство — это сфера приложения труда и источник доходов значительной части населения. Это наиболее гибкая часть рынка труда, поглощающая основную массу трудовых ресурсов невысокой квалификации и с недостаточным опытом, желающих иметь гибкий рабочий день. Часто только здесь могут найти работу социально уязвимые слои населения: женщины, молодые люди, впервые ищущие работу, имеющие невысокий уровень образования и трудового опыта. Малый бизнес стал одним из важных факторов экономического развития и в нашей стране. Развитие малого бизнеса — одно из главных направлений структурных преобразований в экономике Узбекистана. Этот сектор создает необходимую атмосферу конкуренции, способствует созданию дополнительных рабочих мест и росту доходов населения. Для развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан имеются большие возможности, так как наш народ испокон веков занимается мелким предпринимательством: гончары, ювелиры, кондитеры, ткачи и другие ремесленники производили домашнюю утварь, орудия труда, ювелирные украшения, золотошвейные изделия, одежду, обувь и другие продукты индивидуально или с членами своих семейств в своих маленьких мастерских. Основная часть этих товаров отправлялась на продажу по Великому шелковому пути. Развитию малого бизнеса способствовали благоприятные природно-климатические условия, трудолюбие народа, богатые сырьевые ресурсы. В современном Узбекистане малый бизнес представляют индивидуальные предприниматели, микрофирмы, малые предприятия, а также дехканские и фермерские хозяйства. Для обеспечения максимально благоприятной бизнес-среды субъектам предпринимательства предоставляются различные льготы и преференции, а также оказывается всесторонняя поддержка.

Отношение молодежи к происходящим в стране событиям является важным фактором для государства и общества. Оно выражается в восприятии молодежью жизни современного общества и функционирования государства, оценке своего места в обществе, а также в способствовании его развитию.

Одновременно государство призвано активно проводить молодежную политику, вести постоянный контроль за ее реализацией, осуществлять планомерную деятельность для решения насущных молодежных проблем.

Молодежь – особая часть общества, положение которой детерминировано социально-экономическим состоянием общества. Она представляет стратегический ресурс его развития, разумное пополнение производительных сил общества, являясь не только энергичной, но и быстро обучаемой рабочей силой. Немецкий ученый Карл Мангейм уверенно заявлял, что молодёжь является своего рода резервом, выступающим на передний план, когда такое оживление становится необходимым для приспособления к быстро меняющимся или качественно новым обстоятельствам. По мнению ученого, «молодёжь призвана играть роль оживляющего посредника социальной жизни»

Согласно последним данным, около 60% населения Узбекистана составляют люди в возрасте до 30 лет. Это означает, что молодежь является крупной и динамичной группой, способной внести значительный вклад в различные сферы жизни страны. К сожалению, данная категория населения является одной из особо уязвимых групп на рынке труда. По данным Международной организации труда, во всём мире молодые люди сталкиваются с реальными трудностями, связанными с поиском достойных рабочих мест.

Важнейшими показателями экономической ситуации в стране являются динамика уровня безработицы, емкость и конъюнктура рынка труда, соотношение спроса и предложения на рабочую силу. По данным государственной статистики, около трети молодых людей зарегистрированы в качестве безработных в Центре занятости. Однако приведенная статистика не в полной мере отражает ситуацию на рынке труда, и особенно в молодежном сегменте. Следует отметить, что молодежь редко пытается обращаться в Центр по трудоустройству. При этом не учитывается все многообразие новых явлений в сфере занятости, связанных с особенностями российских рыночных отношений. Более 50% молодёжи, занятой на предприятиях государственного сектора, работает по совместительству, около 25% - подрабатывает в различных альтернативных формах занятости.

Сегодня около 70-80% регистрируемых предприятий альтернативного сектора экономики организуется людьми 25-30-летнего возраста. Малое предпринимательство позволяет создавать новые рабочие места, способствует демонополизации российской экономики, нацелено на формирование нового слоя цивилизованных предпринимателей. Малое предпринимательство характеризуется низкой капиталоемкостью и более высокой трудоемкостью по сравнению с крупным производством. Государству выгодно инвестировать свои ресурсы в развитие малого бизнеса, дающего быструю отдачу, рост числа рабочих мест и налоговых поступлений. Важным фактором стимулирования молодых предпринимателей является не только обучение основам ведения бизнеса, но и помощь в открытии собственного дела: выделение льготных кредитов и субсидий, предоставление нежилых помещений на основе льготной аренды; помощь с техническим оснащением на основе лизинга и в составлении бизнес-планов. Организация предпринимательской деятельности – это потребности молодежи в самореализации,

финансовой независимости, стремление улучшить и внести собственный вклад в определенный вид хозяйственной деятельности. Малые предприятия более мобильны, имеют сравнительно более высокую оборачиваемость капитала, приносящую определенную выгоду государству. На сегодняшний день молодежное предпринимательство является одним из приоритетных направлений развития малого и среднего бизнеса. Положение современной молодежи в обществе не всегда стабильно, что приводит к обострению молодежных проблем (потеря социальных гарантий, утрата чувства собственной безопасности, снижение жизненного уровня, неудовлетворенность материальным положением, жилищными условиями, работой). Их нерешенность – источник постоянной напряженности в молодежной среде.

В новогоднем поздравлении народу Узбекистана Президент Шавкат Мирзиёев объявил новый 2024 год Годом поддержки молодежи и бизнеса, обозначив тем самым стремление страны к укреплению роли молодежи в социально-экономическом развитии и поддержке предпринимательства.

Данные инициативы включают в себя создание специальных фондов для финансирования инновационных проектов молодежи, разработку программ стимулирования предпринимательства и предоставление микрокредитов.

Значимость активного участия молодежи в процессе модернизации общества посредством развития ее научного потенциала и получения достойного образования закреплена в Стратегии «Узбекистан – 2030». В ее рамках планируется внедрение новых образовательных программ, нацеленных на развитие у молодых людей навыков, необходимых в современной экономике и предпринимательстве, создание молодежных малых промышленных зон, которые станут платформой для реализации предпринимательских проектов. Это не только послужит развитию молодежного предпринимательства, но и организации новых рабочих мест, а значит, экономическому росту страны.

В заключении хотелось бы отметить, что сегодня Узбекистан является страной с молодой динамично развивающемся обществом. Молодые люди в возрасте до 30 лет составляют 60% населения. Это своего рода драгоценный «демографический дивиденд» для страны. В течение следующих двух десятилетий сегодняшние дети и молодые люди станут самой большой рабочей силой в истории Узбекистана. При правильных инвестициях в развитие молодежи сегодня, именно они могут стать тем поколением, которое выведет Узбекистан на новый уровень социально-экономического развития.

Молодёжь Нового Узбекистана – это активный субъект преобразования общества и важный ресурс модернизации, а также ценнейший кадровый ресурс экономического роста и обеспечения благосостояния поколений.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/ru/docs/6811938> Указ Президента Республики Узбекистан, от 21.02.2024 г. № УП-37 О ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЕ ПО РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН — 2030» В «ГОД ПОДДЕРЖКИ МОЛОДЕЖИ И БИЗНЕСА»

2. Андрианова, Е. Н. Как теория поколений влияет на экономику // Молодой ученый. — 2023. — № 11 (458). — С. 74-76. — URL: <https://moluch.ru/archive/458/100755/> (дата обращения: 29.03.2024).
3. Виктория Шухат: Гуманистическое управление. Разбор полетов.
4. Издательство: Бахрах-М, 2024 г.
5. <https://samoukina.com/assets/files/txt/18610.pdf?ysclid=lf6zmn3j9d97549880>
<https://www.sb.by/articles/generatsiya->
6. <https://prostudio.ru/journal/generation-x-y-z/?ysclid=lf6zqm08xb138997285>
7. <https://www.ritmearasia.ru/news--2024-01-06--v-uzbekistane-2024-god-objavlen-godom-podderzhki-molodezhi-70788>
8. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/31/gov-program-2024/>
9. <https://www.marketch.ru/marketing-experts/drucker-peter-f-piter-druker/>
10. <http://insonhuquqlari.uz/ru/news/sovremennaja-molodezhnaja-politika-uzbekistana-v-rusle-mirovyh-tendantsij>

**МАМЛАКАТИМИЗДА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР
ТАҲЛИЛИ****Абсаламов Акрам Толлибоевич**

Tashkent International University

“Иқтисодиёт ва таълим” кафедраси мудири, PhD, доцент

akramabsalamov@gmail.com

Аннотация. 2020 йилдан бошланган дунё иқтисодиётидаги салбий ҳолатлар, хусусан, пандемия даври, 2022 йилда бошланган сиёсий ва хардий зиддиятлар халқаро логистикага, инвестициялар харкатига, бирламчи ҳом-ашё, ўғитлар ва товарлар нархларига таъсир этган ҳолда дунё иқтисодиётининг ривожланишини секинлаштирди. Хатто айрим ривожланган давлатларда иқтисодий ўсиш манфий баҳоланмоқда. Аммо шунга қарамасдан Ўзбекистон иқтисодиёти маҳаллий олимларимиз ва экспертларимиз фикрига, ҳамда дунёнинг етакчи молия институтлари тадқиқотларига кўра мўтадил ривожланиб бормоқда.

Биз ушбу илмий ишимизда охириги йилларда мамлакатимиз иқтисодиётида ўзгаришлар, хусусан ташқи савдо операциялари, ички иқтисодиётда ялпи талаб ва тақлифдаги ўзгаришларнинг иқтисодий ўсишга таъсири ўрганилган.

Ички иқтисодиётнинг ривожланиш даражасини билдирувчи асосий кўрсаткич авваломбор мамлакатдаги ишлаб чиқариш даражасининг ҳолати ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда айтишимиз мумкинки, Ўзбекистон ялпи ички маҳсулоти охириги йилларда сезиларли тарзда ошиб бормоқда ва 2022 йилда ЯИМ 896,6 трлн.сўмни ташкил қилди. 2020 йилни инобатга олмаганда охириги олти йилда мамлакатимизда ишлаб чиқариш номинал қийматда 100-130 трлн.сўмдан қўшилиб бормоқда. Бу албатта биз учун ижобий ҳолат ҳисобланади.

Шу билан бирга иқтисодиёт ривожланишига тўсқинлик қилувчи бир қанча омиллар ҳам мавжуд бўлиб, улардан асосийси ички иқтисодиётдаги нарх даражасининг ноъмақбул йўналишда ўзгаришидир. Хусусан, 2022 йилдан дунё иқтисодиётда кузатилган юқори инфляция даражаси 2023 йилда ҳам сақланиб қолди. Ўзбекистон иқтисодиёти халқаро иқтисодиёт билан интеграцияси охириги йилларда анча кучайиб баётганлигини инобатга олсак, ривожланган давлатларда кузатилган юқори инфляция бизнинг иқтисодиётимизга таъсири юқори бўлди. Айтмоқчимизки, 2022-2023 йиллардаги юқори инфляция бу ички иқтисодиётдаги ўзгаришлар натижасида эмас, балки ташқи иқтисодиётдаги ўзгаришлар натижасида “инфляция импорт” амалга ошди. Статистик маълумотларга кўра, ривожланган давлатларда инфляция 2022-2023 йилларда 10 фоиз атрофида бўлган бўлса, мамлакатимизда 2022 йилда инфляция 12,3 фоиз бўлган ва 2023 йилда 10,0 фоизни ташкил этди.

Бугунги кунда бирон бир иқтисодиёт ташқи иқтисодиёт билан алоқа қилмасдан туриб ривожланиши мумкин эмас. Иқтисодиёт шундан жараёнки, айрим хом-ашёлар бизда

бўлса, айримлари бизда йўқ. Шу билан бирга, айрим товарларни чет элда ишлаб чиқариш арзон бўлса, айрим товарларни ишлаб чиқариб бизда арзон бўлади. Шундай экан давлатлар айрим товарларни четга сотса, айрим товарларни четдан сотиб олишга мажбур бўлади.

2017 йилга қадар мамлакатимизда импорт товарларига турли тўсиқлар қўйилган эди. Хусусан, импортёрларнинг валюта биржасидан чет эл валютасини сотиб олиш қийин кечар эди. Президентимиз давлат валюта сиёсатини либераллаштириш орқали бу каби тўсиқларни олиб ташлади. Бунинг натижасида импорт ҳажми ўзининг табиий даражасига чиқиб олди. Албатта, мамлакатимиз савдо баланси сальдоси дефицити салбий баҳолансада, аммо бу очиқ иқтисодиётни олиб боришнинг илк давридаги табиий ҳолатдир.

2023 йилда ҳукуматимиз олдида турган асосий масалалардан бири бу савдо баланси дефицитини камайтиришдан иборат бўлди. Статистик маълумотларга кўра, 2022 йилда Ўзбекистоннинг ташқи савдо ҳажми 57 млрд.АҚШ долларидан ошган бўлса, 2023 йил якунларига кўра 65 трлн.АҚШ долларидан ошиши, ҳамда бунда олдинги йиллардан фарқли равишда жорий йилда экспорт ҳажмининг ошиши импорт ҳажмининг ошишидан юқори бўлиши кутилмоқда. Хусусан, 2023 йил январь-ноябрь ойларида мамлакатимиз экспорти ҳажми ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 30 фоиздан кўпроққа ошган бўлса, импорт ҳажми эса 23 фоизга ошган. Агар бу тенденция кейинги йилларда ҳам кузатилса, савдо балансидаги манфий сальдонинг камайишига ва унинг ички иқтисодиётга босимининг пасайишига олиб келади.

Шунингдек, бугунги кунда иқтисодий ўсишга катта туртки бераётган институтлардан бири молия бозоридир. Молия бозорининг асосий элементларидан бири бу банклар ҳисобланади. Ўзбекистон банк тизими бугунги кунда катта трансформация жараёнларини бошдан кечирмоқда ва бу бугунги куннинг талабидир. Банк тизимининг трансформацияси натижасида рақамли банкларнинг вужудга келмоқда ва рақамли банк хизматларининг кўлами ҳам кенгайиб бормоқда.

Тижорат банкларини трансформация қилишдан кўзланган асосий мақсад аҳолига қулай хизматлар кўрсатиш бўлса, иккинчидан тижорат банкларининг иқтисодий ўсишга қўшаётган хиссасини оширишдан иборатдир. Тижорат банкларининг кредитларисиз иқтисодиётнинг ривожланишини тасаввур қилиб бўлмоқда. Ўзбекистон мисолида тижорат банклари кредитлари йил сайин ошиб бормоқда. Хусусан, 2023 йил январь-ноябрь ойларида тижорат банклари умумий ҳисобда 465,5 трлн.сўм кредит ажратган бўлиб, бу ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 22 фоизга кўпдир. Ушбу кредитлар ошишида жисмоний шахсларнинг хиссаси юқоридир. Жумладан, ўша даврда тижорат банклари томонидан жисмоний шахсларга 146,7 трлн.сўм кредит ажратган бўлиб, бу ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 50 фоизга кўпдир. Бу жараённинг ҳам ижобий ҳам салбий томонлари бор. Ижобий томони шундаки, жисмоний шахслар кредитлари мамлакатда ишлаб чиқарилган товарлар ва кўрсатилаётган хизматларни ҳарид қилиш учун сарфланади. Яъни бир гап билан айтганда ички иқтисодиётда ялпи талабнинг олишига олиб келади. Бу ҳолат тижорат банкларининг жисмоний шахсларга ажратаётган кредитлари фоизининг юридий шахсларга ишлаб чиқаришни кенгайтириш учун ажратаётган кредитлари фоизидан юқори бўлишига олиб келади ва банкларни жисмоний шахсларга кредит ажратишга қизиқишини

оширади. Бунинг салбий томони шундаки, банклар иқтисодиётдаги ялпи талабни оширишга сабабчи бўлади-ю, ammo юридик шахсларнинг ишлаб чиқаришини кредитлашни камайтириш орқали, ёки етарлича оширмаслик орқали иқтисодиётдаги ялпи таклифни пасайтиради. Ялпи талаб ва ялпи таклиф ўртасидаги бу каби фарқ ички иқтисодиётда инфляцияни ошириш орқали нарх барқарорлигига путур етказди. Шу билан бирга, жисмоний шахсларга кредитларни кенгайтириш орқали, албатта бу кредитлар фоизи анча юқори бўлганлиги сабабли банк тизимида тизимли рискларни ҳам вужудга келтиради.

2024 йилда ҳам мамлакатимизда ишлаб чиқаришнинг ошиши аниқ ҳолат. Ҳатто Жаҳон банкининг маълумотларига кўра, 2024 йилда ривожланган давлатларнинг иқтисодиёти ўртача 2,7 фоизга ўсиши прогноз қилинган бўлса, Шарқий Европа ва Марказий Осиё давлатлари иқтисодиёти эса ўртача 4,7 фоизга ўсиши прогноз қилинган. Шунинг таъкидлашимиз лозимки, Ўзбекистон иқтисодиётининг ўсиши 2024 йилда 5,6 фоизга ўсиши прогноз қилинмоқда. Яъни, мамлакатимизда олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар ижобий баҳоланмоқда ва бунинг натижасида биздаги иқтисодий ўсиш дунёт иқтисодиётининг ўртача ўсишидан юқори бўлмоқда.

Шу билан бирга, иқтисодий фаолликни ҳисоблаб борадиган кўрсаткичлар ва индекслар талайгина бўлиб, улар орқали ҳам иқтисодий прогнозларни амалга ошириш мумкин. Хусусан, Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази (CERR) томонидан ҳисобланиб борилаётган Ишбилармонлик фаоллиги индекси ҳам муҳим кўрсаткичлардан биридир. Ушбу индекс банк ҳисоб-варақлари бўйича операциялар, товар хом-ашё биржасидаги фаоллик, хўжалик юритувчи субъектларнинг фаоллиги ҳамда брендларни рўйхатга олиш каби тўртта компонент орқали аниқланиб, охириги йилларда ушбу индекс ошиб бормоқда.

Мамлакатда ишлаб чиқаришни оширишда муҳим бўлган омиллардан бири бу давлатдаги инфраструктурадир. Бу боради Президентимиз ташаббуси билан кўплаб чора-тадбирлар амалиётга жорий этилмоқда. Охириги йилларда яшил иқтисодиётни ривожлантириш учун катта имтиёзлар берилиши, қайта тикланадиган энергия манбаларини кўпайтиришга қаратилган ҳаракатларни мисол сифатида келтиришимиз мумкин. 2023 йил охирида Президентимиз Шавкат Мирзиёев мамлакатимиз ташаббуси билан олтига ҳудудда "яшил" энергия ишлаб чиқарувчи янги йирик қувватларини тармоққа уланди. Хусусан, Жиззах, Самарқанд, Сурхондарё, Навоий, Бухоро ва Қашқадарё вилоятларида жами 2,4 гигаваттлик қуёш ва шамол электр станцияларини фойдаланишга топширилмоқда. Бу каби ўзгаришлар келажакда ишлаб чиқаришнинг ошишига ва провард мақсадда аҳолининг турмуш даражасини яхшилашга хизмат қилади.

Ташқи савдо операцияларига келадиган бўлсак, 2024 йилда ҳам савдо балансида манфий сальдони кутиб қолишимиз керак. Ўйлаймизки, ҳукумат томонидан ташқи савдо операцияларида экспортнинг импортдан кўпроқ ошишини таъминлашга қаратилган бозор механизмларига мос келадиган чора-тадбирлар амалга ошириш лозим. Бунда хусусий секторга зарар келтирмаган ҳолда давлат улуши мавжуд корхоналарнинг, ёки давлат эҳтиёжлари учун харид қилинаётган импорт товарлари ҳажмини камайтириш мақсадга мувофиқдир.

Мамлакатимизда молия бозорининг ривожланиши ҳақида фикр юритганда, молия бозоридан ташқарида айланаётган молиявий ресурслар тўғрисида фикр юритишни маъқул кўраман. Тақрибий ҳисоб китобларга қараганда банкдан ташқарида аҳоли кўлида 20 млрд АҚШ долларига яқин молиявий ресурслар жамланган. Бугунги кунда аҳоли жамғармаларининг катта қисми асосан кўчмас мулкда ёки чет эл валютаси кўринишида сақланмоқда. Ушбу икки инструмент ҳам ишлаб чиқаришнинг ошишига етарлича хизмат қилмайди. Аҳоли жамғармаларнинг катта қисми кўчмас мулкка йўналтирилиши ушбу бозорида “совун кўпигини” ҳосил бўлишига олиб келса, жамғармаларнинг чет эл валютасида сақланиши эса иқтисодиётнинг долларлашувини кучайтиради. Бунинг натижасида ички иқтисодиётнинг ташқи иқтисодий тебранишларга таъсирчанлигини оширади ва миллий пул сиёсатини заифлаштиради.

Аҳоли жамғармаларини молия бозорига жалб қилишда асосий инструменти бўлиб, бугунги кунда фақатгина банк депозитлари бўлиб қолмоқда. Албатта банк депозитлари юқорида келтирган иккита инструментдан жозибалироқ эмас. Шундай экан, бизнинг фикримизча, мамлакатда молия бозорини ривожлантириш, молия бозорида аҳоли учун жозибали инструментларни кўпайтириш орқали аҳоли жамғармаларини молия бозорига жалб қилиш мақсадга мувофиқдир. Кейинги босқичда аҳоли жамғармаларини кўчмас мулк бозоридан молия бозорига ўтказиш чора-тадбирларини амалга оширишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

www.scholar.google.com

www.cerr.uz

www.cbu.uz

www.stat.uz

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ

Агаева Кенуль Асаф кызы, доцент

Азербайджанский Университет Архитектуры и Строительства

Аннотация. В статье рассматривается роль искусственного интеллекта в эпоху 4-й промышленной революции. Приведены области экономики, на которые влияет ИИ и описано, как экономика Азербайджана реагирует на эти вызовы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, экономика, область влияние, вызовы, инфраструктура, рынок труда, сегментация потребителей.

В эпоху 4-й промышленной революции, с которой сталкивается в настоящее время экономика, искусственный интеллект, являющийся технологией, наиболее подверженной влиянию деятельности бизнеса, с каждым днем приобретает все большее влияние. Благодаря особенности повторения человеческих способностей, эта технология, помимо наличия базы данных с рекордным количеством информации, на данный момент определяется как самая мощная система за счет того, что она способна связывать эти данные в сотни раз больше, чем человеческий мозг. На протяжении всей истории происходили революции, которые меняли образ жизни и благосостояние людей, порождая новые экономические системы. Сегодняшняя революция искусственного интеллекта закладывает основу для новых экономических форм, позволяя предприятиям быстрее и эффективнее удовлетворять потребности человека. В результате своего прямого вмешательства на все этапы деловой деятельности искусственный интеллект быстро стал чем-то большим, чем просто фактором, создающим конкурентное преимущество в мире большого бизнеса[3].

Искусственный интеллект (ИИ) играет несколько важных ролей в экономике, влияя на различные аспекты этой области[2]:

Анализ данных и прогнозирование. Алгоритмы искусственного интеллекта могут анализировать огромные объемы экономических данных, включая рыночные тенденции, поведение потребителей и финансовые транзакции, чтобы выявлять закономерности и делать прогнозы. Это помогает экономистам и политикам в процессах принятия решений, таких как прогнозирование экономических показателей, таких как рост ВВП, уровень инфляции и безработица.

Алгоритмическая торговля: ИИ широко используется в алгоритмической торговле, где сложные алгоритмы анализируют рыночные данные в режиме реального времени для принятия торговых решений. Торговые системы, управляемые искусственным интеллектом, могут реагировать на изменения рынка гораздо быстрее, чем трейдеры-люди, и могут более эффективно использовать возможности для получения прибыли.

Управление рисками: ИИ позволяет лучше управлять рисками в экономике и финансах, оценивая и снижая риски, связанные с инвестициями, кредитами и другой финансовой деятельностью. Модели искусственного интеллекта могут выявлять

потенциальные риски на основе исторических данных и рыночных условий, помогая финансовым учреждениям принимать более обоснованные решения.

Обнаружение и предотвращение мошенничества. В экономике алгоритмы искусственного интеллекта используются для обнаружения мошеннических действий при финансовых транзакциях, таких как мошенничество с кредитными картами, мошенничество со страхованием и отмывание денег. Модели машинного обучения могут выявлять необычные закономерности и поведение, которые могут указывать на мошенническую деятельность, что позволяет организациям принимать превентивные меры.

Анализ политики: модели на базе искусственного интеллекта могут моделировать потенциальные последствия различных экономических политик и вмешательств. Экономисты и политики могут использовать эти симуляции для оценки эффективности различных вариантов политики перед их реализацией, снижая риск непредвиденных последствий.

Персонализированные финансовые услуги: ИИ используется финансовыми учреждениями для предоставления клиентам персонализированных финансовых услуг. Алгоритмы искусственного интеллекта анализируют данные и поведение клиентов, чтобы предоставлять индивидуальные рекомендации по инвестициям, планам сбережений и финансовым продуктам, повышая удовлетворенность и лояльность клиентов.

Оптимизация и эффективность. Методы искусственного интеллекта, такие как машинное обучение и алгоритмы оптимизации, используются для повышения эффективности экономических процессов, таких как управление цепочками поставок, распределение ресурсов и логистика. Оптимизируя использование ресурсов и минимизируя затраты, ИИ способствует общей экономической производительности и росту.

Анализ рынка труда: ИИ помогает экономистам анализировать динамику рынка труда, обрабатывая большие объемы данных о тенденциях занятости, вакансиях и спросе на навыки. Это позволяет политикам разрабатывать более эффективные программы развития рабочей силы и решать такие проблемы, как безработица и нехватка навыков.

В целом ИИ становится все более важным инструментом для экономистов, политиков и финансовых специалистов, позволяя им получать более глубокое понимание, принимать более обоснованные решения и повышать эффективность в различных видах экономической деятельности.

Помимо содействия творчеству, ИИ считается движущей силой улучшения нескольких ключевых показателей эффективности на организационном уровне.

Например, считается, что приложения искусственного интеллекта, которые улучшают сегментацию клиентов, а также обеспечивают лучшее знание прибыльных сегментов клиентов и облегчают взаимодействие, оказывают положительное влияние на долю рынка и удержание клиентов [1]. В частности, инструменты на базе искусственного интеллекта могут анализировать большие объемы данных о клиентах для выявления конкретных сегментов с различными предпочтениями и потребностями. Адаптируя

продукты, услуги и маркетинговые усилия к этим выявленным прибыльным сегментам, компании могут увеличить долю рынка, привлекая больше клиентов, которые находят ценность в их предложениях. Более того, ИИ может повысить уровень удержания клиентов, предоставляя им персонализированный опыт посредством взаимодействия на основе данных. Это основная причина, почему исследовательская часть исследовательской работы посвящена сегментации клиентов.

Многие ученые и исследователи рассматривают искусственный интеллект как набор революционных технологий в мире бизнеса. Несмотря на эти утверждения, существует нехватка эмпирических исследований, которые всесторонне изучают влияние внедрения структурированного ИИ на ключевые показатели эффективности в организациях.

Азербайджан полон решимости стать пионером в реагировании на глобальные вызовы и возникающие тенденции в постпандемический период. В этом контексте в стране ведется активная работа по созданию благоприятной инфраструктуры для развития цифровой экономики и технологий в соответствии со стандартами Четвертой промышленной революции. Этот проактивный подход направлен на то, чтобы позиционировать Азербайджан как лидера в принятии новых тенденций развития и обеспечении доступности соответствующей инфраструктуры [6].

Список использованной литературы:

1. Azvine, B., Nauck, D., & Ho, C. (2003). Intelligent business analytics—a tool to build decision-support systems for eBusinesses. *BT Technology Journal*, 21, s. 66. [https://www.researchgate.net/publication/251260188_Intelligent_Business_Analytics_-_A_Tool_to_Build_Decision-Support_Systems_for_eBusinesses]
2. Bessen, J. (2018). Artificial intelligence and jobs: The role of demand. In *The economics of artificial intelligence: an agenda*, ss.297. University of Chicago Press. <https://www.nber.org/system/files/chapters/c14029/c14029.pdf>
3. Cheng, Y., və Jiang, H. (2021). Customer–brand relationship in the era of artificial intelligence: understanding the role of chatbot marketing efforts. *The Journal of Product & Brand Management*, ss.11
4. Chung, M., Ko, E., Joung, H., və Kim, S. J. (2020). Chatbot e-xidməti və lüks brendlərlə bağlı müştəri məmnuniyyəti. *Journal of Business Research*, 117, ss.588.
5. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation? *Technological Forecasting and Social Change*, 114, 255-268.
6. Azərbaycan Respublikasının milli iqtisadiyyat perspektivi üzrə Strateji Yol Xəritəsi, 2016, ss.8. <https://static.president.az/pdf/38542.pdf>

ЎЗБЕКИСТОНДА УЙ-ЖОЙ БОЗОРИ ҲОЛАТИНИНГ АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚЛИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Юлдашев Искандар Бахрамович

Тошкент Халқаро университети директори

Рахмонов Дилшоджон Алиджонович

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Тошкент Халқаро университети декани

Аннотация: Мақолада Тошкент шаҳрида уй-жой бозорида нархларнинг шаклланиши ва унга таъсир этувчи омиллар таҳлил этилган. Мазкур тенденцияларда асосий омил бўлиши мумкин бўлган кўрсаткичлар – аҳоли даромадлари, ялпи талабнинг шаклланиши каби жиҳатлар таҳлил этилган. Тадқиқотлар асосида илмий хулосалар шакллантириб берилган.

Калит сўзлар: ипотека кредити, аҳоли даромадлари, уй-жой бозори.

Нархларнинг ошишига биринчи навбатда ялпи талаб ва таклиф мувозанатидаги омилларнинг нобарқарорлиги билан изоҳланиши лозим. Шунингдек, миллий ва хорижий валюта бирликларидаги ўсиш бўйича ўзаро фақр улар ўртасидаги девальвациянинг ўзгариши билан боғлиқ ҳисобланади.

Биламизки, жаҳон иқтисодиётининг етакчи мамлакатларида демографик вазиятнинг нобарқарорлашуви вужудга келмоқда. Натижада, ушбу мамлакатларда ишчи кучи жалб қилиш борасида эҳтиёжнинг ошиши шаклланмоқда. Ривожланган мамлакатларга миграцион оқимнинг ортиши уларда уй-жойга бўлган эҳтиёжнинг ҳам ортишига олиб келмоқда. Халқаро молиявий (Fitch Rating) баҳолаш агентлигининг таҳлилларига кўра, 2024-2025 йилларда Хитойдан бошқа АҚШ, Канада, Буюк Британия ва Дания, Испания каби давлатларда уй-жой нархининг ва ипотека кредитининг ортиши башорат қилинмоқда. 1979-2015 йилларда Хитойда “бир оила бир фарзанд” тамойилининг амал қилганлиги аҳолининг ўсиши кескинлашиб кетишини олдини олишга хизмат қилди. Шу боисдан, ҳозирги кунда уй-жойга бўлган талабнинг ортиб бориши

Бизнингча, уй-жой ва уни ипотека асосида сотиб олишга бўлган талабнинг шаклланишида демографик ўсишнинг аҳамияти муҳим ҳисобланар экан. Хусусан, аҳолининг ўсиши уй-жой бозорининг ўзгаришларига тўғри пропорционал боғлиқлик билан акс эттирилишини таъкидлаш лозим. Бунинг асосий сабаби сифатида бир оилада бир кишига тўғри келадиган минимал майдоннинг ҳажми эканлигини қайд этиш лозим.

Ўзбекистон Республикаси Уй-жой кодексининг 42-моддасида белгиланган “Уй-жой майдонининг ижтимоий нормаси” 16 м² этиб белгиланган. Имконияти чекланган учун эса ушбу мезон 23 м² тарзида қайд этилган. Европанинг кўплаб мамлакатларида ушбу норма 10 м² дан 18 м²гача белгиланган. Шундан келиб чиқиб, Ўзбекистонда ҳам оила аъзоларининг ёш жиҳатдан ўсиб бориши улар учун алоҳида уй-жой фондини шакллантиришга бўлган заруратни келтириб чиқарди.

Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг маълумотларига кўра, 2000-2022 йилларда оилаларнинг ўртача аъзолари сони 5 кишидан кам бўлмаганлигини келтириш мумкин. Шунингдек, оила аъзолари 5 кишидан кўп бўлган оилаларнинг улуши ҳам мос даврда 60 фоиздан тушмаган. Таъкидлаш лозим, 16 ёшдан катта фарзанди бўлган оилалар улуши 2000 йилда 18,6 фоизни, 2016 йилда 26,2 фоизни ташкил этган. Бу эса, шунга мос равишда янги оила қурганлар сонининг ортишига ўзининг сезиларли таъсирини кўрсатган, деб ўйлаймиз.

Натижада, уй-жой бозорида ялпи талаб ва таклиф мувозанатининг бузилиши йиллар давомида тўпланиб қолганлигини акс эттириб беради. Сабаби, янги уй-жой фондларининг қурилмаганлигини мамлакатдаги қурилиш ҳажмининг 2016-2022 йилларда 7-8 баробарга ошганлиги билан изоҳлаш мумкин. Бундай кескин ўсиш олдинги йилларда ушбу кўрсаткичнинг кичик бўлганлигидан далолат беради.

Хулоса қилиб айтганда, уй-жой бозорида янги қурилишлар ҳажмининг ортиши биринчидан талабнинг юқорилиги фонидан, иккинчидан айрим қурилиши материалларининг импорт қилиниши сабабидан нархларнинг қимматлашишига олиб келди.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston, yangicha dunyoqarash va harakatlar strategiyasidan kelib chiqib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarda inson kapitalining, yoshlar tadbirkorligining huquqiy va ijtimoiy asoslarini ochib berishga harakat qilingan. Xususan, O‘zbekiston aholisining qariyb 60% yoshlardan iborat ekanligini hisobga olgan holda, mamlakatimizning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi yoshlarning tadbirkorlik faoliyatlari bilan bog‘liqligi ularning ta‘lim, tarbiya, investitsiya, biznesni rivojlantirish sohalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi renesans, taraqqiyot strategiyasi, inson kapitali, individual, yoshlar, modernizatsiya, mehnat bozori, islohotlar, fan, ta‘lim, ko‘nikma, malaka, ijtimoiy siyosat, investitsiya, tadbirkorlik.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy sohalarda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yangi O‘zbekiston sharoitida inson va uning qadri, turmush darajasi, huquq va erkinliklari masalalari ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi mazmuniga to‘xtalib: **“Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, har kim sifatli ta‘lim olish, ijtimoiy himoyalani hamda tibbiy malakali xizmat ko‘rsatilishi kabi huquqlarini tushunishimiz lozim”** – deb ta‘kidlagan edi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, haqli ravishda Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash, uchinchi renesans, harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari kabi atamalar bilan nomlanib kelinmoqda. Yangi O‘zbekistonda rivojlanish, taraqqiyot sohasida yana bir davrga qadam qo‘yildi. 2022 yilning 28 yanvarida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni** qabul qilingan bo‘lib [1], unga ko‘ra taraqqiyot strategiyasi yettita yo‘nalish va yuzta maqsaddan tashkil topgan kompleks rivojlanish dasturini o‘z ichiga olgan. Mazkur hujjatlarni mulohaza va tahlil etish asnosida mamlakatimizda rejalashtirilayotgan islohotlar yangi yondashuv asosida amalga oshirilishi nazarda tutilganiga amin bo‘lamiz.

Shuningdek, mamlakatimizda yillarning o‘ziga xos nomlanishi ham ayni vaqtda mazkur masalani hal etishning muhim omili bo‘lib keldi. Jumladan, 2021 yil - “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2022 yil - “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”, 2023 yil - “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”, **2024 yil esa “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”** – deb nomlanishining o‘zi olib borilayotgan islohotlarga bevosita aloqador bo‘lgan chora-tadbirlardan biridir.

Rasmiy ma’lumotlarda O‘zbekiston aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida respublikamizda katta vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatadi. Chunki qariyb 60% yoshlar jumladan, 14-30 yosh oraliqidagi aholi qatlami 10 mln. kishini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich boshqa davlatlarga qaraganda yurtimiz yoshlari ko‘pchilik ekanidan dalolat beradi. Yoshlar innovatsiyalar, texnologik va iqtisodiy taraqqiyotning dvigatelidir. Ularni tadbirkorlik, ta’lim va malaka oshirishda qo‘llab-quvvatlash, biznes va umuman, iqtisodiyotni rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu bois, 2024-yilni yoshlar o‘rtasida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, kichik va o‘rta biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish borasida muhim qadam bo‘lishi tabiiy. Demak, joriy yilning nomlanishida – “yoshlar” va “biznes” so‘zlarining yonma-yon qo‘llanishida alohida ma’no bor. Bu, avvalo, yurtimizda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, biznesini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar bilan bog‘liq.

Mazkur maqolada respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar ichida **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”**da amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasi tub mohiyatiga ko‘ra ana shu maqsadlarni mujassamlashtirgan. Davlat dasturining “Barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali aholi farovonligini ta’minlash” yo‘nalishi doirasida yalpi ichki mahsulot o‘sinh sur‘atini 6 foizdan kam bo‘lmagan darajada, investitsiyalarni esa yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan kamida 30 foiz bo‘lishini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida 18 milliard dollarlik 309 yirik loyihani ishga tushirish belgilangan. Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan **kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida biznes uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsadida **“Biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturi”** doirasida kompleks qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali **kamida 200 mingta yangi tadbirkorlik sub’ekti, shu jumladan, 90 mingta korxon va 110 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi maqsad qilingan. Shuningdek, yangi ish o‘rinlarini ta’minlash orqali 5 million aholining bandligi uchun zarur sharoitlar yaratilishi belgilangan [2].**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sinhiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri [3], o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralari ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim” [4] – deb ta’kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etgan edi.

Hozir yoshlarning ish bilan mashg‘ulligini ta’minlash uchun IT xizmatlari, innovatsion g‘oyalar eksportiga katta e’tibor berilyapti. O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlashda xizmatlar va innovatsion g‘oyalarni eksport qilish juda foydali bo‘lishi mumkin. Ayni vaqtda jahon iqtisodiyoti ham xizmatlar va innovatsiyalarga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Bu esa

mamlakat eksport sektorini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Axborot texnologiyalari, dizayn, marketing, turizm va boshqa sohalarida bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlar jahon bozorida muvaffaqiyatli raqobatga kirishadi, o‘zi va boshqalar uchun ish o‘rinlari yarata oladi [5].

Ta‘lim innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning asosiy resursi bo‘lgan sifatli inson kapitalini shakllantirishga yordam beradi. Insonlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish, hayotning turli sohalariga qimmatli hissa qo‘shish imkonini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz > pdfs. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 PF-60-son.
2. <https://uza.uz/oz/posts/> N.Abduraimova
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 soni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.//Xalq so‘zi, 2020, 25 yanvar.
5. <https://iiu.uz/oz/news/> Nurislom To‘xliyev.
6. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

**XORIJIY ISLOMIY INVESTITSİYALARNI KIRITISHNING TADBIRKORLIK VA KICHIK
BIZNESGA TA’SIRI****Axmadjonov Oybek**

Qo‘qon Universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy islom investitsiyalarining tadbirkorlik va kichik biznesga ko‘p qirrali ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shariat qonunlariga asoslangan islomiy moliya an’anaviy kreditlarga qaraganda tadbirkorlar uchun qulayroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan foydani taqsimlash va aktivlarga asoslangan tuzilmalar kabi muqobil moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Axloqiy biznes amaliyotlariga e’tibor bag‘ishlangan mijozlar bazasini jalb qilishi va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashi mumkin. Xorijiy islom sarmoyasi ham islom qadriyatlariga mos keladigan sektorlarda o‘shishni ta’minlaydi. Muammolar, jumladan, tartibga solishning murakkabligi va islomiy moliyaviy vositalar bilan tanish bo‘lmasligi mumkin bo‘lsa-da, bu muammolarni hal qilish tadbirkorlar uchun ushbu tendentsiyaning to‘liq imkoniyatlarini ochishi mumkin. Ushbu maqolada xorijiy islom investitsiyalari yanada inklyuziv va axloqiy jihatdan boshqariladigan biznes ekotizimini qanday rivojlantirishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Islomiy investitsiyalar, tadbirkorlik, kichik biznes, sanoat, shariat, foiz, ribo, barqarorlik.

Kirish. Tadbirkorlik va kichik biznesning global landshaftida islom tamoyillariga amal qiluvchi xorijiy investitsiyalar o‘shib bormoqda. Islomiy moliya deb nomlanuvchi ushbu o‘ziga xos moliyalashtirish shakli islom qonunlariga (shariatga) asoslangan noyob vositalar va qoidalar to‘plamini taklif etadi. Foizga asoslangan operatsiyalarga tayanadigan an’anaviy bankdan farqli o‘laroq, islomiy moliya foydani taqsimlash, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish va biznesning axloqiy amaliyotiga ustuvor ahamiyat beradi. Ushbu maqola xorijiy islom sarmoyalari va kichik biznesning o‘shishi o‘rtasidagi qiziqarli munosabatlarni o‘rganadi.

Biz ushbu xorijiy islom investitsiyalari tadbirkorlik faoliyati uchun katalizator sifatida qanday harakat qilishini o‘rganamiz. Islom moliya institutlari taklif etayotgan moliyalashtirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqib, ular an’anaviy kredit tuzilmalariga nisbatan moliyalashtirishga nisbatan qulayroq va adolatli yondashuvni ta’minlayaptimi yoki yo‘qligini bilib olamiz. Biz islom investitsiya tamoyillari axloqiy xulq-atvorni, ijtimoiy mas’uliyatni va uzoq muddatli barqarorlikka e’tiborni qadrlaydigan o‘ziga xos tadbirkorlik ruhini tarbiyalaydimi yoki yo‘qligini tekshiramiz.

Bundan tashqari, maqolada xorijiy islom investitsiyalarining tarmoqqa ta’siri tahlil qilinadi. Islomiy qadriyatlarga mos keladigan sanoat (masalan, halol oziq-ovqat ishlab chiqarish) kabi ayrim tarmoqlar bu investitsiyalardan sezilarli darajada ko‘tarilishi mumkin. Aksincha, shariat tamoyillariga mos kelmaydigan tarmoqlar kamroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kichik biznes uchun xorijiy islom sarmoyalarning potentsial foydalari shubhasizdir. Kapitaldan foydalanish imkoniyatini oshirish, foydani taqsimlashga e’tibor berish va biznesning axloqiy usullarini targ‘ib qilish kichik biznes ekotizimining rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Biroq, qiyinchiliklar ham paydo bo‘lishi mumkin. Normativ-huquqiy hujjatlardagi farqlar, islomiy

moliyaviy vositalar bilan tanish bo‘lmaslik va potentsial madaniy to‘siqlar e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan ba‘zi jihatlardir.

Xorijiy islom sarmoyalari taqdim etayotgan imkoniyatlar va muammolarni har tomonlama o‘rganib chiqib, ushbu maqola tadbirkorlar, investorlar va siyosatchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan. Ushbu o‘sib borayotgan tendentsiyaning ta‘sirini tushunish yanada inklyuziv va dinamik global biznes muhitini rivojlantirish uchun, ayniqsa, o‘shishning muqobil va shariatga muvofiq yo‘llarini qidirayotgan kichik biznes uchun juda muhim bo‘ladi.

Asosiy qism.

Tadbirkorlik va kichik biznes sohasiga islom tamoyillariga amal qilgan xorij sarmoyasi tobora ortib bormoqda. Tez rivojlanayotgan sektor bo‘lgan islomiy moliya shariat qonunlariga asoslangan moliyalashtirish va biznesni rivojlantirishga alohida yondashuvni taklif etadi. Ushbu qonun to‘plami an‘anaviy manfaatlarga asoslangan tuzilmalardan chetga chiqib, axloqiy amaliyotlar, foydani taqsimlash va aktivlarga asoslangan moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat beradi. Ushbu maqola xorijiy islom investitsiyalarining kichik biznesning o‘shishi va dinamikasiga ko‘p qirrali ta‘sirini o‘rganadi.

Kam ta‘minlanganlarni moliyalashtirish:

An‘anaga ko‘ra, kapital olish kichik biznes uchun muhim to‘siqdir. An‘anaviy banklar ko‘pincha qat‘iy muvofiqlik mezonlarini qo‘yadi va tashkil etilgan korxonalariga ustuvorlik beradi. Islom moliyasi esa tadbirkorlar uchun qulayroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan muqobil moliyalashtirish variantlarini taklif etadi. Mudarabah va Musharakah kabi foydani taqsimlash vositalari investorlarga foyda va zararlarni biznes bilan bo‘lishish imkonini beradi, bu esa sheriklik yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Risklarni taqsimlashning ushbu modeli investorlarni uzoq muddatli potentsialga ega bo‘lgan korxonalarni dastlabki bosqichlarida bo‘lsa ham qo‘llab-quvvatlashga undaydi. Bundan tashqari, islomiy moliyalashtirish Ijarah (lizing) va Murabaha (xarajat va sotish) kabi aktivlarga asoslangan moliyalashtirish imkoniyatlarini taklif etadi. Bu erda aktivga egalik qilish oxir-oqibat biznesga o‘tadi, bu mas‘uliyatli moliyaviy boshqaruvni rag‘batlantiradi va muhim asbob-uskunalar yoki mulkni sotib olishga yordam beradi.

Axloqiy tadbirkorlik ruhini tarbiyalash:

Islomiy moliya tamoyillari shariatga muvofiq sarmoya kiritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlar uchun qo‘shimcha imtiyoz sifatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan axloqiy biznes amaliyotlarini targ‘ib qiladi. Axloqiy xulq-atvorga e‘tibor korxonalarni ekologik barqarorlik, adolatli mehnat amaliyoti va ijtimoiy mas‘uliyatni birinchi o‘ringa qo‘yishga undaydi. Islomiy qadriyatlarga moslashish ma‘lum mijozlar bazasini jalb qilishi va brend obro‘sin oshirishi mumkin, ayniqsa musulmonlar ko‘p bo‘lgan hududlarda. Bundan tashqari, islomiy moliyalashtirishning foydani taqsimlash xususiyati tadbirkorlarni uzoq muddatli biznes o‘shishiga va resurslarni mas‘uliyatli taqsimlashga e‘tibor qaratishga undaydi, bu esa yanada barqaror va maqsadga yo‘naltirilgan biznes muhitiga olib keladi.

Sohalardagi o‘zgarishlar va imkoniyatlar:

Xorijiy islom sarmoyalarining kirib kelishi muayyan tarmoqlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Halol oziq-ovqat ishlab chiqarish, islom turizmi va axloqiy moda kabi islomiy

qadriyatlarga mos keladigan sohalar sezilarli darajada moliyalashtirishni oladi. Ushbu maqsadli sarmoya ushbu tarmoqlarda innovatsiyalar va kengayishlarga olib kelishi mumkin, tadbirkorlar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi. Aksincha, shariat tamoyillariga nomuvofiq deb hisoblangan, masalan, alkogol yoki qimor o‘yinlari bilan bog‘liq sohalar, bu investitsiyalardan kamroq ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, hatto ushbu sektorlarda ham tadbirkorlar o‘zlarining biznes modellarini islom tamoyillariga muvofiqlashtirishlari mumkin, bu esa biznesning umumiy ekotizimiga yanada kengroq ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Qiyinchiliklar va mulohazalar:

Chet el islom investitsiyalarining inkor etib bo‘lmaydigan afzalliklariga qaramay, ba‘zi qiyinchiliklar ham mavjud. Mamlakatlar o‘rtasidagi tartibga solishdagi farqlar ham investorlar, ham tadbirkorlar uchun murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin. Tadbirkorlarning islomiy moliyaviy vositalar bilan yaxshi tanish emasligi va bu sohada malakali mutaxassislarning yetishmasligi ham muammosiz ishlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, agar investorlar va tadbirkorlar turli xil kelib chiqishi bo‘lsa, madaniy to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu muammolarni yumshatish uchun bilim almashinuvini rivojlantirish, madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish va aniq me‘yoriy-huquqiy bazalarni yaratish juda muhimdir.

Oldindagi yo‘l:

Xorijiy islom sarmoyalarining tadbirkorlik va kichik biznesga ta‘siri ko‘p qirrali. Moliyalashtirishning qulay variantlarini taqdim etish, biznesning axloqiy amaliyotlarini targ‘ib qilish va muayyan sektorlarda o‘shishni rag‘batlantirish orqali bu tendentsiya katta salohiyatga ega. Biroq, hamkorlik, bilim almashish va tartibga solishning aniqligi orqali muammolarni hal qilish uning muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun juda muhimdir. Islomiy moliya sektori o‘shishda davom etar ekan, uning global biznes landshaftiga, xususan, kichik biznesga ta‘siri yanada chuqurroq bo‘lishi mumkin. Rivojlanayotgan ushbu moliyalashtirish modelini qo‘llash orqali tadbirkorlar o‘shish uchun yangi yo‘llarni ochishlari va yanada inklyuziv va axloqiy biznes muhitiga hissa qo‘shishlari mumkin.

Xulosa

Xorijiy islom investitsiyalarining o‘shishi tadbirkorlik va kichik biznes uchun ajoyib imkoniyatdir. Islomiy moliya o‘zining axloqiy amaliyotlari va muqobil moliyalashtirish modellariga urg‘u berib, o‘shish uchun aniq yo‘lni taklif etadi. Foyda taqsimoti va aktivlarga asoslangan tuzilmalar orqali mavjud kapitalni taqdim etish orqali islomiy investitsiyalar an‘anaviy kanallar orqali moliyalashtirishga qiynalayotgan tadbirkorlarga kuch berishi mumkin.

Bundan tashqari, axloqiy xulq-atvorga e‘tibor ijtimoiy mas‘uliyat va uzoq muddatli barqarorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan biznes muhitini rivojlantiradi. Islomiy qadriyatlarga moslashish ma‘lum mijozlar bazasini jalb qilishi va brend obro‘cini oshirishi mumkin, ayniqsa musulmonlar ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda. Bundan tashqari, ushbu investitsiyalarning tarmoq yo‘nalishi halol oziq-ovqat va islom turizmi kabi sohalarda innovatsiyalar va kengayishlarni rag‘batlantirishi, tadbirkorlar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Biroq, xorijiy islom investitsiyalarining murakkabliklarini hal qilish hamkorlikda yondashuvni talab qiladi. Tartibga solishdagi farqlarni bartaraf etish, tadbirkorlar va moliya institutlari o‘rtasida bilim almashinuvini rag‘batlantirish va madaniy tafovutlarni bartaraf etish

ushbu tendentsiya salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali manfaatdor tomonlar yanada inklyuziv va dinamik biznes muhitini yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy islom sarmoyasi tadbirkorlik faolligi va kichik biznesning o‘sishi uchun kuchli katalizator bo‘lish salohiyatiga ega. Ushbu moliyalashtirish modeli rivojlanishda davom etar ekan, uning global biznes landshaftiga ta’siri yanada muhimroq bo‘lishi mumkin. Ushbu imkoniyatdan foydalanish va hamkorlikni rivojlantirish orqali barcha ishtirokchilar innovatsiyalar va umumiy farovonlik bilan ta’minlangan kelajakka yo‘l ochib, yanada inklyuziv va axloqiy jihatdan boshqariladigan biznes ekotizimiga hissa qo‘shishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOMIY MOLIYA BARQARORLIK OMILLARI: EKONOMETRIK TAHLILLAR VA DALILLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 74-94.
2. Akhmadjonov, O., Abdullaev, A., Shamsiddinov, M., & Umarjonov, B. (2022). ISLAMIC FINANCE. *Scientific progress*, 3(2), 48-50.
3. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ISLOM MOLIYASI. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 188-190.
4. Akhmadjonov, O., Abdullaev, A., Yusupov, S., & Anvarov, J. (2021). Islom bankchiligidagi xavf. *Scientific progress*, 2(8), 639-642.
5. Oybek, A., Abdullaev, A., Mavlonbekov, X., & Sharifjonov, Z. (2023). ISLOM MOLIYASIDA MUSHORAKA SHARTNOMASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 593-599.
6. Akhmadjonov, O., Abdullaev, A., Umarjonov, B., & Shamsiddinov, M. (2021). Islom moliyasining xususiyatlari. *Scientific progress*, 2(8), 634-638.
7. Akhmadjonov, O., Abdullaev, A., Anvarov, J., & Ismoilov, S. (2022). Islom moliyasi. *Scientific progress*, 3(2), 45-47.
8. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOM BANK TIZIMI UCHUN SHARTNOMA HUQUQI VA ASOSIY TAMOYILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 600-613.
9. Akhmadjonov, O., Abdullaev, A., Ubaydullayev, A., Omonov, I., & Mirzamahmudov, B. (2022). ISLOM BANKI VA AN’ANAVIY BANKLAR O ‘RTASIDAGI FARQLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 755-761.
10. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIYADA ISLOMIY MOLIYA, TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O‘ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 60-64.
11. Xasanovich, H. A., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). ISLOMIY INVESTITSIYA FONDLARI VA ULARNI BOSHQARISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(12), 308-318.
12. Rashidovich, X. M., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). ISLOM MOLIYASIDA RISKNI MINIMALLASHTIRISH. “ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA, (8-1), 122.
13. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSİYALAR VA INVESTITSİYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

O‘ZBEKISTON FOND BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH.**Axmedova Mushtaribegim Rovshanjon qizi**

Qo‘qon Universiteti Moliya yo‘nalishi talabasi

Mushtariakhmedova@icloud.com

Annotatsiya: O‘zbekistonda fond bozori infratuzilmasi mustaqil, ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmaganligi va omma ichida jadal rivojlanmaganligi, O‘zbekistonda fond bozorlarini rivojlantirish dolzarbligni asoslaysi. Bugungi kunda investorlar O‘zbekiston bozorida jozibador daromad olish imkoniyatlarini tobora ko‘proq tan olishayotganligi fond bozori rivojlantirilayotganligidan dalolat beradi. O‘zbekistonda fond bozori sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, muammolar hali ham saqlanib turibdi. Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy o‘shishning muhim vositasidir, chunki u jamg‘armalarni sarmoyaga aylantirish qobiliyatiga ega. Investorlik qilish uchun ta‘limda fanlarni chuqurlashtirish, bozor likvidligi va korporativ boshqaruv standartlarini oshirish kabi masalalarni doimiy takomillashtirish asosiy nuqta hisoblanadi. Biroq, bu muammolarni hal etish uchun ilmiy-amaliy tadqiqotlar yetarlicha olib borilgani yo‘q. Fond bozorini rivojlanishi kelgusida amalga oshiriladigan innovatsiyalar, hamkorlik va barqaror o‘shish imkoniyatlarini taqdim etadi va mavzuning qanchalik dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: fond bozori, qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar emissiyasi, bozor kapitalizatsiyasi, aksiyadorlik jamiyatlari

Kirish.

O‘zbekistonda fond bozorining rivojlanishi mamlakat moliya sektori evolyutsiyasining muhim jihati bo‘lib, uning investitsiyalar, kapital shakllanishi va moliya bozorining takomillashuvini rag‘batlantirishga asos ekanligini aks ettiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda fond bozorining o‘shishi va diversifikatsiyasi uchun qulay muhit yaratish bo‘yicha jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekistonning fond bozorini rivojlantirish yo‘li, so‘nggi yillarda boshlangan muhim iqtisodiy va moliyaviy islohotlarga borib taqaladi. Ushbu islohotlar moliya sektorini liberallashtirish va modernizatsiya qilish, yanada dinamik va investorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. Bozorning ochilishi va tartibga soluvchi o‘zgarishlarning kiritilishi fond bozorining hozirgi holatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. O‘zbekiston hukumati tomonidan mablag‘lar, investitsiyalarni boshqarish va ular bilan bog‘liq faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida bir qator me‘yoriy-huquqiy islohotlarni amalga oshirildi. Bu islohotlar me‘yoriy-huquqiy muhitni ilg‘or xalqaro tajribaga moslashtirish, shaffoflikni ta‘minlash, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etishga qaratilgan. Fond bozorining hozirgi holati individual va institutsional investorlarning ortib borayotgan qiziqishi va ishtirokini aks ettiradi. Investorlar diversifikatsiya, professional fondlarni boshqarishning afzalliklari va O‘zbekiston bozorida jozibador daromad olish imkoniyatlarini tobora ko‘proq tan olishmoqda. O‘zbekistonda fond bozori sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, muammolar saqlanib qolmoqda. Investorlik qilish uchun ta‘limda fanlarni chuqurlashtirish, bozor likvidligi va korporativ boshqaruv standartlarini oshirish kabi masalalar doimiy takomillashtirish uchun asosiy nuqta bo‘lib qolmoqda. Biroq, bu muammolarni hal etish uchun ilmiy-amaliy tadqiqotlar yetarlicha olib

borilgani yo‘q. Fond bozorini rivojlanishi kelgusida amalga oshiriladigan innovatsiyalar, hamkorlik va barqaror o‘shish imkoniyatlarini taqdim etadi. O‘zbekistonda fond bozorining rivojlanishi mamlakatning mustahkam va diversifikatsiyalangan moliyaviy barqaror tizimni barpo etilishini ta‘minlaydi. Tartibga solish islohotlari investorlar ishtirokining ortishi va texnologik taraqqiyot bilan birgalikda kelajak uchun ijobiy traektoriyadan dalolat beradi.

Muhokama va xulosalar.

Abdullaev O‘tkir Azimovichning (2020) fikricha, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va uning jadal inqilobini ta‘minlash bir necha asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan asosiy va ustuvor chora-tadbirlardan biridir. Xususan, bunday omillardan to‘liq foydalanish erkinligi iqtisodiy o‘shishni barqarorlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga bevosita xizmat qiluvchi xususiy sektorni mustahkamlash imkonini beradi. mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, aholining real daromadlarini oshirish. Bu borada moliya bozori orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish omili alohida ahamiyatga ega. Bozor munosabatlariga o‘tishning hozirgi bosqichi iqtisodiyotimizning ochiqqligi, xorijiy sarmoyalarni jalb etishning o‘shishi, xususiylashtirish va xususiylashtirishning kuchayishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, moliya tizimini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi, chunki rivojlangan moliya tizimisiz iqtisodiy tizim muvaffaqiyatli faoliyat yurita olmaydi. Shu munosabat bilan quyidagi xulosalar chiqarishni zarur deb bildik. ustav fondlaridagi davlat ulushini xususiy investorlarga sotish, banklarning investor sifatidagi faoliyatini yanada erkinlashtirish. Ikkinchidan, obligatsiyalar chiqarish orqali bank o‘z kapitali bilan bir qatorda bankning qarz kapitalini tashkil qiladi. Kapitalning ko‘payishi mablag‘larning ko‘payishiga olib keladi, natijada bankning umumiy kapitalidagi ulush, o‘z navbatida, uning barqarorligi, ishonchliligini mustahkamlash va moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Uchinchidan, tijorat obligatsiyalarini chiqarish orqali yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb qilish. Banklar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga sarmoya kiritadi va fond bozorini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

B.Turanboyev ilmiy izlanishlarida, daromad-narx nisbati va inflyatsiya darajasi o‘rtasida yaqin bog‘liqlikni qayd etganlar, ya‘ni 2000-yillarning boshidan beri inflyatsiyaning pasayishi ikkalasi uchun ham hisoblansa, 2008 yildan beri kuzatilgan o‘z kapitali koeffitsientlari o‘shishining muhim qismi va strukturaviy o‘zgarishlar uchun ekonometrik testlar nima uchun tanaffusni ko‘rsatashini qayd etishgan. Tadqiqotlarda anomaliya sifatida narx-daromad nisbati va real inflyatsiya o‘rtasidagi korrelyatsiya xizmat qiladi boshlanish nuqtasi. Bashoratlilik anomaliyaning uzoq muddatli chidamliligi va uni o‘rab turgan qisqa muddatli o‘zgarishlardan kelib chiqadi. Uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekspluatatsiya qilishdan ko‘ra. Shu munosabat bilan tadqiqot xulosalari, samarali bozor nazariyasi bilan bahsli hisoblanadi. Bir tomondan, keng inflyatsiyaning shartli xavfini o‘z ichiga olgan ichki qiymatning ta‘rifi premium, uzoq muddatda real aksiyalarni jalb qiladi. Biroq, shunday bu xususiyatni me‘yoriy paradigmadagi tushuntirish qiyin. Bizning topilmalar investorlarning kognitiv tarafkashliklariga ma‘lum darajada mos keladi xulq-atvor moliyasi tomonidan tasvirlanganidek, ko‘rgazma. Inflyatsiyaning sabablari investorlarni ko‘proq xavf-xatarli qiladi, hali aniqlanmagan. Uchun Masalan, Shillerda taqdim etilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, taxminan Odamlarning 90 foizi inflyatsiyani iqtisodiy o‘shishga zararli deb hisoblaydi.

Jasurbek Ataniyazovning so‘zlariga ko‘ra, maqolada milliy va xalqaro miqyosda fond bozorining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan, fond bozoridagi operatsiyalarning bugungi holati va fond bozori rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar belgilab berilgan. Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy o‘sishning muhim vositasidir, chunki u jamg‘armalarni sarmoyaga aylantirish qobiliyatiga ega. Shuning uchun globallashuv sharoitida bozorni shakllantirish shartlari va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Tahlilning mantiqiy, statistik va grafik usullaridan foydalanilgan. Natijalar. Stoma bozorining samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar aniqlandi. Bu birinchi navbatda fond bozorining kapitallashuvi, rivojlangan infratuzilmaning yo‘qligi, qimmatli qog‘ozlarni chiqarishning samarali mexanizmini tashkil eta olmasligining ko‘pligi va murakkabligi. fond bozori sektori uchun tegishli hujjatlar va ko‘plab cheklovlar mavjudligi, investorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmining etarli darajada takomillashtirilmaganligi va institutsional investorlar va professional bozor ishtirokchilarining yo‘qligi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar mavjud: mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish, dividendlarni ko‘paytirish, emitentlar aksiyalarining daromadlilikini oshirish, soliq tizimini takomillashtirish, aksiyalarni sotish doirasidagi bitimlarni sug‘urta qilish tizimini rivojlantirish. Axborotning ochiqligi printsiplari. Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish faqat bozorning o‘zi va davlat tomonidan kompleks yondashuv bilan mumkin. Yangi investorlarni jalb qilish maqsadida ushbu hisobvaraqlar bilan muntazam ish olib boruvchi Uy fond birjasi savodli fuqarolarni moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida sarmoya kiritishga jalb qilish vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.A.Abdullaev, Fond bozorining rivojlanish bosqichlari, 2020.
2. Jasurbek Ataniyazov, Stock Market in Uzbekistan (2022).
3. Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 145-150.
4. Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
5. Ogli, T. B. Q. (2021). XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARNING TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250.
6. Turanboyev, B. (2024). O‘ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.

8. Turanboyev, B. (2024). ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 1-4

9. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

TO‘G‘RI CHIZIQNING AMALIY MASALALARGA TATBIQI
Ergashov Sultanmurod

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, dosent

Komiljonov Bobur

Andijon mashinasozlik institute, assistent

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz to‘g‘ri chiziqning iqtisodiyotga va qishloq ho‘jaligi sohalariga tadbqiqiy masalalarini ko‘rib chiqdik. Bu maqoladan maktab o‘quvchilari va oliy ta‘lim muassasasi talabalarini ham foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ri chiziq, funksiya, nuqta, koefitsiyent, narx, transport, gektar, xarajat, foyda, talab, taklif.

To‘g‘ri chiziqning iqtisodiyotga tatbiqi. Iqtisodiyotda asosiy masalani tanlab D (demand) va taklif S (supply) mahsulot narxi P ga bog‘liqligini o‘rganish masalasidir. Bunday bog‘lanishlar jarayonlarni vaqt bo‘yicha o‘zgarishini baholash zaruriyati muhim ahamiyatga ega. Odatda vaqtga bog‘liq uzliksiz jarayonlarning matematik modeli differensial tenglamalar yordamida quriladi [1,2,4].

Bu maqolada iqtisodiy jarayonni analitik geometriya elementlari yordamida modellashtirish masalasi qaralgan [3]. Mexanik va ximik jarayonlarni matematik modellashtirishda ham matematik usullardan foydalaniladi [5,6,7].

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy xulosaga kelamiz :Narx qancha past bo‘lsa, mahsulotga talab ko‘p bo‘ladi, ya‘ni aholining sotib olish imkoniyati oshadi.


D ning P ga bog‘liqligi ko‘p hollarda chiziqli kamayuvchi funksiya sifatida ifodalanadi (bunda to‘g‘ri chiziqning koefitsienti qaralayotgan jarayon funksiyasining birinchi tartibli hosilasiga teng):

$$D = -aP + c, a > 0, c > 0$$

Xuddi shu vaqtda, mahsulot narxi P ning oshishi bilan unga bo‘lgan S takliflar ham oshadi. Shu sababli, taklif o‘sovchi chiziqli funksiya bilan ifodalanadi:

$$S = bP + d, b > 0, d > 0$$

Yuqoridagi fo‘rmulalardan P, D, S – o‘zgaruvchilar musbat bo‘lganligi uchun funksiya grafigi faqat I-chorakda ma‘noga ega bo‘ladi .



$$D(P) = S(P)$$

Tenglama bilan aniqlanadi. Natijada D va S to‘g‘ri chiziqlarning kesishish nuqtasi M nuqta aniqlanadi. M nuqta muvozanat nuqtasi deb ataladi. Muvozanat ro‘y beradigon P_0 – narxga muvozanat narxi deyiladi.

Aholining turmush tarzi yaxshilanishi bilan ($D = -aP + c, a > 0, c > 0$ fo‘rmulaga asosan c – parametrning o‘shishiga mos keladi) muvozanat nuqtasi M o‘ng tomoniga siljiydi, ya‘ni D to‘g‘ri chiziq yuqoriga ko‘tariladi. Shuning jumladan, S taklif chizig‘i o‘zgarmagan holda mahsulot narxi oshadi.

1-masala. Ko‘p tarmoqli xo‘jalikka tegishli mebel fabrikasida tayorlangan stellar 64 ming so‘mdan sotilishi rejalashtirilgan. Fabrikada 8 ta stulni tayorlash uchun 635 ming so‘m, 13 ta stulni tayorlash uchun esa 750 ming so‘m xarajat qilinishi kerak. Agar xarajatlar funksiyasi chiziqli bo‘lsa, zarar ko‘rmaslik nuqtasini, ya‘ni fabrika nechta stul ishlab chiqarishdan so‘ng, foyda olishini aniqlang.

Yechish. $M_1(8; 635)$, $M_2(13; 750)$ nuqtalardan o‘tuvchi xarajatlar funksiyasi tenglamasini keltirib chiqaramiz va grafisini yasaymiz:

$$\frac{C(x) - 635}{750 - 635} = \frac{x - 8}{13 - 8}$$

$$\frac{C(x) - 635}{23} = \frac{x - 8}{5}$$

$$C(x) = 23x + 451$$

Shartga ko‘ra, $R(x) = 64x$ foyda olish funksiyasidir. Zarar ko‘rmaslik nuqtasini aniqlash uchun harajatlar va foyda olish funksiyalari grafiklarining kesishish nuqtasi absitsiasini topamiz (2-rasm)

$$23x + 451 = 64x$$

$$41x = 451$$

$$x = 11$$

Demak, ishlab chiqarilgan stellar soni 11 tadan oshishi bilan fabrika foyda ko‘ra boshlaydi.

3-masala. Fermer xo‘jaligi poliz mahsulotlarini yig‘ishtirishda qo‘shimcha ishchi kuchidan foydalanadi va 1 gektarga 100 ming so‘m xarajat qiladi. 5 gektarga esa xarajat 300 ming so‘m bo‘lsin. Agar xarajat funksiyasi chiziqli (to‘g‘ri chiziq) bo‘lsa, 4 gektardagi poliz mahsulotlarini yig‘ishtirishga ketadigan xarajatni toping.

Yechish. Masala shartiga binoan, $A(1, 100)$ va $B(5; 300)$ belgilashlar kiritamiz. Ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasiga asosan,

$$\frac{x - 1}{5 - 1} = \frac{y - 100}{300 - 100}$$

$$\frac{x - 1}{4} = \frac{y - 100}{200}$$

$$y = 50x + 50$$

Oxirgi tenglamadan $x = 4$ da y ning qiymatini topamiz:

$$y = 50 \cdot 4 + 50$$

$$y = 250$$

Demak, 4 gektardagi poliz mahsulotlarini yig‘ishtirishga 250 ming so‘m xarajat qilinadi.

Adabiyotlar

1. Ergashev Sultonmurod, K. B. (2021/12). Differensial tenglamalarni mehanika va fizikaning baʼzi masalalarini yechishga tadbiqlari. *Наманган муҳандислик технология институту илмий-техника журнали*, 430-433.
2. Durbek o‘g‘li, X. M., & Komiljon o‘g‘li, K. B. (2022). Differensial tenglamaga olib keluvchi baʼzi masalalar. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 15-19.
3. Sultanmurad, E. (2022). Vektorning hosilasi va uning tatbiqlari. *Машинасозлик илмий-техника журнали*, 241-246.
4. Ergashov S., Komiljonov B., Xalilov M. Differensial tenglamalarni mexanika va fizikaning baʼzi masalalarini yechishga tadbiqlari // Namangan muhandislik texnologiyalari instituti ilmiy-texnika jurnali 430-433 b.
5. Xalilov Murodiljon, Tillayev Donyorbek Experience in Using the relationship between mathematics and physics in shaping the concept of limit // *Analytical journal of education and development* 2021 yil, 212-215 b..
6. Xalilov M., Komolova G., Komiljonov B. Solve some chemical reactions using equations // *European Journal of Business Startups and Open Society*. Vol. 2 No. 1 (2022): EJBSOS ISSN: 2795-9228. 45-48 p.
7. Комолова, Г., & Халилов, М. Stages of drawing up a mathematical model of the economic issue. *Journal of ethics and diversity in international communication*. Испания-2022, 60, 45-48.

KICHIK BIZNESGA TA’SIR QILADIGAN OMILLARNING STATISTIK TAHLILI**Ergashov Sultanmurod**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, dotsent

Komiljonov Bobur

Andijon mashinasozlik institute, assistent

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik biznesga ta’sir qiluvchi omillarni ta’sirini o‘rganishda va baholashda dastlabki statistik tekshirishlar olib borilishi zarurligi hamda omillarni guruhlariga ajratish muhim ahamiyatga egaligi zarurati muhimligiga bag‘ishlangan.

Kalit so'zlar: biznes, o'lchov, statistika, namuna, tanlab olish, gistogramma.

Xalqaro statistik amaliyotda kichik biznes sub’ektlari o‘lchovi bo‘yicha yagona bir aniq mezonlar mavjud emas. Bunda har bir mamlakat o‘z iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishi kichik biznes faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarga mos bo‘lgan mezonlardan foydalanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes sub’ekti maqomini belgilaydigan ko‘rsatkichlar soni 50 tadan ortiq [1-3,5].

Har bir mamlakatda o‘zining tabiiy sharoiti og‘ir va yengil sanoatining rivojlanish darajasi, tabiiy boyliklarini tahminiy miqdori, bu boyliklarni o‘zlashtirishga ketadigon harajatlar, kichik biznesni rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Bu jarayonda yetuk mutahassislar tayorlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Mamlakatdagi ishlab chiqarish jarayonlari yetuk mutahassislarni uzluksiz tayorlab borish zaruriyati doimo kun tartibida turadi.

Har qanday mamlakatda kichik biznesni rivojlanish jarayoniga qator omillar ta’sir qiladi. Kichik biznesga ta’sir qiluvchi omillarni ikkita kata guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga boshqarilmaydigon omillar (boshqarishni iloji bo‘lmaydigon omillar). Ikkinchi guruhga boshqariladigon omillar kiradi.

Boshqariladigon omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: yengil boshqariladigon omillar, qiyin boshqariladigon omillar. bu omillarni qaralayotgan jarayonga ta’sirini o‘rganish uchun qator kurashishlar, tajribalar o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. O‘tkazilgan tajribalardan olingan statistik ma’lumotlarni tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Bunday tahlil dastlabki statistik tekshirishlar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun olingan statistik ma’lumotlarni miqdorish ko‘rsatkichlarga o‘tkazish kerak. Statistik ma’lumotlar miqdoriy ko‘rsatkichlarga o‘tkazilgandan keyin dastlabki statistik tekshirishni amalga oshirish mumkin. Bunda :

1. Variatsion qator tuziladi.
2. Olingan tanlanmaning paligoni quriladi.
3. Tanlanmaning taqsimoti quriladi.
4. Gistogramma quriladi.
5. Nomalum parametrlarning nuqtaviy baholari quriladi.
6. Agar tanlanmaning hajmi (statistik ma’lumotning soni) kichik bo‘lsa no‘malum parametrغا intervalli baho quriladi.
7. Nomalum taqsimot funksiyaga baho quriladi.

Yuqoridagi dastlabki tekshirishlar natijasida jarayonga ta’sir qiluvchi muhim omillarning ko’rsatkichlari aniqlanadi.

Agar olingan statistik ma’lumot (tanlanma) x_1, x_2, \dots, x_n ning hajmi $n = N$ yetarlicha katta bo’lsa dastlabki statistik tekshirishlarni osonlashtirish uchun G.A.Sterjest fo’rmulasidan foydalanish kerak bo’ladi [4], buning uchun h qadam quyidagi formula bo’yicha tanlanadi

$$h = \frac{x_{max} - x_{min}}{1 + 3.32 \lg N}$$

bunda tanlanmaning taqsimotini qurishda intervallar soni k quyidagicha aniqlanadi

$$k = [1 + 3.32 \lg N]$$

Bunda k butun son.

Agar statistik ma’lumotning (tanlanmaning) hajmi $N = 1000$ bo’lsa tanlanma taqsimotini qurishda intervallar soni

$$k = [1 + 3.32 \lg 1000] = [1 + 3.32 \cdot 3] = 11$$

Adabiyotlar:

1. Madrahimov U.A., Dadaboeva M.M. Analysis of the development level of small business in the regions of Andijan province. Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali. AndMI, Maxsus son №3. 2022 y. (OAK Rayosatining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori)
2. Dadaboeva M.M. Kichik biznes rivojlanishida xorijiy mamlakatlar tajribasining o’ziga xos xususiyatlari». //«Science and Education» Journal, June 2021-/ Volume 2 Issue.
3. Dadaboeva M.M. Kichik biznes rivojlanishini belgilovchi omillar. // O‘zbekiston va avtomobil sanoati: Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi (xalqaro ilmiy-amaliy anjuman), Andijon mashinasozlik instituti, 29-30-iyun 2021-yil.
4. Ф.Миллс. Статистические методы. государственное статистическое издательство, Москва 1958.
5. Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta’minlash. Monografiya. T. 2013 y. 74- b.
6. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

**SAMARALI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KLASTER ASOSIDA TASHKIL QILISHNING
AHAMIYATI****Eshqobilova Maftuna Po‘lat qizi**

Jizzax politexnika instituti. o‘qituvchi

Gmail: maftuna95@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada samarali tadbirkorlik faoliyatini klaster asosida tashkil qilishning iqtisodiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, klaster tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi, xususan, iqtisodiyotni rivojlantirishda klasterning o‘rni, uning samaradorligi va boshqalar.

Kalit so‘zlar: klaster, iqtisodiy o‘zgarishlar, klasterlar kontsepsiyasi, kichik va o‘rta korxonalar klasterlari, raqobat, hamkorlik.

Zamonaviy iqtisodiy klasterlash sharoitida malakasi uning kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolar darajasiga mos keladigan malakali menejerlar va iqtisodchilarni tayyorlash masalasi tobora kuchayib bormoqda. Klaster sharoitida ushbu sohalaridagi mutaxassislarining faoliyati farqlarga ega va quyida keltirilgan xususiyatlarga ko‘ra, nimaga tayyorgarlik ko‘rish kerakligini ko‘rishingiz mumkin. Iqtisodiy tizimlarning evolyutsiyasi rivojlangan mamlakatlarda ham, iqtisodiyoti o‘tish davridagi mamlakatlarda ham globallashuv bilan birga iqtisodiy faoliyatning tobora aniq hududiy konsentratsiyasi mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 213 bilan birga keladi. Hozirgi bosqichda bu turli klasterlarni - biznes tuzilmalari integratsiyalashuvining yangi shakllarini yaratish orqali amalga oshirilmoqda. Bir qator mintaqaviy iqtisodiyotlar uchun klasterning shakllanishi o‘sinh nuqtalari rolini o‘ynaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar bozorda raqobatbardoshlikka erishgan taqdirda, ular o‘z ta‘sirini bevosita atrof-muhitga: etkazib beruvchilarga, iste‘molchilarga, raqobatchilarga, infratuzilmaga kengaytiradilar. Muhitning bozordagi muvaffaqiyatli faoliyati xo‘jalik yetakchisining raqobatbardoshligining yanada oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatar ekan. Natijada klaster - bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga o‘zaro hissa qo‘shadigan tarmoqlar tarmog‘iga chambarchas bog‘langan xo‘jalik yurituvchi subyektlar jamoasi shakllanadi. Ekspertlar hisob-kitoblariga ko‘ra, bugungi kunda dunyodagi ilg‘or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o‘tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo‘lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya sanoatida to‘liq klaster usuli tatbiq qilingan. AQSHda esa mamlakatdagi mavjud korxonalarining yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi [1, s. 89].

So‘nggi paytlarda klasterlar kontsepsiyasi kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni qo‘llabquvvatlashning muvaffaqiyatli global strategiyalaridan biri bo‘ldi. Kichik va o‘rta korxonalar klasterlari dunyoning barcha qit‘alarida samarali faoliyat yuritmoqda. Klasterlar kontsepsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llanilgan. Jahon iqtisodiyotida klasterlarni rivojlantirish innovatsion tadbirkorlik faoliyatining samarali yo‘nalishi hisoblanadi [1, p. 76].

Birinchi yirik klaster dasturlari 1970-1980-yillarda AQSHda, 1989-1990-yillarda daniyada,

1990-yillarning birinchi yarmida Avstriya, Buyuk Britaniya, Yaponiyada, 1995-yildan Finlyandiya va Fransiyada 1993-yildan boshlab paydo bo‘ldi. Birlashgan millatlar tashkilotining sanoatni rivojlantirish tashkilotining xususiy sektorni rivojlantirish filiali yordamida yevropa hukumatlari va yevropa xususiy bizneslariga kichik korxonalar klasterlari va tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilishda yordam berish uchun tavsiyalar to‘plamini tayyorladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar klaster yondashuvining dolzarbligini ta’kidlaydilar, lekin, o‘z navbatida, “klaster siyosati”, “klaster texnologiyasi” kabi klasterlash jarayonining asosini tashkil etuvchi hodisalarning mohiyatini qayd etmaydilar. Shunga asosan, Rossiya federatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy makonini klasterlashni boshqarishning samarali metodologiyasini shakllantirish uchun terminologiyani aniqlashtirish kerak. Klaster nazariyasining o‘zi mavhum tabiati bilan ajralib turadi, uning asosida klaster yaratish jarayoni sodir bo‘ladi. Davlatning boshqaruv ta’siri bozor sharoitida mumkin bo‘lgan klasterlash vositalari to‘plami yordamida amalga oshiriladigan hududni rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan. Shuning uchun klasterlarni bir tomondan klaster nazariyasi obyekti, ikkinchi tomondan davlat boshqaruvi subyekti sifatida aniq belgilash zarur. “klaster” tushunchasini professor m. porter taklif qilgan va u. Uni bozor makonida faoliyat yurituvchi va bir-birini to‘ldiruvchi jug‘rofiy jihatdan qo‘shni kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhi sifatida aniqladilar [2, p. 12].

Rivojlangan mamlakatlarda klaster nazariyasini amaliyotda qo‘llash xx asrning 90-yillari boshlarida boshlangan. M. Enrayt, J. Dunning, R. Martin va yuqorida tilga olingan M. Porterning ishi tufayli. Rossiyada klaster yondashuvining amaliy qo‘llanilishi M. K. Bandman, M. N. Koloskovskiy, N. I. Larina, I. V. Pilipenko kabi nomlar bilan bog‘liq. Bir-biridan manfaatdor bo‘lgan subyektlarning hamkorligi asosida shakllangan klaster yondashuvi dastlab firmalarning raqobatbardoshligi muammolarini o‘rganishda qo‘llanilgan. Albatta bunda avvalo nazariy mushohada hamda mantiqiy yondoshuv asosida klasterlar faoliyatini moliyalashtirish va unda moliyaviy boshqaruvning yondoshuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilingan [3, s. 109].

Klaster yondashuvining amaliyotga tatbiq etilishi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan iqtisodiyotda klasterlarning chuqurligi va kengligi odatda kuchliroqdir. Iqtisodiyotlari rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat korxonalarining salmoqli qismi mahalliy yoki mahalliy bozorga xizmat qiluvchi xorijiy sho‘ba integratsiyar. Bunday iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan klasterlarni yaratishga quyidagi ko‘rsatkichlar to‘sqinlik qilmoqda:

1. Ta’lim darajasining pastligi.
2. Past malakali ishchi kuchi.
3. Texnologiyaning zaifligi.
4. Mavjud kapitalning etishmasligi.
5. Davlat institutlarining rivojlanmaganligi.

Samarali ishlaydigan klasterlarni yaratish rivojlangan iqtisodiyot sari eng muhim qadamlardan biridir. Qoidaga ko‘ra, klasterlar quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan: klaster a’zolarining raqobatbardoshligini oshirish, bu esa innovatsiyalarni joriy etish orqali ta’minlanadi; logistika, axborot texnologiyalari va boshqalarda sinergiya effekti va sifatga yagona yondashuv hisobiga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining xarajatlarini kamaytirish va sifatini

oshirish; yirik korxonalar tashkil etish hisobiga ishsizlikning maksimal qisqarishi; hokimiyat organlarida klaster a‘zolarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan umumiy sa‘y-harakatlarni birlashtirish.

This is where the CRM system is set up and configured to meet the needs of the hotel. This might involve importing data from the PMS, CRS, and other systems, as well as setting up user permissions and roles. Once the system is set up, it should be tested to ensure that it is working as intended. After the system is tested, the next step is to go live and begin using the system to track and analyze data.

Monitoring and Maintenance:

The next step is continuous monitoring and maintenance. This is an ongoing process that involves regularly checking the system for errors and making sure that the data is up to date. It also involves ensuring that the system is meeting the goals that were defined earlier. It's also important to evaluate the success of the system and make any necessary adjustments.

There are some possible solutions to these challenges. One solution is to invest in a CRM system that is easy to use and doesn't require a lot of technical expertise. There are several options on the market that are specifically designed for the hotel industry. Another solution is to outsource the management of the CRM system to a third-party provider. This can help to reduce costs and ensure that the system is properly maintained. Let's take data silos as an example. One solution to this challenge is to use a data integration tool, which can combine data from multiple sources into a single view. Another solution is to use a data warehouse, which can store all of the data in one place and make it easier to access and analyze. The challenge of poor data quality: one possible solution is to implement a data quality management program, which can help to identify and correct errors in the data. Another solution is to invest in data quality tools, which can automate the process of cleaning and standardizing data. Let's move on to the challenge of a lack of staff resources. One possible solution is to train existing staff in CRM best practices, so they can take on more responsibility in managing the system. Another solution is to hire additional staff with CRM expertise, which can be a more costly option, but may be necessary in some cases. One other solution is to consider outsourcing CRM tasks to a third-party provider. This can be a cost-effective option for hotels that are not able to invest in additional staff.

In conclusion, CRM systems are an essential tool for hotels to improve the customer experience and increase revenue. By following best practices for CRM implementation and addressing the challenges of data silos, poor data quality, and a lack of staff resources, hotels can create a robust CRM system that will deliver real value for their guests and their bottom line. By taking action to address the challenges outlined in this abstract, hotels can create a powerful CRM system that will help them to meet the needs of their guests and achieve their business goals.

References:

1. Customer Relations Management (CRM) for Small and Medium Enterprises Antonio Specchia, Productivity Press 2022, 226 pages
2. The Art of CRM: Proven strategies for modern customer relationship management Max Fatouretchi, Packt Publishing, 2019, 362 pages.
3. Customer Relationship Management, Andreas Muther, Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2011. XIII, 138 Pages.
4. CRM For Dummies, Lars Helgeson, For Dummies, 2017, 368 pages.
5. Umurzakova Kommuna. (2024). INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(4), 1–9. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/663>
6. Умурзакова Коммуна. (2024). ТРУДНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(4), 10–18. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/664>
7. Умурзакова Коммуна. (2024). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКАНОМИКЕ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(4), 19–24. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/665>
8. Умурзакова, К. (2024). НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ-ИМПУЛЬС К САМОРАЗВИТИЮ СТУДЕНТОВ. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 1-4.
9. Kommuna, U. (2024). THE EFFECT OF THE DIGITAL ECONOMY ON EDUCATION. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 5-7.
10. Обиджонов, М., & Умурзакова, К. (2024). ВЛИЯНИЕ ДЕЛОВОЙ ЭТИКИ НА БИЗНЕС СРЕДУ. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 8-11.
11. Umurzakova Kommuna. (2024). USE OF MODERN MARKETING CONCEPTS IN AN INNOVATIVE ECONOMY . International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 1–8. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/48>
12. Kommuna Umurzakova. (2024). THE SPECIFICS OF THE TRANSLATION OF TRADITIONAL VALUES IN MODERN DIGITAL INFORMATION DISCOURSE . International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 9–11. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/49>
13. Umurzakova Kommuna. (2024). DOSTON IS A DEVELOPED GENRE OF FOLKLORE IN UZBEKISTAN (DESCRIPTION OF THE MAIN HERO OF EPIC POEM ALPAMYSH). International

Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 12–17. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/50>

14. Umurzakova, K. K. (2022). Russian language: Yesterday, today and tomorrow.
15. Umurzakova, K. K. (2022). RESEARCH ACTIVITY IS AN IMPULSE TO SELF-DEVELOPMENT OF STUDENTS. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2(03), 39-44.
16. Umurzakova, K. K. (2021). Problems of russian language teaching in higher education and their solutions. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 774-778.
17. Umurzakova, K. (2023). ADVANTAGES OF THE METHOD OF USING STORIES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 553-557.

Websites:

1. <https://www.researchgate.net>
2. <http://www.akademia.edu>
3. <https://en.wikipedia.org>
4. <https://slideshare.net>

IQTISODIYOTNING BOSH MUAMMOSI: EHTIYOJLARNING CHEKSIZLIGI VA RESURSLARNING CHEKLANGANLIGI

Hayitov Axliddin Alisher o‘g‘li

Qo‘qon Universiteti, Moliya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning bosh muammosi bo‘lgan ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi va ushbu muammoning yechilishi sabablariga oid fikr-mulohazalar, takliflar va muammolarga yechimlar keltirilib o‘tilgan. Iqtisodiyot sohasi jamiyatlarning cheksiz ehtiyojlari va ehtiyojlarini qondirish uchun cheklangan resurslarni qanday taqsimlashini o‘rganishga qaratilgan. Iqtisodiyotning asosiy muammosi odamlarning cheksiz ehtiyojlari va bu ehtiyojlarni qondirish uchun mavjud bo‘lgan cheklangan resurslar o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Ushbu dilemma tanqislik muammosi sifatida tanilgan. Insonning ehtiyojlari va ehtiyojlari cheksizdir. Jismoniy shaxslar sifatida biz doimo turli xil tovarlar va xizmatlarga intilish orqali farovonligimiz va hayot sifatimizni yaxshilashga intilamiz. Biroq, ushbu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar, jumladan, tabiiy resurslar, mehnat va kapital cheklangan. Resurslarning bunday tanqisligi jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlar uchun ushbu resurslarni eng samarali tarzda taqsimlashni tanlashda katta muammo tug‘diradi.

Kalit so‘zlar: moddiy ehtiyojlar, samaradorlik, natija, to‘la bandlik, iqtisodiy tanlov, muqobil xarajat, inson ehtiyojlari, resurslar, jismoniy shaxslar, ehtiyoj.

Kirish: Iqtisodiyotning bosh muammolari dastlabki ikki muammo sifatida keltirilgan: ehtiyotlar chekisizligi va resurslar cheklanuvchiligi. Ehtiyotlar chekisizligi, iste‘mol qilinadigan mal va xizmatlarning yetarli darajasini ta‘minlashda tushunchasizlikka, ya‘ni daromadning iqtisodiy shakllarida ishlatilishadi. Resurslar cheklanuvchiligi esa, resurslar (masalan, energiya, suv, vaqt, odam kuchlari kabi)ning taqsimlanishi, iste‘mol qilinishi va tiklanishi jarayonida sodda amaliyotlardan xosil bo‘lgan cheklanishlarga bo‘g‘liq. Bu muammolar iqtisodiyotda yaxshi bajarilishi kerak bo‘lgan boshqa asosiy muammolar qatoriga kiradi. Iqtisodiyot sohasi barcha iqtisodiy qarorlarning asosini tashkil etuvchi asosiy dilemma bilan kurashadi: cheksiz inson istaklari va ehtiyojlari va ularni qondirish uchun mavjud cheklangan resurslar o‘rtasidagi to‘qnashuv. Tanqislik muammosi sifatida tanilgan ushbu mojaro shaxslar, korxonalar va jamiyatlarning resurslarni eng samarali tarzda taqsimlash bo‘yicha tanlov qilish usullarini shakllantiradi. Cheksiz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganib, iqtisodchilar jamiyatlarning turli xil va doimiy ravishda kengayib borayotgan ehtiyojlarini eng yaxshi qondirish uchun jamiyatlar tovarlar va xizmatlarni ustuvorlashtirish, ishlab chiqarish va tarqatish mexanizmlarini tushunishga intiladi.

Asosiy qism: Iqtisodiyotning bosh muammolari — ehtiyotlar chekisizligi va resurslar cheklanuvchiligini oldini olish uchun quyidagi chora mavjud:

Tadbirkorlik va innovatsiyalar: Yaratuvchi va isloh qiluvchi tadbirlar, yangiliklar va innovatsiyalar orqali ehtiyotlar chekisizligini kamaytirish mumkin. Bu, yangi iste‘mol qilinadigan mahsulotlar yaratish, xizmatlarni taqdim etish va resurslarni samarali foydalanishga imkon

beradi. Ushbu asosiy iqtisodiy muammo resurslarni taqsimlashda o'zaro kelishuvlar va qarorlar qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u imkoniyat xarajatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi - tanlov amalga oshirilganda bekor qilingan keyingi eng yaxshi alternativning qiymati. Tanqislik va resurslarni taqsimlash dinamikasini o'rganish orqali iqtisodchilar jamiyatlar farovonlikni maksimal darajada oshirish va umumiy farovonlikni yaxshilash uchun o'zlarining cheklangan resurslaridan qanday qilib yaxshiroq foydalanishi mumkinligini tushunishga intilishadi. Inson ehtiyojlari va istaklari mohiyatan cheksizdir, chunki odamlar doimo o'z farovonligini yaxshilashga, yuqori turmush standartlariga intilishlariga va turli xil istaklarni bajarishga intiladilar. Boshqa tomondan, yer, mehnat, kapital, xomashyo kabi resurslar cheklangan bo'lib, aholining tobora kengayib borayotgan talablarini to'liq qondira olmaydi.

Iqtisodiyotning asosiy muammosi cheksiz inson ehtiyojlari tushunchasi va bu ehtiyojlarni qondirish uchun mavjud resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq. Ushbu fundamental iqtisodiy masala shaxslar va jamiyatlarning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan cheksiz xohish-istaklari o'rtasidagi nomutanosiblikni va bu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan er, mehnat, kapital va texnologiya kabi resurslarning tanqisligini ta'kidlaydi.

Cheksiz ehtiyojlar kontseptsiyasi inson istaklari va istaklari to'yib bo'lmaydiganligini anglatadi, bu esa odamlarni doimiy ravishda o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun ko'proq tovarlar va xizmatlarni qidirishga olib keladi. Bu to'yinmaslik iqtisodiyotda iste'mol va ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, chunki odamlar ko'proq resurslar va mahsulotlarni sotib olish orqali o'zlarining farovonligi va hayot sifatini oshirishga intilishadi.

Boshqa tomondan, cheklangan resurslar tushunchasi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun mavjud bo'lgan ishlab chiqarish omillarining cheklangan xususiyatini anglatadi. Resurslar jismoniy shaxslarning cheksiz ehtiyojlariga nisbatan kam bo'lib, bu turli xil foydalanish o'rtasida resurslarni taqsimlashda raqobat va o'zaro kelishuvlarni keltirib chiqaradi. Bu tanqislik resurslardan foydalanishda tanlov va o'zaro kelishuvlarni talab qiladi, chunki shaxslar va jamiyatlar o'z ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yishlari va o'zlarining farovonligini maksimal darajada oshirish uchun resurslarni samarali taqsimlashlari kerak.

Cheksiz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir imkoniyatlar narxi, samaradorlik, resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi va talab va taklif kabi bozor mexanizmlari kabi asosiy iqtisodiy tushunchalar va tamoyillarni keltirib chiqaradi. Iqtisodchilar jamiyatlar mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun kam resurslarni qanday taqsimlashini, ularni shaxslar o'rtasida taqsimlashini va cheksiz istaklar va cheklangan resurslar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun iste'mol, ishlab chiqarish va investitsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

Oxir oqibat, cheksiz ehtiyojlarni cheklangan resurslar bilan muvozanatlash muammosi iqtisodiy nazariyaning asosini tashkil etadi va iqtisodiy o'sishni, barqarorlikni va farovonlikni rag'batlantirishga qaratilgan siyosiy qarorlar haqida ma'lumot beradi. Ushbu asosiy iqtisodiy muammoni tushunish va hal qilish orqali jismoniy shaxslar, korxonalar va siyosatchilar resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va jamiyatda umumiy farovonlikni oshirish ustida ishlashlari mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning asosiy muammosi, insonning cheksiz ko‘ringan ehtiyojlari va cheklangan resurslar o‘rtasidagi doimiy nomutanosiblik shaxslar, korxonalar va jamiyatlar uchun asosiy muammodir. Bu tanqislik holati resurslarni samarali taqsimlash, o‘zaro kelishuv va raqobatdosh talablarni hal qilish uchun qarorlar qabul qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tanqislik bilan bog‘liq cheklovlarni tan olgan holda, iqtisodchilar raqobatdosh ehtiyojlar sharoitida foydali va farovonlikni maksimal darajada oshirish uchun shaxslar va jamiyatlar qanday tanlov qilishlarini tahlil qilishlari mumkin. Imkoniyat xarajatlari kontseptsiyasini tushunish resurslarni taqsimlash to‘g‘risidagi qarorlar bilan bog‘liq bo‘lgan kelishuvlarni baholashda juda muhimdir. Jamoatchilik, hukumatlar, va sarmoyadorlik tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik va koordinatsiya, siyosiy va iqtisodiy islohotlar, va innovatsiyalar bilan, iqtisodiyotning bosh muammolari g‘oyasi bilan kelajakda sodiqlikni oshirish uchun birgalikda ishlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xursanaliyev, B. (2023). KICHIK VA YIRIK BIZNESNI BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 28-30.
2. Boburmirzo, X., & Abbosxon, Y. (2022, March). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING RIVOJLANISH TAHLILI. In E Conference Zone (pp. 168-170).
3. Шоҳрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3 (2), 617-629.
4. Khurshid Gafurov. (2021). Economic Performance of Kazakhstan and Uzbekistan Since Independence: Impacts of Selected Economic Policies and Institutions. Conference paper: Uzbekistan on The Way to Third Renaissance: Harmony of Ethnocultural, Historical and Economic Aspects. «Innovatsion rivojlanish nashryoti. <https://doi.org/10.54613/001069>
5. Nazrullaevna, M. G. (2021). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 640-645.
6. Мелибаева Г.Н. ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ CRM-СИСТЕМ КАК ИНСТРУМЕНТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В ОРГАНИЗАЦИИ // Экономика и социум. 2023. №5-2 (108). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-ispolzovaniya-crm-sistem-kak-instrumenta-upravleniya-personalom-v-organizatsii> (дата обращения: 08.01.2024).
7. Yusupov, A. A. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 46-48.
8. Aliyevich, Y. A. (2023). O ‘ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 76-78.
9. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF*

NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

10. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.

11. Mampurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.

12. Mampurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.

**AGROBIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI INNOVATSION OSHIRISHNING
USTIVOR YO‘NALISHLARI****Iminov To‘xtasin Nurmamatovich,**

“Kokand unversity” Andijon filiali dotsenti, i.f.f.d.

Olimova Ziyodaxon Baxtiyor qizi,

“Kokand unversity” Andijon filiali talabasi

Annotatsiya: Maqolada agrobiznes korxonalarini faoliyatining istiqboldagi dolzarb masalalari, qishloq xo‘jaligini ilmiy va innovatsion texnologiyalar asosida intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini ko‘paytirish, innovatsiyalar asosida agrobiznes korxonalarini samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan

Kalit so‘zlar: agrobiznes korxonalarini asosiy maqsadi, iqtisodiy mexanizmlar, bilim va innovatsiyalar tizimi, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirish, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi.

Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda agrobiznes korxonalarining ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. Agrobiznes korxonalarini faoliyatining asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash, qayta ishlash hamda iste‘molchilarga yetkazib berish bilan o‘zaro bog‘langan tizimning maqsadga muvofiq, bir meyorda barqaror ishlashini ta‘minlash, provardida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishdan iborat. Agrobiznes korxonalarini bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, mahsulotlar miqdori va sifatini oshirish, ishlab chiqarishning eng samarali va maqbul shakllarini vujudga keltirish, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining III-ustivor yo‘nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga ba‘ishlangan bo‘lib, uning 30-maqsadi qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazishga qaratilgan. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi [2]:

- tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish;
- qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish;
- yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish;
- eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish;
- tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish;

➤ ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta‘minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish;

➤ agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriyalar sonini ko‘paytirish. Urug‘chilik va ko‘chat yetishtirish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish;

➤ nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish.

➤ aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish.

Bundan tashqari, paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirilib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirildi. Bo‘shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat i moyli ekinlarni, shuningdek yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirildi.

Shuningdek, qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, fermer xo‘jaliklar, eng avvalo qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF- 6159-son farmoni bilan «Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi farmon imzolandi. Farmon bilan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021-2025 yillarda ustuvor rivojlantirish konsepsiyasida asosan qishloq xo‘jaligi korxonalarini istiqbolli rivojlanishining mustahkam tendensiyalarini shakllantirish zaruriyati, innovatsiyalardan samarali foydalanish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishga bo‘lgan qiziqishni belgilab berildi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonlarining murakkablashuvi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (xizmatlar) ilmiy sig‘imining o‘sishi va tashqi muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, turli vaziyatlarda ham ishlab chiqaruvchilarning (xizmat ko‘rsatuvchilarning) barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini saqlab qolish imkonini beruvchi agrobiznes korxonalarining samarali shakl va uslublariga bo‘lgan talabni shakllantiradi. Ushbu sohadagi ustuvorlik – turli xususiyatlarga ega yangi sifatli mahsulotni (xizmatlarni) ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan agrobiznes faoliyati, ya‘ni innovatsion faoliyatga tegishlidir [4].

Unda innovatsiyalar asosida agrobiznes korxonalarini samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi asosiy vazifalar qo‘yildi:

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek qadoqlash buyumlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan, qayta ishlovchi yangi korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yuzasidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

-qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

- sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, meliorativ va irrigatsiya obyektlari tarmog‘ini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo zamonaviy suv va resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish;

- unumdorligi yuqori qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish;

- global iqlim o‘zgarishi va Orol dengizi qurib qolishining agrobiznes korxonalarini rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni ko‘rish va shu kabilar.

Mamlakatimizdagi innovatsion texnologiyalar islohotlarining yangi bosqichida innovatsiyaning tarkibiy jihatdan o‘zgartirish dasturining bajarilishini ta‘minlash, agrobiznes korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda shu munosabat bilan, ishlab chiqarish tizimlarini yangitdan barpo etish fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun o‘ta muhim masala sifatida qarash zarurligi davr talabidir.

Agrobiznes faoliyatida olib borilayotgan islohotlarning maqsadi ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini, fan va texnikaning so‘nggi yutuqlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish innovatsion faoliyatni takomillashtirish, aholi ijtimoiy himoyasini va farovonligini oshirishda innovatsion faollikni tutgan o‘rni yuqori hosildorlikka va mahsuldorlikka erishishdan iborat bo‘ladi. Mazkur siyosat asosini mamlakatning yirik yer-suv resurslari, ichki salohiyatidan samarali foydalanish, agrar sohada va sanoatda ilmiy asoslangan holda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirish va ularning mamlakatdagi ichki iqtisodiy muammolarini hal etishda investitsiyani yo‘naltirish, aholi bandligini ta‘minlash va boshqalarni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 29.12.2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti Sh.Mirziyovning 2022 yil 28 fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston espublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 -2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi «Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021-2025 yillarda ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-6159-son farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021 y.
5. R.X.Ergashev, I.E.Tursunov, A.D.Ravshanov, A.B.Qurbonov Innovatsion iqtisodiyot - (darslik),-T.:“Iqtisod-moliya”, 2020 y.

**AGROBIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING
ZARURLIGI****Iminov To‘xtasin Nurmamatovich,**

“Kokand unversity” Andijon filiali dotsenti, i.f.f.d.

Olimov Shaxriyorbek Shavkatbek o‘g‘li,

“Kokand unversity” Andijon filiali talabasi

Annotatsiya: Maqolada innovatsion menejmentni rivojlantirishning zarurligi va u orqali agrobiznes korxonalarida erishiladigan natijalar, nufuzli va obro‘li xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida mamlakatimizni ishtiroki yo‘qligi sabablari, 2030 yilga kelib ushbu indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kiritish masalalari yoritilgan

Kalit so‘zlar: agrobiznes, innovatsion menejment, innovatsion rivojlantirish strategiyasi, global innovatsion indeks, faoliyatini barqarorlashtirish, raqobatga chidamlilik.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarni boshqarishga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta‘minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida innovatsion menejmentni rivojlantirish ayniqsa xorij tajribalari muhim o‘rin egallagan xolda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish muxim shartlardan xisoblanadi. Innovatsion menejment tarkibi: ko‘lami va ulardan samarali foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish eng avvalo istiqbolli rivojlanishni, ya‘ni xar xil darajadagi iqtisodiy tizimda xo‘jalik yuritish natijalarini belgilab beradi.

Agrobiznes korxonalarida innovatsion menejmentni rivojlantirish orqali korxonalar faoliyatini barqarorlashtirish va raqobatga chidamlilik xususiyatini oshirishga erish imkoniyati yaratiladi. Innovatsion taraqqiyot sohasidagi yutuqlar ko‘p xollarda korxonaning rivojlanishi dasturini qanchalik darajada to‘g‘ri va asosli ekanligiga bog‘liqdir. Bunday vaziyatda yangi ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyani yoki boshqa turdagi nou –xauni joriy qilinishi korxonaga jiddiy raqobat ustunligini yaratib beradi.

Demak, korxonaga yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishini xoxlasa, bozordagi raqobat vaziyatini xisobga olgan xolda yangiliklarni tezroq amaliyotga joriy qilishi lozim. Yangiliklarning yaratishning murakkabligi, noaniqligi, kreativ xarakterliligi ijrochilar ishini tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun agrobiznes korxonalarida innovatsion menejmentni rivojlantirishni talab etadi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlillar ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko‘rsatdi.

Xususan, bu borada ko‘plab ko‘rsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmagani sababli mamlakatimiz so‘nggi yillarda nufuzli va obro‘li xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayapti [3].

Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan o‘zaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini bermayapti.

Jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish - bosh maqsad qilib qo‘yildi [2].

2019 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib qo‘yildi [1] :

- O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- barcha darajada ta‘lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tiziminining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta‘minlash;

- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta‘lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish;

- innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag‘lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

- boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

- mulkchilik huquqlari himoyasini ta‘minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida innovatsion menejmentni rivojlantirish ayniqsa xorij tajribalari muhim o‘rin egallagan xolda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish muxim shartlardan xisoblanadi. Innovatsion menejment tarkibi: ko‘lami va ulardan samarali foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish eng avvalo istiqbolli rivojlanishni, ya‘ni xar xil darajadagi iqtisodiy tizimda xo‘jalik yuritish natijalarini belgilab beradi.

Agrobiznes korxonalarida innovatsion menejmentni rivojlantirish orqali korxonalar faoliyatini barqarorlashtirish va raqobatga chidamlilik xususiyatini oshirishga erishish

imkoniyati yaratiladi. Innovatsion taraqqiyot sohasidagi yutuqlar ko‘p xollarda korxonaning rivojlanishi dasturini qanchalik darajada to‘g‘ri va asosli ekanligiga bog‘liqdir. Bunday vaziyatda yangi ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyani yoki boshqa turdagi nou –xauni joriy qilinishi korxonaga jiddiy raqobat ustunligini yaratib beradi.

Demak, korxonaga yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishini xoxlasa, bozordagi raqobat vaziyatini xisobga olgan holda yangiliklarni tezroq amaliyotga joriy qilishi lozim. Yangiliklarning yaratishning murakkabligi, noaniqligi, kreativ xarakterligi ijrochilar ishini tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun agrobiznes korxonalarida innovatsion menejmentni rivojlantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5544-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 -2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5853-sonli farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019 y., 06/19/5853/3955-son.
3. Yo‘ldoshev N.Q., Akbarxodjaeva Z.Z. Innovatsion menejment. Darslik – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 321 bet.

АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА ЁШЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ЖАЛБ ҚИЛИШДА МАҲАЛЛАНИНГ ЎРНИ

Комилов Дилшодбек Турсунбой ўғли

Андижон давлат университети, Ўзбекистон тарихи кафедраси таянч докторанти

Аннотация: Ёшларни бугунги кунда тадбиркорликка жалб этиш ҳамда уларнинг бизнес ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, доимий иш билан банд қилиш ва қўшимча даромад олиши учун қулай ва мақбул шарт-шароитларни яратиш ҳамда ёшларни тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш бугунги кунда давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилганлиги илмий адабиётлар ва бирламчи манбалар ёрдамида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Андижон вилояти, ёшлар, хотин-қизлар, тадбиркорлик, кредит, тижорат, бизнес, имтиёз, маҳаллабай

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган давлат ва жамият бошқарувида аввало ўзини ўзи бошқариш институтининг давлат ва жамият фаолиятидаги ўрнининг юқори эканлигини тасдиқлайди. Бу хусусда Ўзбекистон Республикаси Президенти "... бугун маҳалла катта ижтимоий куч сифатида майдонга чиқиши зарур. Чунки маҳалладги фаоллар, кўпни кўрган оқсоқоллар, тажрибали нуронийларимиз, агар истаса, жамоатчилик билан биргаликда ҳар қандай муаммони маҳалладан туриб ҳал қилишга, хато қилган ёшларни тўғри йўлга солишга қодирдир, деб таъкидлаган эди [1]. Жумладан, маҳаллалардаги ёшларни тадбиркорлик ва ҳунарманчиликка жалб этиш орқали ижтимоий ҳимояга муҳтож ва кам таъминланган оилаларни бандлигини таъминлаш ва юртимизда камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича туман (шаҳар) ҳокимининг ёрдамчи институтининг самарали фаолиятини йўлга қўйилганлиги катта аҳамиятга эга бўлди. Кейинги беш йилда Ўзбекистонда юз бераётган ислохотлар натижасида ижобий ўзгаришларни ҳар-бир жавҳада сезишимиз мумкин. Бинобарин, бундай ўзгаришлар Давлат бошқарувининг қуйи тизими бўлган ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятида ҳам яққол намоён бўлмоқда. Бинобарин, давлат раҳбарининг бугунги кундаги олиб бораётган инсонпарварлик сиёсати туфайли барча соҳаларда кенг кўламли ислохотларнинг амалга оширилмоқда ва бу эса ўз навбатида аҳолининг барча қатламларини бошқарув жараёнларидаги иштирокининг ортишига туртки бермоқда. Мамлакатда халқимизнинг асосий қисми қишлоқлардаги маҳалаларда истиқомат қилишини инobatга оладиган бўлсак, бунда аҳолининг ўзини ўзи бошқариш органларидаги фаол иштирокини кўришимиз мумкин.

Ислохотлар натижасида маҳаллалардаги оилавий бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш мақсадида 5528 та маҳаллалар ҳудудида кичик ва ўрта бизнес соҳасида жами 176418 та янги иш ўринлари яратилди. Маҳалла аҳолисининг тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш учун республика минтақаларида кредит уюшмалари тармоқлари ташкил этиш борасида мамлакат молиявий бозорида жами 13 та кредит уюшмаси фаолияти йўлга қўйилди. Маҳаллаларда кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш

учун тижорат банкларининг кредит линиялари орқали 41 млрд. 760 мил. 500 минг сўмлик кредит ажратилди. Иш билан таъминлаш таъминлашга кўмаклашувчи давлат жамғармасидан 12 минг 527 иш ўринлари яратиш учун 11 млрд. 571. 800 минг сўм, оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун 2765 та кам таъминланган оилага 2 млрд. 5 млн. 500 минг сўм ажратилди [2].

2017 йилдан бошлаб аҳоли қатламлари, айниқса хотин-қизлар ва ёшларни тадбиркорликка жалб этиш маданиятини ошириш борасида жамоатчилик назорати гуруҳи аъзолари томонидан тарғибот ишлари доирасида бир қаторда тижорат банклари томонидан кредит маблағларини ажратишни юзасидан самарали ишлар амалга оширилган. Хусусан, Андижон вилоятидаги тижорат банкларидан 2000 нафардан ортиқ тадбиркорлар фаолиятини бошқариш ҳамда ривожлантириш мақсадида аёлларга 56 млрд. сўм дан зиёд кредит маблағлари ажратилди. Аҳоли бандлигини таъминлашга қаратилган ва иқтисодий муаммоларнинг ҳал этишда вилоятдаги 170 минг нафар фуқароларга давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватлаш доирасида кичик ёшдаги фарзанди бор аёллар ҳамда уйдаги ишсиз бўлган аёлларга хонадондаги томорқасидан самарали фойдаланиш ва уйда лимонариялар ташкил этиш юзасидан тавсиялар берилди. 2017 йилнинг ҳолатига кўра, вилоятда 21 минг 864 та хонадонда оилавий томорқалардан самарали фойдаланиши учун 131 млрд 331 млн сўм кредитлар ажратилиши белгиланиб, 4029 та хонадонга 23 млрд 381 млн сўм кредит берилди.

Андижон вилоятининг Пахтабод туманидаги тижорат банклари томонидан жами 353 та оилаларга тадбиркорликни йўлга қўйишга кўмаклашиш, уларнинг кам таъминланганлик даражасидан чиқариш мақсадида 4 млрд 778 млн сўм имтиёзли кредит маблағлари ажратилди. Бунинг натижасида 59 та оилада паррандачилик 164 оилада чорвачилик 130 та оилада иссиқхона ташкил этилди. Ажратилган кредит маблағлари мақсади сарфлаш юзасидан Хотин-қизлар қўмиталари, “Нуроний” жамғармаси, “Маҳалла” жамғармаси жамоат фонди томонидан жамоатчилк асосида назорат қилиб бормоқда. Ёшлар ва хотин-қизларни тадбиркорликка жалб этиш мақсадида фуқароларни ўзини ўзи бошқариш органлари ҳамда Андижон вилояти Кенгаши томонидан вилоят, шаҳар, туманлардаги жамоатчилик назорати гуруҳлари аҳоли хонадонларида уйма уй юриш орқали ижтимоий соҳа объектларини ўрганиш, уларнинг муаммоларни бартараф этиш юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда [3]. Ўрганишлар натижасига кўра, аёлларни тадбиркорлик дастурлари асосида жорий йилнинг ўтган даврида 225 мингдан зиёд лойиҳаларга 4,4 триллион сўмга яқин кредит, 40 мингга яқин хотин-қизларга жами 179,1 миллиард сўм субсидия ажратилди.

2020 йилдан бошлаб йўлга қўйилган “Аёллар дафтари” тизими жорий этилиши орқали қарийб 2,5 миллиондан ортиқ хотин-қизларга ижтимоий-иқтисодий, тиббий, ҳуқуқий ва психологик кўмак бериш учун 5,1 триллион сўмдан зиёд маблағ йўналтирилди. Йўналтирилган маблағлар ҳисобидан хотин-қизларнинг меҳнат бозоридаги талаб юқори бўлган замонавий касб-хунарга ўқитиш, ишлаш истагидаги хотин-қизларнинг бандлигига кўмаклашиш, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ҳамда раҳбар лавозимлардаги улушини ошириш, шунингдек, ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасида бир қатор

ижобий ишлар амалга оширилиб келинмоқда [4]. Масалан, 2021 йил 5 августдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-5213-сон қарори асосида “Маҳаллаларда тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш ва тадбиркорлик субъектлари билан аҳоли ўрасида кооперацияни ривожлантиришни қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори ҳамда “маҳаллабай” ишлаш тизими асосида ижтимоий-иқтисодий ривожланишдан ортда қолаётган маҳаллаларнинг ишсизлик даражасни пасайтириш орқали маҳаллаларда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш натижасида Андижон вилоятидаги 210 та “оғир” маҳаллаларда аниқланганлиги ҳамда ушбу маҳаллаларда тадбиркорликни янада ривожлантириш чоралара-тадбирлари кўрилмоқда. Президентнинг 2021 йил 21 июлдаги Андижонда вилоятида тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5154-сон қарорига асосида 40 миллион АҚШ доллари эквивалентида маблағлар ажратилганлиги натижасида «Маҳаллабай» ва «хонадонбай» ишлаш асосида «оғир» маҳаллаларда ижтимоий-иқтисодий ҳолатларини инобатга тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш бўйича янгича ёндашувни (кейинги ўринларда — «Андижон тажрибаси») асосида республиканинг бошда ҳудудларига ҳам татбиқ этиш учун Тикланиш ва тараққиёт жамғармасидан давлат улушига эга бўлган тижорат банклари учун тасдиқланадиган тақсимотга асосан 100 миллион АҚШ доллари эквивалентидаги маблағлар 3 йиллик имтиёзли давр билан 7 йил муддатга 7 фоиз ставкада ажратилган бўлиб «Ўзсаноатқурилишбанк» ва «Қишлоқ қурилиш банк» акциядорлик тижорат банклари орқали 200 та маҳаллада кооперация асосида кичик бизнесни ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга кўмаклашиш мақсадида бириктирилган «етакчи» тадбиркорлик субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш жараёнида кичик бизнес ва оилавий тадбиркорликни ривожлантириш мақсадлари амалга оширилмоқда [5].

Натижада, халқ ҳукуматга эмас, аксинча ҳукумат халқ учун хизмат қилиши кераклиги тўғрисидаги тамойилга асослана бошлади. Маҳаллалардаги моддий ёрдам ва кўмакка муҳтож оилалар бўйича мутлақо янги — “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари” тизимлари ҳаётга татбиқ этилиши натижасида “Маҳаллабай” ишлаш тизимини амалиётга жорий этиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида амалга ошириладиган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 мартдаги 152-сон қарори билан “маҳаллабай” ишлаш тизими жорий этилди [6]. Натижада маҳаллалардаги ёшларнинг тадбиркорликка қизиқиши аниқлаш ва уларни иш билан таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 21 декабрдаги “Ёшларни тадбиркорликка жалб этиш ва уларнинг бизнес ташаббусларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 767-сон қарори асосида Ёшларнинг янги ғоялар асосида ишлаб чиқилган инновацион, стартап ва бизнес лойиҳаларини молиялаштириш учун 100 миллион АҚШ доллари эквиваленти миқдориди маблағ ажратилди. Ажратилган маблағлар ҳисобидан 2022-2024 йиллар мобайнида ёшларни тадбиркорликка жалб масадида ёшларимининг ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда камол топишида уларнинг манфаатларини янада таъминлаш ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, мақсадда 2-босқичда ёшларни қўллаб-қувватлаш мақсадида ҳар бир ёш

тадбиркорлик субъекти учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 1 000 бараваридан 2 000 бараваригача 7 йил, шу жумладан 3 йил имтиёзли давр билан берилиши натижасида [7] уюлмаган ва иш билан банд бўлмаган ёшларнинг бандлигини таъминлаш асосида ёшларнинг турли ёт ғоялар таъсирига тушиб қолишларини олдини олмоқда. Мамлакатда ёшларни тадбиркорлик фаолиятини янада кенгайтириш, қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, айниқса ёшларни, хусусан битирувчиларини тадбиркорликка жалб этиш, бу борада яратиб берилган имконият ва шарт-шароитлардан унумли фойдаланиш, тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш, уни янада кенгайтириш учун банк муассасалари томонидан кам фоизли кредит маблағлар ажратиб келинмоқда ва ёшларга тадбиркорлик фаолияти турлари ва йўналиши, ташкил этишга кўмак берилмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда адолатли фуқаролик жамиятини шакллантиришда ёшларнинг ролини ошириш ҳамда ёш авлодни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда менталитетимизга ёт бўлган зарарли ғоя ва оқимларга қарши тура оладиган миллий ҳамда умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, уларда соғлом турмуш тарзига интилишни шакллантириш, ёшларнинг келажаги учун қайғуриши, миллат ва Ватан тақдирини эртанги ёруғ кунини барпо этмоқ учун қилинаётган эзгу ишлар амалга оширилиб келинмоқда.

Адабиётлар рўйхати:

1. Маҳалла-тинчлик ва осойишталик, ободлик ва фаровонлик марказига айланади // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 12 февраль куни маҳалла тизимини такомиллаштириш, маҳаллаларда тинчлик-осойишталикни мустақкамлаш, жиноятчиликнинг олдини олишмасалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши // Халқ сўзи, 13 февраль. №32. - Тошкент, 2020.
2. Аҳмедов Д. Маҳалла – аҳолини йўналтирилган ижтимоий ҳимоялаш, хусусий тадбиркорлик ва оилавий бизнесни ривожлантириш маркази Фуқаролик жамияти журнали.-Тошкент, 2008.- №4 (16),-Б.10-11.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi, M. 975- фонд, 30-ro‘uxat, 3936- yig‘majild, 19-20-varaqlar.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 21. 12. 2023 йилдаги ПФ-208-сон lex.uz/docs/6704824
5. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами 31 (999) 463-464-моддалар 42-23 бетлар.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 28. 04. 2021 йилдаги 250-сон lex.uz/docs/5398681
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 21. 12. 2021 йилдаги 765-сон lex.uz/uz/docs/5787727

MODERN STANDARDS AND TECHNOLOGIES IN MANAGING THE ACTIVITIES OF TOUR OPERATORS

Mamadaliyev Ulugbek Toxirjon ugli

Head of International Cooperation Department,
Kokand University,

Abstract: This article explores the modern standards and technological advancements shaping the management of tour operators' activities. It examines the role of compliance with regulatory requirements, adoption of quality management systems, and implementation of sustainable tourism practices in ensuring operational excellence. Additionally, the article delves into the transformative impact of technologies such as online booking platforms, customer relationship management systems, data analytics, and blockchain on tour operator management. Through case studies and best practices, it highlights the importance of embracing modern standards and technologies for enhancing customer experiences, driving business growth, and fostering sustainability in the tour operator industry.

Keywords: Tour operators, modern standards, technologies, management, online booking platforms, reservation systems, customer relationship management, CRM systems.

Introduction:

The management of tour operator activities has entered a new era characterized by the convergence of modern standards and technological advancements. This introduction serves to provide an overview of the contemporary landscape shaping the operations of tour operators, emphasizing the importance of embracing modern standards and leveraging innovative technologies to stay competitive, enhance customer experiences, and ensure sustainable practices. The tourism industry stands as one of the world's largest and most dynamic sectors, encompassing a wide array of businesses and activities aimed at facilitating travel and leisure experiences. At the heart of this industry lie tour operators, entities tasked with coordinating and organizing travel arrangements for individuals, groups, and organizations. Tour operators serve as intermediaries between travelers and various service providers, including airlines, accommodations, transportation companies, and activity providers, orchestrating seamless travel experiences from inception to conclusion.

In today's hyper-connected world, tour operators face a myriad of challenges and opportunities, necessitating the adoption of modern standards and technologies to thrive in a rapidly evolving landscape. Modern standards encompass a range of criteria, including quality management, safety regulations, sustainability practices, and ethical considerations. Compliance with these standards is not only essential for meeting regulatory requirements but also for enhancing customer satisfaction, fostering trust, and differentiating oneself in a competitive market.

This paper aims to explore the multifaceted aspects of modern standards and technologies in managing the activities of tour operators. It will delve into the various standards shaping the industry landscape, from regulatory compliance to voluntary certifications such as ISO standards and sustainability frameworks. Additionally, the paper will examine the transformative impact of technological innovations on tour operator operations, including online booking platforms, customer relationship management (CRM) systems, data analytics, augmented reality (AR), virtual reality (VR), mobile applications, and blockchain technology. Through a comprehensive analysis of these themes, the paper seeks to provide insights into best practices, challenges, and future trends shaping the tour

operator industry. In the subsequent sections, we will delve deeper into each aspect outlined above, exploring the role of modern standards in enhancing operational excellence and sustainability, as well as the transformative potential of technological innovations in revolutionizing tour operator management. Through case studies, best practices, and scholarly insights, we aim to provide a comprehensive understanding of the modern landscape of tour operator management and its implications for the future of the tourism industry.

Modern Standards in Tour Operator Management:

Tour operators operate within a complex and dynamic ecosystem, where adherence to modern standards is essential for ensuring operational efficiency, customer satisfaction, and sustainability. This section will delve into the various modern standards that tour operators must comply with to maintain credibility, foster trust, and uphold industry best practices.

Compliance with Regulatory Requirements and Industry Standards. Tour operators are subject to a myriad of regulatory requirements imposed by local, national, and international authorities. These regulations encompass various aspects of tour operations, including licensing, taxation, safety, insurance, and liability. For instance, tour operators may need to obtain licenses or permits to operate in certain destinations, adhere to safety regulations prescribed by aviation or transportation authorities, and comply with consumer protection laws governing the sale of travel services. In addition to regulatory requirements, tour operators are increasingly expected to adhere to industry-specific standards and guidelines aimed at promoting best practices and ensuring quality service delivery. Organizations such as the International Air Transport Association (IATA), the World Travel & Tourism Council (WTTC), and the Association of British Travel Agents (ABTA) provide frameworks and guidelines for tour operators to follow, covering areas such as safety, security, ethics, and sustainability.

Adoption of Quality Management Systems (QMS). To enhance operational efficiency and service quality, many tour operators implement Quality Management Systems (QMS) based on international standards such as ISO 9001. ISO 9001 is a globally recognized standard that outlines requirements for a quality management system, including processes for continual improvement, customer satisfaction, and compliance with statutory and regulatory requirements. By adopting ISO 9001 certification, tour operators demonstrate their commitment to delivering consistent and high-quality services, enhancing customer satisfaction, and improving operational performance.

Implementation of Sustainable Tourism Practices. In an era of growing environmental awareness and concern for sustainability, tour operators are under increasing pressure to adopt sustainable tourism practices that minimize negative impacts on the environment, support local communities, and preserve cultural heritage. Sustainable tourism certifications and frameworks, such as those developed by the Global Sustainable Tourism Council (GSTC), provide guidelines and criteria for tour operators to follow, covering areas such as environmental management, social responsibility, cultural preservation, and economic benefits to local communities. By integrating sustainability into their operations, tour operators can differentiate themselves in the market, appeal to environmentally conscious travelers, and contribute to the long-term viability of tourism destinations. Sustainable practices may include reducing carbon emissions through energy-efficient transportation options, supporting local conservation initiatives, promoting responsible wildlife viewing practices, and partnering with indigenous communities to offer authentic cultural experiences.

Ensuring Safety and Security Standards. Ensuring the safety and security of travelers is paramount for tour operators, particularly in light of emerging risks and threats such as terrorism,


natural disasters, health pandemics, and geopolitical instability. Tour operators must implement robust safety and security protocols to mitigate risks, protect travelers, and respond effectively to emergencies. This may involve conducting risk assessments for destinations and activities, implementing crisis management plans, providing travelers with emergency contact information and assistance, and staying abreast of travel advisories and alerts issued by government authorities. Additionally, tour operators may collaborate with industry partners, destination management organizations, and local authorities to enhance safety and security measures across the travel supply chain.

Technological Innovations in Tour Operator Management:

In addition to adhering to modern standards, tour operators are increasingly leveraging technological innovations to streamline operations, enhance customer experiences, and stay competitive in a rapidly evolving market. This section will explore the transformative impact of various technologies on tour operator management and operations.

Online Booking Platforms and Reservation Systems. One of the most significant technological advancements in tour operator management is the development of online booking platforms and reservation systems. These platforms allow travelers to research, plan, and book their trips conveniently from any location with internet access. By integrating real-time inventory management, pricing algorithms, and secure payment gateways, tour operators can automate the booking process, reduce administrative overhead, and improve booking accuracy. Moreover, online booking platforms enable tour operators to reach a broader audience, expand their market reach, and capitalize on emerging travel trends and preferences.

Figure 1. Online Travel Booking Trends During the Pandemic



Source: Skift Research, U.S. Traveler Tracker Survey. Data as of February 2023. Responses aggregated by year.

Customer Relationship Management (CRM) Systems. Effective customer relationship management (CRM) is essential for tour operators to cultivate loyalty, foster repeat business, and deliver personalized experiences. CRM systems enable tour operators to centralize customer data, track interactions across multiple touchpoints, and segment customers based on preferences, behaviors, and demographics. By leveraging CRM insights, tour operators can tailor their marketing

efforts, recommend relevant products and services, and anticipate customer needs proactively. Moreover, CRM systems facilitate communication and engagement with customers throughout their journey, from pre-booking inquiries to post-trip feedback, enhancing overall satisfaction and loyalty.

Data Analytics for Market Research and Decision-Making. The proliferation of big data analytics has revolutionized market research and decision-making in the tourism industry. By analyzing vast amounts of data collected from various sources, including online searches, social media interactions, and booking histories, tour operators can gain valuable insights into consumer preferences, market trends, and competitive dynamics. Data analytics enables tour operators to identify emerging opportunities, optimize pricing strategies, and tailor product offerings to meet evolving customer demands. Moreover, predictive analytics algorithms can forecast demand fluctuations, optimize inventory management, and inform strategic decision-making, thereby enhancing operational efficiency and profitability.

Integration of Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR). Augmented reality (AR) and virtual reality (VR) technologies offer immersive experiences that enhance the pre-travel research and booking process for travelers. Tour operators can leverage AR and VR to showcase destinations, accommodations, and activities in interactive and engaging ways, allowing travelers to preview their experiences before making a booking decision. For example, AR applications can overlay digital information, such as hotel room layouts or historical landmarks, onto real-world environments, providing a virtual tour experience. Similarly, VR simulations can transport users to virtual destinations, enabling them to explore and interact with immersive environments, thereby igniting excitement and anticipation for their upcoming trip.

Mobile Applications for Real-Time Communication and Updates. Mobile applications have become indispensable tools for travelers, providing access to essential information, services, and assistance throughout their journey. Tour operators can develop mobile applications that offer itinerary management, destination guides, real-time notifications, and customer support features, enhancing convenience and engagement for travelers. By leveraging push notifications and geolocation services, tour operators can deliver timely updates, personalized recommendations, and promotional offers to travelers, fostering loyalty and satisfaction. Moreover, mobile applications enable seamless communication between tour operators and travelers, allowing for immediate assistance and support in case of emergencies or changes to travel plans.

Utilization of Blockchain Technology. Blockchain technology holds promise for revolutionizing various aspects of tour operator management, including transaction processing, identity verification, and contract execution. By leveraging decentralized ledgers and smart contracts, tour operators can streamline payment processing, reduce transaction costs, and eliminate intermediaries in the booking process. Moreover, blockchain enables secure and transparent transactions, enhancing trust and reducing the risk of fraud or disputes. Additionally, blockchain-based identity verification systems can simplify the authentication process for travelers, allowing for seamless and secure access to services and experiences across multiple platforms and destinations. Technological innovations are reshaping the landscape of tour operator management, offering new opportunities for streamlining operations, enhancing customer experiences, and driving business growth. By embracing online booking platforms, CRM systems, data analytics, AR/VR technologies, mobile applications, and blockchain solutions, tour operators can differentiate themselves in a competitive market, cater to evolving customer preferences, and adapt to the demands of the digital age.

Conclusion. The management of tour operator activities is undergoing a transformative shift driven by the convergence of modern standards and technological innovations. Throughout this paper, we have explored the multifaceted aspects of modern standards and technologies shaping the landscape of tour operator management, emphasizing their importance in ensuring operational excellence, customer satisfaction, and sustainability. From compliance with regulatory requirements and industry standards to the adoption of quality management systems and sustainable tourism practices, tour operators are navigating a complex ecosystem where adherence to modern standards is essential for maintaining credibility, fostering trust, and upholding industry best practices. By embracing modern standards, tour operators can demonstrate their commitment to delivering high-quality services, ensuring safety and security for travelers, and minimizing negative impacts on the environment and local communities.

Furthermore, technological innovations are revolutionizing tour operator management, offering new opportunities for streamlining operations, enhancing customer experiences, and driving business growth. From online booking platforms and customer relationship management systems to data analytics, augmented reality, and blockchain technology, tour operators are leveraging a wide range of technologies to create immersive, convenient, and personalized experiences for travelers. In conclusion, the future of tour operator management lies in embracing modern standards and technologies to meet the evolving needs and preferences of travelers, drive innovation, and ensure sustainable practices. By staying abreast of industry trends, embracing a culture of innovation, and prioritizing customer-centric approaches, tour operators can position themselves for success in a dynamic and competitive market landscape.

References:

1. Emilova, I., & Misheva, M. Good Practices In The Management Of Tourist Agencies. *Modern Management Tools And Economy Of Tourism Sector In Present Era*, 529.
2. Mamadaliyev, U. T. (2023). DEVELOPMENT OF TOUR OPERATOR MANAGEMENT SYSTEM CONCEPT IN UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (12 (115)-1), 428-436.
3. Smihunova, O., Podolska, O., & Bogomolova, K. (2019). Management of activities of enterprises of the tourism industry on the basis of modern informational technologies.
4. Purnama, Y., & Rusmini, A. (2023). The Influence of Technology on Management and Legal Aspects of the Tourism Business. *Journal of Contemporary Administration and Management (ADMAN)*, 1(3), 128-136.
5. Królikowski, T., & Susłow, W. (2018). The management information system concept for domestic tour operator. *The cover of journal Studies & Proceedings of Polish Association for Knowledge Management*, 86, 24-39.
6. Gladkey, A. (2020). Fundamentals of the quality management system of outgoing tour operating in "Interaviaservis" tourism company. *Інновації та технології в сфері послуг і харчування*, (2), 13-22.
7. Troshin, A. S., Sokolova, A. P., Ermolaeva, E. O., Magomedov, R. M., & Fomicheva, T. L. (2020). Information technology in tourism: Effective strategies for communication with consumers. *Journal of Environmental Management & Tourism*, 11(2 (42)), 322-330.

8. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.
9. Mampurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
10. Mampurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 344-345.
11. Umarov Toxirjon Mampurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156-167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>
12. Yakymenko-Tereshchenko, N., Kiziun, A., Hrabar, M., Brytvienko, A., & Medvid, L. (2023). Digital Tools for Management of Innovative Activities of Tourism Enterprises: Ukrainian Analysis of Wartime Challenges. *International Journal of Organizational Leadership*, 12(First Special Issue 2023), 4-19.

**TUROPERATORLAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ILMIIY-NAZARIY JIHATLARI VA
USULLARI****Mamadaliyev Ulug‘bek Toxirjon o‘g‘li**

Qo‘qon universiteti, Xalqaro hamkorlik departamenti boshlig‘i

Annotatsiya: Global turizm sanoati dinamik bozor kuchlari, texnologik taraqqiyot va iste‘molchilarning xatti-harakatlarining o‘zgarishi ta‘sirida rivojlanishda davom etmoqda. Ushbu murakkab jarayonda turoperatorlar sayohat tajribasini shakllantirishda, turli xizmatlarni taklif qilishda va tashrif rejalashtirilgan mamlakatlar iqtisodiyotiga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynaydi. Turoperator faoliyatini samarali boshqarish biznes muvaffaqiyatini ta‘minlash, yuqori sifatli turizm tajribasini taqdim etish va barqaror turizm amaliyotini rivojlantirishda muhim omil bo‘la oladi. Ushbu tezis ilmiy va nazariy jihatlarni, shuningdek, turoperatorlar faoliyatini boshqarishda qo‘llaniladigan usullarni o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: turizm sanoati, turoperatorlik faoliyati, turmenejment, raqamli texnologiyalar, ilmiy-nazariy jihatlar.

Turoperatorlar turli xil manzillarga sayohat xizmatlari va paketli turlarni taqdim etish orqali global turizm sanoatida hal qiluvchi asosiy omildir. Turoperatorlik faoliyatini samarali boshqarish ushbu firmalarning yuqori sifatli turizm tajribasini taqdim etishda muvaffaqiyatini ta‘minlash va bozorda raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Turoperator faoliyatini boshqarish mahsulot ishlab chiqish, marketing va sotish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, operatsion logistika, moliyaviy menejment va strategik rejalashtirish kabi turli muhim komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bu sayyohlik industriyasini, iste‘molchilarning xatti-harakatlarini, destinatsiyalarni boshqarishni, sayohat va texnologiyaning rivojlanayotgan tendentsiyalarini har tomonlama tushunishni talab qiladi. Bundan tashqari, turoperatorlar axloqiy va mas‘uliyatli faoliyat yuritishlari uchun murakkab me‘yoriy-huquqiy bazalar, xalqaro hamkorlik va barqarorlik masalalari bo‘yicha harakat qilishlari kerak. Shu sababli, turoperatorlarni boshqarishning ilmiy tamoyillari va nazariy asoslarini chuqur o‘rganish sanoat amaliyotini rivojlantirish va turizm xizmatlarining umumiy sifatini oshirish uchun juda muhimdir. Turoperator faoliyatini boshqarishning fundamental ilmiy jihatlardan biri bu firmalar duch keladigan muammolarni hal qilish uchun biznes va boshqaruv nazariyalarini qo‘llashdir. Strategik menejment, operatsiyalarni boshqarish, marketing menejmenti va moliyaviy menejment tushunchalari turoperatorlarni samarali qarorlar qabul qilish va resurslarni taqsimlashga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, barqaror turizmni boshqarish va raqamli transformatsiya kabi rivojlanayotgan nazariyalarning integratsiyasi turoperatorlarga o‘zgaruvchan bozor dinamikasi va iste‘molchilarning xohishlariga moslashishga yordam beradi.

Iste‘molchilarning xulq-atvori, bozor segmentatsiyasi va maqsadni boshqarish bilan bog‘liq nazariy asoslar ham turli xil mijozlar segmentlarining ehtiyojlari va talablarini tushunish va hal qilish uchun asosiy deb hisoblanadi. Iste‘molchi psixologiyasi va sayohat motivatsiyasi nazariyalarini qo‘llash orqali turoperatorlar o‘zlarining maqsadli auditoriyasiga mos keladigan asosiy mahsulotlar va shaxsiy tajribalarni ishlab chiqishlari mumkin. Bundan tashqari,

destinatsiyani boshqarish nazariyalari va tajriba dizayni turoperatorlarga sayohatchilarga qiziq va unutilmas tajribalarni taklif qiluvchi esdaqolarli sayohat manzillarini yaratishga imkon beradi.

Ilmiy va nazariy asoslarga qo‘shimcha ravishda, turoperator faoliyatini boshqarishda qo‘llaniladigan usullar operatsion samaradorlik, innovatsiyalar va barqaror o‘shishda muhim ahamiyatga ega. Bozor tadqiqotlari, ma‘lumotlar tahlili va samaradorlikni o‘lchash kabi metodologiyalar bozor tendentsiyalari, mijozlarning afzalliklari va raqobatdosh landshaftlar haqida tushunchaga ega bo‘lish uchun zarurdir. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, jumladan, onlayn bron qilish platformalari, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari va ijtimoiy media marketingi xizmatlarni samarali yetkazib berish va mijozlarni turli aloqa nuqtalarida jalb qilish imkonini beradi.

Strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish metodologiyalari biznes muhitidagi potentsial qiyinchiliklar va noaniqliklarni yumshatish bilan birga turoperatorlarning uzoq muddatli yo‘nalishini boshqarish uchun juda muhimdir. Bozorni puxta tahlil qilish, stsenariyni rejalashtirish va xavflarni baholash orqali turoperatorlar rivojlanayotgan bozor sharoitlariga mos keladigan va biznesning uzluksizligini ta‘minlaydigan barqaror strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, sifat menejmenti tizimlari va sertifikatlashtirish standartlarini joriy etish turoperator xizmatlarining ishonchliligi va samaradorligini oshiradi, mijozlar va sanoat hamkorlari o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi.

Turoperatorlik sanoatida barqarorlikni boshqarish usullari tobora ommalashib bormoqda, bu ekologik va ijtimoiy mas‘uliyatning ortib borayotgan ahamiyatini aks ettiradi. Turoperatorlar mahsulotlarni ishlab chiqish, ta‘minot zanjirini boshqarish va belgilangan tizimlarni boshqarishda barqaror amaliyotlarni qo‘llash orqali ularning atrof-muhitga ta‘sirini minimallashtirishi va tabiiy hamda madaniy resurslarni saqlashga hissa qo‘shishi mumkin. Shunindek, jamoatchilik ishtiroki va axloqiy biznes amaliyotlari mahalliy manfaatdor tomonlar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish va turizm yo‘nalishlarida inklyuziv o‘shishni rag‘batlantirish uchun ajralmas hisoblanadi.

Turoperatorlik faoliyatini boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlar va usullari turizm industriyasining muvaffaqiyati va barqarorligi uchun zarur bo‘lgan keng ko‘lamli bilim va amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy printsiplar, nazariy asoslar va innovatsion metodologiyalardan foydalangan holda, turoperatorlar o‘zlarining raqobatbardoshligini oshirishlari, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishlari va sayohatchilarga ajoyib turizm tajribasini taqdim etishlari mumkin. Turoperatorlarni boshqarish amaliyotini va umumiy rivojlanishga hissa qo‘shadigan tushuncha bo‘la oladi.

Turoperator faoliyatini boshqarish biznesni boshqarish, iqtisod, marketing va xulq-atvor psixologiyasidan olingan bilimlarni birlashtirgan holda turli ilmiy tamoyillar va fanlarga tayanadi. Biznesni boshqarish nuqtai nazaridan turoperatorlar strategik rejalashtirish, operatsion logistika va moliyaviy menejment bilan shug‘ullanadi, bu esa tashkiliy nazariya, qaror qabul qilish jarayonlari va resurslarni taqsimlashni chuqur tushunishni talab qiladi. Operatsion samaradorlik, ta‘minot zanjirini boshqarish va daromadlarni optimallashtirishga ilmiy yondashuvlar rentabellikni saqlash va mijozlarga qiymat berish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, iqtisodiy tamoyillar turoperatorlar tomonidan qabul qilinadigan narx strategiyasi, talabni oldindan bilish va

investitsiya qarorlarini asoslaydi. Makroiqtisodiy tendentsiyalar, ayirboshlash kursi dinamikasi va iqtisodiy ko'rsatkichlarni tushunish turoperatorlarga jahon bozorlaridagi murakkabliklarni yo'lga qo'yish va biznes bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, iste'molchilarning xatti-harakatlari va bozor talabini xulq-atvor psixologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish shaxsiylashtirilgan takliflar, mijozlarga yo'naltirilgan tajribalar va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Turoperatorlarni boshqarishning nazariy asoslari: Nazariy asoslarni qo'llash turoperatorlarning strategik yo'nalishi va operatsion amaliyotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Porterning beshta kuchi, SWOT tahlili va resurslarga asoslangan ko'rinish nazariyasi kabi strategik menejment tushunchalari turoperatorlarga raqobatbardosh mavqeini baholashda, o'sish imkoniyatlarini aniqlashda va barqaror raqobatdosh ustunliklarni ishlab chiqishda yordam beradi. Ushbu nazariyalar strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarini xabardor qiladi, bu esa turoperatorlarga o'zlarining tashkiliy imkoniyatlarini bozor imkoniyatlari va tahdidlari bilan moslashtirishga imkon beradi. Bozor segmentatsiyasi, iste'molchilarning xulq-atvori va xizmatlar marketingi nazariyalari sayohatchilarning turli ehtiyojlarini tushunish va qondirish uchun zarurdir. Bozorni demografik, psixografik va xulq-atvor omillariga qarab segmentlash orqali turoperatorlar o'z mahsulot va xizmatlarini mijozlarning ma'lum segmentlariga moslashtirib, mijozlar ehtiyojini qondirish va samarali natija olishi mumkin. Iste'molchilarning xulq-atvori nazariyalari sayohat motivatsiyasi, qaror qabul qilish jarayonlari va xariddan keyingi xatti-harakatlar haqida tushuncha beradi, samarali sayohat tajribasini loyihalash va mijozlarni jalb qilish strategiyalari haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, destinatsiyani boshqarish nazariyalari va tajriba dizayn asoslari sayohatchilarga asosli samarali tajribalarni taklif qiluvchi sayyohlik manzillarini ishlab chiqishga yordam beradi. Turoperatorlar yo'nalishlarning ijtimoiy-madaniy, ekologik va iqtisodiy o'lchovlarini tushunib, mahalliy jamoalar va ekotizimlarga ijobiy hissa qo'shadigan mas'uliyatli va ta'sirli turizm takliflarini yaratishi mumkin.

Turoperator faoliyatini boshqarish usullari: Innovatsion metodologiyalar va vositalarni kiritish turoperator boshqaruvida operatsion mukammallik va strategik innovatsiyalarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bozor tadqiqoti metodologiyalari, jumladan, miqdoriy va sifatli tadqiqot yondashuvlari turoperatorlarga bozor tendentsiyalari, mijozlarning xohish-istaklari va raqobatdosh landshaftlar haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Ma'lumotlar tahlili va biznes razvedka vositalari turoperatorlarga katta hajmdagi ma'lumotlardan amaliy tushunchalarni olish imkonini beradi, bu esa ongli qarorlar qabul qilish va maqsadli marketing harakatlarini osonlashtiradi. Onlayn bron qilish platformalari, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari va ijtimoiy media marketingi kabi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi turoperatorlar faoliyati samaradorligi va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar mijozlar bilan uzluksiz muloqot qilish, shaxsiylashtirilgan marketing aloqalari va sayohatchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi, bu esa mijozlar tajribasi va brendga sodiqlikni oshirishga yordam beradi. Strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish metodologiyalari potentsial qiyinchiliklar va noaniqliklarni yumshatishda turoperatorlarning uzoq muddatli yo'nalishini boshqarish uchun zarurdir. Bozorni puxta tahlil qilish, ssenariyni rejalashtirish va xavflarni baholash turoperatorlarni sanoatdagi uzilishlar,

tartibga soluvchi o'zgarishlar va sayohatlar iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan global voqealarni oldindan bilish bilan taminlaydi. Bundan tashqari, turoperatorlar faoliyatida barqarorlikni boshqarish amaliyotlarining integratsiyasi tobora ortib bormoqda, bu ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga bo'lgan ko'nikmani aks ettiradi. Barqaror turizm amaliyoti mas'uliyatli turizm va inklyuziv o'sish tamoyillariga mos keladigan atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoatchilik ishtiroki va axloqiy biznes operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Turoperatorlar mahsulotlarni ishlab chiqish, ta'minot zanjirini boshqarish va belgilangan manzilni boshqarishda barqaror amaliyotlarni qo'llash orqali ularning atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirishi va tabiiy va madaniy resurslarni saqlashga hissa qo'shishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turoperatorlar faoliyatini boshqarishda qo'llaniladigan ilmiy-nazariy jihatlar hamda usullar ko'p qirrali va dinamikdir. Ilmiy printsiplar, nazariy asoslar va innovatsion metodssologiyalardan foydalangan holda, turoperatorlar o'zlarining raqobatbardoshligini oshirishlari, o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishlari va sayohatchilarga ajoyib turizm tajribasini taqdim etishlari mumkin. Ushbu asosiy elementlarni har tomonlama tushunish turoperatorlarni boshqarish amaliyotini ilgari surish, barqaror turizmni rivojlantirish va mijozlar, sanoat hamkorlari va maqsadli jamoalarga uzoq muddatli qiymat berish uchun zarurdir. Turoperatorlarni boshqarishning ilmiy va nazariy asoslari turizm industriyasining evolyutsiyasi va barqarorligini ta'minlab, ongli qarorlar qabul qilish, strategik rejalashtirish va doimiy innovatsiyalar uchun asos yaratadi. Turoperatorlar tez o'zgarib borayotgan global landshaftning murakkabliklarida harakat qilar ekan, ilmiy bilimlar, nazariy tushunchalar va innovatsion usullarning integratsiyasi turizm menejmenti kelajagini shakllantirish va butun dunyo bo'ylab mislsiz sayohat tajribasini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadaliyev, U. T. (2023). DEVELOPMENT OF TOUR OPERATOR MANAGEMENT SYSTEM CONCEPT IN UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12 (115)-1), 428-436.
2. Alvarez, S. (2024). Regenerative management of coastal tourism destinations for the anthropocene. Journal of Travel Research, 63(3), 769-774.
3. Rahman, M. K., Gazi, M. A. I., Bhuiyan, M. A., & Rahaman, M. A. (2021). Effect of Covid-19 pandemic on tourist travel risk and management perceptions. *Plos one*, 16(9), e0256486.
4. Baddeley, J., & Font, X. (2011). Barriers to tour operator sustainable supply chain management. *Tourism recreation research*, 36(3), 205-214.
5. Holland, J., & Leslie, D. (2017). *Tour operators and operations: Development, management and responsibility*. CABI.
6. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.
7. Mamurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
8. Mamurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O'RNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.

**MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO‘LIDA INVESTITSION MUHITNI
IQTISODIY YANADA YAXSHILASH YO‘NALISHLARI****Mardanov Rahim G‘aybulla o‘g‘li**

Jizzax politexnika institut. O‘qituvchisi

Gmail: rahimmardanov9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda ushbu olib borilayotgan islohotlarning samaralari, kelgusida mamlakat investitsion muhitini yanada yaxshilash uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni joriy etish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, makroiqtisodiyot, islohotlar, kodeks, qonun, qaror, farmon, arbitraj, tijorat, sud, investor.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining katta qismi asta-sekinlik bilan xususiy sektor boshqaruviga o‘tkazila boshlandi. Bu esa, davlat tasarrufida bo‘lgan, biroq iqtisodiy zarar ko‘rib faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarni xususiylashtirish hisobiga faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yish, boshqaruvning ilg‘or tajribalarini qo‘llash, salohiyatli kadrlar bilan ta‘minlash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali korxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish imkonini yaratdi.

Xususiylashtirilgan korxonalar faoliyatini rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investorlar faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash maqsadida, mamlakatda qulay investitsion muhitni shakllantirishning dastlabki bosqichlari aynan mustaqillik davrlariga to‘g‘ri keladi. Mamlakat iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun investitsion muhitni yanada yaxshilashning keyingi bosqichlari, 2016-yillardan boshlanib, hozirga vaqtgacha bu boradagi ishlar davom ettirib kelinmoqda. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495- sonli Farmoniga asosan, mamlakatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartibtaomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berildi. Mazkur farmonga asosan Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo‘yicha 24 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirish shakllari, bajarish muddatlari va mas‘ul ijrochilari biriktirildi [1]. Farmon ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi mamlakat iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar salmog‘ining oshishiga, investitsion muhitning yaxshilanishiga xizmat qildi. Jumladan, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlarining 2017- 2022-yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijasini tahliliga ko‘ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy

zonalar soni 2017-yil boshida 3 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, 22 taga yetdi. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika, 2 tasi turizm, 2 tasi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan.

Qonunchilikdagi o‘zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Masalan, O‘zbekiston 2019-yilda ilk bora Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning "To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi"ga kiritildi va ushbu indeksga ko‘ra, 2020-yilda jahonda 43-o‘rinni, Osiyo mintaqasida 7-o‘rinni qayd etdi. 2017-2022-yillarda O‘zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o‘z o‘rnini 31 pog‘onaga yaxshilab, 148-o‘rindan 117-o‘ringa ko‘tarildi.

Mamlakatimizga kiritilayotgan to‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 2,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko‘rsatkich 1,5 barobar ortib, 3,3 milliard AQSh dollariga yetdi [2]. mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 31 Rivojlangan mamlakatlar amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, investitsiya jalb qilmay turib, iqtisodiyotni yetarli darajada rivojlantirib bo‘lmaydi. Ana shuni e‘tiborga olib, mamlakatda investitsion muhitni shakllantirishga sharoit yaratish va uni tezlashtirish, rag‘batlantirish maqsadida davlatimizda bir qator qonunlar ishlab chiqilib, ular hayotga tadbiiq qilinmoqda. Bu borada "Investitsion faoliyat to‘g‘risida", "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida", "Chet el investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi va bu qonunlar hayot taqozosi bilan takomillashtirib borilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan, bular eng avvalo, tadbirkorlikni huquqiy belgilab beradigan, xususiy mulkchilik va raqobatchilikni himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilganligi, investitsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligi, siyosiy barqarorlik, qulay jug‘rofiy joylashuv, boy mineral xom-ashyo resurslari, shuningdek, agrosanoat sektorini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar borligi, eng muhimi, malakali mehnat resurslari hamda katta hajmdagi sotish bozori kabi omillarga ega ekanlikda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb etishning yana bir muhim omillaridan biri investorni o‘zi investitsiya kiritgan mamlakatida buzilgan huquqlarini tiklash, manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarning yuqori darajada yo‘lga qo‘yilganligidir. Ma‘lumki O‘zbekiston Respublikasi ham ko‘p sonli mamlakatlar qatori 1992- yilda "Chet el mamlakatlari arbitraj qarorlarini e‘tirof etish va ijro etish to‘g‘risida"gi 1958-yil 10-iyundagi Nyu-York Konventsiyasiga qo‘shilgan hamda ushbu konventsiyani ratifikatsiya qilgan [3].

Ushbu konventsiya shartlariga muvofiq, konventsiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlarning arbitraj qarorlari mamlakatimizda belgilangan protsessual qonunchilikka muvofiq ijro etilishi ta‘minlanadi, shuningdek bizning respublikamizda joylashgan arbitrajlarining ham qarorlari mazkur davlatlar hududida ijro etiladi. Xalqaro tijorat arbitraji nizolarni hal etishda mustaqilligi, nizoni ko‘rib chiquvchi arbitr (sud‘yalar) lar taraflar tomonidan tanlanishi, nizoni ko‘rib chiqish muddatining qisqaligi, nizoni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq xarajatlarning kamchiqimligi hamda nizo faqat bitta instantsiyada ko‘rib chiqilishi investorlar faoliyatida tijorat nizolari yuzaga kelganda nizoni hal etish uchun aynan xalqaro tijorat arbitraj sudini tanlashiga sabab bo‘ladi.

2021-yil 16- fevralda qabul qilingan “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni [4] mamlakatimizda xalqaro tijorat arbitrajlarining faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, arbitraj muhokamasini o‘tkazish, arbitraj nizolarini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish, arbitraj qarorlarini ijro etish bo‘yicha normalarni o‘z ichiga olib, Respublikamizda ham xalqaro tijorat arbitraji institutini huquqiy asosini yaratishning dastlabki bosqichini belgilab berdi. Endilikda mamlakatimizda xalqaro tijorat arbitraj sudlarini tashkil etish orqali, xorijiy investorlarni buziladigan huquq va manfaatlari hamda tijorat nizolarini boshqa davlatlarda joylashgan arbitraj sudlariga hal etish uchun topshirmasdan, aynan yurtimizdagi arbitraj sudlarida ko‘rib hal etilishini ta‘minlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil uchun Oliy Majlisga murojaatnomasida ham mamlakatimizda xalqaro tijorat sudlarini tashkil etish bo‘yicha ham amaliy ishlar boshlanganligini takidlab O‘tgan edi [5]. Respublikamizda xalqaro tijorat arbitraj sudlarining tashkil etilishi iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligiga erishishida hamda investitsion muhitini yanada yaxshilanishida, chet el investorlarini mamlakatimizda investitsion huquq va erkinliklar to‘liq ta‘minlanganligi bois provardida iqtisodiyotga kiritiladigan investisiyalar miqdorining oshishisha xizmat qiladi. Chunki, yaqinda qabul qilinishi kutilayotgan yangi konstitusiyamiz loyihasining 67-moddasida ham, davlat qulay investisiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlashi ko‘zda tutilmoqda. Bu ham mamlakatda investitsion muhitni davlat tomonidan konstitutsiya darajasidagi oliy normativ xujjat asosida himoya qilinishiga hamda huquqiy jihatdan kafolatlanishiga zamin yaratadi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-sonli Farmoni. www.lex.uz
2. 2017-2022-yillarda O‘zbekistonga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar hajmi 1,5 barobar ortdi. Muallif: www.aniq.uz <https://aniq.uz/yangiliklar/2017-2022-yillarda-uzbekistonga-kiritilgantugridan-tugri-xorijiy-investisiyalar-hajmi-1-5-barobar-ortdi>
3. Xalqaro arbitraj sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni tartibga soluvchi milliy qonunchilik deganda nima tushuniladi? Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot bilan ta‘minlash markazi yetakchi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar” 32 maslahatchisi M.Ismatov https://andijon.adliya.uz/main/uz/interaktivnye-uslugi/sizningsavolingiz/title.php?ELEMENT_ID=19648
4. O‘zbekiston Respublikasining 16.02.2021 y. O‘RQ-674-son “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/5294106>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. muallif: www.review.uz <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchunmurojaatnomasi-toliq-matn>
6. Mening Konstitutsiyam sayti. <https://meningkonstitutsiyam.uz/uzc>

7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.
8. Mampurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
9. Mampurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 344-345.
10. Umarov Toxirjon Mampurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMNI ISTIQBOLLARI**Melibayeva Gulxon Nazrullaevna**

Qo‘qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Baxtiyorjonova Muxlisa

Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida biznes turizm bozorini marketing masalalari muhokama qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida MICE turizmi konsepsiyasi, turlari, xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari davlat rahbarining farmon va qarorlari asosida tavsiflanadi. Ishbilarmonlik turizmi sohasida xalqaro hamkorlikning ahamiyati belgilab berildi, MICE turizmining xorijiy tajribasini mamlakatimizda qo‘llash yo‘llari o‘rganildi. Hududiy marketingning mintaqaviy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatidagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: MICE (Biznes) turizm, Rag‘batlantiruvchi turizm, kongres turizm, Stajirovka, Biznes turizm.

O‘zbekistonda MICE turizmi, yani “Meeting, Incentive, Conference, and Exhibition” (Munozara, Rag‘batlantirishlar (imtiyozlar), Konferensiyalar va Namoyishlar) turi mamlakatning turizm sohasida rivojlantirilayotgan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu turizm turi, xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar va shaxslar uchun muhim tadbirlarni o‘tkazish, konferensiyalar, namoyishlar va inqirozlar uchun ideal sharoitlar yaratishni maqsad qiladi.

O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishda geografik joylashuv, madaniy meros, sifatli xizmatlar va infrastruktura katta ahamiyatga ega. Mamlakatning geografik joylashuvi dunyo bo‘ylab yetarli yo‘laklar bilan bog‘liq bo‘lib, xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar uchun qulay yo‘l yo‘laklarni taqdim etadi. O‘zbekistonning madaniy merosi, tarixiy obidalar va tabiiy go‘zalliklari ham MICE turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

MICE turizmi O‘zbekistonning turizm sohasini diversifikatsiyalashga yordam beradi va mamlakatning turizm potentsialini yanada rivojlantiradi. Shuningdek, MICE turizmi O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy ko‘rinishlarini yanada kuchaytiradi va mamlakatni dunyo bo‘ylab taninadigan markazga aylantiradi.

Bular asosida O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish uchun davlat tashkilotlari, tadbirkorlar va sohani rivojlantirishda qatnashuvchilar o‘rtasidagi hamkorlik keng imkoniyatlarni ochadi. MICE turizmi O‘zbekistonning turizm sohasini yangi bosqichga olib keladi va mamlakatning xalqaro miqyosdagi aksport potentsialini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekistonda MICE turizmining hozirgi holati: Bugungi kunda O‘zbekistonda konferensiyalar, ko‘rgazmalar, seminarlar va boshqa MICE tadbirlarini o‘tkazish uchun infratuzilma faol rivojlanmoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro va mamlakatimizning boshqa viloyatlarida yirik biznes guruhlarini qabul qilish uchun jihozlangan zamonaviy kongress-markazlar, konferentsiya zallari, mehmonxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Biroq, asosiy infratuzilma mavjudligiga qaramay, O‘zbekiston hali ham MICE turizmini jahon miqyosida yo‘lga qo‘yish uchun katta sa‘y-harakatlarni amalga oshirishi kerak. Tadbir

tashkilotchilari duch keladigan asosiy muammolarga cheklangan transport imkoniyatlari, etarli ma'lumot bilan ta'minlanmaganligi va tadbirlardan keyin dam olish va o'yin-kulgi uchun cheklangan imkoniyatlar kiradi.

MICE turizmi 115 dan ortiq mamlakatlar tomidan ishlab chiqilgan, uning eng foydali tomonlaridan biri daromad olish va ish bilan band qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga qaratilgan turizm turi hisoblanadi. Jahon sayyohlik va turizm kengashi kelgusi o'n yil ichida biznes turizmining yillik aylanmasi 3,7 foizga o'sishini va 2016 yildagi 1,15 milliard dollardan 2027 yilda 1,7 milliard dollargacha o'sishini taxmin qilmoqda. Ushbu maqolani o'rganish ob'ekti dunyodagi va O'zbekistondagi MICE kabi turizm bo'limi doirasidagi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Maqsad tadqiqot muammosi xalqaro turizmning o'ziga xos sohasi sifatida MICE turizmining rivojlanishini tahlil qilishning past darajasi bilan bog'liq. O'zbekiston hali ham " boshlang'ich sayyohlik maskani" bo'lib, u jahon MICE turizm bozorida deyarli mavjud emas. MICE imkoniyatlari va uning O'zbekistondagi rivojlanishidagi to'siqlarga oid tadqiqotlar kam, shuning uchun biz tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar O'zbekistonning ushbu turizm sohasidagi istiqbollarini tahlil qilingan. Tadqiqotni o'tkazish uchun muallif jahon sayyohlik va turizm Kengashi iqtisodiy ma'lumotlaridan foydalanganholda o'z takliflarini kiritgan.[1]

Middlton va Klark ta'rifi ko'ra "biznes turizmi bu -ish bilan bog'liq holda tartibsiz sayohatdir" va Svarbruk va Xornerga fikrlariga ko'ra " biznes turizmi -ish bilan bog'liq holda sayohat qilishdir".[2][3] Dam olish maqsadida dunyo bo'ylab ko'plab insonlar hordiq chiqarish uchun kezishadi ularni asosini oilalilar, juftliklar, bolali oilalar, yolg'iz kishilar yoki do'stlar bilan sayohat qiluvchi kishalardir. Lekin MICE turizmida esa ular yuzlab hatto minglab kishilarni o'z ichiga oladi. GBTA ma'lumotlariga ko'ra har yili 480 milliondan ortiq korporativ sayohatlar amalga oshiriladi. Tajribali yoshi kattaroq tashkilotchilar yiliga 12 ta, yoshroq tashkilotchilar 14 ta sayohatni amalga oshiradilar, bu esa o'z navbatida MICE turizmini rivojlanganligidan dalolatdir.[4] BJTT ma'lumotlariga ko'ra 2006 yilda 4,4 mln biznes vakillari safarda 5100\$ sarflashgan , shaxsiy maqsadlarda sayohat qilgan 17,8 mln kishi esa 3800\$ mln sarflashgan[5].

O'zbekistonda MICE turizmini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Kongress markazlari va ko'rgazma majmualarini ta'mirlash va qurish. MICE turizm infratuzilmasining asosiy komponenti zamonaviy va funktsional kongress markazlari va ko'rgazma maydonchalarining mavjudligi hisoblanadi. Ushbu sohani muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun xalqaro standartlar va xalqaro tadbir tashkilotchilari talablariga javob beradigan mavjud quvvatlarni yangilash, yangilarini qurish zarur.

➤ Biznes mehmonxonalar infratuzilmasini rivojlantirish.

Tadbir ishtirokchilari uchun qulay turar joy va qulayliklar muvaffaqiyatli MICE turizmining bir xil darajada muhim jihati hisoblanadi. Buni ta'minlash uchun biznes uchrashuvlari, konferentsiya va ko'rgazmalar o'tkazish uchun barcha zarur narsalar bilan jihozlangan biznes mehmonxonalar tarmog'ini rivojlantirish zarur.

MICE turizmi kontekstida reklama va marketing. MICE turizmi turizm sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, marketing va reklamaga o'ziga xos yondashuvni talab qiladi.

➤ Xalqaro ko'rgazma va konferensiyalarda ishtirok etish

MICE turizmini targ‘ib qilishning asosiy vositalaridan biri bu xalqaro ko‘rgazmalar va konferensiyalarda ishtirok etishdir. O‘zbekiston o‘z imkoniyatlari va salohiyatini jahon miqyosida biznes tadbirlari o‘tkaziladigan joy sifatida faol ravishda namoyish qilishi kerak.

➤ **Maqsadli reklama kampaniyalari**

O‘zbekistonga MICE tadbirlari o‘tkaziladigan joy sifatida e‘tiborni muvaffaqiyatli jalb qilish uchun maqsadli reklama kampaniyalarini o‘tkazish zarur. Bu maqsadli auditoriyaga qaratilgan onlayn reklama va an’anaviy reklama tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

➤ **Xalqaro agentliklar va tadbir tashkilotchilari bilan hamkorlik**

Xalqaro agentliklar va tadbir tashkilotchilari bilan hamkorlik xalqaro tadbirlarni jalb etish va ularni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va tashkilotchilarga imtiyozlar berish tadbirlarni o‘tkazish uchun O‘zbekistonni tanlashda asosiy omil bo‘lishi mumkin.

MICE turizmi kontekstida kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish: O‘zbekistonda MICE turizmini muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy qadamlaridan biri tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Bu tadbirlar koordinatorlari, konferentsiya menejerlari, ko‘rgazma menejerlari va boshqa mutaxassislar uchun maxsus kurslar va o‘quv dasturlarini taqdim etishni o‘z ichiga oladi.

➤ **Xizmat ko‘rsatish va mehmondo‘stlik sohasida kadrlar tayyorlash.**

Bundan tashqari, muvaffaqiyatli MICE turizmining muhim jihati xizmat ko‘rsatish va mehmondo‘stlik sifati hisoblanadi. Mehmonxonalar, restoranlar, transport kompaniyalari va boshqa sohalar xodimlari yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish va korporativ mijozlarning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish uchun o‘qitilishi kerak.

Kasbiy takomillashtirish va malaka oshirish: MICE turizmi sohasida xizmat ko‘rsatishning yuqori darajasini ta‘minlashda xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish va malakasini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kasbiy konferensiyalar, seminarlar, treninglar va mahorat darslarida ishtirok etishni o‘z ichiga oladi.

➤ **MICE turizmi kontekstida turistik mahsulotni ishlab chiqish.**

MICE turizmi turizm industriyasining o‘ziga xos tarmog‘i bo‘lib, bu yerda turistik mahsulot sifati va xilma-xilligiga alohida e‘tibor beriladi.

➤ **Madaniy va ko‘ngilochar imkoniyatlarni kengaytirish.**

Muvaffaqiyatli MICE turizmining asosiy jihatlaridan biri tadbir ishtirokchilari uchun turli madaniy va ko‘ngilochar imkoniyatlarni yaratishdir. Bunga tarixiy joylarga ekskursiyalar tashkil etish, madaniy dasturlar o‘tkazish, milliy hunarmandchilik bo‘yicha mahorat darslari va boshqa qiziqarli tadbirlar kiradi.

Ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish:

O‘zbekistonda an’anaviy ko‘ngilochar tadbirlar bilan bir qatorda ishbilarmonlik turizmini ham rivojlantirish kerak. Shu jumladan, mahalliy biznes vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish, iqtisodiyot, sarmoya va biznesni rivojlantirish bo‘yicha biznes-forum va konferensiyalar o‘tkazish.

➤ **Xizmat ko‘rsatish va mehmondo‘stlik sifatini oshirish.**

Turizm mahsulotini rivojlantirishning muhim jihati xizmat ko‘rsatish va mehmondo‘stlik sifatini oshirishdir. Mehmondo‘stlik xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va tadbir ishtirokchilari

uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish xalqaro tadbirlarni jalb etish va ularni saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi.

Turli madaniy-ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish, ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali mamlakat xalqaro tadbirlarni yanada ko‘proq jalb qilish, iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish va jahon turizm maydonidagi mavqeyini mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish uchun barcha zarur resurslar va imkoniyatlar mavjud. Mamlakat boy madaniy meros, noyob tarixiy obidalar, zamonaviy kongress markazlari va yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish mehmonxonalariga ega. Mehmondo‘st odamlar, turli madaniy tadbirlar va konferentsiyalar, seminarlar va ko‘rgazmalar o‘tkazish imkoniyati O‘zbekistonni MICE turizmi uchun jozibador manzilga aylantiradi.

Bu sohani yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun davlat, ishbilarmon doiralar va sayyohlik kompaniyalarining faol hamkorligi zarur. O‘zbekistonni xalqaro tadbirlarni o‘tkazish uchun jozibador manzil sifatida targ‘ib qilish, yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish va ishbilarmonlik sayohatlari uchun sifatli infratuzilmani ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev, S.J. (2023). Dunyoda va o‘zbekistonda mice turizmining rivojlanishi tahlili. Ta‘lim faoliyatida innovatsion rivojlanish, 2 (5), 453–457.
2. Middleton V, Clarke J 2001 Marketing in Travel and Tourism, Third Edition, Elsevier Butterworth Heinemann, Great Britain
3. Swarbrooke J, Horner S 2001 Business travel and tourism Butterworth-Heinemann, Oxford
4. Stats About the Current State of Corporate Travel E-source: <http://www.dcsplus.net/blog/5-statsabout-the-current-state-of-corporate-travel> (viewed on 05.03.20)
5. Rybakov F 2010 Reliable partnership in business execution Tourism: practice, problems, perspectives 10
6. Шохрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3 (2), 617-629
7. Nazrullaevna, M. G. (2021). O‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 640-645.
8. Omonjon, U. (2023). MICE TURIZMI ORQALI O‘ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHİYATINI TARG‘IB ETISH OMILLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 251-252
9. Yusupov, A. A. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 46-48.

КЭШБЭК ҚАЙТАРИБ БЕРИЛМАЙДИГАН ҲОЛАТЛАР ТАҲЛИЛИ**Melibayeva Gulxon Nazrullaevna**

Qo‘qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedراسи o‘qituvchisi

gulhonmelibaeva@gmail.com

Аннотация. Харид чекларини рўйхатдан ўтказиш нафақат сизга қўшимча кичик даромад балки бу сизни айнан ўша махсулот ёки хизматни сотиб олганлигингиз учун ҳуқуқий асос бўла олади. Барча сектор ва маълумотлар электронлашиб бораётган ушбу даврда, харид чекларини рўйхатга олиш сизга бир мунча йенгилликларни тақдим этади. Булар Солиқ Уз мобил иловасидаги мониторинг бўлимида стз рўйхатдан ўтказган барча чеклар маълумотлари, сони, харид қилинган махсулотлар ҳақда маълумотларни ўзида акс эттиради. Айнан ушбу операция орқали, харид махсулот ёки хизматингиз билан келиб чиқиши мумкин булган муаммоларга нисбатан ашёвий далил сифатида қўлланилади. Аммо шундай ҳолатда ҳам сизни чекингизни бошқа фуқаро рўйхатга олиб улгурган бўлса сизни Солиқ органига мурожатингиздан сунг кэшбэк суммаси сизга ўтказиб берилади.

Калит сўзлар: Қўшил қиймат солиғи, кешбек, солиқ, солиқ мобил иловаси, тадбиркор, махсус чеклар

Кириш. Аввало кэшбекларни қайтариш айнан давлат бюджетидан амалга оширилиб, тадбиркорлар тўлаган солиқлардан, харид суммасини 1 % қайтариб берилади. Президент Қарори билан тасдиқланган низом асосида агарда шубҳали ҳолат қайд этилмаган бўлса ўз кэшбэк суммасини ойнинг 25 санасидан сўнг қайтариб олиши мумкин. Агарда ушбу санадан ўтиб ҳам кэшбэк қайтмаса, бунга асос бўладиган сабаблар оз эмас. Булардан бири, тадбиркорлар ўз хисоботларини топширмаганликлари ёки уларда кузатиладиган ҳато ва камчиликлар. Шу ўринда айтиш лозимки, чекларни рўйхатдан ўтказиш ва уларни савдо амалга оширилган савдо мажмуъаси ёки шаҳобчасидан талаб қилиш, жамиятда солиқ маданиятини ўз ўрнида ривожлантиришда катта амалий ўрин эгаллайди.

Чекларни рўйхатдан ўтказишда келиб чиқадиган яна бир муаммо бу ўша чекларни, сиздан олдин рўйхатга олинганлиги. Бу камчиликни ва тадбиркорлик мажмуъа ва шаҳобчаларида учрайдиган ушбу ҳолатга ечимни такомиллаштириш мақсадида иловада сиздан олдин рўйхатга олган фуқаро иловада рўйхатдан ўтказган рақами ва унга нисбатан шикоят бериш учун бўлим пайдо бўлган. Ва шу қаторда айтиш даркорки, айнан рўйхатдан ўтказилган ва тўпланган кэшбэк суммасини картага чиқариб олиш учун FaceID яъни юз идентификациясидан ўтиш шартини жорий қилиш фуқароларни ўзлари англаб ёхуд англамаган ҳолда юлга қуяётган майда жиноятларини олини олади.

Харид чекларини рўйхатдан ўтказиш нафақат сизга қўшимча кичик даромад балки бу сизни айнан ўша махсулот ёки хизматни сотиб олганлигингиз учун ҳуқуқий асос бўла олади. Барча сектор ва маълумотлар электронлашиб бораётган ушбу даврда, харид чекларини рўйхатга олиш сизга бир мунча енгилликларни тақдим этади. Булар Солиқ Уз мобил иловасидаги мониторинг бўлимида сиз рўйхатдан ўтказган барча чеклар

маълумотлари, сони, харид қилинган махсулотлар ҳақда маълумотларни ўзида акс эттиради. Айнан ушбу операция орқали, харид махсулот ёки хизматингиз билан келиб чиқиши мумкин булган муаммоларга нисбатан ашёвий далил сифатида қўлланилади. Аммо шундай ҳолатда ҳам сизни чекингизни бошқа фуқаро рўйхатга олиб улгурган бўлса сизни Солиқ органига муружатингиздан сунг кэшбэк суммаси сизга ўтказиб берилади.

Кэшбэк қайтариб бериш тизими афзалликларидан бири шундаки, сиз қанчалик катта харид амалга оширган тақдирингизда ҳам, сизга белгиланган кэшбэк суммаси қайтариб берилади. Фақат бунини шарт томони шундаки, харидни амалга оширган шахс “жисмоний шахс” булиши шарт. Ва барча кэшбэк суммалари, шубхали бўлмаган ҳолларда тўлиқ тўлаб берилади.

Ушбу тизим инновацияларидан яна бири шуки, кэшбек ҳисоблаш бевосита рақамга эмас, энди балки шахсий идентификацион рақамга боғлиқ ва сиз фойдаланган хар-хил мобил операторлар рақамларига рўйхатдан ўтмайди, балки ўз юзингиз идентификациясидан фойдаланилади. Аммо ҳалқ орасида бироз ўқувсизлик сабаб бу тизим жорий этилиши билан озгина ноқулайликларни ҳам олиб келган, қайсиларки, аёлларни кичик юз модернизацияси ёки фуқароларни нотўғри ҳолатда, ракурсдан расмга олишлари.

Аммо гуруч курмакисиз бўлмайди деганларидек, айнан Солиқ қўмитаси томонидан ташкил этилган расмий гуруҳ ва каналларда фирибгарлар Солиқ қўмитаси номидан ўз фирибгарлик фаолиятларини ҳам олиб боришга ҳаракат қилишмаган эмас. Аммо бунга ҳам тез чора кўрилиб ягона алоқа линияси ташкил этилган.

Хулоса сўнгида шуни айтиш лозимки чекларни фақат 3 хил ҳолатда рўйхатдан ўтказма олимаслик мумкин. Булар сизга боғлиқ бўлмаган сервер хатоликлари ёхуд тадбиркорларнинг чек тақдим қилишда юлга қўйишлари мумкин бўлган хатоликлардир. Иккинчиси эса бу чекни бошқа фуқаро томонидан рўйхатга олиниши, охиригиси эса сизга боғлиқ бўлган чекни амал қилиш 10 кунлик муддати ичида рўйхатдан ўтказмаслик ва шу билан бир қаторда онлайн назорат-касса машинаси томонидан бўялиб кетган ёки тўлиқ чоп этилмаган чек қоғози бўлганда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.09.2021 yildagi 595-sonli “SOLIQ TO‘LOVCHILARNI HISOBGA OLISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING O‘RNINI QOPLASH TARTIBINI SODDALASHTIRISH CHORATADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”.
2. Khurshid Gafurov. (2021). Economic Performance of Kazakhstan and Uzbekistan Since Independence: Impacts of Selected Economic Policies and Institutions. Conference paper: Uzbekistan on The Way to Third Renaissance: Harmony of Ethnocultural, Historical and Economic Aspects. «Innovatsion rivojlanish nashryoti. <https://doi.org/10.54613/001069>
3. Boburmirro, K., & Boburjon, T. (2022). Exchange rate influence on foreign direct investment: empirical evidence from cis countries. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 2(04), 19-28.

4. Rasulov Hamidjon Yakubovich. (2023). QABUL QILINGAN TA'LIM SIFATINING TURIZM VA MEHMONDO'STLIK TALABALARINING KASB TANLASHIGA TA'SIRI: AKADEMIK SAMARADORLIKNING VOSITACHILIK TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8(8), 62–65. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.805>
5. Yusupov, A. A. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 46-48.
6. Omonjon, U. (2023). ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 249-250.
7. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
8. Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO 'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 145-150.
9. Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250.
10. Turanboyev, B. (2024). O 'ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
11. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.
12. Мелибаева, Г. (2021). Иқтисодий диверсификациялаш шароитида тижорат банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари. Общество и инновации, 2(4/S), 282-291.
13. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.
14. Mamurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O'RNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.
15. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O'RNI. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li,**

Qo‘qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi

e-mail: u.mehmonaliyev@ferpi.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi[1].

Bu jarayonlar O‘zbekiston korporatsiyalari faoliyati ustidan ichki nazoratni tashkil etishda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning boshqa talablarini ilgari suradi. Korxonalar ichki auditi tizimining asosiy vazifasi – maxsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tan narxini pasaytirish yo‘llarini izlab topishdir.

Ichki auditor yana korxonaning mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirish bo‘yicha maslahatlar berishi kerak. Iqtisodiy tizimning buzilishini tekshirish ko‘p mehnat talab qiladigan auditdir. Bunda korxonada moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi. Ichki auditor korxonada u yoki bu rivojlanish yo‘nalishini ma‘qullashi yoki ma‘qullamasligi mumkin.

Ichki audit maqsadi korxonada xodimlarining qonun hujjatlariga, me‘yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish, tamonlar manfaatlarini o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish, korxonada amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va ko‘lamlariga mos ishonchlilikni ta‘minlash xamda korxonada faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo‘llaridan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda ichki audit qonun va me‘yoriy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. [2] so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo‘yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom» qabul qilindi. Hozirgi kunda ushbu Nizom xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda ichki auditni tashkil qilish tartibi ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjat hisoblanadi.

«Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq ichki audit xizmati xodimlari soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va uning vazifalarini hal etish uchun etarli bo‘lishi kerak. Ya‘ni, ichki audit xizmati shtatida quyidagilar bo‘lishi kerak: Ichki audit xizmatiga tegishli auditor sertifikatiga ega bo‘lgan uning rahbari boshchilik qiladi.

Har yili ichki audit xizmati rahbari ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning kuzatuvchi kengashiga taqdim etadi. Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan ta‘lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak. Ichki audit xizmati

xodimlari xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt kuzatuvchi kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

Qisqacha xulosa qilib aytganda

Xalqaro ichki auditorlarning professional standartida ichki auditga quyidagicha ta‘rif beriladi, - «ichki audit – korxonani moliya-xo‘jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbir etish bilan bog‘liq maslahat xususiyatiga ega mustaqil va xolis faoliyatdir».

Korxonalarda moliyaviy resurslarni nazoratini quyidagilar amalga oshiradilar, ya‘ni ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus bo‘lim, boshqaruv xodimlari va mutaxassislar, bosh buxgalter boshchiligadagi buxgalteriya xodimlari. Korxonalarda ushbu turdagi nazorat sub‘ektlarining mavjudligi bir qancha muammolarga olib keladi.

Birinchidan, nazorat qiluvchi strukturalarning ko‘pligi, ular orasidagi ayrim vaziflarni qaytarilishiga olib olib keladi, shu sababdan ular faoliyatlarini koordinatsiyalash lozim; Ikkinchidan, ichki nazorat bo‘limlarini mustaqilligini ta‘minlash, ularning funktsiyalarini aniq belgilash hamda ichki hujjatlardagi axborotlar oqimini belgilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qarori

KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISH TARTIBI TAHLILI**Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li**

Qo‘qon Universiteti “Xalqoro turizim va iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

lionslar9233@gmail.com**Abdug‘ofurov Muhammadiyor Madaminjon o‘g‘li**

Qo‘qon Universiteti “Moliya” yo‘nalishi talabasi

muhammadyor701@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda korxon va tashkilotlarning faoliyatini tekshirib, bu korxon va tashkilotlarning soliq to‘lashdan bosh tortmasligi, statistik faoliyati haqidagi ko‘rsatkichlarini, ya‘ni daromad solig‘i, qo‘shimcha qiymat solig‘i, foyda solig‘i, aksiz solig‘ kabilarning to‘g‘ri kiritilganligini tekshirish uchun ham kameral soliq tekshiruvlarini olib borish lozimdir. Shuning uchun ham ushbu yakuniy loyiha ishida mamlakatimizning soliq tizimidagi kameral soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish bo‘yicha izlanish olib borildi. Tadqiqotdan asosiy ko‘zlangan maqsad, kameral soliq tekshiruvlarida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni aniqlab, bu kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: soliq tizimi, soliq nazorati, kameral soliq tekshiruvi, tadbirkorlik subyektlari.

Kirish. Bugungi kunda soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavfi har qanday korxonada mavjud. Shuningdek, ko‘pchilik soliq to‘lovchilar o‘zlari bilmagan holda, soliq xavfining oshib ketishi oqibatida soliq tekshiruviga tushib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzu amaliyotda ko‘p savollar tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda va hozirgi vaqtgacha ayrim savollarga javob topilmay ochiqlicha qolib ketmoqda.

Hozirgi paytda soliq tekshiruvlari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom asosida amalga oshirib kelinmoqda. Bu tadqiqotni olib borish jarayonida bizda kameral soliq tekshiruvi o‘zi nima degan savol tug‘ilishi mumkin. Kameral soliq tekshiruvi - bu soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishi yuzasidan soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi. Kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish yuzasidan o‘tkaziladi

Asosiy qism. Globallashuv sharoitida mamlakatimiz hududlarida savdo faoliyatini rivojlantirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib hisoblanadi. Davlatning kameral soliq tizimi bo‘yicha bir qancha xorij va yurtimiz olimlari izlanish bordilar.

Korxonalarda soliqlar bo‘yicha pul oqimlarini boshqarishning muhim yo‘nalishlaridan biri soliqlarni rejalashtirish hisoblanadi. Soliqlarni rejalashtirish tushunchasi ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan xo‘jalik subyektlarida soliqlarni rejalashtirish xo‘jalik subyektlari yagona iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi doirasidagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini boshqarishning ajralmas qismi

bo‘lib, resurslarning cheklanganligi sharoitida korxonaning kelajakdagi moliyaviy holatini belgilash uchun optimal qonuniy soliq to‘lash usullari va metodlaridan hamda soliq to‘lashning mumkin bo‘lgan muqobil variantlaridan foydalanish tizimidagi jarayonlarni o‘zida aks ettiradi deb ta’kidlansa, rus olimlari qonuniy taqdim etilgan imtiyozlardan foydalanish orqali soliqlarni aylanib o‘tishning qonuniy usullari va soliq majburiyatlarini kamaytirish yo‘llari sifatida talqin etishadi.

Yana ayrim iqtisodchilar tomonidan esa soliqlarni rejalashtirish tashkilotning moliyaviy resurslarini oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta’sir etishga hamda amaldagi qonunchilik bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida ta’minlashga yo‘naltirilgan rejali faoliyatlar yig‘indisi sifatida, inglizcha-ruscha bank ensiklopedik lug‘atida moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy qismi bo‘lgan soliq to‘lovlarini kechiktirish natijasida investitsiyalarga ega bo‘lish, soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish va boshqa turli xil soliqlardan qochish yo‘llaridan foydalanishni rejalashtirish orqali soliq yukini minimallashtirish sifatida, biznes atamalar lug‘atida joriy va kelgusi davrlarda soliq majburiyatlarini minimallashtirishga yo‘naltirilgan turli xil soliqqa tortishning muqobil variantlarini tizimli tahlil qilish deb ta’rif berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qaroriga muvofiq, quyida soliq organlari tomonidan soliq xavfini aniqlash mezonlari ro‘yxatiga kiritilgan ayrim misollar keltirib o‘tilgan:

- soliq to‘lovchi shaxsiy kartochkalarida soliq qarzdorligining doimiy yuzaga kelishi;
- soliq hisobotlarining belgilangan muddatlardan kechiktirib taqdim etilishi;
- soliq to‘lovchilar obyektlarida xronometraj ko‘zdan kechirish o‘tkazilgandan keyingi davrlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan tushumlarning kamayib ketishi;
- hisobvaraqa-fakturalar orqali kirim qilingan tovarlar hajmiga nisbatan o‘rtacha oylik tushumlarning farq qilishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning topshirilgan naqd plastik pul mablag‘lariga nisbatan hisobotdagi ko‘rsatgan tovar aylanmasining kamaytirib ko‘rsatilishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish uchun buxgalterning rasmiy tartibda ro‘yxatga olinmasligi.

Yuqoridagi keltirib o‘tilgan omillardan hamda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa turdagi omillar asosida soliq organining avtomatlashtirilgan dasturiy mahsuloti avtomatik ravishda belgilangan ball tizimi asosida soliq to‘lovchilarga soliq huquqbuzarligining xavflilik darajasi belgilanadi.

Bugungi kunda soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarida tafovutlar yoki xatolarni aniqlash bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizim joriy etilgan. Unga ko‘ra har bir soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar belgilab qo‘yilgan algoritm asosida ushbu avtomatlashtirilgan kameral tekshiruv dasturi orqali tahlil qilinadi. Bundan tashqari, soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari soliq organlari xodimlari tomonidan ham tahlil qilib boriladi. Masalan, soliq to‘lovchi tomonidan 2021-yil uchun taqdim etilgan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi” hisobotda ko‘rsatilgan daromadlar yoki xarajatlar summalarining ushbu muddat uchun taqdim etilgan “Foyda solig‘i” hisobotidagi tegishli

daromadlar va xarajatlar summalariga muvofiq kelmasligi. Bunday holat soliq organlarining avtomatlashtirilgan kameral tekshiruv dasturi orqali aniqlanadi va korxonada soliq hisobotida tafovutlar mavjudligi xavfi yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilar ro‘yxatiga kiritiladi. Bu esa o‘z navbatida kameral soliq tekshiruv o‘tkazilishiga sabab bo‘ladi.

Kameral soliq bo‘yicha 2021-yilda mamlakatimizdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning murojaatlari asosida faoliyati shubhali deb topilgan korxonalar bilan amalga oshirilgan bitimlarni o‘rganib chiqish uchun tezkor ravishda kameral soliq tekshiruvlari tashkil etildi. Bu tekshiruv natijasida respublikamiz bo‘yicha jami 7978 ta korxonada 912,1 milliard so‘m asossiz hisobga olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalariga aniqlik kiritish bo‘yicha kameral soliq tekshiruvlari yakunlandi. Bu amalga oshirilgan kameral soliq tekshiruvlari natijasida:

- 7725 ta, ya‘ni 96,8 foiz korxonada 822,9 milliard so‘mlik soxta operatsiyalarni amalga oshirilganligi;
- shundan, 94 ta tashkilotda 13,1 milliard so‘m qo‘shimcha qiymat solig‘i summasini noqonuniy hisobga olinganligi;
- 253 ta, ya‘ni nazorat tadbirlari o‘tkazilib, 3,2 foiz soliq to‘lovchilar tomonidan 35,2 milliard so‘mlik qo‘shimcha qiymat solig‘i summasini to‘g‘ri hisobga olganligi holatlari bo‘yicha asoslovchi hujjatlar taqdim etilganligi aniqlandi. Shu sababli ulardan ortiqcha olingan mablag‘larni qaytarish bo‘yicha tezkor jarayonlar boshlandi.

Shu jumladan, kameral soliq tekshiruvlari jarayonida 156 ta korxonada tomonidan qo‘shimcha qiymat solig‘i summasini to‘g‘ri hisobga olish bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilgan huquqbuzarliklar ham aniqlanib, ularga nisbatan 5,8 milliard so‘mlik soliqlar qo‘shimcha hisoblandi.

Xulosalar. Yuzaga kelayotgan kameral soliq tekshiruv doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar esa mamlakatimizdagi yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga va soliq to‘lovchilarning soliqqa rioya etishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Kameral soliq tizimidagi muammolarni bartaraf etishda quyidagi takliflarni ishlab chiqildi: kameral soliq tekshiruvlarini bitta korxonada, tashkilotlarda emas, balki faoliyat yuritayotgan kichik biznes sohasi doirasida o‘tkazib borishi, korxonada va tashkilotdagi ichki audit tizimida tanish bilishlik qilmaslik va qonun doirasida tekshiruv amalga oshirishda tashqi audit tekshiruvlarini o‘tkazilish sonini ko‘paytirishi hamda korxonada va tashkilot muassasalari hodimlarining maxsus bilim, ko‘nikmalarini oshirish uchun korxonada hodimlarini malakasiga kuchli e‘tibor qaratilishini ta‘minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”, 07.01.2021 yildagi 1-sonli qarori.
2. Sheremet A.D., Suyts V. P. – “Audit”, Textbook. (2005). M.: INFRA - M.
3. Садчиков, Михаил Николаевич – “Камеральные и выездные налоговые проверки как формы налогового контроля”, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук, Saratov 2010
4. Boburjon, T. (2024). SOLIQA TORTISHNING EKOLOGIK YO ‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 145-150.
5. Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
6. Turanboyev, B. (2024). ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YOLLARI**Mo'minova Kanizaxon Yo'ldashali qizi**mominovakaniza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishi “kichik biznes”di rivojlantrish va O‘zbekistonda kichik biznes uchun qilinadigan ishlar.Jahon bozorida kichik biznesdi o‘rni va rivojlanayotgan davlatlardagi salohiyati haqida yoziladi.

Kalit so‘zi: Kichik biznes krediti, strategiyalar,imtiyozlar, buxgalteriya hisobi texnologik yechimlar, tarmoqlari va hamkorliklar

Kirish;

Kichik biznes ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va mahalliy hamjamiyatlarga hissa qo‘shish orqali iqtisodiyotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ta'rif: Kichik biznes odatda xususiy mulk bo'lgan va boshqariladigan korxonalar bo'lib, ular nisbatan kam sonli xodimlarga ega va yirik korporatsiyalarga qaraganda kamroq daromad keltiradi.

Muhimligi: Kichik biznes bir necha sabablarga ko'ra iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega:

- ✓ Ish o'rinlarini yaratish: Kichik biznes ko'pchilik mamlakatlarda ish o'rinlari yaratishning asosiy manbai hisoblanadi. Ular ishchi kuchining muhim qismini ish bilan ta'minlaydi.
- ✓ Innovatsiyalar: Kichik biznes ko'pincha bozorga yangi g'oyalar va mahsulotlarni olib keladi, raqobatni kuchaytiradi va innovatsiyalarni rivojlantiradi.
- ✓ Iqtisodiy o'sish: Kichik biznes yalpi ichki mahsulotga qiymat qo'shish va umumiy samaradorlikni oshirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.
- ✓ Mahalliy ta'sir: Kichik biznes tovarlar, xizmatlar va ijtimoiy to'lovlarni taqdim etish orqali mahalliy hamjamiyatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qiyinchiliklar: Kichik biznes turli qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan cheklangan resurslar, kapitalga kirishning cheklanganligi, raqobatning kuchayishi va bozor dinamikasining o'zgarishi. Ular, shuningdek, normativ va qonuniy talablarga rioya qilishlari kerak.

Kichik biznes turlari: Kichik biznes turli sohalarda, jumladan, chakana savdo, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, mehmondo'stlik, sog'liqni saqlash, texnologiya va boshqalarda faoliyat yuritishi mumkin. Ba'zi keng tarqalgan turlarga mom-and-pop do'konlari, onlayn-biznes, frilanserlar, maslahatchilar va mikro-korxonalar kiradi.Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash: Hukumatlar va muassasalar kichik biznesni soliq imtiyozlari, moliyalashtirish dasturlari, treninglar va murabbiylik dasturlari kabi tashabbuslar orqali qo'llab-quvvatlaydi. Mahalliy savdo palatalari va biznes birlashmalari ham qo'llab-quvvatlash va tarmoq imkoniyatlarini taklif qiladi.Muvaffaqiyat omillari: Muvaffaqiyatli kichik biznes odatda aniq tasavvurga, qat'iy biznes-rejaga, samarali marketing strategiyalariga, kuchli mijozlar bilan munosabatlarga, moslashuvchanlikka e'tibor va bag'ishlangan jamoaga ega. Bundan tashqari, sanoat tendentsiyalaridan xabardor bo'lish va texnologiyadan foydalanish muvaffaqiyatga hissa qo'shishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI MOLIVAVIY VA INSTITUTSIONAL QO‘LLAB- QUVVATLASH CHORA TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Joriy yilning 18-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “uzluksiz xizmatlar zanjiri”ni yaratish maqsadida: Qaroriga asosan ham kichik biznesni rivojlantirish chora tadbirlari rivojlanib bormoqda

- Kichik biznes sub’ektlari soni: O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda 177,6 mingga yaqin kichik biznes sub’ektlari faoliyat yuritgan.

- YaIMga qo‘shgan hissasi: Kichik biznes O‘zbekiston iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shmoqda. 2019-yilda ushbu soha mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 55 foizini tashkil etdi.

- Bandlik: Kichik biznes ish o‘rinlari yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular O‘zbekistonda aholining salmoqli qismini ish bilan ta‘minlashga mas‘uldirlar. Kichik korxonalar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlarining aniq soni vaqt o‘tishi bilan farq qilishi mumkin.

- Tarmoq taqsimoti: O‘zbekistonda kichik biznes sub’yektlari chakana savdo, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, qurilish va turizm kabi turli sohalarda faoliyat yuritadi. Chakana savdo va xizmatlar kichik biznes korxonalari uchun eng keng tarqalgan tarmoqlardan biridir.

- Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash: O‘zbekiston hukumati kichik biznesni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha siyosat va tashabbuslarni amalga oshirdi. Ularga soliq imtiyozlarini berish, ma‘muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, kredit va moliyaviy resurslardan foydalanishni osonlashtirish kiradi.

- Qiyinchiliklar: Ko‘pgina boshqa mamlakatlardagi kichik biznes kabi O‘zbekiston kichik biznesi ham turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu qiyinchiliklar moliyalashtirishga cheklangan kirish, byurokratik to‘siqlar, tartibga solish to‘siqlari va biznes ko‘nikmalari va bilimlarining etishmasligini o‘z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23 iyul kuni mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishga oid yuqoridagi keng qamrovli bayonotdan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim o‘rni va keng ko‘lamli ta‘siri aniq ta‘kidlangan. Ma‘muriy tartib-qoidalarni soddalashtirish, qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini yaxshilash va sanoat hamkorlikni rag‘batlantirish bo‘yicha majburiyat tadbirkorlik o‘sishini ta‘minlash va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishga kompleks yondashuvni namoyish etadi.

Qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilishi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi institutlarning yaratilishi va moliyaviy resurslarning ajratilishi kichik biznes uchun qulay muhitni yaratishga qat'iy intilayotganini ta'kidlaydi. Qolaversa, yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyatini rag'batlantirish va ularning hayotiyligini rag'batlantirishga qaratilayotgan e'tibor hukumatning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga sodiqligini ta'kidlaydi.

Qolaversa, Xovos tumanini "Korxonalar hududi"ga aylantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani va turli hududlarda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatma tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga alohida va mintaqaviy yondashuvdan dalolat beradi. Kichik biznes va yirik korxonalar o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasiga alohida e'tibor qaratilayotgani o'zaro bog'langan va o'zini o'zi ta'minlaydigan iqtisodiy ekotizimni rivojlantirish niyatini ham ta'kidlaydi.

Turli sektorlar va sub'ektlar o'rtasidagi hayotiy muhim o'zaro aloqalarni rag'batlantirish muhimligini e'tirof etgan holda, shuningdek, mintaqalar bo'yicha moslashtirilgan yondashuvlarni taklif qilish orqali O'zbekiston hukumati kichik biznesni barqaror rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga ko'maklashish bo'yicha keng qamrovli va moslashuvchan strategiyani ilgari surmoqda. Umuman olganda, yig'ilishda bayon etilgan ko'p qirrali yondashuv kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish majburiyatini aks ettiradi, bunda mintaqaviy salohiyat va o'ziga xos xususiyatlar tegishli ravishda hisobga olinadi va turli sanoat sohalarida hamkorlik sinergiyasi rivojlantiriladi.

Metodologiya

Biz avvalgi boblarda kichik biznesni rivojlantirish va O'zbekistondan kichik biznesni rivojlanish uchun qilinadigan ishlar ko'lami haqida gaprib o'tdik.

Prezidentimiz qarorlari va mavzularini ham yordik. Ushbu bobda biz maqolamizning qisman ochib berishga harakat qildik keying boblarda maqolani yanada chuquroq ochib berishga harakat qilamiz.

Ushbu bobda biz maqolamizni metodologiya qismini yurtimiz statistika va tahlil jarayonlarni olib boramiz

Buning uchun Davlat statistika sayti va xalqaro jurnaldan foydalanami ya'ni stat.uz tomonidan ma'lumotlar bazasni tashkilashtiramiz.

Tahlil va natijalar

Kichik biznesning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni

Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Kichik biznes korxonalar tashkil etilgan jamiyatga o'sish va innovatsiyalarni olib kelish orqali mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shadi.

Kichik biznes, shuningdek, yirik korporatsiyalar tomonidan ish bilan ta'minlanmagan odamlarni ish bilan ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. Kichik biznes odatda yangi mahsulotlarni ixtiro qiladigan yoki mavjud g'oyalar uchun yangi echimlarni amalga oshiradigan iste'dodlarni jalb qiladi. Boshqacha aytganda, ular aholiga moliyaviy mustaqillikka erishish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, bandlik imkoniyatlarini yaratish imkonini beradi. Shu bois O'zbekiston hukumati litsenziya va ruxsatnomalar, davlat xizmatlarini ko'rsatishni soddalashtirish va shaffofligini oshirish orqali kichik biznesni rivojlantirishga harakat

qilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari kuchaytirildi. Natijada 2018 yilning 9 oyida 38,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etildi, bu 2017 yilning shu davriga nisbatan 23,6 foizga ko‘pdir. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng katta ulushi tashkil etildi. savdo (23,1 foiz), sanoat (22,4 foiz), qurilish (12,9 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik (11,8 foiz), mehmondo‘stlik va oziq-ovqat xizmatlari (7,6 foiz), transport va saqlash (4,0 foiz) sohalarida.

O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, kichik biznes sub‘yektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55,2 foizdan 50,2 foizga kamayganiga yalpi ichki mahsulot tarkibida yirik korxonalar ulushining ortishi sabab bo‘lgan. Shunga qaramay, bu ulush ko‘pgina qo‘shni davlatlarga qaraganda ancha katta, masalan, Qozog‘iston 25,6% va Rossiya 20%. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida. Hududiy sharoitda kichik biznesning YaHMdagi eng katta ulushi Jizzax (77,2 foiz), Surxondaryo (74,1 foiz), Buxoro (71,1 foiz), Samarqand (70,7 foiz) va Namangan viloyatlariga to‘g‘ri keladi. 69,7% maydonni tashkil etadi. Navoiy viloyatida bu ko‘rsatkich 32,6 foizni, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 48,3 foizni tashkil etib, pastligicha qolmoqda. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishida kichik biznesning eng katta ulushi Toshkent (71,6 foiz), Namangan (69,7 foiz) va Jizzax (60,8 foiz) viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Qurilishda – Samarqand (98,3 foiz), Jizzax (97,0 foiz), Andijon (96,5 foiz) va Sirdarin (95,4 foiz) viloyatlarida. Xizmat ko‘rsatish sohasida – Toshkent (74,3 foiz), Samarqand (74,1 foiz), Farg‘ona (73,5 foiz), Buxoro (73,2 foiz), Surxondaryo (73,1 foiz), Andijon (72,4 foiz) viloyatlarida.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar O‘zbekistonda kichik biznes iqtisodiyotning asosi bo‘lib, ayni paytda aholining katta qismi uchun muhim daromad manbai ekanligini ko‘rsatadi. Kichik biznes har doim ham kichik bo‘lib qolmaydi. Nike, Ben va Jerry's kabi yirik korporatsiyalar kichik biznesdan boshlandi va xalqaro bozorlarning asosiy ishtirokchilariga aylandi. Kompyuter sanoatining ko‘plab etakchilari o‘z bizneslarini garajlaridan boshladilar. Microsoft va Amazon kichik biznes g‘oyasi dunyoni qanday o‘zgartirishi mumkinligiga misoldir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasini oshirishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko‘rishimiz mumkin. Shuni ham ta‘kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo‘lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo‘lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlarini samarali kichik biznes sohasida ko‘proq ish o‘rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamlakatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshirishga imkon yaratadi.

Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishda tartibga solish, moliyaviy va infratuzilma jihatlarini ko‘rib chiqadigan yaxlit yondashuvni ko‘rib chiqish juda muhimdir. Kichik biznesni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar mavjud:

➤ Oddiylashtirilgan me'yoriy-huquqiy baza: biznesni ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish va muvofiqlik bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtiring. Shaffofroq va samarali tartibga solish muhitini joriy etish ma'muriy yuklarni kamaytiradi va tadbirkorlikni rag'batlantiradi.

➤ Moliyadan foydalanish: Kichik biznes uchun past foizli kreditlar, venchur kapitali va moliyaviy savodxonlik dasturlarini taqdim etish orqali kapitaldan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Moliyaviy institutlar va hukumat o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirilgan moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlarini yaratishga yordam beradi.

➤ Qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi: biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va tadbirkorlik ta'lim markazlari kabi qo'llab-quvvatlash institutlarini rivojlantirish. Bular tashabbuskor va mavjud tadbirkorlarga treninglar, maslahatlar va texnik yordam ko'rsatadi.

➤ Raqamli transformatsiya: elektron tijorat, raqamli marketing va ulanishni targ'ib qilish orqali kichik biznesni raqamlashtirishni qo'llash. Biznes-biznes almashinuvi va hukumatdan biznesga tranzaksiyalar uchun raqamli platformalarni yaratish operatsiyalarni modernizatsiya qiladi va bozorga kirishni kengaytiradi.

➤ Iste'dodni rivojlantirish: Malakali ishchi kuchini shakllantirish va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish uchun kasbiy va tadbirkorlik ta'limiga sarmoya kiriting. Bu o'quv dasturlarini bozor ehtiyojlariga moslashtirish uchun ta'lim muassasalari va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olishi mumkin.

➤ Innovatsiyalarni rag'batlantirish: Kichik biznesda grantlar, soliq imtiyozlari va patentlarni qo'llab-quvvatlash orqali tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantirish. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash kichik biznes landshaftida raqobatbardoshlik va diversifikatsiyani kuchaytirishi mumkin.

➤ Hamkorlik ekotizimi: Ta'minot zanjiri integratsiyasi, qo'shma korxonalar va texnologiyalar transferini rag'batlantirish uchun kichik va yirik biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Hamkorlik muhitini yaratish yangi bozor imkoniyatlarini ochib, raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

➤ Bozorga kirish va eksportni rag'batlantirish: Savdoni osonlashtirish tashabbuslari, eksportni rag'batlantirish mexanizmlari va bozorga kirishni qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznesning bozorga kirishi va eksport imkoniyatlarini osonlashtirish.

➤ Infratuzilmani rivojlantirish: kichik biznes uchun ulanishni yaxshilash va operatsion xarajatlarni kamaytirish uchun logistika, transport va aloqa tarmoqlari kabi jismoniy va raqamli infratuzilmaga sarmoya kiriting.

➤ Mintaqaviy rivojlanish: Mahalliy muammolarni hal qiluvchi, mintaqaviy kuchli tomonlardan foydalanadigan hamda O'zbekiston bo'ylab kichik biznes uchun resurslar va

imkoniyatlardan teng foydalanishni ta'minlaydigan mintaqaga xos chora-tadbirlarga e'tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
4. qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
5. Bakhtiyarova, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. *Достижения науки и образования*, (5 (46)).
6. Bakhtiyarova, Y. E. (2019). The main problems encountered in a second/foreign language acquisition in technical higher educational institutions. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)).
7. Bakhtiyarova, Y. E. (2019). The main problems encountered in a second/foreign language acquisition in technical higher educational institutions. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)).
8. Bahtiyarova, Y. E. (2018). Some methodology for keenness of teachers of English. *Вопросы науки и образования*, (5 (17)).
9. Gulomzhonovna, N. N., Bakhtiyarova, Y. E., & Sobirzhonovna, M. M. (2019). Preparing guide-translators in the sphere of tour industry. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)).
10. Yagyaeva, E. B. (2021). Tourism resources as a condition for the tourism development. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 323-327.
11. Yagyaeva, E., & Zokirov, A. (2019). THE ROLE OF A TEACHER IN TEACHING-LEARNING PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(3), 276-278.
12. Bakhtiyarova, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. *Достижения науки и образования*, (5 (46)).
13. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA KLASSTER YONDASHUVINING O'RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156-167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

**МОЛОДЕЖЬ И ЯЗЫКОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ УСПЕШНОГО
УЧАСТИЯ В НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕФОРМАХ И БИЗНЕСЕ****Муртазина Диана Рахировна**Магистр группы 521-23 направления «История и теория педагогики»
Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: Данная статья рассматривает влияние языковой политики на образование молодежи в контексте современного многоязычного общества. Обсуждаются основные аспекты языковой политики, включая ее влияние на языковую среду в образовательных учреждениях, доступ к языковому образованию и статус различных языков в обществе. Авторы выделяют важность разработки эффективной и инклюзивной языковой политики для обеспечения доступности языкового образования для всех групп населения и поддержки языкового многообразия и культурного наследия.

Ключевые слова: языковая политика, образование, молодежь, многоязычие, доступность, культурное наследие.

Введение

В современном мире, где границы сокращаются, технологические инновации меняют облик бизнеса, и культурные обмены становятся все более активными, молодежь оказывается перед новыми вызовами и возможностями. Важность языкового образования становится несомненной, поскольку оно является ключом к успешной адаптации к изменяющимся реалиям национальных реформ и динамичному миру бизнеса [1]. В данной статье мы обсудим значимость языкового образования для молодежи и выявим ключевые аспекты, которые определяют их успешное участие в национальных реформах и бизнесе.

В данной статье мы рассмотрим ключевые аспекты языкового образования для молодежи и их влияние на успешное участие в национальных реформах и бизнесе. Особое внимание будет уделено мультязычности как конкурентному преимуществу, адаптации к многоязычной среде, гибкости в обучении и освоении новых языков, а также роли государственной языковой политики и образовательных программ в формировании языковых компетенций у молодежи.

1. Мультязычие как конкурентное преимущество

В современном мире, где глобализация проникает в различные аспекты жизни, мультязычие становится одним из ключевых конкурентных преимуществ для молодежи [2]. На фоне быстрого развития информационных технологий, мировой торговли и культурного обмена, способность говорить на нескольких языках открывает перед молодыми людьми широкий спектр возможностей и преимуществ.

Во-первых, мультязычие расширяет горизонты коммуникации. Молодежь, владеющая несколькими языками, может свободно общаться с представителями различных культур и национальностей. Это укрепляет межкультурное взаимопонимание и открывает новые пути для сотрудничества как в личной, так и в профессиональной сферах.

Во-вторых, мультиязычие повышает конкурентоспособность на рынке труда [3]. Работодатели все более ценят сотрудников, способных общаться на нескольких языках, так как это позволяет компаниям легче проникать на международные рынки, устанавливать партнерские отношения с иностранными партнерами и привлекать международных клиентов.

В-третьих, мультиязычие способствует интеллектуальному развитию. Исследования показывают, что умение говорить на нескольких языках улучшает когнитивные способности, такие как память, внимание и решение проблем. Это делает мультиязычных людей более гибкими и адаптивными в различных ситуациях.

2. Адаптация к многоязычной среде

3. Allamuradov, Norbobo, and Ikrom Shahriyorov. "RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI." *Modern Science and Research* 3.1 (2024): 1-9.
4. Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmansur o‘g‘li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 328–332. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.454>
5. Mukhammadkodir, Elmurodov. "MAMLAKATIMIZDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TAHLILI." QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 314-321.
6. Elmurodov, M. N., & Tojiyeva, M. M. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY HISOBNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 44-47.
7. Akhmadjonov, O., Elmurodov, M., Farhodov, A., & Khoshimov, I. (2022). ISLOM MOLIYASI VA BANKI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(10), 37-41.
8. Akhmadjonov, O., Elmurodov, M., Koplunov, D., & Egamov, O. (2022). ISLOM MOLIYA TIZIMI BOSHQARUVI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(10), 42-48.
9. Mamatov M. and Nuritdinov J. (2022). Optimizing the Quality of Electric Lighting with the Use of Minkowski’s Geometric Difference. In *Proceedings of the 3rd International Symposium on Automation, Information and Computing - Volume 1: ISAIC*; ISBN 978-989-758-622-4, SciTePress, pages 751-756. DOI: 10.5220/0012046100003612
10. <https://kun.uz/news/2019/05/18/ozbekistonning-2035-yilgacha-rivojlanishi-konsepsiyasi-loyihasi-boyicha-jamoat-eshitishlari-boshlandi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F05%2F18%2Fozbekistonning-2035-yilgacha-rivojlanishi-konsepsiyasi-loyihasi-boyicha-jamoat-eshitishlari-boshlandi>
11. <https://stat.uz/uz/>

**AHOLI DAROMADI VA YALPI ICHKI MAXSULOT BOG‘LIQLIGINING EKONOMETRIK
TAHLILI****Nuritdinov Jalolxon,**

Qo‘qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o‘qituvchisi

Erkinov Zuhridin

Qo‘qon Universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2011-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davr davomida aholi daromadi va yalpi ichki mahsulot orasidagi bog‘liqlik bo‘yicha tahlil olib borilgan. Olib borilgan tahlil natijasida aholi daromadi va yalpi ichki mahsulot orasidagi bog‘liqlik bo‘yicha ekonometrik model tuzilgan. Tuzilgan ekonometrik model mezonlar yordamida baholanib, ekonometrik model yordamida kelgusidagi yalpi ichki mahsulot bashorat qilingan. Olib borilgan tahlillarga tayangan holda ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: natijaviy belgi, Student mezoni, Fisher mezoni, aproksimatsiya hatoligi, elastiklik, juft korrelyatsiya, korrelyatsion bog‘lanish.

Bugungi kunda respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida iqtisodiyotni isloh qilish, modernizatsiya qilish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida Prezident farmoni imzolandi¹. Unga ko‘ra Yalpi ichki mahsulot hajmini ochirish, aholi turmush tarzini yaxshilash chora tadbirlari belgilandi. Bundan aholi sonining o‘sishi, uning daromadi yalpi ichki mahsulotga qanchalik ta‘sir etishini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Endilikda mamlakat iqtisodiyotida aholi daromadlari o‘shining yalpi ichki mahsulotga ta‘siri doirasida aniq statistik ma‘lumotlar orqali tahlil qilib chiqamiz. Ushbu tadqiqotda 2011-yildan 2022 yilgacha ma‘lumotlar uchun aholi daromadlari va yalpi ichki mahsulot bo‘yicha jami hisobotlar to‘plandi. Tadqiqotda Y sifatida jami yalpi ichki mahsulot, X sifatida aholi daromadlari olindi. Bu ko‘rsatkichlarning 12 ta kuzatuvchi berilgan. Berilgan o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘lanish zichligini korrelyatsiya koefitsentini orqali aniqladik: $R(xy) = 0,999209937$. Demak, bu o‘zgaruvchilar to‘g‘ri va zich bog‘lanishga ega. Aholi daromadlari ta‘sir etuvchi omil va yalpi ichki mahsulot natijaviy belgi sifatida olib tuzilgan regression chiziqli modelimiz ko‘rinishi quyidagicha: $y = 1,4821x - 27286$. Demak, aholi daromadi bir birlikka o‘zgarsa, yalpi ichki mahsulot 1,4821 birlikka o‘zgarar ekan. Quyidagi jadvalda ko‘rishingiz mumkin:

Yillar	Aholi daromadlari - so'mda X	Joriy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, milliy valyutada, mlrd. so'm Y
2011	85933,5	103 232,6
2012	104263,0	127 590,2
2013	126268,0	153 311,3
2014	146392,9	186 829,5
2015	169344,3	221 350,9
2016	197962,4	255 421,9
2017	236893,1	317 476,4
2018	300685,8	426 641,0
2019	365598,3	532 712,5
2020	414968,7	605 514,9
2021	519181,4	738 425,2
2022	633567,4	896 617,9
summa	3 301 059	4 565 124
o'rtacha	275 088	380 427
R(xy)	0,999209937	
b	1,482116155	
a	-27285,70879	
y=1,4821x-27286		
Elastiklik	1,071723897	


Shuningdek, bu model bo'yicha o'zgaruvchilarning elastiklik koeffitsiyenti hisoblandi: E= 1,071723897. Demak aholi daromadi 1% ga ortsa yalpi ichki mahsulot 1,07 % ga ortar ekan. Bu ko'rsatlichlarni quyidagicha ko'rishimiz mumkin.

Tuzilgan model Aproksimatsiya o'rtacha xatoligi 2,23 % ligi aniqlandi. Bu tuzilgan regression modelnig yaroqlilik holatidagilini ko'rish mumkin.

Tuzilgan model statistik ma'nodorligini tekshirish maqsadida Fisher me'zonini hisoblaymiz. $F_{\text{fakt}}=6321.1$. Fisher me'zoning 0.95 aniqlikdagi va $k_1=1$ $k_2=10$ dagi jadvaldagi qiymati $F_{\text{jad}}= 4.965$. Demak $F_{\text{fak}} > F_{\text{jad}}$. Shuning uchun tuzilgan model statistik ma'nodor deb hisoblashimiz mumkin.

Tuzilgan chiziqli regressiya modeli parametrlarini Student T me'zoni bo'yicha tekshiramiz. Bu parametrlarning Student T qiymati $t(a)=-4,54$ $t(b)=79,50$ $t@=79,50$ ko'rinishda ekan, Student T me'zoning 0.95 aniqlikdagi $k=10$ dagi jadval qiymati $T_{\text{jadval}}=1,8124$ ga teng. Demak tuzilgan model parametrlari ishonchli ekan.

Modelimizning grafigi quyidagicha tasvirlandi:



Xulosa: Tuzilgan modelimizni prognoz qiymati agar aholi daromadi 300 000 ni tashkil qilsa, yalpi ichki mahsulot 417 349,14 ni tashkil qiladi deb prognoz qilish mumkin.

Yillar	Aholi daromadlari - so'mda X	Joriy narxlarida ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, milliy valyutada, mlrd. so'm Y	x*y	x^2	y^2	(y-y^2)/y
2011	85933,5	103 232,6	8871132992	7 384 559 894	100077,6635	0,030561248
2012	104263,0	127 590,2	13302944972	10 870 780 111	127244,2173	0,002711949
2013	126268,0	153 311,3	19358311485	15 943 600 904	159858,0933	0,042702374
2014	146392,9	186 829,5	27350514386	21 430 885 455	189685,595	0,015287198
2015	169344,3	221 350,9	37484512347	28 677 489 137	223702,2018	0,010622482
2016	197962,4	255 421,9	50563935959	39 189 129 151	266117,6273	0,041874902
2017	236893,1	317 476,4	75207976839	56 118 364 017	323817,4543	0,019973408
2018	300685,8	426 641,0	1,28285E+11	90 411 973 458	418365,6301	0,019396462
2019	365598,3	532 712,5	1,94759E+11	133 662 120 083	514573,4443	0,034050388
2020	414968,7	605 514,9	2,5127E+11	172 199 039 197	587746,1362	0,02934486
2021	519181,4	738 425,2	3,83377E+11	269 549 317 522	742201,4194	0,005113819
2022	633567,4	896 617,9	5,68068E+11	401 407 672 452	911734,7961	0,016859913
summa	3 301 059	4 565 124	1 757 897 283 030	1 246 844 931 380	4 565 124	0,268499003
o'rtacha	275 088	380 427	146 491 440 253	103903744281,69	380 427	0,02
R(xy)	0,999209937		sigma qoldiq	10850,0843		
b	1,482116155		m(b)	0,018641699		
a	-27285,70879		m(a)	6008,984687	x	300 000,00
y=1,4821x-27286			m@	0,012567821	y	417 349,14
Elastiklik	1,071723897		t(b)	79,50542125		
Aproksimatsiya xatoligi	2,237491691		t(a)	-4,540818492		
Fisher me'zoni	6321,112008		t@	79,50542125		
Fisher jadvali	4,964602744		Student jad	1,812461123		

Bundan ko'rinadiki, aholi daromadlari oshishi yalpi ichki mahsulot hajmini ortishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.I.Mustafaqulov, H.N.Sabirov. Ekonometrika 1. O‘quv qo‘llanma.-T.: “Ilm-fan va innovatsiya” 2022, 232b.
2. Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmansur o‘g‘li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 328–332. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.454>
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING YAIMDAGI ULUSHI VA HUDUDLAR
BO‘YICHA DAROMADLAR ORASIDAGI BOG‘LIQLIK EKONOMETRIK TAHLILI****Nuritdinov Jalolxon,**

Qo‘qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o‘qituvchisi

Xoshimov Islomjon

Qo‘qon Universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekonometrika masalalarini o‘rganib chiqilgan bo‘lib, ularni amaliyotda qo‘llash hamda hozir kundagi dolzarb masalalarni ishlab chiqish haqida jarayonlar keltirilgan. Maqolada ekonometrik masalalardan biri sifatida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi va hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar orasidagi bog‘liqlik ekonometrik tahlili ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ekonometrika, Regressiya parametrlari, Student mezon, Fisher mezon, aproksimatsiya hatoligi, elastiklik, juft korrelyatsiya, korrelyatsion bog‘lanish.

KIRISH.

Ekonometrika fani ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning ekonometrik modellarini tuzish, tuzilgan modellar yordamida iqtisodiy subyektlar holatini tahlil qilish va tahlil natijalari asosida optimal qarorlar qabul qilishni, tuzilgan modellarni turli xil mezonlar asosida tekshirish va ularni tadbiq qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilishni o‘rganadi.

Mamlakatimizda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarni yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish va bu jarayonlarda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro‘y berayotgan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘zining aniq ifodasini topmoqda.

ASOSIY QISM.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi va hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar orasidagi bog‘liqlik 2000-2022-yillar orasidagi bog‘lanishlar ekonometrik tahlili ko‘rib chiqildi unga ko‘ra ma‘lumotlar quyidagicha berilgan. Berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra 2 ta o‘zgaruvchi 23 ta kuzatuv mavjud. Tadqiqotda Y sifatida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar, X sifatida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi olindi.

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi X	Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari, ming so‘m Y
2000	31	96,4
2001	33,8	144,4
2002	34,6	205,6
2003	35	253,8
2004	35,6	297,8
2005	38,2	371,8
2006	42,1	489,1
2007	45,7	628
2008	48,2	838,6
2009	50,1	1111,5
2010	60,8	2192,8
2011	61,9	2928,9
2012	60,8	3501,8
2013	60,9	4175,1
2014	61,9	4759,6
2015	64,6	5410,6
2016	66,8	6215,9
2017	65,3	7314,1
2018	62,4	9128,6
2019	56	10891,3
2020	54,8	12122,2
2021	54,1	14869,8
2022	51,8	17807,3
r(xy)		0,499599296
b		218,701324
a		-6588,053805

Berilgan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $r(xy)=0.499$ ga teng. Demak bu o‘zgaruvchilar to‘g‘ri va o‘rtacha bog‘lanishga ega. Berilgan o‘zgaruvchilar bog‘lanishini ifodolovchi to‘g‘ri chiziqli modelning ko‘rinishi $y=218,701324x-6588,053805$ ga teng. Demak, x o‘zgaruvchi 1 birlikka ortsa, y o‘zgaruvchi 218,701 birlikka ortar ekan.

A	189,2048449
E	2,432795022
F	6,985054364
F(jadval)	4,324793743


Tuzilgan modelning Aproksimatsiya xatoligi $A=189,2048449$ ga teng. Demak, model yaroqli emas. Chunki, Aproksimatsiya xatoligi 12% dan oshmasligi lozim. Aks xolda model haqiqiy va ma'lumotlarga mos kelmaydi va sifatsiz hisoblanadi. Tuzilgan modelning elastiklik koeffitsienti $E=2,432795022$ ga teng. Demak x 1% ga ortsa y 2,43% ga ortar ekan Fisherning mezoni

ko'rsatkichi $F=6,985054364$ ga teng. $P=0,95$ va $k_1=1, k_2=21$ bo'lgandagi Fisher jadval qiymati $F(\text{jadval})=4,324793743$ ga teng. Demak, $F > F(\text{jadval})$ model statistik ma'nodor ekan.

Sigma(qoldiq)	4595,179
M(a)	4339,569
M(b)	82,74972
M(rxy)	0,189033
t(a)	-1,51814
t(b)	2,642925
t(rxy)	2,642925
T(jadval)	1,720743

Tuzilgan chiziqli regressiya modeli parametrlarini Student T me'zoni bo'yicha tekshiramiz. Bu parametrlarning Student T qiymati $t(a)=-1,51$ $t(b)=2,64$ $t(rxy)=2,64$ ko'rinishda ekan, Student T me'zoning 0.95 aniqlikdagi $k=21$ dagi jadval qiymati $T_{\text{jadval}}=1,720743$ ga teng. Demak tuzilgan model parametrlari ishonchli ekan.

Modelning grafigi quyidagicha tasvirlandi:



Xulosa: Tuzilgan model prognoz qiymati agar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi soni 100 ni tashkil qilsa, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar 15282,1 ni tashkil qiladi.

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi X	Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari, ming so'm Y	$x \cdot y$	x^2	y^2	$y(x)$	$ y-y(x) /y $	$(y-y(x))^2$	$x-x^2$
2015	64,6	5410,6	349524,8	4173,16	2,9E+07	7540,05	0,393570348	4534564,64	180,961
2016	66,8	6215,9	415222,1	4462,24	3,9E+07	8021,19	0,290431737	3259088,72	244,991
2017	65,3	7314,1	477610,7	4264,09	5,3E+07	7693,14	0,051823553	143673,33	200,284
2018	62,4	9128,6	569624,6	3893,76	8,3E+07	7058,91	0,226726025	4283621,62	126,611
2019	56	10891,3	609912,8	3136	1,2E+08	5659,22	0,48039074	27374657,6	23,5436
2020	54,8	12122,2	664296,6	3003,04	1,5E+08	5396,78	0,554802037	45231291	13,3384
2021	54,1	14869,8	804456,2	2926,81	2,2E+08	5243,69	0,647359896	92662035,7	8,71533
2022	51,8	17807,3	922418,1	2683,24	3,2E+08	4740,67	0,733779137	170736695	0,42533
Summa	1176,4	105755	6083547	63254	1,1E+09	105755	43,51711432	443428989	3083,7
O'rtacha	51,14782609	4598,043478	264502	2750,17	4,7E+07	4598,04	1,892048449	19279521,3	134,074
Sigma (x)	11,57902412								
Sigma (y)	5068,757954	Sigma(qoldiq)	4595,179			prognoz			
r(xy)	0,499599296	M(a)	4339,569		x	100			
b	218,701324	M(b)	82,74972		y	15282,1			
a	-6588,053805	M(rxy)	0,189033						
A	189,2048449	t(a)	-1,518136						
E	2,432795022	t(b)	2,642925						
F	6,985054364	t(rxy)	2,642925						
F(jadval)	4,324793743	T(jadval)	1,720743						

Bundan ko'rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi soni oshishi hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning ortishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulev D., Nurullaeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma.
2. Sh.I.Mustafaqulov, H.N.Sabirov. Ekonometrika 1. O'quv qo'llanma.
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

**DEMOGRAFIK KO‘RSATKICHLAR VA ISHSIZLIK ORASIDAGI BOG‘LIQLIKNING
EKONOMETRIK TAHLILI****Nuritdinov Jalolxon,**

Qo‘qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o‘qituvchisi

Xolmatov Umidjon

Qo‘qon Universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi aholi sonining 2000-2022-yillar orasidagi soni va shu yillardagi O‘zbekistondagi ishsizlikni bir -biriga ta’siri yoritiladi. Bilamizki bugungi kunda texnika-texnologiya va suniy intellekt tobora rivojlanib ko‘plab sohadalar robotlashib, inson resurslariga bo‘lgan talab ham kamayib ketmoqda. Bundan tashqari esa aholi soni ham tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ham ushbu statistik ko‘rsatkichlar ustida tadqiqot olib borildi, va bir nechta misollar yordamida yaqin kelajakdagi aholi soni va ishsizlik ko‘lami aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Korrelatsion tahlil, model parametrlari, juft korrelatsion bog‘lanish, aproksimatsiya xatoligi, Fisher me‘zoni, elastiklik koeffitsienti, Styudent-T mezon.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasidagi 2000-2022-yillardagi aholi soni va ishsizlikning bir-biriga ta’siri o‘rganiladi va kelasi yillarda uchrashi mumkin bo‘lgan ishsizlik darajasi aniqlanadi. Buning uchun avvalo ishsizlik va qolgan iboralarga qisqacha ta’rif berib o‘tamiz.

Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O‘zbekistonda Ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me‘yoriy kuchga ega bo‘ldi.

Aholi sonining o‘shishi — aholi yoki tarqoq guruhdagi odamlar sonining ko‘payishidir. Dunyo aholisining o‘shishi har yili taxminan 83 million kishini yoki yiliga 1,1 % ni tashkil qiladi. Dunyo aholisi 1800-yildagi 1 milliarddan 2020-yilda 7,9 milliardga o‘tdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognozlariga ko‘ra, aholi soni o‘shishda davom etadi va hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yil o‘rtalarida umumiy aholi soni 8,6 milliard, 2050-yil o‘rtalarida 9,8 milliard va 2100-yilga kelib 11,2 milliardni tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Endilikda mamlakat iqtisodiyotida demografik o‘shishni va ishsizlik darajasiga ta’siri doirasida aniq statistik ma’lumotlar orqali tahlil qilib chiqamiz. Ushbu tadqiqotda 2000-yil va 2022-yillardagi aholining soni va ishsizlik darajasini bir -biriga qay darajada bog‘langanligini aniqlash uchun avvalo korrelatsiya koeffitsienti aniqlab olinadi. $r(xy)=0.929$ ga teng ekan. Demak bu bog‘lanishimiz to‘g‘ri va kuchli bog‘langan.

Aholi soni (y) va ishsizlik (x) ning regression chiziqli modeli quyidagi ko‘rinishga :
 $y=34449,06*x+508123,59$

Demak ishsizlik(x) darajasi bir birlikka o‘zgarsa aholi soni 34449.06 ga o‘zgaradi. Keyingi bosqichda esa o‘zgaruvchilarning elastiklik koeffitsienti aniqlanadi.

$E=0.2379$ ga teng bo‘ldi. Demak aholi soni (y) 1%ga o‘zgarsa ishsizlik (x) 0.2379% ga o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarni 1-jadval orqali ko‘rishingiz mumkin:

	A	B	C	D	E
5		O'zbekistonda 2000-2023-			
6		yillar orasida tug'ilganlar			
7	Yillar	soni ,kishi (Y)	Ishsizlik darajasi (X)	$x*y$	x^2
8	2000	527 580	0,4	207091,4131	0,15408045
9	2001	512 950	0,4	209686,8698	0,16710614
10	2002	532 511	0,4	197820,009	0,13800133
11	2003	508 457	0,3	170169,1619	0,11200909
12	2004	540 381	0,4	189626,4331	0,12313956
13	2005	533 530	0,3	144549,8924	0,07340368
14	2006	555 946	0,2	135111,9657	0,05906394
15	2007	608 917	5,0	3038333,728	24,8974433
16	2008	646 096	4,9	3161126,761	23,9381023
17	2009	651 320	5,0	3283489,233	25,4145465
18	2010	634 810	5,4	3427974	29,16
19	2011	622 835	5,0	3114175	25
20	2012	625 106	4,9	3063019,4	24,01
21	2013	679 519	4,9	3302349,801	23,6179902
22	2014	718 036	5,1	3652544,404	25,8760851
23	2015	734 141	5,2	3782764,19	26,5496977
24	2016	726 170	5,2	3749337,346	26,6582987
25	2017	715 519	5,8	4150010,2	33,64
26	2018	768 520	9,3	7147236	86,49
27	2019	814 960	9,0	7334640	81
28	2020	841 817	10,5	8839078,5	110,25
29	2021	905 211	9,6	8712416,458	92,6355337
30	2022	932 217	8,9	8261065,455	78,5304506
31	Summa	15 336 549	106	79 273 616	738
32	O'rtacha	666 806	5	3 446 679	32
33	$r(xy)$	0,929119244			
34	b	34449,06459			
35	a	508123,5985			
36		$y=34449,06*x+508123,59$			
37	E	0,237974412			

(1-jadval)

Endi esa tuzilgan modelni sifatli va yaroqliligini aniqlash uchun Aproksimatsiya xatoligini topamiz : $A=5,184$ ga teng bo‘ldi. Aproksimatsiya xatoligi 12%dan oshib ketmaganligi uchun bu model sifatli hisoblanadi va qolgan parametrlarni aniqlashni davom ettiramiz. Tuzilgan modelning statistik ma‘nodorligini tekshirish maqsadida **Fisher mezonini** hisoblaymiz $F_{\text{fakt}}=255.76$. Bu javobni Fisher jadvalidagi son bilan tekshirib ko‘ramiz: $F_{\text{jadval}}=4.324$ ekan. $F_{\text{fakt}} > F_{\text{jadval}}$, demak tuzgan modelimiz statistik jihatdan ham ma‘nodor ekan.


Bundan keyingi bosqichda tuzilgan chiziqli regressiya modeli parametrlarini ishonchligini aniqlash uchun **Student -T** me‘zoni bo‘yicha tekshiramiz. Bu parametrlarning **Student -T** qiymati $t(a)=0.000635$, $t(b)=0.000234$, $t(r)=11.51$ ga teng bo‘ldi. Tuzilgan modelning ishonchligini tekshirish uchun t_{jadval} ni topamiz. $T_{\text{jadval}} = 1.72$ ga teng ekan. Ushbu modelimizni ishonchlik darajasi $t(a)$ va $t(b)$ parametrlarda past, lekin $t(r)$ parametrimizda yuqori chiqdi.

2- jadvalda tuzgan modelimiz ustida olib borilgan ishlarimizni ko‘rishingiz mumkin:

Yillar	O'zbekistonda 2000-2023-yillar orasida tug'ilganlar soni, kishi (Y)	Ishsizlik darajasi (X)	x*y	x^2	y(x)	[(y-x)/y]	(y-x)^2	(x-x_)^2
2000	527 580	0,4	207091,4131	0,15408045	521645,9183	0,011247738	35 213 326	17,8
2001	512 950	0,4	209686,8698	0,16710614	522205,9	0,018044449	85 671 684	17,6
2002	532 511	0,4	197820,009	0,13800133	520920,9196	0,02176496	134 329 963	17,9
2003	508 457	0,3	170169,1619	0,11200909	519652,9283	0,02201942	125 348 811	18,2
2004	540 381	0,4	189626,4331	0,12313956	520212,205	0,037323287	406 780 293	18,1
2005	533 530	0,3	144549,8924	0,07340368	517456,923	0,030125911	258 343 806	18,8
2006	585 946	0,2	135111,9657	0,05906394	516495,7801	0,070960525	1 556 319 853	19,0
2007	608 917	5,0	303833,728	24,8974433	680015,26	0,116761825	5 054 962 578	0,1
2008	646 096	4,9	3161126,761	23,9381023	676671,0899	0,047322828	934 836 120	0,1
2009	651 320	5,0	3283489,233	25,4145465	681791,1239	0,046783645	928 489 394	0,2
2010	634 810	5,4	3427974	29,16	694148,5473	0,0934745	3 521 063 197	0,6
2011	622 835	5,0	3114175	25	680368,9215	0,092374259	3 310 152 121	0,2
2012	625 106	4,9	3063019,4	24,01	676924,015	0,082894765	2 685 106 680	0,1
2013	679 519	4,9	3302349,801	23,6179902	675540,3471	0,005855102	15 829 679	0,1
2014	718 036	5,1	3652544,404	25,8760851	683360,9656	0,048291498	1 202 358 010	0,2
2015	734 141	5,2	3782764,19	26,5496977	685627,2224	0,066082371	2 353 586 620	0,3
2016	726 170	5,2	3749337,346	26,6582987	685989,8893	0,055331549	1 614 441 293	0,3
2017	715 519	5,8	4150010,2	33,64	707928,1731	0,01060884	57 620 652	1,4
2018	768 520	9,3	7147236	86,49	828499,8992	0,078045983	3 597 588 309	22,0
2019	814 960	9,0	7334640	81	818165,1798	0,009932929	10 273 178	19,3
2020	841 817	10,5	8839078,5	110,25	869838,7767	0,033287254	785 219 970	34,7
2021	905 211	9,6	8712416,458	92,6355337	839686,7339	0,072385627	4 293 429 454	25,2
2022	932 217	8,9	8261065,455	78,5304506	813402,2809	0,127453929	14 116 937 478	18,1
Summa	15 336 549	106	79 273 616	738	15 336 549	1	47 083 902 470	250
O'rtacha	666 806	5	3 446 679	32	666 806	0,051842313	2 047 126 194	11
r(xy)	0,929119244	Sigma qoldiq	2242090594					
b	34449,06459	m(b)	141666321,2					
a	508123,5985	m(a)	802742883					
9,06*x+508123,59		m(r)	0,080692665					
E	0,237974412	t(b)	0,00024317					
A	5,184231276	t(a)	0,000632984					
F mezon	255,7607314	t(r)	11,51429616					
F jadval	4,324793743	t(jadval)	1,720742903					

(2-jadval)

3- jadvalda esa modelimizni grafigi, aniq miqdoriga korrelatsiya chizig'ini qay darajada yaqin kelishini ko'rishingiz mumkin.


(3-jadval)

Yuqoridagi ishlab chiqqan modelimizga asosan ,agar O‘zbekistonda aholi soni $(y)=1197105$ nafar bo‘lsa ,ishsizlik darajasi(x) 20%ni tashkil qilar ekan.

x	20
y	1197104,89

(4-jadval)

Xulosa qilib aytganda biz ekonometrik taxlillar qilish mobaynida har qanday soha uchun yaqin kelajakda savdo yoki ishlab chiqarish hajmi yoki bo‘lmasa aholi daromadlari va uy -joy bilan ta‘minlanish ko‘rsatgichlarini prognoz qilsak bo‘ladi.To‘g‘ri Ekonometrika fani O‘zbekistonda hali unchalik rivojlanmagan , hatto bu fan haqida umuman eshitmaqanlar ham bor.Lekin yaqin kelajakda ushbu fandan davlat idora va korxonalari va xususiy korxonona va tashkilotlar ham katta ko‘lamda foydalanadi,albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi axborot veb-sayti
2. Sh.I.Mustafakulov,H.N.Sabirov,Ekonometrika O‘quv qo‘llanma
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
4. Habibullayev.I. Iqtisodiy matematik usullar va modellar:O‘quv qo‘llanma
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi_sonining_o%CA%BBsishi
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishsizlik>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ SIYOSATINI IQTISODIY VA IJTIMOY
RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI****Nusratullayev Burxonjon Baxromjon o‘g‘li**

Qo‘qon Universiteti, Turizm va iqtisodiyot kafedrası

Moliya yo‘nalishi 4-kurs talabasi

[Gmail:burxonjon505@gmail.com](mailto:burxonjon505@gmail.com)

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotning asosiy maqsadi uning samaradorligini nazariy va amaliy nuqtai nazardan kengaytirish, sohadagi tushunchalarniyanaada boyitishdir. Bu soliq tizimini modernizatsiya qilishning potentsial usullarini batafsil tahlil qilish, soliq bilan bog‘liq mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha tavsiyalar berish, xulosalar ishlab chiqish va iqtisodiyotni tartibli rivojlantirish uchun soliq siyosatining samarali fiskal mexanizmidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Yakuniy maqsad bilimga asoslangan innovatsion iqtisodiyot asosida uzoq muddatli stsenariylarni shakllantirish, farovon va ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat barpo etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, fiskal mexanizm, innovatsion iqtisodiyot, uzoq muddatli stsenariylar, ijtimoiy orientatsiya

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida soliq siyosatining o‘rni, mamlakatimiz ko‘plab davlatlar singari, soliq siyosatidan o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy manzarasiga ta‘sir ko‘rsatishning hal qiluvchi vositasi sifatida foydalanadi. Ushbu kirish bobida soliq siyosati O‘zbekiston taraqqiyotida qanday ko‘p qirrali rol o‘ynashi ko‘rib chiqiladi. Biz soliq siyosatining iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish usullarini o‘rganishdan boshlaymiz. Bunda soliq imtiyozlari tadbirkorlikni qanday rag‘batlantirish, xorijiy sarmoyani jalb qilish va muayyan tarmoqlarni rivojlantirishni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Soliq tuzilmalarining O‘zbekiston iqtisodiyotida resurslar taqsimoti va samaradorligiga qanday ta‘sir qilishi mumkinligini tahlil qilamiz. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot kabi ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun soliq tushumlari qanday ishlatilishini o‘rganamiz. Soliq adolati tushunchasi va uning daromadlar tengsizligiga ta‘siri ham ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston soliq siyosatining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatlarini o‘rganib, uning mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyatini har tomonlama tushunishga qaratilgan. O‘zbekiston soliq tizimi oldida turgan asosiy vazifalar va imkoniyatlarni bayon qilish bilan yakunlaymiz.

Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz Prezidenti soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 26.09.2019 yildagi PF-5837-son farmonida ham ko‘rishimiz mumkin¹. O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishdagi nomutanosibliklarni qisqartirish bo‘yicha choralar amalga oshirildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2019 yildagi PF-5837-son, <https://lex.uz/docs/-4529995>

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida soliq siyosatining rolini tahlil qilish soliqqa tortish tuzilmasi, soliq yig‘ish samaradorligi, tadbirkorlik sub’ektlariga ta’siri, investitsiya muhiti, davlat daromadlarini shakllantirish, ijtimoiy ta’minot dasturlari kabi turli jihatlarni o‘rganishni nazarda tutadi. Bu omillarning har biri O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishini quyida ko‘rib chiqamiz:

Soliq tuzilmasi O‘zbekistondagi soliqqa tortish tuzilmasi daromad solig‘i, yuridik shaxslar solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), mol-mulk solig‘i, bojxona to‘lovlari kabi turli soliqlarni o‘z ichiga oladi. Soliq yukining turli tarmoqlar va daromadlar guruhlari bo‘yicha taqsimlanishini tahlil qilish adolatni ta’minlash uchun zarurdir.

Soliq undirish samaradorligi soliq yig‘ish mexanizmlari davlat xizmatlarini va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun davlatning yetarli daromad olishini ta’minlaydi. Buning uchun samarali ma’murchilik, soliq qonunchiligining ijrosini ta’minlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashdan qochishga qarshi kurashish choralarini ko‘rish zarur.

Soliq siyosati biznes yuritish xarajatlari, investitsiya qarorlari va umumiy raqobatbardoshlikka ta’sir qilish orqali biznes muhitiga bevosita ta’sir qiladi. Yuqori soliq stavkalari yoki murakkab soliq qoidalari tadbirkorlikni to‘xtatib, biznesning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin, yaxshi ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari esa investitsiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin.

Investitsion muhit qulay soliq siyosati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va soliqni ayrim tarmoqlar yoki hududlar uchun soliq stavkalarini pasaytirish va soddalashtirilgan soliq tartib-qoidalarini taqdim etish orqali ichki investitsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin. Soliq siyosatining investitsion muhitga ta’sirini baholash iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun juda muhimdir.

Davlat daromadlarini shakllantirishda soliq tushumlari davlat daromadlarining muhim manbai bo‘lib, u ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va ijtimoiy ta’minot dasturlariga davlat xarajatlarini moliyalashtiradi. Turli soliqlarning davlat daromadlariga qo‘shgan hissasini va ularning uzoq muddatda barqarorligini tahlil qilish fiskal rejalashtirish va byudjetni boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy ta’minot dasturlarida soliq siyosati pul o‘tkazmalari, subsidiyalar va sog‘liqni saqlash xizmatlari kabi ijtimoiy ta’minot dasturlari orqali daromadlarni qayta taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu dasturlarning qashshoqlikni yumshatish uchun ahamiyatlidir, muhim xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash va ijtimoiy hamjihatlikni rag‘batlantirishdagi samaradorligini baholash inklyuziv rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida soliq siyosatining rolini tahlil qilishda mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, institutsional salohiyati va rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olish muhimdir. Siyosat bo‘yicha tavsiyalar soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, investitsiyalar uchun qulay bo‘lgan qoidalarni ilgari surish, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini kuchaytirish va fiskal boshqaruvda shaffoflik ta’minlashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati ham iqtisodiy, ham ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Soliqqa tortishning turli jabhalarini, jumladan, uning tuzilishi, undirish samaradorligi, biznes va investitsiya muhitiga ta‘siri, daromadlar hosil qilish va ijtimoiy ta‘minot dasturlarini qo‘llab-quvvatlashni tahlil qilish orqali ko‘rinib turibdiki, soliq siyosati mamlakatning rivojlanish traektoriyasini sezilarli darajada shakllantiradi.

O‘zbekistonning soliq siyosati biznes muhitiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, investitsiya qarorlari, tadbirkorlik va umumiy raqobatbardoshlikka ta‘sir qiladi. Ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari investitsiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin, og‘ir soliq rejimlari esa iqtisodiy o‘shishni to‘xtatishi mumkin. Bundan tashqari, soliq yig‘ish mexanizmlarining samaradorligi hukumatning muhim davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun yetarli daromad olishini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, soliq siyosati ijtimoiy farovonlik dasturlariga chuqur ta‘sir ko‘rsatib, qashshoqlikni bartaraf etishga, sog‘liqni saqlash va ta‘limdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga va umumiy ijtimoiy birdamlikka hissa qo‘shadi. Daromadlarni qayta taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirish orqali soliq siyosati inklyuziv rivojlanishga yordam berishi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu kuzatishlarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston o‘zining rivojlanish maqsadlariga yanada mos kelishi uchun soliq siyosatini baholash va takomillashtirishni davom ettirishi zarur. Bu soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, investitsiyalar uchun qulay bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni ilgari surish, ijtimoiy himoya tarmoqlarini kuchaytirish va fiskal boshqaruvda shaffoflik ta‘minlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu orqali O‘zbekiston barqaror iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlash uchun soliq siyosatining barcha imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘aniyeva Xumora Baxtiyor qizi, O‘roqov Uchqun Yunusovich. Davlat maqsadli jamg‘armalarining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va so‘ngi yillardagi o‘zgarishlar. Journal of new century innovations. Volume –6_Issue-7_Iyun_2022
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. Toshkent: "Noshir", 2011-712 b.
3. Б.К.Гайибназаров, Н.Х.Хайдаров. Объективная статистика-барометр отражения социально-экономического развития страны. 2019
4. G.G.Nazarova, N.X.Haydarov, M.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. -T.: MChJ "RAM-S", 2007
5. G.G.Nazarova, N.X.Haydarov. International economic relations. Educational Manual. TDIU, 2005
6. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet –soliq siyosati. –T.: Sharq. 2011 -472 b.
7. T.Malikov, N.Haydarov. Davlat byudjeti. T.: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
8. T.Malikov, N.Haydarov. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. 2007
9. Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. T.: Iqtisod-moliya, 2009

10. N.Xaydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. Toshkent: Akademiya, 2007
11. Uroqov Uchqun, Yuldasheva Nadira, Nuritdinova Vasila, Tukhtabayeva Sogdiana. Budgetary methods for local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/ S20201165
12. У.Ю. Уроков. Пути повышения независимости местных бюджетов. Автореферат доктора философских наук, 2020
13. Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019
14. Urokov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. Journal of Hunan University (Natural Sciences) Vol. 48. No. 12. December 2021
15. Уроков У.Ю., Юлдашева Н.В. Пути повышения финансовой самостоятельности местных бюджетов Республики Узбекистан // Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. No 3(226).
16. U.Yu. O„roqov, J.A.Yomg,irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta„minlash masalalari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022
17. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизими: кеча ва бугун. «Бозор, пул ва кредит» журнали, 8-сон, 2018 й.
18. U.O„roqov, Sh.A.Rayimqulova. O„zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalari. Science and Education, 2022
19. U. O„roqov, Tursunova Zulayho Abdujobir qizi. O„zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko„rsatish kafolat jamg„armasining o„rni. Science and Education, 2022
20. O„roqov Uchqun Yunusovich, Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg„armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. Science and Education, 2022
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2019 yildagi PF-5837-son, <https://lex.uz/docs/-4529995>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA EXPORTNING O‘RNI**Nusratullayev Burxonjon Baxromjon o‘g‘li**

Qo‘qon Universiteti Turizm va iqtisodiyot kafedrası

Moliya yo‘nalishi 4-kurs talabasi

[Gmail:burxonjon505@gmail.com](mailto:burxonjon505@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi doirasidagi eksport hajmi o‘rganiladi. Tadqiqotda eksportning iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish va jahon bozorida mamlakat raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati o‘rganiladi va asosiy eksport tarmoqlarini aniqlanadi, eksport ko‘rsatkichlariga ta‘sir etuvchi omillarni, jumladan hukumat siyosati, savdo kelishuvlari va jahon bozori dinamikasini o‘rganiladi. Bundan tashqari, eksport faoliyatining umumiy savdo balansiga, valyuta zaxiralariga va milliy iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rganiladi. Eksport hajmlari dinamikasini tushungan holda siyosatchilar eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni qo‘llab-quvvatlash, savdo infratuzilmasini yaxshilash va O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

Kalit so‘zlar: eksport hajmi, tashqi savdo aylanmasi, iqtisodiy o‘shish, xalqaro savdo, eksport tarmoqlari, hukumat siyosati, savdo shartnomalari, jahon bozori dinamikasi.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida eksportning hajmi katta ahamiyatga ega, chunki bu davlatning iqtisodiy o‘shishining keyingi bosqichiga yo‘l ochadi va mamlakatning kengayishi xususan, moliyaviy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhimdir. O‘zbekistonning exportining hajmi mavzuga kirish uchun bir nechta muhim sabablari mavjud.

- Birinchi navbatda, bu mamlakatning iqtisodiy diversifikatsiyasini oshirish, yangi bozorlarga kirish va moliyaviy istiqbollarni yaratish imkoniyatini shakllanishiga yordam beradi. Xususan, xorijiy savdo tovarlarining eksporti, mamlakatning xususiy kapitalni foydalanishini oshiradi va xususiy korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiradi.

- Ikkinchisi, tashqi savdo aylanmasida eksportning hajmi O‘zbekistonning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Export daromadlarining ko‘payishi mamlakatning moliyaviy xavfsizlik darajasini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi. Bu esa, investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy turmush tarzini mustahkamlashda yordam beradi.

- Uchinchi sabab, tashqi savdo aylanmasida eksportning hajmi O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda o‘z o‘rnini oshirishga yordam beradi. Eksportning ko‘payishi bilan O‘zbekiston xalqaro bozorlarda keng qamrovli tan olishadi va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qaroriga muvofiq¹, Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarining bir

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-4806730>

qismini kompensatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan subsidiyalar taqdim etiladigan mahsulotlar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, subsidiyalar taqdim etish miqdorlarini belgilash, shuningdek, mahsulot eksport yo‘nalishiga qarab subsidiyaning qat‘iy miqdorlarini belgilash vakolati berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilingan.

Quyidagi jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar 2015 yildan 2022 yil oxirigacha tashqi savdoning export hajmi turli xil sohalar kesimida (mln AQSH dollar) yoritib beradi (1-jadval)².

Turlari	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Tovarlar va xizmatlar, tovarlar eksporti	12 507,6	12 094,6	12 553,7	13 990,7	17 458,7	15 102,3	16 662,8	19 293,7
Paxta	736,1	637,3	477,1	222,1	281,6	146,9	136,6	3,5
Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	613,0	841,1	883,7	905,3	878,1	873,2	1 225,3	1 426,2
Qora metallar	168,0	155,3	152,8	320,3	302,7	317,5	184,6	215,1
Rangli metallar	656,2	553,3	761,9	851,5	951,3	924,4	1 467,0	1 442,9
Energetika va neft mahsulotlari	2 685,2	1 713,8	1 607,6	2 666,8	2 528,9	659,0	914,8	1 215,2
Mashina va uskunalari	159,3	220,7	354,8	212,8	427,1	442,0	702,5	989,3
Oltin	1 920,6	2 807,6	3 260,0	2 909,5	4 918,3	5 804,4	4 109,8	4 110,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	1 316,4	694,5	875,9	1 097,8	1 529,9	1 443,8	1 471,8	1 823,5
Xizmatlarni eksport qilish	3 061,3	3 120,6	2 474,5	3 070,0	3 434,8	2 005,0	2 581,7	4 017,8
qurilish	77,6	63,8	37,1	36,7	41,9	42,3	14,6	9,8
Transport xizmatlari	1 465,9	1 511,4	1 600,7	1 687,9	1 765,7	1 426,1	1 744,1	1 765,9
Sayohat	1 187,5	1 252,5	546,9	1 041,1	1 313,0	255,8	422,1	1 609,8
Boshqa xizmatlar	330,3	292,9	289,8	304,3	314,2	280,8	400,9	632,4

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, mamlakatimizning tashqi savdoning export hajmini 12 ta yo‘nalishlar kesimida ko‘rishimiz mumkin, 2015 yilda ulardan eng yuqorisi O‘zbekistonning tovar

² O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

va xizmatlar eksporti hajmi jadvalda ko‘rsatilgan davrda sezilarli darajada oshdi, 2015-yildagi 13,2 milliard dollardan 2022-yilda 40,2 milliard dollarga yetdi. Tovarlar eksporti ham barqaror o‘shib bordi, 2015 yildagi 12,3 milliard dollardan 2022 yilda 36,4 milliard dollargacha. Jadvalda tovarlar eksporti toifalari bo‘yicha ham ajratilgan. Bu yerda sanab o‘tilgan asosiy toifalarning ba‘zilari, paxta tolasi, kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, qora metallar, rangli metallar, mashina va uskunalar, oltin, xizmatlar eksporti tovarlar eksportiga qaraganda ko‘proq o‘zgardi. U 2015-yildagi 0,9 milliard dollardan 2018-yilda 3,8 milliard dollarga ko‘paydi, keyin 2020-yilda 2,1 milliard dollargacha kamayib, 2022-yilda yana 3,8 milliard dollargacha ko‘tarildi. Jadvalda xizmatlar eksporti uchta toifaga ajratilgan: transport xizmatlari, turizm xizmatlari va boshqa xizmatlar.

Bu ko‘rsatkichlar 2018, 2019 va 2020 yillarda keskin pastlagani e‘tiborga molikdir. 2019 yilda boshlangan Covid19 pandemiyasi, albatta, tashqi savdo aylanmasi hajmiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Ma‘lumotlar faqat 2022 yilni qamrab oladi. Jumladan, 2024-yil yanvar oyida rasmiy statistic ma‘lumotga asosan, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 62,57 milliard dollarga, eksport esa 32,4 milliard dollarga yetgan.

12 ta tarmoq bo‘yicha eksport ma‘lumotlari tahlili ko‘rib chiqilayotgan davrda O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatmoqda. Shunisi e‘tiborga olish lozimki, O‘zbekistonning tovar va xizmatlar eksporti 2015 yildagi 13,2 milliard dollardan 2022 yilda 40,2 milliard dollargacha ko‘tarilib, sezilarli o‘shishni kuzatdi. Tovarlar eksporti ham barqaror o‘shish traektoriyasiga guvoh bo‘ldi va 2015 yildagi 12,3 milliard dollardan 36,4 milliard dollargacha ko‘tarildi. toifalar bo‘yicha tovarlar eksporti paxta mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va hosilalari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, qora metallar, rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va oltin kabi muhim tarmoqlarda sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatadi, xizmatlar eksporti esa sezilarli tebranishlarni ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining 2015-yildagi 0,9 milliard dollardan 2018-yilda 3,8 milliard dollarga oshgani, 2020-yilda 2,1 milliard dollarga tushib ketgani, 2022-yilda esa 3,8 milliard dollarga qaytganligi alohida qiziqish uyg‘otadi. eksport ko‘rsatkichlarini shakllantirishda bozor talabi, ob-havo sharoiti va ichki qishloq xo‘jaligi siyosati. Shuningdek, ma‘lumotlar O‘zbekistonning tashqi savdo dinamikasiga tashqi omillarning ta‘sirini ko‘rsatadi, 2018, 2019 va 2020-yillarda kuzatilgan keskin pasayish qisman 2019-yilda Covid-19 pandemiyasining boshlanishi bilan bog‘liq. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekiston tashqi savdosi o‘zini namoyon qildi. barqarorlik, 2022 yilda eksport ko‘rsatkichlarining sezilarli o‘shishidan dalolat beradi.

Kelgusiga yillarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, so‘nggi hisobotlar O‘zbekistonning tashqi savdo hajmining o‘shish sur‘atlari davom etayotganidan dalolat beradi, 2023-yilda tovar ayirboshlash 62,57 milliard dollarga, eksport hajmi esa 32,4 milliard dollarga yetdi. Bu mamlakatning global savdo aloqalarini kengaytirish va xalqaro bozorda paydo bo‘layotgan imkoniyatlardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan sa‘y-harakatlarini ta‘kidlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston tashqi savdo sektorining ajoyib o‘shishi va barqarorligini, ham eksport, ham importning sezilarli o‘shishini ta‘kidlaydi. Oldinga qarab, siyosatchilar global bozor tendensiyalarini kuzatishda davom etishlari, savdo sherikliklarini

mustahkamlashlari va O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshligi va barqarorligini yanada oshirish bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini yanadakengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 30.09.2022 yildagi PF-228-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 yanvar kuni PF-60 sonli «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmon
3. Yahyoyev Q. Soliq. T.: «Mehnat», 1997-y. 20-bet.
4. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996-y. 74-bet.
5. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000-y. 76-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari
7. Aktar, Most Asikha, Md Mahmudul Alam, and Abul Quasem Al-Amin. "Global economic crisis, energy use, CO2 emissions, and policy roadmap amid COVID-19." *Sustainable Production and Consumption* 26 (2021): 770-78
8. Curtale, Riccardo, et al. "Impact of COVID-19 on tourism demand in European regions-An analysis of the factors affecting loss in number of guest nights." *Annals of Tourism Research Empirical Insights* 4.2 (2023): 100112.
9. Lee, Lien-Chieh, et al. "Impact of COVID-19 on the economic loss and resource conservation of China’s tourism industry from the supply chain perspective." *Cities* 144 (2024): 104633.
10. Canh NP, Thanh SD. The dynamics of export diversification, economic complexity and economic growth cycles: Global evidence. *Foreign Trade Review*. 2022 Aug;57(3):234-60.
11. Отамуродов Ш. Ўзбекистон экспорти диверсификациясининг замонавий муаммолари. *Economics and Innovative Technologies*. 2022 Aug 30;10(4):355-64. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36
12. Отамуродов, Ш. (2022). ЎЗБЕКИСТОН САНОАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ЭКСПОРТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Iqtisodiyot Va ta’lim*, 23(6), 383–389. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a868
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-4806730>
14. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

RAQOBAT VA MONOPOLIYA

Odilzoda Gulsanam Anvarjon qizi

Qo‘qon universiteti, Moliya yo‘nalishi, birinchi bosqich talabasi

Odilzodagulsanam@gmail.com

Kalit so‘zlari: Raqobatning zarurligi, raqobat shakllari, narx vositasida raqobat va narxsiz raqobat, g‘irrom va xalol raqobat, monopoliya va monopoliya turlari, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada men “Raqobat va monopoliya” haqida talabalarga ma‘lumot bermoqchiman. Raqobat va monopolyaning jamiyat uchun afzalliklari va kamchiliklari, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishda raqobatning o‘rni va uning salbiy tomonlari bormi? Monopoliyaning iqtisodiyotga foyda va zararlari, hamda monopoliyaga qarshi kurashish uchun hozirgi kunda qanday choralar ko‘rilayotganligi haqida bilib olishimiz mumkin.

Bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri raqobat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o‘zining etuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat‘iy nazar raqobatning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o‘z shakllarini o‘zgartirib boradi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko‘rsatib, «Xalqaro tajribani o‘rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo‘lgan monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yo‘l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim. Bu borada tabiiy monopoliya va raqobat to‘g‘risidagi qonunlarni yangilash hamda iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi», deb ta‘kidlagan edilar. Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushinib olish unga turli tomondan yondashishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun iborat. Raqobat iste‘molchilar o‘rtasida ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya‘ni xaridorlar har bir sarflangan pul birligi evaziga ko‘proq nafilikka ega bo‘lishga harakat qiladilar. Arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadilar. Shunday qilib, raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy xodisa bo‘lib, u bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat- bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq nafilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat mavjud bo‘lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma‘lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir. Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) tartibga solish vazifasi; 2) resurslarni joylashtirish vazifasi; 3) innovatsion vazifasi; 4) moslashtirish vazifasi; 5) taqsimlash vazifasi; 6) nazorat qilish vazifasi. Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste‘mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta‘sir

o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya’ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi. {3,224} Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko‘psamara beradigan korxonalar, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi. Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti subyektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko‘rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxonalar (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shunchaki o‘zini-o‘zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo‘jalik faoliyati sohaslarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o‘tishini bildiradi. Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne‘matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot) ning iste‘molchilar o‘rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta‘sir o‘tkazadi. Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba‘zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o‘rnatishga yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltirilgan. Raqobat kurashining mazmuni to‘g‘risida to‘laroq tushunchaga ega bo‘lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko‘rib chiqish zarur. O‘z miqyosiga ko‘ra raqobat ikki turga-tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo‘linadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, yuqori foyda olish uchun bir tarmoq korxonalar o‘rtasida bo‘ladi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalar ishlayotgan ishchilarning malakasi, ularning texnika bilan ta‘minlanish va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo‘lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo‘lmaydi. Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalar o‘rtasida eng yuqori foyda normasiga erishish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitalarning foyda normasi kam bo‘lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o‘tishiga sabab bo‘ladi.

Yangi kapitallar ko‘proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko‘payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to‘rtta shakli alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bular sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir. Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko‘p sonli korxonalar mavjud bo‘ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko‘plab sotuvchilar o‘zlarini mahsulotlarini taklif qiladilar. Sof monopoliyada tarmoq bitta korxonalar yoki firmadan iborat bo‘lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy bo‘lib, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi. Monopolistik raqobat o‘zi ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadi. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqalashtirish,

ya’ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo’yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko’p bo’lmagan korxonalarining mavjud bo’lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisi bo’lib, qaysi tavarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda **g’irrom** va **halol** raqobatlashuv usullari ham ajratib ko’rsatilgan. Raqobatlashuvning noan’anaviy, jamiyat tomonidan e’tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya’ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarni obro’siga putir yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g’irrom raqobat deb yuritiladi. Halol raqobat- raqobat kurasida jamiyat tomomidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo’llash, o’zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo’llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi. Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi naqobat va narxsiz raqobat. {3,229}

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo’lib ishlab chiqaruvchilarning o’z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping narxlarni qo’llashdir.. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o’zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo’lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo’qotish, yangi bozorlarga kirib olish va undan o’zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi. Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning nafiligi, sifati, servis xizmat ko’rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro’-e’tibori hisoblanadi. Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo’lishi mumkin. Bunday xolatda yangi tovarlar sifatining oshishi va iste’mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarning oshishiga qaraganda tez ro’y beradi. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotning ko’payishi ularni sotishni rag’batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste’mol bozorlarida qo’shimcha xizmat ko’rsatish orqali xaridorlarni o’ziga jalb qilish keng tarqalmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyalarning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta’minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko’rib chiqishni taqazo etadi.

Monopoliya – monopol yuqori yoki monopol narxlar o’rnatish asosida monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari. «Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya’ni, grekcha “monoc”-yagona, bitta va “poleo”- sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi. Bozorni qamrab olish darajasiga ko’ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya. Sof monopoliya- tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. {1,248}. Oligapoliya- tarmoqdagi bir

necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste‘molchisi yoki xaridori mavjud bo‘lgan sharoitdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Monopoliyaning vujudga kelish sababi va tavsifigako‘ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun‘iy monopoliya farqlanadi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Legal (qonuniy) monopoliya- bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Sun‘iy monopoliya- monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi. Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 27 dekabrda “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilindi. {1,259}. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g‘irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to‘xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilinishini ta‘minlashga qaratilgan. Shuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo‘nalish, ya‘ni birinchidan, monopoliyaga qarshi tartribga solishning prinsipial yangi ko‘rinishi bo‘lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiiste‘mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko‘zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo‘lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo‘yilgan. Lekin bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan shart-sharoitlar va talablar o‘zgarib bu qonunlar asta sekinlik bilan o‘z kuchini yo‘qota boshladi. Shuning uchun 2012 yil 6 yanvarda yangi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, oldingi «Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi qonuni (1992 yil, avgust) hamda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni (1996 yil 27 dekabr) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblabdi. Qabul qilingan yangi qonun hamda keyingi yillarda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan Farmon va Qarorlar asosida tarmoqlarda monopol hisoblangan bir qancha uyushmalar tugatilib, o‘rnida mustaqil korxonalar vujudga keltirildi, bu esa raqobat muhitining yanada kuchayishiga olib keldi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagiraqobatbardoshligini ta‘minlash ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu sababli ham mamlakatimizda yaratilgan texnologiyalarning raqobatbardoshligini ta‘minlash, “nou-xau” namunalarini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini joriy etish, ya‘ni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta‘minlash bo‘yicha tizimli chora tadbirlarni amalga oshirib borish zarur bo‘ladi.

Xulosa: Raqobat bozor iqtisodiyotining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u bir tomondan, ishlab chiqarish munosabati sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Raqobat ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlashga imkon yaratadi. Buyuk iqtisodchi “Adam Smitning” fikricha, bozorning har bir ishtirokchisi o‘z shaxsiy manfaatlarini

qondirish yo'lida tinmay harakat qilib, o'zi bilmagan holda jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladi. (go'yo "ko'rinmas qo'l") orqali degan. Shunday ekan biz tinimsiz harakat qilsak ham o'zimiz uchun ham jamiyatimizga foydamiz tegadi. Raqobat bor joyda doim sifatli maxsulotlar chiqariladi va yana raqobat bor joyda doimo o'sish bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazaryasi darslik-T: nashriyot, 2020.
2. <https://arxiv.uz>
3. B.Y. Xodiyev, Sh.SH.Shodmonov Iqtisodiyot nazaryasi (Darslik).- T:"Barkamol fayz media", 2017, 784 bet.
4. Xursanaliyev, B. (2023). KICHIK VA YIRIK BIZNESNI BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 28-30.
5. Шоҳрузбек Равшан Ўғли Рузиёв, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3 (2), 617-629.
6. Hamidjon Rasulov, & Noila Musurmonqulova. (2024). TURIZM RIVOJLANISHIDA "YANGI O'ZBEKISTON" YOSHLARINING TUTGAN O'RNI. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 12(2), 190-195. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/2811>
7. Khurshid Gafurov. (2021). Economic Performance of Kazakhstan and Uzbekistan Since Independence: Impacts of Selected Economic Policies and Institutions. Conference paper: Uzbekistan on The Way to Third Renaissance: Harmony of Ethnocultural, Historical and Economic Aspects. «Innovatsion rivojlanish nashryoti. <https://doi.org/10.54613/001069>
8. Мелибаева, Г. (2021). Иқтисодий диверсификациялаш шароитида тижорат банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари. Общество и инновации, 2(4/S), 282-291.
9. Юсупов А.А. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ НА СУБЪЕКТАХ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnoe-ispolzovanie-chelovecheskih-resursov-na-subektah-malogo-predprinimatelstva> (дата обращения: 08.01.2024).

**УСИЛЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА: ПОДДЕРЖКА МОЛОДЕЖИ И БИЗНЕСА В
НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕФОРМАХ****Орзикулова Хуршида Нейматжоновна**

магистр Андижанского государственного университета

Аннотация. Статья посвящена вопросам, как поддержка молодежи и бизнеса влияет на экономический рост. Выявлены перспективные улучшения роли молодежи и бизнеса в национальных реформах. Определены подходы к разному участию молодежи и бизнеса в усилении экономического роста в быстроменяющемся мире.

Ключевые слова: молодежи, бизнес, экономический рост, национальная реформа, цифровизация.

2024 год объявлен в Узбекистане «Годом молодежи и поддержки бизнеса», сообщил Шавкат Мирзиёев. "Наша главная задача - прославить человеческое достоинство, обеспечить интересы нашего населения и для этого построить сильную экономику", - сказал он в своем новогоднем поздравлении. [1]

В истории нашего независимого государства мы неоднократно были свидетелями присвоения года, связанного с молодежью. Ведь молодежь всегда играла важную роль в становлении и развитии общества. Вот почему важно поддерживать и поощрять их активное участие в жизни и социально-экономическом развитии нашей страны. Объявление 2024 года «Годом молодежи и поддержки бизнеса» является продолжением исторической традиции признания неопределимой роли наших сыновей и дочерей в обществе.[2]

Согласно официальной статистике, молодежной группой считается население в возрасте от 14 до 30 лет. Они составляют 26,8% населения нашей страны. Этот период – самый ответственный период в жизни человека. [4]

Именно в это время человек вступает в самостоятельную жизнь, выбирает подходящую профессию и тип образования, учится, начинает работать, и период бракосочетания в основном совпадает с этим периодом.

С точки зрения здорового поколения, большое значение этого слоя создает основу для поднятия молодежной политики на государственный уровень в нашей стране.

Молодежь играет важную роль в усилении экономического роста, поскольку она представляет собой ключевой ресурс для инноваций, развития бизнеса и устойчивого экономического развития. Вот несколько основных аспектов роли молодежи в этом контексте:

➤ **Инновации и технологии:** Молодые люди часто обладают креативностью, новаторским мышлением и технологическими навыками, что делает их ключевым источником новых идей, технологических разработок и стартапов. Их участие в инновационных проектах способствует развитию новых отраслей и повышению конкурентоспособности экономики.

➤ **Предпринимательство:** Молодые предприниматели играют важную роль в развитии бизнеса и создании рабочих мест. Они осуществляют запуск новых компаний, развивают инновационные продукты и услуги, а также привносят новые подходы к управлению и маркетингу.

➤ **Образование и навыки:** Инвестиции в образование молодежи и развитие их навыков являются ключевыми для подготовки квалифицированной рабочей силы на будущее. Молодые люди с высоким уровнем образования и специализированными навыками способствуют росту производительности труда и инновационной активности.

➤ **Цифровизация и цифровая экономика:** Молодежь часто является активным участником цифровой экономики, создавая и потребляя цифровые продукты и услуги. Они обладают цифровой грамотностью и способствуют цифровой трансформации различных секторов экономики.

➤ **Социальное и экологическое предпринимательство:** Молодежь все больше проявляет интерес к социальной ответственности и устойчивому развитию. Они создают социальные стартапы, бизнесы с уклоном на экологию и вовлекаются в проекты по решению общественных и экологических проблем.

Для успешного усиления экономического роста важно обеспечить молодежь доступом к образованию, ресурсам для предпринимательской деятельности, инновационной среде и поддержке со стороны государства и бизнес-сообщества. Это поможет молодым людям реализовывать свой потенциал, способствуя развитию экономики и общества в целом. [4]

Следует также подчеркнуть, что в нынешнюю эпоху быстрых перемен и глобализации у молодых людей при ведении бизнеса и предпринимательской деятельности может возникнуть ряд проблем. В таблице ниже приведен пример таких проблем.

1-таблица.
Положительные и отрицательные стороны

Для молодежи:	Для бизнеса:
1. Трудоустройство: Автоматизация и рост использования искусственного интеллекта могут привести к сокращению рабочих мест в некоторых секторах, что	1. Технологические изменения: Быстрое развитие технологий требует от бизнеса постоянной адаптации и инвестиций в новшества, что может быть особенно сложно для малых и средних предприятий.

<p>усложнит поиск работы для молодых людей.</p>	
<p>2.Образование: Несоответствие между получаемым образованием и требованиями рынка труда может привести к увеличению числа недоучившихся молодых специалистов.</p>	<p>2.Конкуренция: Глобализация и цифровизация экономики усиливают конкуренцию, заставляя компании постоянно искать новые способы выделиться на рынке.</p>
<p>3.Психологическое благополучие: Социальные сети и постоянное использование интернета могут оказывать негативное влияние на психическое здоровье молодых людей, увеличивая уровни тревожности и депрессии.</p>	<p>3. кадровые ресурсы: Недостаток квалифицированных кадров, особенно в сфере IT и высоких технологий, может ограничить возможности роста и инноваций для бизнеса.</p>
<p>4.Экономическая нестабильность: Глобальные экономические кризисы и нестабильность</p>	<p>4.Регуляторные изменения: Ужесточение законодательства в области защиты данных, экологии, трудовых прав может налагать дополнительные обязательства на компании, увеличивая их затраты.</p>

могут затруднить финансовое планирование и накопление сбережений у молодежи.	
---	--

Таким образом, как для молодежи, так и для бизнеса, существует ряд вызовов, которые требуют гибкости, адаптации и постоянного самообновления для успешного преодоления. При этом важно отметить, что многие из этих вызовов также предоставляют новые возможности для роста и развития. [4]

В этом году планируется привлечь в нашу экономику иностранные инвестиции, создать широкие возможности для предпринимательства и частной собственности. Особое внимание к развитию науки, инноваций, информационных технологий, «зеленых» и цифровых технологий определено главным критерием наших реформ.

В этом плане роль молодежи бесподобна, ведь именно молодежь – хозяйева завтрашнего дня, основы будущего нашей страны, продолжатели критериев развития, именно поэтому наш Президент уделяет молодежи особое внимание. в процессе реформ, открывая им широкий путь к возможностям в предпринимательской деятельности, и наша страна предоставит такие возможности. Я считаю, что молодые люди должны чувствовать это от всего сердца и в ответ на такое внимание они должны постоянно стремиться проявить свою потенциал и вносят большой вклад в развитие нашей страны.

Я могу четко сказать, что роль семей, родителей, местных активистов, педагогов, тренеров и средств массовой информации несравненна в привитии таких патриотических чувств в сознании нашей молодежи, в том, чтобы они показали свой потенциал как будущее нашей страны. В частности, ни с чем не сравнимо участие широкой общественности в подаче примера качественного образования молодежи, поддержке ее в ведении бизнеса, устранении различных моральных убытков и финансовых препятствий.

Усиление роли молодежи в бизнесе и экономическом росте является важной задачей для развития общества. Вот несколько рекомендаций, которые могут помочь в этом направлении:

➤ **Образование и подготовка:** Предоставление доступного и качественного образования по предпринимательству и экономике с ранних школьных лет. Это поможет формировать предпринимательский и экономический мышление с детства.

➤ **Поддержка стартапов и инноваций:** Создание программ и финансовой поддержки для молодых предпринимателей и стартапов. Это может включать в себя гранты, льготы по налогам, консультации и доступ к инвестициям.

➤ **Создание благоприятной бизнес-среды:** Сокращение бюрократических барьеров и упрощение процедур регистрации бизнеса. Это поможет молодым людям быстрее запустить свой бизнес и принимать активное участие в экономике.

➤ Развитие цифровых технологий: Поддержка цифровизации бизнес-процессов и обучение молодежи использованию новых технологий. Это поможет им эффективнее работать и конкурировать на рынке.

➤ Содействие социальному предпринимательству: Поддержка и поощрение проектов, направленных на решение социальных проблем через бизнес. Это может привлечь молодых людей к созданию инновационных и социально значимых инициатив.

➤ Обмен опытом и менторство: Организация программ обмена опытом между опытными бизнесменами и молодыми предпринимателями. Менторство поможет молодежи избегать ошибок и успешнее развивать свои проекты.

➤ Стимулирование предпринимательской активности: Проведение конкурсов, форумов и других мероприятий, которые могут мотивировать молодежь к предпринимательской деятельности и помогать им в поиске партнеров и инвесторов.

➤ Создание сетевых сообществ: Поддержка формирования и развития сетевых сообществ молодых предпринимателей, где они могут обмениваться опытом, идеями и находить новые возможности для сотрудничества.

Эти рекомендации могут помочь усилить роль молодежи в бизнесе и способствовать экономическому росту за счет развития предпринимательства и инноваций. [4]

Президент нашей страны Шавкат Мирзиёев Мираманович подчеркнул, что по 7 направлениям стратегии развития на 2022-2026 годы, что является одним из 7 направлений стратегии развития, наша страна станет «книголюбивой страной». Я бы порекомендовал нашим молодым людям проявить инициативу и прочитать книги, например, "Стартап за \$100: Откройте свое дело, делайте то, что любите, и создайте свою собственную финансовую независимость" (The \$100 Startup) Крис Гиллебо. , "**Бизнес с нуля: Startup**" (Zero to One) Питер Тиль, "**Молодой предприниматель: Как стать успешным бизнесменом до 30 лет**" (Young Entrepreneur) Авторы различны, "**Lean Startup: Как быстро тестировать идеи и выбрать правильную бизнес-модель**" (The Lean Startup) Эрик Рис, "**Молодежное предпринимательство: Учебник**" Авторы различны, "**Как стать молодым миллионером: Истории успеха**" (How to Be a Teenage Millionaire) Авторы различны, "**Молодой предприниматель: Секреты моего успеха**" (The Young Entrepreneur's Guide to Starting and Running a Business) Стив Мариотти. .

Литературы:

1. gazeta.uz/oz/2024/01/01/year-2024/
2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 06.07.2022 г. № УП-165. Об утверждении стратегии инновационного развития республики узбекистан на 2022 — 2026 годы.
3. Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60. О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы
4. www.kun.uz axborotlari
5. Daniel Kaneman "Thinking, Fast and Slow" (2011), First edition, 400-450 pages. Начало формы

Fond bozorida MACD RSI indikatorining grafik tahlili**Po‘latov Sherzodbek Oybek o‘g‘li**

Qo‘qon universiteti “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchisi.

e-mail: o.sh.pulatov@kokanduni.uz**Normatjonov Asadbek Qaxramonjon o‘g‘li**

Qo‘qob universiteti

e-mail: asadbeknormatjonov2002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot fond bozorida ko‘p ishlatiladigan MACD (Harakatlanuvchi o‘rtacha konvergentsiya divergentsiya) va RSI (Nisbiy kuch indeksi) indikatorlarining grafik tahlilini qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Bu indikatorlar, fond bozorida mavjud bo‘lgan tendensiyalarni aniqlash, almashtirishlar va o‘zgartirishlar, shuningdek, sotish va sotib olish ehtiyojlarini tushuntirishda yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari fond bozorida MACD va RSI indikatorlarining birgalikda qo‘llanilishi bilan, bozor o‘zgarishlarini oldindan bashorat qilish, sotish va sotib olish nuqtalari va moliyaviy strategiyalar bilan bog‘liq muhim ma‘lumotlarni izlashda qanday qilib bu indikatorlardan foydalanish mumkinligini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: MACD (Moving Average Convergence Divergence); RSI (Relative Strength Index); Ko‘rsatkichlar; Grafik tahlil; Savdo signallari; Bozor tendensiyalari.

Kirish.

Hozirgi kunga kelib fond bozorlarini butun dunyoda mashxur sohalardan biriga aylandi, bu sohani rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga balki takomillashishiga ham sabab bo‘ladi. Fond bozorlarida texnik tahlil qilish asosi bo‘lgan MACD va RSI indikatorlari bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Texnik tahlil ehtimoliy, tahlilning eng qadimgi shaklidir. Bu tegishli sotib olish va sotish nuqtalarini bildirish orqali kelajakdagi daromadlar yoki tendensiyalarni bashorat qilish uchun tarixiy bozor foydalanishni anglatadi. Garchi strategiya amaliyotda keng qo‘llanilsa ham qisqa muddatli savdo qarorlari uchun bu keskin farq qiladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori dinamik maydon bo‘lib, unda investorlar va treyderlar doimiy ravishda uning murakkabliklarini aniqlash va narxlarning potentsial harakatlarini bashorat qilish uchun vositalarni izlaydilar. Ushbu intilishda texnik tahlil asosiy yondashuv bo‘lib, bozor tendensiyalarini tushunish va ongli investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun tarixiy bozor ma‘lumotlari va ko‘rsatkichlaridan foydalanadi. Mavjud texnik vositalarning ko‘pligi orasida harakatlanuvchi o‘rtacha konvergentsiya farqi (MACD) va nisbiy kuch indeksi (RSI) bozor tahlilida keng qo‘llaniladigan ajralmas ko‘rsatkichlar sifatida paydo bo‘ldi.

Muhokama va xulosalar.

Dr. Krishnamurthy Inumula. Qimmatli qog‘ozlar bozorini tahlil qilishning ikkita asosiy usuli mavjud - fundamental yondashuv va texnik yondashuv. Fundamental yondashuv firmaning asosiy daromadi va uning aksiyalarining bozor bahosiga tavakkalchiligini o‘rganadi, texnik yondashuv esa birja narxlari naqshlariga e‘tibor qaratadi. Texnik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, past birja narxlari va hajmlari bir naqshga amal qiladi va ular kelajakdagi narxlar o‘zgarishini

bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Talab va taklif kuchlari aksiyalar narxini belgilaydi. Fundamental tahlilchilar ularni ratsional omillar funktsiyasi deb hisoblaydilar, texniklar esa psixologik omillarga bog‘laydilar. Kapital bozorini baholashda texnik tahlil yondashuvi fundamental tahlilga nisbatan kam e‘tibor qaratishgan. Ammo so‘nggi yillarda akademiklar va amaliyotchilar orasida texnik tahlilning mashhurligi ortib bormoqda. Rivojlangan kapital bozorlari uchun texnik tahlil bo‘yicha ba‘zi empirik tadqiqotlar o‘tkazildi. Rivojlanayotgan bozorlar, ayniqsa Hindiston uchun shunga o‘xshash empirik ishlar cheklangan. Shuning uchun Hindiston fond bozori uchun texnik ko‘rsatkichlarni empirik sinovdan o‘tkazish muhim hisoblanadi. Texnik vositalarning samaradorligi ularning nisbiy samaradorligidagi farqlar tufayli rivojlanayotgan bozor sharoitlarida turlicha bo‘lishi mumkin.

Hasan M Sami, Kazi Ayman Ahshan, Pedrus Niloy Rozario, Nusaiba Ashrafi. MACD ham, RSI xamlardan qat‘iy nazar, qimmatli qog‘ozlar uchun ishonchli bozor texnik ko‘rsatkichlardir, chunki RSI-ga ishonchli topilmalar uchun o‘rtacha ko‘rsatkichlar 50% dan yuqori va MACD-ga bardoshli topilmalar uchun o‘rtacha 78% ga yaqin edi. Biz har bir fondida katta bozor kapitallashuviga ega bo‘lmagan ba‘zi qimmatli qog‘ozlar hajmi va katta bozor kapitallashuviga ega bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar MACD va RSI qimmatli qog‘ozlar sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish nuqtai nazaridan sifatli signal berishini kuzatdik. Katta bozor kapitallashuviga ega. Shunday qilib, katta savdodagi xaridlar texnik ko‘rsatkichlar uchun standartlashtirilgan.

1970-yillarning oxirida Gerald Appel tomonidan yaratilgan MACD va J. Uells Uaylder Jr tomonidan ishlab chiqilgan. RSI texnik tahlil sohasidagi muhim bosqichlarni ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar treyderlarga bozor tezligi, tendensiya kuchi, haddan tashqari sotib olish va haddan tashqari sotish shartlari va potentsial teskari nuqtalar haqida tushuncha beradi.

Fond bozorida MACD va RSI indikatorlarining birgalikda qo‘llanilishi bilan, bozor o‘zgarishlarini oldindan bashorat qilish, sotish va sotib olish nuqtalari va moliyaviy strategiyalar bilan bog‘liq muhim ma‘lumotlarni izlashda qanday qilib bu indikatorlardan foydalanish mumkinligini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan. Ushbu maqolada MACD-RSI indikatorining to‘liq grafik tahlilini o‘tkazamiz, bu birja kontekstida Harakatlanuvchi o‘rtacha konvergentsiya (MACD) va Nisbiy kuch indeksi (RSI) ko‘rsatkichlarini birlashtirgan gibrid yondashuv hisoblanadi. Vizual tasvirlar va diagramma asosidagi tekshiruvlar orqali biz bozor tendensiyalari va potentsial savdo imkoniyatlari haqida nozik tushunchalarni ochib berishga qaratilgan ushbu ko‘rsatkichlarning dinamik o‘zaro ta‘sirini o‘rganildi.

Fond bozori kontekstida MACD va RSI ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish orqali bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, ularning grafik tasvirlari va kombinatsiyalangan tahliliga alohida e‘tibor qaratiladi. Tarixiy bozor ma‘lumotlarini va grafik tasvirlarni o‘rganish orqali sinergik munosabatlarni, ochib berish naqshlari, farqlari va potentsial savdo signallarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, ular investorlar va treyderlarga fond bozorining murakkabliklarida harakat qilishda yordam beruvchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Po‘latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
- 2) Dr. Krishnamurthy Inumula (2015) Asian Journal of Research in Banking and Finance Vol. 5, No. 12, December, pp. 13-25
- 3) Hasan M Sami, Kazi Ayman Ahshan, Pedrus Niloy Rozario, Nusaiba Ashrafi (2022), Canadian Journal of business and information studies, 4(6), 137-143,
- 4) Khurshid Gafurov. (2021). Economic Performance of Kazakhstan and Uzbekistan Since Independence: Impacts of Selected Economic Policies and Institutions. *Conference paper: Uzbekistan on The Way to Third Renaissance: Harmony of Ethnocultural, Historical and Economic Aspects*. «Innovatsion rivojlanish nashryoti. <https://doi.org/10.54613/001069>
- 5) Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 8-11.
- 6) Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). Exchange rate influence on foreign direct investment: empirical evidence from cis countries. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 2(04), 19-28.
- 7) Ruziev, S., Rasulov, H., & Yusupov, A. (2022). MEHMONDO‘STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSHQARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(2), 156-173.
- 8) Rasulov Hamidjon Yakubovich. (2023). QABUL QILINGAN TA‘LIM SIFATINING TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK TALABALARINING KASB TANLASHIGA TA‘SIRI: AKADEMIK SAMARADORLIKNING VOSITACHILIK TA‘SIRI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8(8), 62–65. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.805>
- 9) Yusupov, A. A. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 46-48.
- 10) Umarov, O. (2023). O‘ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 234-236.
- 11) Omonjon, U. (2023). ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 249-250.
- 12) Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 37(1), 151-153.
- 13) Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 37(1), 145-150.
- 14) Ogli, T. B. Q. (2021). XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARNING TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 246-250..
- 15) Turanboyev, B. (2024). O‘ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 5-8.
- 16) Turanboyev, B. (2024). ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 1-4.

STATISTIKANING TURIZMDA TUTGAN O‘RNI**Po‘latov Sherzodbek Oybek o‘g‘li**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

o.sh.pulatov@kokanduni.uz**Ahmedov Jasurbek**

Qo‘qon Universiteti talabasi

ahmedovj991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada statistikaning turizmdagi o‘rni, turizm statistikasining tarixi, turizm statistikasining asosiy vazifalari, xalqaro statistikaning rivojlanish tarixi, statistikaning O‘zbekistondagi turizmga ta‘siri, O‘rta Osiyo mintaqasining O‘zbekistonga kirib kelish statistikasi, Yevropa mintaqasining O‘zbekistonga kirib kelish statistikasi kiritiladi.


Kalit so‘zlar: Turizm statistikasi, UNWTO, rivojlanish tarixi, BMT, Turizm,

Turizm statistikasini o‘rganishdan oldin eng avvalo statistika tushunchasiga, turizm statistikasining tarixiga, statistika bizlarga nimaga keragligiga ta‘rif berib o‘tsak. Statistika – (Lotincha: status – “Vaziyat”) ma‘lumot yig‘ish, tartiblash, tahlillash, sharhlash degan ma‘noni anglatadi. Turizm statistikasi ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning bir tarmog‘i bo‘lib, turizm va turizm industriyasining rivojlanishini o‘rganadi. Turizm statistikasining predmeti turizm industriyasi holati va rivojlanishining miqdoriy tomonini sifat tomoni bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganishdir. Turizm statistikasining asosiy maqsadi dam olish bozorlari bilan chegaralangan va jahon sayyohlik bozorini qamrab oluvchi hodisalarni turizmning turli xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha statistik tadqiq qilishdan iborat bo‘lib, bu sohadagi faoliyatni mustaqil tahlil qilish uchun ham, foydalanish uchun ham, turizm bilan bog‘liq to‘lov ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish uchun ma‘lumotlar manbai. Turizm statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: turistlar oqimi, ularni joylashtirish joylari, sayohatlar xususiyatlari, ulgurji va ulgurji savdolarining statistik kuzatuvini tashkil etish chakana savdo, xalqaro qoidalar va standartlarga mos keladigan yagona ilmiy metodologiyaga asoslangan transport, qurilish, bandlik, moliyaviy vositachilik, turizm bilan bog‘liq daromad va xarajatlar. Turizmda statistika turizm sohasidagi eng keragli vositadir. Sababi sayohatchilar haqidagi ma‘lumotlarni kursatib berishuvchi vositadir.

Masalan: 2022-yil O‘zbekistonga qancha sayyoh kelganligi ma‘lum qilindi. O‘tgan yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga 5,2 million xorijlik sayohatchi tashrif buyurgan, deya ma‘lum qildi Statistika agentligi. Bu ko‘rsatkich 2021 yil bilan solishtirganda 3,4 millionga oshgan. Biroq pandemiyadan avvalgi 2019 yil bilan qiyoslaganda 1,5 millionga kamaygan. O‘zbekistonga eng ko‘p sayyoh (1,5 mln kishi) Qozog‘istondan kelgan. Keyingi o‘rinlarni Tojikiston, Qirg‘iziston, Rossiya hamda Turkiya davlatlari egalladi. Bundan tashqari, o‘lkamizga Janubiy Koreya, Germaniya, Hindiston, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniyadan 8 mingdan ortiq sayyoh tashrifi qayd etilgan. E‘tiborlisi, 2022 yilning sentabrda Rossiyada armiyaga safarbarlik e‘lon qilinganidan so‘ng O‘zbekistonga ushbu davlat fuqarolarining kelishi ko‘paygandi.

Raqamlarga ko‘ra, yil davomida 567,7 ming nafar rossiyalik mamlakatimizga kelgan. Mamlakatimizga 2020 yilda 1 504 000, 2019 yili esa 6 784 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2020 hamda 2021 yillarda turistlar oqimi kam bo‘lgani koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq. Hozirda bu 2022-yil O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlarning statistiik ma‘lumoti holos. Ammo qaysi davlatda qancha odam kelgani ma‘lum emas. Buni bilishlik uchun bizga statistikaning ro‘li katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonliklar 2022 yilda eng ko‘p qaysi davlatlarga sayohat qilgani haqida ma‘lumot berdi.


1. Qirg‘iziston – 2 446,9 ming
2. Qozog‘iston – 1001,3 ming
3. Tojikiston – 785,0 ming
4. Turkiya – 305,9 ming
5. Rossiya – 250,7 ming
6. BAA – 128,3 ming
7. Saudiya Arabistoni – 69,4 ming



Bu bir necha davlatlar kesimida turizm statistik ma‘lumotdir. Bu ko‘rsatgan ma‘lumotlarimiz eski yildiki. Endi bo‘sa yangi 2023 yilning ma‘lumotini keltirib utsak.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida jami 3,7 mln nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Bu haqda Statistika agentligi axborot xizmati ma‘lum qildi. Bu davr oralig‘ida eng ko‘p tashrif Tojikiston (1 mln 151,4 ming), Qirg‘iziston (912,8 ming) va Qozog‘iston (879 ming nafar)dan bo‘ldi. Sayohat maqsadida Rossiyadan 417,4 ming kishi kelgan bo‘lsa, Turkiyaning ko‘rsatkichi 58 ming nafarni tashkil etdi. Bundan tashqari, Turkmanistondan 39,6 ming nafar, Janubiy Koreyadan 20,2 ming nafar, Hindistondan 20 ming nafar, Xitoydan 17,7 ming nafar, Germaniyadan esa 14,1 ming nafar sayyoh O‘zbekistonga tashrif buyurdi.


O'zbekistondaga tashrif buyurgan sayyohlar statistikasi



■ Tojikiston
 ■ Qirg'iziston
 ■ Qozog'iston
 ■ Turkmaniston
 ■ Rossiya
■ Turkiya
 ■ Janubiy Koreya
 ■ Hindiston
 ■ Xitoy
 ■ Germaniya

Biz hozir Yevropa mamlakatlaridan Oz'bekistonga kirib keluvchi sayyohlarning statistika ko'rinishdagi holatini ko'rdik. Endi savol kelib chiqadi, Yevropa yoki dunyo mamlakatlariga qancha sayyoh tashrif buyuradi? Keling shu savolga javob topamiz. Dunyoning sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlar reytingini sizga havola qilaman.

O'zbekistondaga tashrif buyurgan sayyohlar statistikasi



Ma'na statistikaning turizmdagini o'rni haqida oz bo'lsada tushunchaga ega bo'lin oldik. Turizmning statistikasi yaxshilanishi uchun turizmning boshqa tarmoqlariga ham e'tibor qaratish lozim. Masalan: O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizm rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari degna mavzuni oladigan bulsak. Turizm industriyasi jahon xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy

iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi. Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5%ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10% aholi turizm sohasida band. COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talafot ko'rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda

xalqaro turizm 72%ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990 yil darajasiga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd. dollar miqdorida eksport daromadlari yo‘qotildi. Ma‘lumki, 2020 yil 16 martdan mamlakatimiz tashqi va ichki turistlar uchun yopilgan edi. Oqibatda 1,5 mingdan ortiq turoperator, 1,2 mingta mehmonxona o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Bular, gidlar, milliy hunarmandchilik, ziyoratgoh va sihatgohlar, umumiy ovqatlanish, transport va boshqalar bilan qo‘shib hisoblaganda 250 mingdan ortiq aholi daromadiga jiddiy ta‘sir qildi. O‘zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug‘ ajdodlarimizning yuksak iste‘dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu sababli, keying yillarda davlatimiz tomonidan mazkur yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab normativhuquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6199 sonli Farmoni ga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim. Shunday qilib, tarixiy-madaniy turizmning hozirgi holatini, uni rivojlantirish istiqbollari va milliy iqtisodiyotga ta‘sirini tahlil qilish dolzarbdir. Bunda eng avvalo “tarixiy-madaniy turizm” tushunchasining mazmunini aniqlash lozim.

Adabiyot sharxi:

Ta‘kidlash kerakki, hozirgi pandemiya sharoitida turizm infratuzilmasini tashkil qiluvchi tarmoqlarni inqirozdan saqlab qolish borasida ko‘plab mualliflar o‘rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning ko‘lami keng bo‘lib, turizm tarmoqlari rivojlanishini ta‘minlashimizda xalqaro tajribalarni ham hisobga olishimiz lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o‘rganilgan va turlicha ta‘riflar berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni “kishilarning o‘z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma‘lumotlar va tajriba to‘plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi” deya ta‘riflaydi. Rossiyalik mutaxassis Y.V. Kolotova tarixiy-madaniy turizmni “mamlakatning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan an‘ana va urf-odatlar, uy xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati” deya ta‘riflaydi. I.T. Frolova esa tarixiy madaniy turizmga global miqyosda xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil va vosita sifatida qarab, rivojlanishi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiruvchi uchta:

- 1) madaniyat va madaniy merosga oid bilimlarni boyitish,
- 2) madaniyatni muhofaza qilish va qayta tiklash,
- 3) madaniyatlar muloqoti kabi yo‘nalishlardan iborat deya hisoblaydi.

Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari, sifatida quyidagilar qayd etiladi:

- madaniy-ma‘rifiy va ta‘limiy;

- madaniy muhofaza va saqlash;
- aloqalar o‘rnatish va tinchlikparvarlik.

G.Karpov. L.Xorovalar esa tarixiy va madaniy turizmni “kishilarning yangi axborot, tajriba va taassurotlarga ega bo‘lish uchun madaniy diqqatga sazovor joylar, muzeylar va tarixiy joylar, san‘at galereyalari, musiqa va drama teatrlari, konsert maydonchalari, ijrochilik san‘ati, klassik qadriyatlar hamda tarixiy merosni aks ettiruvchi mahalliy aholining an’anaviy dam olish hududlari, innovatsion badiiy ijodiyot uylariga tashrif buyurishi” deb hisoblaydilar. Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To‘xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro‘ziyev, O.Xamidov, N. Ibadullayev F.Aziztoyeva, B. Mamatov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko‘plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar yetarlicha o‘rganilmaganligi bois ba’zi muammolar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Xususan, N.To‘xliyev: “Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) sayyohlik-sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarga borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan holda jo‘nab ketishi tushuniladi” deb hisoblaydi. Tadqiqotchi Sh. Ro‘ziyev tarixiy-madaniy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda yaratiladigan konsepsiyalar, metodlar va turistik faoliyat subyektlarining o‘zaro integratsiyasini amalga oshiruvchi indikativ boshqaruv metodikasini yoritib bergan. Iqtisodchi olim O.H.Xamidovning e‘tirof etishicha “Turizm murakkab, ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u ... boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy obyektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilaydi.”

Asosiy qismi:

Adabiyotlar tahlili. Sanoatlashuv texnologik taraqqiyot va turmush tarzini yaxshilashga olib keldi, ammo atrof-muhitga zararli moddalarni ishlab chiqarish global miqyosda ozon qatlamining yemirilishi, global isish va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolar yetaklab kelishi haqida olim Kaushik (2010) ilmiy tadqiqotlarida qayt etib o‘tgan².

J.Gutberlet (1996) ning fikriga ko‘ra, jahon sanoati rivojlanishi uchun atrof-muhitga resurslar va ishlab chiqarish omillarini ta‘minlab beradi. Buning natijasida atrof-muhitning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son

² Kaushik A, Kaushik C P.(2010).Basics of environment and ecology. New Age International Publishers

ifloslanishi jumladan, havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi muammolarini keltirib chiqaradi. Sanoat iqtisodiyotni ta'minlovchi kuch bilan bir qatorda atrof-muhit degradatsiyasining oldini olishda barqaror rivojlanish uchun asosdir. Sanoatning bosh maqsadi hayot sifatini va qashshoqlikni kamaytiruvchi kuch, atrof-muhitni asrashdan iborat bo'lishi lozim. Sanoat ekologiyasi sifatida keng muhokama qilinadigan barqaror ishlab chiqarishning yangi yo'nalishlari mavjud muammolarga yechim taklif qiladi³.

Buyuk Britaniyalik olim Parts Gosawining fikriga ko'ra sanoatlashuv darajsining oshishi jiddiy muammolardan biri bo'lib, butun atrof-muhitga salbiy ta'sir qildi. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoatlarning shakllanishining asosiy sababi e'tiborsizligi va moddiy manfaatlar natijasidir⁴. Uning fikriga ko'ra sanoatlashuv darajasining yuqori bo'lishi sanoatning barcha tarmoqlariga salbiy ta'sir qilishini tahlil qilgan. (1-rasm)

Sanoat tarmog'i	Ta'siri
QURILISH SANOATI	Karbonat angidrid, metan va boshqa chiqindilarni chiqishi, havoni ifloslantiradigan va hissa qo'shishi mumkin bo'lgan mahsulotlar global iqlimni o'zgarishiga olib keladi.
ELEKTROTEXNIKA SANOAT	Ko'p miqdorda xavfli maishiy chiqindilarni yer yuzasida qolib ketishi bilan izohlanadi. Agar bu buyumlar to'g'ri qayta ishlanmasa, qolgan mahsul zaxarli kimyoviy modda sifatida qolib ketadi.
KIMYO SANOATI	Mineral o'g'itlar atrof-muhitda metan, karbonat angidrid kabi moddalar, shuningdek, ammiak va azot, ularning emissiyasi global isish va ob-havoning keskin o'zgarishiga olib keladi.
TEKSTIL SANOATI	To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida katta miqdorda energiya talab qilinadi. Bu o'z navbatida ifloslanishni keltirib chiqaradi. Mahsulotlarni bo'yash, oqartirish yoki matolarga pardoz qo'shish ko'pincha o'z ichiga yuqori zaxarli kimyoviy moddalardan foydalanishni oladi.
TOG'-KON SANOATI	Suvning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, tuproq eroziyasi va ifloslanish.
OZIQ-OVQAT SANOATI	Oziq-ovqat mahsulotlari global gazning to'rtidan bir qismidan ko'prog'ini (26%) tashkil qiladi. Dunyodagi yashashga yaroqli (muz va cho'llardan xoli) yerlarning yarmidan ko'pi qishloq xo'jaligi uchun foydalaniladi.

1-rasm. Sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga ta'siri

³ Gutberlet, J. (1996). Encyclopedia of life support systems, The Impacts of Industrial Development in Brazil, Department of Geography, University of Victoria, Canada, PP.1-9

⁴ Parth Goswami, Impact of industrialization on environment, RK University, 2021

Tahlil va natijalar. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarining atrof muhitga bosimini kamaytirish maqsadlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Misol uchun “O‘zkimyosanoat” AJ hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorligida O‘zbekistonda kimyo sanoati bo‘yicha past uglerodli strategiya va “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda yaqin hamkorlik qilayotganini qayd etish joiz. “Yo‘l xaritasi” Parij kelishuvi shartlariga muvofiq tayyorlanadi, uning asosiy maqsadi 2050-yilga borib atmosferaga tashlamalarni nolga tenglashtirishdir.

Tahlillarga nazar solsak, mamlakatimiz sanoat korxonalaridan atmosfera havosiga yillik sanoat tashlamalari miqdori 2022-yilda 874 ming tonnani tashkil etdi. Tashlamalarning 360,5 ming tonnasi (40%) – neft va gaz, 200 ming tonnasi (22,8%) – energetika, 185,5 ming tonnasi (21,2%) - metallurgiya, 25 ming tonnasi (2,8%) – qurilish va 103 ming tonnasi (11,7%) boshqa tarmoqlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

1-jadval
Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonna)⁵

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	883,7	952,8	924,4	908,7	874
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	34,0	37,2	28,9	31,4	21
Andijon	15,9	14,3	11,5	4,9	17
Buxoro	74,8	69,1	37,1	44,7	36
Jizzax	11,8	4,3	3,4	2,9	27
Qashqadaryo	152,2	140,4	128,1	132,3	116
Navoiy	49,9	43,6	48,4	68,6	42
Namangan	15,2	15,8	15,0	23,9	7
Samarqand	52,1	44,2	52,7	39,4	39
Surxondaryo	5,1	6,9	6,5	7,1	7
Sirdaryo	60,5	47,8	71,8	45,7	49
Toshkent	336,6	397,9	430,0	425,5	438
Farg‘ona	53,2	49,6	50,5	46,5	49
Xorazm	7,1	7,2	6,8	7,2	5
Toshkent sh.	15,3	74,5	33,7	28,6	21

⁵ stat.uz

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari mamlakatimizda atrof-muhitga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hududlar kesimida taqsimlanishi ifoda etib, so’ngi 5 yillik davrni o’z ichiga oladi. Atrof-muhitga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi bo’yicha Toshkent shahri 1-o’rinni qayd etib, 2022-yil yakuni bo’yicha jami 438 000 tonna zaharli moddalarni atmosferaga chiqaradi. Keyingi o’rinda esa Qasqadaryo viloyati bo’lib, 2022-yil yakuni holatiga atrof-muhitga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi 116 000 tonnaga yetdi. Eng past ko’rsatkichlar Xorazm, Surxandaryo va Namangan viloyatlari to’g’ri kelmqoda.

Atrof-muhitga asosiy ta’sir ko’rsatuvchi tarmoqlar issiqlik elektr stansiyalari hamda sement ishlab chiqaruvchi korxonalar hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 12 ta IESlar, shu jumladan, ko’mirga ixtisoslashgan “Angren” va “Yangi Angren” issiqlik elektr stansiyalari faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, 36 ta sement ishlab chiqaruvchi korxonalar, 15 ta neft va gazni qayta ishlash hamda 4 ta metallurgiya sanoati mavjud.

Bugungi kunda sanoat korxonalaridan atmosferaga tashlanmalarni kamaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus dastur qabul qilingan⁶. Uning doirasida 2023-yilga belgilangan 145 ta sanoat korxonalarida 723 ta chang-gazlarni tutib qolish uskunalari ta’minlash va yangilariga almashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Atrof-muhitga xavf darajasi yuqori va o’rta bo’lgan yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar (shu jumladan, sexlar) uchun ishlab chiqilgan “Ekologik oqibatlar to’g’risida bayonot” (ZEP) loyiha hujjatlari asosida samaradorlik darajasi 99,5 foizdan kam bo’lmagan chang-gazlarni tutib qolish uskunalari o’rnatish ta’minlandi.

Kimyo sanoatining ekologiyaga bo’lgan salbiy ta’siri katta bo’lishiga qaramay, ushbu sanoatda inson hayotida muhim bo’lgan muhim mahsulotlar ishlab chiqariladi va iqtisodiyotga ulkan hissa qo’shadi. 2017-2022-yillarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizga oshgani, bunda kimyo sanoatining ulushi yuqori ekani sohaning muhimligidan dalolat beradi.

Xulosa. Sanoatni zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo’naltirilgan yagona texnika siyosatni yuritish bilan bir qatorda ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta’minlash, chiqindisiz texnologiyalarni va atrof muhitni saqlash dasturlarini joriy etishni asosiy maqsaddir.

Sanoat korxonalari bugungi globallashuv va iqlim o’zgarishlari sharoitida atrof-muhit muhofazasi borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim.

Xususan:

- sanoati obyektlarida zararli moddalar chiqarilishini kamaytiradigan zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini joriy etish;
- energiya tejovchi jarayonlar va zamonaviy emissiya nazorati tizimlaridan kengroq va samarali foydalanish;
- korxonalarining mineral o’g’itlarni ishlab chiqarish sexlaridagi zamonaviy texnologik jarayonlarini qo’llash;

⁶ Vazirlar Mahkamasining 29.09.2023 yildagi “Yashil” iqtisodiyotga o’tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi [514](#) -son qarori

- atmosfera havosiga ta’sir xavfi yuqori bo’lgan kimyo sanoati korxonalarining atmosferani ifloslantiruvchi ustuvor manbalarida avtomatik stansiyalar qurish lozim.

Xulosa qilib aytganda bugungi global rivojlanish va iqlim o’zgarishlari sharoitida iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarida “yashil” texnologiyalarni qo’llash orqali tabiatga yetkazilayotgan zararni keskin kamaytirish ishlab chiqarish va tabiat uyg’unligini ta’minlash imkonini beradi. Bu esa pirovard natijada yurtimizda ekologik barqarorlikni ta’minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo’lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari. // Ilmiy elektron jurnali. XXI asr: fan va ta’lim masalalari”, No2, 20172.
2. Beder, S. 2011, 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150
3. Parth Goswami, Impact of industrialization on environment, RK University, 2021
4. Kaushik A, Kaushik C P.(2010).Basics of environment and ecology. New Age International Publishers
5. Gutberlet, J. (1996). Encyclopedia of life support systems, Impacts of Industrial Development in Brazil, Department of Geography, University of Victoria, Canada, PP.1-9
6. stat.uz
7. oecd.org

ILMIY TURIZM VA UNING YEVROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI**Umarov Omonjon**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
umarovomonjon1994@gmail.com

To‘xtanazarova Mohinur

Qo‘qon universiteti talabasi
erkinovnanuriza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy turizmning turizm sanoatidagi o'rni, hozirda paydo bo'layotgan yangi manzillari va Yevropa davlatlaridagi rivojlanishi ko'rib chiqildi. Shu jumladan, xalqaro konferensiyalar, ilmiy uchrashuvlar, sessiya va treninglarning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari ushbu turizm turida bo'layotgan bellashuvlar, yaratilayotgan metod-modellar va kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan turlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Ilmiy turizm, turizm sanoati, konferensiya, ilmiy uchrashuv, sessiya, trening, metod-model.

Kirish:

So'ngi 10 yillikda ta'lim va turizmning sanoat sifatida rivojlanib borayotganligi ushbu tarmoqlarning iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan e'tirof etilishiga olib keldi. Ropollo ta'kidlaganidek, "mamlakatlar o'zaro bog'liq bo'lar ekan, ularning muaffaqiyati, o'sishi va iqtisodiy farovonligi ko'p jihatdan ta'lim va turizmning xalqaro almashinuvini qo'llab quvvatlash uchun zarur yo'llarni yaratish qobilyatiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda turizm va ta'lim turizmini o'rtasidagi munosabat sezilarli rivojlanib bormoqda. Dunyo aholisining ilm olishga bo'lgan talab va takliflari ortib bormoqda. Yangi ko'nikmalarni o'rganish va yer yuzidagi eng yaxshi joylardan bilim olishga bo'lgan talab ortib borayotgani ta'lim turizmining o'ziga xos turizm va sayohat sanoati sifatida dunyo miqyosida o'rnatilishiga olib keldi. Ushbu ko'rsatkichlar Yevropa davlatlarida yuqori darajada rivojlangani ta'limga bo'lgan e'tibor, yaratilgan sharoit va imkoniyatlarning isbotidir. Ilm va texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda insoniyatga foydali bo'lgan sun'iy intellect (AI)lar yaratilmoqda. Shu kabi texno-ta'lim yangiliklari kelajakda ta'lim turizmida yangi me'tod va yo'nalishlar paydo bo'lish ehtimolini orttirmoqda.

Ta'lim turizmi yo'nalishida edu-destinations (ta'lim manzilgohlari) muhim rol o'ynaydi. Dr. Brent W. Ritchiening - Managing Educational Tourism (Aspects of Tourism) nomli kitobida maktab, kollej, akademiya, universitet va undan yuqori ta'lim muassasalari haqida va ularning rivojlanishi hamda halqaro o'quvchi va talabalarni jalb qilish haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Aytish joizki har qanday sohada yaratilgan imkoniyatlar qanchalik keng va qulay bo'lsa, soha rivojlanishi shunchalik tez va barqaror bo'lib boradi. Aynan ta'lim va ilm sohasida yaratilayotgan va paydo bo'layotgan metod va imkoniyatlar Zatsepina, M.B., Kriskovets, T.N., Vorobyev, V.K., Kolobova, L.V., Grigor'eva, N.V., Fedulov, V.I., Stolyarova, A.Nning Educational Tourism: Tribute to Fashion or New Educational Opportunities? kitobida yoritilib berilgan.

Asosiy qism.

Edu-turizm, so'nggi yillarda, Yevropa mamlakatlari ta'limiy sayohatlarga keng imkoniyarlari orqali dunyo bo'ylab ta'lim va turizmga jalb qilmoqda. Yevropa bo'ylab ta'limiy sayohatning rivojlanishini va tendensiyalarini tahlil qilish kerak. Ta'lim turizmi yoki o'quv turizmi sifatida ham edu-turizm sayohatchilari sayohat paytida yangi ko'nikmalarni o'rganishga, bilim olishga yoki ta'lim tajribasiga ega bo'lishga intilishadi. Ta'lim turizmining rivojlanishiga turtki bo'lgan ba'zi asosiy omillar:

Globalashuvning kuchayishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va madaniy almashinuvning kuchayishiga olib keldi. Odamlar boshqa madaniyatlarga qiziqib, o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishlari natijasida ta'lim turizmi turli jamiyatlar, tillar va an'analarni bevosita tajriba orqali o'rganish imkonini beradi. Bugungi bilimga asoslangan iqtisodiyotda umrbod ta'lim va malaka oshirish shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyat uchun zarurdir. Ta'lim turizmi odamlarga sayohat paytida yangi bilimlarni olish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va intellektual imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatlarini beradi.

Yevropada ta'lim turizmining o'ziga hos jihatlari: Yevropaning boy tarixi, rang-barang madaniyati va nufuzli ilmiy muassasalari azaldan olimlar va talabalarni o'ziga jalb etib kelgan. Yevropada ta'lim turizmi konsepsiyasi asrlar davomida kuzatilib kelinadi, sayohatchilar qit'aning mashhur madaniy markazlarida san'at, arxitektura, falsafa va boshqalarni o'rganish uchun sayohatga chiqishadi.


Til o'rganish: Ko'p odamlar yangi til o'rganish yoki til ko'nikmalarini yaxshilash uchun Yevropaga sayohat qilishadi. Fransiya, Ispaniya, Italiya, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar tilni immersion dasturlari uchun ayniqsa mashhur.

Madaniy almashinuv: Yevropa ko'plab madaniy tajribalarni, jumladan muzeylar, tarixiy joylar, san'at galereyalari va madaniy tadbirlarga tashrif buyurishni taklif qiladi. Edu-sayyohlar ko'pincha Yevropa madaniyati va tarixini chuqur tushunish uchun ekskursiyalar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga qatnashadilar.

Akademik dasturlar: Yevropa universitetlari va muassasalari xalqaro talabalar uchun qisqa muddatli o'quv dasturlari, yozgi maktablar va akademik almashinuvlarni taklif qiladi. Ushbu dasturlar san'at, tarix, adabiyot, fan va biznes kabi keng doiradagi fanlarni qamrab oladi.

Kasbiy rivojlanish: Ko'pgina mutaxassislar va talabalar o'zlarining o'qish yoki ish sohasi bilan bog'liq konferensiyalar, seminarlar va o'quv dasturlarida qatnashish uchun Evropaga sayohat qilishadi. Ushbu tadbirlar tarmoq imkoniyatlari va turli sohalardagi yetakchi mutaxassislar bilan uchrashish imkonini beradi.

Ekoturizm va barqaror sayohat: Ta'lim sayyohlari orasida ekologik toza va barqaror sayohat amaliyotiga qiziqish ortib bormoqda. Yevropa ko'plab ekologik toza joylar, barqaror turar joy va ochiq havoda ta'lim tajribalari, masalan, yovvoyi tabiatni muhofaza qilish loyihalari va ekoturlar bilan ajralib turadi.



Xulosa.

Ta'lim turizmida sayohat va ta'lim sohalarini shakllantiruvchi turli omillar ta'sirida bir qancha imkoniyatlar paydo bo'lishi mumkin.

Ta'lim turizmiga texnologiya integratsiyasini o'rganish tajribasi va foydalanish imkoniyatini oshirish kutilmoqda. Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), onlayn o'quv platformalari va mobil ilovalar sayohatchilarga yangi va interaktiv usullarda yo'nalishlar va mavzular bilan shug'ullanish imkonini beruvchi ta'lim tajribasini taklif qilishi mumkin. Shaxsiy sayohat tajribasining ortishi bilan, ta'lim turizmi individual qiziqishlar, imtiyozlar va o'quv maqsadlariga ko'proq moslashtirilgan bo'lishi mumkin. Sayohatchilar o'zlarining ta'lim yo'nalishlariga mos keladigan maxsus kurslar, seminarlar va tadbirlarni tanlab, o'zlarining ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Global hamkorlik va hamkorlik: Ta'lim muassasalari, sayyohlik tashkilotlari va sayyohlik kompaniyalari innovatsion ta'lim turizmi dasturlari va tashabbuslarini ishlab chiqishda tobora ko'proq hamkorlik qilmoqda. Global hamkorlik dunyo bo'ylab sayohatchilar uchun bilim almashish, madaniy tushunish va transchegaraviy ta'lim imkoniyatlarini osonlashtirishi mumkin. Hayot davomida ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish: Uzluksiz o'rganish va malaka oshirishga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, ta'lim turizmi turli yosh guruhlari va qiziqishlarini qamrab olishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Educational tourism: a new concept of sustainable Development of tourism
2. Managing Educational Tourism Brent W. Ritchie with Neil Carr and Chris Cooper;
3. unwto.org

4. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 8-11.
5. Шоҳрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Academic research in educational sciences*, 3 (2), 617-629.
6. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 265–267. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.431>
7. Nazrullaevna, M. G. (2021). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 640-645.
8. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 182–187. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/67>
9. Umarov, O. (2023). MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA). *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8, 78-80.
10. Yuldasheva Nilufarxon A‘zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
11. Turanboyev, B., & Musabekov, S. (2023). Digital Transformation of Tax Systems. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).
12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.
13. Mampurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
14. Mampurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 344-345.
15. Umarov Toxirjon Mampurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

MADANIY TURIZMDA EKSKURSIYANING AHAMIYATI**Umarov Omonjon**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

To‘xtanazarova Mohinur

Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda madaniy turizm ekskursiyaning ahamiyati, uning iqtisodiy, siyosiy, salbiy va ijobiy omillarini o‘rganish. Ekskursiyalar madaniy turizm muhim o‘rin tutib, tashrif buyuruvchilarga o‘zlari tashrif buyurgan joyning madaniyati bilan tanishish va tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi. Ekskursiyalarning eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, ular tashrif buyuruvchilarga mahalliy madaniyatni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Bilimli gid tashrif buyuruvchilarga ular tashrif buyuradigan joyning tarixi, urf-odatlar va an‘analari haqida ma‘lumot berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Madaniy turizm, ekskursiya, iqtisodiy ta‘sir

Madaniy turizm - bu sayyohlik faoliyatining bir turi bo‘lib, unda tashrif buyuruvchining asosiy motivatsiyasi turistik yo‘nalishdagi moddiy va nomoddiy madaniy diqqatga sazovor joylarni ko‘rish, ularni o‘rganish. O.I. Pisarevskiy madaniy turizmning ko‘plab yo‘nalishlarini taklif etgan. Masalan:

1. Tarixiy
2. Diniy
3. Etnik
4. Etnografik
5. Folklor
6. Arxeologik
7. San‘at
8. Muzey
9. Adabiyot
10. Musiqiy

Madaniy turizmni turli toifalarga bo‘lish mumkin, jumladan:

San‘at va madaniy turizm: Bu muzeylarga, san‘at galereyalariga, tarixiy joylarga va madaniy festivallarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi.

Diniy turizm: Bu ibodatxonalar, masjidlar va cherkovlar kabi diniy joylarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi.

Meros turizmi: Bu tarixiy joylar, yodgorliklar va xarobalarni ziyorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Gastronomik turizm: Bu mahalliy taom va ichimliklarni tatib ko‘rish, restoran va bozorlarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi.

Ekoturizm: Bu tabiiy hududlarga tashrif buyurish va mahalliy madaniyat va atrof-muhitni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”

gi PF-6199 sonli Farmoni ga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim.

Tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o‘rganilgan va turlicha ta‘riflar berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni “kishilarning o‘z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma‘lumotlar va tajriba to‘plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi” deya ta‘riflaydi. Rossiyalik mutaxassis Y.V. Kolotova tarixiy-madaniy turizmni “mamlakatning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan an‘ana va urf-odatlarini, uy xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati” deya ta‘riflaydi. G.Karpov. L.Xorovalar esa tarixiy va madaniy turizmni “kishilarning yangi axborot, tajriba va taassurotlarga ega bo‘lish uchun madaniy diqqatga sazovor joylar, muzeylar va tarixiy joylar, san‘at galereyalari, musiqa va drama teatrlari, konsert maydonchalari, ijrochilik san‘ati, klassik qadriyatlar hamda tarixiy merosni aks ettiruvchi mahalliy aholining an‘anaviy dam olish hududlari, innovatsion badiiy ijodiyot uylariga tashrif buyurishi” deb hisoblaydilar.

Madaniy turizmni rivojlanishiga turli omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

Misol uchun siyosiy va huquqiy omillar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining (O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6199 sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-son qarori.) Sohaga oid boshqa farmonlar Prezident va hukumat qarorlari (jumladan litsenziyalar va ruxsatnomalar berilishini yengillashtirilishi);

- YUNESKO Xalqaro tashkilotining mamlakatimizdagi tarixiy arxeologik yodgorliklar va madaniy san‘at asarlarini tiklash, saqlash va muhofaza qilish bo‘yicha aniq mexanizm va dasturlarning mavjudligi;

- 90 ta mamlakat sayyohlariga O‘zbekistonga vizasiz kirish rejimining o‘rnatilishi;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilishining yangi mexanizmi joriy etilgani

- O‘zbekistonda 2017 yildan boshlab “Xavfsiz turizm” konsepsiyasi va standartlarining joriy etilishi

Iqtisodiy omillar:

- Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish uchun pul mablag‘larini ajratilishi hamda maxsus jamg‘armalar tashkil etilgani;

- Madaniy obyektlardan olinadigan soliqlarning kamaytirilgani;

- Turistik mahsulotlar va xizmatlar turini ko‘paytirish (diversifikatsiyalash) choratadbirlarining amalga oshirilayotganligi;

Ijtimoiy omillar:

- Aholining qadriyatlar to‘g‘risida sobit tasavvurlari madaniy meroslarni asrab avaylashga bo‘lgan munosabati va diniy e‘tiqodi;
- Aholida shakllangan urf-odat va qadriyatlar;
- Ekskursovod va mutaxassislarning malakasini oshirish;
- Mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli va namunali xizmat ko‘rsatish

Madaniy turizm tobora ommalashib bormoqda, chunki odamlar turli madaniyatlarni o‘rganishga va yangi narsalarni boshdan kechirishga qiziqishlari ortib bormoqda. Bu, shuningdek, turizmning barqaror shaklidir, chunki u mahalliy madaniyatlarni saqlash va targ‘ib qilishga yordam beradi.

Madaniy turizmning afzalliklariga misollar:

Bu turli madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishga yordam beradi.

Bu madaniy merosni saqlashga yordam beradi.


Bu mahalliy jamoalar uchun iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

Bu sayohatchilar uchun ta‘lim va boyituvchi tajribalarni taqdim etishi mumkin.

Madaniy turizm sayohatchilar va mahalliy jamoalar uchun foydali va boyituvchi tajriba bo‘lishi mumkin.

Turizm sohasida ekskursiya xizmati asosiy xizmat turlaridan biri hisoblanadi.

“Ekskursiya” tushunchasi yunoncha “excursion” so‘zidan olingan bo‘lib, “sayohatga chiqish”, “sayr qilish” ma‘nolarini anglatadi. “Ekskursiya” so‘ziga birinchi tarifi V.Dal shunday deb bergan: “Ekskursiya bu sayr-tomoshga, biror nimani izlash, o‘simliklarni yig‘ishdir”. Ekskursiya xizmati- bu tarixiy madaniy yodgorliklarga, tabiat manzaralari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarni ko‘rsatish, hikoya qilish jarayonini tashkil etishdir.



1-rasm. Ekskursiya xizmatining asosiy funksiyalari

Ekskursiya quyidagilarga bo‘linadi:

- Davomiyligi bo‘yicha (bir kunlik sayohatlar, qisqa muddatli, ko‘p kunlik sayohatlar);
- Masofa (shahar atrofidagi, mahalliy, shaharlararo, xalqaro)
- Sayyohlar/turistlar soni (individual, guruhli tur);

- Sayyohlar/sayyohlar Yoshi (maktab o‘quvchilari, yoshlar, oilaviy va pensionerlar uchun sayohatlat)

Bundan tashqari ekskursiyani biz yana 2 turga bo‘lib olishimiz mumkin: satsionar (turistlarning bir shaharda turishi, belgilangan manzil) va marshrut (ma‘lum bir yo‘nalish bo‘yicha bir necha yo‘nalish bo‘yicha bir nechta yo‘nalish va shaharlarga tashrif buyurish).

Ekskursiyalar madaniy turizmning muhim qismidir. Ekskursiyalar sayohatchilarga mintaqa tarixi, arxitekturasi va madaniyatini o‘ziga xos va interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi. Ekskursiyalar orqali tashrif buyuruvchilar mintaqaning o‘tmishi va buguni, uning hikoyalari va afsonalari, diqqatga sazovor joylari va tovushlari haqida bilib olishlari mumkin. Ekskursiyalar, shuningdek, sayohatchilarni mintaqa aholisi va mintaqaning taomlari va urf-odatlari bilan tanishtirishi mumkin. Mahalliy festivallar va tadbirlarda ishtirok etish orqali tashrif buyuruvchilar mintaqa madaniyatiga sho‘ng‘ishlari va mintaqaning urf-odatlari va e‘tiqodlarini yaxshiroq tushinishlari mumkin. Bundan tashqari, ekskursiyalar tashrif buyuruvchilarga mintaqaning tabiiy go‘zalligini o‘rganish va mahalliy yovvoyi tabiat bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bunday tadbirlar turistlarda unutilmas taassurot qoldirish va mintaqa madaniyati haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi. Ekskursiyalar qiziqarli bo‘lishi kerak va keraksizlar ma‘lumotlarga yoki odamni charchatadigan ma‘lumotlarga to‘la bo‘lmasligi kerak. Ekskursiyalar madaniy turizmga ahamiyatli ekanligini sabablari:

- Tarixiy va madaniy obyektlarni o‘rganish: Ekskursiyalar orqali sayohatchilar tarixiy va madaniy obyektlarni ko‘rish va ular haqida tafsilotlar olishadi. Bu sayohatlar orqali sayohatchilar o‘zining madaniy horizonlarini kengaytirishadi va yangi bilimlar olishadi.

- Madaniy bog‘liqligini his qilish: Ekskursiyalar sayohatchilarga mamlakatning madaniy bog‘liqligini his qilish imkoniyatini beradi. Ular o‘zlarini o‘z mamlakatining tarixi, madaniyati va xalqining adabiyot, san‘at, musiqa va boshqa madaniyat turlari bilan tanishtirishadi.

- Muloqot va aloqalar o‘rnatish: Ekskursiyalar sayohatchilarga boshqa insonlar bilan muloqot va aloqalar o‘rnatish imkoniyatini beradi. Bu sayohatchilar uchun o‘zaro fikr almashish, tajriba almashish va do‘stlar bilan bog‘lanish imkoniyatlarini yaratadi.

- Turizm sanoati va iqtisodiyotga o‘tkazish: Ekskursiyalar turizm sanoati va iqtisodiyotga o‘tkazish imkoniyatini beradi. Sayohatchilar sayohatlar uchun transport xizmatlaridan, mehmonxonalaridan, restoranlardan va boshqa turistik xizmatlardan foydalanish bilan turizm sanoati va iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekskursiya xizmati samaradorligi undagi ma‘lumotlarning qanchalik tushunarli hikoya qilinishi, ushbu auditoriya uchun mazmunan soddaligiga bog‘liqdir. Ekskursiya jarayoni ma‘lumotlarining ishonarliligi quyidagilar asosida ta‘minlanadi:

- mavzuni yorituvchi muhim faktlarni tanlash;
- ishonchli taqqoslanma ma‘lumotlardan foydalanish;
- dalillarni to‘play olish;
- ishonchli manbalarga tayanish, ma‘lum bir voqea ishtirokchilari va guvohlarining fikrini o‘rganish;
- rasmlar, hujjatlar nusxasi, xaritalar, chizmalarni namoyish etish.

Ekskursiyaning rahbari gid hisoblanadi. Turistlarni ekskursiyadan so‘ng fikrlari gidning ularni ekskursiyaga qiziqтира olish yoki qiziqтира olmasligiga bog‘liq.

Har bir kasb mehnat faoliyati bo‘lib, insondan aniq bilim va ko‘nikmalarni talab etadi. Gidning ishi yaqin kungacha kasb sifatida qaralmagan, u shunchaki havaskor yoki qiziqish deb qaralgan. Faqatgina bir necha ekskursiya muassasida yoki muzeylarda gidlar bor bo‘lgan xolos.

Ekskursiya xizmati funksiyasining o‘zgarishi, uning dam olish shaklidan mehnat jamoalarida madaniy-tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakliga aylanishi, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqqa aylanishi, yangi mutaxassislik, ya‘ni gid rolining oshishiga olib keldi.

Obyektlarni namoyish qilish gidlar yordamida amalga oshiriladi. Gidlar turistlarga obyektning tasvirini, mashhur joylarni baholashni, ushbu obyekt bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy voqea haqidagi bilimlarni yetkazadilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risidagi” Qonunining 3-moddasiga muvofiq Gidga shunday ta‘rif berilgan: “Gid(ekskursiya yetakchisi)- axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs”.

Ekskursiya davomida inson unutilmas taassurotlar, yorqin his-tuyg‘ular oladi. Bu esa inson ongiga ijobiy ta‘sir etadi.

Bugungi kunda madaniy turizmga ekskursiyaning rivojlanmasligiga ta‘sir etuvchi omillar ham bor. Misol uchun:

- Litsenziyaga ega bo‘lgan sayyohlik firmalarining yangi va zamonaviy tur mahsulotlarni tuzmasligi va klassik tur mahsulotlardan foydalanishi;
- Madaniy turizmni rivojlantirishga qaratilgan yangi loyihalarning kamligi;
- Qobiliyat va malakali mutaxasislarning yetishmasligi.

Ekskursiya turizmining butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy ta‘siri katta bo‘lib, mahalliy iqtisodiyotning o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Ekskursiya turizmi turli kanallar, jumladan turar joy, transport va mahalliy korxonalar orqali daromad keltiradi. Birinchidan, mehmonxonalar va dam olish maskanlari kabi turar joylarga talab ortib boradi, chunki sayyohlar o‘z ekskursiyalari davomida qolish uchun joy talab qiladilar. Bu mehmondo‘stlik sanoatida ish o‘rinlarini yaratadi va yangi mehmonxona infratuzilmalarini qurishga sarmoya kiritishni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, transport xizmatlari ekskursiya turizmidan foyda ko‘radi, chunki turoperatorlar turistlarni turli qiziqarli joylarga olib kelish uchun transport vositalarini talab qiladilar. Bu talab taksi xizmatlari, avtomobil ijarasi va hatto yangi transport infratuzilmasining rivojlanishiga olib keladi. Va nihoyat, restoranlar, esdalik sovg‘alari do‘konlari va mahalliy diqqatga sazovor joylar kabi mahalliy bizneslar mahalliy madaniyatni his qilishni va suvenirnlarni sotib olishni istagan sayyohlar oqimi tufayli rivojlanmoqda. Natijada, ekskursiya turizmi mahalliy iqtisodiyotga to‘liq ta‘sir ko‘rsatadi, ish joylarini yaratadi va mintaqada xarajatlarni oshiradi. Shuning uchun ekskursiya turizmining iqtisodiy ta‘sirini tushunish siyosatchilar uchun juda muhimdir va turizm manfaatdor tomonlarini turizmning ushbu turi bilan bog‘liq foydalarni maksimal darajada oshirish va salbiy oqibatlarni minimallashtirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishmoqda.

Ekskursiya turizmi bilan bog‘liq eng muhim tashvishlardan biri uning ekologik oqibatlaridir. Ekskursiya turizmi butun dunyo bo‘ylab o‘shishda davom etar ekan, tabiiy muhitga ta‘sirini tobora ortib bormoqda. Bu hududlarga sayyohlar oqimi ko‘pincha atrof-muhitning buzilishiga, jumladan, tabiiy yashash joylarining buzilishiga, suv havzalarining ifloslanishiga va zaif ekotizimlarning shikastlanishiga olib keladi. Mehmonxonalar va dam olish maskanlari kabi turizm obyektlarini qurish va ulardan foydalanish ko‘pincha yerlarni tozalash va landshaftlarni o‘zgartirishni talab qiladi, bu esa biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga va yovvoyi hayvonlarning yashash joylarining yo‘q qilinishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, turistlar tomonidan ishlab chiqarilgan qattiq va suyuq chiqindilarning ko‘payishi mahalliy chiqindilarni boshqarish tizimlariga qo‘shimcha bosim o‘tkazadi va ekotizimlarning, xususan, dengiz muhitining ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Ekskursiya turizmi kengayishda davom etar ekan, ushbu ekologik ta‘sirlarni minimallashtiradigan va ushbu tabiiy boyliklarning uzoq muddatli saqlanishini ta‘minlaydigan barqaror amaliyotlarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Ekskursiyaning rivojlanishiga to‘siq bo‘ladigan yana bir omil ham bor. Bu odamlarning uydan chiqmasdan turib internet tarmoqlari orqali muzeylar, mashhur diqqatga sazovor joylar, tarixiy binolarga, madaniy meros obyektlariga virtual tarzda sayohat qilishlaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diqqatga sazovor joylarni ko‘rish madaniy turizmning muhim jihati bo‘lib, turistlar uchun ham, mezbon jamoalar uchun ham ko‘p foyda keltiradi. Diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish sayyohlarga turli madaniyatlarni o‘rganish va qadrlash, madaniyatlararo muloqot va almashish, shuningdek, mezbon jamoalarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish madaniy turizm tajribasini boyitadi va uni yanada mazmunli va zavqli qiladi. Butun dunyo bo‘ylab ekskursiya turizmini tahlil qilish sayohatning ushbu shaklining ulkan mashhurligi va iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi. Ekskursiya turizmi noyob madaniy tajribalar, shaxsiy o‘shish va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Sanoat yillar davomida bir martalik daromadning ko‘payishi, texnologik yutuqlar va haqiqiy va qiziqarli sayohat tajribasiga intilish kabi omillar ta‘sirida eksponentsial o‘shishga guvoh bo‘ldi. Shu bilan birga, ekskursiya turizmi bilan bog‘liq muammolar va salbiy ta‘sirlarni, masalan, aholining haddan tashqari ko‘pligi, madaniy tovarlar va atrof-muhitning buzilishi kabi muammolarni hal qilish juda muhimdir. Ekskursiya turizmi yo‘nalishlarining tabiiy va madaniy merosini saqlab qolgan holda ularning uzoq muddatli hayotiyiligini ta‘minlash uchun barqaror turizm amaliyotini amalga oshirish zarur. Bundan tashqari, hukumatlar, mahalliy hamjamiyat va turoperatorlar o‘rtasidagi hamkorlik iqtisodiy rivojlanish va barqaror turizm amaliyotlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun juda muhimdir. Ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va boshqarish orqali ekskursiya turizmi mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish, madaniyatlararo tushunishni rag‘batlantirish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish, shu bilan birga sayyohlarga boyituvchi va o‘zgartiruvchi tajribalarni taqdim etishda davom etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, Madaniyat, Madaniy Meros va Sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida” gi farmoni, 15.01.2022 yildagi PF-52-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risidagi” qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son
3. Turdiyeva Umidaxon. “Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish faoliyati turizm sohasining fundamental asosi sifatida”. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2022
4. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 8-11.
5. Шоҳрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Academic research in educational sciences*, 3 (2), 617-629.
6. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 265–267. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.431>
7. Nazrullaevna, M. G. (2021). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 640-645.
8. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 182–187. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/67>
9. Mамурjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
10. Mамурjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 344-345.
11. Umarov, O. (2023). MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDI). *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8, 78-80.
- Yuldasheva Nilufarxon A‘zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
12. Turanboyev, B., & Musabekov, S. (2023). Digital Transformation of Tax Systems. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).
13. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.

**TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA
O‘ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV****Umarov Omonjon**

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

Mirzaboyeva Muslima

Qo‘qon Universiteti talabasi

Annatsiya: Maqolada dunyoning eng rivojlangan sohasi – turizm, aynan tibbiy turizm tarmog‘i alohida yoritilgan. Unda tibbiy turizmning rivojlanish tarixi, Amerika, Yevropa hamda uning Osiyodagi ko‘lami, tibbiy turistlarning asosiy muammolari va uning yechimi, O‘zbekistonda tibbiy turizm, shuningdek, yangi “exchange program in medical tourism” ni tibbiyot oliygohlari bilan hamkorlikda tadbir etish bilan bog‘liq taklif, mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Akkreditatsiya, transplantologiya, neyroxirurgiya, kardiologiya, kosmetik jarrohlik, urbanizatsiya, escapist, infeksiya, revmatizm, reproduktiv texnologiya, reproduktiv outsorsing, surrogat homiladorlik, in vitro urug‘lantirish.

Kirish.

Tibbiy turizm (tibbiy sayohat, sog‘liqni saqlash turizmi yoki global sog‘liqni saqlash deb ham ataladi) sayyohlik agentliklari va ommaviy axborot vositalari tomonidan sog‘liqni saqlash uchun xalqaro chegaralar bo‘ylab sayohat qilishning jadal o‘rib borishini tasvirlaydigan atama hisoblanadi. Bugungi kunda bemorlarning harakatlanishida ham sifat, ham miqdordagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Chunki odamlar sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish uchun boy mamlakatlardan kam rivojlangan mamlakatlarga sayohat qilishmoqda. Bunday siljish, asosan, kam rivojlangan mamlakatlarda davolanishning nisbatan arzonligi, arzon reyslarning mavjudligi va marketing xizmatlarining kengayishi va iste‘molchilarga tibbiy xizmatlarning mavjudligi to‘g‘risida onlaynma‘lumotlarning mavjudligi bilan bog‘liq. Tibbiy turizm kishilarning asosiy yashash joylaridan tashqarida dam olish bilan birga yuqori malakali tibbiy yordam olishidir.

Adabiyotlar tahlili:

Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) bosh kotibi Zurab Pololikashvilining ta‘kidlashicha, “Dunyo bo‘ylab, har qanday rivojlanish darajasidagi mamlakatlarda, millionlab ish o‘rinlari va korxonalar kuchli hamda rivojlangan turizm sohasiga bog‘liqdir. Turizm, shuningdek, tabiiy va madaniy merosni himoya qilishda harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, ularni kelajak avlodlar bahramand qilishlari uchun saqlab qolmoqda”.

Amerikalik olimlar M. Bookman va K. Bookmanlarning “Medical Tourism in Developing Countries” nomli asarida tibbiy turizmga bergan ta‘riflariga asosan - o‘z sog‘lig‘ini yaxshilash maqsadida sayohatlar, shuningdek, xizmatlar savdosini birlashtirgan iqtisodiy faoliyat bo‘lgan ikkita sektor: tibbiyot va turizmga ajralishini aytib o‘tgan.

Rossiyalik olim G. Shekin “Концептуализация феномена медицинского туризма в социологии медицины” nomli ilmiy tadqiqotida turizm bozorida tibbiy turizmning o‘rni juda katta ekanligiga urg‘u qaratib, “tibbiy turizm - turistik xizmat ko‘rsatish orqali tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadi bo‘lgan turistik faoliyat turi” deb ta‘rif berib o‘tgan.

Rossiya tibbiy turizm assotsiatsiyasining tibbiy turizmga bergan ta’rifiga ko’ra - bu sayohatning bir turi bo’lib, uning maqsadi sog’liqni saqlash va tibbiy xizmatlarni olishdir.

Tibbiy turizm- so’nggi paytlarda turizm va rekreatsiyadagi urfga aylangan yo’nalishlardan biri bo’lib bormoqda. Tibbiy turizm - bu sayyohlik sohasidagi davolanishni chet elda dam olish bilan birlashtirish imkonini beruvchi yo’nalish. Bemorlarga eng zamonaviy dunyoga mashhur tibbiyot markazlarida professional tibbiy yordam ko’rsatiladi.

Metodologiya.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida mavzuga oid statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o’rganish uchun tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, analiz va sintez, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma kuzatish hamda tajriba kabi usullardan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar.

Keng ma’noda tibbiy turizmni rivojlangan infratuzilmaga ega bo’lgan bozorlarning yagona tizimiga bog’langan tibbiyot sanoati va mehmondo’stlik sohasi, jumladan, nafaqat tibbiyot muassasalari, balki turli biznes tarmoqlari - sug’urta, bank, yuridik yordam, transport, aloqa). Hozirgi vaqtda tibbiy xizmatlarning global bozori allaqachon o’z infratuzilmasiga ega (tibbiy boshqaruv, akkreditatsiya agentliklari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar, tibbiy sayohat bo’yicha mutaxassislar). Ma’lumotlarga qaraganda davolanish maqsadidagi turistlar asosan ikki xil usulda sayohatni amalga oshirishadi. Turagentliklar yoki tibbiyot uyushmalari orqali dam olish markazlariga yoki sanatoriya-kurort tashkilotlariga bog’liq shaklda turizmni amalga oshirishadi. Moliyaviy inqiroz sharoitida ham tibbiy turizm rivojlanmoqda va milliy sog’liqni saqlash tizimlariga va sug’urta kompaniyalari faoliyatiga tobora kuchayib borayotgan ta’sir ko’rsatmoqda, ular mijozlarni xorijiy klinikalarda davolash uchun to’lashni afzal ko’rishadi. Jahon iqtisodiy raqobat sharoitida tibbiy turizm fenomeni tibbiyotni zamonaviy texnologiyalar va bemorlarga xizmat ko’rsatishni yaxshilash tufayli jadal rivojlanishiga olib keladi.

Ayni paytda millionlab odamlar tibbiy muolajalar va dam olishni birlashtirish uchun mamlakatlar va mintaqalar bo’ylab harakatlanishadi. Bunday muhim migratsiya tashkilotchi mamlakat (yoki mintaq) iqtisodiyoti uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Birinchi navbatda ijobiy o’zgarishlar mehnat bozoriga ta’sir qiladi. Xususan, iqtisodiyotning ko’plab tarmoqlarida yangi ish o’rinlari yaratilmoqda, sayyohlik majmuasi infratuzilmasi yaxshilanmoqda, turizm sifati yaxshilanmoqda mijozlarga xizmat ko’rsatish, mintaqaning to’lov balansi va boshqa ko’plab mikro-va makroiqtisodiy ko’rsatkichlar mavjud. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o’rni katta. Tibbiy turizm esa bugungi kunda turizm bozorida jadal rivojlanmoqda quyida berilgan jadval orqali bilib olishimiz mumkinki, turizm sektorining katta bir qismi tibbiy turizmning ulushiga to’g’ri keladi. So’ngi davrlarda kasalliklarning ko’payishi ayniqsa ekologiya yomonlashayotgan ayni paytda sog’lashtiruvchi sanatoriya-kurort tashkilotlari, tibbiyot muassasalari bilan bir qatorda og’ir operatsiyalar uchun bu turizm turi juda muhim hisoblanadi.

Ushbu holat ichki va tashqi tibbiy turizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholi farovonligini oshirish yo’lida sezilarli yutuqlarga erisha oladigan mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan biznes strategiyasi va davlat siyosatida hisobga olinishi kerak. Tibbiy turizmning xavf-xatarlaridan biri - bu davolanish o’tkaziladigan mamlakatga xos bo’lgan infeksiyalarni yuqtirish ehtimoli.

Masalan, blaNDM-1 geniga ega bakteriyalar Angliya va AQShga Hindiston va Pokistondan olib kelingan.

Hududlarga sayohatlarning asosiy maqsadi pulni tejashdir. Odamlar eng yangi texnologiyalar va yuqori malakali shifokorlarni talab qiladigan murakkab davolanish uchun Moskva va Sankt-Peterburgga boradilar.

Tibbiyot turizmi zamonaviy ixtiro emas. Qadim zamonlarda ham bemorlar eng yaxshi shifokorlardan malakali tibbiy yordam olish uchun uzoq masofalarni bosib o'tishlari kerak edi. Chor Rossiyasi davrida esa zodagonlar orasida davolanish uchun suvga, ko'pincha Germaniya yoki Chexiyaga borish urf bor edi. Bugungi kunda Rossiya va MDH mamlakatlarida tibbiy turizm qayta tug'ilishni boshdan kechirmoqda. Ko'p odamlar chet elda davolanishni o'z mamlakatida davolanishga munosib alternativ deb bilishadi. Kasalliklarni tashxislash va davolash uchun Yevropa, AQSh, Osiyo mamlakatlariga sayohatlar tobora ommalashib bormoqda. Har yili o'n minglab bemorlar tibbiy turizmni tanlaydilar. Bu, jumladan, xorijda davolanishning bugungi kunga aylanib borayotgani bilan bog'liq odamlarning keng doirasi uchun tobora qulayroq bo'lib bormoqda. Inson tabiati odamlarni o'zlari va yaqinlari uchun eng yaxshisini tanlashga undaydi. Tibbiy turizmning rivojlanishi tufayli bemorlar dunyoning eng yaxshi tibbiyot markazlari va shifoxonalarida sifatli davolanishlari mumkin. Eng yuqori professional obro'ga ega bo'lgan mutaxassis shifokorlarga murojaat qilish imkoniyati chet elda davolanish foydasiga qaror qabul qilishning asosiy sababidir. Bundan tashqari, bemorlar xizmat ko'rsatish sifatiga ishonch hosil qilishi mumkin, diagnostika va davolash vaqtini qisqartiradi va ko'p hollarda davolanish narxini kamaytiradi. Shuni unutmashimiz kerakki, ba'zida chet elda davolanish bemorga professional tibbiy yordam olishning yagona yo'li bo'ladi, ayniqsa kamdan-kam uchraydigan kasalliklarda, ularni davolash ko'pincha ularning yashash mamlakatida mavjud emas.

Tibbiy turizm uchun beshta asosiy rag'bat mavjud:

- tejamkor xizmatlar;
- zamonaviy tibbiy texnologiyalar;
- yuqori malakali tibbiy yordam;
- vaqt omili (o'z mamlakatida davolanishni uzoq kutish bilan);
- boshqa motivatsiyalar, masalan, jismoniy shaxslar davolanishni boshqa mamlakatdagi turistik dastur bilan birlashtirish imkoniyatiga qiziqishi yoki bemorlar davolanishning to'liq anonimligidan manfaatdorligi.

Bunda tibbiy yordam bo'lishi shart emas. Kishilar tog` yon bag'irlarida, o'rmonzorlarda, suv havzalari atrofida, tabiat qo'ynida dam olib, sog'lig'ini tiklashi, shu bilan bir vaqtda professional meditsina xizmatidan foydalanishi mumkin. Masalan Isroildagi Gersliya Medikal markazi, Kineret ko'li atrofidagi meditsina markazi (17 xildan ziyod mineral tuzlar mavjud) Golan tog` yonbag'rlaridagi "Xamat Tveriya" dunyo-ga mashhur bo'lib, jahonning barcha davlatlaridan sayyohlar boradi. "Patient's Beyond Borders" xalqaro tibbiy turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bu soha daromadi xalqaro turizmga har yili o'rtacha 40 milliard AQSh dollari miqdorida daromad keltirmoqda. Birgina AQShda sug'urta xarajatlarini qoplay olmaydigan xastalikka uchragan bemorlarning soni 110 milliondan ortiq. Davolanish xarajatlari Hindistonda yoki Tailanda 4 barobar, ayrim kasalliklarni davolashda esa 10 barobargacha arzon bo'lganligi uchun

amerikaliklar chet elda davolanishni afzal ko‘radi. Kanada va Buyuk Britaniya fuqarolari esa davolanishda davlat sug‘urtasiga ega. Bu yerda mutaxassisga uchrashish juda ko‘p vaqt talab etganligi uchun (ayrim hollarda 2 yilgacha cho‘zilishi mumkin) chet elda davolanishni ma‘qul ko‘rishadi. Meditsina xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha hozirgi kunda Hindiston, Vengriya, Meksika, Singapur, Tailand, Braziliya, Janubiy Koreya, Turkiya davlatlari mashhur. Braziliyada 4500 dan ziyod kosmetologiya jarrohlari 180 mingdan ziyod sayyohlarni davolagan bo‘lsa, tibbiy sayyohlar soni Turkiyada 110 ming, Hindistonda 400 ming, Singapurda 600 ming, Meksikada bir million, Tailandda 1,2 million kishiga yetgan. AQShda va dunyoning boshqa qismlarida sog‘liqni saqlash xarajatlari haddan tashqari ko‘tarilib ketganligi sababli, ko‘plab ish beruvchilar va sug‘urta kompaniyalari tibbiy turizmni pasaytirishning bir usuli sifatida ko‘rishni boshladilar. Dunyo bo‘ylab tobora ko‘proq davlatlar rivojlanayotgan bozordan moliyaviy foyda ko‘rishni boshlaydilar, shuning uchun ular yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni ancha arzon narxlarda taqdim etadilar. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi klinikalar va kasalxonalar narxlarini tushirishning asosiy sababi bu mamlakatning iqtisodiy ahvoli bilan bevosita bog‘liqdir. AQSh bilan taqqoslaganda tibbiy turizmni rivojlantiradigan mamlakatlarda operatsiyalar narxi 30% dan 70% gacha past. Tibbiy turizmni qabul qilishdagi asosiy to‘siqlardan biri bu sifatizlikdir. Uni bartaraf etishning kaliti xalqaro marketing institutlari tomonidan akkreditatsiya qilish orqali yetarli marketing strategiyalari va sifatni baholashdan foydalanish hisoblanadi. Bunday akkreditatsiya tibbiy xizmat sifatiga ishonchni kuchaytirish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi Tibbiy turizm sayohatlari paytida bemorlarning eng ko‘p uchraydigan muolajalari saralangan kosmetik jarrohlik, stomatologiya, a‘zolarni transplantatsiyasi, kardiojarrohlik va ortopedik jarrohlikdir. Biroq, tibbiy xizmat turlaridan turli xil muolajalardan tortib, an‘anaviy va alternativ davolanishgacha bo‘lgan ko‘plab xizmatlarni olish mumkin. Reproduktiv turizm va reproduktiv autsorsing tobora ommalashib bormoqda, bu surrogat homiladorlik, in vitro urug‘lantirish va boshqa yordamchi reproduktiv texnologiya usullari bilan chet elga chiqish amaliyotidir. Quyidagi rasmda tibbiy turistlar oldidagi muammolar qisqacha sxema orqali ifodalangan:

Buyuk Britaniyadagi dengiz bo‘yidagi kurortlar (masalan, Blekpul yoki Margeyt) Britaniya elitasining dengiz suvlari va dengiz havosida haqiqiy shifobaxsh kuchlar borligiga ishonishi tufayli qurilgan. Juda tez Angliya, turli xil kurort shaharlari va sanatoriyalarning ko‘tarilishini ko‘rdi. Mineral suvlar turli xil teri infeksiyalarni, yomon hazm qilish va revmatizm kabi kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Materik Evropada Shveysariya mineral buloqlar atrofida o‘sgan ko‘plab shaharlarni taklif qildi (Sankt-Morits, Lozanna, Interlaken va Baden). Shuningdek, odamlar Avstriya (Vena), Vengriya (Budapesht) va Germaniya (Baden-Baden va Visbaden) ga kelishgan. Temir yo‘llarning shakllanishi odamlarning uzoqroq qirg‘oq va dengiz bo‘yidagi kurortlarga borishini ko‘paytirdi, bu esa o‘z navbatida, urbanizatsiyadan noyob va eskapist muhitni, shuningdek, quyoshga intilishning sog‘lom lazzati sifatida qaraladigan narsalarga amal qilish imkoniyatini yaratdi.

HealthCare Trip, soliqlardan ozod qilingan notijorat tashkilot - bu chet elda sog‘liqni saqlash sohasiga qiziqqan barcha odamlarni xavfsiz va samarali ma‘lumotlar va akkreditatsiya bilan bog‘laydigan xizmat. Ushbu tashkilotning vazifasi a‘zo tashkilotlar orasida faqat xavfsiz amaliyotni targ‘ib qilish orqali tibbiy turizmning obro‘si va xavfsizligini oshirishdan iborat. Yevropa tibbiy

turizm ittifoqi (EuMTA) Vengriyada joylashgan notijorat tashkilot bo‘lib, u tibbiy sayohat sohasida manfaatdor tomonlarning manfaatlarini ifoda etadi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi va bemorlarning harakatchanligini yaxshilaydi. Uning maqsadlaridan biri AQSh, Evropa va dunyoning boshqa qismlarida sog‘liqni saqlash tizimidagi kamchiliklarni qat‘iy alternativ echim bilan ta‘minlashdir. Turkiya tibbiyot turizmi assotsiatsiyasi (TTTA) ham bugun tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida yaxshi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Har kuni 165 mamlakatdan davolanish va reabilitatsiya qilish asosan bu og‘ir holatlar, kattalar va bolalar orasidagi onkologiya, transplantologiya, neyroxirurgiya, ortopediya, kardiologiya kabi talablarni qabul qilib kelmoqda. TTTA klinikani tanlashda yordam berishdan tashqari, chet ellik bemorlarga qo‘shimcha imtiyozlar, jumladan, aeroportdan manzilga bepul yetkazish, Turkiyada mehmonxonalarda yashash uchun chegirmalar, bepul tarjimon xizmatlarini taqdim etish va boshqa ko‘p narsalarni kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot turizmi sohasiga alohida strategik ahamiyat berilmoqda. Prezidentning 2018 yil 7- dekabrda "O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks choratadbirlar to‘g‘risida"gi 5590 - qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi "2019-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot turizmini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi loyihasini ishlab chiqdi. O‘zbekistonda turizm va tibbiyot sohalarida o‘tkazilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, bu borada chet ellik fuqarolarning mamlakatimizga kirib kelishini ko‘paytirish maqsadida "Medtravel Global System" NNT tashkil qilindi. O‘zbekiston Respublikasidagi sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan berilgan taklifnomaga asosan chet el fuqarolari uchun 3 oy muddatga yangi viza "Medical Visa" joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasida ham dam olish va sog‘liqni tiklash maskanlari mavjud. Chorvoq, Beldirsoy oromgohlari, "Mersian", "Botanika", "Turon", "Zomin" kabi 100 dan ziyod sanatoriylar butun dunyoga mash-hur. Hozirgi kunda yurtimizda 150 dan ziyod xususiy klinikalar, davolanish markazlari aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda. Aniq va o‘z vaqtida tashxis qo‘yish, yuqori sifatli davolanish, xavfsiz yetkazish, qulay yashash, asoratlar xavfini kamaytirish va shaffof chek - bu har bir jiddiy kasallik bilan kurashayotgan va sog‘ayishga hamda kelajakda o‘z hayotini maksimal darajada tiklashga tayyor bo‘lgan bemor uchun eng keraklidir. Mamlakatimizda tibbiy turizmni yanada rivojlanish uchun uni alohida keng qamrovli tarmoq sifatida shakllantirish lozim. Ya‘ni bu sohaga ko‘proq tibbiyot vakillarini va tibbiyot oliygohlarini ham jalb etish darkor. Tibbiyot uzluksiz rivojlanayotgan, shuningdek inson manfaatlari har qanday davrda ham yetakchi o‘rinda turadigan soha hisoblanadi. Shu jihatdan boshqa soha vakillariga qaraganda ko‘proq bilim, ko‘proq malaka, ko‘nikma va albatta alohida e‘tibor talab etadi.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi vaqtda tibbiy xizmatlarning global bozori o‘z infratuzilmasi (tibbiy boshqaruv, akkreditatsiya organlari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar, tibbiy sayohatlar bo‘yicha mutaxassislar) bilan allaqachon shakllangan. Moliyaviy inqiroz sharoitida ham tibbiy turizm rivojlanmoqda va milliy sog‘liqni saqlash tizimlariga va sug‘urta kompaniyalari faoliyatiga tobora kuchayib borayotgan ta‘sir ko‘rsatmoqda, ular borgan sari mijozlarning xorijiy klinikalarda davolanishi uchun haq to‘lashni afzal ko‘rmoqda. Jahon iqtisodiy raqobati sharoitida tibbiy turizm fenomeni tibbiyotni zamonaviy texnologiyalar va bemorlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash orqali jadal rivojlanishga majbur qilmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asosan O‘zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud va shu bilan birgalikda yanada boyib borayotgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tibbiy jihozlar va jahonning eng sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatayotgan xorij davlatlarida o‘z malakalarini oshirayotgan malakali kadrlar asos bo‘la oladi.

Tibbiy turizmni rivojlantirishda xorij mamlaktlar modellarini o‘rgangan holda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- viloyatlarda tibbiy turizm faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar o‘rtasida hamkorlikni amalga oshirish;

- tibbiy turizmni amalga oshirish uchun yangi marshrutlarni yaratish;

- tibbiyot uyushmalari va turagentliklar faoliyatini jipslashtirish;

- mintaqaga kelgan turistlarni davolanish uchun yetarlicha imkoniyatlar borligini ularga yetkazish xususan, tabiiy giyohlar, sho‘r ko‘llarda va xalq tabobati orqali davolanish imkoniyati mavjudligi bilan tanishtirish; ‘

- xalq tabobati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar yonida mehmon uylarini shakllantirish va aholini ish bilan taminlash kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

Taklifim aynan tibbiy turizmning yangi tarmog‘i sifatida talabalarning bilimini oshirish, shifokorlarning malakasini oshirishga qaratilgan “exchange program in medical tourism” ni ishlab chiqish. Bundan maqsad tibbiyot vakillarining tibbiyot olamida dunyoqarashini, bilimini kengaytirish; zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda tadbiq etish; xalqaro munosabatlarni mustahkamlash; turizmning boshqa tarmoqlari bilan xorijiy tibbiyot vakillarini tanishtirish; madaniy hordiqni tashkil etish; shuningdek vatanga muhabbat kabi samimiy tuyg‘ularni singdirishdan iborat. Qolaversa, bugungi tahlikali davrda bu dasturning onlayn formasini joriy etish butun dunyo talabalarini, tibbiyot vakillarini birlashtirishga imkon yaratadi shuningdek, dasturning keyingi bosqichi uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

Bu esa o‘z navbatida nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo uchun ham tibbiyotning yangi qirralarini ochishda turtki bo‘ladi. Shuningdek, turli jarrohlik amaliyotini chet elda o‘tkazish uchun ketayotgan vatandoshlarimizning soni ham kamaysa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bookman, M. & Bookman, K. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.

2. Щекин Г.Ю. Концептуализация феномена медицинского туризма в социологии медицины: диссертация ... доктора социологических наук: / Щекин Геннадий Юрьевич; спец. 14.02.05 [Место защиты: Волгоградский государственный медицинский университет]. – Волгоград, 2013. – 309 с.

3. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 8-11.

4. Шоҳрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Юсупов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Academic research in educational sciences*, 3 (2), 617-629.
5. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 265–267. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.431>
6. Nazrullaevna, M. G. (2021). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 640-645.
7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.
8. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 182–187. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/67>
9. Umarov, O. (2023). MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA). *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8, 78-80.
10. Yuldasheva Nilufarxon A‘zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
11. Turanboyev, B., & Musabekov, S. (2023). Digital Transformation of Tax Systems. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).
12. Mampurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
13. Mampurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 344-345.

O‘ZBEKISTONDA GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH**Umarov Omonjon**

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

Nuriddinova Muhayyo

Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gastronomik turizm va uning O‘zbekistonda rivojlantirishda olib borilayotgan sa‘y harakatlar haqida ma‘lumot beriladi

Kalit so‘zlar: gastronomik turizm, sayyohlar, Gurmanlar, bozor iqtisodiyoti Gastronomik turizm, yoki oshxona turizmi, turizmning asosiy turlaridan biri bo‘lib, asosiy maqsadi, sayyohlarning ma‘lum bir mamlakatga, sayohat qilishi asnosida, o‘sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan ham, yaqindan tanishishidir. Gastronomik sayyoh, birinchi navbatda, madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an‘anaviy taomlarni, tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini, ko‘rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining, tarixini, iqtisodiyotini, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e‘tiqodlarini o‘rganadi. Gastronomik turizm sohasi 2 turga bo‘linadi. Qishloq va shahar gastronomik turizmlari. Qishloq gastronomik turizmida turistlar sayohat qilayotgan davlatning ekologik toza mahsulotlarini yig‘ib olish va qadoqlash jarayonini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va ta‘tib ko‘rish uchun borishadi. Shahar gastronomik turizmi esa mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan korxonalar milliy taom tayyorlaydigan ovqatlanish shahobchalariga va oziq ovqat do‘konlariga boshqa obyektlarga tashrif buyurib ularni o‘rganish, tatib ko‘rish uchun tashrif buyurishadi. O‘zbek oshxonalarida ko‘proq qo‘y go‘sh tidan foydalanish mol va ot go‘sh tida qaraganda kamroq qo‘llaniladi. Cho‘chqa go‘sh tidan Islom dini an‘analariga binoan taomlarda qo‘llanilmaydi. Bizning oshxonalarimizda eng mashhur taomlardan palov, manti, do‘lma, hasip, tandir nondir. Shu bilan birga respublikamizning har bir viloyati o‘zining milliy taomlari bilan mashxur. Masalan Samarqand nonlari G‘ijduvon kaboblari Jizzax somsarlari Toshkent norini shu kabilarni misol qilish mumkin.

Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi turizm sohasidagi jamoat tashkilotlari faoliyatiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Xususan, o‘tgan yili Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Uyushmamizning faoliyatini institutsional qo‘llab-quvvatlab, amaliy yordam bermoqda. Jumladan, Qo‘mita ko‘magida mamlakatimiz gastronomik turizmini rivojlantirish va ommalashtirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirmoqdamiz. O‘tgan yili avgust oyida Turkiyada bo‘lib o‘tgan 33-Xalqaro “Mengen” festivalida, 13 ta davlat, jumladan, Germaniya, Niderlandiya, Kipr, Ozarbayjon, Malayziya, Ukraina, Egit, Bosniya va Gertsegovina, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar qatorida “O‘zbekiston” milliy oshxonasi stendi tashkil etildi va musobaqada 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi.

Ayni vaqtda uyushma O‘zbekistonga tashrif buyurgan mehmonlarga o‘zbek milliy taomlarini tayyorlash jarayonini namoyish etish va master-klasslar o‘tkazishni yo‘lga qo‘ymoqda. Jumladan, yaqinda amerikadan kelgan bir guruh sayyohlarga o‘zbek milliy taomlarini tayyorlash bo‘yicha master-klass o‘tkazildi. Shuningdek, Amerikalik mashhur bloger Sonni Sadga mahalliy

baliqlarimizdan turli taomlar tayyorlash sirlari o‘rgatildi. Germaniyalik ekspert Gans Karl Madelung O‘zbekistonga tashrifi davomida Toshkent restoranlarida bo‘lib, o‘z mulohazalarini yozib qoldirdi.

– Sezishimcha, sizlarda oshxonaning jihozlanishidan ko‘ra restoranning tashqi va ichki dizayniga ko‘proq ahamiyat qaratishar ekan, – deydi sayyohlardan biri. – Faqat yaxshi sharoitdagina a‘lo darajali, mazali taom pishirish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, Toshkent restoranlari jahon andozalariga uncha mos kelmas ekan. Ammo aminmanki, vaqti bilan bu nuqsonlar bartaraf etiladi.

Tuzilganiga ko‘p bo‘lmagan O‘zbekiston Gastronomik Turizmi Assotsiatsiyasi o‘z oldiga mamlakatimizning jahon gastronomik turizmi bozoridan munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘shish, jahon miqyosida keng ommalashgan gastronomik sayyohlik infratuzilmalarini yaratish, O‘zbekiston Gastronomik turizmining konsepsiyasini ishlab chiqish, gastronomik turizm yo‘nalishida turli tadbirlar, jumladan, ko‘rgazma, festival, forum, seminar, ilmiy anjuman, davra suhbat, tanlov va shu kabi boshqa tadbirlarni tashkil etishni maqsad qilib qo‘ygan.

Gastronomik turizmni rivojlantirish uchun Respublikamizda barcha imkoniyatlar yetarli, milliy va qadimiy oshxonamizning rang-barangligi sayyohlarni o‘ziga jalb eta oladi. Biroq xizmat ko‘rsatish sohasi borasida oqsash ko‘zga tashlanadi. Shu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etsak, mazkur sohada muvaffaqiyatga erisha olamiz. O‘tgan yili o‘tkazilgan osh marafoni gastronomiyamizni rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Milliy taomimiz bo‘lmish osh 5 tonnani tashkil qilgan deyarli hammasi aholiga chet eldan kelgan mehmonlarga tarqatilgan.

Fond mablag‘lari asosida O‘zbekistonning gastronomik jozibasini targ‘ib etuvchi “gastrotourism.uz” sayti yaratildi. Sayt dizayni va kontentlari to‘ldirildi. Saytda xorijlik sayyohlar uchun O‘zbekistonga tashrif chog‘ida tatib ko‘rish kerak bo‘lgan brend taomlar haqida o‘zbek, ingliz va rus tillarida ma‘lumotlar kiritildi. Sayt targ‘ibotiga bag‘ishlangan 33 ta info-javon va O‘zbekiston Gastronomik turizmi targ‘ibotiga oid bukletlar tayyorlandi hamda Qoraqalpog‘iston turizm departamenti bilan Nukus xalqaro aeroportida joylashgan “Turistik axborot markazi”, I.V.Saviskiy nomidagi davlat san‘at muzeyi, “Tashkent” va “Jipek joli” mehmonxonalari, O‘zbekiston Mehmonxonalari assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda Toshkent shahridagi Residence park hotel Tashkent, Tourist Inn Hotel, Corner Hotel Tashkent, Sayyoh Hotel mehmonxonalarning mehmon kutish joylari (resepshn)ga joylashtirildi.

O‘zbekiston gastronomik turizmi assotsiatsiyasi tomonidan Shahrisabz shahrida “Gastromahalla” loyihasining taqdimoti yuzasidan seminar-trening tashkil etildi. Unda mehmonxona, restoran va mehmon uylari egalariga loyihaning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari tushuntirildi. So‘nggi yillarda umumiy ovqatlanish sohasi qiyin kunlarni boshdan kechirdi. Restoran biznesi o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashishga, yangi ish usullarini izlashga majbur bo‘lmoqda.

Gastronomiyani rivojlantirishda asosiy rolni menimcha festivallar seminarlar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan 2022-yil 21-may kuni yurtimizda “Yil restorani-2022” bo‘lib o‘tdi. Bu festival gastronomiyamizni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat. Bu festivalda 1-o‘rinni “Majnunol” Qahqadaryo viloyati 2-o‘rin” Qirq chinor” Navoiy va “Zamin” Namangan 3-o‘rin “Anjir” Toshkent viloyatlari bo‘ldi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish turistlarga xizmat ko‘rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar va restoranlar, barlar qurilishi uchun kata mablag‘ ajratilmoqda. Bunday suratda turizmni rivojlanitirish albatta umumiy ovqatlanishni ham rivojlantirishni taqazo etadi. Chunki barcha turistlar goh ichki goh tashqi turist bo‘lsin bundan qat‘i nazar restoran xo‘jaligiga yoki ovqatlanish tarmog‘idan foydalanishga majbur. Aks holda inson ovqatlanish uchun barcha mahsulotlarni o‘zlari bilan olib yurishi kerak yoki uy sharoitlarida tayyorlab iste‘mol qilishlari kerak bo‘ladi. Ammo turistlarda bunday imkoniyatlar yo‘q, shuning uchun ham ular ovqatlanishj xizmatidan foydalanishga majburdir va mana shu holatlarning mavjud bo‘lishi turizm umumiy ovqatlanishni uyg‘un holda rivojlantirishi uchun imkon beradi. Gastronomik turizm sohasida yana bir gurmanlar degan tushuncha bor. Gurmanlar bu yangi ta‘mni kashf etuvchilar yani sayohat davomida mazali ovqatlarni ta‘tib ko‘ruvchilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Georgică Gheorghe, Petronela Tudorache, Puiu Nistoreanu – “Gastronomic Tourism, A New Trend For Contemporary Tourism?” - Cactus Tourism Journal Vol. 9, Issue 1/2014, Pages 12-21,
2. Ashleigh Ellisa, Eerang Parkb, Sangkyun Kim, Ian Yeoman - What is food tourism? – Journal Tourism Management 68 (2018), page 250-263.
3. MUQADDAS MO‘MINOVA – “OVQAT TAYYORLASH JARAYONI” Toshkent 2006
4. Xursanaliyev, B. (2023). KICHIK VA YIRIK BIZNESNI BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 28-30.
5. Rasulov Hamidjon Yakubovich. (2023). QABUL QILINGAN TA‘LIM SIFATINING TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK TALABALARINING KASB TANLASHIGA TA‘SIRI: AKADEMIK SAMARADORLIKNING VOSITACHILIK TA‘SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8(8), 62–65. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.805>
6. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSİYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>
7. Khurshid Gafurov. (2021). Economic Performance of Kazakhstan and Uzbekistan Since Independence: Impacts of Selected Economic Policies and Institutions. *Conference paper: Uzbekistan on The Way to Third Renaissance: Harmony of Ethnocultural, Historical and Economic Aspects*. «Innovatsion rivojlanish nashryoti. <https://doi.org/10.54613/001069>
8. Nazrullaevna, M. G. (2021). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 640-645.
9. Юсупов А.А. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ НА СУБЪЕКТАХ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107).

URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnoe-ispolzovanie-chelovecheskih-resursov-na-subektah-malogo-predprinimatelstva> (дата обращения: 08.01.2024).

10. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 216-219.
11. Umarov, O. (2023). O‘ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 234-236.
12. Yuldasheva Nilufarxon A‘zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
13. Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 37(1), 145-150.
14. Musabekov, S. (2023). O‘ZBEKISTON XUDUDIDA FAOILIYAT OLIB BORAYOTGAN XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR DUCH KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(7), 17-20.
15. Mampurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
16. Mampurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH**Umarov Omonjon**

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

Iltomjonova Malohatxon

Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning zamonaviy usullari, ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari va ekoturizmni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad haqida tushuncha beriladi hamda xulosa muallif tomonidan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, qo‘riqxonalar, kurortlar, ekologik barqarorlik.

Tabiat quchog‘iga sayohat qilishni tashkillashtirish to‘g‘risida fikr yuritganda, ko‘pincha “ekoturizm” atamasi tilga olinadi. Aslida ekoturizm, bir tomondan, turistik bozorda jadal o‘shirib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomondan esa insoning tabiatga ijobiy ta‘siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, faqat g‘oyagina emas, balki, umumiy turizmning aniq turi, hisoblanadi. Uning atrof-muhitga ta‘siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo‘lishi mumkin. “Ekoturizm” qo‘riqxonalar hududlari va tabiiy bog‘larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo‘llanilmoqda. Bu sayyohat turining dunyo miqyosida jadal o‘shirishiga sabab faqat atrof-muhitning ahvoli yomonlashishiga emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar–tog‘ bag‘ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg‘oqlari, tekisliklar va o‘rmonzorlar borgan sari ko‘proq o‘zlashtirilayotganligi hamdir.

Ekoturizm (ekoturizm, yashil turizm) - antropogen ta‘sirga nisbatan ta‘sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shakli hisoblanadi.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- jahon turistik xizmat bozorida O‘zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potentsiali va resurslarini namoyish qilish;
- hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag‘batlantirish;
- turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish;
- O‘zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadal oshirish;
- istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish;

Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun tabiatdan turistik yo‘nalishda oqilona foydalanishdir. Demak, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida ekoturizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash, rivojlanish parametrlarini tahlil qilib, uni respublikamiz turizmiga tatbiq etish, ekoturizm faoliyati bozorini tashkil qilish hamda uning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga molik. Sohada yechimini kutayotgan dolzarb muammolar ko‘p. Ularni chuqur

o‘rganish, ilmiy tahlil qilish orqali olingan xulosalar hamda sohada to‘plangan bilimlarni umumlashtirishga doir takliflar kiritish zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishda ekoturizm rolini oshirish kerak. O‘zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalari tomonidan “Toshkent-Chorvoq-Toshkent”, “Toshkent-Bildirsoy-Chimyon-Toshkent”, “Toshkent-Zomin-Toshkent”, “Toshkent-Aydarko‘l-Toshkent” kabi marshrutlarda o‘tkazilgan ekoturlar, cho‘l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e‘tibor va e‘tiroflariga sazovor bo‘lmoqda. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda ekoturizmning ilmiy va metodologik asoslarini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi, ilmiy va o‘quv adabiyotlar nashr qilindi. An‘anaviy ustoz-shogird tizimida ekoturizm va o‘lkashunoslikning nazariy jihatlarini o‘rganildi. Ammo, bu boradagi tahlillar ekoturizm yo‘nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan, zurur bo‘lganda birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Sababi, tarixiy turizm, diniy turizm, tibbiyot turizmi, madaniy turizm kabi turizm turlari asosan shahar joylarda, turistik infrastruktura va servis obektlari yetarli joylarda o‘tkazilsa, ekoturlar asosan tabiat qo‘ynida va geotizimlarda olib boriladi, aksariyat ekoturlar ekstremalligi bilan xarakterlanadi. O‘zbekistonda o‘ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo‘lgan speleoturizm (g‘or turizmi) katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O‘zbekistonda 500dan ortiq g‘orlar bo‘lib, ma‘lumotlarga ko‘ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo‘lmaganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti. O‘zbekiston cho‘llari va tekislik hududlarida barxan, dyuna, to‘qay, sho‘rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek mahalliy cho‘ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o‘tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuya sayrini tashkil etish katta imkoniyatlarga ega.

Xulosa qilib aytishimiz mumkin ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tamoyillar yotadi. Ular bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otida, suvda, tog‘da, sayr va hokazo), talabalar 11 ta‘tillari, ornetologik turlar, ilmiy turlar va ekspeditsiyalar, dam olish ekskursiyalari, bolalar dam olish maskanlari va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Ekoturizmga bo‘lgan qiziqish haqiqiy turistik tajribaga hamda tabiatni qo‘riqlashga talab oshib borayotgani tufayli paydo bo‘ldi. Yuqorida berilgan ta‘riflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, fikrimcha, ekoturizm – bu, turizmning tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan moslashadigan hamda tabiatning tabiiy muhitda uyg‘unlashuvini targ‘ib qiladigan va mahalliy aholining turmush tarzini o‘zgartiruvchi maxsus sohasidir. Ekoturizmni rivojlantirishga sabab bo‘ladigan asosiy omillar tabiatga sayyohat va uni muhofaza qilishni o‘zaro birlashtiradi hamda shu tariqa atrofmuhit himoyasining iqtisodiy rag‘bati bo‘lib xizmat qiladi. Yana bir afzalligi shundaki, u yovvoyi tabiat bilan jamiyatning turli-tuman madaniy qadriyatlari orasidagi munosabatni yaxshiroq tushunish hamda bu haqda ko‘proq axborotlar olish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatulla Xaitboyev – “Ekologik turizm” Toshkent – 2018
2. Hamidov O.H., Norchaev A.N. – “Ekoturizm” Darslik Toshkent-2011
3. [Marufdjan Usmanov](#) – “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishning ba’zi masalalari” Samarqand-2019
4. E. Mahkamov D. Karimqulova – “Ekoturistik marshrutlar va ularni ishlab chiqish usullari”
5. Boburmirzo, X., & Abbosxon, Y. (2022, March). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING RIVOJLANISH TAHLILI. In E Conference Zone (pp. 168-170).
6. Ruziev, S., Rasulov, H., & Yusupov, A. (2022). MEHMONDO‘STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSHQARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(2), 156-173.
7. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN’S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 265–267. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.431>
8. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O‘RNI. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(1), 156–167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>
9. Farkhod, M., Azadkhon, K., Gulkhon, M., & Oybek, A. (2020). Advantages of the transition to a digital economy in the innovative development of Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1226-1232.
10. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.
11. Aliyevich, Y. A. (2023). O ‘ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 76-78.
12. Omonjon, U. (2023). ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 249-250.
13. Yuldasheva Nilufarxon A‘zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
14. Qodirjon o‘g‘li, B. T., & Nazarali o‘g‘li, M. S. (2023). FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8, 32-35.
15. Mamurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.
16. Mamurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O‘RNI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 344-345.

DIGITAL ECONOMIC INFRASTRUCTURE

Umurzakova Kommuna Khursanovna

Teacher at the Department of Education, Kokand University

umurzakovakommunahon@gmail.com

Annotation: This article discusses the infrastructure of the digital economy, its components and their security.

Keywords: Infrastructure, digital economy, platform, trends, technology, security,

The world's largest companies have long been using a variety of information technologies. However, the introduction of any platform does not yet digitalize business. What is the difference between a simple technology platform and a digital economy platform? First, digital economy platforms are designed to create the most convenient interactions for many participants in a network or industry. It is difficult to give an example of a fully-fledged public platform today, but the future is behind such solutions. While **Google, Facebook, Apple, Amazon and Alibaba Group** are the closest to fully implementing this idea, many large companies are planning to create such platforms in the near future. Second, and more importantly, digital economy platforms need to fully automate end-to-end business processes. The full platform of the digital economy should consist of three parts: the consumer ecosystem, the producer ecosystem, and the communication core. The function of the consumer ecosystem is to meet all the needs and wants of the user of the platform, to ensure its convenience and functionality. The manufacturer's ecosystem function is to provide ancillary functions that facilitate business and reduce access thresholds. The core of the platform also provides functionality for consumer-manufacturer interactions, providing the necessary technological base and infrastructure needs.

All the basic economic laws and metrics (including gross domestic product) were expressed and introduced in the first half of the XIX-XX centuries, well describing the real sector (manufacturing economy). Since the second half of the twentieth century, the sector of intangible production and services has developed significantly and has become a major sector of the economy. There are several sustainable trends in our world that can help us form the necessary basis for an updated economic theory:

- ☒ information becomes a commodity;
- ☒ information has value;
- ☒ digital money does not have an issue center;
- ☒ Many types of digital currencies have begun to emerge and are replacing traditional currencies;
- All data is stored in distributed databases and blockchains;
- Certain groups of people or companies own the absolute wealth of society;
- Robots have artificial intelligence and are becoming human competitors;
- The role of the intellect in society is growing at an unprecedented rate;
- the virtual world begins to penetrate boldly and actively into all spheres of society;
- products and services are sold in the virtual world and in virtual form;

- the process of globalization is developing at an unprecedented rate;
- As a result of the implementation of the digital economy, the gap between different countries and people will increase;
- individual countries and races began to become the dominant category;
- Community welfare is linked to total energy consumption;
- the importance of material wealth decreases significantly;
- Social status is squeezed out by social prestige and so on.

The development of economies towards a new digital economy requires the expansion of theoretical research and debate in this area. The practical programmatic efforts of the supreme governing bodies to create a techno-digital platform for the development of the national economy can also make a significant contribution to the transition to a new economy. The essence of the digital economy is reflected in the revolutionary changes in digital technologies, the modernization of the Internet and the "digitization" of its aspects. For example, the emergence of innovations such as computerization of industrial design and modeling of design readiness in production facilitates the design of products of high complexity, such as machine tools, automobiles, trains, aircraft, buildings, etc., and significantly shortens the work cycle. The emergence and implementation of new digital technologies (manufacturing, financial, management, social, etc.) in our country can lead to a large number of positive effects and results for the national economy:

- increase in labor productivity;
- increase in capitalization;
- improving quality of life;
- formation of new markets;
- increase the efficiency of utilization of resources (assets, capital, powers);
- increased competitiveness;
- increased security;
- increase in the welfare of the people.

So far, as the process of globalization is not over, all of the above results will lead to the fact that the country that first adopts the new technology will gain the upper hand in international markets, and this will lead to the next "market segmentation". will bring. From the point of view of a particular country, this can really be interpreted as economic growth based on the introduction of new technologies. However, the growth of the world economy is limited to the "additional" capitalization of the introduced technology (excluding the capitalization of the squeezed technology). To be honest, it must be acknowledged that if they once again increase the sales potential no technology and the digital economy can bring the extensive development model back to life if they are not ready to push. In this regard, it must be acknowledged that the development of the digital economy and technology can not be a catastrophe for Uzbekistan or the world. It is a necessary measure for each country to remain competitive, reconsider the parity of shares in the world economy and preserve sovereignty. Many experts and economists at home and abroad today are trying to give a definitive description and understanding of the current state of development of the new economy, including one of its manifestations - the digital economy. Many researchers try to understand this phenomenon through the prism of subjective attitudes, from the general-

objective and subjective point of view inherent in modern economics. Objectively, this is due to the emergence of new aspects, aspects, signs, trends and laws in the modern economy. The study and accounting of new economic phenomena, in particular, the separation of the digital economy as a relatively independent part of the new economy, is of great interest, as improving the quality and speed of economic management, amendments to business rules and legal framework, digital technology - the economy of impressions. MICE-industry allows you to create innovative products, services and services based on Smart-city and so on. With a strong focus on analyzing new trends and events in the economy, as well as the work of American researchers such as Nicholas Negroponte, Chris Meyer, Mohanbir Sawhney, Daniel Spulber, Don Tapscott, Steve Jurvetson, Patricia Seybold, the authors , "Economy 2000", "Internet Economy", "Net Economy", "Web Economy", "Digital Economy", "Electronic Commerce" (E-economy, E-business), "Intangible Economy", " It is worth noting that it tends to describe new aspects of the modern economy, using terms such as "non-commodity economy." These terms often refer to new phenomena in the economy based on the formation of the global electronic network, the global spread of personal computers, the creation and continuous improvement of software, the development of information technology and digital technologies, the production of intangible products and services of IT companies used as a synonym in the review. Based on the results of existing research in this area, the following definition of the subject area of digital economy can be proposed: "Digital economy is a technologically advanced form of existence, in which economic relations for the production, distribution, exchange and consumption of goods and services are systematic is the sum. The techno-digital nature of economic relations is a key feature that distinguishes the digital economy from others. Thus, if the new economy is a legitimate form of post-industrial economy, the digital economy is an evolutionary form of the new economy. Thus, as a 'form of form', the digital economy has not only a set of features of the new economy, but also a number of distinguishing features that characterize the qualitative accuracy of the digital economy.

Along with the emergence of new laws and trends that have no place in the industrial economy, it focuses on the new content of traditional economic rules, which manifests itself in a new way in relation and harmony with digital technologies. Under the influence of scientific and technological progress and economic development, significant changes are taking place in the rules of the market economy, in the rules of doing business, in the new manifestations of traditional economic rules and regulations.

For example, the emergence and development of electronic networks, computers and software products, digital technologies, electronic products and services in the new economy will radically change the content, proportions and importance of the following concepts: tangible (intangible) and intangible (non-intangible)), geographical distance, time and space, consumption value (utility) time, quality and quantity, competition and consumer preference (advantage), intermediation and logistics, human capital and business ethics, transactions and efficiency evaluation, buyer and seller behavior, new relationships between consumers and producers, marketing technologies, and sales. It is obvious that in developed countries, especially in the United States, with the rapid development of Internet companies and Internet firms, a new market of Internet services, products, services, providers, etc. will be formed, which will penetrate into all

sectors of the economy and change the whole economy. Therefore, in our opinion, the Internet economy and the digital economy in the narrow sense - as a set of relationships between Internet companies and firms on the creation and use of digital technologies, products and services, and in the broad sense - mainly the third, fourth It is expedient to distinguish the new economy as the economy of enterprises of any industry operating in the global electronic network environment, which has a number of distinctive features compared to the "industrial" economy, which corresponds to the technological system.

Therefore, the study of the problems of the digital economy is different from the point of view of economics: the practical transformation of management systems from digital government to smart models of various objects (urban, traffic, home, apartment, car, etc.) is also relevant in terms of. It should also be noted that the most important aspect of the digitalization of social life is the problem of economic and computer security, which is becoming increasingly important around the world with the formation and development of the digital economy.

References:

1. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. "Digital Currency Market: Innovation and Development Prospects". -Tashkent: "Science and Technology" Publishing House, 2018, page 99.
2. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. "Innovative directions of development in small business and entrepreneurship". - Tashkent: Science and Technology Publishing House, 2018, 201 pages.
3. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva "Blockchain Technologies in the Digital Economy" Tashkent 2019 pp. 101-107
4. Aniq.uz
5. Umurzakova, K. K. (2022). Russian language: Yesterday, today and tomorrow.
